

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTONDA YER-SUV
MUNOSABATLAR TARIXI**

(QADIMGI DAVRDAN HOZIRGI KUNGA QADAR)



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

**NAZIROV BAXTIYOR SAFAROVICH
YAQUBOVA DILOROM TADJIYEVNA**

**O‘ZBEKISTONDA YER-SUV MUNOSABATLARI
TARIXI**

(qadimgi davrdan hozirgi kunga qadar)

(darslik)

“Bekshox print servis” nashriyoti
Termiz – 2023

UDK: 9:908
X 68.3

Nazirov Baxtiyor Safarovich, Yaqubova Dilorom Tadjiyevna,
O‘zbekistonda yer-suv munosabatlari tarixi (qadimgi davrdan hozirgi kungacha). Darslik – “Bekshox print servis” nashriyoti. – Termiz: 2023. – 537 bet.

Oliy o‘quv yurtlari tarix yo‘nalishi magistratura talabalari uchun mo‘ljallangan ushbu “O‘zbekistonda yer-suv munosabatlari tarixi” darsligi mamlakatimizning eng qadimgi davrdan hozirgi kunga qadar bo‘lgan davrdagi yer-suv munosabatlari tarixini qamrab olgan. Mazkur darslik mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlarning umume’tirof etilgan natijalari bilan boyitilganligi, fan bo‘yicha innovatsiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etilganligi bilan ilgarigi o‘quv adabiyotlaridan farq qiladi.

Taqrizchilar: *t.f.d. S.N.Tursunov – Termiz davlat universiteti professori*
t.f.d. Sh.S.G‘afforovich – Samarqand davlat universiteti professori.

Darslik O‘zbekiston respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. (2023 yil 27-martdagi 68-sonli buyruq)



“Bekshox print servis” nashriyoti, 2023

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasida juda qadimdan boshlab yer-suv munosabatlari eng ustivor masalalar bo‘lib keldi va hozirgacha shunday bo‘lib qolmoqda. Chunki O‘zbekiston aholisining 60%(oltmish foiz)dan ortig‘i qishloqlarda yashaydi. O‘zbekistonda iste‘mol qilinadigan suvning yigirma foizigina qismigina O‘zbekiston daryolarida qolgan sakson foizi esa qo‘shni respublikalar hududidan O‘zbekiston hududiga kirib kelishining o‘zi O‘zbekistonda yer-suv munosabatlarining respublikada qanchalik muhim ekanligini isbotlaydi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab qabul qilingan me‘yoriy hujjatlarda, xususan, “Yer to‘g‘risida”gi (1990-yil 20-iyun) va boshqa qonunlarda, Prezident farmonlarida qishloq xo‘jaligidagi tub islohotlarning huquqiy asoslari yaratildi. Qishloqda bozor munosabatlarini rivojlantirish, dehqonning yerga egalik hissini qayta tiklash, yerni sotish va olishga yo‘l qo‘ymasdan, balki uni uzoq muddatlarga meros qilish huquqi bilan vaqtinchaga yoki umrbod foydalanishga berish masalalari bugungi kunda hal qilindi. O‘zbekistonda ko‘p ukladli iqtisodiyot vujudga keltirildi.

Mamlakatimizdagi qishloq xo‘jalik, yer va suv islohotlari hali tugagani yo‘q. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, yerga mulk sifatida qarash tizimlaridagi tartibga solish darajasi, sovet davridagi bilan solishtirganda, pasayib ketdi. Biroq, Markaziy Osiyo mamlakatlarida davlat ishlab chiqarish rejalari, yerni taqsimlash va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga narx qo‘yishda haligacha yetakchi rol o‘ynab kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 12-dekabr sanasida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xodimlariga yo‘llagan tabrigida “...Qishloq xo‘jaligi sohasida “oson” va “yengil” yilning o‘zi bo‘lmaydi. Tabiat injiqliklari, suv resurslarining cheklanganligi, turli hasharot va zararkunandalar bilan kurashish har bir dehqondan katta azm-u shijoat, mirishkorlik va tajribani talab etadi. Xalqimiz sizlarning ana shunday ibratli fazilatlaringizni yaxshi biladi

va yuksak qadrlaydi”¹ – deya ta’kidlagani yurtimizda agrar soha rivojiga alohida e’tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda zamonaviy bilimga ega yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirish, oliy ta’lim sifatini tubdan oshirish muhim ahamiyatga ega². Shu bois yoshlarimizni istiqlol g‘oyalari ruhida tarbiyalashga ko‘maklashadigan boy tariximizni, ma’naviy qadriyatlarimizni aks ettiradigan zamonaviy o‘quv qo‘llanma va darsliklar katta o‘rin tutadi. Bu borada O‘zbekistonda yer-suv munosabatlari tarixini o‘rganishga xolis, haqqoniy yondashib, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda, bu fanni o‘qitish uslubiyatini takomillashtirish o‘z dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Yurtimizda yuksak bilimli, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Ilm-fan taraqqiyotini ta’minlash borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va mazkur sohada erishilgan yutuqlar hozirgi kunda xalqaro hamjamiyat tomonidan haqli tarzda e’tirof etilmoqda. Shubhasiz, yangi avlod o‘quv adabiyotlari ham yuqorida ta’kidlangan mulohazalarga hamohang ravishda zamonaviy talablarga javob berishi darkor. Ta’lim tizimini sifat jihatidan takomillashuvi uchun, eng avvalo ilm-fan yangiliklarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish lozim.

O‘zbekistonda yer-suv munosabatlari tarixi fan dasturi (sillabusi) asosida 70220301-Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turi bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi magistratura bosqichi talabalari e’tiboriga havola etilayotgan mazkur darslik mamlakatimizning eng qadimgi davrdan hozirgi kunga qadar bo‘lgan davrdagi yer-suv munosabatlari tarixini qamrab oladi. Darslikni tayyorlash jarayonida yozma manbalar, arxiv materiallari va O‘zbekiston tarixining turli davrlariga oid so‘nggi ilmiy tadqiqotlar natijalaridan keng foydalanildi. Darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining “Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xodimlariga tabrigi. 2020 yil 12 dekabr.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. 2019-yil 8-oktabr.

tizimi uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi”da ilgari surilgan talablarga mos ravishda tayyorlangan.

Mazkur darslik oqrali kitobxon mamlakatimizda o‘tmishda va hozirgi kunda yer-suv munosabatlarida olib borilgan va olib borilayotgan islohotlarni o‘rganish va bu sohada erishilgan yutuqlar, muommolarni bilib olishingiz mumkin.

Har bir mavzuning boshida tayanch tushunchalar, oxirida esa savol va topshiriqlar berildi. Kitobning oxirida glossariy bayon etilgan.

1-mavzu: O‘zbekistonda dehqonchilik madaniyatining shakllanishi.

Reja

1.1-§. Qadimgi dehqonchilik madaniyatining shakllanishida suv va suv inshootlarining tarixiy o‘rni;

1.2-§. Qadimgi Sharq, jumladan, O‘rta Osiyoda dehqonchilik madaniyatining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari;

1.3-§. O‘zbekistonda dastlabki irrigatsiya tarmoqlarining vujudga kelishi;

1.4-§. O‘zbekistondagi eng qadimgi sug‘orma dehqonchilik hududlari.

Tayanch iboralar: *sivilizatsiya, ibtidoiy jamoa tuzumi, mehnat qurollari, ibtidoiy ziroatchilik, Mezolit, Neolit, Bronza o‘troq turmush tarzi, o‘zlashtiruvchi xo‘jalik, daryo va jilg‘alar, ishlab chiqaruvchi xo‘jalik, termachilik o‘troq hayot tarzi, matriarxat, patriarxat, korizlar, Oks, Yaksart.*

1.1-§. Qadimgi dehqonchilik madaniyatining shakllanishida suv va suv inshootlarining tarixiy o‘rni.

O‘rta Osiyoda shakllangan sug‘orma dehqonchilik eng qadimgi davrlarga borib taqalgan ilmiy mavzulardan biridir. Tarixiy ma’lumotlardan ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi hududida dehqonchilik tarixi kishilik jamiyatining eng boshlang‘ich davrlari hisoblangan so‘nggi paleolitga borib taqaladi va Matriarxat (ona urug‘i hukmronligi davri) tuzumining yemirilishi va Patriarxat (ota urug‘i hukmronligi davri) tuzumiga o‘tish bilan yangi bosqichga aylandi. Dehqonchilik kishilik jamiyatining inson bo‘lib shakllangan ilk davrlaridayoq xo‘jalikning birinchi muammolaridan edi. Tarixning ilk davrlaridan boshlab insoniyatning doimiy yashab qolishi uchun tabiiy sharoitlar Markaziy Osiyoda mavjud bo‘lgan.

Bunga, birinchidan, tog‘ va tog‘oldi pasttekisliklari, tog‘lardagi insonning birinchi makoni bo‘lgan g‘or va ung‘urlarning mavjudligi hamda ko‘pligi edi. Ikkinchidan, O‘rta Osiyo mintaqasi ekvator chizig‘iga yaqin joylashganligi bois quyoshning tik tushish holati ma’lum darajada ko‘proq. Bu esa ibtidoiy odamlarning yashashi uchun qulay geografik imkoniyatlarning mavjudligini ta’minladi. Boshqa manzillarga nisbatan ekvatorial issiqlik darajasi ancha yuqori

bo‘lib bu holat dehqonchilik ekinlarining to‘liq pishib yetilishi uchun zarur bo‘lgan tabiiy manbadir. Uchinchidan, mana shunday tabiiy iqlimning mavjudligi ham milodiy VIII - X (O‘g‘uzlar va Qarluqlarning kirib kelishi) va XV - XVI (Amir Temur va temuriylar davrida boshqa turkiy tilli xalqlar va ellatlarning kirib kelishi) asrlarga kelib Markaziy Osiyo aholisi tarkibidagi migratsiya jarayonining o‘shiga olib kelgan omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham O‘zbekistonning g‘arbiy qismi bo‘lgan Xorazm, janubiy qismi bo‘lgan Surxondaryo, markaziy qismi bo‘lgan Zarafshon vohasi hamda Sharqiy qismi bo‘lgan Farg‘ona vodiysidagi tabiiy kontinental mo‘tadil iqlim bu joylarda insoniyat ilk ajdodlarining muntazam yashab qolishiga sharoit yaratdi. Miloddan avvalgi 700-500-ming yilliklarga oid Farg‘ona vodiysidagi Seleng‘ur g‘oridan odam suyaklari qoldiqlarining topilishi esa ilk Paleolit davrida ham odamlar yashaganligidan dalolat beradi. Demak, bu joylarda odamlar yashar ekan, keyinchalik ular dehqonchilik madaniyati bilan ham shug‘ullanishga majbur bo‘lganligi tabiiy hodisadir. Yurtimizning eneolit va bronza davriga oid ko‘plab manzilgohlaridan topib o‘rganilgan qabrlarda inson jasadi bilan qo‘shib dafn etilgan moddiy ashyolar nafaqat diniy tasavvurlardan, balki sopol idishlarning mayit oldiga qo‘yilishi, bundan tashqari mazkur manzilgohlardan dehqonchilik mahsulotlari qoldiqlari (arpa, bug‘doy kabi) hamda qurollarining topilishi bu o‘z-o‘zidan dehqonchilik madaniyatining ma’lum ma’noda rivojlanganligidan ham darak beruvchi tarixiy - ilmiy isbotdir.

Bu davrga kelib ikkinchi mehnat taqsimoti vujudga keldi va dehqonlar o‘z kasblari bilan shug‘ullanishi uchun alohida uy-joylarni paxsa va mayda toshlardan uylar qurib alohida dehqonlar manzilgohlari, qishloqlarini shakllantira boshlaganlar. Masalan, Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanidan topilgan Zamonbobo manzilgohi ilk bronza davridan boshlangan bo‘lib, jami 50 gektarga yaqin yerni qamrab olgan dehqonlar manzilgohi (qishlog‘i) bo‘lgan deyishimizga asos mavjud. Bu holat esa chorvachilik kasbi bilan shug‘ullanuvchi toifalarning daryo bo‘ylariga kelib o‘troqlashishiga olib keldi.

Fikrimizning isboti uchun O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Akademigi, Yu.F.Buryakovning fikrini keltiramiz. (izoh:) *“O‘rta Osiyo dehqonchilik madaniyati rivojlanishida odamlar sug‘orma dehqonchilikning turli usullaridan foydalanib kelganlar. Bular birinchidan, daryolardan damba asosida suv yo‘lini to‘sib boshqa ariq yoki jar suvlarni burib yuborish bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchidan, alohida kanallar va anhorlar qazilgan hamda ulardan suv o‘tkazishgan. Uchinchidan, tog‘ va tog‘oldi hududlarida bo‘ladigan toshqin suvlardan ham foydalanishganlar. O‘zbekiston tarixining ilk o‘rta asrlar davriga kelib esa insoniyat uchun kerak bo‘ladigan dehqonchilik moddiy ne‘matlariga ehtiyoj kuchaydi. Shu ehtiyoj natijasida, kishilarning ayrim guruhlari boshqa suvsiz yoki suv manbalari kam bo‘lgan hududlarni ham o‘zlashtira boshlaganlar. O‘z navbatida tabiiy oqar suv manbalaridan to‘liq foydalanishning imkoniyati ham qiyinlashib borgan. Chunki, o‘sha davr holatidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, suv chiqarish texnikalari hali rivojlanmagan va taraqqiy etmagan bo‘lib daryolarni to‘sish ham o‘z navbatida juda katta kuch va energiyaning yo‘qotilishi evaziga bunyod etilgan”.*

Suvsiz joylardagi dehqonchilik madaniyati esa bundan ham mashaqqatli bo‘lib odamlar koriz, damba hamda hovuzlarni qurishni o‘ylab topganlar va undan foydalanishga majbur bo‘lganlar. O‘rta Osiyo hududidagi Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryosi haqida Yunon, Rim va Xitoy tarixchilari o‘z kundaliklari va yilnomalarida yozib qoldirganlar. Masalan, “Avesto” da Amudaryo - “*Ranxa*” yoki “*Aranxa*” nomi bilan atalib kelingan bo‘lsa, yunon tarixiy adabiyotlarida tarix otasi Gerodotning ma’lumotlariga asoslanib “*Araks*” degan nom bilan atab kelishganlar. Gerodotning “*Tarix*” kitobida keltirilishicha, *Araks* (Amudaryo) daryosi o‘zining o‘zani bo‘ylab to Kaspiy dengiziga quyilgunga qadar bosib o‘tadigan yo‘lida 360 ta kanalga ajralishi va 40 ta irmog‘i borligi va ulardan faqat bitta irmog‘i Kaspiy dengiziga quyilishi to‘g‘risida ma’lumot mavjud. Miloddan avvalgi 329-327 yillarda O‘rta Osiyoga Iskandar Zulqarnayn yurishi davrida, faqat bosqinchilik yurishlari qilmasdan dehqonchilik qilish mumkin bo‘lgan joylarda sug‘orma dehqonchilikni rivojlantirish, korizlar barpo etish kabi

ishlarini ham olib borganligi to'g'risida tarixiy ma'lumotlar guvohlik beradi. Masalan, suvsiz bo'lgan Nurota dashtlarini sug'orish uchun korizlar qazdirib u yerda lalmi va sug'orma dehqonchilik madaniyatini yuksaltirishga farmon berganligi hamda uning nomi bilan "Iskandar korizlari" yoki Zulqarnay qishlog'i nomi bilan hozirgi davrgacha nomlari saqlanib kelayotgan hududlar mavjud.


O'z-o'zidan ma'lumki, O'rta Osiyo tuproqlari, xususan, O'zbekiston hududidagi barcha yerlardagi dehqonchilik madaniyatida sug'orma dehqonchilik birinchi o'rinda turgan. Dasht va cho'l makonlaridagi quruq subtropik iqlim mintaqasiga xos bo'lgan joylardagi yerlarni sug'orish madaniyati milodiy eraning boshlanishi davrlariga borib taqaladi. Chunki, I-IV asrlardan boshlab O'rta Osiyo hududlariga kirib kelgan ko'chmanchi holda yashayotgan Kidariylar, Xioniylar, Eftaliylar va Buyuk Turk hoqonligi kabi davlatga asos solgan turkiy qabilalar asosan, dasht va tog'oldi mintaqalari atroflariga kelib o'rnashganlar. Ushbu davlatlar, ayniqsa, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm vohalarida yashayotgan xalqlar tarixiga oid yozma manbalarda va olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda sug'orishning tabiiy usullariga ko'ra tog'lik mintaqalarda tog'lardan keladigan soylar suvi bilan sug'orish asosida dehqonchilik qilishni mukammal holda o'zlashtirib olganlar. Masalan, bunday jarayonlar Nurota tizma tog'lari, Hisor, Morguzar, Turkiston, Boysun, Hisor kabi tog' va tog'oldi yonbag'irlarida yashovchi xalqlarning sug'orma dehqonchilik madaniyatlarida hozirgi paytlargacha saqlanib qolgan. Bu tog'lik aholilar soylarning birikish joylarida maxsus hovuzlar - suv yig'ilish inshootlarini tabiiy sharoitni hisobga olgan holda qurishgan. Suv inshootlarining qurilishida sel va boshqa tabiiy ofatlar hisobga olingan bo'lib, toshqin sellar kelgan paytlarda ham suvlar ushbu hovuzlarga kirmagan. Bunda dehqonchilik qilish mumkin bo'lgan yerlar o'lchami ham aniq hisobga olingan bo'lib, suv inshootlaridagi suv sig'imi ham o'lchangan. Hovuzlarning ikkita yoki bitta suv chiqarish joylari qo'yilgan. Birinchi suv chiqarish teshiklari asosan, dehqonchilik maydonlariga aniq o'lchamdagi suvni yo'naltirish bo'lgan bo'lsa, ikkinchi suv chiqarish teshiklari kattaroq holda qurilgan bo'lib, bordi-yu toshqin suvlar yoki sel kirib hovuzning buzilib ketishi

xavfini oldini olish maqsadida va hovuzlarning ichida to‘planib qolgan qum va loyqalarni chiqarib yuborish uchun xizmat qilgan. Ushbu suvlardan foydalanishning yana bir muhim tomoni ham borki, bitta hovuzdan (uzunligi 25 metr va kengligi 10 metr, chuqurligi 20 metrgacha bo‘lgan va hovuzga 60 m³ gacha hajmda suv sig‘imi jamlangan) odamlarning sug‘orma dehqonchilik yerlarining umumiy maydoni hisobga olinib, unga qancha suv kerakligi ma‘lum bo‘lgan va hovuzdan suvning bir soatdagi chiqish tezligi hisoblab chiqilgan. Bu holat miloddan avvalgi II ming yilliklarda joriy qilingan suv soatlarining kashf etilishiga o‘xshashdir. Ularda ham bir kunlik vaqt 12 soatga (bir sutka 24 soat) bo‘linib bir soatdagi suv chiqib ketsa, demak oraliqdagi vaqt bir soat deb qabul qilingan. Ushbu suv miqdori 3 soatda hovuzdan chiqishini hisobga oladigan bo‘lsa, bir soatda 20 m³ suv chiqqan va bir soatdagi suv bilan 1 ga, 3 soatdagi suv bilan esa 3 ga yer maydonini sug‘orish mumkin bo‘lgan. Ushbu suvlar faqat qishloq aholisi tomonidan tayinlangan mirob tomonidan qat‘iy tartibda aholining dehqonchilik maydonlari uchun taqsimlab kelingan. Bu ish qishloq oqsoqollari tomonidan nazorat qilib borilgan. Agar bu tartiblar mirob tomonidan buzilsa ayrim holatlarda qishloqlar aholisi o‘rtasida nizo chiqishiga sabab bo‘lgan.

Suv taqsimoti ayni yoz chillasidagi turkiy taqvimga asoslanib belgilab olingan. Javzo (21 maydan 21 iyungacha), Saraton (21 iyundan 21 iyulgacha), Asad (21 iyuldan 21 avgustdacha) oylarida bu hududlarda suvning kamayishi natijasida bir tomchi suv ham hisobga olingan. Ushbu hovuz va ariqlar o‘z navbatida har yili bir marta xalq hashari yo‘li bilan tozalanib turilgan va buzilgan joylari qaytadan ta‘mirlangan.


Bundan tashqari, tog‘ va tog‘oldi manzillarida ikkinchi suv ta‘minlash inshooti ham bo‘lganki, bular “*damba*” yoki “*band*” deb atalgan. Bu “*damba*”lar va “*band*”lar soylarning qo‘shiluvchi joylarida qurilgan. Bunday suv inshootlar asosan, tog‘lardan keladigan toshqin suvlar hisobiga to‘ldirilgan va yoz oylarida kishilarning dehqonchilik yerlarini sug‘orish uchun kerakli bo‘lgan ehtiyojlarini qondirgan. Ulardan tejab-tergab foydalanganlar. Ushbu suv inshootlari oddiy tuproq va ganch aralashmasidan tayyorlangan loy qorishmasi bilan ko‘tarilgan.

Bandlarning qurilishi esa, alohida loyihalar asosida olib borilgan. Avval band yoki dambaning chizmasi chizilib unda jamlanadigan suv sig‘imi va oddiy ko‘z bilan ko‘rinmaydigan suvning itaruvchi kuchi ham e‘tiborga olinib borilgan. Dambalarning orqa tomonlaridan maxsus gipsli loy bilan mustahkamlangan va uning suyanch kuchi qattiqlashtirilgan. Ushbu band yoki suv omboriga suv ostidan suv chiqarish quvurlari qo‘yib chiqilib maxsus loy aralashmasi tayyorlangan va bunda avval kvarts toshlar tegirmonlarda maydalanib, keyin uni gips bilan aralashtirilib damba yoki band devorlari qurilishiga ishlatilgan. Fikrimizning dalili uchun Nurota tizma tog‘ida joylashgan (manzil: Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumani Ergash Jumanbulbul QFY, Urganji MFYga qarashli Bozorjoy qishlog‘i) noyob suv inshooti misolida ko‘rishimiz mumkin.



X asrda barpo etilgan Xonbandi suv ombori³.

³ Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug‘orilish tarixi (Qadimgi davrdan – XX asr boshlarigacha). – T., 1972. – 304-bet



X asrda barpo etilgan Xonbandi suv omborining plani⁴

1.2-§. Qadimgi Sharq, jumladan O‘rta Osiyoda dehqonchilik madaniyatining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari.

Tosh davrining so‘nggi bosqichi — neolit (yangi tosh) davri (mil. avv. VI— IV ming yilliklar)ga kelib insonlarning hayotiy tajribalari birmuncha ortdi. Bunga qadar ular tabiatda yovvoyi holda yetishgan tayyor mahsulotlar hisobiga yashashgan bo‘lsa, endilikda ularni o‘zlari yetishtirishga, ya’ni ziroatchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanishga o‘tishdi. Ibtidoiy jamoa odamlari endi o‘zlarining to‘kinroq yashashlari uchun qulaylik yaratish va oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini muntazam qondirib borish maqsadida chorvachilik bilan bir qatorda dastlab ibtidoiy ziroatchilik, so‘ngra sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilikni ham o‘zlashtirganlar. Xo‘jalik yuritishning bu tarmog‘i dastlab, dunyoning Janubiy subtropik o‘lkalarning

⁴ Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug‘orilish tarixi (Qadimgi davrdan – XX asr boshlarigacha). – T., 1972. – 306-bet

azim daryolar tarmoqlarida, ularning havzalarida, tog'larning yonbag'irlarida va ko'llar bo'ylarida shakllandi. Bu davrda Yer yuzining yashash uchun tabiiy muhiti qulay bo'lgan janubiy-sharqiy hududlarida insonlar dehqonchilik madaniyatining dastlabki bosqichlarini o'zlashtirib olishib, o'zlarining ijtimoiy - iqtisodiy turmush sharoitlarini yaxshilashga harakat qila boshladilar. Odamlarning toshdan yasalgan mehnat qurollarini takomillashtirib borishlari va sopoldan uy-ro'zgor idishlari yasashni o'rganib olishlari, ularning moddiy turmush sharoitlarini yaxshilanishida muhim omil bo'ldi.

Sharqda insonlar dehqonchilik madaniyati, ibtidoiy xo'jalik yuritish tarmoqlari, moddiy va madaniy taraqqiyot omillarini G'arbga nisbatan ancha erta o'zlashtirib oldilar. Ayni paytda, shuni ham ta'kidlash lozimki, sharqliklar uzoq davom etgan hayotiy tajribalari asosida o'zgalarning yordamisiz o'zlariga xos madaniyat turlarini yaratgan bo'lsalar, yevropaliklar Sharq xalqlaridan xo'jalik yuritishning dastlabki tayyor madaniy namunalari o'zlashtirib oldilar va tez takomillashtirdilar.

Sharq qadimdan dehqonchilik madaniyatining dastlabki markazlaridan biri bo'lib kelgan. Jumladan, qadimgi Misr aholisi miloddan avvalgi VI ming yillikdayoq sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullana boshlagan. Arxeologlar tomonidan Quyi Misrning janubiy-g'arbiy va janubiy-sharqiy qismlari (Merimde, Al-Umar), Yuqori Misrning shimoliy qismi (Fayum) va janubiy qismi (Tasa va Badarining quyi qatlami) da qazib o'rganilgan neolit davri manzilgohlaridan don mahsulotlari (arpa, bug'doy) qoldiqlari va dehqonlarning oddiy ish qurollari topilgan⁵. Tasiylar va badariylar shimolliklardan farq qilib, o'zlarining manzilgohlari va yaylovlarini o'zgartirib turishgan. Ular muntazam yangi yerlarni o'zlashtirib borishgan.

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi boshqa joylarga nisbatan ilgariroq boshlangan Nil vodiysida odamlar eneolit davri (miloddan avvalgi V ming yillik oxiri — IV ming yillik) da neolit davriga nisbatan sezilarli taraqqiyotga erishdilar. Toshdan yasalgan mehnat qurollarining texnik jihatdan

⁵ Kultura Drevnogo Yegipita. — M.: «Nauka», 1976. —S.45.

yanada mukammallashishi va metall (mis) dan yasalgan ish qurollarining paydo bo'lishi yerga ishlov berish, yangi yerlar ochish uchun daraxt va toshlardan ko'plab omoch, bolta, o'roqlar kabi mehnat qurollari yasashga imkon berdi. Yangi ish qurollarining paydo bo'lishi mehnat unumdorligini oshirishga, insonlarning doimiy o'troq turmush tarziga o'tib, sug'orma dehqonchilik madaniyatini o'zlashtirib olishlariga zarur sharoit yaratdi.

So'nggi neolit davrida Old Osiyo mamlakatlari hududlarida ham dastlabki qishloqlar paydo bo'lgan. O'sha davr odamlari Mesopotamiyaning o'rta qismidagi tog'lar yaqinida joylashgan tabiiy tepaliklar ustiga uy-joylar qurishgan. Ular yaqin - atrofdagi botqoqliklarni quritishib donli ekinlar ekishgan. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, dastlab bu jarayonlar sodir bo'lgan o'rta va janubiy Mesopotamiya hududlaridan topilgan arxaik davr yodgorliklarini uch madaniy davrga: Shumerda Al-Ubayd; Uruk; Akkadda Jemdet-Nasr (Kish yaqinida) madaniyatlariga bo'lingan⁶.

Janubiy Mesopotamiyada topilgan dastlabki qishloq Al -Ubayd yaqinida (Ur oldida)gi daryo orolchasida joylashgan. Bu qishloq aholisi ovchilik va baliqchilikdan asta-sekin xo'jalik yuritishning yangi shakllari — chorvachilik va dehqonchilikka o'ta boshlaganlar. Odamlar qo'y - echki va cho'chqalarni qo'lga o'rgatishgan, sun'iy ravishda qadimgi bug'doy navi — *polba* ekinini ekib ko'paytira boshlashgan.

Dehqonchilikda dastlabki sodda ish qurollari: toshdan yasalgan omoch va turli chaqmoqtoshdan yasalgan qurollardan foydalanishga o'tilgan. Odamlar yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatish va madaniy ekinlarni yetishtirish uchun ming yillar davomida sabr-toqat bilan tinimsiz mehnat qilishgan. Olib borilgan tadqiqotlarning guvohlik berishicha, ibtidoiy jamoa odamlari dehqonchilik xo'jaligi yuritishning dastlabki yutuqlariga jamoaning hamkorlikdagi mehnati, qo'shni urug' va qabilalar bilan o'zaro tajriba almashish va madaniy hamkorlikni kuchaytirish orqali erishganlar. Hozirgi vaqtda butun insoniyat tomonidan keng iste'mol qilinayotgan don ekinlari, poliz va bog'dorchilik

⁶ Avdiyev V.I. Qadim Sharq tarixi. Toshkent, 1956, 46-bet.

mahsulotlari dunyoning turli hududlarida yashagan ibtidoiy odamlarning mashaqqatli mehnatlari samarasidir.

Bugungi kunda ommaviy sur'atda ekilayotgan madaniy ekinlar dastlab dunyoning turli qit'alarida yetishtirilgan. Masalan, Osiyo va Shimoliy Afrika bug'doy, arpa va zig'irning, Xitoy guruchning, Hindiston paxtaning, Janubiy Amerika makkajo'xori va kartoshkaning, Yevropa esa loviya, suli, yasmin va javdarning vatani hisoblanadi⁷. Shunday qilib, ibtidoiy jamoa odamlari yovvoyi o'simliklarni madaniylashtirishdan tashqari, ularni dunyoning turli joylariga tarqalishiga ham o'z hissalarini qo'shganlar.


Arxeologik tadqiqotlar dehqonchilikning dastlab ayollar tomonidan kashf etilganligini tasdiqlaydi. Termachilik bilan shug'ullangan ayollar boshqoli o'simliklarni terib o'z makonlariga keltirishgan. Boshqolarni yanchish va tozalash jarayonida jamoa kulbalari atrofida to'kilgan donlar unib chiqqan. Ayollar ularni parvarish qilishgan. Bu dehqonchilik sari qo'yilgan dastlabki qadamlar edi. Bu usul bilan olinadigan daromad, termachilikka nisbatan ancha unumli bo'lgan. Shuning uchun ham dehqonchilik bilan shug'ullanuvchilarning soni ortib borgan.

Neolit davrida O'rta Osiyoda yashagan urug' va qabilalar ham ilk dehqonchilik madaniyatining dastlabki ko'rinishlari shakllana boshlagan. O'sha davrda O'rta Osiyoning janubi - g'arbiy viloyatlari (Turkmanistonning Kopetdog tog'i etaklari) dehqonchilik qilish uchun ancha qulay bo'lib, bu zonaning issiq iqlimi, tog'lardan soy suvlari orqali oqib tushgan mineral jinslarga boy loyqalar tuproq unumdorligini oshirib, turli - tuman o'simliklar (jumladan, boshqoli ekinlar)ning o'sishiga qulay sharoit yaratgan. Bu o'z navbatida odamlarning ilk dehqonchilik madaniyatini o'zlashtirib olishlari uchun imkon bergan. Dehqonchilik qilish uchun qulay bo'lgan bunday joylarda dastlabki ibtidoiy qishloqlar paydo bo'ldi. Ulardan biri Ashxoboddan 25 kilometrlar chamasi shimoli — g'arbda joylashgan chaqmoqtoshli tepaliklarni qazish (2 - 3 metr chuqurlikda) jarayonida topilgan miloddan

⁷ Vinogradov V. V. Rol народных масс в истории древнего мира. — М., 1963. —С. 17

avvalgi VI —IV ming yilliklarga oid Joytun makonidir. (bu makon «Chaqmoqli» deb ham ataladi).

1952-yilda Chaqmoqlida qazishma ishlari olib borishgan arxeologlar bu tepalik neolit davriga oid dehqon jamoalarining qarorgohi ekanligini aniqladilar. 1956-yildan bu yodgorlikda tadqiqot ishlari olib borgan arxeolog V.M.Masson qazishma ishlari jarayonida guvaladan qurilgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi bir xonali kulbani ochgan. Kulba devori yaqinida o'chog', xona markazida sandal kuldoni topilgan. Kulba devorlari somonli loy bilan suvalgan, guvalaga ham somon qorishtirilgan. Xonaning yarmiga supa qilingan. Supa o'sha davr odamlarining dam olish uchun qulaylik yaratishga harakat qilganliklaridan dalolat beradi.



O'rta Osiyo mill.avv. X-V m.y. 1-Kaspiybo'yi mezoliti yodgorliklari; 2 -Joytun madaniyati yodgorliklari; 3-boshqa yodgorliklar.


Shuningdek, boshqa xonalar va yo'laklardan chaqmoqtoshdan ishlangan yuzlab tosh qurollar topilgan. Joytun qishlog'ida jami 30 ga yaqin uylar bo'lib, har bir uyda 5-6 kishi yashagan. Uylarning har birida alohida o'choqlar bo'lib, bu joytunliklarning yakka oila tarzida xo'jalik yuritishga o'ta boshlaganliklarini ko'rsatadi. Uylarning sathi va devorlari somonli loy bilan suvalib, oxra (qizil buyuq) bilan bo'yalgan. Uylarning yonida omborxonalar, saroy va o'ralar qilingan. Bu makondan bug'doy, arpa qoldiqlari, yorg'uchoq, tosh boltalar, parrakchalar, o'roqlar, teshkich parmalar, o'rgichlar, kamon

o'qlarining uchlari, suyakdan yasalgan igna va bigizlar, shuningdek, munchoqlar, turli taqinchoqlar, urchuqtoshlar, odam va uy hayvonlarining haykalchalari, shaxmat donalarini eslatuvchi toshlar, sopol idish parchalari topilgan.

Hozirgacha Joytun madaniyatiga oid jamoalarning o'nlab qarorgohlari (Nayzatepa, Cho'pontepa va boshqalar) topib o'rganilgan. Turkmanistonning janubida joylashgan Qadimitepa va Tug'oloqtepa yodgorliklari ham Joytun kabi O'rta Osiyo dehqonchiligi madaniyatining qadimgi va nodir yodgorliklari hisoblanadi. Qadimitepa va Tug'oloqtepadan topilgan uy-joylar qoldiqlari, ro'zg'or buyumlarining xususiyatlariga qarab, o'sha davrda bu yerda yashagan aholi o'troq hayot kechirgan degan xulosaga kelish mumkin. Ular ham joytunliklar kabi dehqonchilik, chorvachilik va qisman ovchilik bilan shug'ullanishgan. Bu yodgorliklardan topilgan turli taqinchoqlar, bezaklar jamoada ayollarning mavqei ancha yuqori bo'lganligini ko'rsatadi.

Neolit davrining oxirlarida Turkmanistonning janubida yashagan qabilalar tog'lardan oqib tushgan ko'plab mayda daryochalar va soylarning suvlaridan hosil bo'lgan zahkash yerlarga ekin ekishgan. Bu yerlarda O'rta Osiyoda dastlabki sug'orish inshootlari paydo bo'lgan. O'sha davrda ayrim qishloqlarning aholisi daryo va soylardan ariqlar chiqarishib, katta - katta maydonlarda sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarda sun'iy ariqlar soni ancha ko'paygan. Aholi, asosan arpa, yumshoq bug'doy navlarini ekishgan. Topilgan don mahsulotlarining guvohlik berishicha, bu yerda arpa va bug'doydan tashqari javdar va uzum yetishtirilgan. Dehqonlar dastlab, toshdan yasalgan o'roqlardan foydalanishgan bo'lsa, keyinchalik mis va bronzadan yasalgan o'roqlar ham ishlatila boshlangan. Dehqonchilik kabi chorvachilik ham O'rta Osiyoning janubiy hududlarida neolit davridayoq shakllana boshlagan. Xususan, o'lkaning cho'l va dasht hududlari chorvachilik bilan shug'ullanish uchun tabiiy jihatdan birmuncha qulay bo'lganligi tufayli, bunday yerlar qadimgi chorvador qabilalarning makoniga aylandi.

O‘zbekiston hududidan ham bu davrga oid ko‘plab yodgorliklar topilgan bo‘lib, ularning katta qismi Amudaryoning quyi havzasi, jumladan, Xorazmdan topilgan. Xorazmda ovchilik va baliqchilik bilan shug‘ullangan kishilarning neolit davriga oid madaniyati ilmiy adabiyotlarda Kaltaminor madaniyati (shu nomdagi kanal o‘zanidan topilgan topilmalar asosida) deb atalgan. Kaltaminor madaniyati aholisi ko‘l bo‘ylarida yashab baliq ovi hamda tikuvchilik va kulolchilik bilan shug‘ullanishgan⁸. Sopol idishlar yasashga e‘tibor kuchaygan. Jonbosqal’a yaqinidan topilgan Jonbos-4 manzilgohi Kaltaminor madaniyatining noyob yodgorligi bo‘lib, bu yerdan neolit davri jamoalarining katta chayla — kulbasi topilgan. Ularning turmush tarzi Joytun madaniyati qabilalari hayotidan birmuncha farq qilgan. Bu davrda Kaltaminor madaniyati aholisi hayotiga hali dehqonchilik kirib bormagan bo‘lib, ularning hayotida tabiatdan o‘zlashtiruvchi xo‘jalik tarzi hukmronlik qilgan.



Mohandaryo va Go‘jayli o‘zanlari bo‘ylab topib tekshirilgan neolit va bronza davri yodgorliklari xaritasi. 1-neolit davri makonlari; 2-bronza davr makonlari; 3-qumbosgan dashlik yerlar; 4-barxanli qumlar; 5-quduqlar; 6-sho‘r va suvi qurib qolgan qadimgi ko‘llar; 7-qurib qolgan qadimgi daryo o‘zani⁹

⁸ Vinogradov A. V. Drevnie oxotniki i rybolovy sredneaziatskogo mejdurechya. - M., 1982. - S. 136—155.

⁹ Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug‘orilish tarixi (Qadimgi davrdan – XX asr boshlarigacha). – T., 1972. – 47-bet

Zarafshon daryosining quyi oqimi tarmog'i bo'lgan Mohandaryo va u hosil qilgan Katta To'zkon, Kichik To'zkon, Lo'xliko'l va Echkiqiron ko'llari bo'ylaridan ham bu madaniyatga oid 100 dan ortiq manzilgohlar topib o'rganilgan. Jumladan, IV—III ming yillikka oid ikkita makonda qazishmalar olib borildi. Shulardan biri, Darvozaiqir makonidan chayla ustunlari o'rnatilgan chuqurchalar qoldiqlari, o'q-yoy uchlari, chaqmoqtoshdan yasalgan pichoq, qirgich, bigiz, bolta, yog'och yo'nish qurollari, turli toshlardan yasalgan tumor va munchoqlar topilgan. Bu yerdan topilgan sopol idishlar ancha mustahkam bo'lib, tuxumsimon shaklda osti yassi qilib yasalgan. Chaylarning ichi o'rtacha 8 kvadrat metrni tashkil qilib, ularda 30-35 kishi yashagan. Chaylarning eshiklari sharqqa - ko'l tomonga qaratib ochilgan.

Darvozaiqir makonida jamoaga ona urug'i hukmronlik qilgan. Jamoa a'zolari, asosan, ovchilik bilan tirikchilik qilishgan. Bu davrda Zarafshon daryosi Amudaryoga quyilib turgan¹⁰. Bu makon ba'zi xususiyatlari jixatidan Kaltaminor madaniyatiga yaqin turadi. Bu davrda Uchtutda chaqmoq tosh olish uchun 4,5 va 5 metr chuqurlikda o'ralar kovlangan.

Shunday qilib, neolit davri odamlari xo'jalik yuritishning bir qator yangi turlarini o'zlashtirib olishgan bo'lib, ular asosan quyidagilardan iborat edi: tosh qurollarning takomillashishi, ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik, o'troq hayotga o'tish, chaylalar, yerto'lalar, paxsadan uy-joylar qurish, kulolchilik va to'qimachilikning vujudga kelishi.

Neolit davri oxirlarida tosh qurollari bilan birga misdan ham foydalanilgan. Shuning uchun bu davr eneolit (mis-tosh) davri deb ataladi. Eneolit davriga kelib insonlar birinchi marta metall bilan tanishdilar. Mustahkam qurol yasash ilinjida har xil toshlarni qidirgan odamlar metall (mis)ga duch kelishib, undan qurol yasashni o'rganib olishgan. Biroq, mis yumshoq bo'lganligi tufayli u ibtidoiy qabilalar turmushidan toshni batamom siqib chiqara olmagan. Mis mustahkam qurollar yasash uchun yaroqsiz

¹⁰ Cho'lyamov Ya., Askarov A., Islamov U., *Pervobytnaya kultura v nizovyax Zeravshana*. — Toshkent, 1966. —S. 21—99.

bo'lishiga qaramasdan, ishlab chiqarish kuchlarini ancha takomillashtirish imkonini berdi. Natijada dehqonchilik va chorvachilikda ortiqcha mahsulotlar yetishtirilib, ularni ayirboshlash yo'lga qo'yildi.

Miloddan avvalgi IV ming yillikning ikkinchi yarmidan boshlab, Old Osiyo va Mesopotamiyada mis-tosh davrining boshlanishi, dastlabki shahar-davlatlarning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Jumladan, qadimgi Sharq sivilizatsiyasining vatani bo'lmish Mesopotamiyada miloddan oldingi IV ming yillikning oxiri III ming yillik davomida Shumer, Lagash, Uruk kabi shaharlar tashkil topdi. Bu shaharlar bazasida mitti davlatlar shakllanib, ular tarixda shahar-davlatlar nomi bilan mashhur bo'ldilar¹¹.

Dehqonchilik va hunarmandchilikning shakllanishi ijtimoiy-siyosiy va harbiy zarurat tufayli urug-qabilalarning o'zaro uyushib, tuman, viloyat yoki boshqa biror hududiy, siyosiy, diniy boshqaruv markazlarining vujudga kelishida asosiy omil bo'ldi. Shaharlarning vujudga kelishida aholining o'troq turmush tarzi va u bilan bog'liq uchta asosiy omil tarixiy zaruriyat hisoblanib, ular quyidalardan iborat bo'lgan:

1) sug'orma dehqonchilik uchun qulay tabiiy sharoit, unumdor tuproq, va agrotexnik usullarning mavjudligi;

2) aholi gavjum bo'ladigan joylarda hunarmandchilik markazlarining vujudga kelishi;

3) yuqoridagi ijtimoiy-iqtisodiy omillar asosida tabaqalasha boshlagan jamiyatda diniy, harbiy va siyosiy boshqaruv tizimining vujudga kelishi uchun zarur sharoit yaratilishi.

Bu davrda Sharqning qishloq xo'jaligi rivojlangan hududlarida sinfiy jihatdan tabaqalanishlar vujudga kelgan bo'lsa, bunday hududlar bilan chegaradosh bo'lgan, biroq dehqonchilik shakllanmagan yoki unchalik rivojlanmagan hududlarda yashagan qabilalar o'z xo'jaliklarida ibtidoiy urug'chilik jamoasining ko'pgina xususiyatlarini saqlab qolgan edilar. Bunday hududlarda yashagan qabilalarda ortiqcha mahsulotlarning mavjud emasligi, bu

¹¹ Asqarov A. Eng qadimgi shahar. —Toshkent: «Ma'naviyat», 2001. 5 —bet.

joylarda mulkiy tengsizlikning shakllanishiga zamin yaratmagan edi. Bu davrda O'rta Osiyo hududida yashagan jamoalar ham notekis taraqqiyot bosqichini boshdan kechirayotgan bo'lib, ba'zi qabilalar eneolit davriga o'tgan bo'lsa, ba'zilari hali neolit davri bosqichida qolgan edilar.

Eneolit davri O'rta Osiyo janubida yangi madaniy va tarixiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, ular quyidagi xususiyatlarni, ya'ni **moddiy madaniyatda:**

1) dehqonchilikda ketmonsimon qurollardan foydalanish, ariq-kanallar qazilishi, sun'iy sug'orish tarmoqlarining takomillashishi, tosh o'roqlardan foydalanish;

2) chorvachilikning nisbatan rivojlanishi;

3) hunarmandchilikda metallga ishlov berishning kashf etilishi, misdan qurollar tayyorlash;

4) kulolchilikda xumdonlardan foydalanishga o'tilishi;

5) uy-joy qurilishida paxsa va xom g'ishtdan foydalanishga o'tilishi, ko'p xonali uylar qurilishi mudofaa devorlari qurilishi, o'troq jamoalarning ko'payishi;

Ma'naviy madaniyat va e'tiqodda:

1) sopol idishlarga turli naqshlar, hayvon va qushlar tasvirlarining tushirilishi, loydan yasalgan va ona urug'iga xos bo'lgan haykalchalarning tarqalishi;

2) ibodatxonalarning ko'payishi, quyosh, suv, yer va hosildorlik xudolariga siginish¹² kabi jihatlarni o'zida mujassamlashtirgan edi.

Eneolit bosqichiga o'tgan qabilalarning hayotida xo'jalik yuritishning yangi madaniy bosqichi boshlandi. Bu davrga oid uy-joy qoldiqari, mehnat qurollari, sopol idishlar, zeb-ziynatlar va ashyoviy buyumlar Joytun madaniyati ta'sirida Anov tepaning I-II qatlamlari va Nomozgoh tepaning I-III qatlamlarida keng tarqalganligidan dalolat beradi. Bu davrga kelib kichik-kichik dehonchilik vohalari tashkil topa boshladi. O'rta Osiyoning yirik daryolari — Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon etaklarida vujudga kelgan deltalar, ya'ni

¹²Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. — Toshkent: «O'qituvchi», 1990, 106 - b.; Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. — Toshkent: «Universitet», 2004. 26-bet.

maxsus sugʻorish usulini talab etmaydigan pastqam, zahkash, botqoq joylari dehqonchilik bilan shugʻullanish uchun qulay boʻlgan.

Oʻrta Osiyoning janubida (Janubiy Turkmaniston) hozirgi kunlarga eoneolit zamoniga mansub 32 ta qadimgi makon-tepalari maʼlum. Ularning asosiy qismi Ashxobodga yaqin joyda va Geoksyur vohasidan (Murgʻob va Tajan daryolari orasida) topib tekshirildi. Geoksyur vohasi 8 ta qadimgi qishloqdan iborat. Eneolit davrida ular oʻtroqlik vodi-y-rayoniga aylangan va Geoksyurtepa I markaziy makoni atrofida joylashgan. Arxeologlar fikricha, Geoksyur vohasi ayrim oʻtroq dehqonchilik hududlarining aholisi 4000-5000 kishilik umumiy qabila aʼzolaridan iborat boʻlgan.

Oʻrta eneolit (Anov II, Nomozgoh II) davriga oid yodgorliklar Geoksyur vohasida keng ravishda oʻrganilgan. Geoksyur qadimiy kanallari Tajan daryosi irmoqlaridan chiqarilgan va suv manbai hosil etilgan yerlarga, qishloqlarning yoniga olib borilgan. Qadimgi kanallarning uzunligi 3 km, chuqurligi 1,2 m boʻlgan. Tosh va mis qurollar, arpa, bugʻdoy donlari va boshqa ashyolar qadimgi geoksyurliklar asosan dehqonchilik bilan shugʻullanganligini koʻrsatadi. Ularda uy chorvachiligi ham muhim ahamiyatga ega boʻlgan, qabilalar koʻproq mayda chorva-qoʻy va echki boqqanlar.

Geoksyurtepa I atrofidagi qadimgi sugʻorish maydonlari 50-75 gektar boʻlib, kanallarning uzunligi oʻrtacha 3 km, chuqurligi 1,2 m, eni 2,4-5,5 m ni tashkil etgan. Dehqonchilikda arpa va bugʻdoy ekish asosiy rol oʻynagan. Qabilalar hayotida mayda chorvachilik ham katta ahamiyatga ega boʻlgan. Ular bilan birga yovvoyi qushlar va hayvonlar ov qilish qoʻshimcha xoʻjalik vazifasini bajargan.

Mazkur hududda oʻtroqlik makonlari, qadimgi kanallar, mehnat qurollari, toshdan ishlangan **yorgʻuchoqlar** va oʻroqlar hamda don qoldiqlarining koʻplab topilishi dehqonchilik rivojlanganligidan dalolat beradi. Arpa va bugʻdoy sopol idishlarda saqlangan. Makonlardan katta xoʻjalik idishlari ham qazib ochildi.

Eneolit davrida hayot kechirish hududlari kengayib borgan. Soʻnggi mis-tosh davrida dehqonchilik bilan mashgʻul boʻlgan qabilalar Quyi Murgʻobda ham tarqaladi. Murgʻob vodiysida kanal-ariqlar qazib, suv chiqarish imkoni boʻlgan

joylarda (muhim o'troq vodiy rayonlarda) sug'orib ekiladigan dehqonchilikning turli formalari vujudga keladi.

Janubiy Turkmanistondagi eneolit davri jamiyati oldingi neolit zamon jamiyatdan ishlab chiqaruvchi kuchlar ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiyoti darajasi yuqori bo'lishi bilan ajralib turadi. Sug'orma dehqonchilik va chorvachilik tirikchilikning asosiy manbalari deb hisoblangan. Eneolit davri odamning eng katta ishlab chiqarish g'alabasi-irrigatsiya. Sug'orish texnikasi rivoj topgan davr bo'ldi.

Bronza davriga kelib chorvador qabilalarning o'troqlashuvi ancha faollashdi. Ular ko'chmanchilikdan asta-sekin sug'orma dehqonchilikka o'ta boshladilar. Bronza davrida sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan qishloqlar ko'payib, aholining zichlashib borishi yangi yerlarni o'zlashtirish zaruratini tug'dirdi. Xo'jalik yuritishning har ikkala tarmog'i ham erkaklar ixtiyoriga o'tdi. Chorvachilikda qoramolchilikka nisbatan qo'y-echkilarni boqishga e'tibor ancha kuchayganligi kuzatiladi. Bronza davri oxirlariga kelib, yer haydashda hayvonlar kuchidan, birinchi navbatda otlar va tuyalardan foydalanilgan bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas.

Arxeologik materiallarning guvohlik berishicha, O'rta Osiyoning janubiy dehqon jamoalari bilan shimoliy chorvador qabilalar o'rtasida o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar birmuncha rivojlanib, ular bir-birlarining madaniy — xo'jalik yutuqlaridan foydalanishgan. Bu ikki zona o'rtasidagi aloqalar va etnik munosabatlarning davom etishi natijasida ibtidoiy jamoa iqtisodiyotining asosini tashkil etgan dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklari hamda ularning doirasida shakllanib borgan hunarmandchilik ancha rivojlangan. Bu davrga kelib mehnat taqsimotining kuchayishi va dehqon xo'jaliklarining rivojlanishi natijasida kichik-kichik dehqonchilik vohalari tashkil topa boshladi. Ayni paytda, chorvador qabilalarning o'troqlashuvi ham tezlashib, ular ham asta-sekin sug'orma dehqonchilikka o'ta boshladilar. Natijada sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan qishloqlar ko'payib, ularning aholisi zichlashib bordi.

Bu o'z navbatida yangi yerlarni o'zlashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Jamiyat a'zolari o'rtasida og'ir va mashaqqatli mehnat turlarining ko'payib

borishi xo'jalik yuritishning asosiy tarmoqlarini erkaklar qo'liga o'tishiga olib keldi. Shundan keyin bu tarmoqlardan keladigan daromad ham ko'paydi. Ayollar endi uy-ro'zg'or ishlari, farzandlar tarbiyasi kabi yumushlar bilan band bo'lib, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanish erkaklar zimmasiga tushdi. Shu boisdan bo'lsa kerak, jamoada moddiy boylik yaratuvchi asosiy kuch sifatida erkaklarning mavqeyi ortib bordi. Jamoalarda erkaklar mavqeining oshib borishi matriarxal urug' negiziga zarba berdi. Jamoalar guruhdi nikoh asosida qurilgan oiladan patriarxat davrida shakllangan juft oilali tizimga o'ta boshladilar. Sug'orma dehqonchilik ta'sirida o'troq hayotga moslashgan qabilalarning soni ko'payib, yirik qishloqlarning paydo bo'lishiga zamin yaratildi.

Yangi yerlarni o'zlashtirilishi natijasida sug'orma dehqonchilik bilan bog'liq ko'plab madaniyat o'choqlari vujudga keldi. Jumladan, Zarafshon daryosi bo'ylarida vujudga kelgan qadimgi qishloqlar qoldiqlari fanga Zamonbobo va Sarazm madaniyatlari nomi bilan kirgan. Zamonbobo qadimda Zarafshonning quyi oqimida, uning o'zanlaridan birining oqimidan hosil bo'lgan ko'lning nomi bo'lib, 1950 -yilda akademik Ya.G'.G'ulomov ana shu ko'lning shimoliy sohilidan qadimgi qabristonni topgan. Eneolit va ilk bronza davriga oid bo'lgan bu qabristondan dastlab Ya.G'.G'ulomov, A.Asqarov boshchiligida olib borilgan qazishmalar jarayonida 45 ta qadimgi mozor qoldiqlari ochib o'rganildi. Zamonbobo va Kichikto'zkon atroflarida miloddan avvalgi II ming yillikka oid 20 dan ortiq yodgorliklar tekshirilgan.

Bu davrda Zarafshon daryosi Amudaryoga quyilishdan to'xtagan, Mozondaryo ham suvsizlikdan qurib qolgan. 1961-1964 -yillarda Zamonbobo qabristoni yaqinidan shu madaniyatga tegishli makon o'rganildi. Arxeologik qazishmalar vaqtida taqir yerning bir metr chuqurligidan hajmi 170 m² bo'lgan yerto'la tipidagi kulba va ikkita chayla qoldiqlari sopol idish parchalari topildi. Makon maydonidan o'choqning o'rni, ko'plab uy - ro'zgor va xo'jalik buyumlarining parchalari, qoramol, qo'y, echki kabi uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarning suyaklari, qorayib ketgan bug'doy va arpa donlari,

chirigan somon qoldiqlari, toshdan yasalgan yoruchoqlarning bo'laklari, chaqmoqtoshdan ishlangan qistirma o'roq parchalari, kamon o'qi uchlari, qimmatbaho toshlardan yasalgan har xil munchoqlar va boshqa ashyoviy dalillar topildi. Bu topilmalar Zamonbobo makoni aholisining dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganliklaridan dalolat beradi. Zamonbobo makoni bir urug' jamoasiga tegishli yodgorlik bo'lib, u o'zbek xalqining ilk dehqonchilik madaniyati tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.



Zamonbobo kulbasi (tiklangan)

Mamlakatimiz hududida ilk dehqonchilik madaniyatining boshqa bir yirik yodgorligi Sug'dning Sarazm qishlog'i (Zarafshon daryosining yuqori oqimi, O'zbekistan bilan Tojikistonning chegarasi) yaqinida bo'lib, bu qishloq nomi bilan atalgan. Shu qishloq qo'shnilari hovlisidan topilgan sopol siniqlari, bronza bolta va pichoqlardan iborat ashyoviy dalillar bilan Panjikent muzeyiga murojaat qilingan. Shundan keyin, bu yerda 1977-yildan A.Isonov boshchiligida arxeologik qazishmalar olib borilgan. Tadqiqot ishlari jarayonida qadimgi Sug'diyonaning ilk dehqonchilik madaniyatiga doir qimmatli materiallar olindi. Sarazm qishlogi xarobasi qariyb 90 gektardan iborat bo'lib, u 10 ta tepalikka joylashgan.

Ilmiy tadqiqotlar eneolit va ilk bronza davrlariga oid bu yodgorlikda hayot 4 bosqichga bo'linganligini ko'rsatadi. Birinchi bosqichda Sarazmga asos solingan, ya'ni qadimgi ajdodlarimiz guvaladan bir xonali kulbalar

qurishib, atrofni devorlar bilan urab olishgan. Kulbalar yaqinida ularning xilxonalari bo'lgan. Kulbalar va xilxonalarni qazish vaqtida sirtiga rangli bezak solingan sopol parchalari, mis oyna, oltin va kumushdan yasalgan taqinchoqar, qimmatbaho toshlar – lazurit va serdolik toshlardan yasalgan munchoqlar topilgan. Sarazmning bu bosqichiga oid materiallar son jihatdan janubiy Turkmanistondan topilgan eneolit davriga oid yodgorliklar (Guksur)ga o'xshashdir.



Sarazm manzilgohi.

Ikkinchi bosqichda Sarazm qishlog'ining hududi ancha kengaygan. Bir xonali guvala uylar o'rnida xom g'ishdan yasalgan ko'p xonali uylar paydo bo'lgan. Ayrim uylarda oilaviy e'tiqod joyi — dumaloq shaklda ishlangan altar (olovxona) qurilgan. Ko'p xonali uylar oralig'ida tor kuchalar va maydonlar bo'lgan. Kirish hududida ikkita ibodatxona ochilgan bo'lib, ularning devorlariga oddiy uylardan farqli o'laroq qizil rangda naqsh berilgan. Bu yerdan topilgan ashyolar ichida toshdan ishlangan mehnat qurollari, tarozi toshlari, to'qimachilik dastgohi bo'laklari, urchuq toshlar, misdan ishlangan pichoqlar, xanjarlar, qarmoqlar, igna va bigizlar ko'plab uchraydi.


Uchinchi bosqichda, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan binolar vujudga kelgan. Bu binolar jamoa xazinaxonasi, ibodatxona va boshqalardan iborat

bo'lgan. Bu davrda hovlilar kengaygan. Ba'zi hovlilarda kulolchilik xumdonlari va metall eritish ustaxonalari uchraydi. Bu bosqichda hunarmandchilikning turli yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashuv jarayoni vujudga kelgan. Kulolchilikda oddiy pardoqli sopol idishlar kamayib, ularning o'rnini an'anaviy shakldagi naqshlar egallagan. Ibodatxonalarining devorlari ham shunday naqshlar bilan bezatilgan. Bu bosqichda bronza kashf etilib, undan tayyorlangan qurollarga ancha sifatli ishlov berila boshlangan. Natijada metallardan ishlangan mehnat qurollarining soni oshib, sifati yaxshilangan. Oltin va kumush buyumlar jamoaning nufuzli a'zolari qo'lida to'plangan.

To'rtinchi bosqichga oid ashyoviy dalillar Sarazm madaniyati iqtisodiy va moddiy jihatdan inqirozga yuz tutganligini ko'rsatadi. Bunga Zarafshon vodiysi yuqori qismida dehqonchilikni rivojlantirish uchun qulay bo'lgan yerlarning kamligi tufayli, uning aholisi voha bo'ylab yangi yerlarni qidirib uzoq-uzoq joylarga tarqalib ketishlari sabab bo'lgan.

Bronza davriga oid yodgorliklar orasida Sopollitepa yodgorligi (Surxondaryo viloyatining Sherobod cho'lida) mamlakatimiz dehqonchilik madaniyatida alohida o'rin tutadi. Amudaryodan 2,5 — 3 km chamasi sharqda, Ko'hitang tog'idan boshlangan Ulanbuloq soyi bo'yida joylashgan bu qadimgi qishloq xarobasini mahalliy aholi Sopollitepa deb atashgan. Sopollitepa yodgorligi Janubiy O'zbekiston hududidan topilgan bronza davriga oid noyob dehqonchilik makoni bo'lib, u arxeolog olim A.Asqarov tomonidan mukammal o'rganilgan. Bu yerdan topilgan boy va xilma-xil materiallarning tahlili, ularni boshqa o'lka va viloyat yodgorliklari bilan qiyoslash asosida Sopollitepa aholisining katta qismini dehqonchilik qilish maqsadida qo'shni Marg'iyonadan ko'chib kelgan qabilalar tashkil etgan degan xulosaga olib kelgan. Sopollitepani qazish jarayonida xom g'ishtdan qurilgan ko'p xonali uy-joy qoldiqlari, tosh, bronza va suyakdan turli shakl va ko'rinishdagi mehnat qurollari, uy-ro'zgor buyumlari, xo'jalikda, harbiy ishda, ovchilik ziroatchilik va hunarmandchilikda ishlatiladigan qurollar, sopol idishlar, turli taqinchoq va bezaklar, urug' va qabila tangalari topilgan. Ularning ancha mukammal ishlanganligi Sopollitepa

o‘z davriga nisbatan ancha madaniy va xo‘jalik taraqqiyotiga erishganligini ko‘rsatadi. Sopollitepaning ayrim mozorlaridan topilgan kiyimlar qoldiqari, ularning paxta va ipak tolalaridan to‘qilganligi bu yerda to‘qimachilik ancha takomillashganligidan dalolat beradi. Bu ajdodlarimizning bronza davridayoq paxtachilik bilan shug‘ullanganliklarini isbotlaydi. Bu eramizning boshlarida yashagan sug‘d sayyohining ipak qurtini Xitoydan o‘z yurtiga yashirin holatda olib kelganligi haqidagi g‘oyaga asoslanib, ipak O‘rta Osiyoga Xitoydan tarqalgan degan fikrlarni inkor qiladi. Xuddi shuningdek, bu topilmalar O‘zbekistonda paxtachilik tarixi 1,5 - 2 ming yildan oshmaydi, degan fikrlarning ham noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi. Sopollitepa topilmalari paxtachiligimiz tarixi ham 3,5 ming yildan kam emasligini tasdiqlaydi.



Sopollitepa manzilgohi.

Sopollitepa tadqiqotlarining ko‘rsatishicha, qadimgi ajdodlarimiz sun‘iy kanallar qazib, ulardan dehqonchilikda foydalanishgan. Bu davrda ular ko‘proq dehqonchilik mahsulotlaridan tayyorlangan taomlarni iste‘mol qilishgan. Sopollitepaliklarning urf-odatlariga ko‘ra, vafot etgan kishilarni dafn etish jarayonida qabrga turli idishlarda ovqatlar ham qo‘yilgan. Dafn marosimida marhumlar yoniga ovqatlar qo‘shib ko‘milishi, ajdodlarimizning o‘sha davrlardayoq ma‘lum diniy tasavvurlarga ega bo‘lganliklarini, ularning

ham abadiy hayot orzusi bilan yashaganliklarini ko'rsatadi qabrlardagi ovqat qoldiqlari tekshirilganda, ular asosan, bug'doy, arpa va tariqdan tayyorlangan atalasimon ovqatlardan iborat ekanligi aniqlangan. Mazkur yodgorlikdan saqlanib qolgan bug'doy va tariq qoldiqari ko'plab topildi. Yodgorlikdan topilgan ko'plab yorguchoq va tandir qoldiqlari sopollitepaliklar non yopish usulini o'zlashtirib olganliklarini ko'rsatadi. Sopollitepa tandirlari shakl jihatdan hozirgi tandirlardan deyarli farq qilmaydi.

Sopollitepaliklar chorvachilik bilan ham shug'ullanganlar. Bu yerdan hayvonlarning 16000 dan ziyod suyaklari, 20 dan ortiq qabrdan esa go'shtdan tayyorlangan ovqat qoldiqlari topildi. Suyaklarning ko'pchiligi qoramol, qo'y, echki, tuya singari qo'lga o'rgatilgan hayvonlarniki ekanligi aniqlandi. Sopollitepadan topilgan odam tishlarini tekshirgan antropolog T.Xo'jayev tishlarning unchalik yeyilmaganligiga asoslanib, sopollitepaliklar ko'proq yovvoyi mevalar, o'simliklar va sut mahsulotlari tanovul qilishgan (go'shtni esa asosan pishirilgan holda iste'mol qilishgan degan xulosaga kelgan. Sopollitepaliklar taomlarni mustahkam va o'tga chidamli tog' jinlaridan aralashtirib yasalgan sopol qozonlarda pishirishgan. Don, go'sht va sut mahsulotlari kattakon xumlarga solishib, maxsus qurilgan yerto'lalarda saqlashgan.

Sopollitepada olib borilgan arxeologik qazishmalar vaqtida yuzlab metall buyumlar: oddiy uy-ro'zgor buyumlaridan tortib, harbiy qurollargacha, ayollarning kosmetika - surmadonlaridan to xilma-xil idishlargacha metallardan ishlanganligi ma'lum bo'ldi. Sopollitepa madaniyatida uy-joy qurilishi, mudofaa tizimining murakkab me'moriy an'analari e'tiborga olingan. Uy-joy qurilishida xom g'ishtdan keng foydalanilgan, binolarga pardoz berilgan. Sopollitepada hayot taxminan 200 yillar davom etgan. Yangi yerlarni o'zlashtirish jarayonida uning aholisi asta-sekin Sherobod daryosining quyi oqimidagi Bo'stonsoy o'zani bo'ylab (Ovdurgon qishlog'i hududida) joylashgan. 1950 - yillarda bu yerda qoramollar uchun qo'ton qurilgan. Shu tufayli, bu yodgorlik fanda Jarqo'ton deb ataladi. 1973-yildan boshlab


arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan Jarqo‘tonning O‘zbekistan hududidagi eng qadimgi shahar-davlat bo‘lganligini tasdiqlovchi ko‘plab ashyoviy dalillar topildi. Ular Qadimgi Sharqda shaharlarning shakllanishi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy va iqtisodiy omillarga javob beradi. Odatda, fanda qilingan ilmiy ishlanmaga ko‘ra, aholi yashash joyini shahar deb atalishi uchun bir qator omillar zarur bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: hududi 5-6 gektar dan kam bo‘lmagan maydonda aholi zich joylashgan bo‘lishi; shahar atrofi qalin mudofaa devori bilan o‘ralgan bo‘lishi; shaharning «ark» va «shahriston» qismlariga bo‘linishi, aholining ijtimoiy tabaqalanishi; diniy markazlar — ibodatxonalar bo‘lishi; shaharning iqtisodiy asosini ko‘ptarmoqli hunarmandchilik va savdo-sotiq tashkil etishi, shahar ramzi va belgisi bo‘lishi lozim edi. Jarqo‘tonda olib borilgan tadqiqotlar bu yerda qadimgi shahar hayoti uch bosqichga bo‘linganligini ko‘rsatadi:

Birinchi bosqich Jarqo‘ton (miloddan avvalgi 1500 — 1350 yillar);

Ikkinchi bosqich Ko‘zali (miloddan avvalgi 1350 — 1200 yillar);

Uchinchi bosqich Mulali (miloddan avvalgi 1200 — 1000 yillar).

Keyinchalik Bo‘stonsoyning o‘ng sohilida o‘rganilgan yodgorliklar asosida Mulali bosqichini quyi qismga, ya‘ni Mulali (miloddan avvalgi 1200—1000 yillar) va Bo‘ston (miloddan avvalgi 1000 — 900 yillar) bosqichlariga bo‘lib o‘rganildi. Bu Jarqo‘ton yodgorliklari misolida mamlakatimiz hudidagi umumiy maydoni 100 gektardan kam bo‘lmagan eng qadimgi shahar tarixini o‘rganish imkonini berdi. Jarqo‘tonlik hunarmandlar tomonidan o‘sha davrda kulolchilik charxida ishlanib, 2 yarusli xumdonlarda pishirilgan sopol idishlar 3,5-4 ming yillar davomida o‘z shakli va tarkibini o‘zgartirmay hozirgacha saqlanib qolgan. Jarqo‘tonda otashparastlarning bronza davriga oid yirik ibodatxonasi qazib o‘rganildi.



Jarqo'ton ibodatxonasi plani

Ibodatxonada muqaddas ichimlik-xaoma tayyorlaydigan xona, dafn marosimlari uchun anjomlar tayyorlaydigan ustaxona va ibodatxonaga ajratilgan oziq-ovqat ombori joylashgan. Ibodatxona otashparastlikning diniy e'tiqod va mafkura markazi bo'lib, jamoa a'zolari muqaddas olovga sig'inish va qazo qilgan urug'doshlarini ko'mish marosimlari bilan bog'liq masalalarda markazdan fatvo olganlar.

Sopollitepa va Jarqo'ton yodgorliklarini o'rganish natijasida, birinchidan, O'zbekiston hududida sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati bundan taxminan 3,5-4 ming yilcha ilgari ham mavjud bo'lganligi tasdiqlansa, ikkinchidan mamlakatimiz hududida chorvachilik, ipakchilik, paxtachilik, bog'dorchilik kabi xo'jalik sohalari tarixiga bir qator aniqliklar kiritildi. Bronza davrida chorvador qabilalarning o'troqlashuvi faollashib, O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonning cho'l va dasht rayonlari chorvador qabilalar makoniga aylandi. Vaqt o'tishi bilan ularning turmush tarziga ham sug'orma dehqonchilik o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Bu qabila jamoalari yashaydigan qishloqlar dastlab yengil tipdagi qarorgoh yoki vaqtinchalik makonlar bo'lib, ular Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshonning quyi havzalarida, O'rta Osiyo tog' etaklari va tog' yon

bag'irlaridagi soy bo'ylarida istiqomat qilganlar. Chorvador qabilalar madaniy va xo'jalik hayoti jihatidan janubning jamoalaridan ancha orqada edilar.

Arxeologik materiallarning guvohlik berishicha, janubiy hududlarda yashagan dehqon jamoalari bilan shimoliy chorvador qabilalar o'rtasida o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi ta'sirida hunarmandchilik vujudga keldi. Tadqiqotlar bronza davrida ularning kulolchilik charxini bilmaganliklarini ko'rsatadi. Chorvadorlar kulolchilik sohasida ancha qoloq bo'lishsada, biroq metallga ishlov berishda ular o'troq hunarmandlardan qolishmagan. Shuning uchun ham dehqonchilik va chorvachilik zonalari ibtidoiy jamoalari o'rtasida bo'lgan iqtisodiy va madaniy aloqalarda chorvador qabilalarning bronzadan yasalgan buyumlari ham keng muomalada bo'lgan. Dasht qabilalari dehqon jamoalaridan farqli o'laroq, yerto'la va yarim yerto'la tipidagi kulbalarda yashaganlar. Xo'jalik va madaniy qurulish sohasidagi bu tafovutlar har bir zonaning geografik va ekologik sharoitidan kelib chiqqan. Shunga qaramasdan, bu ikki mintaqa aholisi o'rtasida xo'jalik va madaniy aloqalar davom etib turgan. Jamoalarning dasht qabilalari moddiy madaniyatiga ta'siri kuchli edi. Dehqon jamoalarining ilg'or xo'jalik va madaniy hayoti ta'sirida bronza davriga kelib o'ziga xos madaniy jarayonlar shakllandi.

Shunday madaniy manzilgohlar Zarafshon va Amudaryoning quyi havzalarida, Farg'ona vodiysida tashkil topdi. Bu vaqtda skiflar deb umumiy nom bilan atalgan chorvador qabilalarning dehqonchilik zonalariga bostirib kirishi hollari ham sodir bo'lib to'rgan. Masalan, mil.av. II ming yillik o'rtalarida Qozog'iston cho'llarida yashagan chorvadorlar (ular fanda «Andronovo madaniyati» aholisi deb yuritiladi) avval O'rta Osiyoning shimoliy rayonlariga, so'ng esa uning janubiy chegaralarigacha kirib bordilar. Shuni ham ta'kidlash lozimki, hozirgacha bu davrlarga oid yodgorliklardan ikki zona aholisi o'rtasida keskin to'qnashuvlar bo'lganligiga guvohlik beruvchi ma'lumotlar uchramagan.

Bronza davrida Volga daryosidan sharqda, ya'ni Osiyoning Qozog'iston cho'llari, Janubiy Ural, Oltoy hamda Janubiy Sibir hududlarida yashagan ko'chmanchi qabilalar turkiy tillarning turli lahjalarida so'zlashganlar. Bu mintaqalarda yashagan aholining moddiy madaniyati, turmush tarzi va antropologik tipi bir-birlaridan deyarli farq qilmagan. Shimoliy Xitoyning ilk podsholari (mil. avv. 2205—1766 yillarda «Sya», mil. avv. 1766—1122 yillarda «Shan» sulolalari) dan qolgan yozma manbalarda ta'kidlanishicha, «di» turk so'zining xitoycha transkripsiyasidir. Ular Xitoydan shimolda va shimoli-g'arbda yashashgan. Qadimgi xitoychada «bey» so'zi esa ilk Xitoy podsholiklari davrida ulardan shimolda yashovchi turkiy tilli chorvador xunn qabilalariga nisbatan ishlatilgan. Demak bronza davrida Janubiy Ural, Markaziy va Sharqiy Qozogiston, Oltoy va Janubiy Sibir mintaqalarida yashagan va arxeologik manbalarda «Andronovo madaniyati» deb nom olgan madaniyatni yaratgan chorvador aholi turkiy tilda so'zlashgan.

Yevrosiyo cho'l zonalarida yashagan aholi yunon manbalarida skiflar deb atalgan. Bu haqida antik davr tarixchisi Pliniy quyidagi fikrlarni bildirgan: «forsiyalar ularni (skiflarni) o'zlariga tutash yashovchi qabilalarning nomi bilan saklar deb ataydilar». Qadimgi Eron manbalarida shak (sak) hamda skif etnik nomlari uchraydi. Eronshunos olim V.Abayev «Avesto»ning «Yasht» qismida tilga olingan turlarni O'rta Osiyo saklari, «tez chopar otli turlar» hamda Danoy (Sirdaryoning qadimgi nomlaridan biri) turlarini esa Sirdaryo bo'ylarida yashagan saklar deb hisoblaydi. Tadqiqotlar Sirdaryo va Amudaryo oralig'ida sak qabilalarining katta guruhlarini yashaganligini ko'rsatmoqda. Sak qabilalarining madaniyatida skiflar bilan umumiylik mavjudligiga asoslanib, ular antropologik tuzilishi, tili va turmush tarzi jihatidan qora dengizning shimoliy qismi, Qozog'iston cho'llari va Sibir hududlarida yashagan skiflarga yaqin bo'lishi kerak degan xulosaga kelish mumkin. Erondagi Behustun qoyalariga o'yib ishlangan suratlarda sug'diyonaliklar, baqtriyaliklar va xorazmliklarning ham tasvirlari bo'lib, ularning tasvirlari saklarga o'xshatib ishlangan. S.P.Tolstov qadimgi sug'dlar va xorazmliklarning tillari bir-birlariga

yaqinligini, shuningdek , Qora dengiz bo‘ylarida yashagan skiflarning tillari ham ularga yaqin bo‘lganligini qayd etgan.



Behistun qoyalariga o‘yib ishlangan suratlar



Doro I ga o‘lpon olib kelayotgan saklar. Persepol saroy devoridagi tasvir

Tadqiqotchilar saklar, asosan, to‘rt guruhdan iborat bo‘lganligini ta’kidlashgan. Bularning uch qismi, ya’ni xaumavarka, tigraxauda va tiyataradaraya saklari Persepol yaqinidagi Naqshi Rostam darasidagi qabr toshlarining yozuvlarida uchraydi, to‘rtinchisi esa «sug‘diylardan keyin, narigi tomonida» yashovchi saklar Persepoldagi hamda Ekbatondagi yozuvlarda aks ettirilgan.

Antik tarixchilar tigraxauda saklarini massagetlar bilan ham tenglashtiradilar. Mil. avv. VI-IV asrlarda massagetlar yirik qabilalar uyushmasi bo‘lib, jumladan, tarkibiga derbeklar, sakarauklar, apasiaklar, assianlar va boshqalar kirgan. Hindlarning «Mahabxarata» dostonida bayon etilishicha, podsho Yudxishxira o‘tkazgan qurbonlik marosimida turli mamlakatlar va ellatlardan kelishgan mehmonlar ishtirok etishgan. Ular orasida Sirdaryoning shimoli-sharqidan kelgan saklar, toharlar va qanqalar (sangarlar) ham bo‘lganligi qayd etilgan. Shunday qilib, miloddan avvalgi II ming yillikning II yarmida O‘rta Osiyo vohalarida dehqonchilik bilan shug‘ullangan qabilalar bilan bir qatorda, tog‘oldi rayonlari, cho‘l va dasht zonalarida chorvador qabilalar keng tarqalgan edi. II ming yillikning oxirlarida ularning dehqonchilik jamoalari hududlariga kirib kelishi O‘rta Osiyoda etnik jarayonlarning faollashuviga va o‘zaro tovar almashinuvining kuchayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, o‘troq va

chorvador qabilalar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar mulkiy tengsizlikni tezlashtirdi. Natijada, ibtidoiy jamoa tuzumiga zarba berilib, uning negizida sinfiy jamiyatning shakllanishiga zamin yaratildi. Ana shunday tub o'zgarishlar asosida ikki xil xo'jalik jamoalari orasida etnik aloqalar kuchaydi. O'rta Osiyo hududida yuz bergan migratsiya va etnik jarayonlar o'zbek xalqi dastlabki etnik qatlamlarining shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Dehqonchilik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida daryolar va ularning irmoqlari asosiy rol o'ynagan. Sharqning yirik daryolari — Nil Misr dehqonchiligi tarixida, Frot va Dajla Mesopotamiya dehqonchiligi tarixida, Gang va Jamna Hindiston dehqonchiligi tarixida, Yanszi va Xuanxe Xitoy dehqonchiligi tarixida qanday o'rin tutgan bo'lsa, Amudaryo va Sirdaryolar ham O'rta Osiyo dehqonchiligi tarixida shunday ahamiyatga ega bo'lgan. O'rta Osiyoning eng yirik daryosi bo'lgan Amudaryoning uzunligi 2336 km atrofida bo'lib, uning dastlabki irmoqlari 5000 km balandlikda joylashgan. Uchlamchi davrning ikkinchi yarmida, ya'ni Pomir, Tyanshan va Oloy tog'lari ko'tarila boshlagan davrda paydo bo'lgan bu daryo to'rtlamchi davr o'rtalarigacha suvini Kaspiy dengiziga quygan. Yer qatlamlarida ro'y bergan tektonik o'zgarishlar natijasida Amudaryo o'zanini o'zgartirib, Xorazm vohasi tomonga yoyilib oqa boshlagan. Daryoning katta o'zanlaridan biri Sariqamish chuqurligiga quyilgan, ikkinchisi Oqchadaryo orqali shimolga oqqan, uchinchisi Orol chuqurligiga oqib, bu yerda katta ko'l tashkil etgan.

Bu davrda Sirdaryo ham Qizilqum sahrolaridan o'tib, Orol sari oqa boshlagan. Shunday qilib, keyinchalik Amudaryoning 1036 kilometri qoraqum va qizilqum sahrolari orasidan oqib o'tib, o'z suvini Orol dengiziga quygan. Amudaryo suvlari bilan har yili qariyb 200 mln tonna loyqa oqib kelgan. Uning loyqaligi Nil daryosiga nisbatan ancha ziyod bo'lgan. V.V.Sinzerling tuzgan jadvalga ko'ra, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanadigan Sharq mamlakatlaridagi yirik daryolarda loyqaning miqdori quyidagicha bo'lgan: Nil daryosi - 0,4 - 0,01%, Hind daryosi - 0,77-0,08%, Amudaryo - 0,77-0,66%, Dajla


daryosi - 0,77-0,19%, Sena daryosi - 1,77-0,41%. Ma'lumki, suvning fizik va kimyoviy tarkibi, uning ichidagi loyqa deb ataluvchi qattiq zarrachalar tuproq unumdorligini oshirishda yetakchi omildir. Biroq, har doim ham suvda loyqa miqdorining ko'p bo'lishi dehqonchilikda foyda keltiravermaydi. Bu borada loyqaning katta — kichikligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Dehqonchilik uchun eng foydali bo'lgan loyqa zarralari o'rtacha kattalikdagi (diametri 0,05 dan to 0,005 mm gacha) oqizmalari hisoblanib, ular loyqaning yopishqoqlik xususiyatini kamaytirgan.

Mil.avv. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning boshlarida ibtidoiy jamoa tuzimi zaminida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bir tomondan, qadimgi chorvador aholi yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi hayot tarziga faol o'ta boshlagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ana shu chorvadorlarning bir qismi dehqonchilikka qulay, pastqam, zaxkash joylarda, tog' bag'ridan tekislik tomon oqqan katta - kichik soylar bo'ylarida, daryolarning irmoqlari etaklarida hosil bo'lgan taqir joylarda dehqonchilik qila boshladilar. Ana shunday joylarda qishloqlar qad ko'tardi. Bu qishloqlar atrofida ekinzor dalalar, ularga suv keltiruvchi kanallar va ariqlar tizimi paydo bo'ldi. Bu jarayon chorvadorlar hayotida allaqachonlar boshlanib ketgan edi.

Qadimgi Xorazmda olib borilgan ilmiy izlanishlar bronza davri cho'l qabilalari hayotida bu jarayon mil.avv II ming yillikning o'rtalaridan boshlab sodir bo'lganligidan dalolat beradi. Miloddan avvalgi III —II ming yilliklarda Xorazm vohasida yashagan qabilalar asta-sekin shimolga-Oqchadaryo bo'ylariga ko'chib, sun'iy sug'orish usullarini o'zlashtira boshlaganlar. Tabiiy sharoiti kanallar qazib, suv chiqarish imkonini bergan zonalar (Ko'kcha, Qavat, Yakkaporson) da sug'orma dehqonchilik shakllana boshlagan. Qadimgi Xorazmning Tozabog'yob madaniyati keng tarqalgan hududlardagi sug'orish ariqlari, dehqonchilik dalalari B.V.Andrianov tomonidan atroflicha o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida bu davrga xos madaniyat Zarafshon etaklarida istiqomat qilgan chorvador qabilalar o'rtasida ham keng tarqalganligi aniqlandi. Ular asosan, chorvachilik va qisman qadimgi suv

havzalarining pastqam va zaxkash qismlarida ibtidoiy dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Quyi Zarafshon urug' jamoalari yarim yerto'la va chaylalarda yashaganlar. Bu jamoalar a'zolari yasagan sopol idishlarning shakli va naqshlari, ishlanish va pishirish texnologiyasi tozabog'yobliklarnikidan deyarli farq qilmaydi. Quyi zarafshonliklarning turmush tarzi tozabog'yobliklardan deyarli farq qilmasligi, ularning o'zaro iqtisodiy, madaniy va etnik aloqada bo'lganliklaridan dalolat beradi.

Cho'l zonalarida yashagan qabilalarga xos yodgorliklar Farg'ona vodiysida ham bir qadar keng o'rganilgan. Bular jumlasiga Farg'ona viloyatining Vodil va Karamkul qishloqlaridan topilgan qadimgi qabristonlarni, Xo'jand viloyatidagi Qayroqqum va Dahana qabristonlarini kiritish mumkin. Qayroqqumda o'tkazilgan arxeologik qidiruv ishlari jarayonida, asosan uch joyda qadimgi manzilgohlar topildi. Qayroqqumning g'arbida joylashgan Sho'rko'l atrofidagi Taqir yagona deb atalgan markaziy va sharqiy manzilgohlar shular jumlasidandir. Bulardan tashqari, 60 dan ortiq chorvador urug' jamoalarining mavsumiy qarorgohlari o'rganildi.



Amudaryoning o'rta oqimidagi qadimgi aholi yashagan manzilgoh xarobalari¹³

¹³ G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. Qadimgi zamondan hozirgacha. -T., 1959. – 22-bet.

Bu makonlardan minglab chizma naqshli sopol parchalari, bronza va toshdan ishlangan mehnat qurollari, hayvon suyaklari, ko'llarning qoldiqlari topildi. Sopol parchalarining naqshlari, shakli, qo'pol va mo'rtligi jihatidan Toshkent vohasi, Zarafshon vodiysi va Amudaryo etaklarida o'rganilgan bronza davri chorvador qabilalarinikiga o'xshashdir.



Buxoroning qadimgi sug'orilgan yerlari. Qorovultepa atroflari¹⁴

Xulosa qilib aytish mumkinki, miloddan avvalgi II ming yillikning II yarmida O'rta Osiyoning tog'oldi rayonlari, cho'l va dasht zonalarida chorvador qabilalar keng tarqalgan edi. II ming yillikning oxirlarida ularning dehqonchilik jamoalari hududlariga kirib kelishi O'rta Osiyoda etnik jarayonlarning faollashuviga va o'zaro tovar almashinuvining kuchayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu, o'z navbatida ibtidoiy jamoa tuzumiga zarba berib, uning negizida sinfiy jamiyatning shakllanishiga zamin yaratdi. Ana shunday tub o'zgarishlar zahirida jamoalar orasida mulkiy tengsizlik kechagi o'troq chorvadorlarning bugun yarim ko'chmanchi va o'troq hayot tarziga o'tishi yotar edi. O'rta Osiyo hududida yuz bergan migratsiya va etnik jarayonlar o'zbek xalqi dastlabki etnik qatlamlarining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Mil. avv. II ming yillikning oxirlariga kelib, Farg'ona vodiysida ham dehqonchilik

¹⁴ Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi (Qadimgi davrdan – XX asr boshlarigacha). – T., 1972. – 11-bet

madaniyati chorvador qabilalarning bir qismini o'troq turmush tarziga o'tishi ta'sirida ancha takomillashdi.

Shunday dehqonchilik manzilgohlaridan biri 1951-yilda N.E.Vorones tomonidan Chust shahri yaqinidagi Buvanamozor deb atalgan buloq yaqinidan topib o'rganilgan. Arxeologlar bu yodgorlikka shartli ravishda Chust madaniyati deb nom berishgan. Hozirgacha vodiya Chust madaniyatiga oid yodgorliklarning 80 dan oshiq turi topilgan bo'lib, ular 2 davrga:

- 1) bronza davrining so'nggi bosqichi yodgorliklariga;
- 2) mil. avvalgi VIII —VII asrga tegishli ilk temir davri yodgorliklariga bo'linadi.

Chust madaniyati Farg'ona vodiysida dehqonchilik bilan shug'ullangan eng qadimgi qabilalar madaniyati bo'lib, bu davr yodgorliklari tarixiy — topografik tarkibiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

- 1) maydoni bir gektargacha bo'lgan mayda manzilgohlar bo'lib, ularning har birida bir urug' (oila) jamoasi istiqomat qilgan;
- 2) maydoni 10 va undan ortiq gektarlarga teng bo'lgan qishloqlar.

Bu qishloqlarning har biri sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan yirik qabilalar birlashmasidan iborat bo'lgan. Qadimgi dehqonchilik markazlari quyidagi tizimda shakllangan: Chust madaniyati yodgorliklarini qazish jarayonida ularning quyi qatlamidan doira shaklida qazilgan o'nlab o'ralar topilgan. Masalan, Chust makonida 60 dan ortiq, Chimboy makonida esa 16 ta ana shunday o'ralar ochilgan. Bu o'ralarning qanday maqsadda qurilganligi to'g'risida har xil fikrlar mavjud. Bir guruh olimlar ulardan yashash uchun kulbalar sifatida foydalanilgan deyishsa, boshqa bir guruh olimlar Farg'ona vodiysida yaqin vaqtlargacha foydalanib kelingan g'alla omborlari bo'lgan deb faraz qiladilar. Bizning nazarimizda keyingi xulosa haqiqatga yaqindir. Bu qadimda ko'chmanchi turmush tarzida hayot kechirgan qabilalarning o'troq turmush tarziga o'tgan qismining yashash uchun yarim yerto'la va chaylalar qurib olganliklaridan dalolat beradi. Qishloqlar qalin

mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Chust madaniyatining so'nggi davrlarida aholi o'rtasida otashparastlik dini ham yoyila boshlagan.

Chust madaniyati aholisi dehqonchilik ekinlaridan bug'doy, arpa, tariq ekishgan. Chorvachilikda esa qoramol va qo'y-echki boqish yetakchi o'ring tutgan. Chustliklar g'allalarini 200 kilogrammdan to 2 tonnagacha don sig'adigan o'ralarda saqlashgan. Dehqonchilik ishlarida, yer haydashda, ekinlarni yanchishda hayvonlar kuchidan foydalanilgan. Qadimgi Farg'ona vodiysining hozirgi Qirg'iziston hududiga kirgan Soymalitosh qoyasi suratlarida qo'shga qo'shilgan ho'kizlar tasvirlangan. Chust madaniyati yodgorliklarini qazish vaqtida to'qimachilik dastgohiga tegishli urchuq toshlar, moki va sopol bo'laklarining ko'plab topilishi, bu yerda to'qimachilik va hunarmandchilikning ancha rivojlanganligini ko'rsatadi. Biroq, bu davrda sopol idishlar asosan qo'lda yasalib, hali kulolchilik dastgohidan foydalanishga o'tilmagan. Shuningdek suyakdan yasalgan taroqlarning topilishi o'sha davrda chustliklar o'zlariga oro berishni ham bilganliklaridan dalolat beradi. Chust madaniyatiga oid to'la tadqiq qilingan yodgorliklarning kamligi, ularning yaxshi saqlanmaganligi sababli, tipologik tasnif va tashqi belgilarini hisobga olgan holda, ular uch guruhga ajratiladi:

1. Yirik (13 - 25 ga) - Ashqoltepa, Dalvarzin;
2. O'rta (1-5 ga) - Chust, Dehqon, O'sh, Xo'jambog';
3. Kichik (0,02 - 0,9) - bu guruhga mazkur madaniyat ob'yektlarining asosiy qismi kiradi.

Shunday qilib, so'nggi bronza va ilk temir davrida Chust madaniyati yodgorliklari Farg'ona vodiysi tarixida shahar madaniyatining vujudga kelishi va davlatchilik unsurlarining paydo bo'lishi jarayonlarini o'rganishda muhim o'ring tutadi. Farg'ona vodiysida keyingi yillarda olib borilgan arxeologo — paleogeografik tadqiqotlar bu hududdagi sug'orma dehqonchilik tarixiga bir qator aniqliklar kiritdi. Miloddan avvalgi X—IX asrlardan boshlab vodiya sug'orma dehqonchilikka e'tibor kuchaygan. Masalan, Kosonsoyning quyi oqimida joylashgan Axsikent vohasining asosiy qismi o'zlashtirilgan bo'lib,

(Eski Axxi yodgorligi)fonida qadimgi dehqonlar qarorgohi bo'lganligi aniqlandi. O'sha davrlarda Farg'ona vodiysida o'nlab bunday manzilgohlar bo'lib, qadimgi Dalvarzin shahri Farg'ona vodiysining ilk poytaxti bo'lganligi haqiqatga yaqinroqdir. Ayni paytda shuni ham ta'kidlash lozimki, murakkab relyefga ega bo'lgan vodiyning daryo va havzalaridan sug'orish inshootlari qurib, kanallar chiqarish va sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanishni oddiy dehqon jamoalarining uddalashi qiyin edi. Bunday ishlarning bajarilishiga davlat boshlig'i rahnamolik qilib turganligi ehtimoldan holi emas. Miloddan avvalgi II ming yillikning oxiri - I ming yillikning birinchi yarmida O'rta Osiyoda sodir bo'lgan iqtisodiy o'zgarishlar Toshkent vohasi aholisi hayotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu vohada joylashgan chorvadorlar ham asta-sekin dehqonchilik uchun qulay bo'lgan joylarda doimiy qarorgohlarini bunyod etdilar. Chirchiq, Ohangaron daryolari va ularning irmoqlari bo'lgan katta va kichik soylar Toshkent vohasida dehqonchilikning vujudga kelishi va rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatgan.

Bu hududagi Burg'uluq madaniyati deb nomlangan ilk dehqonchilik madaniyati miloddan avvalgi IX - IV asrlarda shakllangan. Bu davrga oid qishloqlar xarobalarini qazish vaqtida ko'plab sopol parchalari, qumtoshdan yasalgan o'roqsimon pichoqlar, bronzadan yasalgan o'roq va pichoqlar, bigiz, oyna, ignalar topilgan. Topilmalar orasida ko'plab tosh qurollar bo'lib, ular ichida yorguchoqlar, tosh o'g'ir va ugir o'g'ir soplari, ikki parrakli paykonlar ham uchraydi. Sopol idishlarning silliq qilib ishlanmaganligi¹⁵ ularning shu usulda yasalganligini ko'rsatadi.

Toshkent vohasida dehqonchilik madaniyati sifatida o'rin tutgan Burg'uluq madaniyati ikki bosqichdan iborat. Uning birinchi bosqichi miloddan avvalgi IX - VII asrlar, so'nggi bosqichi esa miloddan avvalgi VI - IV asrlarni o'z ichiga oladi . Birinchi bosqichida yarim yerto'la va chayla tipidagi kulbalarda yashab, dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Ikkinchi bosqichda

¹⁵ Garant. Anorboev A., I s l o m o v U., MatboboevB. "O'zbekiston tarixida qadimgi Farg'ona. —Toshkent: «Fan», 2001. 6 — 6.

esa ularning ijtimoiy — iqtisodiy va madaniy hayotida tub o'zgarishlar yuz bergan. Bu davrga kelib, ular guvala va xom g'ishtdan kulba qurishni o'zlashtirib olganlar. Ularning qishloqlari atrofida mudofaa devorlari paydo bo'lgan. Dehqonchilikda sun'iy sug'orish usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotlar miloddan avvalgi X - VIII asrlarda chorvador qabilalar hayotida yarim ko'chmanchilik va o'troqlashish jarayoni kuchayib, dehqonchilik zonalarida esa yirik kanallar va ariqlar qurishga asoslangan sun'iy sug'orish tizimi takomillashib borganligini ko'rsatadi. Bu davrda jamiyatning iqtisodiy yuksalishi ibtidoiy jamoa tuzumi zaminida harbiy demokratiya prinsiplariga asoslangan dastlabki davlat tuzilmalarining paydo bo'lishiga sharoit yaratdi.

Bu davrda dehqonchilik bilan shug'ullana boshlagan kishilarning daryolar va yirik-yirik soylar bo'ylarida sug'orma dehqonchilikka asoslangan o'troq turmush tarziga o'tishlari aholining vohalarga bo'linib yashashlariga zamin yaratdi. Sug'orma dehqonchilikning tobora kengayib borishi davlatchilik tizimining vujudga kelishida muhim o'rin tutgan. Chunki, markazlashgan boshqaruv tizimi orqaligina aholining ko'pchilik qismini yirik sug'orish inshootlarining qurilishiga jalb qilish mumkin edi. Sirdaryoning O'rta oqimi chap sohillarida dastlabki dehqonchilik manzilgohlari miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida Xo'jamushkentsoy, Shurbo'loqsoy bo'ylarida paydo bo'lgan. Xo'jamushkentsoy bo'ylaridagi Xontepa, Saganaktepa, Xitoytepa yodgorliklarini dastlabki manzilgohlar jumlasiga kiritish mumkin. Bu manzilgohlardan eng yirigi Xontepa bo'lib, mutaxassislarning fikricha, u miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalarida saklar tomonidan bunyod etilgan.

Sho'rbo'loqsoy bo'yida joylashgan Nurtepa va Zeki Xovos yodgorliklari ham shu davrga oiddir. Miloddan avvalgi VII asrlarda vujudga kelgan Nurtepa yodgorligi dastlab o'troq aholi yashagan manzilgoh bo'lib, u miloddan avvalgi VI - V asrlarda shahar — qal'aga aylangan. Nurtepaning umumiy maydoni 18 gektar bo'lib, u alohida mudofaa devori bilan o'ralgan. Shahar - qal'a ark va shahriston qismlaridan iborat bo'lgan. Kvint Kursiy Ruf Sirdaryoning chap qirg'oqlarida yashagan aholi haqida, o'zlarining bosh

shaharlari Kiropolni makedoniyaliklardan himoya qilgan «mamakenlarning kuchli qabilasi» bo'lganligini yozib qoldirgan. I.V.Pyankovning fikricha, markazi Kiropol bo'lgan butun voqa aholisi «mamakenlar» deb atalgan. Chamasi, mamakenlar viloyatning qadimgi aholisini tashkil qilgan qabilalardan birining nomi bo'lib, keyinchalik bir - biriga yaqin bo'lgan qabilalardan tashkil topgan elatning umumiy nomiga aylangan. Bu elatga tegishli madaniyat ko'pincha Nurtepa madaniyati deb ataladi.

Quyidagilar Nurtepa madaniyatining xarakterli belgilaridir:

1. yarim yerto'la tipidagi uy-joylar, paxsa va xom g'ishtdan qurilgan imoratlar (ariq mudofaa inshootlari)ning paydo bo'lishi;
2. O'rta Osiyoning o'sha davri uchun xos bo'lgan rangli, silindr shaklidagi sopol idishlarning bu yerda uchramasligi;
3. sopol idishlarning guldan yasalganligi.

Bu hududda yashagan aholining asosiy qismi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Soylardan ko'plab ariqlar chiqarilib, sug'orma dehqonchilik yo'li bilan arpa, bug'doy yetishtirilgan. Chorvachilikda qo'y va echki boqish yetakchi o'rin tutgan. Manzilgohlardan temirdan yasalgan ko'plab pichoqlar, o'roqlar, sopol idishlar va yorg'uchoqlarning topilishi bu davrda hunarmandchilik ancha shakllanganligini hamda temirdan foydalanishga o'tila boshlanganligini ko'rsatadi.

1.3-§. O'zbekistonda dastlabki irrigatsiya tarmoqlarining vujudga kelishi

Sun'iy sug'orish O'rta Osiyodagina emas, umuman, butun Sharqda quyidagi fizik-geografik sharoitlarda vujudga keldi.

1. Tog' daryochalarining allyuvial loyqalaridan hosil bo'lgan unumdor vodiylarda;
2. Tekislikda oqadigan katta daryolarning adoqlarida va deltalarida.

Tog' etaklaridagi vohalar (Janubiy Turkmaniston) sharoitida tor daryochalarining oxirida hosil bo'lgan limanlar o'troq dehqonchilikning erta

rivojlanishiga yordam bergan. O'z dehqonchilik tajribalarining boshlang'ich davrlarida bu hududlarning ibtidoiy aholisi xuddi mana shu tabiiy sharoitlarga tayangan. Ovchilik mahsulotlari bilan bir qatorda, ular tabiiy ravishda vujudga kelgan vohalardagi tabiiyot nozi-ne'matlaridan foydalanganlar, bu vohalar dastlabki vaqtlarda ular uchun mahsulot yig'ish manbai bo'lgan.

Tog' daryolarining allyuvial loyqalari ustida o'sgan g'alla o'simliklarining yovvoyi turlari Zakaspiyda yashagan ibtidoiy odamlarning diqqatini jalb qilmay iloji yo'q edi.

Tuproqshunos va arxeolog olim D.D.Bukinich Kopetdog' tog'oldilaridagi hududlarni uch yil davomida gidrogeologik va arxeologik jihatdan har tomonlama to'la tekshirish natijasida Zakaspiy liman¹⁶ tabiatini o'rgandi va bu yerda dehqonchilik madaniyatining bunday erta rivojlanish sharoitlarini yoritdi.

Ekin dalalari barpo qilish uchun qulay bo'lgan yasen liman relyefini ko'rsatib, D. D. Bukinich, ibtidoiy dehqonga faqat dala atrofiga pastgina ko'tarma qurib, vaqtincha suvni to'sib qo'yish kerak bo'lgan deb yozadi. D. D. Bukinich «xuddi mana shu liman usuli hozirgi zamon irrigatsiyasining dastlabki namunasi bo'lgan» deb hisoblaydi.

D.D.Bukinichning xulosasi to'g'ri, ayniqsa Kopetdog' tog'oldilari sharoitlari uchun to'g'ridir. Dehqonchilikning asta-sekin rivojlanib borishi sun'iy liman ham yaratishga majbur etdi.

Dehqonchilikka o'tish kishilarni yangi va qulay suvlardan foydalanishga va qo'shimcha, ancha intensiv mehnat usullarini yaratish uchun tashkiliy ravishda kurash olib borishga olib keldi. D.D.Bukinich o'ylaganicha, dehqonlar jamoasining ko'payishi ularni Mesopotamiyaga ko'chishga majbur etgan emas, balki ancha katta yer uchastkalarini o'zlashtirish uchun kurashishda, katta liman ko'tarmalarini (marza) barpo etishda, katta-katta maydonlarga, Tajan, Murg'ob va shu kabi boshqa tog'-daryolarining yopiq deltalari va suvi qurib qolayotgan tarmoqlari suvini boshqarish yo'li bilan sun'iy ravishda suv bostirishda aholini bir-birlari

¹⁶ Liman deb tog' soylari etaklarida to'planib, ko'lga o'xshab yotadigan joylarni aytiladi. Uning cho'kma loyqasiga ekin ekiladi.

bilan jiplashtirdi. Ana shu yo'l bilan ibtidoiy dehqonchilik sun'iy kanallar yaratishgacha borib yetdi. Hozir biz ana shunday tabiiy geografik sharoitlarda yashagan ko'pgina mamlakat va xalqlarning ibtidoiy dehqonchiliklari uchun bu yo'lni bosib o'tish, majburiy va qonuniy edi deb o'ylaymiz; D.D.Bukinich o'z asarlarini yozgan o'sha vaqtda Farg'onada hali arxeologiyak tekshirishlar o'tkazilmagan edi. Shu sababli D.D.Bukinich «Farg'onaga odamlar irrigatsiya san'ati gullagan vaqtda kelganlar» deb taxmin qilgan.

1933-1934 yillarda B.A.Latinin tomonidan Haqqulobod va Kuray stansiyalari rayonlaridagi Qizilyor tog'oldi dashtida (Farg'ona) o'tkazgan arxeologik tekshirishlar u yerda ham irrigatsiya kanallari barpo etilishidan avval ibtidoiy dehqonchilik qishloqlari deyarli xuddi yuqorida ko'rsatilgan sharoitlar zaminida vujudga kelganligini ko'rsatdi.

Garchi Janubiy O'zbekistan va O'rta Osiyoning boshqa hududlarida tog' daryolari va soylari oqib chiqadigan tog'oldi rayonlari muntazam tekshirilmagan bo'lsa-da, ammo biz bu yerlarda ham, xuddi Kopetdog' tog'oldi rayonlaridagidek sel oqimlari polosasini sun'iy ko'tarmalar surib to'sish bilan bog'liq bronza davri yodgorliklari mavjud bo'lgan o'troq dehqonchilikni kuzatamiz. Ba'zi bir tog'li rayonlarda tog'li Hindiston bandlariga bir daraja o'xshab ketadigan sodda suv omborlari bo'lganligining ishoralari bor. Bu o'rinda Nurota tizma tog'ining shimoliy yonbag'rida sun'iy sug'orish dehqonchiligi usullari ustida qisqagina to'xtalib o'tish mumkin.

1947-yilda qilgan arxeologlarning tadqiqotlarida bu yerlarda ham sug'orib dehqonchilik qilish, xuddi Kopetdog' etaklaridagi kabi yo'l bilan vujudga kelgan va rivojlangan bo'lishi mumkin deb taxmin qilgan edi.

Ya.G'ulomov rahbarlik qilgan O'zbekiston-Zarafshon ekspeditsiyasining Nurota otryadi tomonidan 1948 yil yozida tog' tizmasining butun shimoliy yonbag'ri bo'ylab o'tkazilgan marshrut razvedkasi natijasida bu taxmin to'la tasdiqlandi. Nurota tizma tog'lari sharqdan g'arbga cho'zilgan; uning shimoliy «yonbag'ri Qizilqum sahrosi tomoniga ro'paradir. Nurota tizmasining sharqiy qismi yonida birin-ketin tor va baland bo'lmagan tog' tizmalari-avval Pistalidog',

keyin Pasdog‘ tizmalari cho‘zilib yotadi. Nurota tizmasining o‘zi baland, qoyali va Qizilqum tomoniga chiqadigan juda ko‘p uzun daralari bor. Har bir dara tagida ko‘pdan-ko‘p bo‘laklardan tashkil topgan kichik-kichik soylar oqadi. Soylarning suvi daradan chiqqandan keyin tekislikda g‘oyib bo‘ladi. Bahorda yomg‘irlar yog‘ib, qorlar eriganda bu soylar loyqa suvli jo‘shqin daryolarga aylanadi.

Tizmaning sharqiy qismidagi soylar daralardan chiqqandan so‘ng shiddat bilan Pistalidog‘ va Pasdog‘ etaklari tomoniga yo‘l oladi. Soy daradan chiqqandan keyin dastlab keng va tezoqar daryocha hosil qilib, mayda va yirik toshlar orasidan oqadi. Bu toshlar daralardan oqizib chiqarilgan bo‘lib, ko‘pincha suv yo‘lini to‘sib yotadi. Shunday qilib, uzunligi taxminan 5 km, kengligi 1-2 km keladigan uzun bir maydon yoppasiga mana shu toshlar bilan qoplangan va shuning uchun ham «Sangloq» (toshloq) deb ataladi. Keyinchalik joy hududi asta-sekin kamayadi, soy o‘zani borgan sari sayozlanadi va soy suvi keng bo‘lib, toshganga o‘xshab oqadi. Bu yerda u o‘zi bilan oqizib ketayotgan shag‘al va qumni cho‘ktirib qoldiradi, ammo loyqani Pistalidog‘ va Pastdog‘ etaklarigacha olib boradi. Xullas, bu ikkala tog‘ tizmasi soy suvlari uchun ko‘ndalangiga yotgan tabiiy ko‘tarilmadir. Suvdagi barcha loyqa shu yerda cho‘kadi va shu sababli bu yer «Loyqa» nomi bilan yuritiladi. Loyqa tarkibida ko‘p miqdorda qum bo‘lganligidan va shu sababli suv ancha chuqurlikka singib keta olganligidan bu yerda ekinni birinchi haydashdan keyin ekadilar.

Dastlab, aftidan, ekinni to‘g‘ridan-to‘g‘ri suyuq loyqaga ekan bo‘lsalar kerak, keyinchalik mahalliy dehqonlar bu loyqaning xususiyatini juda yaxshi bilib olganlar. Boshloqlar chiqara boshlagan davrda, kuzgi yomg‘ir yog‘adimi-yo‘qmi, baribir, albatta sug‘oriladi, chunki bu sug‘orish hosilni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Sug‘orish uchun soy suvidan foydalaniladi. Juda qadim zamonlarda daralarning ichkarisidagi deyarli hamma yerlarda kichik-kichik suv omborlari barpo etilgan bo‘lib, bularga har kuni suv to‘plangan va o‘rnatilgan tartibga muvofiq ulardan navbati bilan dalalarga suv yuborilgan. Dalalar bilan har bir soyning «loyqalar»i o‘rtasidagi masofa katta bo‘lishiga qaramasdan, suv omborlari orqali yuborilgan suv ekin dalalariga yilning barcha mavsumlarida

yetarli bo‘ladi va bug‘doy, arpa, tariq, kunjut, qovun va boshqalarni yetishtirishga imkon beradi.

Bu loyqalarda doimiy dehqonchilik qishloqlarining yo‘qligi dastavval, Nurota tizma tog‘i ichidagi daralarning tabiiy va strategik jihatdan qulayligi bilan tushuntiriladi. Ular Qizilqum tomonidan esadigan kuchli shamollardan ixota qilingan, shuning uchun yalang tekislikka qaraganda u yerda issiqroqdir. Daralarning yuqori qismida juda ko‘p yong‘oq, bodom o‘sadi. soyning har ikki tomonidagi yonbag‘ir esa tokzorlar bilan qoplangan. Buloqlardan chiqib turadigan suvning doimo bo‘lishi u yerda yashovchi aholini va ularning chorva mollarini suv bilan ta‘min etgan. Har bir daraga kirish joyiga qadimgi davrlardayoq tashqaridan qilinadigan hujumlarga qarshi maxsus istehkomlar qurilgan. Dasht ko‘chmanchilarining bevosita yaqinligi ayniqsa xavfli bo‘lgan. Shu sababli rayonning butun aholisi yashash uchun qulay bo‘lgan daralarni tashlab ketmay, Nurak, Osmon, Kulba, Uchma, Uxum, Forish, Mojrum, Sintob, Sof, Kattaxij, Temurqobiq va boshqa soylarning loyqalarida keng ko‘lamda dehqonchilik xo‘jaligi bilan shug‘ullanganlar.

Hozirgacha aholi foydalanib kelayotgan dara ichkarisidagi suv omborlari — «hovuzlar»ning qurilishi juda soddadir. Soyning biron qirg‘og‘idagi tog‘ etagidan o‘rtacha kattaligi 60x40 m keladigan qulay maydoncha tanlanib, uning uchta tomonini katta-katta toshlar bilan ko‘taradilar. Pastga nishab tomonga balandligi 2 m, qalinligi 1,5-2 metr bo‘lgan tosh devor bilan to‘siladi. Buning ro‘parasidagi tomon esa, u tog‘ yonbag‘ri bo‘lgani uchun ko‘tarilmaydi. Hovuzning qolgan tomonlari esa nishabiga muvofiq ko‘tariladi. Hovuzlar shunday qurilganki, ularga soyning hovuzdan yuqoriroqda oqadigan suvi tushadi. Hovuzga faqat bir joydan suv kiradi, u eng yuqori nuqtada joylashgan, kichikroq teshik shakliday, odatda suvning bir qismi oqib chiqadigan joyi esa, soy oqimining quyi tomoniga qarama-qarshi ko‘tarilmaning pastki qismida joylashgan. Hovuzdan suvni chiqarishni boshqarib turadigan birdan-bir mexanizm suvga tushirilgan uchiga eski qop, paxtalik eski to‘n parchasi va hokazo bog‘langan uch metrli uzun tayoqdir.

Suvni to'sib hovuzdan chiqarmaslik uchun teshikni ana shu qop bilan bekitadilar va tayoq suvdan tik ko'tarilib turadi. Suv chiqarish kerak bo'lsa, devor ustida turgan odam qop boylangan tayoqni tortib oladi va suv 4-5 soatlar oqib chiqadi, shundan keyin ertasi kunigacha teshikni yopib qo'yadilar. Suvdan navbati bilan jamoa-jamoa bo'lib foydalanganlar. Hovuzning bunday qurilishi suvni ancha tejab foydalanishga imkon beradi.

Bunday kichik hovuzlar bilan bir qatorda, bundan taxminan ming yillar ilgari Osmonsoy deb atalgan juda katta suv ombori qurilgan edi. U o'z zamonasi uchun juda katta inshoot bo'lgan. Bunga keladigan Ilonchi soyning suvi juda ko'p, uning bahorgi jo'shqin suvlari Yangiqishloq qarshisida Pastdog'ni yorib o'tib, Qizilqum chegarasidan tekislikka chiqadi.

Unumdor loyqaning asosiy massasi ancha uzoq va buloq suvlari borib yetmaydigan Kaltepa tekisligida to'planganligi uchun X asrda somoniylar davrida u yerni doim suv bilan ta'min etish uchun suv ombori qurishga qaror qilingan. Ilonchisoy oqib o'tadigan Pasttog'dagi dara to'g'on qurish uchun eng qulay joy edi. Boshlang'ich joyida 260 m kenglikka ega bo'lgan kichik bir dara borgan sari torayadi, so'ngra 420 m masofada u ikki tomondan tik tushgan qoyalar orasida qisiladi, uning eni hammasi bo'lib 50 m dan sal oshadi. Soy mana shu yerda suvga chidamli maxsus aralashma qo'shilgan alebastr qorishma bilan mustahkamlangan yo'nilgan toshlardan katta to'g'on bilan to'silgan.



Ilonchisoy oqib o'tadigan Pasttog'dagi Somoniylar davrida barpo etilgan dara to'g'oni. X asr.

To'g'onning balandligi 16 m ,eni tagi asosida 8-10 m, tepasi 2,3 m, uning orqa tomoni deyarli tik bo'lib, ikki joyida yarim konus shaklidagi tayanchig'lar bilan mustahkamlangan, bular to'g'onga me'moriy manzara berib turadi. To'g'onda o'nta teshik ochilgan, ulardan hozir to'qqiztasi saqlanib qolgan. Har bir teshik o'tkir uchli peshtoq shaklida bo'lib, balandligi 60 sm, eni 50 sm dir. Teshiklarning chetiga juda puxta qilib yo'nilgan tosh terilgan. Teshiklar ancha murakkab joylashgan va qisqagina izoh talab qiladi. To'gon, yuqorida aytilganidek tor joyda ko'rilgan, bu yerda har ikki tomondan bahaybat kulrang granit qoyalar qad ko'tarib turadi, bulardan, ayniqsa, g'arbiy tomondagisi katta burchak shaklida oldingi tomonga moyil bo'lib turadi.

Shuning uchun ham to'g'on asosining ravog'i ustki ravoqdan ancha kichik. "Ustki ravoq 51 m ga yetadi, suv chiqaruvchi teshiklar esa deyarli diagonal bo'ylab joylashgan bo'lib, ular g'arbiy qoya qiyaligiga paralleldir. Bu yerda quruvchining dono injenerlik rejasini tuzganligi ko'rinib turadi. Katta bosim bilan har qaysi teshikdan otilib chiqayotgan suv dastlab shu qoyaga tushadi va so'ngra undan quruq o'zan bo'ylab qazilgan kichik ariqqa oqib tushadi. Ariqdan o'zanning har ikki tomonidan oqadi, ariqlarning kengligi ikki metrdan oshmaydi va ular qurib qolgan soyga qaraganda ancha baland o'rnatilgan. G'arbiy ariqqa suv osongina tushadi, ammo ikkinchi, sharq tomondagi ariqqa quruq o'zan orqali suv chiqarish uchun maxsus maydonchada to'g'onning o'zini qurgan materialdan va xuddi shu usulda kichkina to'g'on qurishga to'g'ri kelgan. Bu irrigatsion inshoot to'g'ondan 4 km shimoli-g'arbda joylashgan Kaltepa tekisligiga suv bergan. Bu yerda, Pastedog'ning shimoliy etagidan to Qizilqumgacha borib yetadigan katta tekislikda sathi 50x50 m kvadrat shakldagi kichik bir Kaltepa deb atalgan do'ng bor, u sun'iy ko'tarilmadir. Do'ng to'rtta nuragan qalin devordan iborat bo'lib, 2-2,5 m balandlikkacha saqlanib qolgan. Devor burchaklarida va o'rtasida qalin qilib solingan dumaloq burchlari bo'lgan.

Janubi-sharqiy burchi yonida birdan-bir mustahkamlangan eshik bo'lgan. Devorlarning orqasida xandaq qazilgan bo'lib, xandaqning narigi tomonida mudofaa qilinmagan qishloq bo'lgan, unda binolarning izlari hali ham bor. Asosan,

sirlangan va sir berilmagan kulolchilik buyumlaridan iborat topilgan materiallarga va Kaltepaning mustahkamlanish tipiga qarab, bu yerdagi qishloq eramizning X-XII asrlarida mavjud bo'lgan deb aytish mumkin. Kaltepa do'ngligining o'zi kattaligi jihatidan ham, ichki planlashtirilishi va mustahkamlanishi, shuningdek, strategik o'rni jihatidan ham, O'rta Osiyoning katta karvon yo'llarida quriladigan o'rta asr rabotlari tipiga kiradi.

Haqiqatan ham, Kaltepa yonidan Buxoroni Qozog'istondagi Isfijob bilan bog'laydigan katta eski yo'l o'tgan. Bu yo'ldan, deyarli bir-biridan barobar masofada: Otaqo'rg'on, Qoratepa, Temurqobiq va boshqa rabotlar joylashgan. Bizning fikrimizcha, Kaltepa atrofidagi qishloq yaxshi mustahkamlangan rabot asosida va Osmonsoy suv ombori orqali suv bilan ta'minlashni boshqarib turish zaruriyati ostida vujudga kelgan. Ilgarilari sug'orilgan va unumdor yerlardan iborat bo'lgan Kaltepa atrofi hozirgi vaqtlarda yantoq bosib yotibdi.

To'g'onni qurish vaqtini biz, birinchidan, Kaltepada hayot avj olgan vaqt bilan, shubhasiz, rabotning qurilishi ham bunga bog'liq bo'lgan va ikkinchidan, to'g'on atrofida sochilib yotgan idish siniqlariga qarab belgilaymiz. Suv ombori hozirgi vaqtda Osmonsoy oqizindilari bilan tepasigacha liq to'lgan. Suv chiqadigan teshiklar ichidagi bo'shliq ularning loyqa bosish protsessi boshlanishidan avval yopilib qolganligini ko'rsatadi. Shunday qilib, suv omborining to'g'oni hozir juda yaxshi saqlangan bo'lib, o'n olti metrli tik devor shaklida ko'rinadi. Mahalliy aholi to'g'onni «Xon bandi» (Xon to'g'oni) deb ataydi va uni Abdullaxon-Shayboniy (1575—1598 yillar) qurgan deydi. Biroq bu noto'g'ri, chunki to'g'on Abdullaxon zamonasidan 600 yildan ko'proq vaqt ilgari qurilgan.

«Xonbandi» dan 3-4 km g'arbroqda Pastdog' tog'ining tizmalari tamomlanadi va Uchma, Uxum, Forish, Mojrum, Sintob, Sof, Kattaxij, Temurqobiq va boshqa soylarning «loyqalari» hech qanday to'siqqa uchramay, to Qizilqum chegaralarigacha borib yetadi. Bu «loyqalar» nomlari yuqorida aytilgan daralarda qurilgan katta-kichik suv omborlari vositasi bilan sun'iy sug'oriladi.

Yuqorida qayd qilganimizdek, bu daralar ichkarisidagi sharoit ibtidoiy odam yashashi uchun juda qulay bo'lgan. Hozircha biz tomonimizdan Sintobsoyning

yuqori qismida faqat ilk bronza davrida yashagan odamning makoni va shu yerning o'zida ibtidoiy odam yashaganligining ishoralari bo'lgan g'or topildi, ammo qazish ishlari o'tkazilmasdan turib, sana qo'ymoq ancha qiyin.

Ibtidoiy dehqonchilikning rivojlanishiga qulaylik tug'dirgan ikkinchi, ancha kattaroq fizik-geografik zona tekislikda oqadigan katta daryolarning toshgan joylari va ularning asosiy delta tarmoqlari rayoni bo'ldi. Ovchi va baliqchilarning hayotini ta'minlamagani va ustida o'simlik o'smagani uchun shu nom berilgan. Shu bilan bir qatorda, bu joylar ibtidoiy dehqonlar xo'jaligining vujudga kelishiga va rivojlanishiga juda yaxshi sharoit yaratardi.

Bunday zonaga Nil vodiysini, Dajla va Frot daryolari havzalarining quyi qismi, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon va hokazolarning quyi oqimlarini kiritish mumkin. Amudaryo asosiy o'zanining o'z qirg'oqlariga bevosita toshadigan joylaridan, bu joylarning yuqori unumdorligiga qaramasdan, dehqonchilik uchun foydalanish mumkin emas. Bu ikki narsaga bog'liq: birinchidan, qirg'oq bo'yi hududi bo'sh bo'lganligidan toshqindan keyin suvni ushlab qoladigan dambalar qurib bo'lmaydi, ikkinchidan esa, Amudaryoning suv rejimi dinamikasi doim o'zgarib turganligi tufayli dehqonlar suv toshadigan joylardan dadil foydalanishdan cho'chiydilar.

Daryoda yozgi toshqinlar aprel-mayda boshlanadi, eng kuchli toshqinlar iyunda bo'ladi. Toshqinlar davri sentabr boshlarida tugaydi. Daryo va uning tarmoqlari bo'ylab hamda sun'iy kanallarning boshida joylashgan tekis polosalarda — g'alla ekinlari ekish quyidagi sabablarga ko'ra mumkin bo'lmagan: agar qayrning yozgi toshqin suvlari bosmaydigan uchastkalarida tuproq osti namiga umidlanib ekin ekish mo'ljallansa-da, ammo mayning ikkinchi yarmidan boshlanadigan jazirama issiqlarda nam yetishmay boshlaydi; quyoshning qizg'in nurlari ostida bug'doy, arpa va boshqa g'alla o'simliklarining qisqagina ildizlari nam oladigan qayr tuprog'i qatlamidagi nam bug'lanib ketadi va natijada bu o'simliklar boshoq tortmasdanoq nobud bo'ladi. Shuning uchun qayrlarda eng yaxshisi qovun, qovoq va shu kabi boshqa poliz ekinlari ekishdir, chunki bularning ildizi ancha chuqurlikka yetadi.

Xorazm aholisi qadim zamonlardan beri g'alla ekinlari ekish uchun eski daryo o'zanlari yoki qurib qolgan ko'llar kabi pastak yerlarni qidiradi. Bunday yerlarda yerosti suvlarining yuzasi ancha baland bo'ladi.

Toshqin vaqtida suv bosadigan qayrlarda g'alla ekinlarini ekib bo'lmaydi, chunki toshqindan so'ng ekilgan ekinlardan hech narsa qolmaydi, shuning uchun xorazmliklarning qishloqlari ham, ekin dalalari ham daryoning asosiy o'zani qirg'og'idan bir muncha masofada joylashgandir. Daryoning qirg'oq polosasi esa hamma yerda qum, to'qay va qamishzorlar bilan qoplangan.

Amudaryoning quyi oqimi havzasi O'rta Osiyo daryolari ichida eng ko'p tekshirilgandir. Oxirgi yillarda o'tkazilgan katta arxeologik ishlar tufayli xorazmliklarning ibtidoiy madaniyati, shu jumladan dehqonchilik madaniyati ham, daryoning asosiy o'zani bo'ylab emas, balki ikkita ulug' sahro - Qoraqum va Qizilqum sahrolari zonasi ichida uziqqa kirib boradigan uning yon tarmoqlari havzasida vujudga kelgan deb dadil aytishga qo'limizda ishonchli dalillar bor. Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi tarixiy davrgacha bo'lgan tarmoqlaridan biri, Beruniyda «Faxmi» nomi ostida eslatilib o'tiladi. U barcha alomatlar bilan hozirgi Suvyorganning qadimgi o'zaniga muvofiq keladi, ikkinchidan esa, hozir Dovdan nomi bilan yuritiladi. Sariqamish chuqurligi tomoniga oqqan va, aftidan, Sariqamishning janubida Chirmonyop rayonida qadimgi Xorazm madaniyatining rivojlanishiga imkon tug'dirgan.

Qadimgi sug'orilgan yerlardagi ibtidoiy madaniyat o'z joylanishiga va ahamiyatiga ko'ra, bu tarmoqlarning har biri Nil deltasining g'arbiy qismida Fayum madaniyati bilan bog'liq bo'lgan Nilning qadimgi o'zani - Baxri Yusufni eslatadi.

Amudaryo vodiysining relyefi, Misr, Hindiston va boshqa mamlakatlarda qurilgan suv omborlaridek, qanday bo'lmasin suv omborlari surish uchun sharoit tug'dirgan emas. Tarixgacha bo'lgan davrda dehqonchilik yon tarmoqlar havzasida bo'ladigan toshqinlar asosida rivojlangan, tarixiy davrda esa toshqin vaqtida suv chiqadigan faqat katta kanallar vositasi bilan olib borilgan.

Amudaryo quyi oqimining Jonbosqal'a hududida Fayum va Memfis qadimgi madaniyati bilan bog'liq bo'lgan Baxri-Yusuf tarmog'i havzasi bilan, yoki ikki daryo (Dvureche) ning quyi oqimidagi yerlar bilan, ayniqsa Frotning quyi oqimi bilan taqqoslash mumkin. Amudaryoning suvi toshadigan yerlar, Kopetdog' tog'oldi limanlari bilan bir qatorda, shubhasiz, Xorazmga qaraganda sug'oriladigan ibtidoiy dehqonchilik ilgariroq vujudga kelgan rayonlar deb hisoblanadi.

Bu rayonlarning har birida sug'orma dehqonchilik qilish ovchilik va yig'ishdan keyin, tobora o'sib borayotgan xo'jalik ehtiyojlarini qondirish uchun tabiiy suvliklarni o'zlashtirish yo'li bilan vujudga kelgan. Jamoa a'zolari daryo toshqinlari suvlarini va ularning tarmoqlarini yaqin atrofdagi qulay yerlarga burganlar va bu yerlarni o'zlashtirish davomida sun'iy sug'orish sirlarini bilib olganlar.

Muntazam irrigatsion sistemani barpo qilishda qadimgi xorazmliklar ham ana shunday rivojlanish yo'llarini bosib o'tganlar. Uzoq vaqt davom etgan bu tarixiy jarayon haqida aniqroq tasavvur etish uchun uning arxeologik tekshirishlar natijasida yetarli darajada yoritilishi bilan bir qatorda, Amudaryo, Sirdaryo va Volga deltalarida hamda Qozog'iston territoriyasidagi bir qancha daryolarning havzalarida deyarli hozirgi kungacha mavjud bo'lgan eng sodda sug'orma dehqonchilik qilishning ba'zi bir usullarini ko'rib chiqish zarurdir.

XIII asrda Amudaryoning Orol dengizidan Sariqamish chuqurligi tomon burilib ketganligi uchun Sharqiy Ustyurt qirlari bo'ylab cho'zilib ketgan butun bir chuqurliklar sistemasi suvsiz qoldi. XVI asrdan boshlab Orol aholisi bu chuqurliklarga sun'iy ravishda suv bostirib, u yerlarga faqat bug'doy eka boshladi. Bu joylar «Quyg'un» deb atalardi. 1602-yilda Xorazm xoni Arab Muhammad Quyg'unning suv bilan ta'minlanishini yana tikladi. Buning uchun u Amudaryodan bu yerga maxsus kanal qazdirdi. Kanalning boshini iyul oyida, o'rim yig'im tamom bo'lganda ochardilar va Quyg'un sentabr oylarigacha chuchuk suvli ko'lga aylanardi. U yerda ko'p miqdorda unumdor loyqa to'planardi hamda yer suvga to'yardi. Sentabrda kanalning boshi bog'lanardi.


Bu haqida jarchilar bozorlarda: “Ko‘lning suvin bog‘ladilar “ ,deb baland ovoz bilan jar solib, aholini xabardor qilardilar. Orolning o‘troq va ko‘chmanchi aholisi birin-ketin bu yerga kelar va ko‘l quriy boshlashi bilan ular o‘zlariga ajratib berilgan maydonlarda urug‘ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri suyuq loyqaga separ edilar. Hosil kelasi yozda yig‘ib terib olinar edi. Ekin maydonlari ichida «dinglar» (mo‘lalar)ning butun bir sistemasi qad ko‘tarib turardi. G‘alla ishlari vaqtida, asosan, o‘rim-yig‘im vaqtida bu minoralardan doimiy tevarak-atrof kuzatilib turilardi va xavf tug‘ilgan paytlarda xabar berilardi. Hosil yig‘ib olingach, shu ishda ishtirok etgan hamma odamlar o‘z joylariga qaytib ketardi va ko‘pchilik o‘z chorvachilik xo‘jaligi bilan shug‘ullanardi. Bu joy esa kelasi yilgacha bo‘shab qolardi. Dovqara ko‘li, Oqko‘l va Shoxobod kanalining quyi tomoni territoriyasidan ham xuddi mana shunday foydalanilardi.

Neolit davrida Misrda dehqonchilik xo‘jaligining vujudga kelishi va rivojlanish yo‘llari haqidagi o‘z fikrlarini isbot qilish uchun akademik V.V.Struve ham xuddi shunday etnografik faktlar keltiradi. Bu usul Sumbar vodiysi turkmanlaridan va Amudaryo deltasida yashovchi aholidan qabul qilingan «loya sapma» usulining xuddi o‘zginasidir. Sirdaryo deltasida yashovchi qozoqlar tarmoqlardan kichik-kichik ariqlar qazib, ekin ekish uchuy qulay maydonlarga suv bostiradilar. Bazan bu usul maydon atrofiga sun‘iy ko‘tarma qurishni talab qiladi va qozoqlar buni «suolna» (suv to‘plash) deb ataydilar. «Suolna»ning ko‘tarma qurishga asoslangan usulini Yangidaryo va Quvondaryo etaklarida bu yerda XVIII asrda yashagan qoraqalpoqlar, shuningdek Volga deltasida yashagan tatarlar keng qo‘llaganlar.

Bu usul asosan Kopetdog‘, Qo‘rg‘ondog‘ va Sumbar rayonlarining «solum»dan (sug‘orishning liman usuli) hech qanday farq qilmaydi. Bu ibtidoiy sug‘orish usuli qulay suv manbalari ko‘p miqdorda tashkiliy kuch sarf qilmay, ekin maydonlarini suv bostirishga imkoniyat tug‘dirgan joylarda haligacha mavjuddir, bunday yerlarga asosan g‘alla ekinlari ekiladi.

Endi biz bronza davrida dehqonchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi sharoitlarini bir muncha aniq tasavvur eta olamiz. Bronza davrining izlari

Jonbosqal'a hududida topilgan edi. Bu hududning tarixiy davrgacha bo'lgan yodgorliklarining vujudga kelish va rivojlanish sharoitini biz taxminiy ravishda hozirgi Suvyergan va qadimgi sug'orilgan yerlarni kesib o'tgan uzun uylar bo'ylab bo'ladigan toshqinlar rayoni o'rnida oqqan tarmoq faoliyati bilan bog'laymiz. Bu, biz «uzun uylar» deb atagan qadimgi tizmalar To'rtko'l vohasidan, xuddi panjaning kerilib turgan barmoqlaridek, yoyilib ketadi va o'z yo'lida to'siq bo'lib turgan Sulton Uvays tog'i tomoniga yo'nalib uning sharqiy tizmalariga borib taqaladi. Toshqin va jalalardan keyin Xadeyaf (Nubiya) dehqonlari tariqni loyqaga separ edilar, hosilni o'rib olgach, tog'old hududlariga ko'chib, u yerda chorvachilik qilardilar (V.V.Struve Istoriya drevnego Vostoka, M., 1941, 49-bet).



Xorazm vohasida irrigatsiya poydo bo'lishining eng qadimgi bosqich xaritasi. Shartli belgilar: a – suv oqib turgan kanallar; б – Amudaryoning o'sha davrdagi o'zani; в – botqoq va toshqinlar; г – shaharlar.¹⁷

¹⁷ G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. Qadimgi zamondan hozirgacha. -T., 1959. – 93-bet.

Amudaryo etaklarining kartasini qarang: 1905-yilda tuzilgan ikki chaqirimli karta, 1933-yilda Toshkentda nashr etilgan. Qadimgi sug'orilgan yerlardagi ibtidoiy madaniyat. Bu uylarning har birining boshlanish joyi hozirgi vaqtda Paxtaarna sistemasidagi ishlab turgan kanallar oxiridagi ko'llar tizmasidir. Shimol tomonda uylar shamol ta'sirida hosil bo'lgan ketma-ket tutashib ketgan og'ir qum barxanlari to'plami bilan qoplangan. Ko'pincha uylarning tubi oqimtir rangli yirik zarrali daryo qumi bilan to'lgan bo'ladi. Ba'zi bir joylarda uylarning kengligi 2-3 km. ga yetadi.

Taqir polosalari hosil bo'lish davrida bu «uylar» qum orollaridan iborat bo'lgan, bu orollarning orasida toshqin suvlari kirib kelgan, ko'llar, taqirlar va taqirsimon po'sloqlar hosil bo'lgan, bular ustida keyinchalik madaniyat barpo bo'lgan. Shamollar yo'nalishining o'zgarishi natijasida qum do'nglarining shamolga ro'para tomoni, ya'ni shimoliy tomonini shamol uchira boshlagan. Hozir esa ularning botiq tomoni shimolga ro'para, ilgari esa u tomonga do'ngning (barxanning) tepasi ro'para edi. Shunday qilib, hozirgi relyef qadimgi barxan relyefining aynan teskarisidir. Ko'pincha yemirilayotgan taqir qatlamlari orasida, «uylar» polosi yaqinida bronza davri yodgorliklari uchrab turadi. Bu hol ibtidoiy dehqonlarning toshqin suvlaridan foydalanish maqsadida toshqin bo'ladigan joylarning chekkalarida joylashganligini yana bir marta isbotlaydi. Jo'sh urib oqadigan Suvyorgan va uning do'nglar o'rtasidagi polosalarni qoplab olgan toshqinlari ibtidoiy dehqonlarga ekin ekiladigan maydonlarni sodda usulda suv bostirishda yordam bergan. Goh to'qaylar va goh qamishzorlar bilan navbatlashadigan qum orollari bor, bu pasttekis vohaning landshafti bu vaqtga kelib sug'orma dehqonchilikning jahon markazi bo'lib olgan ikki daryo—Dajla va Frot etaklarini va Nil vodiysini eslatadi.

Nil vodiysida juda qadim zamonlardayoq ibtidoiy dehqonchilik qilishda Nil va uning tarmoqlarining toshqinidan foydalanganlar. Bu toshqinlar suvini boshqarib turish ishi dehqonlarning texnik imkoniyati darajasiga qarab olib borilgan, chunki u vaqtlarda odam ham katta territoriyalarning botqoqlanishiga qarshi kurasha bilmagan. Faqat O'rta podsholik davriga kelib, dalalarga suv

bostirish uchun to'g'onlar va sun'iy kanallar qura boshladilar. Buning uchun dalalar atrofiga ko'tarmalar qurib, ularga navbatma-navbat suv bostirar edilar. Bu o'ziga xos limanlar o'rtasiga shlyuzlar qurganlar va suv bu shlyuzlar orqali bir limandan ikkinchisiga asta-sekin o'tgan. Sug'orishning bu sodda usuli keyinchalik noqulay bo'lib chiqdi, birinchidan, yuqorida joylashgan limandagi yer egalari navbat bilan suv olishga rioya qilmaganliklari tufayli quyida joylashgan dehqonlarni doimo g'azablantirar edi. Ikkinchidan esa, unumdor loyqa yuqori uchastkadagi limanlarda cho'kib qolib, quyidagilar muhim va zarur tabiiy o'g'itdan mahrum bo'lar edi. Natijada keyinchalik takomillashtirilgan hovuz sistemasi deb ataladigan usulga o'tildi. Daryodan butun bir kanallar sistemasi chiqarilib, har bir yer uchastkasiga mustaqil ravishda suv chiqarilardi. Bu Yangidaryo etaklari, Dovqara territoriyasi va Orol-Kaspiy havzasining bir qancha daryolaridagi atrofiga katta ko'tarmalar qurilgan liman sistemasini eslatadi. Liman uchastkalarini ko'tarma bilan qurshab olish sistemasi tabiiy cho'kmalardan ekin ekish uchun foydalanishdan hech farq qilmaydi; tabiiy cho'kmalardan foydalanish, bizning fikrimizcha yanada qadimiyroq davrlarga mansubdir.

Butun Xorazmda ko'p miqdorda ekin ekiladigan katta limanlar «ko'l» deb ataladi, ya'ni terminologik jihatdan liman bilan ko'lni farq qilmaydilar. Hozir ham Xorazmda rivojlangan dehqonchilik sharoitida kichik ekin maydonlarini «ko'lcha» deb ataladi. Ekish oldidan bu kichik ekin maydonlari atrofini ko'tarib, suv bostiriladi. Limanlar atrofidagi ko'tarmalar «chel» deb ataladi. Jonbosqal'a rayonining mikrorelyefi aftidan, ibtidoiy dehqonlarga bu keyingi usuldan erkin foydalanishga qulaylik tug'dirgan bo'lsa kerak.

Makon-6 manzilgohida o'tkazilgan arxeologik qazish ishlarining barcha materiallari ibtidoiy dehqonchilik va chorvachilikka o'tgan ibtidoiy xorazmliklarning yoz mavsumi davomida katta oila guruhlariga ajralib chaylalarda yashaganini ko'rsatadi. Bu hol ular xo'jaligining va qishloqlarning ko'chib yurganligidan darak beradi.

Amudaryoning umumiy rejimiga butunlay bog'liq bo'lgan toshqinlarning doimo o'zgarib turishi dehqonlarning mehnatini ko'pincha puchga chiqargan. Bu

yerda ko'chma xo'jalikdan boshqa xil xo'jalik uyushtirib bo'lmasligi mana shu bilan ifodalanadi. Shuning uchun ham Xorazmda ibtidoiy dehqonchilikning doimiy tip qishloqlarining yodgorliklari uchramaydi.

Kopetdog', Sumbar va Sharqiy Farg'onadagi Qizilyor dashtining tog'oldi rayonlaridagi suv rejimining doimiyliги uyg'un-o'troq dehqonchilikning vujudga kelishiga sabab bo'ldi va Janubiy Turkmanistondagi Anov qo'rg'onlari hamda Sharqiy Farg'onadagi tepaning dastlabki qatlamlari tipidagi doimiy dehqonchilik qishloqlarini vujudga keltirdi.

Amudaryoning quyi deltasi sharoitida XIX asrda yashagan bir qancha o'zbek va qoraqalpoq qabilalarining turmushi Xorazm vohasining butun territoriyasida sug'orma dehqonchilikning tarixiy rivojlanish yo'lini bir qadar yoritib beradi.

O'sha vaqtda yashagan bir qancha avtorlarning tasviridan tashqari, yaqin o'tmishda bo'lib o'tgan hodisalar bizga yuqorida ko'rsatilgan qabila avlodlarining hikoyalari dan ma'lum. Bu hikoyalarga qaraganda, qabilalar kichik guruhlar ga (bir necha oilaga) bo'linib, yoz boshlanishida qishloq joyidan ko'chgan va yozda toshadigan tarmoqlar bo'yiga yoki toshqin suvlaridan suv oladigan sun'iy kanallar ning eng quyi oqimidagi yerlar ga joylashgan. Bunda, albatta, bir tomondan, ular bug'doy, arpa, tariq, sholi va qovun ekinlari bilan o'zlarini ta'minlash va ikkinchi tomondan, mollarni yem-xashak bilan ta'minlashni ko'zda tutgan. Mollarni boqish uchun ko'pincha ekin dalalari yaqinidagi ko'llar tizmasi yoki qamish o'sgan botqoqliklardan foydalanilgan. Kuzda hosil yig'ib-terib olingach, shu guruhlar qamishzorlar ichkarisiga ko'chgan. Qamishzorlar ularni qattiq qishki sovuq shamollaridan asragan. Bu shamollardan birinchi navbatda chorva mollari qiynalar edi. Chorva mollari qish bo'yi qamishzorlarda o'tlab yurgan, odamlar esa yoqilg'i bilan keragicha ta'minlangan.

Toshqin suvlari kanallarining etaklaridan tashqari, hech bir joyda bir oz bo'lsa-da, dehqonchilik qilish, yoki hatto haydab mol boqish uchun doimiy sharoit bo'lmagan. Ko'pincha shunday mavsumlar ham bo'lganki, delta tarmoqlarining

boshqa joyga oqa boshlashi va toshqinlar rejimining o'zgarishi natijasida dehqonlar ilgari ekib kelgan joylarida endi ekin eka olmay qolganlar.

Qadimgi sug'orilgan yerlardagi ibtidoiy madaniyat chinakam ofat boshlangan, dehqonlar juda cheklangan chorvachilik mahsulotlari bilan tirikchilik qilganlar. Bunday hollar yuz bergandan keyin kelgusi yilda ular boshqa, birmuncha ishonchli yerlarga ko'chganlar.

XIX asrda, feodalizmning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitlaridagi bunday ko'chmanchilik ibtidoiy dehqonlarnikiga qaraganda butunlay farq qiladigan yo'l bilan olib boriladi. Ammo tashqi ko'rinishdan ba'zi bir qoraqalpoq va o'zbek qabilalarining turmushi bir qadar bronza davridagi ibtidoiy dehqonlarning biz taxmin qilgan turmushiga o'xshab ketadi.

Shunday qilib makonlarning tarqalib-sochilib ketgan yodgorliklari, arxeologik qidirish ma'lumotlari, o'zining ozligiga qaramay, Jonbosqal'a rayonida yashagan ibtidoiy odamlar turmushining taxminiy manzarasini ko'rsatib beradi.

1.4-§. O'zbekistondagi eng qadimgi sug'orma dehqonchilik hududlari

Qabilalar bir-biri bilan urushlar (suv, yer, yaylov talashib va boshqalar) qilib turgan. Ba'zan boshqa davlatlar hujumidan himoya qilish uchun birlashishganlar. Yetakchi qabila boshlig'ining hukmronlik quvvati asta-sekin kuchayib, u kengashda boshchilik qiladi. Natijada u harbiy rahbarlik darajasidan podshoh (fors-tojikcha-buyuk nazoratchi)ga aylanib, qabilasi jate qabila deb hisoblangan. Podshoh qabilasi va uning a'zolari davlatning boshqarishda asosiy vazifalarni egallab oladilar. Podshoh shaxsiy posbonlariga ega bo'lib, unga tayangan holda qabilalarni itoatda tutgan. Qadimgi Xorazm, Baqtriya va boshqa davlatlar shu tariqa vujudga kelgan. Bunday davlatlar dastlab dehqonchilik rayonlarida: Farg'ona, Xorazm, So'g'd, Marg'iyona rayonlarida, so'ngra esa chorvachilik rayonlarida vujudga kela boshladi.

Davlatni markazlashtirilgan tartibda boshqarishga o'tish vohalardagi yerlarda sug'oriladigan dehqonchilikning tez rivojlanishiga yordam berdi. Tog'

soylarining suvlarini kichik ariqlarga oqizib, dehqonchilik qilishdan endi ancha uzunlikdagi kanallar qazib, dehqonchilik qilishga o'tildi.

O'rta Osiyo territoriyasida milloddan avvalgi I ming yillikda vujudga kelgan dastlabki quldorlik davlatlari quyidagilar: Xorazm, Baqtriya, So'g'd, Parfiya, Xorazm davlati O'rta Osiyoning Amudaryo etaklarida tashkil topgan. Bu davlat haqidagi dastlabki ma'lumotlar Dorolarning Behistun kitoblari va "Avesto"da uchraydi, shuningdek, XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashagan rus sharqshunos olimlaridan V.V.Bartold va N.I.Veselovskiylar hamda sovet davri tarixchisi Yakubovskiy, S.P.Tolstovlar olib borgan arxeologik va etnografik tadqiqotlarda ma'lumotlar bergan. Xorazm aholisi eneolit davrida (million yil avval II ming yillik boshi) dayoq sug'orma dehqonchilik va chorvachilik usullaridan xabardor bo'lganlar. Sug'orma dehqonchilik qilish mukammallashgan, yaylov chorvachiligi rivojlangan. O'troq manzilgohlar 20 tagacha xonadonni birlashtirgan qishloqlarga aylangan. Sinfy munosabatlar shakllanadi, shaharlar vujudga keldi, mustabid podsholiklar tashkil topdi.

Ayni vaqtda Xorazm vohasining shimoliy-sharqiy viloyatlarida, Sirdaryo etaklarida chorva xo'jaligi ustun bo'lgan madaniyat vujudga kelgan bo'lsa ham uning sohiblari dehqonchilik qilinadigan rayonlar bilan yaqindan bog'liq edilar. Mazkur so'nggi bronza asri madaniyati asosida Orololdi dashtlarida Xorazm bilan asrlar davomida madaniy-tarixiy jihatdan bog'liq bo'lgan sak-massaget qabilalari madaniyati (Toshkent) vujudga keldi. Strabon (qadimgi yunon geografi va tarixchisi) ma'lumotlarida sak-massaget xalqlari tarkibiga kiritgan xorazmliklar million yil avval VII-VI asrda deyarli butun O'rta Osiyo va Sharqiy Eronning bir qismida qabilalar uyushmasini boshqarganlar va ularning eng taraqqiy etgan markazlari Murg'ob va Herurid daryolari havzasida bo'lgan deyiladi. Xorazm haqidagi ma'lumotlar bevosita shu hududda topilgan manzilgohlar, qabristonlar va boshqa arxeologik topilmalar asosida tiklangan Kaltaminor madaniyati, Ko'kcha-3 qabristoni, Amirobod madaniyati, Ko'zaliqir, Tuproqqal'a materiallari asosida to'ldirilgan.

Xorazm miloddan avvalgi VI asr o'rtalarida Ahmoniyar davlati tarkibiga kirgan. Miloddan avvalgi IV asrda esa o'z mustaqilligini qayta tiklagan. Miloddan avvalgi IV-III asrlarda Xorazm iqtisodiy va madaniy jihatdan ravnaq topgan sug'orish sistemasi kengaytirilgan va mukammallashtirilgan, yangi shaharlar (Bozorqal'a, Jonbosqal'a) va ibodat markazlari (Qo'yqirilgan qal'a) qurilgan, hunarmandchilik va san'at rivojlangan. Miloddan avvalgi 1-ming yillik oxirlarida Xorazm madaniyatida dasht qabilalari ta'siri aniq ko'zga tashlanadi. Ko'plab topilgan kushon tangalari, ba'zi tasviriy san'at yodgorliklari milodning dastlabki asrlarida Xorazm Kushon podsholigiga tobe bo'lganligi taxmin qilinadi: Tuproqqal'adan topilgan hujjatlar Xorazmda quldorlik mavjud bo'lganligini ko'rsatadi; bu hujjatlar "Xorazm erasi" (boshi mil. 1 asr o'rtalariga to'g'ri keladi) deb ataluvchi yil hisobi bilan sanalgan. Xorazmda zardushtiylikning mahalliy varianti hukmron din hisoblangan. Shuningdek, Xorazm yozuvi ham mavjudligini Tuproqqal'adagi arxiv hujjatlarida qayd qilingan hamda teri va yog'ochga, shuningdek, tangalarga, muhrlarga va metal buyumlarga bitilgan yozuvlar tasdiqlaydi.

Baqtriya davlati Amudaryoning o'rta oqimida, hozirgi Tojikistonning janubiy tumanlari, O'zbekistonning Surxondaryo viloyati va Turkmanistonning sharqiy qismi hamda Shimoliy Afg'oniston yerlarini o'z ichiga olgan. Baqtriya tarixiy manbalarda "Baqtriyana", "Baqtra" nomlari bilan tilga olinib, qadimgi eroncha-boxtar zamin ya'ni "sharq tomonidagi o'lka" ma'nosini bildiradi. Baqtriya to'g'risidagi ma'lumotlar eng qadimgi Eron podshohlari: Doro va Kserks yozdirgan Behustun va Naqshi Rostam kitoblarida, "Avesto"da qadimgi yunon asarlarida zikr etilgan. Bu ma'lumotlarga ko'ra Baqtriya hududida qadim zamonlardanoq dehqonchilik rivojlana boshlagan. Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Baqtriya Ahmoniyar davlatining satrapligiga aylangan. Baqtriyaning bosh shahri Balx yaqinidagi Zariaspa bo'lgan. Milloddan avvalgi IV asrda Iskandar Zulqarnayn bosib oladi.

So'g'd davlati hududi Qashqadaryo va Zarafshon daryolari havzalaridagi yerlardan iborat bo'lgan (hozirgi O'zbekiston va Tojikiston hududi) so'g'd so'zi

yunoncha So'g'diyonadan olingan. So'g'd haqida ma'lumotlar dastlab Avesto, Doro qabri kitoblarida shuningdek, Xitoy, arab-fors va boshqa manbalarida berilgan. So'g'd davlati aholisi bo'lgan sug'diylarning asosi saklarning ko'chmanchi va o'troq qabilalaridan iborat bo'lib, miloddan avvalgi 1-ming yillik o'rtalaridan boshlab So'g'dga kelib joylashgan. So'g'diylar sug'orma dehqonchilik, bog'dorchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Ularga milodning boshlaridan sharqdan Yuechji, xunn, turkiy qabilalar ketma-ket kelib qo'shib turgan. So'g'diylarning oromiy alifbosi asosida vujudga kelgan yozuvi bo'lib, arab yozuvi singari o'ngdan chapga qarab yozilgan va o'qilgan. Bu alifboda yozilgan hujjatlar Turfon, Mug' tog'idan topilgan. Qadimgi Xitoy manbalarida sug'diylar bolalarni 5 yoshdan o'qish-yozish va hisobga o'rgatganliklari, bolalar balog'atga yetgach, savdo karvonlariga qo'shib, savdogarlikka o'rgatganligi aytiladi. Sug'diylar zardushtiylik diniga e'tiqod qilganlar. Ular marhumlarni ossuariylarga (sopol, tosh yoki ganch ko'raga) solib, nauslarga (to'rt burchakli bino shaklidagi gumbaz uy)ga dafn etganlar.

So'g'd davlati miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Ahmoniylar davlati tarkibiga kirgan. Miloddan avvalgi IV asrda esa Iskandar Zulqarnayn zabt qilgan. Vatanimiz hududida yashab kelayotgan xalqlar dunyoning eng qadimiy madaniyatiga ega bo'lgan xalqlardan biri ekanligini tarixda "Avesto" nomi bilan ma'lum bo'lgan muqaddas kitob ham isbotlaydi. Dunyodagi eng qadimiy dinlardan biri Zardushtiylik, ya'ni otashparastlik, zoroastrizm dinidir. "Avesto" ana shu zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanadi.

"Avesto" kitobida materialistik dunyo, borliq muqaddaslashtiriladi. Yer, suv, havoni bulg'ash, ifloslantirish eng og'ir gunohlar qatoriga qo'shiladi. Bashoratlarning birida: "Bug'doy o'stirila boshlasa, devlarni ter bosadi, sovrilgan bug'doy tayyor bo'lsa, devlar zaiflashib qoladi. Un tayyor bo'lgach, devlar nolayu fig'on chekishadi. Devlarni mag'lub etish uchun xonadonda hamisha unli ovqat bo'lishi lozim. Bu ovqatni odam yegandan so'ng, devlar juda qizishib ketishadi va qocha boshlashadi".

Tarixdan ma'lumki, zardushtiylik miloddan avvalgi VII asrdan milodimizning VII asrigacha qariyb ming yil Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa o'lkalardan diniy e'tiqod sifatida yashadi. Zardusht yashagan va "Avesto" kitobi yozilgan davrda Markaziy Osiyoda aholining asosiy qismi o'troq hayotga, dehqonchilik, hunarmandchilikka o'ta boshlagan, ko'chmanchi chorvachilikka e'tibor kuchaygan, qadimgi shaharlar va dehqonchilik viloyatlari Sug'diyona, Marg'iyona, Baqtriya, Parfiya, Xorazmning shakllanishi jarayoni kechayotgan pallasi edi. Vatanimiz xalqlari hayotida yuz berayotgan bu ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar uning taraqqiyoti yo'liga g'ov bo'layotgan mafkurani chigilashni, yangi jamiyat talablariga javob bera oladigan diniy islohiyatni amalga oshirishni talab etar edi. "Avesto"da ana shu islohiy talab o'z ifodasini topdi.

"Avesto" asarida patriarxal urug' jamoasi haqida, uning so'nggi qismi Vdevdatda iqtisodiy tengsizlik, sinfiy tabaqalanish haqidagi muammolar ochiladi. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi va undagi sinfiy tabaqalanish jarayoni to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Shunday qilib, "Avesto" miloddan avvalgi X-VII asrlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot haqida g'oyatda muhim ma'lumotlar beruvchi xalqimizning merosi, ma'naviy boyligidir.

Qadimshunos olim Yahyo G'ulomov tomonidan Xorazmda aniqlangan 200 km uzunlikdagi, eni bir necha o'nlab metrdan iborat bo'lgan kanal o'zani, obod dehqonchilik madaniyati Xorazm davlati qadimdan insoniyatning yirik madaniy maskanlaridan biri sifatida shuhrat topganligidan guvohlik beradi.

Xorazm shaharsozligida xom g'isht, paxsalardan keng foydalanilgan, binolarning tashqi va ichki ko'rinishlariga maxsus ishlov berilib, ularning mustahkamligi, o'ziga xos ko'rkamligi ta'minlangan. Bu ko'hna hudud bag'rida ming yillar davomida zamonlar silsilasidan o'tib, saqlanib kelayotgan ko'plab asori-atiqalar, shahar-qal'alar xarobalari, qoldiqlari ham buni isbot etadi. Xorazm vohasida hunarmandchilik, tog'-kon ishlari ancha rivojlangan. Bu yerdan qazib olingan qimmatbaho zumrad toshlar ishlov berilib, yuksak sifat ko'rsatkichiga yetganidan keyingina u muhim tayyor mahsulot sifatida foydalanishga chiqarilgan.

Xorazm zumradi Sharqning bir qator, jumladan Eron, Xitoy, Hindiston, Misr singari mamlakatlariga ham yuborilgan.

O‘zbek davlatchiligining yana bir asosi-Baqtriya podsholidir. Uning tarkibiga hozirgi Surxondaryo, Tojikiston janubi, Afg‘onistonning shimoli-sharqiy qismi, shuningdek, Sug‘diyona va Marg‘iyona yerlari ham kirgan. Baqtriyadagi ko‘pdan-ko‘p yirik shaharlar orasida Baqtra mashhur shahar bo‘lib, mamlakatning poytaxti hisoblangan. Baqtra baland va mustahkam mudofaa devorlari bilan o‘ralgan, unda hukmdor qal‘asi alohida joylashgan.

Rim tarxchisi Kvint Kursiy Rufning guvohlik berishicha, «Baqtra daryosi nomidan shahar, viloyatning nomi kelib chiqqan». Umuman tarixiy ma‘lumotlarga asoslanadigan bo‘lsak, qadimgi davlatlar nomlari ko‘pincha daryo, qabila, xalq yoki shaharlar nomiga qiyosan kelib chiqqan bo‘ladi. Binobarin, «baqtriyaliklar», «Baqtriya xalqi» iboralari juda qadimgi manbalarda tilga olinib, bitta xalqni yoki bir necha qarindosh qabilalarni birlashtirgan tushunchani anglatadi.

«Avesto» kitobida ham Baqtriya «Eng yaxshi mamlakatlar va o‘lkalardan biri bo‘lgan, baland bayroqli, go‘zal o‘lka» sifatida ta‘riflangan. Bu xildagi fikr-mulohazalar Baqtriyaning o‘z davrining yirik davlatlaridan biri bo‘lganligidan dalolat beradi.

Ktesey ma‘lumoticha, Baqtriyaga qarashli Vaxsh-Oks vodiysi obi-hayotga mo‘l-ko‘lligi, unumdor yerlari ko‘p bo‘lganligidan, bu hududda dehqonchilik madaniyati taraqqiy topgan, aholi bog‘dorchilik, mevachilik mahsulotlari yetishtirishda omilkor bo‘lgan. Qashqadaryo vohasining miloddan avvalgi 8-6 asrlarga oid Sangirtepa, Uzunqir, Yerqo‘rg‘on, Zarafshon vodiysida Afrosiyob, Ko‘ktepa singari aholi manzilgohlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu joylarda o‘troq turmush kechirgan qavm, elatlar dehqonchilik bilan faol shug‘ullanganlar. Xuddi shunday fikrni So‘g‘diyona hududlariga nisbatan ham aytish mumkin.

Shunday qilib, Xorazm va Baqtriya davlatlarida kechgan siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy madaniy jarayonlar ajdodlarimizning ijtimoiy-tarxiy taraqqiyot yo‘lidan ilgarilab borib, o‘z davlatchilik tuzilmalarini vujudga keltirib, boshqaruv usullarini takomillashtirib borganligidan guvohlik beradi. Dehqonchilik, chorvachilik,

hunarmandchilik, shaharsozlik, mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish qurollarining takomillashib borishi ulug' bobokalonlarmiz o'lmas dahosi, salohiyatining yorqin ifodasidir. Bular qadimgi o'zbek davlatchiligi tarixiy tajribasining muhim jihatlari, namunalari sifatida alohida qimmatga egadir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi dehqonchilik madaniyatining shakllanishida suv va suv inshootlarining tarixiy ahamiyati qanday bo'lgan?
2. O'zbekistonning g'arbiy qismi bo'lgan Xorazmda, markaziy qismi bo'lgan Zarafshon vohasi hamda Sharqiy qismi bo'lgan Farg'ona vodiysida insoniyat ilk ajdodlarining muntazam yashab qolishiga qanday sharoit mavjud bo'lgan?
3. O'zbekiston hududida yashagan insonlarning xo'jalik hayoti rivojida metalning kashf etilishi va uning taraqqiy etishi qanday ahamiyat akasb etgan?
4. O'zbekiston hududida yashagan insonlarning xo'jalik hayotida birinchi va ikkinchi mehnat taqsimotlarini yuzaga kelishiga sabab bo'lgan omillarni sanab bering.
5. Sizningcha Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidan topilgan Zamonbobo manzilgohini dehqonlar manzilgohi (qishlog'i) bo'lgan deyilishiga nima asos bor?
6. "Avesto" da va qadimgi yunon tarixiy adabiyotlarida Amudaryo qanday nom bilan atalib kelingan?
7. Iskandar Zulqarnaynning O'rta Osiyoga bosqini davrida dehqonchilik madaniyatini yuksaltirish uchun amalga oshirilgan ishlardan nimalarni ayta olasiz?
8. Qadimda tog' va tog' oldi hududlarida dehqonchilikda aholini suv bilan ta'minlash uchun qanday suv inshootlaridan foydalangan?
9. Sharqda insonlar dehqonchilik madaniyati, ibtidoiy xo'jalik yuritish tarmoqlari, moddiy va madaniy taraqqiyot omillarini G'arbga nisbatan ancha erta o'zlashtirib olinishining sabablari nimada deb o'ylaysiz?
10. Qadimda dehqonchilikda dastlabki sodda ish qurollaridan foydalangan va ular qanday xomashyolardan tayyorlangan?

11. Qadimda O'rta Osiyoning qaysi hududlarida ilk dehqonchilik madaniyatining dastlabki ko'rinishlari shakllana boshlagan?
12. O'rta Osiyoda dastlabki sug'orish inshootlari qaysi hududlarda paydo bo'lgan?
13. Shaharlarning vujudga kelishida aholining o'troq turmush tarzi va u bilan qanday asosiy omillarni sanab bera olasiz?
14. Eneolit davri O'rta Osiyo janubida dehqonchilik xo'jaligida qanday o'zgarishlar yuzaga keldi?
15. O'rta Osiyoning yirik daryolari — Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon etaklarida vujudga kelgan deltalar, ya'ni maxsus sug'orish usulini talab etmaydigan pastqam, zahkash, botqoq joylarida dehqonchilik ishlari qanday yo'lga qo'yilgan?
16. O'rta Osiyoning to'g'oldi rayonlari, cho'l va dasht zonalariga qachondan dehqonchilik jamoalari kirib borgan?

2-mavzu. Qadimgi davlat birlashmalarining shakllanishida yer va suv munosabatlari

Reja:

- 2.1-§. Qadimgi Baqtriyada yer va suv munosabatlari
- 2.2-§. Qadimgi Xorazm va So'g'diyonada yer va suv munosabatlari
- 2.3-§. Ahamoniylar hukmronligi davrida yer va suv munosabatlari
- 2.4-§. Yunon-makedonlar hukmronligi davrida yer va suv munosabatlari
- 2.5-§. Qang' davlatida yer va suv munosabatlari
- 2.6-§. Davan davlatida yer va suv munosabatlari
- 2.7-§. Kushon davlatida yer va suv munosabatlari

Tayanch iboralar: *Qadimgi Baqtriya, Qadimgi Xorazm, Qadimgi So'g'diyona, "Bozorqal'a», «Qo'yqirilganqal'a», Sug'diyonadagi "Afrosiyob», «Kiropol», «Gaza» qal'alari, Fors, Ahmoniylar sulolasi, Midiya, Lidiya, elam, Kir II, lashkarboshi Garpag, Bobil, Misr, O'rta Osiyo, Baqtriya, Xorazm, Sug'diyona, Marg'iyona, Qang' davlati, Sima Syan, Qang' davlatining ijtimoiy — iqtisodiy, To'ng'ich Xan sulolasi tarixi, qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar, maslaxat majlisi, Davan, yuechjilar (toharlar), Guyshuan qabilasi, Kudzula Kadfiz, Kushon davlati, Dalvarzintepa.*

2.1-§. Qadimgi Baqtriyada yer va suv munosabatlari

Bronza davrining oxiri va ilk temir davrida O'zbekistonning hozirgi hududi doirasida qator dehqonchilik vohalari tashkil topdi. O'rta Osiyoda daryo irmoqlari bo'ylab dehqonchilik qilish uchun tabiiy qulay joylarda yashagan chorvador qabilalar asta—sekin o'troqlashib, o'zlarining xavfsizliklarini ta'minlash uchun qal'alar qurib yashay boshladilar. Xorazm vohasining Qoraqum bilan chegarasida vujudga kelgan «Qal'aliqir», «Ko'zaliqir» qal'alari, Qoraqalpog'iston hududidagi qadimgi sug'orilgan yerlarda qurilgan «Bozorqal'a», «Qo'yqirilganqal'a», Sug'diyonadagi «Afrosiyob», «Kiropol», «Gaza» qal'alari, Farg'ona vodiysi,

Surxondaryo va Qashqadaryo vohalaridagi xom g'ishtdan qurilgan qal'alar shular jumlasidandir. Bunday qal'alar atrofida ekin ekish uchun sug'oriladigan yerlar, chorva uchun o'tloqlar hatto chakalakzor— o'rmonlar ham bo'lgan. Bu jarayonlar O'rta Osiyoda dastlabki davlat tuzilmalarining vujudga kelishiga zamin yaratdi.

Bu davrda ayrim qabilalar o'z kuchlari bilan daryolar va soylardan o'nlab kilometrlarga cho'zilgan kanallar chiqarib yerlarni sug'orishga qodir emas edilar. Qabilalar ustidan podshohlar hukmronligining o'rnatilishi vohalarda sug'orma dehqonchilikning taraqqiy qilishiga katta yordam qildi. Davlatning vujudga kelishi vohalarda katta o'zgarishlar qilishga imkon berdi. Temirdan foydalanishga o'tilishi, podshohlikliklarning vujudga kelib, aholini yirik jamoat ishlariga jalb qilinishi mehnat unumdorligini oshirishga samarali ta'sir ko'rsatdi. Oldin kichik urug' va qabilalar o'z kuchlari va imkoniyatlari darajasida mayda ariqchalar qazishib, o'z imkoniyatlari darajasida sug'orma dehqonchilik qilish bilan cheklangan bo'lsa, davlatlar vujudga kelishi natijasida mayda ariqlar o'rniga katta kanallar qazish boshlandi. Shu tariqa o'lka xalqlarining obodonlik va farovonlik sari qadam qo'yishlariga zamin yaratildi.

Bu dehqonchilik vohalarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va turli yozma manbalar Xorazm, Baqtriya, Sug'diyona, Choch, Farg'ona kabi viloyatlar hududlarida qal'a-qo'rg'onlari, shahar-qal'alari va shaharlari bo'lgan ilk davlat tuzilmalari vujudga kelganligidan dalolat beradi. O'rta Osiyoda, shu jumladan O'zbekiston hududida olib borilgan keng arxeologik tadqiqotlar bu jarayonlar miloddan avvalgi VIII — IV asrlar davomida sodir bo'lganligini ko'rsatmoqda. Bu davrda O'rta Osiyoda hududidagi boshqaruv shakllari va lavozimlar vujudga kela boshlagan: jamoada diniy ijtimoiy mehnat yaqsimoti, qabilalar urf — odatlarni taqsimoti, dehqonchilikni tashkil etish, jamoada yer va suvdan foydalanish, harbiy qurollar tayyorlash, qo'shinlarni qurollantirish, mudofaa ishlarini tashkil etish, qurilish va sug'orish ishlari, mol ayriboshlash, savdo-sotiq ishlari, munozarali masalalarni hal qilish kabi masalalar.

Dehqonchilik va hunarmandchilik sohalarining rivojlanishi asosida vujudga kelgan qadimgi madaniyat o'choqlari haqidagi ma'lumotlar Eron va Turon zamin

halqlarining muqaddas, kitoblari “Avesto”da, Ahamoniy podsholarining qoyatoshlarga bitilgan davlatlarida, qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida, qadimgi Xitoy manbalari (yilnomalari)da o‘z aksini topgan. Bu ma’lumotlarni arxeologik qazishmalar jarayonida topilgan ashyoviy dalillar ham tasdiqlaydi.

Miloddan avvalgi I ming yillikning o‘rtalarida O‘rta Osiyo aholisining hayotida tub ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy o‘zgarishlar yuz berdi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotda hunarmandchilik ancha takomillashib, dehqonchilikdan ajralib chiqdi. Hunarmandchilik va savdo — sotiq shahar aholisi turmushining iqtisodiy negizini tashkil etdi. Kulolchilikda charxlardan keng foydalanilishi natijasida bu tarmoq mahsulotlari o‘z xususiyatlariga ko‘ra tovar xarakteriga ega bo‘ldi. Bu davrda zargarlik, to‘qimachilik, metallga ishlov berish, uy-joy qurilishi, ijtimoiy — diniy harakterdagi me’morchilik obidalari birmuncha takomillashdi. Mudofaa inshootlari qurilishiga e’tibor kuchaydi.

Aholi orasida jamoaning e’tiborli, nufuzli a’zolari paydo bo‘lib, jamoa a’zolari ularni urug‘ oqsoqollari, din rahnamolari — kohinlar, harbiy boshliqlar qilib saylaganlar. Dastlab, dunyoviy, diniy va harbiy sohalarga rahbarlik qilish bir shaxsning ixtiyorida bo‘lgan. Avvalo, chorvador qabilalar orasida hukmron tabaqalarning shakllanishi va mulkiy tengsizlik jarayoni nisbatan tez kechdi. Ularning ixtiyoridagi chorva mollarining ko‘payib borishi tufayli yangi-yangi yaylovlar va o‘tloqlar axtarish zaruriyati kuchaydi. Bo‘sh yaylovlarning kamligi esa qo‘shni qabilalar o‘rtasida o‘zaro ziddiyatlarni kuchaytirar edi. Bu xol chorvador qabilalarning muntazam suratda jang-u jadallarga tayyor turishlarini taqozo qilgan.

Chorvador qabilalarning yaylovlar qidirib dehqonchilik zonalariga bostirib kirishlari chorvador va dehqon jamoalari orasida ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Bu har ikkala tomonning o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib, xavfsizlik choralarini ko‘rishga majbur etgan. Ana shunday zaruriy choralardan biri sifatida aholi istiqomat qiladigan joylar qalin mudofaa devorlari bilan o‘rab olindi. Mustahkam mudofaa inshootlari qurila boshlandi. Bu holat, ayniqsa miloddan avvalgi VII —VI asrlarda kuchaydi. Bunday yodgorliklarga Xorazmdagi Chirmanyop kanalining

soʻl qirgʻogʻida joylashgan qadimgi Qalʼaliqir va Koʻzaliqir xarobalari kiradi. Qalʼaliqirning devorlari ikki qator boʻlib, devorlarning orasidan uzun yoʻlaklar oʻtgan. Qalʼani ichida ochiq joy boʻlib, u asosan chorva mollari uchun moʻljallangan. “Avesto”da “var”lar deb atalgan bunday qalʼalar oʻsha davrida Fargʻona, Zarafshon, Qashqadaryo, Surhondaryo vodiylarida ham bunyod qilingan.

Oʻrta Osiyo xalqlarining temirdan foydalanishga oʻtish davri (mil. avv. VIII—VII asrlar)ga oid hayotini aks ettiruvchi 350 taga yaqin arxeologik yodgorliklar oʻrganilgan boʻlib, ular asosan Quyi Murgʻob, Tajan, Zarafshon, Qashqadaryo va Surhondaryo vohalari, Xorazm, Fargʻona va Tojikiston hududlarida joylashgan. Ular orasida noyoblari Afrosiyob, Koʻzaliqir, Yoztepa, Yelkantepa, Dingilja, Qalʼaimir, Eylatontepa, Yerqoʻrgʻon, Daratepa, Qiziltepa kabi yodgorliklardan iboratdir.

Bu davrga mansub madaniy qatlamlar Yoztepa, Kuchuktepa, Qiziltepa va Tillatepada keng oʻrganilgan. Qadimgi Baqtriyaning ijtimoiy— iqtisodiy va madaniy hayoti shu davrdagi Fargʻona va Choch hayotidan ancha farq qilgan. Jumladan, Qiziltepa shahar harobasining maydoni 22ga atrofida boʻlib, shahar bir vaqtlar qalin mudofaa devorlari bilan oʻralgan. Uylar toʻrt burchak shaklida xom gʻishtdan qurilgan. Qalʼaning paxsa devor bilan oʻralgan tashqi qismida ogʻillar qurilgan. Qizilcha makonidan bronza va temirdan yasalgan pichoq va oʻroqlar, bronza idish parchalari hamda oʻq, uchlari, sopol urchuqlar, metal igna va bigizlar, tosh pichoq, yorguchoq, va sopol idishlar topilgan. Bu davrda sugʻorish tizimining birmuncha yaxshilanganligi, don, yogʻ va meva beradigan ekinlarning koʻplab ekilishi ajdodlarimiz hayotida dehqonchilik yetakchi oʻringa chiqa boshlaganligidan dalolat beradi.

Mil. avv. VII-VI asrlarda dastlabki shaharlar tuzilishi asosan quyidagi shaklda boʻlgan: Ichki aholining guzarlari uy-qoʻrgonlar, shaharlar atrofida qishloq ekin maydonlari, aholi shahar atrofida sugʻorma dehqonchilik bilan shugʻullangan. Xoʻjalik hayotida dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik ham muhim oʻrin tutgan. Qabila aʼzolari qoʻy echki bilan birga qoramol, ot va tuya boqqanlar. Bu davrda butun urugʻ jamoasi katta patriarxal oila sifatida yashagan.

Yerlar jamoa a'zolariga hamda ibodatxonalarga tegishli bo'lib, unga birgalikda ishlov berilgan. Bulardan tashqari, umumjamoaga tegishli yerlarda jamoa a'zolarining chorvalari boqilgan. Jamoa a'zolari mol-mulkka ham birgalikda egalik qilishgan.

Janubiy Sug'diyona (Qashqadaryo viloyati)da ilk temir davriga mansub Yerqo'rgon, Daratepa, Uzunqir, Beshqo'tontepa hamda Qo'rg'oncha yodgorliklari e'tiborga loyiqdir. Bu qadimgi shahar-qo'rg'onlar xarobalaridan topilgan xom g'isht va paxsadan qurilgan binolar, metall qurollar, hunarmandchilik buyumlari ilk temir davrida qadimgi Sug'diyona aholisining madaniy hayoti va xo'jalik turmushi ancha yuqori bo'lganligini ko'rsatadi.

Miloddan avvalgi VIII-VI asrlarda O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida bir necha siyosiy birlashmalar: Qadimgi Baqtriya va Katta Xorazm kabi davlat tuzilmalari vujudga keldi. O'rta Osiyoda bunday davlat tuzilmalari—podsholiklarning paydo bo'lishiga ichki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillardan tashqari, tashqi sub'ektiv shart-sharoitlar ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Shulardan biri Midiya, Ossuriya, Mitaniya kabi davlatlar tomonidan qilingan hujumlar xavfi edi. Arxeologik va yozma manbalar ("Avesto", yunon-rim tarixchilari —Gerodot, Yustin, Strabonning ma'lumotlari)ning guvohlik berishicha, ushbu siyosiy jarayonlar Ahamoniylar imperiyasi vujudga kelishidan oldin sodir bo'lgan.

Qadimgi Baqtriya O'rta Osiyodagi yirik davlat uyushmalaridan biri bo'lib, yozma manbalarda ta'kidlanishicha Sug'diyona va Marg'iyona viloyatlari Baqtriyaning tarkibiga kirgan. "Avesto"da "turlar" deb atalgan yirik harbiy uyushmalar O'rta Osiyo hududidagi ko'chmanchi sak qabilalarining konfederatsiyalari bo'lib, ular O'rta Osiyoning shimoliy kengliklarida yashaganlar. Miloddan avvalgi XI -VIII asrlarda ko'chmanchi qabilalar jamiyatlari hujumkor tabiatga ega kuchli harbiy-iyosiy birlashmalardan iborat bo'lib, janubiy dehqonchilik vohalariga xavf solib turishgan.

Qadimgi yunon tarixchilari Kaspiy dengizidan Oltoygacha bo'lgan bepayon hududda ko'chmanchi skiflar yashashi haqida ma'lumotlar berishgan. Ahamoniylarning mixxat yozuvlarida ko'rsatilishicha saklar ittifoqi quyidagi uchta

guruhga bo‘lingan:

1. *Saka - xaumavarka*. Tadqiqotchilar bu guruhni Gerodotning “skif — amorglari” bilan bir deb hisoblaydilar.

2. *Saka - tigraxauda* — “o‘tkir uchli qalpoq kiygan saklar”

3. *"Saka -tiay-tara-daraya"* — “daryo ortidagi saklar”.

O‘rta Osiyoda yashagan yirik qabila uyushmalaridan biri — massagetlar bo‘lib, ular bir necha sak qabilalarini birlashtirgan yirik qabilalar ittifoqi edi. Bu qabilalar ittifoqi jangovarlik xarakteriga ega bo‘lib, ular nayza, qalqon, cho‘qmorlar bilan qurollanganlar. Massaget qabilalarida botir va kuchli erkaklar hurmat qilingan. Ular uchun kasal bo‘lmasdan uzoq yashash yoki jangda halok bo‘lish faxrli hisoblangan. Aksincha qo‘rqoq, kasalmand va nimjon kishilar jamoa uchun yaroqsiz deb hisoblangan. Jamoa bunday kishilardan tezroq qutulishga harakat qilgan.

"Avesto" ning Yasht qismida ta’riflanishicha, ilk sinfiy tengsizlik davrida Markaziy Osiyoda jamiyat tarkibining boshlang‘ich kurtagi "nmana" deb atalgan. Nmanalar birlashib urug‘ jamoasi “vis”ni tashkil qilgan. Bir necha urug‘lar qabila (“zantu”)ga birlashgan. Qabilalarning birlashishidan viloyatlar (“dahyuy”) tashkil topgan. Viloyatlarni “kavi” (boshliq)lar idora qilgan. O‘sha davrda Aryanam Vayjo jamiyati 4 toifaga, ya’ni kohinlar, harbiylar, chorvadorlar va hunarmandlarga bo‘lingan. Bu toifalar orasida chorvadorlarga alohida e’tibor berilgan. Xususan, Ahuramazda madaniyatlari orasida "Sen o‘sha, kim bizga hayot manbai bo‘lgan chorvani dunyoga keltirgansan... Chorvaga yaxshi ega kerak. Ushbu yerdagi chorva egalari men erkin hayotni ta’min qilaman",— degan fikrlar uchraydi.

Oila tarkibida to‘la huquqqa ega bo‘lmagan a’zolar (vira, vaysa va pariaytarlar) ham bo‘lgan. Vira odatda “erkak”, “jangchi” ma’nosi bilan birga “qul” ma’nosida ham ishlatilgan.

"Avesto"da targ‘ib qilingan g‘oyalarning asosiy yo‘nalishi jamiyatning madaniy-ma’naviy taraqqiyotini “ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” orqali amalga oshirishga qaratilgan. Bu muqaddas kitobda targ‘ib qilingan yaxshi niyatlar, orzu-istaklar asrlar davomida insonlar qalbiga singdirilib, ularni ezgulikka da’vat qilib

kelingan. Otashparastlik dinida yakka xudolik ta'limoti targ'ib qilinishiga qaramasdan, Zardusht Axuramazdaga tayanch bo'lgan bir necha xudolar haqida ma'lumotlar berilgan. Ular orasida Mitra xudosi insoniyatga hayot manbai bo'lgan quyosh nuri va issiqlik beradi. Anaxita xudosi odamlarga yer, suv, hosildorlik, go'zallik, sevgi-muhabbat, nafosat, qahramonlik, kuch-quvvat, yutuqlar beradi.

O'rta Osiyo xalqlari dehqonchilik madaniyatini takomillashtirishga muntazam e'tibor berib borishgan. Jamoa a'zolarining u o'troq, turmush tarziga o'tish, yerni sharoitga qarab sug'orib turish, binolar qurish va sifatli ekin ekishga da'vat etish o'sha davrning eng zaruriy ishlari edi. «Zardushtiylikda ekin ekiladigan yerlarni ko'paytirish, ularni asrab avaylash, uni muqaddas hisoblab sajda qilish ilohiy nizom tusini olgan. Olovga sig'inish, yer va olov xudosi ibodat qilish, uy-joy qurish, uni olov bilan, uy hayvonlari, xotin, bola-chaqa bilan to'ldirish, o'simlik va daraxt ko'kartirish, kata-kichik uy hayvonlarini ko'paytirish, yerni parvarish qilish zardushtiylik dinining asosini tashkil etgan» . Bu fikrlar "Avesto"da bog'bonchilik bilan shug'ullanish, dehqonchilik qilib, yerdan yuqori hosil olish naqadar ulug'langanligidan dalolat beradi.

Yakka xudolikni targ'ib etgan zardushtiylik dini o'sha davr Eron va Turon zamin aholisining mafkurasi va axloq normalarini ifoda etib, xalqlarni halol mehnatga da'vat etgan. Unda dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanish, o'simliklar va hayvon bolasini o'z farzandidek tarbiyalash va shu yo'ldagi fidoiylik insonlarga xos ulug' fazilat ekanligi uqtirilgan. Zardushtiylikda isrofgarchilik qoralanadi. Har bir inson o'z mehnati bilan yaratgan noz-ne'matlar hisobiga yashashga odatlanmog'i zarurligi ta'kidlangan.

"Avesto"da o'troq dehqonchilik va ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullangan O'rta Osiyo va Eron xalqlari haqida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Bu ma'lumotlardan har ikkala hudud o'rtasida iqtisodiy, siyosiy, diniy, ma'naviy va g'oyaviy hamkorlik bilan bir qatorda o'zaro ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar ham mavjud bo'lganligini anglab olish mumkin.

"Avesto" da O'rta Osiyodagi ko'plab jug'rofiy nomlar tilga olingan bo'lib, ular haqida Ahuramazda quyidagi fikrlarni bildirgan: "Men Axuramazda eng afzal

makon va mamlakatlar sirasidan Aryonam Vayjoni, so'ngra so'g'dlar yashovchi Gavani, keyin esa Mouruni, to'rtinchi bo'lib Baxdini, ...beshinchi bo'lib Mouru va Baxdi oralig'idagi Nisayani... yaratdim" "Avesto"da bunday viloyatlarning jami 16 tasi sanab utiladi.

Videvdatning birinchi bobida sanab o'tilgan viloyatlar Yasht viloyatlari ro'yxatidan farq qilib, bu ro'yxatga ko'ra unga Aryonam Vayjo, Gava, Mouru, Baxdi, Nisayyo, Aryo, Vaekereta, Urva, Xnanta, Raga, Chaxro, Varna, nomsiz yetti hind viloyatlari va Ranxa daryosining yuqori oqimidagi hududlar kiradi. "Avesto"da Aryonam Vayjo, Sug'd (Gova), Baqtriya va Marg'iyona kabi viloyatlarga aniq tasvirlar berilishi kitobni yaratuvchilar bu viloyatlarda yashaganliklari va ular haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lganliklaridan dalolat beradi.

"Aryonam Vayjo" -"oriy kengliklari" ma'nosini beradi. Ko'p tadqiqotchilar uni Xorazm deb faraz qilishgan bo'lsa-da, boshqacha qarashlar ham uchraydi. Masalan, I.M.Dyakonovning fikricha "oriy kengliklari" bir mamlakat yoki viloyat tushunchasidan ko'ra kengroq, ma'noda qo'llanilib, butun O'rta Osiyo va Sharqiy Eron tekisliklarini o'z ichiga olgan. Akademik A. Asqarov "Oriy" atamasi ko'chmanchi qabilalar — "turlar" badavlat qatlamiga nisbatan qo'llanilgan, degan fikrni bildiradi. Bu fikrni arxeologik tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Haqiqatan ham, Aryanam Vayjo — "turlar"ning vatani bo'lib, bu yurt yaylovlarga boy geografik kengliklardan iboratdir. Gerodot "Tarix" asarining 3-jildida girkaniylar, parfiyaliklar, tamaneylar, drangiyonlar va xorasmiyaliklar yerlari chegaralaridan o'tgan Akes daryosida tug'on qurilgani va u yerlar xorasmiyaliklarga tegishli ekanligini yozadi.

Gekatiy Gerodotdan sal oldinroq (mil. avv. 500 yillar) parfiyaliklarning sharqiy tomonida joylashgan "bir qismi tekisliklarda, bir qismi tog'larda yashovchi" xorasmiyaliklarni tilga olgan edi. Bu "Katta Xorazm bo'lib, yuqoridagi fikrlarga ko'ra, u Marv va Hirot hududlarini ham qamrab olgan. Gekatey va Gerodotlar keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, Akes daryosi suvlaridan foydalangan aholi miloddan avvalgi VII-VI asrlarda o'z davriga nisbatan yuksak

darajada rivojlangan dehqonchilik madaniyatini yaratganlar. Ana shu hududlarda Katta Xorazm davlati tashkil topgan. Gerodotning fikricha bu davlat tarkibiga kirganlar, parfiyaliklar, saranglar va tamaneylarning yerlari ham kirgan. V.Tar va F.Altxaymlarning ma'lumotlariga ko'ra, Ahmoniyalar bosib olishlaridan oldin xorazmliklar Kopettog'ning janubiy qismlarida yashaganlar.

V.B.Xenning va I.Gershevichlarning fikrlariga ko'ra, Xorazm davlatining markazi Marv va Hirot atroflarida bo'lib, bu hududlarni Kir II bosib olgandan so'ng xorazmliklar quyi Amudaryo — hozirgi Xorazm viloyatiga ko'chib borganlar. Shu davrdan boshlab Amudaryoning quyi deltasi xorazmlilar nomi bilan Xorazm deb atalib, bu hududda ko'plab shahar-qal'alar qad ko'targan. Qadimgi Xorazmning markazlaridan biri bo'lgan Ko'zaliqir shahar-qal'asi ana shunday qal'alarning yirigi bo'lib, u mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan.

Miloddan avvalgi VI asr o'rtalaridan boshlab Ahmoniyalar o'z hududlarini kengaytirish maqsadida qo'shni xalqlar yurtlariga bosqinchilik yurishlari uyushtirdilar. Ular o'zlariga nisbatan Sharqda joylashgan girkaniylar, parfiyaliklar, baqtriyaliklar, xorazmiyaliklar va boshqa xalqlarga tegishli yerlarni ham bosib oldilar. Bu xalqlar Ahmoniy hukmdori Doro I ning zo'rovonlik siyosatiga qarshi qo'zgolonlar ko'tardilar (Frada qo'zg'oloni). Doroning zulmidan bezor bo'lgan xorazmiyaliklar o'z yurtlarini tashlab Amudaryoning unumdor quyi havzasiga ko'chib ketganlar.

Qadimgi Xorazm tarixining yirik tadqiqotchisi S.P.Tolstov, Xorazm davlati quyi Amudaryoda qadimgi zamonlardayoq shakllangan degan xulosaga kelgan. Uning ta'kidlashicha, bu davlatning chegaralari O'rta Amudaryodan boshlanib Orol dengizigacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan.

Baqtriyadagi Qiziltepa shahar-qal'asi devorlari bilan Ko'zaliqir mudofaa devorlarining tuzilishida ancha o'xshashliklar bor. Shahar-qal'alar devorlari ustida o'q otish uchun harbiy minora — mudofaa burjlari qurilgan. Devorlarning har ikki metrda shinaklar qilingan. Bu davrda uy-joy qurilishi ancha takomillashib, uylar asosan, g'isht va paxsadan qurilgan. Jumladan, Dingalja uy-qo'rg'oni uy-joy, xo'jalik xonalari va hovlidan iborat bo'lib, paxsa devor bilan o'ralgan. Tadqiqotlar

qadimgi shahar-qal'alar markazida hukmdorning qarorgohi—arki a'lo joylashganligidan guvohlik beradi. Bu davrda shahar-qal'alar aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lsa-da, hunarmandchilik ham ancha keng tarmoq ota boshlagan. Jamoa a'zolarining siyosiy hayoti oqsoqollar kengashi tomonidan harbiy demokratik prinsiplar asosida boshqarilgan. Kengash tepasida jamoa a'zolari saylagan hukmdor turgan. U diniy, dunyoviy va harbiy hokimiyatni qo'lida mujassamlashtirgan holda kengash a'zolari bilan bamaslahat ish tutgan. Kengash a'zolari va jamoaning nufuzli vakillari o'sha davrda hukmron sinflarning asosini tashkil etgan. Ushbu davrga oid yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar qadimgi Xorazm vohasida dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik ancha rivojlanganligini ko'rsatadi.

Miloddan avvalgi VIII-IV asrlarda Markaziy Osiyoda jamoalar dunyoqarashining shakllanishida otashparastlik an'analari asosida tarkib topgan zardushtiylik dini ibratli axloq normasi sifatida muhim rol o'ynadi. Zaratushtra diniy islohoti asosida yakka xudolikni targ'ib etgan zardushtiylik dini o'sha davr Eron va Turonzamin aholisi g'oyaviy qarashlarining asosini tashkil etgan. Bu ta'limotga ko'ra tabiatda to'rt narsa: yer, olov, suv, havo muqaddas bo'lib, inson hayotini ularsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Tabiatning bu muqaddas in'omlarini isrof etish katta gunoh hisoblangan.

«Avesto»da «turlar» deb atalgan yirik harbiy uyushmalar O'rta Osiyo hududidagi ko'chmanchi sak qabilalarining konfederatsiyalari bo'lib, ular O'rta Osiyoning shimoliy kengliklarida yashaganlar. Miloddan avvalgi XI-VIII asrlarda ko'chmanchi qabilalar jamiyatlari hujumkor tabiatga ega kuchli harbiy-siyosiy birlashmalardan iborat bo'lib, janubiy dehqonchilik vohalariga xavf solib turishgan.

O'rta Osiyoda yashagan yirik qabila uyushmalaridan biri — massagetlar bo'lib, ular bir necha sak qabilalarini birlashtirgan yirik qabilalar ittifoqi edi. Bu Qabilalar Ittifoqi jangovarlik xarakteriga ega bo'lib, ular nayza, qalqon, cho'qmorlar bilan qurollanganlar.

Massagetlar qabilalarida botir va kuchli erkaklar hurmat qilingan. Ular uchun kasal bo'lmagan uzoq yashash yoki jangda halok bo'lish faxrli hisoblangan. Aksincha qo'rqqoq, kasalmand va nimjon kishilar jamoa uchun yaroqsiz deb hisoblangan. Jamoa bunday kishilardan tezroq qutulishga harakat qilgan.

«Avesto»ning Yasht qismida ta'riflanishicha, ilk sinfiy tengsizlik davrida Markaziy Osiyoda jamiyat tarkibining boshlang'ich kurtagi «*nmana*» deb atalgan. Nmanalar birlashib urug' jamoasi «*vis*» ni tashkil qilgan. Bir necha urug'lar qabila («*zantu*»)ga birlashgan. Qabilalarning birlashishidan viloyatlar («*dahyu*») tashkil topgan. Viloyatlarni (boshliq) lar idora qilgan. O'sha davrda Aryanam Vayjo jamiyati 4 toifaga, ya'ni kohinlar, harbiylar, chorvadorlar va hunarmandlarga bo'lingan. Bu toifalar orasida chorvadorlarga alohida e'tibor berilgan. Xususan, Axuramazda madhiyalari orasida «Sen o'sha, kim bizga hayot manbai bo'lgan chorvani dunyoga keltirgansan. Chorvaga yaxshi ega kerak. Ushbu yerdagi chorva egaloriga men erkin hayotni ta'min qilaman»,— degan fikrlar uchraydi.

Oila tarkibida to'la huquqqa ega bo'lmagan a'zolar (vira, vaysa va pariaytarlar) ham bo'lgan. Vira odatda «*erkak*», «*jangchi*» ma'nosi bilan birga “qul” ma'nosida ham ishlatilgan.

«Avesto»da targ'ib qilingan g'oyalarning asosiy yo'nalishi jamiyatning madaniy-ma'naviy taraqqiyotini «*ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal*» orqali amalga oshirishga qaratilgan. Bu muqaddas kitobda targ'ib qilingan yaxshi niyatlar, orzu-istaklar asrlar davomida insonlar qalbiga singdirilib, ularni ezgulikka da'vat qilib kelingan. Otapsharastlik dinida yakka xudolik ta'limoti targ'ib qilinishiga qaramasdan, Zardusht Axuramazdaga tayanch bo'lgan bir necha xudolar haqida ma'lumotlar berilgan. Ular orasida Mitra xudosi insoniyatga hayot manbai bo'lgan quyosh nuri va issiqlik beradi. Anaxita xudosi odamlarga yer, suv, hosildorlik, go'zallik, sevgi-muhabbat, nafosat, qahramonlik, kuch-quvvat, yutuqlar beradi.

O'rta Osiyo xalqlari dehqonchilik madaniyatini takomillashtirishga muntazam e'tibor berib borishgan. Jamoa a'zolarining o'troq turmush tarziga o'tish, yerni sharoitga qarab sug'orib turish, binolar qurish va sifatli ekin ekishga

da'vat etish o'sha davrning eng zaruriy ishlari edi. Zardushtiylikda ekin ekiladigan yerlarni ko'paytirish, ularni asrab avaylash, uni muqaddas hisoblab sajda qilish ilohiy nizom tusini olgan. Olovga sig'inish, yer va olov xudosiga ibodat qilish, uy-joy qurish, uni olov bilan, uy hayvonlari, xotin, bola-chaqa bilan to'ldirish, o'simlik va daraxt ko'kartirish, katta-kichik uy hayvonlarini ko'paytirish, yerni parvarish qilish zardushtiylik dinining asosini tashkil etgan. «Avesto»da insonlarni bog'bonchilik bilan shug'ullanish, dehqonchilik qilib, yerdan yuqori hosil olishga undashi bu dinda mehnat qilishni naqadar ulug'langanligidan dalolat beradi.

2.2-§. Qadimgi Xorazm va So'g'diyonada yer va suv munosabatlari

Videvdatning birinchi bobida sanab o'tilgan viloyatlar Yasht viloyatlari ro'yxatidan farq qilib, bu ro'yxatga ko'ra unga Aryanam Vayjo, Gava, Mouru, Baxdi, Nisayyo, Aryo, Vaekereta, Urva, Xnanta, Raga, Chaxro, Varna, nomsiz Yetti Hind viloyatlari va Ranxa daryosining yuqori oqimidagi hududlar kiradi. «Avesto»da Aryanam Vayjo, Sug'd (Gava), Baqtriya va Marg'iyona kabi viloyatlarga aniq tasavvurlar berilishi kitobni yaratuvchilar bu viloyatlarda yashaganliklari va ular haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lganliklaridan dalolat beradi.

«Aryanam Vayjo» -«oriy kengliklari» ma'nosini beradi. Ko'p tadqiqotchilar uni Xorazm deb faraz qilishgan bo'lsada, boshqacha qarashlar ham uchraydi. Masalan, I.M.Dyakonovning fikricha «oriy kengliklari» bir mamlakat yoki viloyat tushunchasidan ko'ra kengroq ma'noda qo'llanilib, butun O'rta Osiyo va Sharqiy Eron tekisliklarini o'z ichiga olgan. Akademik A.Asqarov «Oriy» atamasi ko'chmanchi qabilalar — «turklar»ning badavlat qatlamiga nisbatan qo'llanilgan, degan fikrni bildiradi. Bu fikrni axeologik tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Haqiqatan ham Aryanam Vayjo-«turklar» ning vatani bo'lib, bu yurt yaylovlarga boy geografik kengliklardan iboratdir. Gerodot «Tarix» asarining 3-jildida girkaniylar, parfiyaliklar, tamaneylar, drangiyonlar va xorasmiyaliklar yerlari chegaralaridan o'tgan Akes daryosida to'g'on qurilgani va u yerlar xorasmiyaliklarga tegishli ekanligini yozadi. Gekatiy Gerodotdan sal oldinroq (mil. avv. 500 yillar)

parfiyaliklarning sharqiy tomonida joylashgan «bir qismi tekisliklarda, bir qismi togʻlarda yashovchi» xorasmiyaliklarni tilga olgan edi. Bu «Katta Xorazm» boʻlib, yuqoridagi fikrlarga koʻra, u Marv va Hirot hududlarini ham qamrab olgan.

Gekatey va Gerodotlar keltirgan maʼlumotlarga koʻra, Akes daryosi suvlaridan foydalangan aholi miloddan avvalgi VII-VI asrlarda oʻz davriga nisbatan yuksak darajada rivojlangan dehqonchilik madaniyatini yaratganlar. Ana shu hududlarda Katta Xorazm davlati tashkil topgan. Gerodotning fikricha bu davlat tarkibiga girkanlar, parfiyaliklar, saranglar va tamaneylarning yerlari ham kirgan. V.Tarn va F.Altxaymlarning maʼlumotlariga koʻra, Ahmoniyar bosib olishlaridan oldin xorazmliklar Kopetdogʻning janubiy qismlarida yashaganlar.

V.B.Xenning va I.Gershevichlarning fikrlariga koʻra, Xorazm davlatining markazi Marv va Hirot atroflarida boʻlib, bu hududlarni Kir II bosib olgandan soʻng xorazmliklar Quyi Amudaryo — hozirgi Xorazm viloyatiga koʻchib borganlar. Shu davrdan boshlab Amudaryoning quyi deltasi xorasmiyalik nomi bilan Xorazm deb atalib, bu hududda koʻplab shahar — qalʼalar qad koʻtargan. Qadimgi Xorazmning markazlaridan biri boʻlgan Koʻzaliqir shahar — qalʼasi ana shunday qalʼalarning yirigi boʻlib, u mustahkam mudofaa devorlari bilan oʻralgan. Miloddan avvalgi VI asr oʻrtalaridan boshlab Ahmoniyar oʻz hududlarini kengaytirish maqsadida qoʻshni xalqlar yurtlariga bosqinchilik yurishlari uyushtirdilar. Ular oʻzlariga nisbatan Sharqda joylashgan girkaniylar, parfiyaliklar, baqtriyaliklar, xorasmiyaliklar va boshqa xalqlarga tegishli yerlarni ham bosib oldilar. Bu xalqlar Ahmoniy hukmdor Doro I ning zoʻrovonlik siyosatiga qarshi qoʻzgʻolonlar koʻtardilar (Frada qoʻzgʻoloni). Doroning zulmidan bezor boʻlgan xorasmiyaliklar oʻz yurtlarini tashlab Amudaryoning unumdor quyi havzasiga koʻchib ketganlar.

Qadimgi Xorazm tarixining yirik tadqiqotchisi S.P.Tolstov, Xorazm davlati Quyi Amudaryoda qadimgi zamonlardayoq shakllangan degan xulosaga kelgan. Uning taʼkidlashicha, bu davlatning chegaralari Oʻrta Amudaryodan boshlanib Orol dengizigacha boʻlgan hududlarni oʻz ichiga olgan.

Baqtriyadagi Qiziltepa shahar — qal'asi devorlari bilan Ko'zaliqir mudofaa devorlarining tuzilishida ancha o'xshashliklar bor. Shahar — qal'alar devorlari ustida o'q otish uchun harbiy minora — mudofaa burjlari qurilgan. Devorlarning har ikki metrda shinaklar qilingan. Bu davrda uy-joy qurilishi ancha takomillashib, uylar asosan g'isht va paxsadan qurilgan. Jumladan, Dingalja uy — qo'rg'oni uy-joy, xo'jalik xonalari va hovlidan iborat bo'lib, paxsa devor bilan o'ralgan. Tadqiqotlar qadimgi shahar — qal'alar markazida hukmdorning qarorgohi— arki a'lo joylashganligidan guvohlik beradi. Bu davrda shahar — qal'alar aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lsada, hunarmandchilik ham ancha keng tarmoq ota boshlagan. Jamoa a'zolarining siyosiy hayoti oqsoqollar kengashi tomonidan harbiy demokratik prinsiplar asosida boshqarilgan. Kengash tepasida jamoa a'zolari saylagan hukmdor turgan. U diniy, dunyoviy va harbiy hokimiyatni qo'lida mujassamlashtirgan holda kengash a'zolari bilan bamaslahat ish tutgan. Kengash a'zolari va jamoaning nufuzli vakillari o'sha davrda hukmron sinflarning asosini tashkil etgan. Ushbu davrga oid yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar qadimgi Xorazm vohasida dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik ancha rivojlanganligini ko'rsatadi.

Miloddan avvalgi VIII-IV asrlarda Markaziy Osiyoda jamoalar dunyoqarashining shakllanishida otashparastlik an'analari asosida tarkib topgan zardushtiylik dini ibratli axloq normasi sifatida muhim rol o'ynadi. Zaratushtra diniy islohoti asosida yakka xudolikni targ'ib etgan zardushtiylik dini o'sha davr Eron va Turonzamin aholisi g'oyaviy qarashlarining asosini tashkil etgan.

2.3-§. Ahmoniylar hukmronligi davrida yer va suv munosabatlari

Miloddan avvalgi VI asr boshlarida Fors qabilalari ustidan hukmronlikni qo'lga kiritgan Ahmoniylar sulolasi qo'shni qabilalar va xalqlarga qarshi yurishlar qilib, ularga tegishli yerlarni ham egallab ola boshlaganlar. Miloddan avvalgi 6 asr boshlarida Ahmoniylar podsholigi (Forslar davlati) o'z chegaralarini mustahkamlashga kirishib, sharqdagi qadimgi Midiya, Lidiya, Elam kabi davlatlarni bosib oldi. Keyinroq, Ahmoniylar podshosi Kir II lashkarboshisi

Garpagga Kichik Osiyodagi shahar — davlatlarga yurish qilishni buyurib, o‘zi Bobil, Misr va O‘rta Osiyo viloyatlari (Baqtriya, Xorazm, Sug‘diyona, Marg‘iyona va b.) ni bosib olishga kirishdi. Gerodotning yozishicha, «Kir Bobilni, baqtriyaliklar, saklarning yerlarini va Misrni bosib olishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi».

Qadimdan Xorazm, Amudaryo etaklari va Orolbo‘yi cho‘llarida yashab kelgan massaget qabilalari ittifoqi o‘zlarining jangovarliklari va erksevarliklari bilan ajralib turgan. Massaget qabilalari o‘z farzandlarini, o‘g‘il yoki qiz bo‘lishidan qat‘iy nazar, yoshligidan vatan mudofaasiga tayyorlab borganlar. Gerodotning yozishicha, O‘rta Osiyo baqtriyalilar, girkanlar, kaspiylar, so‘g‘dlar, saklar, xorasmiylar va oriylar yashaydigan bir necha viloyatlardan iborat bo‘lib, ular Eron davlatiga qaram bo‘lgan. Bu ittifoqda xorasmiylar alohida e‘tiborga sazovor bo‘lishgan.

O‘rta Osiyo xalqlarining harbiy tayyorgarliklari ancha yuqoriligi va dushmanga qarshi mardonavor jang qilish qobiliyatiga ega bo‘lganliklaridan yaxshi xabardor bo‘lgan Kir II ularga qarshi urush harakatlarini olib borishda lashkarboshilariga ham ishonmagan. Chunki, Ahmoniyalar davlati chegaralariga bir necha bor bostirib kelgan massaget qabilalarining jangovarlik xarakterlari Kir II ga yaxshi ma‘lum bo‘lgan. Xalqimizning uzoq tarixidan bizgacha etib kelgan To‘maris va Shiroq afsonalari ham qadimda sak va massaget qabilalarining o‘zlarining asosiy dushmanlari bo‘lgan Eron podsholari Kir va Dorolarga qarshi qahramonona kurashlaridan shingil hikoyalardir.

S.P.Tolstov asarlarida massaget qabilalari ittifoqi, ularning Saksafar, Omarg va To‘maris kabi boshliqlari to‘g‘risida fikr yuritilgan. Bu asarlarda To‘maris derbiklar malikasi, Omarg esa saklarning podshosi bo‘lganligi bayon etilgan. S.P.Tolstov Saksafarni siyovushiylar sulolasiga tegishli qadimgi Xorazm podshosi “Shaushafor” bo‘lishi kerak, degan g‘oyani olg‘a suradi. S.P.Tolstovning bunday xulosaga kelishi mantiqiy jihatdan tarixiy haqiqatga yaqinroqdir. Bu miloddan avvalgi VI asrda Saksafar Xorazm davlatining ilk podsholaridan biri bo‘lgan degan fikrni bildirishga asos bo‘ladi.

Xorazm davlatining geografik joylashuvi haqida bir qator fikrlar mavjud bo'lib, ular orasida akademik A.Asqarovning keltirgan fikr-mulohazalari o'sha davr hayotini mantiqan to'g'ri aks ettirgan. Bu mulohazalar quyidagi faktlarga asoslangan. «I.V.Dyankov o'zining «Xorasmi Gekatey Miletskogo» maqolasida yunon va Vizantiya muarrixlarining xorasmiylar haqidagi ma'lumotlarini tahlil qilgan ekan, g'arb bilan sharqni bog'lovchi qadimgi karvon yo'li Midiyadan Kaspiy darvozasi bo'ylab girkanlar yeriga, undan parfiyaliklarning tog'li yerlaridan o'tib, tog'li va tekisliklardan iborat bo'lgan xorasmiylar yeriga kirib kelishini tasvirlaydi. Keyin yo'l baqtriyaliklar yeridan o'tib, yo'l gandariylar yeriga chiqadi. Aynan shu joyda "Kaspapira shahridan Hind daryosi orqali suzish boshlangan. Daryoning ikkala tomonida ham tog'lar bo'lgan. Tog'larda quyuk o'rmonlar bo'lib, unda tikanli kinaralar bo'lgan, Xorasmiya tog'larida undan tashqari tol va yulg'unlar ham o'sgan".

Mana shu tarxiiy yozma manbalar va ularning etnogeografik tahlilidan ham ko'rinib turibdiki, Xorasmiylarning dastlabki vatani Baqtriyadan janubda, Ariyadan sharqda, Herirud va Xilmend daryolarining yuqori havzasida, hozirgi Hirot vodiysida bo'lgan. Ahmoniy podsholari Sharqiy eron qabilalaridan tazyiq yo'li bilan-yiliga katta boj olish maqsadida Xilmend tog' daralariga to'g'onlar qurdirgan. Natijada vodiya ko'l hosil bo'lib, xorasmiylar noilojlikdan vatanlarini tark etishga majbur bo'lganlar. Ularning Amudaryo etaklariga ko'chishi ancha og'ir kechgan. Ular xas va cho'plardan sollar yasashib massagetlar yurtiga kirib borganlar. Amudaryoning quyi havzalarida yerlar asrlar davomida hosil bo'lgan unumdor tekis yerlar, havza suvlaridan dehqonchilikda foydalanishning qulayligi, ziroatchilikka boy tajribaga ega bo'lgan xorasmiy qabilalarining yangi joyga moslashishini tezlashtirgan .

Yuqorida keltirilgan fikrlarni yunon tarxchisi Gerodotning quyidagi ma'lumotlari ham tasdiqlaydi: «Osiyoda bir tekislik bor. Uning atrofi tog'lar bilan o'ralgan. Bir vaqtlar bu yerlar xorazmliklarga qarar edi, chunki u xorazmliklar, parfiyaliklar va boshqa (shular atrofida) xalqlar yerining chegarasidir. Bu yerlarni o'ragan tog'lardan «Akes» nomli bir daryo oqib chiqadi. Dastlab bu daryo

bash tarmoqqa ayrilar edi, har qaysi tarmoq mazkur xalqlardan birining yerini sug'orar edi. Lekin har bir tarmoq tog'ning alohida bir unguridan oqib chiqar edi. Bu xalqlar (xorasmiyaliklar)ning Ahmoniyalar (eramizdan oldingi VI asr) qo'l ostiga o'tishi bilan shunday o'zgarish yuz berdi: podsho (Ahmoniyalar hukmdori) bu tarmoqlar chiqadigan tog' ungurlarining og'ziga to'g'on bino qilishni buyurdi. Natijada suv tashqariga oqib chiqarilmasdan, tog' ichidagi tekislikda damlanib qoldi, undan ko'l hosil bo'ldi. Bunda kunjut va tariq ekkan xalqlar suvdan qattiq tanqislik topdilar. Shuning uchun suvsiz qolganliklarida bola-chaqalari bilan fors mamlakatlariga borib, podsho saroyi darvozasida oh - voh qilib, yig'lab suv so'rar edilar. Podsho ularning muhtojligini ko'rib, to'g'onlarni ochtirar edi. Bularning yeri suvga qongandan keyin boshqalarning yeriga suv ochtirar edi. Suvni ochtirgani uchun podsho ulardan oddiy soliqdan tashqari alohida haq olar edi»³⁷. Ahmoniy hukmdorlar o'zlari bosib olgan yerlarda sug'orma dehqonchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor berishgan. Ilgari kichik urug' va qabilalar o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, kichik - kichik ariqlar qazib cheklangan miqdorda yerlarni o'zlashtirishgan bo'lsalar, keyinchalik mayda ariqlar o'rniga katta-katta kanallar qazilib, keng zonalarda sug'orish ishlari boshlangan.

Mil.avv. VI asr o'rtalarida Ahmoniy Kir II boshchiligida forslar O'rta Osiyoga bostirib kirganlar. Gerodotning ma'lumotiga ko'ra, Kir II ning harbiy yurishlariga Bobil, Baqtriya xalqi, saklar va misrliklar to'sqinlik qilib turishgan. Bu Baqtriya va sak — massagetlar konfederatsiyasi Misr va Bobil singari yirik davlatlar darajasida e'tiborda turganligidan dalolat beradi. Arxeologik topilmalar Marg'iyona, So'g'd va hatto Areya ham birmuncha vaqt Baqtriya tarkibiga kirganligini tasdiqlaydi.

Miloddan avvalgi 545-540 yillarda Kir II Parfiya, Marg'iyona va Baqtriyani bo'ysundirgan. O'rta Osiyo xalqlari bosqinchilarga qarshi jiddiy qarshilik ko'rsatishgan. Ktesiy ma'lumotiga ko'ra, Kir II va baqtriyaliklar o'rtasida sodir bo'lgan to'qnashuvlarda biron-bir tomon ustun kelmagan, faqat o'zaro kelishuvga binoan baqtriyaliklar Ahmoniyalar hukmdorini tan olganlar. Gerodotning «Tarix» kitobida forslarning Araks (Amudaryo) dan o'tib massagetlar yerlariga bostirib

kirishi, To‘marisning o‘g‘li Sparangis boshchiligidagi massaget qo‘shinlarining bir qismini Kir II ayyorlik bilan mag‘lubiyatga uchratishi, keyinchalik To‘maris boshchiligidagi massaget qo‘shinlari tomonidan forslarning asosiy qismi qirib tashlanishi, jangda o‘ldirilgan Kir II ning boshi qon bilan to‘ldirilgan meshga solinganligi bayon etilgan.

Qadimdan Xorazm, Amudaryo etaklari va Orolbo‘yi cho‘llarida yashab kelgan massaget qabilalari ittifoqi o‘zlarining jangovarliklari va erksevarliklari bilan ajralib turgan. Massaget qabilalari o‘z farzandlarini, o‘g‘il yoki qiz bo‘lishidan qat’iy nazar, yoshligidan vatan mudofaasiga tayyorlab borganlar. Gerodotning yozishicha, O‘rta Osiyo baqtiriyaliklar, girkanlar, kaspiylar, so‘g‘dlar, saklar, xorasmiylar va ariylar yashaydigan bir necha viloyatlardan iborat bo‘lib, ular Eron davlatiga qaram bo‘lgan³⁵. Bu ittifoqda xorasmiylar alohida e’tiborga sazovor bo‘lishgan. Xalqimizning uzoq tarixidan bizgacha yetib kelgan To‘maris va Shiroq afsonalari ham qadimda sak va massaget qabilalarining o‘zlarining asosiy dushmanlari bo‘lgan Eron podsholari Kir va Dorolarga qarshi qahramonona kurashlaridan shingil hikoyalardir.

S.P.Tolstov asarlarida massaget qabilalari ittifoqi, ularning Saksafar, Omarg va To‘maris kabi boshliqlari to‘g‘risida fikr yuritilgan. Bu asarlarda To‘maris derbiklar malikasi, Omarg esa saklarning podshosi bo‘lganligi bayon etilgan. S.P.Tolstov Saksafarni siyovushiylar sulolasiga tegishli qadimgi Xorazm podshosi Shaushafor bo‘lishi kerak, degan g‘oyani olg‘a suradi. S.P.Tolstovning bunday xulosaga kelishi mantiqiy jihatdan tarixiy haqiqatga yaqinroqdir. Bu miloddan avvalgi VI asrda Saksafar Xorazm davlatining ilk podsholaridan biri bo‘lgan degan fikrni bildirishga asos bo‘ladi.

Xorazm davlatining geografik joylashuvi haqida bir qator fikrlar mavjud bo‘lib, ular orasida akademik Asqarovning keltirgan fikr — mulohazalari o‘sha davr hayotini mantiqan to‘g‘ri aks ettirgan. Bu mulohazalar quyidagi faktlarga asoslangan. I.V.Pyankov o‘zining “Xorasmi Gekatey Miletskogo” maqolasida yunon va Vizantiya muarrixlarining xorasmiylar haqidagi ma’lumotlarini tahlil qilgan ekan, g‘arb bilan sharqni bog‘lovchi qadimgi karvon yo‘li Midiyadan Kaspiy

darvozasi bo‘ylab girkanlar yeriga, undan parfiyaliklarning tog‘li yerlaridan o‘tib, tog‘li va tekisliklardan iborat bo‘lgan xorasmiylar yeriga kirib kelishini tasvirlaydi. Keyin yo‘l baqtriyaliklar yeridan o‘tib, yo‘l girkaniylar yeriga chiqadi. Aynan shu joyda «Kaspapira shahridan Hind daryosi orqali suzish boshlangan. Daryoning ikkala tomonida ham tog‘lar bo‘lgan. Tog‘larda quyuq o‘rmonlar bo‘lib, unda tikanli kinaralar bo‘lgan, Xorasmiya tog‘larida undan tashqari tol va yulg‘unlar ham o‘sgan».

«Mana shu tarixiy yozma manbalar va ularning etnogeografik tahlilidan ham ko‘rinib turibdiki, xorasmiylarning dastlabki vatani Baqtriyadan janubda, Ariyadan sharqda, Herirud va Xilmend daryolarining yuqori havzasida, hozirgi Hirot vodiysida bo‘lgan. Ahamoniy podsholari Sharqiy Eron qabilalaridan tazyiq yo‘li bilan-yiliga katta boj olish maqsadida Xilmend tog‘ daralariga to‘g‘onlar qurdirgan. Natijada vodiya ko‘l hosil bo‘lib, xorasmiylar noilojlikdan vatanlarini tark etishga majbur bo‘lganlar. Ularning Amudaryo etaklariga ko‘chishi ancha og‘ir kechgan. Ular xas va cho‘plardan sollar yasashib massagetlar yurtiga kirib borganlar. Amudaryoning quyi havzalarida yerlar asrlar davomida hosil bo‘lgan unumdor tekis yerlar, havza suvlaridan dehonchilikda foydalanishning qulayligi, ziroatchilikka boy tajribaga ega bo‘lgan xorasmiy qabilalarining yangi joyga moslashishini tezlashirgan».

Yuqorida keltirilgan fikrlarni yunon tarixchisi Gerodotning quyidagi ma’lumotlari ham tasdiqlaydi: «Osiyoda bir tekislik bor. Uning atrofi tog‘lar bilan o‘ralgan. Bir vaqtlar bu yerlar xorazmliklarga qarar edi, chunki u xorazmliklar, parfiyaliklar va boshqa (shular atrofidagi) xalqlar yerining chegarasidadir. Bu yerlarni o‘ragan tog‘lardan “Akes” nomli bir daryo oqib chiqadi. Dastlab bu daryo besh tarmoqqa ayrilar edi, har qaysi tarmoq mazkur xalqlardan birining yerini sug‘orar edi. Lekin har bir tarmoq tog‘ning alohida bir unguridan oqib chiqar edi. Bu xalqlar (xorasmiyaliklar)ning Ahamoniylar (eramizdan oldingi VI asr) qo‘l ostiga o‘tishi bilan shunday o‘zgarish yuz berdi: podsho (Ahamoniylar hukmdori) bu tarmoqlar chiqadigan tog‘ ungurlarining og‘ziga to‘g‘on bino qilishni buyurdi. Natijada suv tashqariga oqib chiqarilmasdan, tog‘ ichidagi tekislikda damlanib

qoldi, undan ko‘l hosil bo‘ldi. Bunda kunjut va tariq ekkan xalqlar suvdan qattiq tanqislik topdilar. Shuning uchun suvsiz qolganliklarida bola - chaqalari bilan fors mamlakatlariga borib, podsho saroyi darvozasida oh-voh qilib, yig‘lab suv so‘rar edilar. Podsho ularning muhtojligini ko‘rib, tug‘onlarni ochtirar edi. Bularning yeri suvga qongandan keyin boshqalarning yeriga suv ochilar edi. Suvni ochtirgani uchun podsho ulardan oddiy soliqdan tashqari alohida haq olar edi”. Ahamoniy hukmdorlar o‘zlari bosib olgan yerlarda sug‘orma dehqonchilikni rivojlantirishga alohida e‘tibor berishgan. Ilgari kichik urug‘ va qabilalar o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib, kichik-kichik ariqlar qazib cheklangan miqdorda yerlarni o‘zlashtirishgan bo‘lsalar, keyinchalik mayda ariqlar o‘rniga katta-katta kanallar qazilib, keng zonalarda sug‘orish ishlari boshlangan.

Mil. avv. VI asr o‘rtalarida Ahmoniy Kir II boshchiligida forslar O‘rta Osiyoga bostirib kirganlar. Gerodotning ma‘lumotiga ko‘ra, Kir II ning harbiy yurishlariga “Bobil, Baqtriya xalqi, saklar va misrliklar to‘sqinlik qilib turishgan”. Bu Baqtriya va sak-massagetlar konfederatsiyasi Misr va Bobil singari yirik davlatlar darajasida e‘tiborda turganligidan dalolat beradi. Arxeologik topilmalar Marg‘iyona, Sug‘d va hatto Areya ham bir muncha vaqt Baqtriya tarkibiga kirganligini tasdiqlaydi.

Miloddan avvalgi 545-540 yillarda Kir II Parfiya, Marg‘iyona va Baqtriyani bo‘ysundirgan. O‘rta Osiyo xalqlari bosqinchilarga qarshi jiddiy qarshilik ko‘rsatishgan. Ktesiy ma‘lumotiga kura, Kir II va baqtriyaliklar o‘rtasida sodir bo‘lgan to‘qnashuvlarda biron-bir tomon ustun kelmagan, faqat o‘zaro kelishuvga binoan baqtriyaliklar Ahmoniylar hukmdorini tan olganlar. Gerodotning “Tarix” kitobida forslarning Arake (Amudaryo)dan o‘tib massagetlar yerlariga bostirib kirishi, To‘marisning o‘g‘li Spargapis boshchiligidagi massaget qo‘shinlarining bir qismini Kir II ayyorlik bilan mag‘lubiyatga uchratishi, keyinchalik To‘maris boshchiligidagi massaget qo‘shinlari tomonidan forslarning asosiy qismi qirib tashlanishi, jangda o‘ldirilgan Kir II ning boshi qon bilan to‘ldirilgan meshga solinganligi bayon etilgan.

Miloddan avvalgi 522-yilda Ahmoniy Doro I taxtni egallagach, forslar hukmronligiga qarshi ko'pchilik viloyatlar qatori Parfiya, Marg'iyona va saklar o'lkasida qo'zg'olonlar ko'tarildi. Bu haqda Behustun qoyalariga Doro I nomidan shunday so'zlar bitilgan. «Men Bobilda bo'lganimda Fors, Elam, Midiya, Ossuriya, Misr, Parfiya, Marg'iyona, Sattagadiya, Saka davlatlari mendan ajralib ketdilar». Doro I tomonidan qo'zg'olonlar shafqatsiz bostirilgan. Jumladan, Marg'iyonada Frada boshchiligida ko'tarilgan qo'zg'olon bostirilib, 55 ming marg'iyonalik qatl ettirilgan. Shundan keyin Doro I “cho'qqi qalpoq kiyib yuradigan” saklar yurtiga bostirib borgan. Antik davr tarixchisi Polienning «Harbiy hiylalar» asarida jasur cho'pon Shiroqning Doro I qo'shinlarini hiyla bilan qirib tashlaganligi haqidagi hikoya ham o'rin olgan.

Ahamoniylar bosib olgan barcha hududlar satraplik (hokimlik)larga bo'lingan bo'lib, ularni Ahamoniy podsholar tomonidan tayinlangan noiblar boshqarishgan. Gerodot ma'lumotlariga ko'ra, Markaziy Osiyo viloyatlari to'rtta satraplikka bo'lingan. 11-satraplikka kirgan Kaspiy dengizi bo'ylarida yashagan ko'chmanchi qabilalar Ahamoniylarga 200 talant (talant — bobil kumush pul birligi: bir talant 30 kg kumushga teng), 12-satraplikka kirgan Baqtriya 360 talant, 15-satraplikka kirgan saklar 250 talant, 16-satraplikka kirgan Xorazm, Sug'd va Parfiya har-yili 300 talant miqdorida soliq to'lab turishgan.³⁸

Ahamoniylar hukmdori Doro I ning bo'ysundirilgan xalqlarga solinadigan soliqlari miqdori tobora oshib borgan. Jumladan, ahamoniylarga tobe viloyatlardan o'n ikkinchisiga kirgan “baqtriyaliklardan egllar (Xo'jand atroflarida yashagan qabilalar bo'lishi ehtimol) gacha bo'lgan hudud-yiliga 360 talant to'lab turishi kerak bo'lgan”.


Ahmoniylarning O'rta Osiyoda hukmronligi qariyb 200 yil davom etgan. Bu davrda ularning mahalliy aholiga nisbatan zulmlari oshib ketgan bo'lishiga qaramasdan, ayni paytda o'lka xalqlarining moddiy va madaniy hayotida birmuncha jonlanish ko'zga tashlanadi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, mahalliy aholining bir qismi Amudaryoning quyi havzalaridagi tekisliklarning sernam joylarida dehqonchilik bilan (Amirobod madaniyati), dasht zonalarda esa

chorvachilik bilan (Quyisoy madaniyati) shug'ullanishgan. Miloddan avvalgi VI asr o'rtalarigacha bu hududlarda yashagan aholi yarim yerto'lalarda, chayladan qilingan muvaqqat kulbalarda istiqomat qilishgan. Ahmoniyar zulmidan bezor bo'lib, Xuroson hududlaridan ko'chib kelgan qavmlar joylashgandan keyin esa bu yerda baland mudofaa devorlari bilan o'ralgan Qal'aliqir, Ko'zaliqir va Qo'yqirilganqal'a kabi shahar-qal'alar bunyod etildi. Amudaryoning chap qirg'og'ida joylashgan Qal'aliqirda 1953-1958 yillarda Yu.A.Rappoport boshchiligida arxeologik tekshiruv ishlari olib borilgan. Tekshiruvlarning ko'rsatishicha, qal'ada nafaqat mudofaa inshootlari, balki shahar maydonidagi yagona saroy binosi qurilishi ham tugallanmay qolgan. Qal'ada mudofaa devorlari, 15 metrli ko'shk va minoralar qurilishi tugatilib, saroyda pardozlash ishlari ketayotganda ish to'xtatilgan. Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, saroy (umuman Qal'aliqir) ning qurilishi V-IV asrlarda, ya'ni Xorazm Ahmoniyar satrapligiga aylantirilishi munosabati bilan boshlangan. Qurilishning to'satdan to'xtab qolishiga Xorazmning qadimgi forslar podsholigi tarkibidan chiqishi sabab bo'lgan degan xulosaga kelishgan.

Arxeologik izlanishlar miloddan avvalgi VI-V asrlardagi Xorazm davlati haqida juda boy materiallar beradi. O'sha davrda qurilgan o'nlab qal'alari, qadimgi shahar qoldiqlari o'rganilgan. Shulardan biri Qo'yqirilgan qal'a bo'lib, u Xorazmning antik davri madaniy hayoti haqida ko'plab materiallar beradi. Bu davrda kulolchilik yuksak rivojlangan. Kulolchilik idishlarining sirtiga qizil rangda geometrik shakllarda naqsh berilgan. Ko'zalarning dastasi arslon boshli qiyofada ishlangan. Idishlar orasida sirtiga bo'rttirib ishlangan afsonaviy qushlar, ot ustidagi sipohiyar tasviri uchraydi. Ko'zalarning biridagi naqshda sersoqol mo'yysafid bir bosh uzumni qo'lida ushlab turganligi, boshqa bir idishda esa taxtda o'tirgan ayolning uz chaqalog'ini bag'riga bosib turgani tasvirlangan.

Naqshdor idishlar qadimgi Xorazmning Qal'aliqir (mil. avv. VI - IV asrlar) va Tuproqqal'a yodgorliklari (milodiy II - IV asrlar)da ham ko'plab uchraydi. Idishlarga nayza uchli qalpoq kiygan harbiy, ot ustidagi sipohiy, arslon, jayron,

tuya suratlari tushirilgan. Bu qadimgi Xorazmda amaliy, tasviriy va me'morchilik san'ati keng rivojlanganligini bildiradi.



Xorazm vohasida miloddan avvalgi II-IV asrlardagi sun'iy sug'orish rivojlanishining xaritasi. Shartli belgilar: a – suv oqib turgan kanallar; b – Amudaryoning o'sha davrdagi o'zani; c – botqoq va toshqinlar; d – shaharlar.¹⁸

Qo'yqirilganqal'a xonalaridan birida topilgan qator xumlarda saqlangan uzum danaklari uzumdan ichimlik tayyorlash yaxshi yo'lga ko'yilganligidan

¹⁸ G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. Qadimgi zamondan hozirgacha. -T., 1959. – 107-bet.

guvohlik beradi. Bu yerdan topilgan haykalchalar orasida bir qo'lida uzum, ikkinchi qo'lida bog'bon pichog'ini ushlab turgan yalang'och erkak, shuningdek hosildorlik xudosi Nahid haykalchalari bayram libosida tasvirlangan. Nahidning tasviri tushirilgan haykalchalarning birida, u bir qo'lida qadah, ikkinchi qo'lida amfora (qo'sh dastali grafin) tutib turibdi.

Qo'yqirilganqal'a haykalchalari orasida ot tasviri ko'p bo'lsa, qadimgi Xorazmning shu davrga oid boshqa yodgorliklaridan esa tuya, qo'y, qush suratlari solingan tasvirlar va haykaltaroshlik san'ati qoldiqlari ko'p uchraydi. Bu hol qadimgi xorazmliklarning ma'naviy va madaniy dunyosi ancha rivojlanganligini, ularning sak va massaget qabilalari bilan etnik jihatdan bir-birlariga yaqin bo'lganliklarini ko'rsatadi. Bu voha aholisi bilan ko'chmanchi qabilalar o'rtasida iqtisodiy, siyosiy, harbiy va madaniy aloqalar rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatgan.

Miloddan avvalgi IV asrda Xorazm ahmoniylar hukmronligidan ozod bo'lib, mustaqil davlatga aylandi. Xorazmning Yunon-Baktriya va Parfiya davlatlari bilan yaxshi qo'shnichilik aloqalarini o'rnatishi o'rganishi, bu yerda o'ziga xos madaniy taraqqiyotning shakllanishida muhim omil bo'ldi. Jonbosqal'a, Qo'yqirilganqal'a yodgorliklari o'sha davr madaniyati namunalari. Xorazm vohasidan O'rta Osiyo hududi bo'yicha eng qadimgi yozuvlar (jumladan, Oybuyirilganq'aladan mil. avv. V—IV asrlarga oid xum sirtidagi yozuv) topildi. Qo'yqirilganqal'adan mil. avv. IV—III asrlarga oid yozuv namunalari, Tuproqal'adan oromiy yozuvidagi butun bir arxiv hujjatlari topilgan. O'rta Osiyoda Xorazm davlati bilan deyarli bir vaqtda shakllangan yana bir yirik davlat tuzilmasi qadimgi Baqtriya podsholigi bo'lib, "Avesto"da u "go'zal, tog'lari yuksak ko'tarilgan" davlat sifatida ta'riflanadi. Qadimgi yunon tarixchilari Baqtriya viloyatining nomi geografik makon sifatida Baqtr (Balxob) daryosi nomidan olinganligiga ishora qilishib, «uning (daryoning) nomi bilan shahar va viloyat ham ataladi» degan fikrni bildirishgan. Baqtriyaning geografik chegarasini janubda Hindikush (Parnase, Papopamis), shimolda Sug'diyona, g'arbda esa Marg'iyonagacha (Murg'ob vohasi) bo'lgan yerlar sifatida belgilash mumkin. Miloddan avvalgi VII asrlarda qadimgi Baqtriya davlati

tarkibiga Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon vodiylari va ularga chegaradosh viloyatlar kirganligi haqida ma'lumotlar uchraydi.

Baqtriya haqidagi qadimgi ma'lumotlar Naqshi Rustamdagi Behistun qoyasida ham uchraydi. Baqtriya satrapligi Ahmoniyalar imperiyasining iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o'rin tutgan. Shu tufayli bo'lsa kerak, Persepol saroy devorlarida baqtriyaliklar 15 joyda (jumladan, idish kutargan va tuya yetaklagan holda) tasvirlangan. Baqtriya haqida qadimgi yunon tarixchilari— Gerodot, Ktesiy, Strabon, Diador, Pliniy, Arrian, Kursiy Ruf, Gekatiy va boshqalar qimmatli ma'lumotlar qoldirganlar. Jumladan, Ktesiy Ossuriya podshosi Ninning Baqtriyaga qilgan yurishi, Baqtriya podshosi Oksiarg va uning xazinasi haqida xabar beradi. Ktesiy asarlarida tasvirlangan xalqlar orasida baqtriyaliklar birinchilardan bo'lib tilga olinadi. Gerodotning "Tarix" asarida Ahmoniyalar imperiyasi tarkibiga kirgan 20 ta satraplik va 70 ta xalqlar orasida Amudaryo qirg'oqlarida joylashgan mamlakat— Baqtriya ham borligi ko'rsatilgan. Baqtriya nomi Esxilning mil. avv. 472-yili sahnaga qo'yilgan "Forslar" tragediyasida ham uchraydi. Strabon Baqtriyani Ariananing javohiri sifatida bayon etadi. Ko'pchilik mualliflar baqtriyaliklarni "jangovar", "botir", "ko'p sonli" xalq sifatida ta'riflaydilar. Mamlakatda "zabt etib bo'lmaydigan" ko'plab mustahkam joylar, shu jumladan, poytaxt Baqtr (Balx) bor edi.

Ktesiyning "Persika" asarida Baqtriyaning ko'plab qal'alari va istehkomlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Baqtriya hududidan mil. avv. 1-ming yillikning 1-yarmiga oid 240 dan ortiq uy-qo'rg'on qal'alar va shaharlar qoldiqlari topib o'rganilgan. Baqtriya daryo va vohalardan iborat beshta viloyat—Surxon, Balxob, Kofirnihon-Vaxsh, Panj, Ko'kcha— Qunduzni birlashtirgan. Keyinchalik Baqtriya davlati kuchayib, o'z tarkibiga Marg'iyona va Sug'diyonani ham qo'shib olgan. Bu vaqtda Baqtriya va Sug'dning Qiziltepa, Uzunqir, Yerqo'rg'on va Afrosiyob kabi markaziy shaharlari bo'lgan. Shimoliy Afg'onistonda yirik shaharlar qoldiqlari — Bolo Hisor va Oltindiyorlar tekshirilgan. Bolo Hisor o'rnida qadimgi Baqtra joylashgan. Shaharlar keng maydonlarni egallagan. Ularning qalin mudofaa devorlari bilan o'ralgan qo'rg'on— qal'alari ham bo'lgan.

Surxon vohasida joylashgan Qiziltepa, Kuchuktepa, Beshqo'ton, Tallaniren, Jondavlat, Bandixon, Bo'yrachi, Qizilcha, Obishir va Sho'rtepa yodgorliklari o'sha davr hayotini o'rganishda alohida o'rin tutadi. Bu qal'alar va uy-qo'rg'onlar mudofaa burjlari (minorolari) bo'lgan qalin devorlar bilan o'ralgan. Uylar xom gisht va paxsadan qurilgan. Yodgorliklardan sopol idishlar, bronza va temirdan yasalgan pichoqlar, o'roqlar, bronza idish parchalari va o'q uchlari, jez igna va bigizlar, sopol urchuqlar, toshdan yasalgan qurollar topilganligi — bu davrda hunarmandchilik ancha rivojlanganligini ko'rsatadi.

Temir davrining dastlabki bosqichlaridayoq sug'orma dehonchilikka e'tibor kuchaydi. Bu davrda kanallar qazib daryolardan suv chiqarish, ariqlarni ta'mirlash va muntazam tozalab turish, yangi ekin maydonlarini o'zlashtirish, donchilik (arpa, bug'doy, javdar), mevachilik va sabzavot ekinlari ekish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Ahamoniylar hukmronligi davrida Sharq xalqlari o'rtasida hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniy aloqalar rivojlandi. O'rta Osiyo xalqlari birinchi marta tanga pullar bilan muomala qilishni o'rganib oldilar. Bu davrda oromiy yozuvidan to'rt xil yozuv — parfiya, sug'd, baqtriy va xorazm yozuvlari ajralib chiqdi.

2.4-§. Yunon-makedonlar hukmronligi davrida yer va suv munosabatlari

Miloddan avvalgi 336-yili Ahmoniy Doro III ga qarshi jangda o'ldirilgan Makedoniya nodshosi Filipp II o'rniga o'g'li 15 yoshli Aleksandr (Iskandar)ning taxtga o'tirishi, uning Ahmoniylardan o'ch olish bahonasida bosqinchilik urushlarini boshlab yuborishi O'rta Osiyoda Ahmoniylar hukmronligiga barham berdi.

Yoshligidan Aristotel (Arastu)ning shogirdi bo'lgan yaxshigina harbiy va dunyoviy ta'lim olgan Iskandar qo'shinlari miloddan avvalgi 334-yilning boshlarida forslarga qarshi urush bahonasida Osiyoga yurish boshladi. Ahmoniylar sulolasining so'nggi hukmdori Doro III o'z imperiyasining shimoli-sharqiy qismida joylashgan Baqtriyaga chekindi. Tarixchi Arrian ma'lumotlariga ko'ra,

Oʻrta Osiyoni Doro III ning noibi sifatida boshqargan Bess oʻz hukmdoriga xiyonat qilib, Doro III ga qarshi fitna uyushtirib, uni oʻldirtirgan va oʻzini Ahmoniylar hukmdori deb eʼlon qilgan. Bess Iskandarga qarshi kurashish maqsadida Oʻrta Osiyo viloyatlari (Baqtriya, Soʻgʻd, Margʻiyona va b.) dan qoʻshin toʻplashga kirishgan.

Arrian oʻzining «Iskandarning yurishlari» asarida «Bess Oks daryosidan kechib oʻtadi va kemalarini yondirib, Nautaka —soʻgʻdiylar yeriga yoʻl oladi. Spitamen va Oksiart bilan birga soʻgʻd chavandozlari hamda Tanais va Bessning qochishidan xabar topgan Baqtriya chavandozlari oʻz uylariga yoʻl olishib, har tomonga tarqab ketdilar» degan fikrni bildiradi.

Miloddan avvalgi 329-yilning bahorida Iskandar Baqtriya hududlari orqali Oks (Amudaryo) boʻylariga etib kelgan va 5 kun davomida katta qiyinchiliklar bilan daryodan suzib oʻtgan. Shundan keyin, Yunon-makedon qoʻshinlari Noutaka viloyatiga, undan keyin Soʻgʻdiyoning poytaxti Maroqanda (Samarqand) shahriga yoʻl olganlar. Kursiy Rufning yozishicha, Iskandar qoʻshinlari Oksdan Maroqandagacha 4 kunda etib kelishgan. Bu vaqtda Maroqanda aylanasi 70 stadiy boʻlgan ikki qator devor bilan oʻralgan. Osonlikcha taslim boʻlmagan shahar aholisini Iskandar qoʻshinlari uzoq vaqt qamal qilib turgan. Nihoyat, himoyachilarni jazolamaslikka vaʼda berib, shaharga kirishga muvaffaq boʻlgan.

Iskandar shaharni egallagan boʻlsa-da, biroq bu erda xotirjam yashay olmagan. Shahar atrofida yashagan qabilalar shaharga tez-tez hujum qilishar, soqchilarni oʻldirib ketishar, turli yoʻllar bilan shaharga kirishib, boyliklarni talab ketishgan. Bundan tashqari, qasoskorlar Iskandarning shahardan tashqariga chiqqan qoʻshinlarini qoʻlga olishib yo oʻldirishgan, yoki qattiq qiynashib, shaharga qaytarib yuborishgan. Bundan gʻazablangan Iskandar «shahar atrofidagi qishloqlarni yoqib vayron etishni buyurgan».

Iskandar yaqin atrofdagi qishloqlarni vayron etgandan keyin, shimoli — sharqqa tomon yurish boshlagan. Soʻgʻd aholisi butun kuch va imkoniyatlarini ishga solib, bosqinchilarga qarshilik koʻrsatishdi. Ogʻir janglardan biri Ustrushona (Samarqand bilan Jizzax oraligʻidagi yerlar) da boʻlgan. Yunon-makedon

qo'shinlari siquvida tog'larga chekinishga majbur bo'lgan mahalliy aholi qiyin sharoitlarda ham janglarni davom ettirganlar. Ular asir tushishdan ko'ra o'limni afzal bilganlar. Tog'li hududlardagi janglarda Iskandarning ko'plab qo'shinlari halok bo'lgan. Uning o'zi ham yaralangan. Shundan keyin Iskandar qo'shinlari Yaksart (Sirdaryo) tomon harakat qilishgan.

Bu davrda Sirdaryoning o'ng sohillarida sak qabilalari yashagan. Chap sohillarida esa so'g'dliklarning bir necha shaharchalari joylashgan edi. Sirdaryodan kechib o'tishga va saklarga qarshi jang qilishga yuragi betlamagan Iskandar chap sohilda joylashgan Xurushkent (Xo'jand) shahrini (yunon-makedonlar uni Kiropol deb atashgan) qamal qilgan. U Xurushkent yaqinida o'zi bunyod ettirgan Aleksandriya Esxata shahar-qal'asiga qo'shinlarini joylashtirgan. Qattiq qamaldan keyin Xurushkent shahriga kirishga muvaffaq bo'lgan Iskandar qo'shinlari shiddatli janglar natijasida mahalliy aholidan qariyb 8000 kishini qirib tashladilar. Yunon-makedon jangchilaridan ham ancha kishi o'ldirilgan. Bu janglarda Iskandarning o'zi ham yaralangan.

Miloddan avvalgi 329-yilning kuzidan boshlab yunon-makedon bosqinchilariga qarshi ommaviy tus olgan kurashlarga mahalliy hukmdorlardan biri Spitaman (yunoncha Spitamen) rahbarlik qilgan. U o'z qo'shinlari bilan Iskandarning Maroqandada qoldirgan qo'shinlarini qirib tashlab, shaharni egallagan. Yunon-makedon qo'shinlari Farg'ona hududlarini egallash uchun harakat qilayotgan bir paytda mahalliy xalqlarning ozodlik kurashlari butun So'g'diyonani va Baqtriyaning bir qismini qamrab oldi.

Bu davrda shahar-qal'alar aholisining turli sabablarga ko'ra bir joydan ikkinchi joyga ko'chish hollari ham sodir bo'lib turgan. Jumladan, So'g'ddagi ilk shahar-qal'alaridan biri, keyinchalik Nautaka viloyatining markazi bo'lgan Uzunqirda miloddan avvalgi III asrda, Iskandar Zulqarnayn yurishlaridan keyingi siyosiy va iqtisodiy sabablarga ko'ra hayot to'xtagan. Uzunqir aholisi Sho'robsoy bo'yidan Oqsuvdaryo bo'ylariga (hozirgi Kitob hududiga) ko'chib o'tishgan. Qadimda Uzunqir aholisi dehqonchilik qilish uchun suvni Sho'robdan hamda Zaxbuloqsoy va boshqa irmoqlardan dambalar yordamida olishgan.

Pliniy Yunon-Baqtriyani unumdor yerlarga, bug‘doy ekinzorlarga boy mamlakat, u yerda sholi va dehqonchilikning boshqa sohalari yuksak rivojlangan, deb ta‘riflagan. Antik davr tarxchi va geograflari Sug‘diyona ham shunday ta‘rif beradilar. Sug‘diyoning Baqtriyaga nisbatan cho‘l zonasi ko‘proq bo‘lsa-da, ammo u yerda aholi zich joylashgan, unumdor ekinzorlar, bog‘u-rog‘lar ko‘p bo‘lgan. Sug‘diyona yerlarining asosiy qismi Zarafshon daryosidan olingan kanallar orqali sug‘orilgan. Qarshi va G‘uzor vohalarida Zarafshon vodiysi yoki Xorazmdagi kabi yirik kanallar, suv taqsimlagichlar va boshqa gidrotexnik inshootlar qurilmagan. Bu vohalarda sersuv daryo va soylarning kamligi tufayli ular ixcham bo‘lib, bu yerlarda tabiiy daryochalar va soylarga parallel ariqlar qazilgan. Naxshabning qadimgi va o‘rta asrlardagi miroblari ariqlar qazib suv chiqarishning zarur qonuniyatlarini yaxshi bilganlar. Masalan, qadimda dehqonchilik qilishgan Yerqo‘rg‘on shahar-qal‘asining aholisi Rudaksoydan tabiiy holda suv chiqarish usullarini yaxshi bilishgan.



Antik davr yodgorligi Qizilqir va uning atrofidagi sug‘orilgan yerlar¹⁹

¹⁹ Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug‘orilish tarixi (Qadimgi davrdan – XX asr boshlarigacha). – T., 1972. – 17-bet

Sug‘diyona Yermo‘rg‘on, Afrosiyob, Talli-Barzu kabi yodgorliklarining shu davrga oid madaniy qatlamlari, Marg‘iyona Govurqal‘a kabi qadimgi shahar qoldiqlari o‘rganilgan. Bu yodgorliklardan topilgan boy ashyoviy dalillar Yunon —Baqtriya davlatida (mil. avv. III —II asrlarda) dehqonchilik va chorvachilikdan tashqari ko‘p tarmoqli hunarmandchilik ham taraqqiy etganligidan guvohlik beradi. Ayniqsa, kulolchilik ancha rivojlangan bo‘lib, Baqtriya, Marg‘iyona va Sug‘diyona kulollari o‘z davriga nisbatan yuksak san‘at namunasi darajasiga ko‘tarilgan sopol idishlar yasashgan. O‘lka xalqlari antik davridayoq uy-joylar, saroylar, ibodatxonalar va mudofaa inshootlari qurishda katta muvaffaqiyatlarga erishganlar.

Bu davrda Baqtriya va So‘g‘d yozuvi vujudga keldi. Hukmdorlarning tasvirlari bitilgan tanga pullar ko‘plab zarb etildi. Tasviriy, amaliy va me‘morchilik san‘ati, zargarlik va boshqa sohalarda katta yutuqlarga erishildi. Fikrimizni 1939-1940 yillarda Baqtriyaning qadimgi Bagram shahrida o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar vaqtida topilgan, fil suyagiga mahorat bilan ishlangan san‘at asarlari ham tasdiqlaydi.

Bu davrda O‘rta Osiyo xalqlari, asosan zardushtiylik diniga e‘tiqod qilishgan. Mahalliy diniy tasavvurlar yunon mifologiyasi obrazlari bilan chatishib ketgan. Bu holatni podsho Demetriy zarb ettirgan tangalarda ham kuzatish mumkin. Demetriy tangalarida Naxid va Artamida suratlari birgalikda tasvirlangan. Bir kumush medalyonda hosildorlik xudosining obrazi yunon xudosi Nika qiyofasida berilgan. O‘rta Osiyoda keng tarqalgan va xalqning e‘tiqodi baland bo‘lgan quyosh xudosi Mitra yunon xudosi Gerakl bilan birga tasvirlangan. Bu tasvirlar Demetriy va Yevtidem I tangalarida ko‘plab uchraydi. Ammo mahalliy hosildorlik xudosi Nahid obrazi alohida e‘tiborda turgan. Unga atab maxsus ibodatxonalar qurilgan. Uning haykalchalari ibodatxonalarni bezatib turgan. Suvga, yerga, quyoshga bo‘lgan hurmat va e‘tiqod keng xalq ommasining tasavvurida alohida o‘rin tutgan.

Yunon-Baqtriya Sharqning yirik davlati sifatida 120-yildan ortiq vaqt yashadi. Shu davr ichida uning iqtisodiyoti va madaniyati keng rivojlandi. Buning uchun bu o‘lkada hamma shart—sharoit mavjud edi. Masalan, Rim tarxchisi va

geografi Kvint Kursiy Ruf Baqtriyani: “tabiati har xil, unumdor yerlari va aholisi ko‘p, ular bug‘doy va arpani ko‘p ekadi, bu erda mevalarning barcha turlari o‘sadi, uzumzor-bog‘larga burkangan. Hayvon boqishga qulay, yilqisi ko‘p, chopqir otlarga va ekinzorlarga boy mamlakat” deb ta’riflaydi. Shu bilan birga, Kursiy Ruf Baqtriyaning katta bir qismini dashtlar egallaganligini, suvsizlik tufayli o‘z holiga tashlab qo‘yilgan ba’zi viloyatlarda na odamlar, na mevalar borligi, pont(dengiz)dan esayotgan shamollar tekisliklarga qumlarni surib keltirishini ham ko‘rsatib o‘tgan.

Strabonning yozishicha, Marg‘iyona Yunon — Baqtriya davlatiga qarashli bo‘lib, u yerda sug‘orma dehqonchilik keng rivojlangan, mamlakat hosildor bog‘larga va unumdor boshqoli ekinzorlarga burkangan. Marg‘iyonada tokl zanglarining yo‘g‘on, novdalarining uzun bo‘lishiga e’tibor berilgan.

Umuman olganda, Yunon — Baqtriya podsholigida moddiy va ma’naviy madaniyat ancha yuksalgan va u hayotning barcha jabhalarida o‘z aksini topgan. Mahalliy aholining an’anaviy madaniyati va san’ati yunon (ellinizm) madaniyatining ibratli tomonlarini o‘ziga singdirib, o‘ziga xos usulda rivojlandi. Bu Kushonlar saltanati zamonasi san’atiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

2.5-§. Qang‘ davlatida yer va suv munosabatlari

Manbalarda Qang‘li (qang‘ar) davlati miloddan avvalgi III asr boshlarida, Iskandar qo‘shinlari bilan yunon-makedonlardan tashkil topgan Salavkiylar sulolasi (mil. avv. 312-250 yy.)ga qarshi uzluksiz olib borgan kurashlari natijasida shakllangan deyiladi. Keyinchalik, Yunon-Baqtriya davlati (mil. avv. 250—140 yy.) hamda qo‘shni ko‘chmanchi qabilalar bilan bo‘lgan kurashlarda mustahkamlangan Qang‘ davlati O‘rta Osiyodagi yirik davlatlardan biri qatorida tilga olinadi. Xitoy tarxchisi Sima Syan Qang‘ davlatining ijtimoiy - iqtisodiy hayoti haqida bergan ma’lumotida, uning aholisi asosan, ko‘chmanchilardan iborat bo‘lganligini yozadi.

Qadimgi manbalarda Qang‘ davlati qay darajada idora qilinganligi haqida aniq ma’lumotlar uchramaydi. To‘ng‘ich Xan sulolasi tarxida (mil. avv. 202—

milodiy 25 y.) faqatgina Qang‘uy (Qang‘) podshosi o‘z oqsoqollari bilan maslahatlashib ish tutganligi aytiladi. Bu Qang‘ davlati aholisining ijtimoiy-siyosiy hayotida ibtidoiy davr turmushining ayrim udumlari saqlanib qolganligini ko‘rsatadi. Qang‘ podsholigida davlat ahamiyatiga molik kengashlarda qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol qatnashganlar. Ularning fikrlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu o‘sha vaqtlardayoq podsho hokimiyati maslahat majlisi bilan ma‘lum darajada chegaralab qo‘yilganligidan dalolat beradi.

Qang‘ davlatiga qarashli yerlar viloyatlarga bo‘lingan. Ularni maxsus hokimlar boshqargan. Viloyat boshliqlari jobg‘u yoki yobg‘u (Xitoy solnomalarida chjaovu) deb atalgan. Qang‘arlarga qarashli yerlarda jobg‘ular hoqonlarga yaqin kishilardan, ularning qavmi- qarindoshlari, yirik qabila boshliqlaridan tayinlangan. Qang‘arlarga tobe, biroq markazdan uzoq yerlar, jumladan Xorazm, Yansay (alanlar yeri), Yan (ugro-fin qabilalari yerlari) va boshqalar o‘sha hududlarning zodagonlari tomonidan boshqarilgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas.

Miloddan avvalgi II asr ,milodiy III asr va undan keyingi davrlarga oid manbalarda qang‘arlar (qang‘uyalar) Farg‘onaning shimoli-g‘arbida, unga chegaradosh rayonlarda yashaganligi eslatib o‘tiladi. Miloddan avvalgi 128-yili Dovon (Farg‘ona)ning markazi Ershida va Qang‘uy yerida bo‘lgan Xitoy elchisi Chjan Syanning ma‘lumotida «Qang‘uy Dovon bilan chegaradosh» deb ko‘rsatilgan. Yuqorida nomlari keltirilgan manbalarda bayon etilishicha, qang‘arlar yerlari sharqda Farg‘ona vodiysi, shimoli-sharqda usunlar, shimoli-g‘arbda Sarisuv daryosi va g‘arbda Sirdaryoning o‘rta oqimlarigacha cho‘zilgan. Bu ulkan (3,4 ming km) hududdagi qang‘arlar yerida mil. avv I — milodiy I-II asrlarda 120000 oila yoki 600000 kishi yashagan.

Tarixchi Simya-Syan mil. avv. II asrga oid ma‘lumotida Qang‘uy haqida, «Bu ko‘chmanchi mamlakat» deb yozgan edi. Biroq, *“To‘ng‘ich Xan sulolasining tarixi”* (Sy anxanshuda) ma‘lumotlarida milodiy I asrning boshlarida qang‘uyarning yarim o‘troq xalq bo‘lganligiga ishora qilinadi. Bu sulola tarixi ma‘lumotlariga ko‘ra, qang‘uylarda qoramol va qo‘ylar ko‘p bo‘lgan. Ular ko‘plab zotli otlar yetishtirganlar. Chorva mollarining ko‘pchiligi Qang‘ podsholari va

ularning qarindoshlariga tegishli bo'lgan. Bu hoqon va uning qarindosh-urug'lariga bahor kelishi bilan qishki qarorgohdan yozgi qarorgohga, ya'ni Sirdaryoning quyi oqimidagi o'tloq yerlarga erkin borib o'rnashish imkonini bergan. Kuzda mollarini orqaga qaytarishib, Keles cho'liga va tog' yonbag'irlaridagi yaylovlarga joylashganlar.

Podsholikda o'rtahol va kambag'al aholining yaylovlar qidirib vohadan chiqib ketishlariga zaruriyat bo'lmagan. Ular chorvachilikdan tashqari dehqonchilik va hunarmandchilik bilan ham shug'ullanishgan. Bu vaziyat qang'lilarning kambag'al qismini o'troq, yarim o'troq xo'jalik yuritishga majbur etgan. Toshkent vohasida yashagan dehqonlar arpa, bug'doy, tariq, no'xat, sholi va boshqa donli ekinlar yetishtirganlar, mevali daraxtlar va uzumzorlar ko'p, sut-qatiq mo'l bo'lgan.

Qang'li davlati tarkibida bo'lgan Toshkent vohasida ham dehqonchilik va chorvachilik ancha rivojlangan. Toshkent vohasidagi Burg'uluq manzilgohining guvohlik berishicha, bu yerda turarjoylar yarim yerto'lalardan iborat bo'lib, madaniy qatlamdan sopol idish parchalari, bronza o'roqlar, o'q uchlari va toshdan yasalgan mehnat qurollari topilgan. Milodiy I-II asrlarga kelib, O'rta Osiyoda mehnat va jang qurollarining asosiy qismi temirdan yasalgan. Hunarmandlar Chotqol va Qurama tog'laridan temirchilik va misgarlik uchun ma'danlar qazib olishgan.

Bu davrda vohada katta va kichik kanallar qazilib, yerlarni sun'iy sug'orishga e'tibor kuchaygan, chorva mollariga omoch qo'shib yer haydash ommaviy tus olgan. Ekinzorlar, tokzorlarga motiga bilan ishlov berish bilan birga, hayvonlar kuchidan ham foydalanilgan. Dehqonlar o'rilgan donni ot va ho'kizlar yordamida yanchib olganlar. Choshtepadan topilgan ashyolarning dalolat berishicha, dehqonlar donni maxsus o'rada saqlaganlar. Odamlar donni cho'zinchoq shakldagi tosh yorg'uchoqlar yordamida yanchib go'ja sifat ovqatlar tayyorlashgan. Yumaloq shakldagi qo'l tegirmonlari (yorg'uchoqlar)da un tortish ommaviy tus olgan.

Qovunchitepada olib borilgan arxeologik qazishmalar Qang' davlati aholisining turmush tarzini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Qovunchi manzilgohi qatlamlaridan me'morchilik qoldiqlari, suyak va metallardan yasalgan buyumlar va ish qurollari (o'roq, pichoq, motiga), kamon o'qlarining uchlari, matolarning bir necha xil namunalari, shuningdek, turli hajmdagi sopol idishlar (ko'za, xum, xurmacha, kosa, tog'ora, qo'ra va b.) topilgan. Sopol idishlar ko'pincha qizil angob bilan bo'yalgan, ba'zi idishlarda hayvonlarning boshi tasvirlangan.

Keyingi tadqiqotlar sak-massaget va boshqa ko'chmanchi qabilalarga xos bo'lgan quyoshga sig'inish e'tiqodi zardushtiylik diniga ham o'tgan degan fikrlarni o'rtaga tashlamoqda. Zardusht ta'limoti keyinchalik qovunchiliklar (qang'arlar) orasida ham keng tarqalgan. Qovunchi II qarorgohidan topilgan II - IV asrlarga oid loydan yasalgan tumorlarda quyosh tasviri solinganligi fikrimizning dalilidir. Qovunchiliklar hayvonlar (ayniqsa, ho'kiz va qo'chqor) qudratiga ham ishonganlar. Ular sopol idishlarga bu hayvonlarning tasvirlarini ham chizganlar. O'sha davr kishilari ho'kiz boshiga himoya kuchiga ega bo'lgan, baxtsizliklarni oldini oluvchi ilohiy kuch sifatida qarashgan. Zardushtiylik dinida qo'chqorni qo'riqlovchi, himoya qiluvchi sehrli kuch (farn, farnax)ga ega deb bilishgan. Qovunchiliklar uchun qo'chqor to'kinlik, boylik ramzi hisoblangan. Bu e'tiqodlar haligacha o'z ta'sirini yo'qotmagan. Masalan, O'zbekistonning ba'zi viloyatlarida «Qo'chqor ota», «Qo'chqor mozor» degan joylar mavjud bo'lib, bu yerlarga odamlar ziyoratga kelishgan, qo'chqor so'yishib, qurbonlik qilishgan. Ziyoratgoh joylarga qo'chqor shoxlarini osib qo'yishgan.

2.6-§. Davan davlatida yer va suv munosabatlari

Davan shaharlarining oqsoqollari (boshliqlari) kengash a'zolari bo'lishgan. Oqsoqollarning ko'pchiligi o'z shaharlarini boshqarishda ma'lum darajada mustaqillikka ega bo'lishgan. Bu Davan davlatida mutloq markazlashgan hokimiyat bo'lmaganligini ko'rsatadi. Xitoylik savdogarlar Davanning savdo yo'li ustida joylashgan shaharlariga kelib turishgan.

Antik davrda Fargʻona vodiysida hunarmandchilikning bir qator tarmoqlari, ayniqsa toʻqimachilik va kulolchilik keng rivojlangan. Biroq bu yerda Parfiya, Baqtriya, Xorazm, Sugʻdda boʻlgani singari tanga pullar zarb etilganligini tasdiqlovchi ashyolar topilmagan. Savdoda pul oʻrniga tovar yoki mol ayirboshlash keng yoʻlga qoʻyilgan.

Davan davlati ijtimoiy hayotida ayollarning alohida oʻrni boʻlib, ularga katta hurmat bilan qaralgan. Ayolning eri va farzandlari oldiga qoʻygan vazifalari va topshiriqlari soʻzsiz bajarilishi shart boʻlgan. Xitoy tarxchilari bergan taʼriflarga koʻra, qadimgi Fargʻona aholisining tashqi qiyofasi qangʻlilarga oʻxshab ketgan, ular chuqur koʻzli va qalin soqolli boʻlishgan. Chjan Syan Davan (Fargʻona) dan toʻ Ansi (Parfiya) gacha boʻlgan hududlarda yashovchi aholining tili har xil boʻlsa — da, ammo ular bir- birlarini tushunishlarini, ularning urf-odatlarini ham bir- birlariga oʻxshash boʻlganligini taʼkidlaydi. Davanliklar gʻarbda qangʻlilar, shimolda usunlar, sharqda esa uygʻurlar bilan yaqin aloqada boʻlishgan. Xitoy bilan boʻlgan janglarda davanliklarni qangʻlilar doim qoʻllab — quvvatlab turganlar.

Xitoy manbalari maʼlumotlariga koʻra, miloddan avvalgi II-I asrlarda Davan davlati iqtisodiy jihatdan ancha qudratli boʻlgan. Chjan Syanning maʼlumotlariga qaraganda, “Davanda 70 dan ortiq katta va kichik shaharlar boʻlgan”. Bu davlatda taxminan 300 mingga yaqin kishi yashab, ular qariyb 60 ming oilaga birlashganlar. Baʼzi olimlar, bu raqam Davanning qandaydir bir qismidagi aholi sonini bildirgan boʻlishi mumkin. Aholining umumiy soni 500 - 600 ming kishi boʻlgan degan fikrni bildiradilar .Bu fikr haqiqatga yaqinroqdir. Chunki, baʼzi maʼlumotlarda Fargʻona lashkarining oʻzi 60000 kishidan iboratligi aytilgan. Davan davlagi otliq qoʻshinlarining harbiy mahorati ancha yuqori boʻlgan. Ularning ot choptirib keta turib, kamondan oʻzgan oʻqlari aniq nishonga tekkan. Davanlik ayollar ham kamondan oʻq uzishda erlaridan qolishmagan.

Davan davlatining poytaxti Ershi shahri (soʻnggi tadqiqotlarga koʻra, u Axsikent yodgorligi deb taxmin qilinmoqda) boʻlgan. Milodning dastlabki yuz yilliklarida bu davlatni mahalliy aslzodalar sulolasi boshqargan. Xitoy manbalariga qaraganda, qadimgi Fargʻona 419-yilgacha mahalliy bir sulola vakillari tomonidan

idora etilgan. Xitoy manbalarida ko'rsatilishicha, boshqaruv tizimida hukmdordan keyin uning ikki yordamchisi (vaziri) va oqsoqollar kengashi bo'lgan. Oqsoqollar kengashi davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol qatnashgan. Kengash urush ochish, sulh tuzish, hukmdorni taxtdan tushirish, yangi hukmdorni saylash kabi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ishlarni hal qilgan. Bu o'sha davridayoq mamlakatimiz hududida demokratiya jarayonlarining shakllana boshlaganligini ko'rsatadi. Davan shaharlarining oqsoqollari (boshliqlari) kengash a'zolari bo'lishgan. Oqsoqollarning ko'pchiligi o'z shaharlarini boshqarishda ma'lum darajada o'z mustaqilligiga ega bo'lishgan. Bu Davan davlatida mutloq, markazlashgan hokimiyat bo'lmaganligini ko'rsatadi. Xitoylik savdogarlar Davanning savdo yo'li ustida joylashgan shaharlariga kelib turishgan.

Farg'onada o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar bu yerda sun'iy sug'orish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi. Tog'lardan vodiya oqqan soylardan sun'iy tarmoqlar chiqarilgan. Har bir tarmoq biror urug' yoki qabilaga tegishli yerlarni sug'organ. Davlat boshligi soylarning tepasida mustahkam qal'alar qurdirib, suv taqsimotini o'z qo'lida tutib turgan. Shunday qal'alardan biri Suxsoy boshidagi **“Mug'qal'a”** xarobasidir.

Vodiyda dehqonchilik madaniyati bronza davridayoq ancha rivojlangan. Ular yerga ishlov berish jarayonlarini yaxshi o'zlashtirib olishgan bo'lib, sholi, bug'doy va boshqa ekinlarni ekanlar. Bog'dorchilik, birinchi navbatda uzumchilik va undan sharbat qilish keng yo'lga qo'yilgan. Xitoy sayyohi Chjan Syan ma'lumotiga ko'ra, boy yer egalarining yerto'lalarida 10 yillik vinolar saqlangan. Farg'ona tuprog'i, deb yozadi sayyohi, boy va serhosil bo'lib, unda ko'plab mevalar, poliz ekinlari va gullar yetishtirilgan. Xoy Chao ismli sayyoh esa Farg'onada tuya, ot, xachir, qo'y-echkilar ko'pligini, bu yerda paxta yetishtirilishini, odamlari asosan g'alladan qilingan taomlarni iste'mol qilishini, kiyimlarni ip-gazlamadan tayyorlanishini yozib qoldirgan. Davanda yilqichilikka alohida e'tibor berilgan.

Antik davrda Farg'ona vodiysida hunarmandchilikning bir qator tarmoqlari, ayniqsa to'qimachilik va kulolchilik keng rivojlangan. Biroq bu yerda

Parfiya, Baqtriya, Xorazm, So'g'dda bo'lgani singari tanga pullar zarb etilganligini tasdiqlovchi ashyolar topilmagan. Savdoda pul o'rniga tovar yoki mol ayirboshlash keng yo'lga qo'yilgan.

Xitoy tarixchilari bergan ta'riflarga ko'ra, qadimgi Fargona aholisining tashqi qiyofasi qang'lilarga o'xshab ketgan, ular chuqur ko'zli va qalin soqolli bo'lishgan. Chjan Syan Davan (Fargona)dan to Ansi (Parfiya)gacha bo'lgan hududlarda yashovchi aholining tili har xil bo'lsa-da, ammo ular bir-birlarini tushunishlarini, ularning urf - odatlari ham bir-birlariga o'xshash bo'lganligini ta'kidlaydi. Davanliklar g'arbda qang'lilar, shimolda usunlar, sharqda esa uyg'urlar bilan yaqin aloqada bo'lishgan. Xitoy bilan bo'lgan janglarda davanliklarni qang'lilar doim qo'llab - quvvatlab turganlar.

2.7-§. Kushon davlatida yer va suv munosabatlari

Miloddan avvalgi 140-130 yillarda Shimoli — G'arbiy Xitoydan kelgan beshta guruhdan iborat yuechjilar (toharlar) So'g'd yerlari orqali Amudaryoning o'rta oqimidagi Baqtriyaga tegishli bo'lgan yerlarni bosib oldilar. Guyshuan qabilasining yabg'usi Kudzula Kadfiz bu qabilalarni o'zaro birlashtirib, Kushon davlatiga asos soldi (mil. avv. I asr oxiri, mil. I asrning birinchi yarmi). Ba'zi ma'lumotlarda bu davlatning dastlabki poytaxti Dalvarzintepa (Surxondaryoda) bo'lganligi aytiladi. Kudzula Kadfiz davrida podsholik hududi ancha kengayib, uning tarkibiga hozirgi O'zbekistonning janubiy hududlari, Janubiy Tojikiston, Afg'oniston va Kashmir yerlari qo'shib olingan. Arxeologlar Kushonlar davriga oid Bagram, Balx, Began, Surx-Ko'tal (Afg'oniston), Kosambi (Hindiston), Sirsuks, Taksila (Pokiston), Ayritom, Bozorqal'a, Dalvarzintepa, Zartepa, Termiz, Xolchayon, Hayrobodtepa (O'zbekiston), Kayqubodshoh, Ko'xnaqal'a, Shahrinav, Munchoqtepa (Tojikiston) yodgorliklarida tadqiqotlar olib borishgan. Olingan ma'lumotlarga qaraganda, Kushonlar davrida burjli, mustahkam mudofaa devoriga ega bo'lgan o'nlab shaharlar bunyod etilgan, ko'plab yirik sug'orish inshootlari qurilgan.

Kushon podsholigida shaharlar, asosan daryo bo'ylarida, strategik jihatdan qulay bo'lgan joylarda bunyod etilgan. Podsholikning shimoli-g'arbiy hududlaridagi shaharlarda binolar qurilishida ko'proq xom g'isht va paxsadan, janubi - sharqida esa toshdan foydalanilgan. Shaharlarning binolari podsho saroylari, boy-zodagonlar va hunarmandlar mahallalari, maydonlar, ko'chalar, ariqlar, hovuzlar, turli dinlarga mansub inshootlar, bog'lar va ekinzorlardan iborat bo'lgan.

Kadfizning nabirasi Kanishka davrida (78-123 yillar) mamlakat hududi yanada kengaytirildi. Uning tarkibiga Sharqiy Turkiston yerlari ham qo'shib olindi. Poytaxt Peshavorga ko'chirildi. Bu davrda Kushon podsholigi dunyoning Rim, Parfiya, Xitoy kabi qudratli-davlatlari qatoridan o'rin olib, uning siyosiy va ijtimoiy - iqtisodiy hayoti ancha rivojlandi. Mamlakatda tinchlik va osoyishtalik ta'minlanishi natijasida dehqonchilikni rivojlantirish uchun sug'orish inshootlarini barpo etishga e'tibor kuchaydi. Xorazm vohasi, Zarafshon vodiysi va boshqa yerlarda butun boshli kanallar tizimi qurilib ishga tushirildi. O'zbekiston janubidagi Zang kanali va boshqa kanallar, Darg'om kanali va Buxoro vohasidagi kanallar, shuningdek, Tojikiston janubidagi kanallar Kushon davrida qazilgan muhim sug'orish tarmoqlari edi. Yerlarni sug'orish uchun nafaqat daryo suvlaridan, balki o'sha paytlarda hozirgiga nisbatan ancha ko'p bo'lgan buloqlar suvlaridan ham foydalanilgan. Jumladan, Kushonlar davrida Zarafshon daryosining yuqori oqimlarida yerlarni sug'orishda buloqlar suvlaridan foydalanishga ham alohida e'tibor berilgan.

Kanishka I davrida Kushon - Baqtriya tili davlat tili sifatida qabul qilingan. Aholi, asosan, budda dinining maxayana mazhabiga e'tiqod qilgan, ko'plab budda ibodatxonalari qurilgan. Ayni paytda, otashparastlik va hinduizm ham keng tarqalgan. Kanishka I vaqti-vaqti bilan diniy yig'inlar chaqirib turishni joriy etgan.

Kushon podsholigi hududlaridan o'tgan Buyuk ipak yo'li ichki va tashqi savdoning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Saltanatda savdoning rivoji yozuvning keng tarqalishiga imkon yaratdi. Oromiy yozuvi asosida sug'd va xorazmiy yozuvlari vujudga kelgan. Tuproqqal'adan teri va taxtaga bitilgan

xorazmiy yozuvi, Termizdan hind alifbosiga asoslangan kxaroshtli yozuvi namunalari topilgan. Shuni ham ta'kidlash lozimki, arxeologik topilmalarning guvohlik berishicha, bu davrda o'lkada sun'iy sug'orish tizimlari bir muncha rivojlanganligini hisobga olmaganda, dehqonchilik texnikasi juda sekinlik bilan takomillashgan. Bu davrda yasalgan dehqonchilik qurollari nihoyatda soddaligi bilan ajralib turadi. Talli-Barzuda olib borilgan qazishmalar jarayonida omochning temirdan yasalgan tishi topilgan⁶³.

Milodiy I asrdan boshlab, O'rta Osiyoda don yanchish uchun yorg'uchoqlardan keng foydalanishga o'tilgan. Dastlabki yorg'uchoqlar nisbatan kichkina bo'lib, ular ko'proq qattiq toshlardan yasalgan. Keyinchalik, ya'ni III-IV asrlarga kelib ularning o'rnini aylana shakldagi tegirmon tosh - yorg'uchoqlar egallagan.

Yozma manbalar va arxeologik topilmalarning guvohlik berishicha, bu davrda texnikaviy, ozuqabop, poliz, bog'dorchilik va boshqa ekinlar keng tarqalgan. Kushonlar davri dehqonlari donli, dukkakli ekinlarning mahalliy sharoitga moslashgan serhosil navlarini vujudga keltirishgan. Xorazmda III-IV asrlarda turli xil uzumlar yetishtirilgan. O'rta Osiyoda yetishtirilgan va avloddan - avlodga takomillashtirilib borilgan xalq seleksiyasi namunalari qo'shni xalqlar (jumladan, xitoyliklar beda va paxta urug'larini) olib ketishgan.

Shunday qilib, Sharqda kanallar va boshqa sun'iy sug'orish inshootlari yordamida yerni sun'iy sug'orish sistemasining yaratilishi Saxroi Kabirdan boshlanib Arabiston, Eron, Hindiston va Markaziy Osiyo yassi tog'lari tepaliklarigacha cho'zilgan iqlim va tuproq sharoiti bir-biriga o'xshash bo'lgan juda ko'p yerlarni ishg'ol qilgan daryo havzalarida dehqonchilik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga sharoit yaratdi. Insonlar tuproqqa tabiiy o'g'itlar solib, uning unumdorligini oshirish orqali yuqori hosil olishga erisha boshladilar. Shunday yo'llar bilan ular asta-sekin tabiatni o'zlariga bo'ysundira boshladilar.

Davlat boshqaruv tizimlarining shakllanishi bilan xo'jalik yuritishning asosiy tarmoqlarini Markaziy hukumatga bo'ysundirilishi jamiyat taraqqiyotini shu hukumat faoliyati bilan bog'liq qilib qo'ydi. Hayot va jamiyat taraqqiyoti

davlatlarni muntazam suratda irrigatsiya ishlarini takomillashtirish, botqoqliklarni quritish ishlariga safarbar etib turdi. Tarix tajribasi agar bu ishlarga noshuddik bilan qaralsa, jamiyat tanazzulga yuz tutishi, bir vaqtlar juda obod bo'lgan butun - butun hududlarning qisqa muddatda unumsiz cho'l zonalariga aylanib qolishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Miloddan avvalgi II ming yillikning oxirlarida chorvador qabilalarining dehqonchilik jamoalari hududlariga kirib kelishi qanday o'zgarishlarga olib kelgan?
2. Miloddan avvalgi II ming yillikning oxirlariga kelib, Fargona vodiysida dehqonchilik madaniyati ancha takomillashishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni sanab bering.
3. Burguluq madaniyati deb nomlangan ilk dehqonchilik madaniyatlaridan biri qachon va qayerda shakllangan?
4. "Avesto"ning qaysi qismida iqtisodiy tengsizlik, sinfiy tabaqalanish haqidagi muammolar yuzasidan so'z boradi?
5. Zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi "Avesto"da dehqonchilik madaniyati va yerga bo'lgan munosabat borasida qanday qarashlar mujassamlashgan?
6. Xorasmiyaliklar yerlari chegaralaridan o'tgan Akes daryosidagi to'g'on haqida nimalarni bilasiz?
7. Ahmoniylar hukmronligi davrida xorasmiyliklarni Amudaryoning quyi havzalarida ko'chib o'tishiga nima sabab bo'lgan?
8. Ahmoniylar davlati tarkibida O'rta Osiyo xalqlari nechta satraplikka bo'lingan?
9. Qadimgi Baqtriya davlatida dehqonchilik madaniyatini yuksalishi qanday omillar bilan bog'liq?

10. Gerodotning "Tarix" asarida Ahmoniyalar imperiyasi tarkibiga kirgan 20 ta satraplik va 70 ta xalqlar orasida Amudaryo qirg'oqlarida joylashgan mamlakatlardan qaysilari sanab o'tilgan?
11. Aleksandr Makedonskiy bosqinidan so'ng Qadimgi Uzunqir aholisi dehqonchilik qilish uchun suvni qaysi suv havzasidan olishgan?
12. Qadimgi manbalarda Yunon-Baqtriya va Sug'diyona davlatlarida yer-suv munosabatlari haqida qanday ma'lumotlar uchraydi?
13. Qang'li davlati tarkibida bo'lgan Toshkent vohasida ham dehqonchilik ishlari qanday yo'lga qo'yilgan edi?
14. Qadimgi Davan davlati (Farg'ona) da amalga oshirilgan sug'orish inshootlari tizimida sun'iy sug'orish ishlari haqida so'zlab bering.
15. Kushonlar davrida qaysi hududlardagi yerlarni sug'orishda buloqlar suvlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan.

3-mavzu. Ilk oʻrta asrlarda yer egaligi munosabatlari

Reja:

3.1-§. *Oʻzbekiston hududida ilk oʻrta asrlar davrining oʻziga xos xususiyatlari;*

3.2-§. *Ilk oʻrta asrlarda dehqonchilik vohalarining kengayishi;*

3.3-§. *Oʻzbekiston hududida ilk oʻrta asr davlatlarida yer-suv munosabatlari.*

Tayanch iboralar: *«kashovarzarlar», dehqon, Mexerakula, eftaliylar, Dargʻom, koʻchmanchilik, Boʻzsuv va Zogʻariq, dehqonchilik, ziroatkor, feodal munosabatlar, dehqon, qishloq jamoasi, kadivar, obikor yerlar, ibodatxonalar, vagʻnze.*

3.1-§. Oʻzbekiston hududida ilk oʻrta asrlar davrining oʻziga xos xususiyatlari


Oʻrta Osiyo hududlarida Qangʻ davlati va uning janubida Kushon podsholigi ravnaq topgan davrda boshlangan yuksalish mamlakat aholisining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida muhim oʻzgarishlarga olib keldi. Dehqonchilik vohalarida shaharlarning soni koʻpaydi. Shaharlar kengayib, hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniy hayotning markaziga aylandi. Vohalar boʻylab, ayniqsa, sersuv azim daryo adoqlarida qator yirik sugʻorish tarmoqlari qazib chiqarildi. Sugʻorma dehqonchilik maydonlari kengaydi. Suv tegirmoni, chigʻir va charxparraklar kabi oʻz davri uchun anchagina murakkab gidrotexnika inshootlari kashf etildi. Oqar suv sathidan birmuncha balandlikda joylashgan maydonlarga suv chiqarilib, obod etildi. Ziroatchilikda gʻallakorlik va polizchilik bilan bir qatorda paxtachilik va bogʻdorchilik maydonlari kengaydi. Xalq seleksiyasi yoʻli bilan turli-tuman ziroatlarning hosildor navlari yaratildi. Mirishkorlarning asrlar davomida sugʻorish, melioratsiya va ekin yetishtirish agrotexnikasi, xususan, yer maydonlarini oʻgʻitlash, ziroatlarga ishlov berish sohasida orttirgan asriy tajribalari tufayli dehqonchilikdan moʻl hosil olinadigan boʻldi.

Bu davrlarda shaharlarda aholining gavjumlashuvi, hunarmandchilikning rivoj topishi, ichki va tashqi savdoning kengayishi bilan, shubhasiz, qishloq

xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj ham ortib, shaharlar tevarak-atrofidagi ziroatkor mavzularning hududlari tobora kengayib bordi. Natijada mamlakatning iqtisodiy hayotida mustahkam xomashyo manbai sifatida qishloqlarning nufuzi ko'tarilib, bir tomondan, yerga, xususan, ziroatkor maydonlarga bo'lgan munosabat, ayniqsa, ularga egalik qilish udumlari asta-sekin o'zgara boshladi. Ikkinchi tomondan esa, o'troq ziroatkor aholi bilan chorvador qabilalar o'rtasidagi aloqalar gavjumlashdi. Mamlakatning dashtlik va tog'oldi mintaqalarida yashovchi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholining o'troqdashuvi kuchaydi. Oqibatda dehqonchilik uchun yaroqli obikor yerlarga bo'lgan muhtojlik tobora oshib bordi. Bunday vaziyat shubhasiz o'z navbatida qo'riq va bo'z yerlarga suv chiqarib katta-katta yer maydonlarini ochishni jadallashtirdi. Bunday obodonchilik ishlarini amalga oshirishda el-yurtning ijtimoiy hayotida kattagina nufuzga ega bo'lgan mulkdor va quldor zodagon vakillari, qishloq oqsoqollari hamda urug' va qabila boshliqlarining ishboshi sifatida faolliklari kuchaydi. Bunday sharoitda, shubhasiz, qo'riqlarda ochilgan yangi yer maydonlarining ma'lum bir ulushi o'sha zamon udumi bo'yicha, qonuniy ravishda sarkorlar tasarrufiga o'tib, ularning vorisiy mulkiga aylandi. El-yurtning ijtimoiy hayotidagi bunday xizmati tufayli omilkor sarkorlarning ziroatkor aholi o'rtasida obro'-e'tibori va ta'siri yanada kuchaydi.

«Otang mirob bo'lsa ham yering suv boshida bo'lsin», degan xalq maqoliga amal qilib, mulkdor sarkorlar o'zlariga tegishli yer maydonlarini sug'orish tarmoqlarining yuqori qismidan, ayniqsa, to'g'on boshi atrofidan ajratib olishga muyassar bo'ladilar. Avvalambor, bu yo'l bilan ular suvdan dehqonchilikda bemalol foydalanish, qolaversa, suv taqsimotini nazoratga olib, qishloq aholisi ustidan o'z tazyiqini o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu tariqa ular qishloqlarda o'z tazyiq doirasini kengaytirib, bora-bora ziroatkor aholi ustidan hukmronlik qila boshlaydi. Shuning uchun ham ular ilk o'rta asrlarda «dehqon», ya'ni «qishloq hokimi» nomi bilan shuhrat topadi. Dehqonlar ilk o'rta asrlarda endigina shakllana boshlagan yangi ijtimoiy munosabatlarning o'rnatilishi oqibatida qadimgi zodagon davlatmand tabaqa bag'rida dunyoga kelgan va yanada boyib borayotgan mulkdor katta yer egalari edi. Ular, shubhasiz, asrlar mobaynida

mamlakatda, xususan, dehqonchilik xo‘jaligida ishlab chiqarish kuchlari asosini qishloq jamoalari tashkil etgan patriarxal quldorlik tuzumining so‘nggi bosqichida paydo bo‘la boshlagan ilk o‘rta asrlarning yangi zodagon tabaqa vakillari edi. Mamlakatning ijtimoiy va siyosiy hayotida ularning bora-bora nufuzi ortib, o‘rta asrlar tazyiqkor yuqori tabaqa vakillariga aylanadi.



Хоразм воҳасида милодий I-III аслрдаги сун'ий суг'ориш ривожланishiнинг харитаси. Шартли белгилар: а – сув оқиб турган каналлар; б – Амударыoning о'ша даврдagi о'зани; в – botqoq va toshqinlar; г – shaharlar.²⁰

²⁰ G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. Qadimgi zamondan hozirgacha. -T., 1959. – 107-bet.

Dehqonlar odatda shaharlarda hashamatli qasr va saroylarga, savdo va hunarmandchilik do'konu-rastalaridan iborat kattagina xo'jalikka ega edilar. Qishloqlarda esa, ekinzor paykallardan tashqari, ularning ko'shk va istehkomli qo'rg'onlari, objuvoz-u moyjuvoz va tegirmonlari bo'lardi. Qul, cho'ri, yetim-yesirlardan iborat ko'pdan-ko'p xizmatkorlar dehqonlarning ulkan patriarxal xo'jaligida qishin-yozin, kechay-u kunduz beorom mashg'ul edi. Bulardan tashqari, har bir katta yer egasining mol-u jonini qo'riqlab, uni ichki va tashqi yovlardan muhofaza qiladigan 30-40, 50-100 va ba'zan undan ortiq, qurollangan harbiy navkarlari bo'lgan. Ular «chokar» deb atalardi. Chokarlar baquvvat va abjir hamda o'z valine'matiga sadoqatli o'spirinlardan tanlab olingan.

Xitoy manbalarida ta'riflanishicha, Buxoro va Samarqand dehqonlarining chokarlari o'limga tik boqib, uni abadiyatga qaytish, deb anglaydigan nihoyatda jasur va jangovar bo'lganlar. Ayrim manbalarda qayd etilishicha, o'sha davr udumi bo'yicha, xojasi vafot etgan chokarlar hatto u bilan birga tiriklayin go'rga ko'milishi lozim bo'lgan. Bunday sodiq, va jangovar chokarlari bilan dehqonlar yovgarchilik paytlarda dushmanga qarshi harbiy yurishlarda qatnashar edilar. Osoyishtalik zamonda esa chokarlarga suyanib qishloqning ozod ziroatkor ahli ustidan o'z hukmlarini yurgizishga harakat qilardilar. Avvalda o'z tasarrufidagi xizmatkorlarni koranda sifatida ishlatib kelgan dehqonlar, keyinchalik esa, turli yo'llar bilan qishloq jamoalari ustidan ma'lum darajada tazyiq ko'rsatib, bora-bora ular kuchidan foydalanishga kirishadilar. Dehqonlarga qaram bo'lib qolgan qishloqning ziroatkor bunday ahli «kadivar», ya'ni qishloq qo'rg'onida, xususan, katta yer egalarning qishloqdagi qo'rg'onlarida yashovchilar nomi bilan yuritiladi. Shunday qilib, mamlakatda ilk o'rta asr mulkchiligi munosabatlarining shakllanishi bilan qishloq jamoalari ichida yirik yerdor dehqonlar bilan bir qatorda o'z erkidan mahrum bo'lgan mutlaqo yersiz va mulksiz qashshoq ziroatchi tabaqa kadivarlar paydo bo'ladi. Ular ilk o'rta asrlarning ijtimoiy hayotida dunyoga kelgan va yerdor dehqonlar tabaqasiga qaram bo'lgan qishloq jamoasining yangi mehnatkash mazlum aholining vakillari edilar. Mamlakatda yer-suv mulkchiligining xususiyligi ortib, yer egaligi munosabatlarining mustahkamlanib borishi qishloqning mulksiz

va erksiz ziroatchi mazlum ahli - kadivarlarning soni ko'payib, dehqonchilik xo'jaligining asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlarining biriga aylanadi.

Milodiy I ming yillikning o'rtalariga kelib, garchi yer maydonlarining ma'lum bir qismi mamlakatning ijtimoiy va siyosiy hayotida kattagina nufuzga ega bo'la boshlagan zodagon dehqonlar va majusiy ruhoniylar-kohinlarning qo'l ostidagi mulklardan iborat bo'lsa-da, ziroatkor vohalardagi obikor yerlarning asosiy qismi hali xam qishloq jamoalarining oddiy mehnatkash a'zolari «kashovarz», ya'ni «yerni haydovchi yerni omoch bilan ag'daruvchi-“qo'shchi” deb yuritiluvchilar tasarrufida edi. Dehqonchilik mahsulotlarining deyarli asosiy qismi mana shu qo'shchi-kashovarzlar ning mashaqqatli mehnati bilan yetishtirilar edi.

Ilk o'rta asrlarda tariximiz sahnasida namoyon bo'lgan zodagon dehqonlar va ular tasarrufidagi ulkan patriarxal xo'jaliklar qiyos etilsa, yerga egalik qilish munosabatlari jihatidan ular X-XI asrlarda G'arbiy Yevropada shakllangan «feod» yoki «len» atamaları bilan yuritilgan mulklarning zamindorlari feodallarga yaqin turar edilar.

Shunday qilib, ilk o'rta asr mulkchilik munosabatlarining tarkib topishi bilan mamlakatning ijtimoiy hayotida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Patriarxal qishloq jamoalari mulkiy jihatdan tabaqalanib, u yerdor va mulkdor dehqon va unga mute bo'lgan yersiz va erksiz kadivarlarga ajralib ketdi. Shu bilan birga obikor vohalarda qishloq jamoalari yerlarida yashab kelgan hamda yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo'lgan erkin ziroatchilar qo'shchi-kashovarzlarning ma'lum bir qismi jamoa yerlaridan mahrum bo'lib, ularning zamindor dehqonlarga qaram mazlum tabaqa - kadivarlarga aylanish jarayoni kuchaydi.

Katta yerdor zodagonlarning nufuzi ortib, kashovarzlarning ularga qaram kadivarlarga aylanishida davlat ma'murlari dehqonlar tabaqasi manfaatlarini quvvatlaydi. Oqibatda dehqonlar qo'l ostida katta mulk va kuch to'planadi. El-yurtning ijtimoiy va siyosiy hayotida ularning mavqeyi nihoyatda oshib ketadi. Ayrim dehqonchilik vohalarining katta dehqonlari hatto o'z viloyatlarida deyarli mustaqil hokim bo'lib olardilar. Shunday qilib, milodning I ming yilligi o'rtalarida

qadimgi Turon aholisining ijtimoiy va iqtisodiy hayotida sodir bo'lgan bunday keskin o'zgarish mamlakatda siyosiy tarqoqlikni kuchaytirib, uning mayda mahalliy hokimlarga bo'linib ketishiga sabab bo'ladi.

Eftallar davrida yerga egalik munosabatlari shakllanib bordi. Ilgarilari harbiy yurishlardan katta daromad qilib turgan zodagonlar yer ularni doimo ta'minlash manbai bo'lishini anglab olishadi. Eftallar davlatining aholisining asosiy qismi dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan, qolgani esa ko'chmanchi chorvachilik hayot tarzini o'z boshidan kechirgan. Eftaliylarning ko'pchiligi mahalliy aholi bilan aralashib, o'troq hayot tarziga o'tgan. Toxariston va Sug'd rivoj topgan dehqonchilik va bog'dorchilik markazi hisoblangan. Qashqadaryo va Zarafshonda g'alla, sholi, Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyoda paxta yetishtirishgan. Farg'ona vodiysi arg'umoq otlari bilan mashhur bo'lgan. Yerlarning asosiy qismi qishloq jamoalarga tegishli bo'lgan. Dehqonlar va ibodatxonalarga tegishli yerlar ham bo'lgan.

Ibodatxonalarga tegishli yerlar *“vag'nze”* deb yuritilgan. Yaylovlarning asosiy qismi qabila va urug' jamoalari va ularning oqsoqollari-biylar tasarrufida edi. V asrda eng yirik sug'orish tarmoqlari hisoblangan Zog'ariq, Bo'zsuv va Darg'om kanallari barpo etiladi. Chag'oniyon (Surxondaryo), Samarqand, Buxoro, Kesh (Shahrisabz), Naqshab (Qarshi) va Toshkent atroflari to'la o'zlashtirilib, alohida-alohida dehqonchilik vohalari shakllanadi.

3.2-§. Ilk o'rta asrlarda dehqonchilik vohalarining kengayishi

O'zbekiston hududida yerga egalik munosabatlari ma'lum darajada o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Soliqni ma'lum hududdagi jamoaga uyushgan erkin dehqonlar to'laganlar. Bu erkin dehqonlar «kashovarzlar» deb atalganlar. Yer egasi bo'lib qolgan harbiy zodagonlar esa «dehqon» deb atalgan. «Dehqon» qishloq xo'jayini ma'nosini anglatadi. Kashovarzlar jamoa boshlig'i «dehqon»ga soliq to'laganlar. X asr tarixchisi Tabariy shu ma'noda bunday dehqonlarning qayerdan kelib chiqqanligini tushuntiradi. Go'yo afsonaviy podsho Monuchehr har bir qishloqqa bir dehqonni boshliq qilib tayinlab, bu qishloq aholisiga shu dehqonga bo'ysunish va uning uchun ishlashni buyurgan ekan. Bu hol quldorlikka

asoslangan eski shaharlarni tushkunlikka uchrashiga sabab bo'ldi va dehqonlarning mulklari yonida juda ko'p mayda xo'jalik markazlari vujudga kela boshladi. Kushon davlati inqirozga uchrab tarqab ketgach, ayrim vohalarda mustaqil mulklar paydo bo'ldi.

Ilk o'rta asrlar davrida tashkil topgan yirik davlatlardan biri eftaliylar davlatidir. Eftaliylarning etnik jihatdan qaysi qabila-xalqqa mansubligi va qaysi tilda so'zlashganliklari to'g'risida fan olamida har xil fikrlar bor. Ammo aksariyat ko'pchilik olimlar eftaliylarni miloddan avvalgi II asr bilan milodning IV asri o'rtalarida Yettisuvdan va yanada sharqroqdagi rayonlardan Orol dengizi bo'ylariga kelib qolgan qabilalar bilan aralashib ketgan holda turkiy tilini qabul qilgan Orolbo'yi sak-massaget qabilalarining avlodlaridirlar, degan g'oyani ilgari suradilar.

Eftaliylardan oldingi kushonlar davridayoq «yer va qo'rg'onlarga ega bo'lgan aslzodalar ajralib chiqa boshlagan, dehqonlar mahalliy zodagonlarga ko'proq tobe bo'la borgan. Aholining asosiy qismi dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan, ayrim qismigina ko'chmanchilik asosida yashagan, o'tovlarda istiqomat qilishgan. Eftaliylar davrida aholi sonining o'sishi natijasida obikor yerlarga bo'lgan talab ortib bordi. Natijada V-VI asrlarda hozirgi Toshkent va Janubiy Qozog'iston yerlarini sug'orish uchun Bo'zsuv va Zog'ariq kanallari, Samarqand viloyati yerlarini sug'oruvchi Darg'om kanallari qazildi.

3.3-§. O'zbekiston hududida ilk o'rta asr davlatlarida yer-suv munosabatlari

Ziroatkor yerlarning kattagina qismi hali ham qishloq jamoalari tasarrufida bo'lsa-da, ammo mamlakatda feodal munosabatlarning tarkib topishi oqibatida yer maydonlarining ma'lum bir qismi mulkdor tabaqa vakili - «dehqon» lar qo'lida to'plana boshlagan edi. Buning natijasida qishloq jamoasining erkin qo'shchilari ma'lum darajada dehqonlar asoratiga tushib, ularga qaram kadivarlarga aylanmoqda edi. Obikor yerlarning bir qismi ibodatxonalar mulki hisoblanar edi. Bunday yerlar «vag'anze» deb yuritilar edi.


Yaylovlarning asosiy qismi esa qabila va urug' jamoalari hamda ularning oqsoqollari - biylar tasarrufida edi. Hozirgi vaqtda Toshkent vohasi va Janubiy Qozog'iston yerlarining bir qismini suv bilan ta'minlab turgan Zog'ariq va Bo'zsuv, Samarqand viloyati janubiy tumanlarining asosiy suv manbai Darg'om kanali V asrda barpo etilgan eng yirik sug'orish tarmoqlaridan hisoblanadi. Bu davrda tog' oldi mintaqalarida joylashgan adir yerlarga suv chiqarib, obod etishda o'q, gupchak, tishli g'ildirakka asoslangan va o'z davri uchun ancha-muncha murakkab suv inshootlari charxparrak, chig'ir va boshqalardan foydalaniladi.

Yangitdan o'zlashtirilgan yerlarda mulkdor dehqonlarning yirik qo'rg'onlari-yu hashamatli qasrlari bilan bir qatorda mehnatkash qo'shchilarning ko'pdan-ko'p qishloqlari-yu mayda turar joylari qad ko'taradi. Xuddi shu davrda Chag'oniyon (Surxondaryo), Samarqand, Buxoro, Kesh (Shahrisabz), Naqshab (Qarshi) va Toshkent atroflari to'la o'zlashtirilib, alohida-alohida dehqonchilik vohalari shakllanadi. Keyinchalik bu vohalarda yerdor dehqonlarning siyosiy mavqeyi oshib, ilk o'rta asrlarning mayda hokimiyatlari tashkil topadi.

Aholining ommaviy hashari va mashaqqatli mehnati bilan suv chiqarilib obod qilingan vohalarni tashqi yov bosqinlaridan muhofaza qilish maqsadida ularning tevarak-atrofi bir necha o'n va yuz chaqirimlarga cho'zilgan baland va qalin devorlar bilan o'rab olinadi. Ilk o'rta asrlarning bunday mudofaa inshootlari ko'rinishdan qadimgi Buyuk Xitoy devoriga o'xshar edi.

Turk xoqonligi qo'li ostida birlashgan xalqlar taraqqiyotning turli bosqichlarida bo'lganlar, aholining bir qismi o'troq dehqonchilik bilan, qolgan bir qismi esa ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Sug'diyona, Xorazm va Toharistonda dehqonchilik qiluvchi aholining kattagina qismi patriarxal oila sifatida yashar edilar. Erkin dehqon bilan bir qatorda kashovarzarlar ham bor bo'lib, ular iqtisodiy jihatdan boy yer egasiga va hatto o'z mustaqilligini saqlab qolgan dehqonga ham qaram bo'lganlar. Kashovarzarlar jamiyatdagi asosiy kuch hisoblangan. VI-VII asrlarda, qishloq, qo'rg'on va shaharlarda mustahkam o'rnatilgan, yer egasi bo'lgan zodagonlarning iqtisodiy va siyosiy quvvati kuchaya boshlaydi. Bu zamindor zodagonlar yozma manbalarda «dehqonlar» deb

yuritilgan. Xususan konlarda va yer ishlarida qul mehnatidan ko'proq foydalanilgan. Bu davrda Xorazmda va ayniqsa, Sug'dda savdogarlar jamiyatda yetakchi o'rinni egallaganlar.



Хоразм воҳасида милодий III - VI асрлардаги sun'iy sug'orish rivojlanishining xaritasi. Shartli belgilar: a – suv oqib turgan kanallar; б – Amudaryoning o'sha davrdagi o'zani; в – botqoq va toshqinlar; г – shaharlar.²¹

²¹ G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. Qadimgi zamondan hozirgacha. -T., 1959. – 129-bet.

Ko'chmanchi turk qabilalari VI-VII asrlarda o'tovlarda yashaganlar va to'rt g'ildirakli aravalarda ko'chib yurganlar. Aholining mehnatkash qismi «budun» yoki «qora budun» deb atalgan. Urug'-qabilaning yirik vakillari esa «beklar» nomi bilan yuritilgan. Jamoani «xoqon» va zodagonlar kengashi - «qurultoy» boshqargan. Patriarxal oilalarga oila boshliqlari - «kadxudotlar» bosh bo'lganlar. Kadxudot atamasi sug'diylarga xos so'z bo'lib, ko'chmanchi hayot kechiruvchi turklar esa «Kadxudot» so'zi o'rniga «Arxaun» atamasini ishlatar edilar.

G'arbiy Turk xoqonligida markazlashgan davlat bo'lmagan. U o'nlab turkiy qabilalardan tashkil topgan uyushma-ittifoq bo'lib, ularning har qaysisini alohida xonlar idora qilganlar. Bu mulklarning o'z podshochalari bor edi. Ularning nomlari har vohada har xil bo'lgan. Jumladan, Buxoroda - buxorxudotlar, Chag'aniyonda - chog'anxudolar, Dabusiya - dabusshohlar, Vardanzida - vardonxudotlar, Toshkentda - tudunlar, Samarqand va Farg'onada - ixshidlar, Osrushonada - afshiniylar, Xorazmda - xorazmshohlar, Toharistonda - malikshohlar, Iloqda - dehqonlar kabi. Dehqonlar bu hukmdorlarni kashovarlar va qaram kishilardan bo'lgan kadivarlar, yaxshi ta'lim olgan harbiy qo'shinlar - chokarlar bilan quvvatlab turganlar.

Dunyoning boshqa qit'alaridan farqli o'laroq O'rta Osiyo hududidagi dehqonchilikning o'ziga xos xususiyati shundaki, bu yerda cheklanmagan mustabid sharqona ko'rinishdagi markazlashgan kuchli hokimiyatga intilish ustuvor ahamiyat kasb etgan. «Tan-Shu» nomli Xitoy yilnomasi bergan ma'lumotlarga qaraganda Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryo bo'yida mustaqil to'qqizta hokimlik bo'lgan: Samarqand, Maymurg', Kesh, Naxshob, (Ishtxon, Kushoniya, Buxoro, Amul va Andxoy shular jumlasidandir. Ularning eng kattasi Samarqand hokimi edi. Kan hokimi mahalliy suloladan bo'lgan. Sug'diyona shohi, Xorazm va Choch hokimlari ma'lum darajada o'z mustaqilliklarini saqlab qolganlar.

Sug'diyona shohligi o'sha davrda Panjikentdan Karmanagacha bo'lgan uncha katta bo'lmagan hududni egallar edi. Ichki boshqaruvda ba'zi erkinliklarini saqlab qolgan bo'lsa-da, xoqonga doimo o'lpon to'lab turardi. Turk xoqonligi

hududida yashovchi aholi bug‘doy, arpa, sholi, tariq, beda va boshqa mahsulotlarni yetishtirish bilan band bo‘lgan. Eftaliylar davriga nisbatan sug‘orish tizimi bu davrda birmuncha ko‘payadi, Xorazm vohalarida esa aksincha, kamayadi. Aholi uzumchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullangan. Paxta, beda, tut daraxti ekishga va uy hayvonlarini boqishga katta e‘tibor berilgan.

Tohariston aholisining asosiy qismi o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullanardi. Asosan, g‘alla va dukkakli ekinlar, qisman sholi va paxta ekilardi. Tog‘oldi va tekslik joylarda esa bahorikorlik va uzumchilik rivoj topgan edi. Arxeologik topilmalar orasida pista, bodom, yongoq hamda o‘rik, shaftoli, uzum va olcha danaklari, shuningdek, qovun va tarvuz urug‘lari qayd etilgan. Shunga qaraganda, Toharistonda bog‘dorchilik va polizchilik keng rivojlangan. Chorvachilikda mayda va yirik shoxli hayvonlardan tashqari ot, xachir, tuya va eshaklar boqilgan. Ilk o‘rta asrlarda Toharistonda bo‘lgan sayyohlar uning ikki o‘rkachli tuya va pastak otlarining uzoq, masofalarga qatnashda nihoyatda chidamli ekanini maqtab yozganlar.

Arablar O‘rta Osiyoni bosib olgach, bu hududdagi hamma shahar va aholi joylarida o‘z qo‘shinlarini joylashtirdilar. Bu harbiy kuchlar o‘z vaqtida mahalliy aholi ustidan nazorat qilib turardi. Arab xalifaligi tasarrufiga o‘tgan Movarounnahr hududida ko‘pgina yirik yer egalari - dehqonlarning mavqei avvalgi holaticha saqlanib qoldi. Ular siyosiy jihatdan xalifa va uning noibiga bo‘ysunar edilar.

Butun VIII asr davomida arab zodagonlarining dehqonlar bilan til topishuv hollari kuchayadi va aynan mana shi davrda yirik dehqon urug‘ aymoqlari qo‘li ostidagi yer-mulklarning yuqori arab harbiy mulkdoriga o‘tishi ro‘y beradi. Arab qo‘shini tarkibiga mahalliy aholi ichidan ko‘plab erkaklar majburan safarbar qilindi. Harbiy harakatlar natijasida aholining bir qismi halok bo‘ldi, bir qismi asirga olindi. Barcha shahar va qishloqlarda o‘z harbiy garnizonlarini joylashtirgan arablar, shu harbiy kuchlarga tayanib aholidan turli soliqlar undirishar, ularni turli jamoa ishlariga safarbar qilishar edi.

Yirik yer egalari o‘rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshilik arablarning aralashuviga sabab bo‘lar yoki mulkning bir shaxsdan ikkinchisiga o‘tishini ta‘minlar

edi. O'rta asr mualliflari ma'lumotlariga ko'ra, dehqonlar qo'li ostida qishloq jamoalari bo'lib, bu jamoadan yer olgan kishilar xiroj to'laganlar. Dehqonlar mustaqil qo'rg'onlarda hayot kechirib, ularning yaxshi qurollangan harbiy bo'linmalari bo'lgan. Bunday bo'linmalarning askarlari chokarlar deb atalgan. Dehqonlar xalifa noibining mahalliy aholi orasidan bo'lgan vakiliga bo'ysunadilar. Mehnatkash aholi, asosan, kadivarlar, kashovarlar hamda qullar dehqonlarda mavjud bo'lgan yer-mulklarning ma'lum ulushini ijaraga olib ishlashgan va buning evaziga soliq to'laganlar. Dehqonlar orasida yer-mulk, shaxsiy uy-joy va qo'rg'onlar masalasida nizo va janjallar chiqib qolsa, muammoni xalifa hal qilgan. Har bir huquqiy muammo islom qonun-qoidalariga binoan ko'rib chiqilgan.

VIII asr o'rtalariga kelib Movarounnahr hududida siyosiy boshqaruv arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirilgan edi. Viloyatlardagi hokimlar va boshqa hukmdorlarning qo'li ostidagi ma'muriy-idora usuli o'z shaklini saqlab qolgan bo'lishiga qaramay, hokimlarning xalifa noibiga itoat etishlari shart edi. Mahalliy davlat boshliqlarining ko'pchiligi o'z huquqlari va imtiyozlarini saqlab qolish maqsadida islom dinini qabul qilgan edilar. Islom dinini qabul qilmagan zodagonlar o'z mol-mulklaridan mahrum etilar yoki katta miqdordagi tovon to'lar edilar.

Arablar iqtisodiy hayotni o'z qo'llaridan chiqarmaslik maqsadida bosib olingan hududlarda sosoniylar tartibidagi soliq tizimini joriy qildilar. Bular asosan quyidagilar edi:

1. **Qavonin** yoki **muqati'a** - mayda viloyatlar va tumanlardan xazinaga tushib turgan yig'in.

2. **Maqosima** - hosilning ma'lum ulushi miqdorida to'langan. Uning hajmi sug'orishga bog'liq holda belgilangan.

3. **Misoxa** - yer hajmiga qarab miqdori belgilanadigan soliq bo'lib, unda ekin ekilishi yoki ekilmasligiga e'tibor berilmagan.

Bu soliq tizimiga yer solig'i - **xiroj** (hosilning **o'ndan bir yoki o'ndan ikki qismi** miqdorida), chorva, hunarmandchilik, savdo- sotiqdan **zakot** (qirqdan bir miqdorda) hamda islomni qabul qilmagan shaxslardan olinadigan - **jizya** solig'i ham qo'shilgan.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, arablarning O'rta Osiyoni bosib olgan hududlarini boshqarish markazi Marv shahri bo'lib, bu yerdan turib xalifaning noibi Movarounnahr hamda Xurosonni idora qilgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, VIII asrning o'rtalari va oxirlariga kelib Movarounnahr va Xuroson hududlarida siyosiy boshqaruv arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirib bo'lingan edi. Bu davrda Movarounnahrda Sug'd, Shosh, Farg'ona, Xorazm, Sug'diyona, Tohariston kabilardagi mahalliy hokimlar zimmasiga aholidan belgilangan soliqlarni yig'ish, ma'muriy boshqaruvni amalga oshirish asosida islom dini g'oyalarini aholi o'rtasida yoyish asosiy vazifa qilib belgilangan edi. Mahalliy hokimlar faoliyati xalifa tomonidan tayinlanadigan maxsus amirlar tomonidan qattiq nazorat ostiga olingan bo'lib, bundan tashqari ular xalifaning Xurosonda tayinlagan noiblariga bo'ysunmog'i lozim edi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Nima deb o'ylaysiz, nega ilk o'rta asrlar davrida yuksalish boshlangan? Bu yuksalish oqibatida qanday o'zgarishlar ro'y berdi?
2. Ayting-chi, qishloqlar nufuzining ko'tarilishiga nimalar sabab bo'lgan?
3. Nega qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirishda mulkdor tabaqa vakillari, qishloq oqsoqollari hamda qabila boshliqlari faol qatnashadilar?
4. Ilk o'rta asrlarda qishloq jamoalari qanday tabaqalardan tashkil topgan edi?
5. O'ylab ko'ring-chi, nega ziroatkor vohalardagi sug'orma yerlarning asosiy qismi qishloq jamoalarining qaramog'ida bo'lgan?
6. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda shakllangan yerga egalik shakllarini sanab bering.
7. Ushbu davrda baland yerlarga suv chiqarib sug'orish uchun qanday suv inshootlari kashf qilindi?
8. "Vag'nze" deb ataluvchi yer turlari haqida nimalarni bilasiz?
9. Ilk o'rta asrlarda qaysi hududlarning atroflari o'zlashtirilishi natijasida alohida-alohida dehqonchilik vohalari shakllangan?
10. Ayting-chi nega sarkorlar o'zlariga suv to'g'oni boshidan yangi o'zlashtirilgan yerlardan o'zlariga yer ajratib olgan?

11. Ilk o'рта asrlarda barpo etilgan Zog'ariq va Bo'zsuv, Darg'om kanallari qaysi hududlarning suv ta'minotini yaxshilashga xizmat qilgan?
12. Movarounnahr hududida Arab xalifaligi hokimiyati qaror topgandan so'ng yirik yer egalari – dehqonlar hayotida qanday o'zgarishlar kechdi?
13. Arab xalifaligi davrida lashkarboshilarga va alohida xizmat ko'rsatgan shaxslarga xalifalar tomonidan yerlar qanday shaklda in'om etilgan?
14. O'zbekiston hududida ilk o'рта asrlarda yerga egalik munosabatlari qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan?
15. Ilk o'рта asrlarda yerga ishlov berish borasida asosiy ishchi kuchi kimlar hisoblanishgan?

4-mavzu. Oʻrta asrlarda Oʻzbekistonda yer-suv munosabatlari

(IX-XIII asrlar)

Reja:

4.1-§. *Tohiriylar davrida yer-suv munosabatlari;*

4.2-§. *Somoniylar davrida yer-suv munosabatlari;*

4.3-§. *Qoroxoniylar davrida yer va suv munosabatlari;*

4.4-§. *Xorazmshohlar davrida yer va suv munosabatlari.*

Tayanch iboralar: *Yettisuv, Qashgʻar, qarluq, chigil, yagʻmo, qoraxoniylar, Sotuq Abdulkarim (Bugʻroxon), Bolasogʻun (Yettisuvda), Fargʻona, Isfijob (Sayram), Nuh II, Foiq, Nasr, Mahmud Gʻaznaviy.*

4.1-§. Tohiriylar davrida yer-suv munosabatlari

IX asrda Oʻrta Osiyo hududida hali ham arablar hukmronligi davom etardi. Ammo erk va hurlik singari oliyjanob tarixiy anʼanalarga sodiq boʻlgan avlod-ajdodlarimiz arab bosqinchilariga qarshi kurashni bir daqiqa boʻlsada toʻxtatmadilar va mustaqil markazlashgan davlat barpo qilishga intildilar. Bu harakat arab istilochilarini har doim tahlika va qoʻrquv ostida saqlab turdi. Ular joylardagi, hatto oʻzlaridan chiqqan hukmdorlarga ham shubha bilan qarar va ishonmas edilar.

786-809-yillarda xalifalik qilgan Xorun Ar-Rashidning barmoqiylar xonadoniga qaqshatqich zarba berganligini shu maʼnoda tushunsa boʻladi. U hatto oʻziga yaqin boʻlgan qishloqlar aholisini ham qirib tashlagan. Hokimiyat tepasiga barmoqiylar oʻrniga Tohiriylar keladi. Tohiriylar Xurosonning yirik oqsuyak yer egalari boʻlib, bu sulolaning asoschisi Tohir ibn Husayn edi. Bu sulola asli Hirot viloyatining Boʻshang shahridan edi. Tohir 809-813-yillarda Xorun ar-Rashidning oʻgʻillari Maʼmun bilan Amin oʻrtasidagi boʻlgan kurashda Maʼmun tomonida boʻldi, unga Bagʻdodni va xalifalik taxtini egallashda yordam berdi.

Ma'mun 813-yilda xalifalik taxtiga o'tirgach, Tohir ibn Husayn, katta hurmat va e'tiborga loyiq nufuzli kishi bo'lib qoldi. 821-yilda u Xurosonning noibi etib tayinlandi. Movarounnahr ham Xuroson noibliги tarkibiga kirardi. Uning qarorgohi Nishopurda edi. Tohir o'z qo'l ostidagi keng viloyatlarni mustaqil davlatga aylantirish uchun ochiqdan ochiq harakat qildi.

Tohiriylar dastavval hokimiyatni mustahkamlashga va qishloq xo'jaligini tartibga solishga harakat qiladilar. Dehqonchilik vohalarining suv ta'minotini yaxshilash uchun yangi kanallar qazdiradilar. Abul Abbas Abdullohning topshirig'i bilan Xurosonning bilimdon fiqhshunoslari dehqonchilikda suv manbalaridan foydalanish tartiblari, suv taqsimoti va uning qonun-qoidalari haqida risola yozib, ma'muriyatga taqdim etadilar. Bu risola ikki asr mobaynida suvdan foydalanishda dehqonlar uchun ko'rsatma bo'ldi. Tohiriylar, ayniqsa, davlat boshqaruvi, fuqarolarga munosabat va soliq solish tartiblariga alohida ahamiyat beradilar.

Tohir ibn Husayn o'g'li Abdullohga yo'llagan maktubida na davlatmand kishilar va na o'z yaqinlarini soliqlardan ozod etmasdan, fuqarolarning barchasiga adolat yuzasidan soliq solish haqida o'g'liga ko'rsatmalar beradi. Abdulloh ham otasi maslahatlariga amal qiladi. Ziroatchilar ahvolini birozgina bo'lsa-da yengillashtirish maqsadida u maxsus farmon chiqaradi. Farmonda mulkdorlar va davlat ma'murlariga qarata «Ollah mehnat ahlining qo'li bilan rizq-ro'zimizni yetkazib beradi, tili bilan bizni olqishlaydi, ularni ranjitishni taqiqlaydi» - degan so'zlar bitilgan edi. Shubhasiz, bu bilan Abdulloh mehnat ahlinigina emas, balki umumdavlat manfaatini ko'zda tutgan edi. Biroq, tohiriylar zamonida ham mehnat ahlining ahvoli nihoyatda tang edi. Ular mulkdor dehqonlarning jabr-zulmidan, davlatning og'ir soliqlaridan bezor edilar. Shu boisdan mamlakatda xalq qo'zg'olonlari tez-tez ko'tarilib turardi. Ularda, ayniqsa «g'oziyalar» faol qatnashadilar. 873-yilda g'oziyalar tohiriylarning harbiy qo'shiniga qaqshatqich zarba berib, Xuroson poytaxti Nishopurni egallaydilar. Natijada tohiriylar hukmronligi tugatilib, yangi Safforiylar davlati tashkil topadi. Mamlakatda sodir

bo'lgan bunday siyosiy o'zgarishdan so'ng Movarounnahr Xurosondan ajralib o'z mustaqilligini to'la tiklab olish imkoniga ega bo'ladi.

4.2-§. Somoniylar davrida yer-suv munosabatlari

Somoniylarning eng aqlli va tadbirkor vakili Ismoil Somoniy bo'lganligini yuqorida ta'kidladik. U asosiy diqqat-e'tiborni o'z davri uchun ilg'or hisoblanmish markazlashgan davlat tizimini joriy etishga qaratdi. Bu tizim asosini oliy hukmdor dargohi (saroyi) va devonlar (vazirliklar) majmuyi tashkil etgan. Oliy hukmdor amir unvoniga ega edi. Shu sababdan yozma manbalarda Amir Ismoil, Amir Ahmad kabi ta'kidlarni uchratamiz. Bundan tashqari Xoris amiri lavozimi ham bo'lib, u oliy hukmdorning barcha hukm va topshiriqlari ijrosining bajarilishini nazorat qilgan. Dargoh hamda boshqa qator muhim davlat idoralarning xavfsizligini amalga oshirish vazifasini Bosh Hojib va uning xodimlari bajarganlar. Dargohning xo'jalik yumushlari faoliyatini Vakil boshqargan. Bundan tashqari, dargohda dasturxonchi, eshik-og'asi, sharbatdor kabi xizmatchilar ham bo'lgan.

Devon boshqaruvi 10 ta yo'nalishdan iborat bo'lib, poytaxt Buxoroda alohida binolarda joylashgan edi: Bosh vazir devoni, moliya (kirim-chiqim) ishlari devoni, davlat rasmiy hujjatlarini ishlab chiqish devoni, soqchilar boshlig'i devoni, xat-xabarlar mutasaddisi devoni, saroy ish boshqaruvchisi devoni, muxtasib devoni (uning xizmatchilari zimmasiga shahar va qishloqlarda, ko'cha va bozorlarda ijtimoiy tartibni himoya qilish, diniy marosimlarni amalga oshirishda chegaradan chiqmaslik kabi ishlar yuklangan), vaqflar devoni, qozilik ishlari devoni ana shular jumlasidandir.

IX-X asrlarda Movarounnahr, Xuroson va Xorazmning shahar va qishloqlarida hunarmandchilikning ko'pgina sohalari ancha-muncha rivojlangan bo'lsa ham, ammo bu hududlar qishloq xo'jaligi mamlakati edi. Aholining asosiy qismi sug'orma dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanar edi. Asrlar osha takomillashib kelgan sug'orish tarmoqlari va turli-tuman suv inshoot (tog'on, band, nova, koriz, chg'ir, charxpalak, suvayirg'ich) lari vositasida sug'orilib obod etilgan serunum sug'orma dehqonchilik madaniyati-g'allakorlik, sholikorliklik

paxtachilik, sabzoyotchilik, polizchilik va bog'dorchilik yuqori darajada rivoj topgan edi. Movarounnahrda hamda Xorazm vohalarida aholi ziroatlarning deyarli barcha navlarini: arpa, bug'doy, tariq, mosh, adas-yasmi, kunjut, no'xat, zig'ir, jut va shu kabilarni yetishtirar edi. Samarqand vohasida asosiy ekin-g'alladan tashqari zig'ir, kanakunjut, Xorazmda esa kunjut ko'p ekilardi. Zig'ir kunjut va kanakunjutdan moy olinardi. Movarounnahrning tog'oldi hududlari aholisining asosiy mashg'uloti chorvachilikdan tashqari lalmikorlik bilan ham shug'ullanardi. Lalmi yerlarda ,asosan, g'alla yetishtirilar edi. Vohalarida paxtachilik kattagina o'rinni egallagan edi. Paxtaning ingichka tolali g'o'za navlari ekilardi. G'o'zadan tashqari nodir texnik o'simliklar ekilib, ulardan turli xil dori-darmonlar va bo'yoqlar tayyorlanardi.

Movarounnahr va Xorazmda, ayniqsa bog'dorchilik madaniyati keng ravnaq topgan edi. Bog' va chorbog'larda uzum, anor, anjir, olma, nok, behi, o'rik, shaftoli, olxo'ri, olcha, tut, jiyda va ko'pgina boshqa mevalar yetishtirilar edi. Xususan uzumning o'nlab navlaridan nihoyatda ko'p hosil olinardi.

Uzumdan mayiz, shinni, sirka va musallas tayyorlanar edi. Movarounnahr va Xorazmda sabzavot va poliz ekinlari serob bo'lib, qovunlari nihoyatda shirali bo'lardi. Buxoro va Xorazmning qirqma qovunlari va qovun qoqilari. Sharqning uzoq-uzoq shaharariga olib borilar edi.

Dehqonchilik solig'i - xirojdan xazinaga tushadigan daromad davlat kirim-chiqimining kattagina qismini qoplar edi. Shuning uchun ham somoniylar mamlakatda dehqonchilik xo'jaligini rivojlantirishga katta e'tibor berdilar. Avvalambor, ular ayrim viloyat va vohalarda suv taqsimotini tartibga solib, ularning suv ta'minotini yaxshilash hamda iloji boricha ekin maydonlarini kengaytirishga harakat qilardilar. IX-X asrlarda Movarounnahrning viloyat va vohalarida daryo va uning tarmoqlaridan ko'plab yangi-yangi sug'orish kanallari qazildi. Oqar suvga tanqis tog'oldi hududlarda bandlar, suv omborlari barpo etiladi. Yer osti suvlaridan dehqonchilikda foydalanish uchun korizlar qazilib, ishga tushiriladi. Suv manbalari sathidan balandroq joylashgan yer maydonlariga suv chiqarish uchun charxpalak, chig'ir va do'loblardan keng foydalaniladi.

Vohalarni suv bilan ta'minlab turgan sug'orish tarmoqlarini muttasil loyqadan tozalash, behisob turli xil suv inshootlarini ta'mirlash uchun har yili minglab hasharchilar qazuvga chiqqan. Dehqon paykallariga obirahmatni yetkazib berish uchun mirob, joybori va poykori kabi xalq ichidan chiqqan sug'orish bo'yicha mutaxassislar yoz bo'yi oyoqqa turgan. X asrdan boshlab Buxoro vohasining suv taqsimoti bilan shaxsan shahar qozisining o'zi shug'ullangan.

Shunday qilib, IX-X asrlarda dehqonchilikning taraqqiy qilishi bilan sug'orish ishlari kengayadi. Muhandislik bilimi asosida qurilgan turli xildagi gidrotexnika inshootlari bilan jihozlangan sug'orish tarmoqlari barpo etiladi.

Somoniylar hokimiyati yirik yerdorlarning hamda mulkdor savdogarlarning manfaatini himoya qiluvchi feodal davlati edi. Mamlakatdagi mavjud yer va suvning kattagina qismi davlat va yuqori tabaqalarga tegishli mulk hisoblansa-da, ammo yerdan foydalanish va unga egalik qilishning bir nechta turi mavjud edi. Davlat tasarrufidagi yerlar "mulki sultoniy" deb yuritilgan. Hukmron sulola vakillari, mulkdor dehqon va aslzodalarning tasarrufidagi katta-katta yer maydonlaridan tortib mehnatkash qishloq aholisiga tegishli mayda xususiy yerlarga mulk hisoblangan. Machit, madrasa, xonaqoh va maqbaralarga vaqtincha yoki abadiy foydalanish uchun berilgan yerlar "vaqf yerlari" deb atalgan. Bunday turlardagi yerlardan foydalanuvchilarning barchasi, davlatga hosilning 1/3 hajmida xiroj to'lar edi. Shu bilan birga, oliy martabali ruhoniylar va sayyidlar qo'l ostidagi yerlar davlat soliqlaridan qisman yoki tamomila ozod etilgan xususiy yerlar bo'lardi. Bunday turdagi yerlar «mulki xos» deb yuritilgan. Bunday imtiyozga ega bo'lgan mulkdorlar davlatga ko'pincha hosilning 1/10 hisobida «ushur» solig'ini to'lagan, xolos. Shuningdek, hukmron sulola hamda oliy tabaqa vakillariga davlat oldidagi xizmatlari evaziga hadya qilingan (solig'ining bir qismi) mulklar (viloyat, tuman yoki ayrim shahar va qishloqlar) iqto yoki tuman yerlari deb yuritilgan.

Bulardan tashqari, qishloq jamoalari tasarrufida ham ma'lum hajmda yer maydonlari saqlanib, ular «jamoat yerlari» hisoblanar edi. Bunday ko'pchilikka

qarashli jamoa mulklaridan lalmikor hamda korizlar vositasida sug'oriladigan suvga tanqis tog'oldi mintaqalarida keng foydalanilardi.

Mayda xususiy hamda jamoa yerlaridan tashqari, barcha mulklarda mehnatkash qishloq aholisi kadivar bo'lib yoki yollanib ishlar edi. Yollanib qo'shchilik qilganlar IX-X asrda "barzikor" deb atalardi. Bu davrda katta yer egalari kadivarlarni ishlatishdan ko'ra, o'z yerlarini barzikorlarga ijaraga berishni afzal ko'rardilar. Ijarachilarning asosiy qismi qishloq jamoalarining kam yerli dehqonlari edi. Ular orasida mutlaqo yersizlari bo'lib, bunday oilalar yer egalarning uqubatli bo'lsa-da, har qanday shartlariga ko'nishga majbur edi. Shu sababli ularning sheriklikka ekan yerlardan oladigan hissasi ham turlicha edi. Agar barzikor o'z urug'i va qo'shi bilan dehqonchilik qilsa, uning hissasi hosilning $\frac{1}{3}$, $\frac{1}{4}$, yoki $\frac{1}{5}$ hajm miqdorida belgilanardi. Na qo'shga va na urug'likka ega bo'lgan, bularni hammasini yer egasi hisobidan ishlatgan qo'shchi hosilning $\frac{1}{10}$ yoki $\frac{1}{12}$ ulushiga ega bo'lardi.

Davlat soliqlari (xiroj va ushr) yer egasidan ham, qo'shchilardan ham alohida-alohida olinar edi. Shunday qilib, X asrga kelib tarix sahnasida ikkita yangi ijtimoiy tabaqa paydo bo'ldi. Ulardan biri katta-katta mulklarni hadya tariqasida qo'lga kiritgan yerdorlar edi. Ikkinchisi esa, ular qo'lidagi yerlarni ijaraga olib, mehnat qiluvchi barzikor-qo'shchilar edi.

XI asrdan boshlab yerdan foydalanishda iqto tartiboti juda keng yoyiladi. Qoraxoniylar tomonidan hukmron sulola namoyandalaridan tashqari, oliy darajali harbiylar, davlat ma'murlari va mahalliy zodagonlarga ham katta-katta yer maydonlari iqto tarzida hadya qilinadi. Iqto tartibi qoraxoniylar uchun bo'ysundirilgan mamlakatlar aholisidan tegishli soliqlarni undirib, uni boshqarishning eng qulay shakli hisoblangan. Chunki iqto daromadlarni muttasil olib turishni ta'minlar va iqtodorni o'z amlokida doimo muqim o'tirishga majbur qilmas edi. Bu davrda iqto tartibi shunchalik kengaydiki u faqat ayrim qishloqlargina emas, balki butun bir viloyat va yirik shaharlardan olinadigan daromadlar ham iqto tarzida in'om qilib beriladigan bo'ladi. Iqto tartibi keng qo'llanishi bilan u vaqtinchalik in'omdan umrbod foydalanishga, bora-bora esa

hatto avlodan-avlodga o'tadigan merosiy mulkka aylana boshlagan. Shunday qilib, XI-XII asrlarda Movarounnahrda va Xurosonda mulkchilikning yangi turi iqto yerlari kengayib, uning asosiy shakllaridan biriga aylanadi.

Bu davrga kelib musulmon ruhoniylariga bo'lgan e'tiborning kuchayishi va mamlakatda ularning siyosiy ta'sirini tobora ortib borishi bilan vaqf yerlari ham ancha ko'paydi. Garchi bu davrda barzikorlar ilk o'rta asrdagi kadivarlarga nisbatan ozod hisoblansalar-da, ammo ularning zimmasiga davlat tomonidan turli soliq va har xil majburiyatlar yuklangan edi. Sug'orish tarmoqlari, to'g'onlar, yo'l va qal'alar qurish va ularni ta'mir etishda ularning ishtiroki shart edi.

4.3-§. Qoraxoniylar davrida yer va suv munosabatlari

X asr o'rtalarida Yettisuv va Qashg'ar hududlarida yashagan qarluq, chigil, yag'mo va boshqa turkiy urug'lar qoraxoniylar nomi ostida kuchli feodal davlat tuzishga erishdilar. «Qora» so'zi qadimgi turkiy xalqlarda «buyuklik», «ulug'lik» ma'nosini anglatgan. Qoraxoniylar davlatining asoschisi Sotuq Abdulkarim (Bug'roxon), o'z davlatining markazi qilib Bolasog'un (Yettisuvda) shahrini tanlagan. Somoniylar davlati inqirozidan foydalangan Bug'roxon Movarounnahrda hujum uyushtirdi va 900-yillarning boshlarida Farg'ona, Isfijob (Sayram)ni, 992-yili Samarqandni egalladi va Buxoro sari yo'l oldi. Somoniylar hukmdori Nuh II qoraxoniylarga qarshi Balx hokimi, Turk lashkarboshisi Foiq boshchiligida qo'shin yubordi. Karmana yaqinidagi jangda somoniylar qo'shini yengildi. 992-yil may oyida Bug'roxon Buxoroni egalladi. Biroq kasalligi tufayli orqaga qaytdi va yo'lda vafot etdi. Bundan foydalangan Nuh II ning o'g'li Nasr Buxoro taxtini egalladi. 996-yili Nasr Bug'roxon boshliq qo'shinlar Buxoroni yana bosib olishdi. 1001-yili g'aznaviylar hukmdori Mahmud G'aznaviy bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra, Amudaryoning o'ng sohilidagi barcha hududlar qoraxoniylar qo'liga o'tdi. Shu tariqa Somoniylar davlati o'rnida 2 ta turkiy davlat Qoraxoniylar va G'aznaviylar davlatlari vujudga keldi.

XI asrning 40-yillarida Qoraxoniylar davlati ikkiga - g'arbiy va sharqiy qismlarga bo'linib ketdi. G'arbiy qismiga, asosan, Movarounnahr yerlariga kirib,

markazi Buxoro shahri, Sharqiy qismiga Qashg‘ar, Yettisuv, Farg‘onaning sharqiy qismi, Shosh, Isfijob va Talas yerlari kirib, markazi Bolasog‘un shahri bo‘lgan. Qoraxoniylar o‘zlari egallab olgan hududlarni kengaytirish maqsadida muntazam suratda g‘aznaviylar, saljuqiylar va qoraxitoylar bilan kurashlar olib bordilar. Bu kurashlar Qoraxoniylar davlatini kuchsizlantirib qo‘ydi. 1211-yili Xorazmshoh Aloiddin Muhammad Qoraxoniylar hukmronligiga barham berdi.

Qoraxoniylar davrida davlat boshqaruvi Somoniylarda bo‘lganidek, markazlashgan asosda emas, balki ko‘proq hududiy bo‘linish usulida boshqarilgan. Xonlar xoni Tamg‘achxon Qashg‘arda yashab, viloyatlarni idora qilishni mahalliy iloqxonlar ixtiyoriga topshirib qo‘ygan. Qoraxoniylar davrida Movarounnahr poytaxti Samarqand bo‘lib, uning Iloqxoni katta obro‘ga ega bo‘lgan. Shaharlar hokim, rais va muxtasiblar tomonidan boshqarilgan.


Qoraxoniylar davlati asosan, ko‘chmanchi qabilalardan tashkil topganligi tufayli, bu davrda dehqonchilikka unchalik e‘tibor berilmagan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Yusuf Xos Hojib Bolasog‘uniy o‘zining 1069-yilda yozilgan «Qutadg‘u bilig» («Saodatga eltuvchi bilim») asarida tamg‘achxonlarga nasihat tariqasida, jamiyatning asosiy kuchlari bo‘lgan dehqonlar, kosib-u — hunarmandlar, olim-u donolar va savdogarlar ko‘chmanchi chorvadorlarga nisbatan foydaliroqdir, degan fikrni bildirgan.

Qoraxoniylar hukmronligi davrida o‘troq dehqon aholisi o‘rtasida yer egaligi munosabatlarining rivojlanish jarayoni ancha tez sur‘atlar bilan borganligi, sun‘iy tabaqalanish kuchayganligi ko‘zga tashlanadi.

Aholining to‘rtta toifasi: boylar, o‘rtahollar, chig‘aylar (kambag‘allar), shuningdek, mulksizlar — **qora avom (budun)** aniq belgilar kasb etadi. Chorikorlar sifatida feodallar yerlarida ishlagan yersiz va kam yerli dehqonlar — **«akkarlar»** o‘troq dehqonlar ommasini tashkil etardi. Akkar yerni ijaraga olganda hosilning bir qismini davlatga, boshqa qismini yer egasiga berishi, qolganini o‘zi olishi kerak edi.

Qoraxoniylar davrida aholi dehqonchilik, hunarmandchilik chorvachilik, ovchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullangan. Ko‘chmanchi chorvadorlar

oilasidan chiqqan qoraxoniylar xonadoni a'zolari bilan mahalliy o'troq xalq orasidagi munosabatlar juda e'tiborlidir. Bu borada Yusuf Xos Hojib Bolasog'uniyning 1069-yilda yozgan «Qutadg'u bilig» («Qutga, ya'ni baxt-saodatga erishtiruvchi bilim») asari bizga juda ko'p muammolarni yechib beradi. Yusuf Xos Hojib Bolasog'un va Qashg'arda bo'ladi, xon saroylarida yashab, muhiti bilan tanishadi. Tamg'ach xonlardan biriga bag'ishlangan bu asarda u ijtimoiy hayotning o'troqlik va ko'chmanchilik tartibiga baho berishda hech ikkilanmasdan ijobiy fikr yuritadi. Yusuf Xos Hojib fikricha,feodal jamiyatning asosiy kuchlari bo'lgan dehqonlar, hunarmand-kosiblar, olim-u donolar va savdogarlar ko'chmanchi chorvadorlarga nisbatan jamiyat uchun foydaliroqdir. Shu munosabat bilan u o'zining didaktik asarida Tamg'achxonga murojaat qilib, ularga qanday munosabatda bo'lish kerakligini bildiradi.



Ibn Xavqalning Mavorounnahr xaritasi (Markazda Zarafshon daryosi va uning vodiysi tasvirlangan).²²

²² Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi (Qadimgi davrdan – XX asr boshlarigacha). – T., 1972. – 46-bet

Qoraxoniylar davlatida butun siyosiy tizim g'oyat ulkan yer fondi hisobidan yashagan. Bu yer fondi bir necha turlarga bo'lingan:

1. Sulton yerlari. Bu yerlar davlat xazinasiga tushadigan asosiy soliq tushumlari va iqto taqsimoti fondining manbayi hisoblangan. Qoraxoniylar davrida iqtoni meros qilib o'tkazish tez-tez uchrab turgan.

2. Vaqf yerlari, qoraxoniylar hukmronligi davrida islom dinining o'rni va ahamiyati oshdi, u davlat dini darajasiga ko'tarildi. Hatto olib boriladigan urushlar g'azovot shiori ostida uyushtirilgan. Ruhoniylar o'zlarining davlat oldidagi bu xizmatlari evaziga katta-katta yerlar va mulklar olar edilar. Bunday turli xildagi qo'zg'aluvchi va qo'zg'almas mulkni masjid va madrasalarga vasiyat qilib qoldirish tartibi keng tarqalgan. Bu vaqf yerlari deb atalardi.

Qoraxoniylar va saljuqiylar istilosi tufayli Movarounnahr va Eronga juda ko'plab ko'chmanchi turk qabilalari kelib joylashdilar. Ularning ko'pchiligi o'troqlasha boshladilar va o'troq mehnatga ko'chdilar. Ammo qoraxoniylarning qo'shin boshliqlari o'troq turmush sharoitiga o'tishni o'zlari uchun zarur deb topmadilar. Chunki, ularning juda ko'p poda mollari va yaylovlari bor edi. Ular iloqxonlarga zarur bo'lgan hollardagina shaharga tushar va xizmatni ado etardilar.

Qoraxoniylar hukmdorlar aholidan olinadigan iqto to'lovini olish uchun doimiy suratda shahar-qo'rg'onda bo'lishlari shart emas edi. Ko'chmanchi-iqtodori o'z ko'chmanchilik hayotini bemalol tinchgina davom ettirishi va o'ziga qarashli qishloq yoki qishloqlardan keladigan foydalarni yilning ma'lum bir muddatida o'z vaqtida olib turishi mumkin edi. Bunday to'lovlar bug'doy, paxta, uzum, quruq, meva, mato, pul shaklida bo'lardi. Ammo bundan XI asrda turklar hukmronligidan so'ng yirik shaxsiy yer egaligi tugatildi, deb o'ylamaslik lozim. Iqto faqat yer egalari daromad olishning asosiy shakli edi, xolos. Saljuqiylar iqtoni faqat turk harbiy boshliqlariga bergan, deb o'ylash ham xatodir. Iqtodori bo'lish har bir yirik zodagon yoki hokim tomonidan amalga oshirilishi mumkin edi.

Iqto o'zgarmas, qotib qolgan shakl bo'lmagan. Yer egaligining boshqa


shakllari evolyutsion o'zgarishni o'z boshlaridan kechirganliklari singari, iqto ham xuddi shunday evolyutsion o'zgarishni o'z boshidan kechirdi. Jumladan, iqto keyinchalik vaqtinchalik in'omdan muddatsiz in'omga, muddatsiz in'omdan merosga aylana bordi.

Shunday qilib, somoniylar, undan so'ng esa qoraxoniylar hukmronligi davrida feodal yer mulkchiligining eski shakli qoldiqlari bilan bir qatorda yer egaligining yangi shakllari ham paydo bo'ldi va tez rivojlandi. Bu yangi shakl jamiyatda hukmron mavqega ega bo'ldi.

4.4-§. Xorazmshohlar davrida yer va suv munosabatlari

Ibn al-Asirning yozishiga qaraganda, arablar Xorazmda o'z hukmronliklar 712-yilda keyinroq batamom o'rnatib bo'ldilar. Qutayba Xorazmdan qaytib kelgach, u yerda siyosiy tushkunlik boshlandi. Bundan foydalangan Qutayba Mug'ayra bin Abdullaga Xorazmni uzil-kesil zabt etishni topshiradi. Mug'ayra ko'p kishilarni qirib tashladi, ko'plarini asir oldi, qolganlari jizya to'lashga rozi bo'ldilar. Shundan keyin qariyb bir yarim asr davomida tarixiy va geografik adabiyotlarda Xorazm haqida hech qanday to'la-to'kis ma'lumot uchratmadik.

X asr boshlaridan boshlab, musulmon Sharqining hamma mamlakatlarida bo'lganidek, Xorazmdagi ahvol Arab va Eron geograflari Ibn Rustam, Al Istaxriy, Ibn Xovqal, Maqdisiyning asarlari hamda muallifi noma'lum «Hudud al Olam» va boshqa asarlarda yoritildi. Bu davrda Amudaryo etaklarining umumiy geografik bayoni, shaharlari, kanallari, madaniyati, turmushi va xalqlarning bayoni hamma vaqtdagiga nisbatan ham mukammalroq yozilgan. Lekin, Amudaryoning qanday oqqanligi haqida hamma mualliflar ham aniq ma'lumot beravermaganlar. Masalan, IX asr oxiri X asr boshlaridagi mualliflardan Ibn Xo'rdodbek, Yaqubiy va Ibn Faqihlar bu to'g'rida chalkash ma'lumotlar berganlar. Amudaryoning oqimi haqida eng ishonchli va mukammal ma'lumotni Ibn Rustam bergan. U bunday yozgan: "Keyin u (Jayxun daryosi) Zamm (Karki)ga qarab oqadi, bundan so'ng u Amul (Chorjo'y)ga, u yerdan Xorazm tomon oqib, uning poytaxti (Kat) yaqinidan o'tadi. Poytaxtdan o'tgach, undan o'ng va so'l tomonlarga kanallar va shaxobchalar ajralib chiqqan.



Xorazm vohasida X asrlardagi sun'iy sug'orish rivojlanishining xaritasi. Shartli belgilar: a – suv oqib turgan kanallar; б – Amudaryoning o'sha davrdagi o'zani; в – botqoq va toshqinlar; z – shaharlar.²³

Ana shu suv asosida Xorazm shahridan to'rt farsax quyiyoqda botqoqlik, chakalakzorlar va o'tloqlar paydo bo'lgan. Shundan so'ng daryo Xorazmdan to'g'ri chiqib Jurjoniya va Mazdaxqon o'rtalaridan o'tadi.

²³ G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. Qadimgi zamondan hozirgacha. -T., 1959. – 140-bet.

Jurjoniya undan g'arbda, Mazdahqon esa sharqda qoladi. Jurjoniya poytaxtdan 24 farsax quyida joylashgan. Mazdahqon yonida, daryoning sharqiy qirg'og'ida Xarvoz deyiladigan qishloq bor. Bu qishloqdan quyiroqda birin-ketin yana ikki qishloq mavjuddir.

Jayhun shu yerdan oqib o'tayotganda undan so'l tomon qarab shaxobchalar ajrab chiqadi. Daryo Jurjoniya to'rt farsax quyida joylashgan Varag'deh nomli joyga qarab yo'naladi. Varag'deh va Siyoko'h tog'lari yonidan o'tib Barabiz qishlog'iga oqib tushadi. Shundan pastroqda Holijon deb ataluvchi ko'pgina botqoqliklar paydo bo'lgan.

U yerlarda baliq ovlanib, ular Xorazmdan tashqariga chiqariladi. Uning o'zi (Jayxun) ko'lga quyiladi, ko'lning aylanasi 80 farsaxga yaqin. Uning g'arbiy qirg'og'ida — Siyoko'h tog'lari, sharqida bir-biriga chirmashib ketgan daraxtlardan iborat chakalakzor joylashgan. Bu yerdan na piyoda, na ot-aravada o'tib bo'ladi. U yerda so'qmoq, baland-past yo'l bo'lib, unda qobonlar bo'ladi. Sharqiy qirg'oqning shimoliy chegarasiga yo'nalgan (yo'l) orqali ham o'tib bo'ladi. «Yangi qishloq» deb ataluvchi qishloqning podshosi ham shu yo'ldan o'tadi". Biz Ibn Rustam ma'lumotidan X asr boshlarida Amudaryo qadimiy poytaxt yonidan o'tib, shimoli-sharqqa Ko'hna Urganch tomon oqqanligini ko'ramiz. Amudaryoning o'ng tomonidan ajrab chiquvchi shaxobcha, XX asr boshidagi Istamas ko'lga o'xshash chakalakzorli suv havzasi paydo qilib, Sulton Uvays tog'i tomon oqqan. Amudaryo bu yerdan hozirgi o'zanidan birmuncha g'arbroqda, Xo'jaylidan taxminan 20 kilometr g'arbroqqa oqqan.

Mazdahqon va Jurjoniya shaharlari Xorazm tarixida birinchi marta Ibn Rustam tomonidan tilga olingan. Mazdahqon Xo'jaylidan 8 kilometr janubi-g'arbga joylashgan. «Mazlumxon suluv»ning hozirgi xarobalariga, Jurjoniya esa, hozirgi Ko'hna Urganch bilan unga yondashgan qadimgi shahar o'rniga to'g'ri keladi.

Amudaryo shu shaharlar o'rtasidan o'tib, Ustyurt qirlarining janubi-sharqiy tomoniga yo'nalgan. Lekin Varag'deh qishlog'ining shunday (to'g'onqishloq) deb yuritilishiga qaraganda, shu yerda oqimning asosiy qismi to'g'on yordamida

o'ngga qarab burilgan, Ustyurtning sharqiy qirlari atrofidagi katta-katta pastliklar esa, uncha katta bo'lmagank shaxobcha (yoki shaxobchalar) bilan sug'orilgan.

V.V.Bartold Ibn Rustam qayd qilgan Holijonni Oybo'g'irda bo'lgan deb to'g'ri aytgan. Ibn Rustamning so'zlarini Varag'deh qishlog'idagi to'g'on suvning bir qismini Ustyurt qirlariga burish uchun xizmat qilgan deb tushunsa bo'ladi. Bu yerlar X asrda ham sug'orilgan va suv toshqinlari bo'lib turgan bo'lishi mumkin. Istaxriyning bu yerdagi ko'l butun qish bo'yi muzlab yotardi degan ma'lumoti ham, bu yerda Orol dengizi bilan qo'shilmagan katta suv havzasi bo'lganligidan dalolat beradi. Qadimiy Holijonning hozirgi Mo'ynoq rayoniga to'g'ri keluvchi shimoliy qismi shu kungacha ham baliq sanoatining yirik markazi bo'lib hisoblanadi.

Daryoning asosiy oqimiga kelganimizda, Ibn Rustam ta'kidlashicha, u Varag'deh qishlog'i yonidan o'tib, hozirgi Qo'ng'iroq shahridan anchagina shimolroqda Qushqanot tog'i va Qiziljar adrlari o'rtasida Orol dengizi tomon oqqan.

Istaxriy Xorazmning sug'orish tarmoqlari haqida yozar ekan, Xorazmning Amul (Chorjo'y) tomonidagi chegara punktini Tohiriya deb atalganligini aytib o'tadi. Jayxunning janub tomonida (so'l qirg'ogi) aholi yashagan, uning shimoliy (o'ng qirg'og'i) tomoni, G'arabxashna qishlog'igacha, bo'lgan yerlarda aholi yashamagan.

G'arabxashnadan 6 farsax yuqoriroqda Amudaryodan o'ng qirg'oq tomonida «Govxo'ra» deb atalgan katta kanal qazib chiqarilgan. Uning kengligi besh tirsakka yaqin bo'lib, chuqurligi ikki kishi bo'yiga to'g'ri kelgan.

Garchi tarixchilar Govxo'ra kanali katta uzunlikka (12 va undan ko'proq farsax) ega bo'lgan deb qayd qilib ketgan bo'lsalar-da, yuqorida ko'rsatilganidek uning kengligi tor bo'lganligi uchun kema qatnay olmaganligini ko'rsatadi. Govxo'ra kanalining boshidan 5 farsax quyiroqda Kerix yoki Kirya kanali ajrab chiqib, u o'ng qirg'oqning ba'zi bir rustoqlarini sug'organ.

Amudaryoning chap qirg'og'ida uning etaklarining oxirigacha daryo poymasi yotqiziqlaridagi aholi yashaydigan joylar (Darg'on, Jigarband, Sadvar va

boshqalar) uncha katta bo‘lmagan mahalliy kanallar orqali sug‘orilgan.

Xorazmning so‘l qirg‘og‘idagi joylar ko‘pgina qadimiy va qazilganiga uncha ko‘p bo‘lmagan kanallar bilan sug‘orib kelingan. Ular ichida eng janubiysi Hazorasp kanali bo‘lgan. Istaxriy uni Xorazmning Amul tomonidagi (janubda) eng birinchi kanal sifatida ko‘rsatib o‘tadi.

Istaxriyning aytishicha, Xazorasp kanalining kengligi Govxo‘ra kanali kengligining yarmiga to‘g‘ri kelgan. Hazorasp kanali shunday kichik bo‘lganligi sababli, Istaxriyning shu kanaldan kema qatnar edi degan gaplari haqiqatdan uzoqdadir. Hazorasp bilan Tuyamo‘yin oralig‘idagi joy toshloq bo‘lib kanal o‘tkazish uchun yaroqsiz bo‘lganligi tufayli, kanalning boshini Tuyamo‘yin darasi va Toshsaqo balandligining g‘arb tomonidan qidirmoq lozim.

Hazorasp ikki farsax naribroqda Hazorasp kanalidan kattaroq Kardaronxush kanali bo‘lgan. Kardaronxush shu nomdagi shahar yoki qal‘aga olib kelingan bo‘lsa kerak. Maqdisiyning aytishicha, Kardaronxos qal‘asi Hazoraspdan uch farsax g‘arbroqda, Hazorasp — Xivaning katta yo‘lida bo‘lgan.

Kardaronxosni biz Qal‘ajiqning xarobalariga o‘xshatamiz. X asr muarrixlaridan Istaxriy, Maqdisiy hamda «Hudud al Olam» qo‘lyozmasi muallifining yozishlariga qaraganda, Kardaronxos Xiva bilan Hazorasp o‘rtasida bo‘lgan. Hazoraspdan Kardaronxosgacha uch farsax, Xivagacha besh farsax bo‘lgan. Bu, uch punkt o‘rtasidagi masofaga qariyb to‘g‘ri keladi.

X asrda Hazorasp va Kardaronxos shahar bo‘lmay, darvozalari va xandag‘i bor qal‘a bo‘lgan. Bu yerda kotiblar yoki axborot beruvchilar yanglishgan bo‘lsalar kerak. Chunki bunday uzun kanalning kengligi 5 tirsak bo‘lishi mumkin emas. Uning chuqurligi ham ishonarli emas.

De Guye Kardaronxosni Abulg‘ozi yozgan Kardan o‘xshatish tarafdoridir. Munis-Ogahiy asarida Kardaronxos quyidagicha tushuntiriladi: «Hozir, bizning vaqtimizda Nukuz ko‘li deb yuritilayotgan Kardan hayot ko‘li Beshariq territoriyasiga joylashgandir». Bu, Qal‘ajiq, ya‘ni Kardaronxos harobalari qayd qilingan joyga to‘g‘ri, keladi.

X asrda ikkala kanal ham Hazorasp va Kardaronxos kanallari Dovdon

daryosining qadimiy boshlanish joyida bir-biridan mustaqil ravishda ajralib chiqqanligi haqiqatdan uzoq emas. Hozirgi vaqtda janubiy polosaning hammasi Polvonyop arig'idan chiqarilgan kanallar bilan sug'orilmoqda.

Istaxriyning yozishicha, Xiva kanali chap qirg'oqda uchinchi kanal bo'lib hisoblangan (uning nomi keltirilmagan). Bu kanal Kardaronxosga qaraganda kattaroq bo'lib, undan Xiva shaharigacha kemalar qatnagan. Xiva kanali Polvonyop (Paxlavon) deb atalgunga qadar qanday nom bilan yuritilganligi masalasi shu vaqtgacha hal qilinmay kelmoqda.

Abulg'ozixon urush harakatlarining borishini yoza turib, bir necha joyda Heykonik kanalini tilga oladi. Lekin bunda ba'zi bir noaniqliklar uchraydi. Uniingcha, Heykonikda Xonqa oldidagi Toshko'prik yonida Gandumkon qishlog'i bo'lganmish. Bu ma'lumot Heykonikni G'ozibod kanali deb bilgan V. V. Bartoldni yanglishtiradi.

Gandumkon qishlog'i haqiqatdan ham Xonqa yonida emas, Xiva shahridan 1-1,5 km shimoli-sharqda Heykonikda joylashgan edi. Toshko'prikka kelganimizda, bu joy Xonqa yonida G'ozibod va Polvonyop kanallari o'rtasida bo'lgan. Abulg'ozixon o'zining urush harakatlarida Xonqa shahriga suyangan, uning Orol dengizi bilan aloqasi esa Heykonik kanali orqali bo'lgan. Shuning uchun Toshko'prik Orol dengizidan (aniqrog'i kuyi deltadan) keladigan kemalarning to'xtaydigan asosiy lageri bo'lib xizmat qilgan. Shu bilan birga aytib o'tish kerakki, XIX asrdagi Xiva va rus mualliflarining yozishiga qaraganda, Heykonik (Polvonyop) va G'ozibod kanallari o'zaro suv shoxobchasi bilan birlashgan. Bu esa, quyi delta bilan bo'lgan aloqani yengillashtirgan.

Istaxriy chap qirg'oq Xorazmda oltita eng muhim kanal bo'lganligini qayd qiladi. Biz Istaxriyda yuqorida aytib o'tilgan uchta kanaldan tashqari yana to'rtinchi — Madra kanalini ham uchratamiz.

Uning yozishicha, bu kanal Govxo'ra kanalidan ikki barobar katta bo'lib, unda Madra qishlog'igacha kemalar yurgan. Madra kanali bilan Xiva kanali o'rtasidagi oraliq 2 km ga yaqin bo'lgan. O'zining joylashishi bo'yicha Madra kanali hozirgi G'ozibod kanaliga to'g'ri keladi.

G'ozyobod kanali bilan Xiva (Heykonik—Polvonyop) o'rtasidagi oraliq, X asrda deb ko'rsatilgan oraliqqa barobar keladi. Shu kanallarni Hazorasp — Ko'hna Urganch katta eski yo'l kesib o'tgan joyda ularning o'rtasidagi masofa anchagina qisqaradi. Lekin Madra qishlog'i Xorazmning mashhur, birmuncha muhim shaharlari qatorida qayd qilib o'tilmaydi.

1937-yilda Xonqa shahridan to'rt kilometrcha janubda, G'ozyobod kanalining janubiy qirg'og'ida eski katta Chorjo'y — Urganch yo'li o'tadigan ko'prik yonida joylashgan Madir nomli katta qishloqni tekshirildi. Madrda eskidan yashab kelgan kishilar, qishloqning g'arb tomonida eski katta mozar borligini va qadimda uning o'rnida «Chingizxon tomonidan vayron qilingan» Madir shahri bo'lganligini aytib, bu qadimiy shahar bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina afsonalarni so'zlab berdilar. Yuqorida aytib o'tilgan mozorda Qutluq Temurning vaqf hujjatida shayx Sulaymon Haddodiyning maqbarasi va xonaqosi saqlanib qolganligi ko'rsatilgan. Yangiariq-Polvonyopning janubiy tarmoqlaridan biridir. Demak, jang asosiy kanal bilan uning tarmog'i oralig'idagi uchburchak joyda bo'lgan. Bir qancha vaqt o'tgandan so'ng Madir qishlog'i yangi yerda (birmuncha sharqroqda) qad ko'tardi. Madra kanali bu nom bilan yuritilmay qo'ydi, har holda bu mo'g'ullar keltirgan vayronagarchiliklar bilan bog'liq bo'lsa kerak.

S.P.Tolstoy ham o'z asarlaridan birida qadimiy Madra kanalini G'ozyobod kanalidir deyish mumkin deb ta'kidlaydi. Lekin u Madra qishlog'i G'ozyobod kanalining oxiriga joylashgan Badirkent o'rnida bo'lgan deydi. Madra kanalidan kema qatnamagan.

Madra kanalidan nariroqda Amudaryodan kema qatnaydigan katta Vadok kanali chiqqan. Istaxriy fikricha, Vadok kanalidan Xorazm (Kat) shahrigacha ikki farsaxga yaqin bo'lgan. So'ngra Istaxriy, shahardan (Katdan) pastroqda Jurjoniya tomonda Buva nomli kanal (Amudaryodan ajrab chiqadi) deydi. Uning suvlari Andariston deyilgan qishloq chegarasida Vadok suvlari bilan qo'shilgan. Bu qishloq Jurjoniya tomon oqimning birmuncha quyirog'ida joylashgan.

Istaxriy fikricha, Vadok kanali Buvadan kattaroq bo'lgan. Ularning ikkalasida ham Jurjoniya dan bir galva nariroqda bo'lgan yergacha kemalar yurgan,

xuddi shu yerda to'g'on bo'lib, u kemanding suzishiga yo'l qo'ymagan.

Maqdisiyning aytishicha, shahar atrofini daryo (Amudaryo shaharga shunchalik yaqin bo'lgankim) suvlari bosar edi. Aholi uni boshqa tomonga burish uchun taxta va xodalardan (shu to'g'onni) o'ylab topdilarki, daryo sharq tomon oqa boshladi.

Shu to'g'onning quyishidan suv sug'orish uchun olinganligi sababli avval juda ham sayozlanib qolgan bo'lsa kerak. Vadok bilan Buva qo'shilgan joydan Jurjoniya gacha bo'lgan masofani Istaxriy bir manzilga tenglashtiradi.

Ularning quvvati Buva va Vadok kanallariga teng bo'lgan. Aytishlariga qaraganda, Jayxun ilgari ana shu yerdan (Kurdar o'zanidan) oqqan. Bu kanaldagi suvning oz-ko'pligi Jayxun suvining oz-ko'pligiga bog'liq bo'lgan. G'itning qarshisida, cho'lda, (daryodan) bir farsax shimolroqda Madminiya nomli shahar bor. U chap qirg'oqda Jayxundan to'rt farsax nariga joylashgan. Bunga Amudaryoning Kurdar oldida o'z oqimini o'zgartib, G'it va Madminiya o'rtalaridan o'tganligi sabab bo'lgan. Madminiya dan keyin aholi yashaydigan joylar uchramaydi. Mazdaxqon rustog'i Jayxun bilan Kurdar (kanali) o'rtasida joylashgan. Jurjoniya qarshisidagi Mazdaxqon shahridan Jayxungacha ikki farsax keladi. Kurdar bilan Kat (shahri) o'rtasidagi har bir qishloqqa Jayxundan kanal o'tkazilgan, so'ng Jayxun baliqchilar yashaydigan joyga Xorazm ko'ligacha yetib borgan. Bu yerda na qishloq, na imorat bor. Bu yer Xorazm deyiladi. Bu dengiz bo'yida, Holijon yaqinida g'uzlar yeri bor. Tinchlik vaqtida shu tomondan g'uzlar Barategin qishlog'iga boshqa tomondan Jurjoniya gacha keladilar, chunki bu ikki punkt ham chegara oldidadir. Jayxun daryosi quyiladigan yerdan Shosh Sirdaryoning shu ko'l (Orol dengizi) ga quyiladigan yerigacha bo'lgan masofa to'rt kunga (Ibn Xovqal hisobicha o'n kunlik yo'l) yaqin yo'lga barobar.

Vadok va Buva kanallarining yaratilish vaqtini yozishdan oldin, Qizilqum chegaralarigacha cho'zilib yotgan katta Xonobod rayonining arxeologik yodgorliklari ustida qisqacha to'xtab o'tamiz. Qadimgi shahar xarobasi Qo'rg'oncha (Qublandi)ni biz Amudaryoning sharqdagi xilvat tarmog'i bilan bog'laymiz. Bu tarmoq katta o'zilishlar bilan eramizning II-III va VI-VII asrlarida

oqqan. Quyi deltaning boshlanishi yaqinida ikkita shahar xarobasi bo'lgan: Ayvonqal'a va To'kqal'a. Bular ustida birinchi martaba A.Grebenkin yozgan. Uning yozishicha, bu shahar xarobalariga «To'k» va «Ayvon» nomlari deltada yashagan qoraqalpoqlar tomonidan keyinroq berilgan. «To'k» nomi, Dev tomonidan uyulgan va ustiga qal'a qurilgan sun'iy tepalik haqidagi afsona bilan bog'liq. «Ayvon» esa — shu qal'a pastlikka joylashishiga qaramay, uning baland devorlari suv toshqinlaridan saqlanganligi uchun shunday deyilgan.

Ayvonqal'a shahar xarobasi 1947-yil yozida tekshirilgan edi. Bu shahar ichki va tashqi rejasi bo'yicha Shobboz rayonidagi Tuproqqal'a shaharining xarobasiga juda ham o'xshab ketadi. Dastlabki dalillar ushbu shahar eramizning VI—IX asrlarida mavjud bo'lgan deyishga imkon beradi.

Nukusdan ancha janubroqda, Qipchoq shahridan 5—6 km shimolroqda, o'ng qirg'oqda Chilpiq nomli aylana shaklli qal'a qad ko'tarib turadi. O'z arxitekturasi va topilgan sopol bo'laklari bo'yicha bu qal'a eramizning V-VI asrlariga oiddir. Qisnoqda, daryo Sul-ton Uvays tog'i bilan Jumirtov o'rtasidagi daradan o'tadigan yerda, o'ng qirg'oqda eramizning II-III asrlarida surilgan muhim Govurqal'a bor. Bularning hammasi Amudaryoning hozirgi Gurlan kengligi quyisidagi asosiy o'zandagi oqim eramizning dastlabki yuz yilliklarida (eramizning IX asrigacha) ham mavjud, bo'lganligini ko'rsatadi. Shu yodgorliklar daryo oqimining o'zi bilan bog'liq bo'lganmi, yoki Kurdar kanali bilanmi-buni aytish qiyin.

Strategik jihatdan muhim bo'lgan bunday punktda Govurqal'aning vujudga kelishi, Baraqtom va Qo'rg'oncha rayonlarida aholi yashaydigan joylarning paydo bo'lishi bu yodgorliklar sun'iy kanalga nisbatan Amudaryoning o'z oqimi bilan ko'proq bog'liq bo'lganligini tasdiqlaydi. Chunki bu kanal atrofida, deltaning o'rta qismida ko'pgina aholi yashaydigan punktlar bo'lganligi uchun katta sun'iy kanal suvini Qo'rg'onchaga yetkazish mumkin bo'lmagan bo'lsa kerak. Aftidan Qo'rg'oncha va Baraqtom eng olisdagi punkt bo'lganligi sababli Amudaryoning sharqa tomon urib ketgan toshqin suvlari bilan sug'orilgandir.

Istaxriyning daryoning Kurdar shahri yaqinida o'z oqimini o'zgartirishi, Kurdarning Amudaryoning chekka o'zani bo'yicha oqqanligi haqidagi ma'lumoti

shu rayon tarixiy topografiyasining ko'rsatkichlariga juda to'g'ri keladi. Kurdar kanalidagi to'rtta saqo xorazmliklarning daryo o'pirilishi xavfini oldini olish yo'lidagi choralari bo'lgan bo'lsa kerak, agar kanalning saqosi bitta bo'lganda, daryo o'pirib ketishi mumkin edi. Arxeologik tekshirishlarning taxminiy va yuzaki bo'lishiga qaramay, yuqori deltaning sharqiy va shimoli-sharqiy qismlari ularning tarixiy topografiyasini aniqlashda bizga ma'lum materiallar beradi.

Xonobod territoriyasining hammasida, shu jumladan, uning sharqiy qismiga ham, IX asrdan boshlab sun'iy kanallar o'tkazilgan edi. Bu kanallarning qanday joylashganligini ortiqcha yozib o'tirilmasa ham bo'ladi, chunki XIX asrning o'rtalarida Xonobodda qazilgan kanallar-Shomurod, Sipohiyop va boshqalar asosan, o'sha IX-X asrlarda qurilgan kanallar yonidan o'tkazilgan. Bu eski kanallar o'tgan hamma yerda katta bo'lmagan tepaliklar, IX-XIII asrlardagi ayrim uylar va kichik qishloqlarning qoldiqlari uchraydi. Shuni ham qayd qilib ketish kerakki, Urganch xarobalari qarshisidagi, Daryoliqning chap qirg'og'idagi kattagina polosa o'sha vaqtlarda (IX-XIII asrlar) shu shaharning davomi bo'lgan. Bu joy o'n kilometrdan ortiqroq bo'lib, boshdan oxirigacha imoratlarning izlari, g'isht, sopol parchalari va hokazolar bilan qoplangan. Bu haddan tashqari katta xarobazorning ko'rinishi Yoqut Hamaviyning Urganch haqidagi quyidagi so'zlarini beixtiyor eslatadi. «Uning barcha viloyatlarida yurasanmi, yo bozorlarida yurasanmi-buning farqi yo'q. O'ylaymanki, Xorazm singari bepoyon va keng yer, shu singari aholisi ko'p yurt dunyoda bo'lmasa kerak...».

Qandumqal'a xarobalaridan 5-6 km shimolroqda Yetti Ovul nomli uncha katta bo'lmagan shahar vayronalari bor. Arxeologik materiallarga qaraganda, shaharcha IX-XIII asrlarda o'tgan bo'lib, u juda obod va aholisi ko'p bo'lgan. Kurdar kapali bilan sug'orilgan Mazdaxqon haqida gapirar ekanmiz, biz to'la ishonch bilan uning afrig'iylar yoki undan ham oldingi davr shahri ekanligini qayd qila olamiz. Shahar xarobalaridagi bir qancha alomatlar shaharning qadimiy ekanligini tasdiqlaydi.

Mazdaxqon daryo va uning quyiladigan yerlariga yaqin joylashganligi tufayli suvni, albatta, Kurdarning qadimiy (asosiy) o'zanidan, keyinchalik esa,

Kurdar kanalidan olgan. Yuqorida qayd qilib o‘tilgan Qutlug‘ Temurning 1349-yildagi vaqf hujjatida ko‘rsatilishicha, Mazdahkon sharqdan keladigan kanaldan suv olgan.

Gidrogeologik tekshirish ma’lumotlariga qaraganda, Xonobod va umuman Daryoliq atrofidagi rayonning madaniy irrigatsiya cho‘kindi loyqalari Dovdonning chap qirg‘og‘idagi rayonga qaraganda qariyb ikki marta, chap qirg‘og‘idagi loyqaga qaraganda bir yarim marta ham bo‘lgan.

Bundan oldingi bobda Dovdon kanalining o‘ng qirg‘og‘i g‘arbdagi Qandumqal’adan boshlab sharqdagi Xonqa shahrigacha bo‘lgan yerlarda aholi yashaganligi va, bu hol, III asrda qazilib, ba’zan ishlab, ba’zan yaroqsiz bo‘lib mo‘g‘ul istilosigacha yetib kelgan kanal tarixi bilan bog‘liq ekanligi qayd qilib o‘tilgan edi.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkin: Qandumqal’a kanali taxminan IX asrda butunlay qayta qurilgan. Uni kengaytirganlar va asosiy o‘zanni Gurganchgacha yetkazganlar. Istaxriyning Buva kanalining Katdan quyiroqda boshlanadi deb bergan ma’lumoti, Vadokning saqosi Buvaning saqosidan bir oz yuqoriroqda bo‘lganini ko‘rsatadi. Ibn Rustamning: “daryo shahardan o‘tgach, undan o‘ngga va chapga qarab kanal va shaxobchalar ajrab ketadi” degan so‘zlarini Kurdarning saqosi (o‘ng tomondan) va Buvaning saqosi (chap tomondan) haqida gapirgan deb tushunish kerak. Demak, Buvaning saqosi qayerdadir Yangi Urganchdan pastroqdagi rayonda bo‘lgan. Daryoliq va Dovdon o‘rtalaridagi rayonning arxeologik tadqiqotlar IX-XIII asrlarda Voyangon (Ambarmanoq) shahri rayonida sug‘orish inshootlari bo‘lganligidan darak beradi. Vadok kanalining kengaytirilishi va uning etaklarini Gurganchga yetkazilishi, aftidan, Voyangon hududidagi sug‘orish ishlarini tubdan o‘zgartirmagan bo‘lsa kerak, chunki Vadokning g‘arb shaxobchalari, ilgarigidan kamroq miqdorda bo‘lsa-da, avvalgidek madaniy polosani suv bilan ta’minlar edi. Shunday bo‘lsa-da Vadok suvlari, aftidan, Gurganchgacha zo‘r qiyinchilik bilan borib yetgan. Rayonning sug‘orishga bo‘lgan ehtiyojining o‘sa borishi Vadok kanalini kengaytirish zarurligini tug‘dirgan. Toshqin suvlariga ishonib bo‘lmas edi. chunki

biz yuqorida aytganimizdek, toshqin kanallarini juda ham ko‘paytirish katta havf-xatarliklar bilan bog‘liq bo‘lgan. Shuning uchun Buva kanalining qazilishi va Vadok bilan birlashtirilishi qonuniy bir hol bo‘lgan. Bu chora sug‘orishni ko‘paytirgan va ayni vaqtda suv bosish xavfidan saqlagan. U Xonobodda va umuman, Gurganch rayonida sug‘orish ishlarini rivojlantirishga ham yordam bergan bo‘lsa kerak. Istaxriyning so‘ziga ko‘ra, “Shu kanal orqali Gurganchga qarab suzgan kemalar shu shahardan taxminan 300 metr narida yog‘ochdan ishlangan to‘g‘onga kelib to‘xtaganlar”.

Maqdisiyning yozishicha: Buva kanali «Bosh shahardan (Katdan U pastroqda, asosiy o‘zan joylashgan tomon yo‘nalgan ikkala (kanalning) suvi Andariston qishlog‘i yonidagi yerda qo‘shiladi.

Unda Jurjoniya gacha kemalar qatnaydi, shundan keyin kanal to‘g‘on bilan to‘siladi... (Andariston) qishlog‘idan to‘g‘ongacha bir kunlik yo‘l Jurjoniya — Xuroson tomonidagi bosh shahar bo‘lib, undan Jayxun oqib o‘tadi, shuning uchun ham uning chekkalarini daryo yuvib o‘tadi. Aholi uni (Jayxunni) taxta va o‘tinlar bilan to‘sib qo‘yishga ancha uringanlar, shunda, u hayron qolarli darajada sharq tomonda yo‘lini o‘zgartirdi, uning suvlari cho‘lga, Barategin qishlog‘i tomon burilib, bir tomondan oqaboshladi. Ular suv ichish maqsadida shahar darvozalari oldiga kanallar qazib o‘tkazdilar, lekin shahar kichkina bo‘lganligi sababli (kanallar) shahargacha yetkazilmagan, u (shahar) esa, borgan sayin kengayib bormoqda.

Amudaryodagi shu to‘g‘on ustida Istaxriy juda ham aniq yozadi: «Ular (Gurganch aholisi) katta-katta yog‘och va shoxdan Jayxunga qarshi uylarini buzilishdan saqlab qoladigan to‘g‘on qurganlar. Aholi uni har yili yangilab, buzilgan joyini tuzatib turadilar».

Juvayniyning so‘ziga qaraganda, mo‘g‘ullar istilosi vaqtida shahar ichidan qandaydir kanal yoki daryo oqib o‘tib, uning ustida ko‘prik bo‘lgan. Haqiqatdan ham shunday bo‘lgan bo‘lsa kerak, chunki arxeologik tekshirishlarning ko‘rsatishicha, XII-XIII asrlarda Daryoliq o‘zanidan g‘arbda shahar joylashgan bo‘lib, uni biz Gurganchning yarmi deya olamiz. Shaharning har ikki bo‘lagining

ko'prik bilan bog'langanligi tabiiydir; lekin shu ko'prik bir vaqtning o'zida Amudaryoning kuchli oqimini to'sib turuvchi to'g'on ham bo'lganligi haqiqatdan ancha uzoq. Lekin biz shunday to'g'onning bo'lganligini ko'rsatuvchi ma'lum dalilga egamiz. Ibn al Asir bu haqda quyidagicha yozadi: «Mo'g'ullar (Tatarlar) Jayxunning suvlarini shahardan to'sib turuvchi to'g'onni buzib tashladilar, suv toshib, butun shaharni bosib ketdi».

Xo'jayli va Mankit o'rtasidagi yerning topografiyasi Ibn Rustam va Istaxriylar qoldirgan ma'lumotlarning to'g'riligini tasdiqlaydi. Amudaryo Ibn Rustam zamonida (903 yoki 913-yil) haqiqatdan ham hozirgi o'zaniga nisbatan g'arbroqdan oqqan bo'lsa kerak. Katdan quyiroqdagi rayonda (kartalardagi Shobboz yoki Shayx Abbos) biroz shimoli-g'arbroqqa burilgan, Qubatov yonida yalanglikdan, Daryoliq o'zaniga parallel bo'lgan ko'l va botqoqliklar sistemasi orqali, Amudaryoning eng oxirgi va hozirgi o'zanlari o'rtasidan oqqan. Daryo shu yo'nalishda Ko'hna Urganch va Mazdaxqon Xo'jaylidan 8 km g'arbda bo'lgan Mazlumxonsuluv tepaliklari o'rtasidan o'tgan. Ibn Rustamning yozishicha, daryo Amudaryo Mazdaxqonga nisbatan daryodan ikki farsax narida Gurganchga yaqin bir farsax uzoqlikda bo'lgan.

Biz yuqorida aytib o'tganimizdek, Istaxriy Vadok-Buva kanalidagi to'g'on haqida gapirgan. Maqdisiy bu to'g'onni tilga olib, Amudaryodagi to'g'on haqida ham so'zlaydi. Maqdisiyning so'zlarini Amudaryodagi shu to'g'onni o'z ko'zi bilan ko'rgan Yoqut Hamaviy ham tasdiqlaydi.

Bundan, Ibn Rustam (913 y.) bilan Istaxriylar (941 y.) o'z asarlarini yozgan vaqtdan Maqdisiy asaridagi sanagacha (985 y.) bo'lgan davr ichida qandaydir o'zgarishlar bo'lgan bo'lsa kerak degan faraz tug'ildi.

Bu o'zgarishlar quyidagicha bo'ldi, birinchidan, Vadok-Buva kanalining o'zani Amudaryo bilan qo'shilib shunchalik kengayib ketdiki hatto uning suvlari Gurganch territoriyasini bosib ketish xavfi tug'ildi.

Shundan qilib, Maqdisiy davriga kelib Amudaryo Vadok-Buva kanalining o'zaniga taxminan Lovzon shaxobchasining XI asrda urib ketgan joyida yo'l o'yib olgan, degan fikr biz uchun yagona to'g'ri xulosa bo'lib hisoblanadi. Bunday holda

Maqdisiy va Yoqut Hamaviyning yozganlari to'g'ri bo'lib chiqadi. X asrning so'nggi choragida daryoning o'zani, aftidan, g'arb tomonga surilgan bo'lsa kerak va uning oqimi shaharning ikki bo'lagi o'rtasidan yorib o'tish jarayonida bo'lgan bo'lsa kerak. Bu hol yangi — Daryoliq o'zanni hosil qilishdan darak berar edi va XIII asrda haqiqatdan ham shunday bo'ldi.

Kitobxonning fikrini shunga jalb qilamizki, daryo o'zanni shahardan chetlashtirilishi qandaydir sehrli narsa bo'lib ko'rindi va u Maqdisiyning hayratda qoldirdi. Uning bu so'zlarini daryo shaharni sharq tomonidan oqib, ilgorigidek Orol dengiziga quyilar edi, deb tushinish mumkin. Shu bilan birga, bir muhim o'zgarish bo'lib o'tdi. Daryo oqimi, aftidan, Vadok-Buva kanalining etaklari bilan qo'shib Gurganchga yaqinlashgan. Demak, Maqdisiyning Vadok va Buva kanallarining qo'shilishidagi to'g'on haqidagi so'zlarini, o'zidan oldin o'tgan Istaxriyning so'zlarini o'ylamasdan, to'g'ridan-to'g'ri qaytarilishi deb tushinish lozim. Bu ma'lumot yangi sharoitga to'g'ri kelmas edi.

Demak, Maqdisiy zamonida Yoqut Hamaviy zamonida bo'lganidek, Vadok-Buva kanallari birlashgandan keyin Amudaryo shularning o'zanidan oqqan va Gurganchning xuddi devorlari yonidan o'tgan. Bu fikrning to'g'riligini shaharning sharq tomonida bo'lgan yerning topografiyasi ham tasdiqlaydi.

Istaxriyning yozishicha, Xorazm vohasi shimol tomon torayib borib, Jurjoniya yonida uning kengligi taxminan ikki farsaxga teng (13—14 km bo'lib qoladi). Amudaryogacha bo'lgan masofaning 6—7 km ga cho'ziladi deyish mumkin. Demak, Gurganch o'sha vaqtda cho'l bilan bevosita chegaradosh bo'lgan.

Biz oldingi boblarda Govxo'ra kanali Paxtaarna o'ng qirg'og'ining hozirgi kanaliga asosan to'g'ri keladi, deb aytib o'tgan edik. Arab geograflari ayrim-ayrim punktlar o'rtasidagi masofa va ularning Govxo'ra bilan aloqalari haqida yozib qoldirganlar, bu ma'lumot kanallar va aholi punktlarining yerlarini aniqlashni ancha yengillashtiradi. Bosh shahar Xorazm (Kat) bilan Govxo'ra o'rtasidagi masofani (12 farsax), aftidan, V. V. Bartold o'ylaganidek, kenglik bo'yicha tushunilmasdan, kanalning boshidan Katgacha, ya'ni uning oqimi bo'yicha

hisoblash kerak. Bu Oqqamishdagi Paxtaarna boshidan Shayx Abbos qishlog'igacha bo'lgan masofaga juda to'g'ri keladi. Demak, G'aramxashna (yoki G'arabxashna) Govxo'ra kanalining boshidan olti farsax narida bo'lgan va u o'ng qirg'oqning dehqonchilik yerlari boshlanadigan joydagi Sho'raxon qishlog'iga to'g'ri keladi. Biz o'ng qirg'oq Xorazmning katta va ilk qadimiy kanali — Govxo'raning shaxobchalarga bo'linadigan yerida joylashgan antik qal'a Sho'raxonni G'aramxashna (G'arabxashna)ga o'xshatish uchun quyidagi asoslarga egamiz.

«G'aramxashna» yoki «G'arabxashna» nomini biz faqat Istaxriy asarlarida uchratamiz. Uning ma'lumotiga ko'ra, bu qishloq Govxo'ra kanali boshidan olti farsax uzoqda joylashgan. Maqdisiy Sho'raxonni ham xuddi shu yerda («Govxo'ra kanalining saqosidan olti farsax narida») joylashgan deb ko'rsatadi. Aftidan Istaxriy va Maqdisiyning asarlari chiqqunga qadar o'tgan davr ichida qishloqning nomi o'zgartirilgan bo'lsa kerak (balki Maqdisiy bu aholi yashaydigan punktning nomini aniqlab o'tgandir). Chunki Maqdisiydan boshlab hozirgi kungacha bu qishloq Sho'raxon nomi bilan yuritiladi.


Istaxriyning ko'rsatishicha, Govxo'ra kanali kanal saqosidan besh farsax quyiroqda, ya'ni G'aramxashna (Sho'raxon) dan bnr farsax yuqoriroqda shaxobchalarga bo'lingan, to'g'rirog'i shu yerda undan Girya kanali ajrab chiqqan.

V.V.Bartoldning taxmnniga ko'ra, Maqdisiyning o'zi Xorazmda bo'lgan. Biz shartli ravishda Bartold o'qiganidek qilib oldik. Govxo'ra kanali markaziy shahar (Kat) rustog'ini, Girya esa, boshqa rustoqlarni sug'organ.

Bundan, tekshirilayotgan davr, chapga qarab, poytaxt rayoniga qarab oqqan suv Govxo'ra kanaliing asosiy oqimi hisoblangan degan xulosa kelib chiqadi. Demak, Govxo'ra kanali Sho'raxondan quyiroqda va umuman Bo'zyopning hozirgi joyidan oqqan deyish mumkin. Bo'zyop Sho'raxondan yuqoriroqda Paxtaarna kanalidan ajrab chiqib, Shobboz (Shayx Abbos) rayoni tomon oqadi.

Maqdisiycha, bu yerda uzunligi 5 farsax bo'lgan faqatgina bitta Girya kanali ma'lum bo'lgan. Maqdisiyning ma'lumoti, albatta, kanalning bosh qismiga, uning ikkita bo'linib ketadigan yerigacha taalluqlidir. Istaxriy bilan Maqdisiy

ma'lumotlarini bir-biriga solishtirib ko'rib, ularning ichida Istaxriy qoldirganlari ancha to'g'riroq deyish mumkin.



Chingizxon istilosi oldidan (XIII asr) Xorazmning sug'orish tarmoqlari va gidrografiyasining xaritasi. *Shartli belgilar: a – suv oqib turgan kanallar; б – Amudaryoning o'sha davrdagi o'zani; в – botqoq va toshqinlar; г – shaharlar.*²⁴

²⁴ G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. Qadimgi zamondan hozirgacha. -T., 1959. – 168-bet.

Istaxriy ko'rgazmalariga asoslanib, Giryra (yoki Kirya) kanali Sho'raxondan quyida bo'lgan, u shimolga — Guldursun qal'asi tomoniga burilgan, bu yerdan esa Norinjon va Qavatqal'a shaharlarining xarobalari orqali Qizilqal'agacha borib yetgan kanalga to'g'ri keladi deyish mumkin. Giryra haqidagi ma'lumotlarning to'g'riligi yana, undan ajrab chiqib, hozirgi Kaltaminor kanaliga to'g'ri keluvchi va tor Kaltaminor rustog'ini tashkil qiluvchi kanalda o'rta asr boshlariga to'g'ri keluvchi bir qator yodgorliklarning mavjudligi bilan tasdiqlanadi. Giryra kanali nariroqqa o'tib, Guldursun, Norinjon va nihoyat Qavatqal'a atroflarida rustoqlar hosil qilgan. Burgutqal'a vohasida esa, X asrda sug'orish ishlari bo'lmagan.

X asrda va undan keyinroq ham Govxo'ra kanalining Amiroboddan o'ngga, Dumanqal'a xarobasigacha yetgan shaxobchasi birmuncha muntazam oqib turgan. Dumanqal'a va uning janubrog'idagi Noibqal'a atroflaridagi arxeologik yodgorliklar buning dalilidir.

X asrda Giryra kapali atrofida joylashgan qishloq va qal'alar orasida, ayniqsa Katta Guldursun xarobalaridan 7—8 km shimoli-g'arbda joylashgan Norinjon shahri xarobasi alohida ajralib turadi. Hozirgi vaqtda bu shahar xarobasi butunlay qum ostida qolib ketgan. U yerda aholi tomonidan ziyorat qilib turiladigan «Norinjonbobo»—XIX asr maqbarasi bor.

Arxeologik yodgorliklarga qarab hukm qilganda, Norinjon X asrda katta va aholisi zich bo'lgan. U ichki va tashqi paxsa devorlar bilan o'rab olingan. Lekin shunday bo'lsa ham, X asr yozma yodgorliklari Xorazmning aholi yashaydigan punktlari orasida mutlaqo tilga olinmaydi. Tekshiruvchilar uzoq vaqtgacha Norinjonni o'ng qirg'oqdagi aholi yashaydigan punktlardan biri bo'lsa kerak, deb hisoblab keldilar.

«Norinjonbobo» maqbarasida 1312-yil sanasi bilan va Norinjonbobo (Muhammad bin Muso bin Dovud Abu Abdulloh Norinjoniy) Norinjon qishlog'ining g'arb tomonidagi devor oldiga ko'milganligi yozib qo'yilgan.

Bu shahar xarobasi topografiyasini tekshirish shu ma'lumotning to'g'riligini tasdiqladi. Shahar chegarasidan chetda g'arbgacha tomon sopol siniqlari bilan qoplangan va ko'p miqdorda imorat poydevorlarining izlari bo'lgan juda katta va

axoli zich bo'lgan rabotning xarobasi joylashgan.

Ular orasida barxanlar zanjiri tagida ko'milib ketgan qadimgi kattagina kanalning o'zani ko'rinib turadi. Kanalning yo'nalishi uning Guldursun va Qavatqal'a rayoni bilan bog'liq bo'lganligi haqidagi bizning mulohazalarimizning to'g'riligini tasdiqlaydi.

Norinjon shahrining asosiy territoriyasi qumlar ostida qolib ketganligi sababli, XIV asrda bu rayon qaysi manba orqali suv bilan ta'minlanganligi aniq ma'lum emas, balki qandaydir irmoq yoki quduq manba sifatida xizmat qilgandir. Quduqlardan 1930 yillargacha foydalanib kelingan.

Shu kanalning etagidagi Tuproqqal'a rustog'i juda katta bo'lgan. Shaharning o'zi taxminan eramizning VI asrida ossuariylar qabrnstoniga aylanib ketgan. Shahar atrofida esa, hayot ancha uzoq davom etgan. X asrda u yerda katta istehkom qurilgan, uning atrofida aholisi zich joylashgan rayon vujudga kelgan. Arxeologik ma'lumotlar XI asr boshida bu yerlarning uzoq, vaqtgacha suv ostida qolib ketganligini va hayot to'xtab qolganligini ko'rsatadi. Suv bosish sabablari yaxshi aniqlanmagan. Istamas ko'l suvining urib ketishi natijasida suv bosgan bo'lsa kerak.

Xorazmning qadimgi geografiyasi asosan X asrda yoritilgan. Ibn Rusta ma'lumotlari faqat Amudaryoning oqimi va Kat, Jurjoniya (Gurganch) Mazdaxqon, Xarvoz va boshqa aholi yashaydigan punktlarga oid bo'lgan. Bu punktlarning nomlari ham daryoning asosiy oqimi yo'nalishi munosabati bilangina keltirilgan.

922-yilda Xorazm orqali o'tgan Ibn Fadlan davrida Xorazmning bosh shahari hali ham Kat edi va biz uning so'zlariga binoan Gurganchning nihoyatda gullaganligi va siyosiy ahamiyatga ega ekanligidan xulosa chiqara olamiz. Ibn Fadlanping Gurganchdan g'uzlar mamlakati va undan nariga o'tishda yurgan yo'li uning yozishiga qaraganda, Ustyurt qirlarining sharqiy tomonida, ya'ni Gurganchdan hozirgi Qo'ng'irotdan bo'ylab shimol tomonga qarab yo'nalgan. Qo'ng'irotdan so'ng shimoli-g'arbga burilgan. Bu yerda Ustyurt yassi tog'iga qarab chiqish uchun qulay balandlik bo'lgan. Bu, qadimiy mashhur Qoraumbat

yoʻlidir. Bu yoʻlda istehkom, rabot va boshqa yoʻl punktlarining xarobalari saqlanib qolgan.

Xorazm geografiyasi haqidagi maʼlumotlar koʻp jihatdan Xorazm hayotini har tomonlama yoritishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan Istaxriy va Maqdisiylarning asarlari bilan toʻldirilgan.

Istaxriy 941-yilda «Kitob al Masolik al mamolik» (Yoʻllar va mamlakatlar haqida kitob) nomli kitobini yozgan. Bunda u al Balxiyning unga qadar 20 yil ilgari yozilgan «Suvrat al Aqolim» (Oblastlar tasviri) kitobidan foydalangan. U kitobda keyingi oʻzgarishlarni nazarga olgan. Shuning uchun ham Xorazmning irrigatsiya tarmoqlari va qishloqlarining tasviri Istaxriyda ancha mukammal yoritilgan; ayniqsa irrigatsiya tarmoqlarining bayoni oʻsha davr uchun nihoyatda atrofli va mukammal boʻlgan. Maqdisiyning «Axsan at taqosim fi maʼrifat al Aqolim» (Mamlakatlarni oʻrganish uchun eng yaxshi taqsimot) nomli asari ancha keyinroq — 985-yilda yozilgan. Garchi u Xorazmning irrigatsiya tarmoqlarini bayon qilishda Istaxriydan keyinda tursa ham, lekin shaharlar, qishloqlar, ular oʻrtasidagi masofa, savdo, turmush va hokazolarni ancha mukammal yozadi. Har ikkala avtor ham, aftidan Xorazmda boʻlmagan boʻlsalar kerak, shuning uchun ham qanchalik sinchiklab sharxlanishiga qaramay, koʻp hollar, xususan, ayrim aholi yashaydigan punktlarning joylashishi, ular oʻrtasidagi masofa yetarli darajada aniq yoritilmagan, baʼzan esa butunlay xatodir.

Bu geograflarning yozishlariga koʻra Amudaryoning oʻng qirgʻogʻida Amul (Chorjoʻy) dan boshlab Shoʻraxonga qadar yirik aholi yashaydigan joylar boʻlmagan. Buxorodan kelgan serqatnov yoʻl ustidagi koʻpgina punktlar esa, mustahkamlangan rabotlar liniyasidan iborat boʻlgan. Buni arxeologik tekshirishlar ham tasdiqlaydi.

Arab geograflarining yozib qoldirgan maʼlumotlari va arxeologik tekshirishlar X asrda va undan keyin ham Amudaryoning chap qirgʻogʻi boʻylab, Tuyamoʻyinga qadar boʻlgan yoʻl eng serqatnov va yaxshi yoʻl deb hisoblangan.

X asrdagi geograflarning koʻrsatishlaricha, Xorazmning gʻarbiy chegaralari Tohiriya rabotidan boshlangan. V. V. Bartold bu rayoni katta boʻlmagan

«Ketmonchi» ko'shkining xarobalari o'rnida, «Doya xotin» raboti xarobalaridan 3-4 km shimoli-g'arbda deb ko'rsatadi. Ammo 1939-yilda arxeologik tekshirishlar natijasida Tohiriya, «Doya xotin» atrofidagi istehkomlar xarobalarining o'zginasida bo'lganligi aniqlandi. «Doya xotin» xarobalari kompleks qirg'oq bo'yidagi katta yo'lda kattakon mustahkamlangan rabotni tashkil qiladi. U dastavval eramizning VI—VII asrlarida paydo bo'lib, Doya xotin binosining o'zi esa, XI—XII asr monumental binolari turidandir.

Arxeologik tekshirishlarning ko'rsatishiga qaraganda, Tohiriya (Doya xotin) X asrda aholi yashaydigan obod punkt bo'lib, So'g'd va Buxorodan kelgan karvon o'tgan yerda, shuningdek, Xurosondan Xorazmga boruvchi yo'l ustida joylashgan.

Tohriyadan janubroqda hozirgi Qaboqli qishlog'iga to'g'ri keluvchi Nushkari raboti bo'lgan. O'tmishda, bu yerda xuddi XIX asrda bo'lganidek, yo'l ikki tomonga ayrilgan: biri to'g'ri Amulga qarab, ikkinchisi qum sahrosi ichiga chuqur kirib, Marv vohasiga chiqqan. XIX asr Xiva xronikalarida bu keyingi yo'l «Taxt yo'li» nomi bilan ma'lum bo'lgan.

Tohriyadan quyiroqda yirik aholi yashaydigan punkt va mustahkam istehkom—Darg'on bo'lgan. Uning xarobalari Darg'onota qishlog'idan 3 km janubroqda saqlanib qolgan. Darg'on kelib chiqishi bo'yicha u o'zining devorlaridan tashqari katta raboti bo'lgan katta istehkomlar turiga kiradi. Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda bu istehkom qurilishi eramizning VI asriga to'g'ri keladi. U mo'g'ul istilosiga qadar yashab keldi. Shu vaqt ichida u ko'p marta tuzatildi va qayta qurildi.

Darg'on ayniqsa IX—XIII asrlarda tez o'sdi. Magistral yo'l xuddi hozirgiday istehkom darvozalari yonginasidan o'tgan. Shahar xarobalari keng Darg'onota to'qay polosasidan ko'tarilib turuvchi adoq terrasasining chekkasidir. X asr arab geograflarining aytishicha, hozirgi to'qayzorlar o'rnida besh yuz tup tokka ega bo'lgan dehqonchilik yerlari bo'lgan.

Darg'on xarobalarining umumiy arxeologik ko'rinishi uning X asrda haqiqatdan ham Xorazmning katta shahari bo'lganligini tasdiqlaydi. Maqdisiy esa, uni yanglishib, Gurganchdan keyin ikkinchi shahar qatoriga kiritgan edi.

Shaharning rivojlanishi ko'p jihatdan uning serqatnov yo'llar tutashgan yerda joylashganligi bilan ifodalanadi. Darg'on, Buxoro, Amul va Marvdan Xorazmga boradigan yo'llarning muhim tuguniga aylangan edi.

Darg'ondan 44 km quyiyoqda adoq terrasasida Jigarband shahrining xarobalarini ko'ramiz. Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda, u eramizga qadar III—II asrda qurilgan ekan. Arab geograflarining yozishicha Jigarbanddan quyiyoqda bir kunlik yo'l (55 km) chamasida Sadvar qishlog'i joylashgan. Bartold bu qishloq shu nomdagi hozirgi qishloqqa to'g'ri keladi, deydi.

Eski Sadvar, Choshqal'a xarobalariga to'g'ri keladi. Bu xarobalar hozirgi qishloq yoniga joylashgan. Choshqal'a istehkomining saqlanib qolgan xarobalari o'ng qirg'oq rabotlari turiga kirsak kerak.

Choshqal'a ham XIII asrgacha yashab kelgan. Hozirgi vaqtda Sadvar rayoni Amudaryodan qazib chiqarilgan uncha katga bo'lmagan kanal orqali sug'oriladi. Bu kanal qadimgi, Choshsal'aga hayot baxsh etgan kanalning eski o'rnidan o'tsa kerak. Arab geograflari, aftidan faqat bosh kanallar, ayniqsa deltadan kanallar bilan qiziqqan bo'lsalar kerak.

Shuning uchun ular kichik kanallarni (Darg'on, Jigarband, Sadvar, Kaparos, Pitnak va hokazo yerlaridagi kanallar), tilga olmaydilar. Sadvar bilan Hazorasp o'rtasida Kaparos istehkomining xarobalari saqlanib qolgan bo'lib, u ham antik istehkomlardandir. Kaparos uncha katta bo'lmagan quruq o'zanning oxiriga joylashgan. Bu quruq, o'zan X-XIII asrlarda harakatda bo'lgan va vohani sug'organ qadimiy kichik kanalning izidir. Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda, xuddi shu davrda Kaparos istehkomi ham mavjud bo'lib, uning atrofida kichkina qishloq paydo bo'la boshlagan. Bu kichkina vohada hozirda ham hayot bor. Unda kolxoz dalalari joylashgan. Tarixiy adabiyotda Kaparos va uning rayoni mutlaqo ko'rsatilmagan. 1939-yilda Kaparos xarobalari S. Yershov tomonidan tekshirilgan. Yershov uning adashib, «Otaturk qal'a» deb atagan edi va uning qachon qurilganligini aytmagan edi.

Xiva, aftidan, o'z o'rnini hech qachon o'zgartmagan va X asrda kanal (Xeykonik, Polvonyop) oxiridagi «uncha katta bo'lmagan shahar»ni eslatgan. Bu

kanallardan xuddi Xivagacha kemalar qatnagan. «Xiva,—deb yozadi Maqdisiy, — sahro chegarasida bo‘lib, katta shahardir, undan daryodan chiquvchi kanal oqadi, obod jome machiti bor. Yeg‘och eshiklari va xandag‘i bo‘lgan Kardaronxos va Xazorasp ham xuddi shu shaharga o‘xshaydi».

Istaxriy Xivadan Gurganchga boradigan yo‘ldan tashqari Safardiz qishlog‘i orqali Katga boradigan boshqa yo‘lni ham qayd qilgan. Bu qishloq bilan Xeva o‘rtasidagi masofa 5 farsax, Katgacha esa farsax bo‘lgan. Bu yo‘l Abulg‘ozi (XVII asr) ko‘p marta tilga olgan yo‘lning o‘zidir. Ana shu yo‘l bilan Xonqa shahri orqali Xivadan Katga borganlar. Bu uch punkt o‘rtasidagi masofa haqida Istaxriy keltirgan raqamlar haqiqatga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun Safardizni Xonqa shahri o‘rnida bo‘lgan deyish mumkin. Xonqa aholisi o‘z shaharlari tarixi haqida ko‘pgina rivoyatlarni biladilar.

Maqdisiy yana Nukbog‘ atrofidan Amudaryodan chiqarilgan va cho‘lga ketgan kanal o‘tgan deydi. Bu kanal ahamiyatsiz, kichik kanal bo‘lsa kerak, chunki u haqda Maqdisiy ham va Istaxriy ham kanallar bobida gapirmaydilar. Maqdisiy tomonidan vohaning o‘z ichidagi daryoning o‘ng qirg‘og‘idagi ikkinchi va uchinchi yo‘llar haqida keltirilgan ma‘lumotlar bizningcha juda yaxshi tushunarli emas. U aholi yashagan punktlarning nomi va ular o‘rtasidagi masofani keltiradi.

Shu yo‘llardan biri har holda, Kurdar kanalining o‘ng tomonidan, boshqasi sharqroqdan, ya‘ni Norinjon—Qavatqal’a orqali va undan nariroqqa, Sho‘raxonning yonidan o‘tib, Sulton Uvays tog‘i sharq tomoniga yo‘nalgan bo‘lsa kerak. Endi, Amudaryoning quyi deltasini sharhlashga o‘tamiz. Maqdisiyning Kurdar haqida yuqorida keltirilgan ma‘lumotlari, bu o‘zanni daryoning eski o‘zanidan o‘tkazilgan sun‘iy kanal deyishga asos beradi.

Quyi deltada aholi yashagan punktlar o‘rtasidagi masofalarni Maqdisiy quyidagicha belgilaydi: Mazdaxqondan Darsongacha 2 barid (4 farsax), u yerdan Kurdargacha — 1 manzil, undan Juvakingacha—2 barid, so‘ng Barategingacha—1 manzil, Barategindan dengiz qirg‘og‘igacha — 1 manzil. Agar qadimiy Kurdar shahrini taxminan hozirgi — Chimboy o‘rnida bo‘lgan desak, u vaqtda Darson To‘q qal‘asi xarobaga to‘g‘ri keladi deyish mumkin. Juvakinning o‘rni

noma'lumligicha qoladi. Hozirgi Chimboy shahri Kegayli kanalining har ikki tomoniga joylashgan va quyi del'ta sharqiy qismining yirik savdo-hunarmandchilik markazi bo'lgan. Hamma eski va yangi yo'llar shu yerda tutashadi. Kegayli kapali Quvonishjorma boshidan 25 km pastroqdan boshlanadi.

Kanal atrofida del'ta aholisining yarmi yashab, Amudaryoning quyi del'tasi uchun uning iqtisodiy ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan. U, dastavval, deltani sug'oradi. Chimboy shahrini vohaning janubiy qismi bilan bog'lab transport magistrali bo'lib hisoblanadi. Qadimiy Kurdar kapali hozirgi Kegayli kanaliga asosan to'g'ra keladi. Bu, uning obodligi va uning sigemasining yaxshi ishlab chiqilganligini tasdiqlaydi. Boshlanishidan to Chimboy shahrigacha undan 350 km yaqin sun'iy sug'orish kanallari o'tkazilgan, shu jumladan, Kegaylining o'ng qirg'og'idan — 175 ga yaqin, va chap qirg'og'idan — 125 ga yaqin ariq qazilgan.

Bularning hammasi bizga nihoyatda qadimiy shahar Chimboyni qadimiy Kurdar shahrining o'zidir deyishga imkon beradi. Kurdarda hayot deltada o'troq dehqonchilik keng rivoj topganda va atrofdagi ko'chmanchi chorvador aholisi hamda xonlikning ichki oblastlari bilan tovar ayriboshlash imkoniyati tug'ilganda boshlangan. Bundan ancha ilgari Kurdar shoxobchasining etaklarida oqim vaqti-vaqti bilan o'z yo'lini o'zgartirib turgan. Goh Ko'ko'zak o'zani (Quvonshjorma) bo'ylab, goh hozirgi Kegayli bo'ylab va, nihoyat, Cho'rtanboy o'zani bo'ylab oqqan. Istaxriy daryo ilgari Kurdar o'zanidan oqqan deydi. Demak, Ayvonqal'aning bo'shab qolishiga, asosiy o'zannng Kurdardan Gurganch bilan Mazdahqon o'rtasiga ko'chishi sababchi bo'lgan. Ayvonqal'ada topilgan arxeologik yodgorliklar u yerda hayot IX asrda to'xtab qolganligidan darak beradi. Istaxriy va Maqdisiy ma'lumotlarida quyi del'taning yuqorida nomlari ko'rsatilgan aholi punktlari ketma-ket Kurdardan g'arb va shimoli-g'arb tomonda joylashgan. Ikkala geografla ham, Juvayniydan tashqari, bu punktlar haqida ba'zi bir umumiy ma'lumotlar bor. «Barategin qishlog'i, — deydi Maqdisiy, — kattadir, u tog' yonidagi cho'lda joylashgan, tog'dan tosh tashiydilar. U yerda obod bozor va jome machiti bor. Imoratlar yaxshi pishitilgan loydan yasalgan».

X asrning boshlarida Ismoil Somoniy Xuroson noibining ruxsati bilan

Xorazmni o'z hukmronligiga qo'shib oldi. Ammo xorazmshohlar sulolasi Xorazmning o'ng qirg'og'ida qadimgidek hukmronlik qila berdi. Somoniy noiblari esa, Gurganchda rezidensiyaga ega bo'lib, faqat Xorazmning chap qirg'og'ini idora qildilar. Gurganchning iqtisodiy va siyosiy quvvati tobora kuchaya bordi. Xorazmning har ikkala hokimi o'rtasidagi uzoq davom etgan kurash Gurganch hokimining 995-yilda Kat shahrini egallashi va uning eng oxirgi afrig'iy xorazmshohi Abu Abdullohning qatl qilinishi bilan tugadi.

Gurganch butun Xorazmning markazi bo'lib qoldi. Bu somoniylar noibi Ma'mun davrida bo'lib o'tdi, Ma'mun somoniylarga nomigagina qaram edi. Somoninlar bu davrda o'z hokimiyatining so'ngi yillarida yashamoqda edilar. Xuroson yangi sulola—g'aznaviylar qo'liga, Movarounnahr va somoniylarning sharqiy yerlari borgan sari yangi istilochilar — qoraxoniylarning hukmronligiga o'tib bormoqda edi. Ma'munning o'g'li Ali (907—1004 yillar) va uning ukasi Ma'mun o'g'li Ma'mun (1004—1017 yillar) Xorazmni mustaqil idora qila oladigan bo'lib qolgan edilar. Bu davrda butun Ustyurt qirlarida ko'chmanchi g'ozlar chegarasi boshlangan yerlarda chegara qal'alari qurildi. Bular atrofida. o'z navbatida anchagina savdo-hunar qishloqlari vujudga keladi. Ustyurt bo'ylab yo'nalgan sahro yo'llari qator quduqlar, Beleuli tipidagi karvon saroylar bilan ta'minlangan edi. Ko'chmanchi chorvadorlar — g'uzlar va bijanaklar bu karvon savdosiga muhtoj edilar, ular o'zlariga zarur bo'lgan mollarga ko'chmanchi xo'jalik mahsulotlari va yuk tashuvchi hayvonlarni olmashtirganlar. Bu savdoga qudratli Xorazm davlati ham yo'l qo'ygan, bu davlat iqtisodiy jihatdan manfaatdor bo'lish bilan bir qatorda, voha va sahro o'rtasida tinchlik munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilishiga erishgan. Bu narsa hamma vaqt muvaffaqiyatli chiqa bermagan, albatta. Yarim ko'chmanchi qabilalar va ularning ittifoqlari vayronagarchilik keltiruvchi hujumlarni tez-tez uyushtirib turganlar. Ayniqsa chegaraoldi rustoqlar ko'p zarar ko'rgan. Ustyurt qal'asi chegaralarining vayronalari va arab geograflarining bergan ma'lumotlari o'troq voha va ko'chmanchi sahro o'rtasidagi jiddiy o'zaro qarama-qarshilikni yetarli darajala tasvirlab beradi.

Gurganch Ma'mun II davrida Sharq mamlakatlari o'rtasida eng yirik

markazlardan biriga aylandi. Unda savdo, hunarmandchilik, san'at va fan mujassam bo'lgan edi. Hokimning saroyi O'rta Osiyoning buyuk olimlari — Ibn Sino, Beruniy, Forobiylarning ilmiy markazi bo'lib qoldi, ma'lumki, bu narsa bo'lajak hokim Mahmud G'aznaviyning yomon ko'z bilan qarashiga olib keldi. Ma'munning Xorazm mustaqilligini saqlab qolish uchun qilgan urushlari befoyda bo'lib chiqdi va Xorazm tez orada g'aznaviy sultonlari hukmronligi ostiga tushib qoldi. Ichki nizo boshlandi. G'aznaviylik, ulardan keyin saljuqiylar davrida Xorazm qaram holda edi. XII asrning oxirida Xorazm shohn Otsiz saljuqiylar sulton Sanjar bilan uzoq davom etgan kurashdan so'ng Xorazmning to'la mustaqilligiga erishdi. Ammo xorazmshohlarning bu mustaqilligi bu safar ham uzoqqa cho'zilmadi. XII asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Turkistonda qoraxoniylar va saljuqiylar qoraxitoylarga bo'ysinishga majbur bo'ldilar. Xorazm garchi ular tomonidan zabt etilmagan bo'lsa-da, ammo ularning xirojxonasiga aylandi. Bu Xorazmning saljuqiylarga qarshi kurashishda epchil taktik yo'l edi.

Xorazm shohi Tekesh (1172—1200 yillar) o'z davlatining harbiy qudratini mustahkamlab olib, qoraxoniylarga boj to'lashdan bosh tortdi va ularni O'rta Osiyodan surib chiqarishga harakat qildi. XII asrning oxirida xorazmshohlar davlati Sirdaryodan tortib, Eronning ichki oblastlarigacha cho'zilgan edi. mo'g'ullar istilosi davriga kelib esa, xorazmshohlar davlati musulmon Sharqida eng qudratli davlatlardan biri bo'lib qoldi. Xorazm XII asrning oxiri, XIII asr boshlarida shunday qudratga ega bo'ldiki, u o'zining butun tarixida bunday kuchga ega bo'la olmagan edi.

X asrdan keyin vohaning irrigatsiya tarmog'i kengaymadi. Vohaning irrigatsiya sistemasi mavjud bo'lgan chap qirg'oq qismida bir oz jonlanish bo'ldi. tarixchilar eski shaharlarning o'sishini va yangi shaharlarni yuzaga kelishini qayd qilib o'tdilar. Arxeologik tekshirishlar bu davrga mansub bo'lgan fortifikatsiya usullaridagi o'zgarishni aniqlash imkonini beradi. Bu yangi texnikaning namunasi sifatida Hazorasp va ayniqsa, Darg'on qal'alarini ko'rsatish mumkin.

Tekeshdan boshlab, «buyuk xorazmshohlar» hukmronlik qilgan lavrda Chirmonyopda ham madaniy hayot tiklandi. Shohsanam, Govurqal'a, Devqal'a,

Qal'aliqir kabi qadimiy shahar va qal'alar yana qaytadan jonlanib ketdi. Bularning hammasi, dastlab, Chirmonyopning yangidan suv bilan ta'minlanganligidan dalolat beradi.

Xorazmning Xuroson va shu kabi g'arbiy oblastlar bilan bo'lgan qizg'in siyosiy va iqtisodiy aloqalari «Shahriston» yo'lida ham jonlanishni vujudga keltirdi, bu narsa Chirmonyopga suv chiqarishda asosiy sabablardan biri bo'ldi. Suvning va aholi yashaydigan punktlarning mavjudligi savdo karvonlarining, shuningdek, harbiy qo'shnlarning ko'chib yurishi uchun qulaylik tug'dirdi. Xorazmning Shahriston» yo'lidagi istehkomi o'sha davrda Chirmonyopning janubi-g'arbi bo'ylab Devqal'agacha cho'zilgan edi. So'ngra bu yo'ldan yuruvchilar quduqlarlardan foydalanganlar.

XII—XIII asrlarda Chirmonyopga suv chiqarish usullari haqidagi masala haligacha tekshirilmagan. Gurganch o'sha davrda buyuk davlat va jonlangan tranzit savdoning muhim markazi sifatida juda taraqqiy etdi. Yoqut Hamaviyning so'zlariga ko'ra, Jurjoniya Jayxunning sharqiy qirg'og'idagi katta shahardir, bu shaharni Xorazm aholisi Gurganch (arabchasi Jurjoniya) deb ataydi. O'tmishda Xorazmning bosh shahrini Fil so'ngra Mansura deb yuritilgan. Uni daryo xarobaga aylantirgan va u yerda yashovchi aholi Amudaryoning g'arbiy qismidagi Mansuraga nisbatan uncha katta bo'lmagan Gurganch shahriga ko'chib o'tgan. Mansura butunlay xarobaga aylanib ketgan, undan asar ham qolmagan, Jurjoniya esa katta shaharga aylangan. «Men uni 616 (1219)-yilda tatarlar zabt etmasdan va vayronaga aylanmasdan ilgari ko'rganman»,— deb yozadi Yoqut Hamaviy Hamaviy. «Men umrimda bu shaharga o'xshash katta boylikka va husnga ega bo'lgan yaxshiroq shaharni ko'rmaganman. U tatarlar tomonidan vayronaga aylantirilgandan so'ng, uning shunday bo'lib qolganligiga ishonmaydi kishi, chunki mengacha yetib kelgan (ma'lumotlarga) qaraganda, u shahardan asar ham qolmaganligi haqida gapiriladi va u yerda yashagan aholining barchasi qatl qilingan. Bitmas-tuganmas boyliklari va poytaxtining kengligi, aholisi sonining juda ko'pligi va yaxshiligi bilan Xorazmning bosh shahariga o'xshagan shahar bo'lmagan bo'lsa kerak deb o'ylayman...».

Istaxriyning guvohlik berishiga ko'ra, X asrda Xorazmning chap qirg'oq vohasi Gurganchning g'arbidan faqat 6—7 km. masofaga joylashgan. Arxeologik materiallar bu yozma manba ma'lumotlarini tasdiqlaydi va o'z navbatida, Qoon kanali XII asrdan ilgari qurilmagan deb tasdiqlashga yordam beradi. Keyingi arxeologik tekshirishlar bu o'rta asr kanal vohasining o'tmish tarixini yoritish uchun zarur bo'lgan materiallar beradi.

Gurganchga borgan Yoqut Hamaviy Amudaryoning quyi deltasida bo'lmagan bo'lsa kerak, chunki u bu oblastdagi bir qancha aholi yashaydigan punktlar va shaharlar haqida hech narsa aytmaydi. U X asrda Istaxriy, Maqdisiy va Ibn Fadlanlar qayd qilib o'tgan bir xil nomda ataladigan kanalda Kurdar shahari bo'lganligini bilmaydi. Yoqut Hamaviy Kardar (Kurdar) shahrini Xorazmdagi biror joy (oblast) ning nomigina deb ko'rsatadi. Uning Kurdar aholisi tili haqida bergan ma'lumoti: Ibn Fadlan bu xalqning X asrdayoq shu yerda yashaganligini aniq ko'rsatsa-da, Beruniy va Yoqut Hamaviyning bergan ma'lumotlarini taqqoslab, Yoqut Hamaviy ham turkman qabilalari Amudaryo etagidan Amudaryo quyi deltasiga yoyilganlar demoqchi, deb faraz qilish mumkin. Kurdar aholisining tili, aftidan, Xorazm va turk tilining birikmasidan iborat bo'lgan bo'lsa kerak.

Xorazmning madaniy va iqtisodiy ahvoli Yoqut Hamaviy sayohat qilgan davrda (1219-1220 yillar) juda yuqori darajada bo'lgan. Arxeologik ma'lumotlar, bu davrda Xorazmning chap qirg'og'idagi yerlar to Orol dengiziga qadar o'zlashtirilgan deb ko'rsatishga imkon beradi. Amudaryoning o'ng qirg'og'i ham Xorazmning iqtisodiy jihatdan gullab-yashnagan manzarasini ko'rsatadi.

Amudaryoning Tuyamo'yingacha bo'lgan barcha qirg'og'i qadim davrlarda bo'lganidek, daryo bo'sag'alarini himoya qiluvchi strategik punktlarga mo'ljallangan mustahkam qal'alar bilan o'ralgan, shuningdek Buxoro vohasidan Amudaryoga olib boruvchi karvon yo'llarini himoya qilgan. Ular ichida Nargiz, Oqrabot, Qizqal'a, Toshqal'a, Meshikli va boshqalar alohida diqqatga sazovordir.

Amudaryodan 2 km naridagi baland adrning ustiga joylashgan chap qirg'oqdagi Qizqal'a alohida diqqatga sazovordir. Adrning eng yuqori qismi butunlayicha mudofaa maqsadida foydala jilgani uchun qal'a juda mustahkam

bo'lgan. Qal'aga janubdan tor qiya yo'laksimon pastlik o'tgan, aftidan bu o'sha vaqtda pandus bo'lib xizmat qilgan. Bu pandus qo'rg'onning xuddi oldida gips qorishmasidan qurilgan labirint bilan tamom bo'ladi.

Adrning barcha maydoni tosh parchalari aralastirib loy bilan ishlangan devor bilan o'ralgan. Devor bo'ylab qal'a garnizoni uchun turarjoylar qurilgan. Sharqiy qismida shunday toshlardan qurilgan katta binoning devorlari saqlanib qolgan, aftidan, bu joy qo'mondonlik sostavi uchun mo'ljallangan bo'lsa kerak. Binoning markazida suv saqlash uchun aylana shaklidagi hovuz bo'lgan.

Qal'aning g'arbiy qismida qalin qoyasimon grunda 5 ta aylana va oval shaklidagi hovuz qazilgan. Ularning ba'zilar pishiq g'isht bilan qoplangan va gips bilan suvalgan. Hovuzlarning diametri o'rta hisob bilan 4-4,5 m. Ular O'rta Osiyoning bir qancha punktlarida oqlanib qolgan sahro sardobalariga o'xshash bo'lib, gumbazlar bilan qoplangan bo'lsa kerak.

Qal'aning g'arb tomon devorlari sirdan yarim aylana shaklidagi uchta burch bilan mustahkamlangan. Qal'aning janubi – g'arbiy burchagida joylashgan bu burchlardan birining ichida tevarak-atrofi ttishiq g'isht bilan o'ralgan quduq bo'lgan. Quduqning devori katta charm qovg'a bilan suv olinishi natijasida surkala berib, silliq bo'lib ketgan, qal'a axrlisi quduqdan suv olib ichgan. Quduq Qizqal'a balandligining asosigacha yetib borgan va unga yer ostidan suv oqadigan maxsus yo'l o'tkazilgan.

Qizqal'adan 2 km yiroqda Amudaryo qirg'og'ida uncha katta bo'lmatan yigitqal'aning xarobalari joylashgan, bu ham toshdan qurilgan. Uning ham ichki devorlari bo'ylab uncha katta bo'lmagan garnizon uchun turarjoy qurilgan.

Suv o'tkazilgan yo'lning umumiy yo'nalishiga qarab hukm qilganda, Yigitqal'a suv tuplashda bu yashirin yer osti kanalining yordamchi, asosan olganda himoya qiluvchi punkti bo'lib xizmat qilgan. Bundan tashqari, har ikkala qal'aning o'rtasida to'g'ri yo'l bo'ylab har biri 300—350 m masofada uncha katta bo'lmagan do'nglar, yer osti suv yo'llariga mansub bo'lgan qandaydir inshootlarning qoldiqlari saqlanib qolgan. Xuddi shu yerning o'zida diametri 50—60 sm bo'lgan sopol suv quvurlarining bo'laklari qolgan. Bu do'nglar suv quvurlarini

tozalaydigan joy bo'lgan bo'lsa kerak. Yor osti suv yo'llarining suv bilan ta'minlash sistemasini koriz sistemi bilan aralashtirib yubormaslik lozim.

Bu yer osti suv yo'lida yer ustidan o'tkaziladigan kanallardagi singari suv o'z tabiiy kuchi bilan quvurlar orqali quduqlarga kelib tushgan, bu quduqlardan aholi chelaklarda yuqoriga suv tortib olgan va hovuzlarda saqlagan. Barcha arxeologik ma'lumotlarga qaraganda, Qizqal'a va Yigitqal'a faqat XII asrning o'rtalaridan boshlab XIII asrning boshlarigacha yashlab kelgan. Mo'g'ullar istilosidan so'ng bu qal'alarda hayot tugagan.

Govxo'ra kanali vohasidagi dehqonchilik qilinadigan yerlar qadimgidek Sho'rxon shahri rayonidan boshlangan. Bozorqal'a va Qirqqvz kabi qadimiy kanallar qayta tiklanmagan. Qirqqiz kanalining suvi XII—XIII asrlarda Bozorqal'a (hozir Kaltaminor) orqali oqib o'tib, qadimgi Irissal'aning xarobalarigacha borib o'tgan. Shunday ahvol Kaltaminor vohasida hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

Bu davrda Govxo'raning asosiy oqimi va uning Kerix yoki Giryra deb ataluvchi shoxobchalarida ancha jonlanish bo'lgan. Anchadan buyon bo'sh yotgan qadimiy Ulu Guldursun qal'asi qaytadan ishga tushirilgan. Bu davrda Ulu Guldursundan 1,5 km janubi-g'arbiy tomonda Kichik Guldursun deb ataluvchi katta ko'shk va bir qancha qo'rg'onlar» bunyodga kelgan, bular Guldursun rayonini sug'orish tarmog'ining bir oz kengayganidan dalolat beradi. Kerix (Giryra) kanalining vohasi Qavatqal'a rayonlari bilan chegaralangan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Dehqonchilik vohalarining suv ta'minotini yaxshilash uchun Tohiriylar sulolasi hukmdorlari amalga oshirgan ishlar haqida so'zlab bering.
2. Abul Abbas Abdullohning topshirig'i bilan Xurosonning bilimdon fiqhshunoslari tomonidan ishlab chiqilgan hujjatda dehqonchilikda suv manbalaridan foydalanish tartiblari, suv taqsimoti va uning qonun-qoidalari haqida nimalar ko'rsatib o'tilgan?
3. Somoniylar davrida nima sababdan dehqonchilikka alohida e'tibor qaratilgan?
4. Somoniylar davrida yer egaligining qanday shakllari mavjud bo'lgan?

5. IX-X asrlarda katta yer agalarining yerlarida yollanib ishlovchilar nima deb atalgan hamda ularning yetishtirilgan hosildan ulushi qanday bo'lgan?
6. Somoniylar savrida yer-mulk iqto tarzida kimlarga in'om qilingan?
7. Ushbu davrda qanday yerlardan ushr solig'i olingan?
8. XI- XII asrlarda Movarounnahrda va Xurosonda yer egalikning qanday shakli kengayib, mulkchilikning asosiy shakllaridan biriga aylanadi.
9. Qoraxoniniylar davrida chorikorlar sifatida katta yer egalarining yerlarida yollanib ishlagan yersiz va kam yerli dehqonlar nima deb ataladi?
10. XI-XII asrga kelib "dehqon" tushunchasini ilk o'rta asrlardagidek, "qishloq hokimi" degan asl ma'nosini yo'qotishiga nima sabab bo'lgan?
11. Ma'lumki, Qoraxoniylar davlatida butun siyosiy tizim g'oyat ulkan yer fondi hisobidan yashagan. Bu yer fondi qanday turlarga bo'lingan?
12. Somoniylar, Qoroxoniylar, Saljuqiylar hukmronligi davrida yer egaligining muhim shakli bo'lgan "iqto"ning evalyutsiyasi haqida so'zlab bering.
13. IX-XII asrlarda Xorazm vohasining sug'orish inshootlari haqida arab muarrixlarining asarlarida qanday ma'lumotlar keltirilgan.
14. Xorazmshohlar davlatida Gurganch shahrini Amudaryo suvidan to'sib turuvchi to'g'on haqida so'zlab bering.

5-mavzu. Chig‘atoy ulusi davrida yer-suv munosabatlari

Reja:

5.1-§. Movarounnahrning mo‘g‘ullar tomonidan istilo etilishi oqibatlari;

5.2-§. Chig‘atoy ulusida ijtimoiy siyosiy vaziyat;

5.3-§. Chig‘atoy ulusi davrida Movarounnahrning xo‘jalik hayoti va yersuv munosabatlari.

Tayanch iboralar: *Chingizxon, Jo‘ji, Chig‘atoy, O‘qtoy, Gurganch, Muhammad Nasafiy, Bartold, Rashiddin, Jayhun, Kat, Xeva, Palladiy, Xitoy xaritasi, Movarounnaxr, Yettisuv va Sharqiy Turkiston, Mahmud Yalovoch, Ma‘sudbek, Maxmud Tarobiy, Guyukxon, Munkexon, Olg‘uxon, Buxoro, Samarqand, Xo‘jand, Toshkent, Termiz, Urganch, pul islohoti.*

5.1-§. Movarounnahrning mo‘g‘ullar tomonidan istilo etilishi oqibatlari

Mo‘g‘ullarning O‘rta Osiyoni batamom egallab olishlariga Muhammad Xorazmshohning mamlakat boshiga og‘ir kunlar tushganda, uni o‘z holiga tashlab, jonini asrash ilinjida qochib ketishi nxoyatda qo‘l keldi. Mo‘g‘ul lashkarlarining barcha kuchi Chingizxon va uning o‘g‘illari Jo‘ji, Chigatoy, O‘qtoy boshchiligida Gurganchga qaratilgan edi. Tarixchi Muxammad Nasafiyning yozishicha, Chingizxon Xorazmni o‘z o‘g‘li Jo‘jiga mulk qilib bermoqchi bo‘lganligi tufayli, Jo‘ji Xorazmning boy va go‘zal markazini buzmasdan saqlab qolishga harakat qilgan. Shuning uchun shaharga bosib kirishdan avval shahar aholisi bilan muzokara olib borgan. U shaxar axolisini o‘z hohishlari bilan bo‘ysunishga ko‘ndirgan. Shundagina axoliga ozor yetkazmaslikka vada bergan. Nasafiy bu holni quyidagicha izohlaydi. «Mo‘g‘ul qo‘shinlari Gurganch yaqinida turib uning qishloqlarini talon-taroj qilishga urunmadilar, Gurganchni boshqa (viloyat)lardan yuqori qo‘yishib, unga zo‘r e‘tibor hamda ehtiyotlik bilan qaradilar va uni yo‘q qilib yubormasligi uchun tirishdilar». Chig‘atoy esa bunga qarshi bo‘lgan. V.V.Bartold ham Gurganch masalasi bo‘yicha Chig‘atoy bilan Jo‘ji o‘rtasida kelishmovchilik bo‘lib o‘tganligini takidlaydi. Mo‘gullarning taktik odatiga amal

qilgan Chig‘atoy shaxarni talon-taroj qilish va so‘ng vayron qilish va aholini qo‘rqitish orqali, bu boy va obod shaharni bo‘ysundirish va o‘z qo‘lida ushlab turishiga ishongan. Ayni vaqtda, Jo‘ji ham shaharning taqdiriga befarq bo‘lmagan.

Janjalning sababidan voqif bo‘lgan Chingizxon uni bartaraf qildi. U bosh qo‘mondonlikni kichik o‘g‘li O‘qtoygaga topshirdi va urushni odatdagi tarzda davom ettirish haqida buyruq berdi. Aholining ko‘rsatgan qarshiligiga qaramay, mo‘g‘ullar shaharga yorib kirdilar va shaharni vayron qildilar. Rashididdinning yozishicha, mo‘g‘ullar Jayhun daryosi suvini to‘sib turgan to‘g‘onni buzish va daryo suvini burib yuborish uchun 3 ming mo‘g‘ul jangchilari ajratilgan. To‘g‘onning buzilishiga mahalliy aholi qattiq qarshilik ko‘rsatgan. Biroq ular bosqinchilar siquviga bardosh bera olmagan.

Barcha bosib olingan yerlarni Chingizxon o‘g‘illariga ulus sifatida taqsimlab bergan. Jumladan, Xorazmning shimoliy hududlaridan to Rossiyaning markaziy qismigacha bo‘lgan janubiy hududlari Jo‘ji ulusi xtiyoriga berildi. Chingizxon o‘sha vaqtdayoq Xorazmning janubiy qismini Kat va Xiva shaharlari bilan Jo‘ji ulusidan ayirib, Chig‘atoy ulusiga qo‘shib bergan edi. Haqiqatdan ham 1329—1331-yilda tuzilgan va Palladiy tomonidan chiqarilgan Xitoy kartasida Jo‘ji va Chig‘atoy uluslarining chegaralari Ke —ti (Kat) va Xula —szo‘—mu (Xorazm —Urganch) shaharlari o‘rtasida ekanligi ko‘rsatilgan.

Xorazmni mo‘g‘ullar tomonidan bosib olinishidan ilgari Gurganchda bo‘lgan Yoqut Hamaviy Hamaviy o‘zining «Mu’ljam ul—buldon» («Mamlakatlar lug‘ati») nomli 14 ta jilddan iborat toponomik asarida (II jild, 433-bet) Amudaryoga uning buzib yuboruvchi kuchiga to‘sqinlik qiluvchi to‘g‘on qurilganligi haqida ma’lumot qoldirgan. Bu o‘sha davrdayoq Xorazmda irrigatsiya va melioratsiya ishlari ancha takomillashganligini, Gurganch shaxri yaqiniga qurilgan to‘g‘on suvni shaharga o‘tkazmay, Amudaryoning oqim kuchini sekinlashtirib, daryoning o‘rta deltasida sug‘orish tizimlari barqarorligini taminlab turganligini ko‘rsatadi.

5.2-§. Chig‘atoy ulusida ijtimoiy siyosiy vaziyat;

Mo‘g‘ullar istilosi bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri — Gurganch yaqinida qurilgan to‘g‘onning buzilishi natijasida Amudaryo suvlarining Sariqamish chukurligi tomon urib ketishi bo‘ldi. To‘g‘onning buzilishi Xorazmdagi sug‘orish tizimini butunlay o‘zgartirib yubordi. Bu vohada asrlar davomida yaratilgan sug‘orish tizimini izdan chiqargan. Shaxar daxshatli suv toshqini oqibatida xarobaga aylangan. Shahar atroflaridagi hosildor yerlar yuvilib ketgan. Toshqin oqibatida shahar hududlari qalin loyqa qatlamlari bilan qoplangan. Shahar xarobalarida olib borilgan tadqiqotlar o‘sha vaqtda ulkan halokat yuz berganligidan dalolat beradi. Daryo yotqiziqlari o‘pirilishi va nurashi natijasida, hozirgacha loyqa ostida qolib ketgan ko‘plab madaniy qoldiqlar chiqib turibdi.

O‘sha paytda shaharni qoplab olgan suv toshqini asta — sekin o‘ziga yo‘l ochib Sariqamishga qo‘yilgan. Bu Daryoliq o‘zani edi. Yoqut Hamaviy Hamaviy o‘zining yuqorida nomi keltirilgan lug‘atida (6 jild, 670-bet) Amudaryoning Kaspiy dengiziga quyilishi hakida fikr yuritgan. Uning bunday xulosaga kelishiga o‘sha davrlarda Amudaryo suvlarining Sariqamish va O‘zboyga quyilganligi ham sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. O‘z-o‘zidan ma‘lumki, o‘sha vaqtlarda Amudaryoning Sariqamish o‘zanidan toshgan suvlari O‘zboyga urib ketgan bo‘lishi ham ehtimoldan holi emas.

Chingizxon o‘limi oldidan o‘zi bosib olgan hududlarni o‘g‘illari — Jo‘ji, Chig‘atoy, O‘qtoy va To‘lilarga bo‘lib bergan edi. Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li Chig‘otoy hukmronlik qilgan (1227—1241) Movarounnaxr, Yettisuv va Sharqiy Turkiston yerlari Chig‘atoy ulusi deb atalgan. Chig‘atoyning o‘zi Yettisuvda yashab, Movarounnahrni boshqarishni Mahmud Yalovoch (1226—1238) va uning o‘g‘li Ma’sudbekka (1238—1289) berib qo‘ydi. Mahmud Yalovoch davrida Movarounnahrda bir qator norozilik harakatlari (jumladan, Mahmud Tarobiy boshchiligidagi 1238-yilgi qo‘zg‘olon) ko‘tarilgan bo‘lsa —da, Ma’sudbek o‘lka ijtimoiy—iqtisodiy hayotini yaxshilash bo‘yicha ba’zi ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirdi. Uning ta’sirida mo‘g‘ul xonlari Guyukxon (1246—1248), Munkexon (1251 — 1260) va Olg‘uxonlar (1261 — 1266) Movarounnahrda tinchlik va tartib

o‘rnatishga harakat qildilar. Jumladan, Munkexon jon solig‘ini va pul muomalasini tartibga soldi, mo‘g‘ul aslzodalarining bu yerga kelib, mahalliy boshqaruv ishlariga aralashishiga chek qo‘ydi.

Bu davrda vayron bo‘lgan Buxoro, Samarqand, Xo‘jand, Toshkent, Termiz, Urganch va boshqa shaharlar qayta tiklandi. Farg‘ona muzofotidagi O‘zgand, Axsikent, Isfara, Quva shaharlari obodonlashdi. Shu bilan birga, Andijon, Qarshi singari yangi shaharlar paydo bo‘ldi. Shaharlarning kengayishi va obodonlashishida 1271-yili Ma’sudbek tomonidan o‘tkazilgan pul islohoti katta rol o‘ynadi. Movarounnahrda bir xil vaznda zarb etilgan kumush tangalar umumdavlat muomalasiga kiritildi.

XIII asr oxirida Baroqxon vafotidan keyin Chig‘atoy ulusi taxtini uning o‘g‘li Duvaxon (1291 — 1306) egalladi. O‘sha davrda Andijonning obod shaharga aylanishi Duvaxon nomi bilan bog‘liqdir. Duvaxon vafotidan keyin boshlangan tartibsizliklarni uning ikkinchi o‘g‘li Kepakxon (1318—1326) qisman bartaraf etishga muvaffaq bo‘ddi. U bir qator iqtisodiy va ma‘muriy islohotlar o‘tkazdi. Kepakxon Chig‘atoy ulusini mustahkamlash maqsadida xonlik markazini yaylovdan o‘troq zonaga ko‘chirtirdi. Natijada hozirgi Qarshi shahri bunyod etilib, u ulus markazi qilib belgilandi. Kepakxon bir qator islohotlar o‘tkazdi. 1321-yili o‘tkazilgan pul islohoti moliya tizimini izga solishda muhim rol o‘ynadi. Ma‘muriy islohotga ko‘ra, Movarounnahr hududi tumanlarga (jumladan, Samarqand viloyatida 7 ta, Farg‘ona viloyatida 9 ta) bo‘lindi.

Kepakxon siyosatini Tarmashirin (1326—1334) davom ettirdi. U islom dinini qabul qilib, uni davlat dini darajasiga ko‘tardi. Uning o‘rniga kelgan Qozonxon (1334—1346) asosiy e‘tiborini mahalliy va mo‘g‘ul amaldorlari o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratdi. Qozonxon vafotidan keyin hokimiyatni egallagan amir Qozag‘on (1347—1358) o‘tmishdoshlaridan farq qilib, ko‘chmanchi mo‘g‘ul aslzodalari manfaatlariga mos siyosat yuritdi. Mahalliy axoli manfaatlariga zid bo‘lgan bu siyosat oqibatida ijtimoiy — siyosiy vaziyat keskinlashdi. Siyosiy kurashlar jarayonida amir Qozag‘on qatl etildi. Uning o‘g‘li

Abdullohning hukmronligi ham uzoqqa bormadi. Bu orada Mo'g'ulistondan bostirib kelgan (1359) Tug'luk Temur Movarounnahrda jiddiy talofat etkazdi.

XIV asr o'rtalariga kelib Chig'atoy ulusi ikki qismga: Yettisuv, Farg'onaning sharqiy qismi, Sharqiy Turkistondan iborat Mo'g'ulistonga va G'arbiy ulus — Movarounnahrda bo'linib ketdi. O'sha paytda Xorazmning sharqiy qismi ham G'arbiy ulusga qarar edi. Bu Movarounnahrda hokimiyatga intiluvchi kuchlarning ko'payishiga va siyosiy vaziyatning yanada keskinlashuviga olib keldi.

5.3-§. Chig'atoy ulusi davrida Movarounnahrning xo'jalik hayoti va yersuv munosabatlari

Mo'g'ullar davlat boshqaruv ishlarida anchagina no'noq edilar. Shuning uchun ham ular mamlakatni idora qilishda joylarda o'zlariga noiblar tayinlab qo'yishgan. Chig'atoy Movarounnaxrni boshqarishni xorazmlik yirik savdogar Mahmud Yalovochga topshirib qo'ygan edi. Mahmud Yalovoch Movarounnahrda juda katta huquqqa ega bo'lgan. Jumladan, Movarounnahrda soliq yig'uvchilar va mo'g'ul harbiy guruhlarini Yalovochga bo'ysunar va u aholidan soliq yig'ishni qattiq nazorat ostiga olgan edi.

Mo'g'ullar bosqini Markaziy Osiyoda mavjud bo'lgan ijtimoiy tuzumni o'zgartira olmagan bo'lsa-da, mamlakatdagi turli ijtimoiy qatlamlar hayotiga turlicha ta'sir ko'rsatdi. Mo'g'ullar boshqaruv tizimiga moslashib olgan ruhoniylar, savdogarlar va yirik yer egalari ko'p o'tmay istilochilarning tayanchiga aylandilar. Tarixchi Rashididdinning ma'lumotiga ko'ra, mo'g'ul xonlari va shahzodalari yirik yer egalari va amaldorlarga mahalliy aholidan soliqlar yig'ishlariga qarab, saxiylik bilan qimmatbaxo hadyalar ulashganlar. Ammo shaharlarda ham, qishloqlarda ham oddiy mehnatkashlarning ahvoli nihoyatda og'irligicha qolgan edi.

Dehqonlar va hunarmandlar ishlagan yerlaridan davlatga to'laydigan yillik soliq - xirojdan tashqari yana ko'plab soliqlar to'lashlari kerak edi. Aholi maxsus yorliqlarga, asosan o'zlari yashab turgan hududlardan o'tuvchi amaldorlar,

savdogarlar, ruhoniylar va xonning qarindoshlarini (ular to'xtaydigan joylar «yom» — «bekat» deb atalgan) turar-joy, oziq-ovqat va ot-ulov bilan ta'minlashga majbur bo'lishgan. Shuningdek, shahar va qishloqlarda joylashgan harbiy guruhlarini kiyim - kechak va oziq - ovqat bilan ta'minlash ham mehnatkash aholi zimmasida edi. Hunarmandlar, ayniqsa qattiq nazorat ostiga olingan bo'lib, ular yuqorida eslatilgan soliqlardan tashqari mo'g'ul hukmdorlariga ma'lum miqdordagi tayyor buyumlar ham yasab berishgan.

O'z navbatida o'lkada o'zlarining tayanch vositasi bo'lishlariga harakat qilgan mo'g'ullar ham bu toifadagi kishilarni qo'llab-quvvatlay boshladilar. Mo'g'ul xonlari (viloyat hokimlari xon, oliy hukmdor esa qoon yoki xoqon deb yuritilgan) va mahalliy zodagon, yer egalarining zulmi natijasida mehnatkash xalq endilikda ikki tomonlama ezila boshlandi. O'lpon-u soliqlarning miqdori tobora oshib bordi, undan tashqari esa aholidan yig'ib olinadigan turli to'lovu yig'imlar, jarimalarning soni haddan tashqari oshib keta boshladi. Yangi yer solig'ining nomi-"kalon" deyilib, u hosilning o'ndan bir miqdorida olingan. 1235-yilgi qurultoydan so'ng esa chorva mol boshidan olinadigan yalpi sotiqlik - "qopchur" ta'sis etilgan. (Unga ko'ra 100 tadan bir miqdorda chorva soliqqa to'lanar edi. (Bu soliq asosan mo'g'ullar turmush tarzi xususiyatini hisobga olgan holda joriy etilgan edi).

Bundan ravshanki, musulmon mamlakatlarida chorvadan olinadigan zakotga qaraganda bir muncha yengil bo'lib, aftidan mo'g'ul chorvadorining manfaatlari ko'zda tutilgan. Shuningdek, 10 tugar g'alladan bir tugar xazina uchun olingan. Mo'g'ullarning «Yosoq kitobida» («Qonunlar to'plami») davlat xazinasiga kiradigan oziq - ovqat solig'i - shulen (shilon) har bir podadan ikki yashar bir qo'y miqdorida olinganligi yoziladi. Har ming otdan davlat foydasiga qimiz uchun bir biya ajratilgan. Otkup sistemasiga asoslangan Movarounnahr kabi viloyatlarda soliqlar rasmiylashtirilgan miqdorda oshirib olinishi aniq edi.

Bu soliqqa ko'ra har bir podadan ikki yashar qo'y, qimiz uchun har mingta otdan bir biya hisobidan olingan. Soliqlar asosan xonlar tomonidan barot (ijara) tarzida oldindan xazina uchun undirilib, so'ngra aholidan zo'ravonlik bilan

oshirilgan miqdorda undiriladi edi. Ayniqsa, hunarmandlarning ahvoli og'ir bo'lgan ularning o'z yurtlarida tirik qolganlari mahalliy xonlarning mulki sifatida ishlatilinar edi. Masalan, 1262-yil Buxoroda bo'lgan Xubilay qo'noning vakili bu yerda 5000 ta hunarmand Botuxonga, 3000 tasi malika Siyurko'kteniga (Xubilay va Munqataraning onasi) tegishli bo'lganligini qayd etadi. 1246-yil Mo'g'ulistonda bo'lgan sayyoh Piano Karpini eng yaxshi hunarmandlar xoqon xizmatida ekanligini va ularga qullarcha munosabatda bo'lishlarini qayd etib o'tadi. Bu guruh shaharlik hunarmandlarga esa kundalik ovqat berilib, ularga darhaqiqat qullarcha munosabatda bo'lingan bo'lsa, ikkinchi guruh shaharlik hunarmandlarga esa katta soliqlar solingan.

Mo'g'ullarga qarashli bo'lgan harbiy qurol-aslaha va anjomlar ishlab chiqaradigan ustaxonalar-"korxonalar" nomini olgan bo'lib, u yerdagi hunarmandlar esa quyi darajasidagi kishilar hisoblanar edi. Hunarmandlar to'laydigan maxsus soliqning nomi "tamg'a" deb atalgan. Mo'g'ullar, Shuningdek, batamom huquqsiz qullar mehnatidan ham foydalanishar edi. Mo'g'ullar hukmronligi davrida yer egaligi holati ham o'zgarib, yangi in'om etilgan erlar mo'g'ulcha suyurg'ol nomini olgan. Suyurg'ol hajmi jihatidan (unig tarkibiga juda katta yer maydonlari, suv havzalari, dasht-yaylovlar ham kirib ketar edi) iqtadan farq qilar edi. Bu davrda davlat, mulk (xususiy erlar), vaqf (diniy idoralar ixtiyorida yerlar) yerlarda ko'p holda ijaraga chorakor dehqonlar mehnat qilishgan. Bir qism ijarador-o'rtahol dehqonlar esa muzoriylar deb yuritilgan.

Buyuk hoqon hisoblangan O'gedey (1229-1241 yy.) davridayoq mo'g'ullar o'zlariga xizmat ko'rsatayotgan ayrim kishilar, katta yer egalari, savdogarlarga turli yorliq va payzalar bera boshladilar. Payza qimmatbaho metall (o'tin, kumush) yoki jez, yog'och taxtalardan ishlangan bo'lib, unga no'yonning muhri qo'yilar edi. Bunday payzaga ega bo'lgan kishilar, shu jumladan, elchilar, soliq yig'uvchilar va boshqa shaxslar aholidan turli yig'im, to'lovlarni talab qilib olish huquqiga ega edilar. Ko'plab beriladigan payza egalari aholidan tekinga ot-ulov, yem-xashak, yotar-joy, oziq-ovqat talab qilishga haqli ham edi. Savdo yo'llarida joylashgan bekatlar "yom" (jom) deyilib, ularning xizmati va harajati mahalliy

aholi bo'ynida edi. Bu bekatlar bo'ylab davlat ishlari bo'yicha ko'plab elchi, chopar, vakil va boshqalar o'tib, ularga xalq tekinga xizmat qilib, ularni ta'minlab turishi ham lozim edi. 1235-yildan boshlab xoqon farmoniga ko'ra, har bir yomning aloqa xizmati va harakati 2 ta tuman aholisiga yuklatildi. "Yomlar bo'yidagi aholida toqat va majol ham qolmagan edi",-deb yozgan edi Rashididdin.

Mahalliy aholi-hunarmand, dehqon, chorvador, kim bo'lishidan qat'iy nazar umum hashar ishlarida qatnashishi va tekinga ishlab berishi shart edi. Mo'g'ullarning ichki xo'jalik hayotni savdo-sotiq sohasini bir oz jonlantirish borasidagi chiqargan past qiymatli tangalari aholi ichida o'z o'rnini topmadi. Aksincha, zo'rlik po'pisaga qaramay, 1232-yildan boshlab Samarqandda pul muomalasi tugatildi, savdo-sotiq ayriboshlov darajasiga tushib qoldi. Farg'ona, Shosh, Termiz va boshqa viloyatlarda mo'g'ul istilosidan so'ng pul zarb etish o'z-o'zidan tugagan edi. Natijada tez orada Movaraunnahrda pul muomalasi butkul izdan chiqdi.

XIII asr o'rtalarida Chig'atoy ulusining mo'g'ul amaldorlari doirasida o'troqlikka ko'chish, shahar hayotiga yaqinlashish, mahalliy o'troq aholining boy madaniyatidan foydalanish jarayoni kuchayadi. Mo'g'ulistonning ulug' xoqoni Munke soliq va hashar ishlarini tartibga solish to'g'risida maxsus-farmon yorliq chiqaradi. Yomlar bo'ylab pochta xizmati uchun ajratilgan otlar soni belgilanib, aholidan ortiqcha ot talab qilish man etiladi. Shuningdek, elchilarga, qo'llarida bevosita topshiriqlari bo'lmasa, shahar yoki qishloqlarga kirmasligi va aholidan ular uchun belgilanadigan ortiqcha yem-xashak hamda oziq-ovqat olmasligi uqtiriladi. Shu tariqa aholi o'zboshimchalik bilan yig'ib olinadigan hisobsiz to'lovlardan ozod bo'ladi.

Mamlakat ijtimoiy hayotida sodir bo'lgan jiddiy o'zgarishlar, shubhasiz uning iqtisodiy jihatdan jonlanishiga turtki ham bo'ldi. Mo'g'ullar istilosi davrida xarob bo'lgan hunarmandchilik, savdo-sotiq va dehqonchilik asta-sekin tiklana boshlaydi. Hunarmandchilik va ichki-tashqi savdoning jonlanishi, shubhasiz, xarob bo'lgan shaharlarning qayta tiklanishiga sabab bo'ladi. Garchi hali ko'pgina shahar va viloyatlar xaroba va yarim xaroba holida yotgan bo'lsa-da, Urganch va Buxoro

shaharlari qayta tiklanadi. Qadimgi Samarqand yayronalari yonginasida yangitdan shahar qad ko`taradi. Shaharlarda turli xil davlat, jamoat va ma'rifat binolari qad ko`taradi. Shahar bozorlari gavjumlashadi.

Mo`g`ullar hukmronligi davrida o`rta Osiyoda yerga bo`lgan egalikning mulki devon, mulki inju, mulki vaqf va mulk deb ataluvchi to`rt xil shakli mavjud edi. Mulklarning kattagina qismi harbiy ma'murlarga davlat oldidagi xizmatlari uchun hadya qilingan yerlar bo`lib, ular suyurg`ol yerlari deb yuritilardi. Bunday yerlarga ega bo`lgan yerdorlar - suyurg`ol egalari barcha soliq va to`lovlardan ozod etilardi. Suyurg`ol yerlari avloddan-avlodga meros tariqasida o`tardi. Yirik yerdorlar qo`lidagi mulk yerlariga yersiz yoki kam yerli dehqonlar birlashtirilib, ular bunday mulklarda hosilning 1/3 evaziga ijarachi bo`lib ishlar edilar.

Mo`g`ul istilosi Markaziy Osiyo xalq xo`jaligiga katta zarar etkazdi. O`zlari bosib olishgan ko`plab davlatlar va hududlarni bo`lib olishgan mo`g`ul xonlari o`rtasida o`zaro kurashlar avj oldi. 1272-yilda Erondagi Xulaguxon qo`shinlari Movarounnahrda bostirib kirib Kesh va Nahshab (Qarshi) shaharlarini, 1273-yili Buxoroni talon — taroj qildilar. Bulardan tashqari, mahalliy hukmdorlar tomonidan o`zboshimchalik bilan turli to`lovlar va soliqlarning joriy etilishi, ularning muntazam oshirib borilishi xalqning turmushini nihoyatda og`irlashtirib yubordi.

XIII asrning ikkinchi yarmiga kelib mo`g`ul hukmron doiralari o`rtasida viloyatlarning boy madaniy hayotidan foydalanish masalasida ikki xil qarash paydo bo`ldi. Ko`chmanchi harbiy zodagonlarning katta qismi, xonzodalar va ayrim hoqonlar o`troq hayotga mutlaqo qarshi edilar. Ular mamlakatni butunlay vayron qilish, o`troq viloyatlar aholisi boyliklarini talash, shaharlarni xarobalarga aylantirib, ularning o`rnini yaylovlarga aylantirish tarafdorlari edilar.

Mahalliy zodagonlar, ruhoniylar va savdogarlarning asosiy qismi hamda madaniy hayotga qiziqqan ba`zi mo`g`ul xonlari o`troq hayot kechirish tarafdorlari edilar. Ular o`zaro urushlarga barham berish orqali markaziy hokimiyatni mustahkamlashga intilganlar. Shuningdek, ular viloyatlarni madaniy jihatdan muntazam rivojlantirib borish uchun o`troq aholini talashni to`xtatish, turli to`lov

va soliqlarni tartibga solish, shaharlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash harakatiga tushdilar.

Bunday siyosatning yetakchilari Mo'g'ulistonning ulug' hoqoni Munkexon va Chig'atoy ulusi noibi Ma'sudbek edilar. Ayniqsa, Munkexonning qonunlar orqali amalga oshirgan chora — tadbirlari: soliqlar va to'lovlarni tartibga solishi, aholini joylarda o'zboshimchalik bilan yig'ib olinadigan soliqlardan ozod etishi ichki va tashqi savdo hamda shaharlarning rivojlanishiga zarur imkoniyat yaratdi. Natijada, XIII asrning 70 — 80 yillariga kelib, Movarounnahrda asta — sekinlik bilan shahar hayoti, hunarmandchilik va savdo munosabatlari jonlana boshladi.

1271-yilda Ma'sudbek pul islohoti o'tkazdi. Bu islohot Movarounnahr shaharlarining ichki hayotini, ayniqsa pul va savdo munosabatlarining tiklanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ma'sudbek Samarqand, Buxoro, Termez, Taroz, O'tror, Xo'jand, Naxshab kabi ko'pgina shaharlarda bir xil vazn va yuqori qiymatli sof kumush tangalar zarb ettirib, ularni butun mamlakat bo'ylab muomalaga chiqardi.

Movarounnaxrning Chig'atoy ulusiga kirgan davri dehqonchiligi haqida ma'lumotlar kam. XIII asrning oxirlarida Buxoro atroflarini obod etilishi to'g'risida bizgacha etib kelgan 1289-yilga mansub vaqf hujjatida ko'rsatilishicha, vaqf xo'jaligining boshlig'i Buxorodan 4 farsax (30 km ga yaqin) masofadagi obod Hamana qishlog'ini ekin yerlari bilan sotib olgan. Bu qishloq yaqinida u yana bir qishloq barpo etib, unda ikki masjid, korandalar uchun turar joylar, tegirmon va bir nechta to'qimachilik korxonasini bino etgan.

Shunday qilib, mo'g'ullar hujumi natijasida, XIII asrning birinchi yarmida ijtimoiy — iqtisodiy, ma'naviy — ma'rifiy jihatdan ahvol nihoyatda og'ir bo'lib qolgan Markaziy Osiyoda, XIII asrning o'rtalaridan boshlab Chig'atoy ulusi hukmdorlari shahar va qishloqlarni tartibga keltirish va rivojlantirish uchun ayrim chora — tadbirlarni ko'rdilar. Biroq, bu harakatlar juda sustlik bilan amalga oshirildi. Mo'g'ullar istilosi natijasida vayron etilgan hunarmandchilik va savdo — sotiq XIV asrning boshlarida ham XIII asrning boshlaridagi darajasiga ko'tarila olmagan edi.

Mo'g'ullar istilosi Movarounnahr xalqlari boshiga qanchalik og'ir - kulfatlar solmasin, ajdodlarimizni bunyodkorlik ishlaridan sovuta olmadi. Bu davrda Urganch, Qarshi, Andijon shaharlari qayta tiklandi, Samarqand, Buxoro, Shosh, Xo'jand kabi shaharlarda bir qator inshootlar bunyod etildi. XIII asrda Ko'hna Urganchda bunyod etilgan balandligi 62 metrlik minora, Buxoroda islom olamining yetuk allomalaridan biri Sayfiddin Boxarziy (1258-yili vafot etgan) maqbarasi, XIV asrda Samarqandda qurilishi davom ettirilgan Shohizinda majmui, Buxorodagi Bayonqulxon maqbarasi, Qo'hna Urganchdagi Najmiddin Kubro, To'rabekxonim, Xo'janddagi To'baxonim maqbaralari o'z davrining noyob yodgorliklari hisoblanadi.

Mahmud Yalavochga soliqlar tushumini muntazam nazorat etish o'lkada mo'g'ullarga qarshi g'alayon bo'lishini oldini olish ma'suliyati yuklatilgan edi. Ko'pchilik aslzoda zodagonlar, savdogarlar, qisman ulamolar ham o'z jonlari va qolgan mol-mulklarini saqlab qolish borasida xiyonatkorona tarzda bosqinchilar xizmatiga o'ta boshladilar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Mug'ullar bosqini O'rta Osiyoning dehqonchilik vohalarining keyingi rivojiga qanday salbiy ta'sir ko'rsatdi?
2. Chig'atoy ulusi davrida yer egaligining qanday shakllari mavjud bo'lgan?
3. Mug'ullar hukmronligi davrida Movarounnahrda qanday yangi shaharlarga asos solindi?
4. Mug'ullar dehqonlardan qanday soliq olishgan?
5. Mo'g'ullar bosqini Markaziy Osiyoda mavjud bo'lgan ijtimoiy tuzumni o'zgartira olmagan bo'lsa-da, mamlakatdagi turli ijtimoiy qatlamlar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
6. Chig'atoy ulusi davrida dehqonlar va hunarmandlar ishlagan yerlaridan davlatga to'laydigan yillik soliq — xirojdan tashqari yana qanday majburiyatlarni bajarishgan?

7. Qaysi hukmdor davridayoq mo'g'ullar o'zlariga xizmat ko'rsatayotgan ayrim kishilar, katta er egalari, savdogarlarga turli yorliq va payzalar bera boshladilar?
8. Qachondan boshlab Chig'atoy ulusining mo'g'ul amaldorlari doirasida o'troqlikka ko'chish, shahar hayotiga yaqinlashish, mahalliy o'troq aholining boy madaniyatidan foydalanish jarayoni kuchayadi?
9. Aytingchi, mug'ullar davrida Suyurg'ol yerlari kimlarga berilgan va qanday imtiyozlarga ega bo'lgan?
10. XIII asrning oxirlarida Buxoro atroflarini obod etilishi to'g'risida bizgacha etib kelgan 1289-yilga mansub vaqf hujjatida keltirib o'tilgan ma'lumotlar haqida nimalarni bilasiz?
11. Chig'atoy ulusining ikkiga bo'linishining asosiy sabablari nimada?

6-mavzu. Amir Temur va temuriylar davrida yer-suv munosabatlari

Reja:

6.1-§. Amir Temur davlatining vujudga kelishi va siyosiy tarixi;

6.2-§. Sohibqiron va uning avlodlari tomonidan yirik sug'orish inshootlarining barpo etilishi;

6.3-§. Amir Temur va avlodlari davrida yer egaligi turlari.

Tayanch iboralar: *suyurg'ol, Muhammad Jahongir, Umar Shayx, Fors viloyati, Mironshoh, Ozarbayjon, Iroq, Armaniston, Shohruh, Xuroson, Jurjon, Mozondaron, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, «mulki devoniy», «mulk yerlari», «mulki vaqf», «suyurg'ol», Shohruh, Mirzo Boyqaro, mehnatkash ziroatchilar, harbiy va diniy arboblari, Xo'ja Ahrori Vali, Alisher Navoiy, Astrobod, Hirot, Sabzovor, Zahiriddin Muhammad Bobur.*

6.1-§. Amir Temur davlatining vujudga kelishi va siyosiy tarixi

Mo'g'ul va turkiy aslzodalar, amaldorlar o'rtasida avj olgan nizolar va besamar urushlar Movarounnahrda siyosiy va feodal tarqoqlikni yanada kuchaytirdi. Bu mehnatkash xalqning ijtimoiy turmush sharoitini tobora og'irlashtirdi. Natijada Xuroson va Movarounnahr xalqlari mo'g'ullar hukmronligiga qarshi norozilik harakatlarini kuchaytardilar. Ayniqsa, Sarbadorlar harakati mo'g'ullar hukmronligiga jiddiy zarba berdi.

Movarounnahrda turkiy amirlar mavqeyning mustahkamlanib borishi mamlakatda feodal tarqoqlikni yanada kuchaytirdi. Bu, ayniqsa turkiy amir Qazogon vafotidan keyin (1358) yanada avj olib, mamlakat mayda — mayda qismlarga bo'linib ketdi. Jumladan, Kesh viloyati amir Sayfiddin Hoji Barlos, Xujand viloyati Boyazid Jaloyir, Balx viloyati amir Qozagonning nabirasi Amir Husayn, Xorazm so'fiylar sulolasi, Shibirg'on Muxammad Arab Nayman quliga o'tdi. Xuttalonda Kayxusravlar o'zlarini mustaqil deb e'lon qildilar. Shuningdek, Buxoro va uning atroflarini sadrlar, Termizni sayidlar, Shoshni maliklar qulga olgan edilar.

Movarounnahr va Xurosonda siyosiy va feodal tarqoqliklar kuchaygan bir davrda, Amir Temur 1336 yil 9 aprelda, Kesh viloyatining Xo'ja Ilg'or qishlog'ida dunyoga keldi. Uning otasi Amir Tarag'ay barlos urug'i beklaridan bo'lib, onasi Tegina Mox Begim Buxoroy sharif Sadr ash-shariatining qizi edi.

Yoshligidan siyosiy kurashlar maydonida toblangan Amir Temur 20 yoshlaridayoq bu kurashlarga faol aralasha boshladi. U feodal tarqoqlar va mug'ullarga qarshi noroziliklardan ustalik bilan foydalanib, 1365-yili Sarbadorlar harakati yordamida Samarkand hokimligini, 1370-yili Amir Husayn ustidan g'alaba qozonib, butun Movarounnahrda hukmronligini qo'lga kiritdi va tushkunlikka yuz tutgach Chig'atoy ulusi o'rnida mustaqil davlat tuzishga kirishdi.

Amir Temur o'z davlatini mustahkamlashni mamlakat ichidagi qarama-qarshi kuchlarni bartaraf qilishdan boshladi. Buning uchun u dastlab urug' — qabila boshliqlari va din peshvolarining e'tiborini qozondi. Amir Temur shayx Shamsiddin Kulol, shayx Sayid Baraka va shayx Zayniddin Tayobodiyarlari uzining pirlari deb bildi.

Amir Temur mamlakatni tumanlarga bo'lib idora qilishni tashkil qildi, mulk daxlsizligini ta'minlovchi qonunlar chiqardi. Tarixchi olim B.Ahmedovning yozishicha, Amir Temur Movarounnahrda o'z ixtiyorida qoldirgan. Qolgan hududlarni to'rt qism-mulkka bo'lib, farzandlari va nabiralari bo'lib bergan. Jumladan, Xuroson, Jurjon, Mozandaron, Seiston (markazi Xirot) Shohruhga, G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armaniston (markazi Tabriz) Mironshohga, Fors (markazi Sheroz bo'gan Eronning janubiy qismi) Umarshayxga, Afgoniston va Shimoliy Xindiston (markazi G'azna, keyinchalik Balx) Pirmuxammadga suyurg'ol (in'om) qilib berilgan. Suyurg'ol qilingan yer —mulklar Oliy hukumatning farmoni bilan avloddan — avlodga meros bo'lib o'tgan. Mazkur ulus —mulklar markaziy hokimiyatga nomigagina bo'ysinb amalda mustaqil ish yuritishgan. Bu keyinchalik, qudratli saltanatning parchalanishiga asosiy sabablardan biri bo'ldi.

Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, Amir Temur davlatida markaziy hukumatni, asosan davlatning uch bosh muassasasi —Devoni oliy (bosh ijroiya

organi), Devoni mol (moliya ishlari boshqarmasi) va Devoni tovochi (xarbiy ishlar boshqarmasi) idora qilgan. Viloyat va tumanlarni markaziy hukumat yoki ulus hukmdorlari tomonidan tayinlangan dorug‘alar (mansabdorlar) boshqargan. Din va shariat bilan bog‘lik, bo‘lgan masalalar, shuningdek, sud ishlari qozi va shayxulislom qo‘lida bo‘lgan.

Qo‘shinlar birligini ta‘minlash maqsadida harbiy ishlarga ko‘proq Movarounnahrda aholisi jalb etilgan. Qo‘shinlar, asosan otliq; va piyoda qismlardan tashkil topgan. Ulardan tashqari: 1) kemachilar va ko‘prik quruvchilar; 2) olov otuvchilar; 3) qamal qiluvchilar va manjaniqlardan otuvchilar; 4) tog‘li zonalarda jang qiluvchilar qabi qo‘shin turlari bo‘lgan.

1370— 1405 yillar davomida Samarqand taxtini egallab turgan Amir Temur “Uch yillik” (1386), “Besh yillik” (1392) va “Yetti yillik” (1399) deb nom olgan harbiy yurishlari jarayonida o‘ttizdan ortiq janglar uyushtirdi. Natijada, Xuroson, Eron, Iroq, Ozarbayjon, Turkiston, Armaniston, Shimoliy Hindiston, Oltin O‘rda va Turkiya xududlarini, jami 27 mamlakatni egallab, o‘z saltanatini Sharqda Xitoy devorlariga qadar, shimolda Moskva, g‘arbda O‘rta Yer dengiziga, Janubda esa Misr chegaralariga qadar kengaytirdi.

Sohibqiron Amir Temurning buyuk davlat arbobi, sarkarda va ayni paytda adolatparvar, bunyodkor shayx sifatidagi murakkab faoliyatini xalqaro miqyosda tasdiqlovchi ko‘plab misollar mavjud. Jumladan, fransuz olimi Jan Pol Running “Tamerlan” asarida shunday deyilgan: «Sohibqironning ayrim fazilatlari, chunonchi, o‘z ishlaridan mag‘rurlanishiga qaramay muomalada o‘ta oddiyligi, dunyoning yarmini titratgan amir bo‘la turib, bir dindor zotning oyoq tomoniga quyishlarini vasiyat qilishga, sharob ichishni man qilgan holda ajoyib majlislarni tashkil qilishi, aqalli qo‘shini xam chimirib quymay, qirg‘inbarot urushlar qila turib, odamlarni adolatga undashi, suhbatlarda urush daxshatlarini eslashni yoqtirmasligi, ko‘p binolarni vayron qilgani holda ma‘muriy qurilishlarga bosh — qosh bo‘ishi, ozgina fursatni ham qo‘ldan boy bermay ilmiy munozaralar uyushtarishi, ... eng dahshatli jazo ko‘rilayotganda ham gunohlarni, agar nohaqlik bo‘lsa, avf etishdek olijanob fazilatni namoyish qilishi, ... Bunga o‘xshash

fazilatlari va kutilmaganda har qanday mantiqiy xulosani ham chippakka chiqaruvchi hatti — harakatlari Temur shaxsining o‘ta murakkab va buyukligini ko‘rsatadi. Temur o‘ziga teng keladiganlardan DoroI, Iskandar, Sezar, Chingizxon, Bonopartlar kabi o‘tgan zamonning eng ulug‘ zotlari qatorida turadi”

Amir Temur vafoti (1405 yil 18 fevral)dan keyin uning imperiyasi bo‘laklarga bo‘linib ketgan bo‘lsa-da, bu hududlarda temuriy shahzodalar hokimiyatni o‘z qo‘llarida saqlab qoldilar. “Zafarnoma”da yozilishicha, Amir Temurning 4 o‘g‘li va 2 qizi bo‘lib, u vafot etganda undan 2 o‘g‘il va bir qiz, 29 nevara, 5 chevara, jami 36 shahzoda (qizlardan tashqari) qolgan edi. Katta o‘g‘li Jahongir Mirzo (1356—1376) kasallanib 20 yoshida vafot etgan. Ikkinchi o‘g‘li Umarshayx Mirzo (1356—1394) 38 yoshida Kurdistonda Xarmatu qal’asi yonida o‘q tegib xalok bo‘lgan.

Temuriylar o‘rtasida toj-taxt uchun kurashni Mironshoh Mirzoning 22 yoshli o‘g‘li Xalil Sulton Mirzo (1384—1411) boshlab berdi. U 1405 yil 18 martda Samarqand taxtini egalladi. Uning hukmronligi 1409-yilgacha, ya’ni Shoxrux Mirzo Movarounnahrni egallaganiga qadar davom etdi. Shoxrux Mirzo Movarounnahr hukmronligini katta o‘g‘li Ulug‘bek Mirzoga (1394—1449), Balx va Badaxshon viloyatlarini ikkinchi o‘gli Ibroxim Mirzoga (1394—1435), Hisor hukmronligini Muhammad Sulton Mirzoning o‘g‘li Muhammad Jahongir Mirzoga (1396— 1433), Farg‘onani esa Umarshayx Mirzoning o‘g‘li Ahmad Mirzoga (1383—1425) suyurg‘ol tariqasida in’om qildi. O‘zi Hirotda turib otasining buyuk saltanatini tiklashga kirishdi. Tabiatan yumshoq ko‘ngil, ilm — fanga moyil, ma’rifatparvar hukmdor bo‘lgan Shohruh Mirzo (1377— 1447) davrida Eron va Turonda nisbatan tinchlik va osoyishtalik hukm surdi. Xirot Sharqning ko‘rkam, obod, fan va madaniyati rivojlangan shaharlaridan biriga aylandi.

Otasining yordamida 1409-yili Samarkand taxtini egallagan Mirzo Ulug‘bek dastlab davlatni Shohmalik vasiyligida, 1411-yildan boshlab mustaqil idora eta boshlaydi. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, 1413-yili Ulug‘bekka qarshi Umarshayxning o‘g‘li Iskandar Mirzo isyon ko‘targan. Isyonni bostirish va Movarounnahrda tartib o‘rnatish uchun Shohruhning o‘zi qo‘shinlari

bilan kelgan. Umarshayxning Farg‘ona hokimi bo‘lgan yana bir o‘g‘li Ahmad Mirzo Ulug‘bekka bo‘ysunmaganligi uchun u Farg‘ona vodiysiga qo‘shin tortgan. Ahmad Mirzo tog‘larga qochib ketgan. Ulug‘bek Andijon va Axsini, 1416-yili Qashg‘arni ham egallagan.

Ulug‘bekning harbiy yurishlari ko‘proq mudofaa harakteriga ega bo‘lib, u bobosi kabi noyob harbiy qobiliyat sohibi emas edi. Bu uning 1427-yili Baroqxon boshlig‘i ko‘chmanchi o‘zbeklar mag‘lubiyatga uchrashida namoyon buldi. Shundan keyin Ulug‘bek o‘z umrining asosiy qismi ilm-fanga bag‘ishlagan bo‘lsa-da, biroq, XV asrning 30-40 yillarida otasi bilan birga ko‘chmanchi o‘zbeklar xoni Abulxayrxon (1428—1468) ga qarshi janglar olib borishga majbur bo‘ldi. 1447-yili Shohruh vafotidan keyin, uning xotini Gavharshodbegim davlat ishlariga aralashib, Ulug‘bek o‘rniga Boysung‘ur Mirzoning o‘g‘li Alouddavlani valiahd qilishga astoydil kirishdi. Uning maslahati bilan Ulug‘bekning Shohruh qo‘shinlariga boshliq, bo‘lgan o‘g‘li Abdullatif 1447-yil aprelida Nishopurda fitna tufayli Alouddavla qo‘shinlaridan yengildi va asir olinib, Hirotidagi Ixtiyoriddin qal‘asidagi zindonga tashlandi. Bu vaqtda Balxni egallagan Ulug‘bek Abdullatifning hayotini saqlab qolish uchun Alouddavla bilan bitim tuzishga majbur bo‘ldi. Bitimga ko‘ra Ulug‘bek Hirot va Xurosonga bo‘lgan da’vosidan voz kechdi. Abdullatif zindondan ozod etilib, Balx va Amudaryo ikki sohilidagi yerlarning hokimi etib tayinlangan.

1448-yil bahorida Ulug‘bek va Abdullatifning 90 ming kishilik qo‘shini Alouddavla qarshi Hirotga yurish boshlagan. Hirot yaqinidagi Tarnob jangida Alouddavla mag‘lubiyatga uchrab, birodari Abulqosim Bobur huzuriga qochgan. Jangda qozonilgan g‘alabada Abdullatifning hissasi katta bo‘ldi. Biroq Ulug‘bek g‘alaba yorligiga Abdulaziz nomini yozdirdi. Ulug‘bek qo‘shinlari Hirotni, keyinchalik Xurosonning katta qismini egallasada, hujumni oxirigacha yetkazmasdan orqasiga qaytgan. Bu xatolar Ulug‘bekga qimmatga tushdi. Uning o‘g‘li Abdullatif bilan oralari buzildi. 1449-yil bahorida Abdullatif Ulug‘bekka qarshi oshkora urush harakatlarini boshlab yubordi. Shu-yilning kuzida Samarkand yaqinidagi Damashq qishlog‘i yonida ota va bola o‘rtasida bo‘lgan jangda

Ulug‘bek qo‘shinlari yengildi. Jangdan chekingan Ulug‘bekni Samarqand hokimi Mironshoh Qavchin shaharga kiritmadi. Shundan keyin, Ulug‘bek hokimiyatni Abdullatif Mirzoga topshirib, umrining qolgan qismini ilm — ma‘rifatga bag‘ishlashga qaror qildi. U o‘g‘lidan Ka‘batulloh ziyoratiga borish uchun ruxsat olib, yo‘lga otlangan. Ammo, tezda orqadan yetib kelgan Abbos ismli navkar, 1449-yil 25 oktabr kuni kechqurun tunash uchun to‘xtagan Ulug‘bekni bo‘ynini qilich bilan chopib o‘ldirgan. Oradan ko‘p o‘tmay, 1450-yil 9 may kuni Abdullatif ham Bobo Xusayn Bahodir tomonidan o‘ldirilgan.

Abdullatif Mirzo vafotidan keyin, Samarqand taxtini Ibrohim Sultonning o‘g‘li, Ulug‘bekning kuyovi Abdullo Mirzo egalladi. Buxoro taxtini egallagan Sulton Abu Sayyid (Mironshohning nabirasi) unga qarshi chiqdi va 1451-yil Abulxayrxon yordamida Samarqand taxtini egalladi. Movarounnahrda shundan keyin Abu Sayyidning o‘g‘illari Sulton Ahmad Mirzo (1469-1493), so‘ngra Sulton Maxmud Mirzo (1493-1494) va nihoyat, Mahmudning ug‘li Sulton Ali Mirzo (1494-1501)lar davrida feodal tarqoqlik nizhoyatda kuchaydi.

Temuriylar sulolasi Movarounnahrda va Xurosonda XVI asrning boshlarigacha, Hindistonda esa XIX asrning 50 - yillarigacha, qariyb 488 yil hukmronlik qildilar.

Amir Temur shu tariqa ulkan markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo‘ldi. Mamlakatdagi barcha ijtimoiy tabaqalar (ular 12 ta edi) sayyidlar va din peshvolari, harbiylar va amaldorlar, olim va fozil kishilar, ahli hunar, dehqonlar, savdo-sotiq ahli, chorvadorlar va boshqalarning maqsad va manfaatlarini himoya qilish, maslahat va kengash ila qattiqqo‘llik bilan boshqarishga erishdi. Ikkinchidan Amir Temur saltanatning to‘rt asosiy ustunini to‘g‘ri angladi va unga amal qildi.

Amir Temur davlat arbobi sifatida ulkan tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lgan, u Movarounnahrni yagona bir davlatga birlashtirdi, bosib olgan hududlarini to‘rt qism - mulkka bo‘lgan va ularni o‘z farzandlariga suyurg‘ol (sovg‘a) qilib berdi. Jumladan, Xuroson, Jurjon, Mozandaron, Seyston (markazi Hirot) Shohruhga; g‘arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armaniston (markazi Tabriz)

Mironshohga; Fors, ya'ni Eronning janubiy qismi (markazi Sheroz) Umarshayxga; Afg'oniston va Shimoliy Hindiston (markazi g'azna) Pirmuhammadga suyurg'ol qilib berildi.

Amir Temurning ulkan saltanati shaklan buyuk va qudratli davlat bo'lib ko'rinsa ham aslida uning iqtisodiy negizi unchalik baquvvat yemas edi. Amir Temur bosib olingan viloyatlarni o'g'illari, nabiralari va xizmat ko'rsatgan amirlariga suyurg'ol tarzida in'om qilib, ular orqali boshqardi. Movarounnahrda tashqari o'z tasarrufidagi barcha viloyat va mamlakatlarni Amir Temur to'rt ulusga bo'ldi. To'ng'ich o'g'li Muhammad Jahongir ikkinchi o'g'li Umar Shayxga Fors viloyati va 10 ming qo'shin, uchinchi o'g'li Mironshohga Ozarbayjon, Iroq va Armaniston bilan 9 ming qo'shin, kenja o'g'li Shohruhga Xuroson, Jurjon, Mozondaron, Seiston bilan 7 ming askar berildi. Ulus hukmdorlarining alohida davlat devonxonasi, qo'shini bo'lib, ular markaziy hukumatga tobeligi xirojning bir qismini Samarqandga yuborib turish va oliy hukmdor harbiy yurishlarida o'z qo'shini bilan qatnashish yoki talab qilingan askarni yuborib turishdan iborat edi.

Suyurg'ol Temur davlati tashkil etilishi arafasida joriy yetilib, u ma'lum tuman yoki viloyatlarni hukumat yorlig'i bilan yevropadagi «feod» yoki «len» tarzida oliy hukmdor avlodlari va xizmat ko'rsatgan yuqori tabaqa vakillariga in'om tariqasida berilgan. Ba'zan suyurg'ol yerlari oliy hukmdorning farmoni bilan hatto avloddan-avlodga meros bo'lib o'tgan. Masalan, Amir Temurning to'ng'ich o'g'li Jahongir vafotidan so'ng unga tegishli Balx viloyatiga Kobul, G'azna va Qandahorni qo'shib, marhumning o'g'li Pirmuhammadga beriladi. Shuningdek, Amir Temur Umarshayxning o'gli Rustamga Isfahonni, Mironshohning o'g'li Abubakrga Bag'dodni suyurg'ol qiladi. Mana shu tarzda Movarounnahrda tashqari, mamlakat bir qancha bo'laklarga bo'linib ketadi. Viloyat hokimlari - shahzodalar o'z tasarrufidagi uluslarda doimo iloji boricha mustaqil hukmronlik qilishga intilar edi. Markaziy hukumat esa vaziyat jiddiylashgan paytlardagina ularning ichki ishlariga aralashar edi. Shubhasiz, suyurg'ol asosida qurilgan mulkchilik tartibining g'oyatda kuchayishi oqibatida ayrim viloyatlarning ma'lum darajada mavqeyini oshishiga olib kelgan va ichki nizolarni keltirib chiqargan.


Lekin katta hudud va imtiyozlarga yega bo'lgan, kuchli qo'shinga tayangan buyuk hukmdor viloyatlarning feodal doiralari tomonidan ko'tarilgan isyonlarni va xalq harakatlarini doimo osongina bostira olgan.

6.2-§. Sohibqiron va uning avlodlari tomonidan yirik sug'orish inshootlarining barpo etilishi

Sohibqiron mamlakat obodonchiligiga juda katta e'tibor beradi. Movarounnahrning dehqonchilik vohalarida, xususan Zarafshon vodiysida o'nlab sug'orish tarmoqlari chiqariladi, sug'orma dehqonchilik maydonlari kengaytiriladi, yangi obod shahar va qishloqlar barpo yetiladi. «Tuzuklar» da Amir Temur: «Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqohlar qurishni, yo'lovchi musofirlar uchun yo'l ustiga rabotlar bino qilishni, daryolar ustiga ko'priklar qurishni buyurdim», deydi. Eski va qadimiy shaharlar, ayniqsa, Temurning ona shahri Kesh, davlatining poytaxti Samarqand gullab-yashnaydi. Shu bilan birga bu davrda Movarounnahr shaharlarida ayniqsa, uning poytaxtida hunarmandchilik va savdo rivojlanadi. Amir Temur Osiyo va Yevropa mamlakatlari hukmdorlariga murojaat qilib, xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishga alohida e'tibor beradi. O'rta Osiyo orqali o'tadigan «Buyuk ipak yo'li» da karvonlarning xavfsizligini ta'minlaydi. Mashriqdan Mag'ribgacha bo'lgan savdo-sotiq ishlarini kuchaytirib, turli rabotlar, karvonsaroylar, savdo rastalari qurdiradi. Temur o'z mamlakatiga kelib-ketuvchi musofirlar, savdogarlarga katta e'tibor beradi va g'amxo'rlik qiladi: «...Har mamlakat va diyor sayohatchilari-yu musofirlarining boshini siladimki, turli mamlakatlardan menga xabar keltirib turdilar. Har bir mamlakatga va diyorga savdogarlar va karvonboshilar tayinladimki, ular qaerga borishmasin: Xitoy, Xo'ton, Chin-u Mochin, Hindiston, Arab mamlakatlari, Misr, Shom, Rim, Jazoir, Farangiston (Ovro'po) u yerlarning nafis matolari va munosib tuhfaridan keltirishsin...».

Sug'orma deqqonchilik va irrigatsiya. Amir Temur va Temuriylar mamlakatning iqtisodiy hayotida asosiy o'rin tutgan dehqonchilik va uning poydevori bo'lmish sug'orish ishlariga katta ahamiyat berishdi. XIV asr oxiri —

XV asrning birinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda katta-kichik daryo va soylardan yirik irrigatsiya tarmoqlari chiqarilib, korizlar qazildi, suv omborlari va hovuzlar barpo etilib, suvga tanqis ayrim viloyat va vohalar, shaharu qishloqlarning suv ta'minoti yaxshilandi.



Xorazmning XIV asr sug'orish tarmoqlari va gidrografiyasining xaritasi. Shartli belgilar:
a – suv oqib turgan kanallar; б – Amudaryoning o'sha davrdagi o'zani;
*в – botqoq va toshqinlar; г – shaharlar.*²⁵

²⁵ G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. Qadimgi zamondan hozirgacha. -T., 1959. – 185-bet.

Qo'riq va bo'z yerlar o'zlashtirilib, obikor yerlarning maydoni kengaytirildi. Yangi-yangi qishloqlar, chorbog'lar va sayilgoh bo'stonlar barpo etildi. Amir Temur ayniqsa Samarqand vohasini sug'orib obod etishga alohida e'tibor berdi. Obirahmat, Bozor, Korand va Nahri Jadid kabi sug'orish tarmoqlari orqali obod etilgan birgina Angor tumanida dehqonchilik bilan shug'ullanadigan qishloqlarning soni 72 taga yetdi.

Amir Temur faqat Movarounnahrda emas, balki Xuroson, Eron, Kavkaz va boshqa viloyatlarda ham bir qancha yirik irrigatsiya ishlarini amalga oshirdi. Uning farmoni bilan Murg'ob vohasida qazdirilgan qator sug'orish kanallari, Kobul yaqinidagi Jo'yinav dahasining Bodon anhuri yoki Kavkazda Boylaqon mavzeyida Barlos arig'i shular jumlasidandir.

1381-yilda Xuroson fath etilgach, Amir Temur Murg'ob daryosidan kanallar qazdirib, Marv vohasini obod qilish to'g'risida farmon beradi. Sarkardalar va davlat ma'murlarining har biri alohida-alohida kanal qazishga boshchilik qiladilar. Hofizi Abro' bu kanallardan Dilkusho, Ganjra'von, Ganjxona, Umar Tobon, Shayx Abu Sa'd, Shayx Ali Bahodir, Davlatshoh Jondor, Gulbog'on, Hasan Jondor, Bu Alouddin inoq, Sahdak, Purdor, Ali Malik, Oq Bug'o, Davlatshoh bihisht, Sanjidak, Mangli Xoja, Kebekchi yurtchi, Qutlug' xotun kabilarning nomlarini qayd etadi.

1401-yilda Kavkazda Boylaqon mavzeida Amir Temur farmoni bilan Araks daryosidan chiqarilgan Barlos kanali zamonasining yirik sug'orish inshootlaridan biri sifatida diqqatga sazovordir. Uning uzunligi 10 farsax (60 — 70 km) bo'lgan. Kanal bo'ylab kemalar bemalol qatnay olgan.

XV asrning birinchi yarmida, Movarounnahr va Xurosonda Shohrux va Ulug'bek hukmronlik qilgan yillarda irrigatsiya ishlari ayniqsa rivoj topdi. Dashtlarga suv chiqarilib, yangi yer maydonlari o'zlashtirildi. Bu borada xususiy sohibkorlarning dashtliklardan yangi yerlarni ochish, korizlar qazib, bog' barpo etish, tashlandiq yerlarni sug'orib, obod etish uchun amalga oshirgan har qanday faoliyati Temuriylar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Hatto bunday sohibkorlar bir-ikki yil davomida hamma soliq va to'lovlardan ozod etilgan.

XV asrning birinchi yarmida, Movarounnahr va Xurosonda Shohrux va Ulug‘bek hukmronlik qilgan yillarda irrigatsiya ishlari ayniqsa rivoj topdi. Dashtlarga suv chiqarilib, yangi yer maydonlari o‘zlashtirildi. Bu borada xususiy sohibkorlarning dashtliklardan yangi yerlarni ochish, korizlar qazib, bog‘ barpo etish, tashlandiq yerlarni sug‘orib, obod etish uchun amalga oshirgan har qanday faoliyati Temuriylar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Hatto bunday sohibkorlar bir-ikki yil davomida hamma soliq va to‘lovlardan ozod etilgan.

Bu davrda Temuriylar va ularning viloyat hokimlari tomonidan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Marv vohalarida, Tus vodiysida hamda Hirot va uning atrofida yirik sug‘orish inshootlari barpo etilib, ayrim dehqonchilik viloyatlarining suv ta‘minoti tubdan yaxshilandi. Temuriylar hukmronlik qilgan davrda amalga oshirilgan eng yirik sug‘orish ishlaridan biri Samarqand vohasida Zarafshon daryosidan bosh olgan Darg‘om anhoridan chiqarilgan qadimgi Angor kanalining qayta tiklanishi bo‘ldi. Zamonasining eng yirik sug‘orish tarmog‘i hisoblangan bu kanal orqali Zarafshon daryosi oqimining bir qismi bu davrlarda kam suvli Qashqadaryo vohasiga tashlanib, uning adog‘iga joylashgan dehqonchilik yerlari suv bilan to‘la ta‘minlandi.

Buxoroning qadimgi sug‘orilgan yerlari bo‘ylab olib borilgan arxeologik tadqiqotlardan ma‘lum bo‘lishicha, mo‘g‘ullar bosqini oqibatida butunlay vayron etilgan voha suv xo‘jaligi XV asrga kelib to‘la tiklandi. Uning dehqonchilik yer maydoni birmuncha kengayib, vohaning g‘arbiy chegarasi hatto Urganch dashti tomon ichkariga 5 - 6 kilometr kirib bordi. Ulug‘bek hukmronlik qilgan davrda (1409—1449) Buxoro vohasining janubi-sharqiy sarhadiga yondoshgan Somonjuq dashtiga suv chiqarilib, yangi yerlar o‘zlashtirildi.

Mo‘g‘ullar bosqini davrida vayron etilgan Murg‘ob daryosining bosh to‘g‘oni Sultonbandning Shohrux tomonidan tiklanishi va sug‘orish tarmoqlarining loyqadan tozalanishi tufayli Marv shahri hamda Murg‘ob vohasining suv ta‘minoti tubdan yaxshilandi, shahar atrofidagi suvsizlikdan qurib qolgan yerlarga qayta suv chiqarilib, sug‘orma dehqonchilik yer maydonini kengaytirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Husayn Boyqaro hukmronligi davrida esa uning tashabbusi bilan

Hariruddan yangi kanal chiqarilishi tufayli kattagina yer maydoni sugʻorilib, obod etildi.

Hirot va Mashhad atroflarida Alisher Navoiyning tashabbusi bilan amalga oshirilgan sugʻorish ishlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Navoiy Tus viloyatining yuqori qismida joylashgan Choshmagʻul mavzeyida Turuqband suv ombori qurdirdi. Oʻn farsax (60 — 70 km) uzunlikda maxsus kanal qazdirib, Turuqband suv omborida jamgʻarilgan suv Mashhadga olib kelindi. Natijada, Mashhad suv bilan taʼmin etilib, shahar atrofidagi yerlarga suv chiqarildi va obod etildi.

Bu davrga kelib irrigatsiya texnikasi ham taraqqiy qildi. Muhandislik asosida turli sugʻorish inshootlari qurildi. Temuriylar hamda ularga taqlid qiluvchi viloyat hokimlari tomonidan Movarounnahr va Xuroson shaharlari atrofida istirohat bogʻlari barpo etilishi munosabati bilan koʻplab sugʻorish tarmoqlari chiqarilib, ular toshhovuz, dargʻot, navo, chigʻir, charxpalak, qaynama, sharshara, osma koʻprik, handaq, tazar va sardobalar kabi turli suv inshootlari bilan jihozlandi.

Qishloq xoʻjaligida, xususan, gʻallakorlik, sabzavotchilik va polizkorlikda deyarli hamma ekin navlari yetishtirilgan. Bogʻdorchilikka zoʻr ahamiyat berilgan, mevali daraxtlarning koʻplab xillari koʻkartirilib, mamlakat aholisi yozda meva, bahor mavsumida esa mevaqoqilar bilan taʼminlangan.

Xoʻjalikning asosiy turlaridan biri chorvachilik edi. Mamlakatning iqtisodiy hayotida ayniqsa yaylov chorvachiligi: yilqichilik, qorakoʻlchilik, tuyachilik hamda podachilik muhim oʻrin tutdi. Qishloq xoʻjalik mahsulotlari, xoh u dehqonchilik, xoh chorvachilik mahsuloti boʻlsin, shubhasiz, oddiy mehnatkash xalqning ogʻir va mashaqqatli mehnati tufayli yetishtirilib, uning taqsimoti mamlakat aholisining ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlari mohiyatini anglatgan.

Bu davrda temuriylar va ularning viloyat xokimlari tomonidan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Marv vohalarida, Tus vodiysida xamda Xirot va uning atrofida yirik sugʻorish inshootlari barpo etilib, ayrim dehqonchilik viloyatlarining suv taʼminoti tubdan yaxshilandi. Eng yirik sugʻorish ishlaridan biri Samarqand vohasida Zarafshon daryosidagn bosh olgan Dargʻom anhoridan chiqarilgan

qadimgi Angor kanalining qayta tiklanishi bo'ldi. Bu kanal orqali Zarafshon daryosi oqimining bir qismi bu davrda kam suvli Qashqadaryo vohasiga tashlanib. Uning adog'ida joylashgan dexqonchilik yerlari suv bilan ta'minlanadi. Buxoroning qadimgi sug'orilgan yerlari bo'ylab mo'g'ullar bosqini oqibatida butunlay vayron etilgan voqa suv xo'jaligi XV asrga kelib to'la tiklanadi. Ulug'bek davrida Buxoro vohasining janubiy sharqiy chegarasiga yondashgan Somonjuq dashtiga suv chiqarilib, yangi yerlar o'zlashtiriladi. Mo'g'ullar bosqini davrida vayron etilgan Murg'ob daryosining bosh to'g'oni — Sultonbandning Shoxrux tomonidan tiklanishi va sug'orish tarmoqlari loyqadan tozalanishi tufayli Marv shahri va Murg'ob vohasining suv ta'minoti tubdan yaxshilangan.

6.3-§. Amir Temur va avlodlari davrida yer egaligi turlari

XV asr davomida Movarounnahr va Xurosonda avvalgidek yer va mulkchilikning asosan to'rt shaklidagi: mulki devoniy — davlat yerlari, mulk — xususiy yerlar, mulki vaqf — madrasa va masjidlar tasarrufidagi yerlar va, nihoyat, jamoa yerlari bo'lgan. Dehqonchilik yerlarining eng katta qismi davlat mulki hisoblangan. Bu yerlarga, avvalgidek, mamlakat hukmdori sulton yoki amirlar egalik qilardi.

Temuriylar davrida davlat yerlarini suyurg'ol tarzida in'om qilish keng tarqaldi. Suyurg'ol yerlar hajmi, sharti hamda yer va yorliqqa ega shaxslarning tabaqasi jihatidan turlicha bo'lgan. Odatda, shahar yoki viloyatlardan tortib, to alohida qishloqqacha suyurg'ol shaklida in'om etilgan. Butun bir shahar yoki viloyat ko'pincha hukmron sulola namoyandalari yoki yirik harbiy va davlat mansabdorlariga berilgan. Suyurg'ol egasiga o'z suyurg'oli doirasida amaldorlar tayinlash, soliqlar va turli to'lovlarni to'plash hamda aybdorlarni jazolash huquqi berilgan. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Shohrux davrida Xorazm — Shoh Malik; Farg'ona — Mirzo Ahmad; Tus, Mashhad, Obivard, Nisoni o'z ichiga olgan Xuroson — Boysung'ur; Kobul, G'azna va Qandahor viloyatlari Mirzo Qaydu bahodirning suyurg'oli edi. Suyurg'ol yorlig'iga ega bo'lgan viloyat

hukmdorlari markaziy hokimiyatga faqat nomigagina qaram bo‘lib, odatda, ular deyarli mustaqil edi.

Dehqonchilik qilinadigan yerlarning asosiy qismini davlat yerlari tashkil qilgan bo‘lib, Temuriylar davrida bu yerlarni amir va sultonlarga suyurg‘ol tarzida inom qilish holati keng tarqalgan. Suyurg‘ol yerlarning egalari barcha davlat soliqlaridan ozod qilingan bo‘lib, bunday yerlarda yashagan dehqonlar yer egalariга soliq to‘lab turishgan. Suyurg‘ol yerlarining maydoni ijaraga berish sharti, hamda yer va yorliqqa ega bo‘lgan shaxslarning imtiyozlari turlicha bo‘lgan. Odatda, suyurg‘ol shaklida shahar yoki viloyatlardan tortib, to alohida qishloqlargacha in‘om etilgan. Butun bir shahar yoki viloyatlar ko‘pincha hukmron sulola vakillari yoki yirik harbiy va davlat amaldorlariga berilgan. Bunday suyurg‘ol yer va mulklar, ko‘pincha avloddan—avlodga meros bo‘lib o‘tgan. Suyurg‘ol yerlarni qo‘lga kiritgan shaxslarga o‘zi egalik qilayotgan yerlarni boshqarish uchun amaldor tayinlash, soliq va turli to‘lovlarni to‘plash hamda aybdorlarni jazolash huquqi berilgan. Suyurg‘ol yer egaligini qo‘lga kiritgan viloyat hukmdorlari markaziy hokimiyatga faqat nomigagina qaram bo‘lib, odatda, ular deyarli mustaqil bo‘lganlar. Shu bilan birga Markaziy hokimiyat suyurg‘ol egalari tobeligini kuchaytirish maqsadida ba‘zan ularning tasarrufidagi yer maydonlarini qisqartirish yoki ma‘muriy va huquqiy jihatdan cheklab qo‘yish imkoniyatini saqlab qolgan. Suyurg‘ol egasi markaziy hukumat talablariga bo‘ysunmagan taqdirda o‘z huquqlaridan mahrum qilinib, unga tegishli viloyat boshqa shaxslarga berib yuborilgan.

Temuriylar davrida yer maydoni va egasining haq—huquqlari ancha — muncha cheklangan suyurg‘ol yerlar egalari ham ko‘p bo‘lib, ularning tarkibiga xizmat ko‘rsatgan kichik mansabdor harbiylardan tortib, oliy hukmdorning muntazam gvardiyasidagi askarlargacha kirgan. Navkarlarga berilgan yerlardan soliq olinmagan. Dehqonchilik qilinadigan yerlarning katta qismiga xususiy mulk maqomi berilgan. Katta yer maydonlariga ega bo‘lgan mulkdorlardan tortib, kichik yerlari bo‘lgan oddiy dehqonlarga xususiy mulk egalari qatoriga kirishgan.

Xususiy yerlarning katta qismi ma'muriy, harbiy va diniy arboblarning tasarrufida bo'lgan.

«Suyurg'ol» egalari nomigagina markaziy hokimiyatga qaram bo'lib, amalda deyarli mustaqil bo'lganlar. Mabodo «suyurg'ol» egalari haddilaridan oshib, markaziy hokimiyatga bo'ysunmay qo'ysalar ularning tasarrufidagi yer maydonlari qisqartiriladi, yoki ularning ma'muriy va adliya haq-huquqlari cheklab qo'yilar edi. Eng oxirgi va ogir so'nggi chora sifatida «suyurg'ol» dan mahrum etish hollari ham bo'lar edi. Jumladan, Shohruh 1414-yilda bo'ysunmagani uchun Mirzo Aleksandrni, 1415-yilda yesa Mirzo Boyqaroni «suyurg'ol»dan mahrum qiladi.

Temuriylar davrida maydoni jihatidan mayda va haq-huquki jihatidan ancha-muncha cheklangan suyurg'ol yerlari ham bo'lgan. Bunday mayda suyurg'ol yerlari, odatda, xizmat ko'rsatgan kichik mansabdagi harbiylardan tortib, oliy hukmdorning muntazam gvardiyasidagi harbiylargacha berilgan. Boburning yozishicha, Xusayn Boyqaroning 14 minglik gvardiyasi va 40 minglik muntazam qo'shini (g'ul)ning har bir askariga 80 jarib, ya'ni 40 tanobdan yer berilgan. Navkarlarga berilgan bu yerlardan ham soliq va to'lovlar olinmagan.

Sohibqiron Amir Temur davrida asos solingan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar uning avlodlari davrida ham asosan davom ettiriladi. Albatta, amir, bek va sultonlar o'rtasida olib borilgan o'zaro urushlar o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotiga salbiy ta'sir qiladi. Ammo ijtimoiy hayot to'xtab qolgani yo'q.

Yerga yegalik qilishning ikkinchi shakli xususiy yerlar edi. Albatta, katta-kichikligidan qat'i nazar, yirik mulkdorlarning katta yer maydonlari ham, mehnatkash ziroatchilarning mayda paykallari ham xususiy yer mulklari hisoblangan. Mulk yerlarining katta qismi ma'muriy, harbiy va diniy arboblarga ularning davlat oldidagi alohida xizmatlari uchun berilgan va ular juda katta hajmdagi yer-mulklarga yegalik qilganlar. Masalan, XV asrning ikkinchi yarmida yashagan Xo'ja Ahrorning 1300 taga yaqin yer-mulki bo'lib, bu mulklarning ayrimlari 300 qo'shga teng bo'lgan. Yoki ulug' shoir va davlat arbobi Alisher Navoiyning ham Astrobod, Hirot, Sabzovor va boshqa joylarda juda katta hajmda

yer-mulklari bor edi. Zahiriddin Muhammad Bobur bergan ma'lumotlarga qaraganda, u Sulton Husayn Boyqarodan sovg'a-salomlar qabul qilmas, aksincha, uning o'zi sultonga bunday sovg'alarni in'om yetar ekan. Xondamirning yozishicha, kunlarning birida Navoiy Sulton Husayn Boyqaroga sovg'a tariqasida 25 tuman oltin, kumush tangalar, uning qarindosh-urug'lariga 1000 man ipak mato, 1000 harvor don va 200 ming dinor pul in'om yetgan. Ayni zamonda Navoiy mamlakat obodonchiligi, ilm-fan va ma'rifat yo'lida ham katta mablag' sarf yetgan, kambag'al, beva-bechora va yetimlarning boshini silagan.

Bu davrda bosh hukmdor tomonidan yirik mulk yegalariga alohida xizmatlari uchun tarxon yorlig'i berish tartibi joriy qilingan. Tarxon bilan «suyurg'ol» ni aralashtirmaslik kerak. Suyurg'oldan keladigan foydaning 2/3 qismi suyurg'ol egasiga tegishli bulsa, qolgan qismi soliq sifatida to'langan. Tarxon olgan shaxs davlat xazinasiga tushadigan turli xildagi soliq o'lpon to'lashdan ozod qilingan. Demak, tarxon - imtiyozga ega bo'lmoq ma'nosini anglatadi. Tarxon yorlig'ini olgan shaxsning gunohi to'qqiz martagacha kechirilgan. O'ninchi marta gunoh ish qilgan taqdirdagina jazoga tortilgan.

Tarxonlik yorlig'i, odatda, amirlar, beklar, saroy amaldorlari, sayyidlar va boshqa yuqori tabaqa vakillariga berilgan. Bunday yorliqni olgan mulkdor ismiga tarxon so'zi qo'shib aytilgan. Tarxonlarning aksariyati juda boy bo'lgan. Masalan, bu davrda Hirot atrofidagi mulklar Darveshali Tarxon, Samarqand va Buxoro atrofidagi juda katta yerlar Abuali Tarxon ko'lida to'plangan edi. Bobur Abuali Tarxonning shohona hayotini tasvirlab, uning hashamatli saroyi, xizmatidagi uch ming kishidan iborat xizmatkor-u navkarlari, o'tkazgan dabdabali to'y-tomoshalari, bergan qimmatbaho sovg'a-salomlari va xalqqa qilgan jabr-zulmlari to'g'risida yozgan.

Sayid va xo'jalarga qarashli yer ushr yerlari deb atalgan. Ular o'z yerlaridan olgan daromadlarining undan bir qismini davlatga soliq sifatida to'laganlar. Amir Temur o'z davlati tasarrufida in'om etilgan yerlar ustidan muntazam nazorat o'rnatirgan. Bu havda Temur tuzuklarida shunday deyiladi: «Tiyul (xiroj va soliq yig'ib olish sharti bilan in'om etilgan yer—mulk) qilib berilgan har bir

mamlakatga ikkitadan vazir tayinlasinlar. Biri viloyatdan yig‘ilgan mollarni yozib, raiyat ahvolini tekshirib tursinki, jogirdor fuqarolarga jabr —zulm yetkazib, uning holini xarob etmasin. U viloyatdan yig‘ilgan butun mol ashyolarini kirish daftariga yozishi lozim. Ikkinchi vazir esa (daromadning xarj etilgan qismini chiqish daftariga yozsin va yig‘ilgan (mollardan) sipohiylarning maoshiga taqsim qilsin. Qaysi amirga tiyul berilar ekan, uni 3-yilgacha o‘z holiga qo‘ysinlar. Uch yil o‘tgandan so‘ng, uni tekshirib ko‘rsinlar. Agar mamlakat obod, raiyat rozi ekan shu holicha qoldirsinlar. Agar ahvol bunga xilof ravishda bo‘lsa ul viloyatni xolisaga (davlat ixtiyoridagi barcha soliqlardan ozod etilgan yer -suv) o‘tkazib, 3-yilgacha usha togidor (in‘om etilgan yer-suv (tiyul) egasi)ga ulufa (oziq — ovqat, maosh, soliq turi) berilmasin”. Amir Temur mulk qilib berilgan joylarda ham nazoratni kuchaytirib, mamlakatda don, paxta, poliz va meva — chevaning mo‘l bo‘lishini ta‘minlashga e‘tibor bergan.

Temuriylar hukmronligining so‘nggi davrida Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va boshqa viloyatlarning dehqonlaridan hamda shahar aholisidan yig‘iladigan davlat daromadlarining anchagina qismi tarxonlar qo‘lida to‘planib, Movarounnahrda ular g‘oyat katta kuchga aylangan edi. Mamlakatning siyosiy hayotida tarxonlarning nufuzi kuchli bo‘lib, ular juda katta siyosiy huquqdan foydalanar edilar. Hatto o‘zaro nizolar vaqtida tarxonning qo‘llab-quvvatlashi birorta viloyat hokimining taqdirini belgilashda ba‘zan hal qiluvchi ahamiyat kasb etardi.

XV asrda ham, avvalgi davrlardagidek, juda ko‘p yer-suv masjid, madrasa, xonaqoh, maqbara va mozorlarga birlashtirilib, bunday yerlar mulki vaqf deb atalgan. Ma‘lumki, Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahr va Hurosonda katta-katta dehqonchilik yerlari vaqf qilingan. Odatda, yer va suvdan tashqari, ko‘plab do‘kon, korxonalar, tegirmon, objuvoz, bozor, karvonsaroylar ham vaqf qilinib, ulardan tushgan daromad masjid, madrasa, shifoxona va xonaqohlarning ta‘miri, jihozi, mutavalli, mudarris, tabib va talabalarga beriladigan nafaqalar hamda langarxona (musofirxona) va shifoxonalarning kundalik ehtiyoji (oziq-ovqat, yoqilg‘i va yoritkichlari) uchun

sarf etilgan. Temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda ko‘plab masjid, madrasa, maqbara va shifoxonalar qurilgan bo‘lib, ular asosan vaqf mulklari hisoblangan. Vaqf mulklaridan tushgan daromadlar masjid, madrasa, shifoxona, mozor va xonaqohlarni ta‘mirlash, jihozlash, shuningdek mutavalli, mudarris va tabiblarga maosh, talabalarga beriladigan nafaqalar hamda musofirxona va shifoxonalarning kundalik xarajatlari (oziq-ovqat, yoqilgi va yoritqichlari) uchun sarf etilgan. Yer-suvdan tashqari, ko‘plab dukon, korxonalar, tegirmon, objovuz, bozor, karvonsaroylar ham vaqf qilib berilgan. Ulardan tushgan daromadlar xayriya ishlari uchun ham sarflangan. Demak, vaqf yerlaridan tushgan daromad, mamlakat aholisining ijtimoiy ahvolini yaxshilashga sarflanib, bu davlat xazinasidan boshqa ishlarda foydalanishga imkon bergan.

To‘rtinchi guruh yerlar - jamoa yerlari hisoblanib, uncha katta bo‘lmagan ulushni tashkil etgan. Bu yerlar qishloq aholisining umumiy tasarrufida bo‘lgan. Temur va temuriylar hukmronligi davrida sug‘orma dehqonchilik madaniyatini rivojlantirish, ariq va kanallar chiqarish kabi masalalarga katta e‘tibor berilgan. Jumladan, eng yirik sug‘orish ishlaridan biri Samarqand vohasida, Zarafshon daryosidan bosh olgan Darg‘om anhuri suvi bilan ta‘minlanuvchi qadimgi Angor kanalining qayta tiklanishi bo‘ladi. Bu kanal orqali «Zarafshon daryosi suvi» Qashqadaryoning kam suvli hududlariga oqiziladi va u yerda dehqonchilik madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Dehqonchilik yerlarining muayyan qismi qishloq aholisining umumiy tasarrufida bo‘lgan. Bunday yerlar qishloq to‘plari yoki jamoalarning mulki hisoblangan. Shubhasiz, bunday shakldagi jamoa yerlari mulkchilikning qadimiy turlaridan bo‘lib, ular ko‘proq suvga tanqis tog‘ va tog‘oldi hududlarida birmuncha keng tarqalgan edi. Bunday jamoaviy mulkchilik, odatda, kam suvli tog‘ jilg‘alarining suvini jamg‘arish yoki yerosti suvlarini yer yuziga chiqarish uchun qishloq jamoalarining kuchi bilan barpo etilgan o‘ta mashaqqatli va murakkab suv inshootlari — qulfakli hovuzlar va korizlar vositasida o‘zlashtirilgan yerlarda vujudga kelgan. Mulchilikning bunday turi, shubhasiz, Temuriylar hukmronligi davrida unchalik keng tarqalgan bo‘lmasa-da, har qalay mavjud edi.

Mo'g'ullar bosqini davrida batamom vayron etilgan Buxoroning suv xo'jaligi XV asrga kelib to'la tiklanadi, uning dehqonchilik maydoni kengayib, Urganjiy dashti tomon qariyb 5-6 km ichkariga kirib boradi. Ulug'bek hukmronligi davrida Buxoro viloyatining janubi-sharqiy chegarasiga yondoshgan Somonjuq dashtiga suv chiqariladi va yangi yerlar o'zlashtiriladi.

XIV-XV asrda Movarounnahr va Xurosonda yer egalari dehqon, ekin maydonlariga ishlov beruvchilar muzoriy deb yuritilgan. Muzoriylar, ya'ni ziroatchilar qishloqning mehnatkash tabaqasi bo'lib, ular **to'rt guruhga** bo'lingan:

- ✚ *davlat yerlarida ishlovchi muzoriylar;*
- ✚ *mulkdorlarning yerlarini ishlovchi muzoriylar;*
- ✚ *o'z yeriga ega bo'lgan dehqonlar;*
- ✚ *vaqf mulklarida ishlovchi muzoriylar.*

Muzoriy davlat yoki vaqf yerlarida ham, tarxon yoki suyurg'ol egalari kabi yirik mulkdorlarning yerlarida ham yollanma ziroatchi bo'lib dehqonchilik qilgan. Uning hosildan oladigan hissasi yer egalari yerdan tashqari, urug'lik, omoch, ho'kiz, ot-arava kabilarni berishiga qarab belgilangan. Qanday yerda dehqonchilik qilishidan qat'i nazar, muzoriy hamma vaqt soliqlarni to'lar va majburiyatlarni o'tar edi.

«Temur tuzuklari»da yozilishicha, kimki biron sahroni obod qilsa, yoki er osti suvlarini tortib oladigan inshoot qursa, yo, biron bog' ko'kartirsa, yoxud biron tashlandiq yerni obod qilsa, faqat erni o'zlashtirganining uchinchi-yili (xirojni birinchi, ikkinchi yil umuman to'lamagan) qonun doirasida xiroj solig'i olingan. Undan tashqari ushr, mol, suvoq kabi soliq turlari mavjud bo'lib, ular yillar davomida amal qilingan tartib-qoidalarga binoan to'plangan. Soliq to'lovchi soliq yig'ish jarayonida soliqni yaxshi so'zlar bilan to'plashi, aholini kaltaklash hollari, zanjirband etish hollari kelib chiqmasligini nazorat qilishi shart edi.

Oliyhimmat Sohibqiron o'z xalqiga muruvvatli bo'lib, bemavrid, bo'lar-bo'lmasga mol-xiroj kabi soliqlar solishga qarshi bo'lgan va xalqni bir necha marta yillab soliqlar to'lashdan ozod qilib yuborgan. Amir Temur davrida asosiy soliq

daromad solig'i- xiroj bo'lib, u olinadigan daromadning uchdan bir qismga teng bo'lgan.

Bu davrda sug'orish texnikasi rivoj topadi. Natijada mamlakatda dehqonchilik va bog'dorchilikning barcha turlari rivoj lanadi, chorvachilik taraqqiy yetadi. Bu amalga oshirilgan ishlarining hammasi mehnatkash va zahmatkash xalqning mehnati natijasida ro'yobga chiqarilgan, albatta. Katta yer yegalari o'z yerlarida yirik xo'jalik yuritish ishlarini amalga oshirishga qiziqmaydilar. Ular yerlarni kichik qismlarga bo'lib, chorakorlarga soliq solish hisobiga beradilar. Dehqonlar kimning yeri hisobiga yashashlariga qarab davlat yoki zamindorga soliq to'lar edilar.

Sug'orma dehqonchilik yerlarida alohida olinadigan asosiy soliq Amir Temur davridagidek «xiroj» hisoblangan. Bu soliq ba'zan «mol» deb ham atalgan. Soliq miqdori yetishtirilgan hosilga va yerning unumdorligiga qarab olingan. Shu sababdan xiroj soligi asosan hosil yetilib, unib, yig'ishtirib olish paytida mahsulot shaklida yoki pul bilan to'langan. Xullas, dehqonlar sug'orma yerlardan hosilning 13 qismidan tortib yarmigacha xiroj to'lar edilar. Lalmikor yerlarda esa bu ko'rsatkich 16-18 qismni tashkil yetgan. Mulk yerlarining bir qismidan «ushr» solig'i ham undirilgan, u hosilning 1/10 qismiga teng bo'lgan. Jumladan, XV asrning yirik mulkdorlaridan biri hisoblangan Xo'ja Ahror Valiy o'ziga qarashli bo'lgan 1300 yer-mulkdan har-yili Samarqand hukmdori Sulton Ahmad Mirzo xazinasiga g'allaning o'zidan 80 ming mon (1 mon - 20 kg ga teng) to'lab turgan.

Bulardan tashqari, bog' va daraxtzorlardan «mol sardaraxt», yaylovlardan – “mol o'tloq” va suvloq kabi soliqlar undirilgan. Chorvadorlar esa «zakot» solig'i to'laganlar. Bu soliq miqdori qirqdan bir, ya'ni 2,5 foyizga teng bo'lgan. Bu sanab o'tilgan soliqdar bilan bir qatorda fuqaro soliqlarni undirish va uning hisob-kitobi bilan band bo'lgan turli lavozimlardagi ma'muriy shaxslar xizmatlari uchun ham har xil miqdorda to'lovlar to'lashga majbur edi.

Majburiyatning yana bir turi «begar» deb atalgan. «Begar»- tekinga ishlab berish, ya'ni hashar ma'nosini anglatar edi. Aholi, odatda, shaharlarda devorlar, qo'rg'on, saroy, masjid, madrasa, ko'priklar qurish va ularni mustahkamlash, ariq-

zovurlar, kanallar, yo‘llarni qurish va tozalashda tekinga ishlab berishi kerak edi. Xullas, aholi gardaniga yuk bo‘lib tushadigan bunday xilma-xil soliqlar fuqarolarning qismatli hayotiga o‘z salbiy ta‘sirini o‘tkazardi va soliq zulmi siyosatiga qarshi mehnatkash ommaning norozilik harakatlariga sabab bo‘lardi. 1470-yilda Sulton Husayin Boyqaro ma‘murlarining o‘zboshimchalik bilan olib borgan soliq siyosatiga qarshi Hirot fuqarolarining bosh ko‘tarishi bu fikrimizning isbotidir. Alisher Navoiy Muhammad Yodgor boshchiligida ko‘tarilgan bu qo‘zg‘olonning oldini olib, shaharda adolat va tinchlik o‘rnatadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Amir Temur markazlashgan davlatga asos solish uchun olib borgan kurashida qaysi ijtimoiy qatlam vakillariga suyangan?
2. Amir Temur Samarqand va uning atrofini obodonlashtirish yo‘lida qanday ishlarni amalga oshirgan?
3. Mamlakatda suyurg‘ol asosida qurilgan mulkchilik tartibining g‘oyatda kuchayishi qanday salbiy oqibatlariga olib kelgan?
4. Amir Temur va Temuriylar davrida yer egalining qanday shakllari mavjud bo‘lgan?
5. XIV asr oxiri — XV asrning birinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda barpo etilgan katta-kichik daryo va soylardan yirik irrigatsiya tarmoqlari haqida so‘zlab bering.
6. Amir Temur faqat Movarounnahrda emas, balki Xuroson, Eron, Kavkaz va boshqa viloyatlarda ham bir qancha yirik irrigatsiya ishlarini amalga oshirdi. Siz ulardan qaysilarini bilasiz?
7. 1381 yilda Xuroson fath etilgach, Amir Temur Murg‘ob daryosidan kanallar qazdirib, Marv vohasini obod qilish to‘g‘risida farmon beradi. Sarkardalar va davlat ma‘murlarining har biri alohida-alohida kanal qazishga boshchilik qiladilar. Hofizi Abro‘ bu kanallardan qaysilarining nomlarini sanab o‘tgan?
8. 1401 yilda Kavkazda Boylaqon mavzeida Amir Temur farmoni bilan Araks daryosidan chiqarilgan Barlos kanalining o‘lchamlari qanday bo‘lgan?

9. Movarounnahr va Xurosonda Shohrux va Ulug‘bek hukmronlik qilgan yillarda amalga oshirilgan irrigasiya ishlari haqida so‘zlab bering.
10. Temuriylar tomonidan xususiy sohibkorlarning dashtliklardan yangi yerlarni ochish, korizlar qazib, bog‘ barpo etish, tashlandiq yerlarni sug‘orib, obod etish uchun amalga oshirgan har qanday faoliyati qanday taqdirlangan?
11. Hirot va Mashhad atroflarida Alisher Navoiyning tashabbusi bilan amalga oshirilgan sug‘orish ishlari haqida so‘zlab bering.
12. Temuriylar hamda ularga taqlid qiluvchi viloyat hokimlari tomonidan Movarounnahr va Xuroson shaharlari atrofida barpo etilgan istirohat bog‘lari haqida nimalarni bilasiz?
13. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Shohrux davrida kimlarga suyurg‘ol tarzida yer mulklari berilgan edi?
14. Sizningcha, Amir Temur va Temuriylar davrida yer-mulkning in‘om shakllaridan bo‘lgan suyurg‘olning tarxondan farqi nimada bo‘lgan?
15. Temuriylar davrida maydoni jihatidan mayda va haq-huquki jihatidan ancha-muncha cheklangan suyurg‘ol yerlari ham bo‘lgan. Bunday mayda suyurg‘ol yerlari kimlarga va qanday tartibda in‘om qilishgan?
16. XIV-XV asrda Movarounnahr va Xurosonda ekin maydonlariga ishlov beruvchilar muzoriylarning qanday turlari bo‘lgan?
17. Amir Temur va Temuriylar davrida sug‘orma dehqonchilik yerlaridan olinadigan soliqning miqdori haqida nimalarni bilasiz?

7-mavzu. Shayboniylar hukumronligi davrida Buxoro xonligida yer - suv munosabatlari

Reja:

7.1-§. Mavorounnahrda Shayboniylar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi va mazkur sulola hukmronligining siyosiy tarixi;

7.2-§. Shayboniylar davrida yer suv munosabatlari.

Tayanch iboralar: *Dashti Qipchoq, Muhammad Shayboniyxon, Turkiston, O'tror, Sabron, Yassi, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mahmudxon, Ahmadxon, Bobur, Toshkent, Shohruxiya, Farg'ona, Ismoil Safaviy, Xuroson, Jo'ybar shayxlari, Xo'ja Kaab, Afshona, Chahorminor, Hovuzixon, Mehtar Qosim, Tuyatortar, Abdullaxon bandi, yasoq.*

7.1-§. Mavorounnahrda Shayboniylar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi va mazkur sulola hukmronligining siyosiy tarixi

O'z davrida dunyoni larzaga solgan qudratli Amir Temur davlati Temuriy shahzodalarning hokimiyat talashib, o'zaro urushlari oqibatida parchalanib, inqirozga yuz tutdi. Bundan foydalangan Dashti Qipchoq hukmdori Muhammad Shayboniyxon (1451 — 1510) qo'shinlari bilan XV asr poyonida Turkistonga yurishlar uyushtirib, O'tror, Sabron, Yassi shaharlarini, 1500-yili Samarqand va Buxoro shaharlarini bosib oldi. 1501-yili Zahiriddin Muhammad Bobur qo'shinlarini yengib, ikkinchi marta Samarqand shahrini egalladi. Shayboniyxon 1503-yili Mahmudxon, Ahmadxon va Bobur boshliq turklar, mo'g'ullar va qalmiqlarning birlashgan qo'shinlarini engib, Toshkent va Shohruxiya shaharlarini, 1504-yili esa Farg'onani, 1506-yili janubda — Hisor, Balx, g'arbda — Xorazmni egallaganidan keyin butun Turkiston uning xtiyoriga o'tdi. U Samarqandni o'ziga poytaxt sifatida tanladi. Buxoroni ukasi Mahmud Sultonga, Toshkent vohasini amakilari Ko'chkinchi Sulton va Suyunchxonlar xtiyoriga berdi. Shundan keyin Shayboniyxon e'tiborini Xurosonga qaratdi. 1507-yili uning qo'shinlari Hirotni

egalladilar. 1508 —1509 yillarda Shayboniyxon shimolda qozoqlarga zarba bergach, o‘zini oliy qo‘mondon deb e‘lon qildi.

1510-yili Eron shohi Ismoil Safaviy Xurosonga yurish boshladi. Ayni paytda, Shayboniyxon ham Movarounnahrda yordamchi kuchlar kelishini kutmasdan Safaviyga qarshi urush e‘lon qildi. Murg‘ob daryosi vohasida bo‘lgan hal qiluvchi jangda Shayboniyxonning 17000 kishilik qo‘shini engildi, uning o‘zi asir olinib qatl etildi, Shundan keyin Bobur o‘zining Ismoil Safaviyga vassalligini bildirib, uning yordamida Samarqandni egalladi. Shahardagi Jome masjidida shoh Ismoil nomini xutbaga qo‘shib o‘qitildi. Bu mahalliy aholiga ma‘qul bo‘lmadi. 1512 yil Ismoil Safaviy tomonidan Boburni qo‘llab turish uchun yuborilgan qizil boshlilar Qarshi shahrini talab, Buxoro sari yo‘lga tushdilar. Biroq, o‘zbek sultoni Ubaydullaxon tomonidan tor — mor qilindi. Bobur esa Hisorga chekindi. Shayboniyxon o‘ldirilgandan keyin Movarounnahrda hokimiyatni Shayboniyxonadoniga mansub Ko‘chkinchxon (1510-1530), Abdusaidxon (1530-1533) va Ubaydullaxon (1533—153x) lar boshqardilar. Ubaydullaxon mamlakat birligini ta‘minlashda ancha layoqat va shijoat ko‘rsatdi. Xuroson uchun kurashlarda eronliklar hujumini qaytarib turdi. Ammo, uning vorislari o‘rtasidagi o‘zaro nizolar natijasida markaziy hokimiyat bo‘lindi va zaiflashdi. 1540-yilga kelib Buxoroni Ubaydulloxonning o‘g‘li Abdulazizxon (1540-1550), Samarqandni esa Ko‘chkinchxonning o‘g‘li Abdulatif (1540—1551) boshqardilar. 1550-yili Abdulazizxon o‘limidan keyin Buxoroda hokimiyatni Baroqxon egalladi.

Nihoyat, Abdullaxon II hukmronligi davrida (1557 — 15x8) mintaqada markazlashgan qudratli davlat tashkil topdi. U 1584-yili Badaxshonni, 1588-yili Hirotni, 1593 — 94 yillarda Xorazmni bo‘ysundirdi. Biroq, Abdullaxon II hukmronligining so‘nggi yillarida mamlakat aholisining yuqori qatlamlari o‘rtasida nizolar kuchaydi. Abdullaxonning o‘limidan keyin taxtni egallagan o‘g‘li Abdulmo‘min 6 oydan keyin hokimiyat uchun kurashlar natijasida o‘ldirildi. Shundan keyin, Abdullaxon II ning amakivachchasi Pirmuhammad (1598 — 1601) mamlakatni boshqardi. Biroq, u ham o‘ldirilgandan keyin Shayboniyxon sulolasining hukmronligi tugadi.

Shayboniylar hukmronligi davrida oliy boshqaruv organi dargoh deb atalib, uni oliy hukmdor — xon idora qilgan. Naqib (sardor, boshliq) dargohdan keyingi muhim lavozim hisoblanib, ularga harbiy yurishlarni uyushtirish, siyosiy masalalar bilan shug‘ullanish, elchilar tayinlash kabi vazifalarni bajarish topshirilgan. Davlat axamiyatiga ega bo‘lgan lavozimlardan yana biri otaliq deb nomlanib, ular viloyatlar, bekliklarni boshqarish uchun yuborilgan balog‘atga etmagan shahzodalarga yo‘l ko‘rsatishgan, ish o‘rgatishgan. Keyingi lavozim parvonachi deb nomlanib, parvonachilar xonlar chiqargan farmonlar, yorliqlar va boshqa hujjatlarni joylarga etkazish hamda ularning ijrosini nazorat qilishgan. Dodxoh lavozimi fuqarolardan tushgan maktublar, shikoyatlarni xonga yetkazish, mamlakatda tartib — intizom va adolat o‘rnatish uchun javobgar bo‘lgan. Ko‘kaldosh (odatda, sulola vakillaridan birortasi bilan emishgan kishilarga nisbatan aytilgan) lavozimiga ham xonlarning ishonchli kishilari tayinlanib, ular siyosiy ziddiyatlar, o‘zaro nizolarni bartaraf etishgan. Eshik og‘asi lavozimidagi shaxs xavfsizlik xizmati uchun javob bergan. Urush paytlarida ular muhim harbiy topshiriqlarni ham bajarishgan. Bulardan tashqari, dargohda qo‘rchiboshi (qurol — aslahalar uchun javobgar), jivachi, tavochi, qorovulbegi, tug‘begi, shuningdek, kitobdor, mirzaboshi, munshiy, muhrdor, xazinachi, mehtar va boshqa lavozimlar bo‘lgan.

Ilgaridan mavjud bo‘lgan davlat nazorati xizmati (devoni mushrif) Shayboniylar hukmronligi davriga kelib asosan ko‘kaldosh zimmasiga yuklatilgan. Hofiz Tanish Buxoriyning ta’kidlashicha, devonbegi mamlakatning muhim ishlaridan, mol-mulk, soliq yer-suv masalalari, amaldorlarni mansablarga tayinlash va boshqa masalalar bo‘yicha hukmdorga muntazam hisobot berib turgan.

XVI asr boshlarida Shayboniylar qo‘shinlaridan keyin Movarounnahrda ko‘plab ko‘chmanchi chorvador qabilalar kirib kelishdi. Ular bu yerda mahalliy aholi ijtimoiy — iqtisodiy hayotiga ma’lum darajada o‘z ta’sirlarini o‘tkazdilar. Bu ta’sirlarning salbiy va ijobiy jihatlari bo‘lib, ko‘chmanchilarning bostirib kirishiga nisbatan, mamlakatda ilgari muntazam davom qilib kelgan feodal urushlar aholi turmushiga ko‘proq ziyon yetkazgan edi. To‘g‘ri, yangicha boshqarish sharoitida

mamlakatning ishlab chiqarish jarayoni dastlab yetarlicha rivojlana olmadi. Bu vaqtda ko'chmanchi chorvadorlarning bostirib kelishi oqibatida ayrim hududlarda qishloq xo'jaligi tizimi ma'lum darajada izdan chiqdi. Qadimdan ishlab turgan ba'zi sug'orish inshootlari qisman zararlandi. Shu bilan birga, dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan o'troq aholining chorvador elatlar bilan savdo—sotiq aloqalarining rivojlanishi, moddiy va madaniy hamkorlikning kuchayishi har ikkala tarafning ijtimoiy — iqtisodiy hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Mamlakatda bo'lib turgan doimiy urushlar oqibatida mehnatkash aholi ijtimoiy—iqtisodiy ahvoli og'irlashib bordi. Shu tufayli norozilikning kuchayishi va yangi hukumatga ishonchsizlik, XVI asr boshlarida Shayboniyxonni qishloq xo'jaligini jonlantirish uchun bir qator choralar ko'rishga majbur etdi. U, avvalo e'tiborini yashash joylarini tashlab ketgan dehqonlarni qaytarishga qaratdi. Qaytib kelgan dehqonlardan olinadigan soliqlarni kamaytirishga harakat qilindi. Bundan maqsad, ularni «yana doimiy soliq to'lovchilarga aylantirish»dan iborat edi. Xon tomonidan maxsus majlis chaqirilib, unda qochqinlarni yashirishni ta'qiqlash, bunday holat sodir bo'lganda, har ikkala tomonni ham jazolab, qochqinlarni o'z joylariga qaytarish ko'zda tutildi. Biroq, bu chora — tadbirlar istalgan natijani bermadi. Buning asosiy sabablaridan biri to'lanayotgan soliqlarni tartibga solish va ularning o'sishini oldini olishning imkoni yo'qligida edi.

7.2-§. Shayboniylar davrida yer-suv munosabatlari

Shayboniylar davrida sug'orma dehqonchilik tizimiga alohida e'tibor qaratilgan. O'rta Osiyo sug'orma dehqonchiligining muhim manbalari — Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Murg'ob daryolari va ularning irmoqlaridan samarali foydalanishga harakat qilingan. «Mehmonnomai Buxoro» asarining muallifi Sirdaryo haqidagi ma'lumotida, bu daryoning kechuv joylaridan, irmoqlaridan ko'plab anhorlar qazilgani va ularning suvdan atrofdagi ekinzorlar sug'orilganini ta'kidlab o'tgan. Shuningdek, Shayboniyxon davrida Zarafshon daryosiga qurilgan (1502-yili) ko'prik — suvayirg'ich vodiy bo'ylab suv taqsimotini yaxshilashga xizmat qilgan.

XVI asrning 80-yillarida Abdullaxon II ning farmoni bilan Nurota tumani markazidan 65 km sharqda, eski Oqchob qishlog‘i yaqinidagi Beklarsoy darasida bunyod etilgan to‘g‘on («Abdullaxon bandi») o‘z davrining murakkab muhandislik inshooti bo‘lib, u suv to‘planishi va sarfini tartibga solib turgan. To‘g‘on slanets toshlardan qurilgan bo‘lib, ular suvga chidamli maxsus ganch qorishmasi —qir bilan biriktirilgan. To‘g‘onning uzunligi asosida 73 m, yuqorisida 85 m, balandligi 14,5 m bo‘lgan. Bunda suv bosimi hamda uning ag‘daruvchi kuchi hisobga olingan holda to‘g‘on asosining qalinligi 15,3 m, ustki qismi 4,5 m qilinib, zinapoya shaklida qurilgan. Suv omborining uzunligi 1,5 km, eni 75—125 m. Abdullaxon bandida taxminan 1,2 mln. kubometr suv to‘nlangan. Suv ombori quyida joylashgan Jilon, Tamg‘ali, Kamar, Oqchob, Ravot, Soykechar va O‘rganjiy qishloqlari aholisiga tegishli qariyb 1,2 ming ga yerlar sug‘orilgan.

XVI asrning II yarmida, asosan Abdullaxon II hukmronligi davrida, Zarafshon daryosiga qurilgan Puli Karmana, Puli Mehtar, Puli Jondor va boshqa sug‘orish inshootlari, Zarafshon daryosidan Jizzax vohasiga tomon qazilgan Tuyatortar kanali, Murg‘ob vohasidagi Hovuzxon suv ombori, Murg‘ob daryosidan Marv atroflariga suv chiqarish maksadida tortilgan kanallar sug‘orish tizimi va daryolar suvlari taksimotini yaxshilashda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu davrda Jo‘ybor shayxlariga tegishli yerlarni kengaytirish va bu yerlardan olinadigan daromadlarni oshirish maqsadida Vaxsh daryosidan bir necha yil davomida kanallar chiqarilgan. Katta kuch talab qilgan bunday kanallar qurilishida, asosan mahalliy mehnatkash aholi ishlashga majbur qilingan. Bu davrda irrigatsiya inshootlarining qurilishi va eskilarining ta‘mirlanishi ham qishloq xo‘jaligida sodir bo‘lgan jonlanishga ma‘lum darajada ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Shayboniylar istilosidan keyin O‘rta Osiyoda yerlarning asosiy qismi davlat ixtiyorida bo‘lib, bunday yerlar «Amloki podshohiy» yoki «Amloki sultoniy» deb atalgan. Tarixda ilgari «Mulki devoniy» nomi bilan mashhur bo‘lgan bunday yerlar Buxoro amirligi va Xiva xonliklarida ular tugatilguncha qadar mavjud bo‘lgan. Amlok yerlarga ekin ekiladigan yerlar va yaylovlardan tashqari, shaharlarda jamoatchilik tomonidan foydalaniladigan yerlar, ba‘zan undagi

inshootlar ham kirgan. Davlat yerlariga ishlov berilmaydigan yoki tashlandiq, xo'jasiz «o'lik yerlar» («zamini mavat, zamini mayiti») ham kiritilgan. Bunday yerlardan xonning ruxsati bilan ayrim feodallar foydalanishi mumkin bo'lgan. Bulardan tashqari, urug' yoki qishloq jamoasi ixtiyoridagi yaylovlar, to'qaylar ham mavjud bo'lgan.

Davlat yerlaridan olinadigan soliqlar evaziga tushgan daromadlar xonlar saroylari ta'minotidan tashqari, mustaqillikka intilgan beklklar va urug' boshliqlarini bo'ysundirishda, shuningdek mamlakatni tashqi dushmanlardan himoya qilishda, harbiy yurishlar qilib qo'shni viloyatlarni egallab olishda xonlarga ko'rsatgan sadoqatlari uchun harbiylar, ko'chmanchi aslzodalar, din rahnamolari va feodallarni mukofotlashda sarflangan.

Amlok yerlarni sotish, birovga taqdim etish yoki biron diniy muassasaga vaqf qilib berishga ruxsat berilmagan. Lekin, tarxda davlat yerlari bunday yerlarda qurilgan uskunalarni sotish bahonasida sotilib, boshqa bir shaxs qo'liga o'tganligi ma'lumdir.

Davlat yerlarining katta qismini qo'llariga kiritib olgan mulkdorlar o'zlariga tegishli yerlarni dehqonlarga turli shartlar asosida ijaraga berganlar. Shunday qilib, mulkdor shaxs amlokning nominal egasi bo'lgan feodal davlat bilan dehqon o'rtasida vositachi bo'lib, daromadning katga qismiga egalik qilgan.

Xususiy mulk egalari tegishli bo'lgan «Mulkiy yerlar»ning asosiy qismi katta yer egalari qo'lida to'plangan. Mulkiy yerlar erkin sotilgan. Katta yer egalari o'zlarining xususiy mulklaridan kelgan daromadga bevosita egalik qilganlar. Mulkiy yerlardan davlatga qanday soliq to'langanligi haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Biroq, ayrim hujjatlarning guvohlik berishicha, XVI asrning II yarmidan boshlab mulk egalari yerlarining bir qismini bo'lsa —da, davlat solig'idan ozod qilishga uringanlar. Buning uchun xonning maxsus farmoniga muvofiq mulk egasi yerining katta qismi (ko'pincha 3/4 qismi)ni davlat foydasiga berishi, ya'ni amlokka aylantirishi, qolgan kichik qismi (1/4 qismi) yer egasining ixtiyorida qolishi shart bo'lgan. Bunday yerlar «Mulki hurri —holis» yoki «Mulki holis» deb atalgan. Mulki hurri-holisdan yer egasi davlatga hech narsa to'lamagan.

Yerga egalik qilishning uchinchi shakli — **vaqf yerlari** bo‘lib, bu yerlar diniy muassasalar — masjid, madrasa, mozor va hokazolar ixtiyoriga berilgan. Vaqf yerlarini idora qilish huquqi dastlab dindorlar orasidan tayinlangan mutavalliga berilgan. Biroq, keyinchalik bunday yerlardan ruhoniylar ko‘proq o‘z manfaatlarini yo‘lida foydalanganlar. XVI asrda diniy muassasalar foydasiga katta miqdorda vaqf yerlarining ajratilishi, ruhoniylarning katta yer egalariга aylanishiga qulay sharoit yaratdi.

Shayboniy hukmdorlarning ko‘proq ruxoniylarga suyanishlari natijasida vaqf yerlarining daxlsizligi saqlab qolinishidan tashqari, qo‘shimcha ravishda yana ko‘plab vaqf yerlari ajratilgan. Masalan, Sirdaryo bo‘yidagi Shohruxiyada yashagan Amir Asadulla Abduvali eshon va uning yaqinlari foydasiga Abdullaxon 5500 gektardan ortiqroq yerni vaqf qilib bergan.

Shayboniylar davlati. Barcha turkiy xalqlarda bo‘lgani kabi shayboniylar davlatida ham hokimiyat masalasi, qo‘shinlarning tuzilishi masalalarida odat huquqlari nisbatan ustunroq bo‘lgan. Ushbu davlat tashkil topgan dastlabki davrda unda asosan Abulxayrxon davlatining tuzilishi hamda an‘analari saqlanib qolindi. Undan tashqari yer-mulk masalasida temuriylar davlatida shakllangan xizmat evaziga yer-mulk in‘om qilish shakllaridan shayboniylar davlatida ham qo‘llanilgan. Tadqiqotchilarning xulosalariga ko‘ra, bu davrda Buxoro xonligida er huquqi masalalarida: davlatga qarashli yerlar, ushr yerlari, xurri xoris yerlar, vaqf yerlari, xon va amaldorlarga tegishli yerlar, ko‘chmanchi qabila va uruglarga tegishli yerlar, suyurg‘ol yerlari, tanho yerlar hamda tarxonlik yerlari mavjud bo‘lgan.

Iqto atamasi XIV asrning ikkinchi yarmidan boshlab garchi muomaladan chiqib, o‘z o‘rnini turkiycha “**suyurg‘ol**” atamasiga bo‘shatib bergan bo‘lsa-da, shayboniylar davri ayrim manbalari va hujjatlarida “iqto” atamasini uchratish mumkin. Chunki, iqto‘, suyurgol, tanho atamalari va shu shakldagi yer mulki huquqining mazmuni bir-biriga deyarli yaqin bo‘lgan. Ya‘ni, bunday yer mulklari davlat oldidagi ma‘lum bir xizmatlari uchun ma‘lum hadya yoki in‘om ma‘nosini anglatgan.

Suyurgʻol shayboniylar davrida ham keng qoʻllanilgan boʻlib, shaxzodalar, yirik zodagonlar va nufuzli din peshnolariga maʼlum shart va imtiyozlar asosida berilgan yer mulki boʻlib, u nasldan naslga oʻtgan. Suyurgol egasi davlatga toʻlanadigan soliqlardan ozod qilingan boʻlib, oʻz suyurgolidan oladigan daromaddan oʻz ixtiyoricha foydalangan. Bunday imtiyozli suyurgʻol **“Darubast suyurgʻol”** deb atalgan.

Shaharlar, tumanlar va katta viloyatlar ham alohida xizmat koʻrsatgan shaxslarga suyurgʻol qilib berilgan. Misol uchun XVI asrning boshlarida Qarshi Xudoyberdi Sultonning suyurgʻol mulki boʻlgan.

Davlat yerlari dehqonlarga muddatsiz merosiy foydalanishga ijara sifatida berilgan. Darubast sifatida mulk va yer berish, Abdullaxon II davrida ayniqsa rivojlanib, u oʻzining pirlari Xoja Islom va uning avlodlaridan Xoja Saaʼdga hamda boshqa Joʻybor xojalariga butun-butun bosib olingan viloyatlarni darubast sifatida hadya qilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, ushbu mulk merosiy suyurgʻol (hadya) boʻlib, u barcha soliqlardan ozod qilish haqidagi imtiyozlar bilan birga vorislikka qoldirish huquqi bilan berilgan yer va boshqa mulklardan iborat boʻlgan.

Joʻybor xojalarining Buxoro, Samarqand, Nasaf (Qarshi), Marv va boshqa viloyatlarda katta yer maydonlari boʻlib, bu mulklar meros tariqasida avloddan avlodga oʻtgan va barcha soliqlardan ozod etilgan. Xonlar va boshqa yirik amaldorlar tomonidan ularga xadya etilgan yer mulklaridan tashqari ular Movarounnahr va Xurosonning serunum yaylovlariga, behisob podalarga, katta shaharlarda joylashgan oʻz hunarmandchilik doʻkonlariga, savdo rastalariga, tegirmonlar, hammom va karvonsaroylardan keladigan daromadlarga ham ega boʻlganlar.

Kattadan-katta boyliklarga ega boʻlgan joʻybor shayxlari oʻz xususiy yerlaridan tashqari vaqf yerlardan keladigan daromadni ham nazorat qilganlar. Xojalarning davlat ishlaridagi mavqeyi shunchalik kuchli ediki, ular hatto, amaldorlarni yuqori mansablarga tayinlash yoki chetlatishda ham katta taʼsirga ega boʻlganlar.

Shayboniylar davrida yer egaligining quyidagi asosiy turlari mavjud edi:

1. *Mulki sultoniy* yoki *mulki mamlaka* (manbalarda mamlakai devon, mamlakai podshohiy, zamini mamlaka, mamlakati sultoniy, mamlaka atamalarida ham uchraydi) davlatga qarashli yerlar bo‘lib, bu yerlarni sotish, xadya etish, vaqfga berish faqat xonning ixtiyorida bo‘lgan.

2. *Mulki xolis* yoki *mulki xurri xolis* - ma’lum shaxslarga tegishli bo‘lib, hukmdor tomonidan davlat oldidagi xizmatlari uchun berilgan shaxsiy yerlar (**suyurgol, iqto, tarxon, tiyul** va bosh.) Bunday yerlar va ularning egalari daftardor tomonidan maxsus daftarga qayd etib borilgan.


Vaqf yerlari-hukmdor yoki boshqa shaxslar tomonidan diniy muasasalarga mulk qilib berilgan yerlar va sug‘orish inshootlari. Bunday yerlardan kelgan daromadning asosiy qismi mutavallilar, qozilar va musulmon dindorlariga tushgan.

Shayboniylar davrida dehqonchilikka alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, avvalo, sug‘orish tizimini tartibga keltirish uchun qator tadbirlar amalga oshirilgan. Bu jarayonda mintaqadagi yirik suv manbalari Zarafshon, Chirchiq, Sirdaryo, Amudaryo, Vaxsh, Murgob kabi yirik daryolar va ko‘plab kichik daryolar hamda qo‘llar, tog‘ suvlarining imkoniyatlaridan keng foydalanilgan. Shayboniyxon davrida, siyosiy beqarorlik yillarida, Abdullaxon II davrida sun’iy sug‘orish ishlarining ahamiyati yo‘qolmagan. Undan tashqari shayboniylar davrida dehqonchilikning taraqqiyotini ta’minlovchi islohotlar o‘tkazilgan. Xususan, qarovsiz va lalmi yerlarni davlat mulkiga kiritib, bunday yerlarda dehqonchilikni rivojlantirish, dehqonchilik qilishni hojlaganlarga har tomonlama yordam berish, ma’lum muddat soliqlardan ozod etish, yerdan olinadigan soliqlarni yig‘ishdan mahalliy amaldorlarning o‘z mansablarini suiste’mol qilishlariga yo‘l qo‘ymaslik uchun ham tegishli tadbirlar amalga oshirilgan.

Shayboniyxon davlatni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlash yo‘lida qator islohotlar o‘tkazdi. Birinchidan, u davlat — boshqaruvida suyurg‘ol tizimini joriy etdi. Ya’ni zabt etilgan hududlarni boshqarish ishini o‘z farzandlariga, qarindosh-urug‘lariga, birodarlariga, qabila boshliqlari bo‘lgan sultonlarga topshirdi.



XVI asrda barpo etilgan Abdullaxon bandining umumiy ko'rinishi²⁶



Abdullaxonbandining fasadi va ko'ndadalong kesimlari²⁷

²⁶ Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi (Qadimgi davrdan – XX asr boshlarigacha). – T., 1972. – 311-bet

²⁷ Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi (Qadimgi davrdan – XX asr boshlarigacha). – T., 1972. – 315-bet

Samarqand poytaxt sifatida xon taxtiga o‘tkaziladigan joy hisoblangan. U yerda xon sharafiga xutba o‘qitilgan va pul zarb etilgan. Lekin suyurg‘ol mulklar markaziy hokimiyatdan mustaqil bo‘lishga intilar edilar.

Ikkinchidan, mamlakatda yer-suv qaytadan taqsim qilindi. Ko‘chmanchi qabila zodagonlari yengilgan mahalliy mulkdorlar mol-mulkini musodara qilish, sotish, egasiz qolgan yerlarni o‘zlariniki qilib olish yo‘li bilan mulklarini ko‘paytirib oldilar.

Uchinchidan, mamlakat ichida ijtimoiy hayotni tartibga solishga imkon beruvchi islohot ham o‘tkazildi. Keyingi 10 yil ichida soliqlar og‘irligidan va mulkdorlar jabr-zulmidan yer-suvlarini tashlab ketgan xo‘jaliklar yerlarini ishga tushirish masalasi ko‘rib chiqildi.


To‘rtinchidan, 1507-yilda pul islohoti o‘tkazildi. Bunga ko‘ra, mamlakatning hamma katta shaharlarida vazni bir xil — 5,2 gramm bo‘lgan yangi kumush tangalar hamda mis chaqa pullar zarb qilinib, muomalaga chiqarildi. Bu islohot iqtisodiyotni tartibga solish va savdo-sotiqni jonlantirish maqsadida o‘tkazilgan edi. Ayni paytda, bu islohot dehqonlarning soliq to‘lash imkoniyatini oshirishga, davlat va xon mulkini ko‘paytirishga imkon berdi.

Shayboniyxon tomonidan amalga oshirilgan bu va boshqa tadbirlar, o‘z mohiyatiga ko‘ra, markaziy hokimiyatni mustahkamlashga xizmat qilishi zarur edi. Muhammad Shayboniyxon vafotidan so‘ng boshlangan o‘zaro toj-u taxt kurashlari hamda Eron bosqinchilariga qarshi kurash mamlakat iqtisodiy hayotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Bu hol, o‘z navbatida, pulning qadrsizlanishiga olib kelgan. Natijada, oliy hukmdor Ko‘chkinchixon 1515-yilda navbatdagi pul islohotini o‘tkazishga majbur bo‘lgan. 1527-yilga kelgandagina ahvolning bir maromga tushishiga erishilgan. Shayboniy Abdullaxon II o‘tkazgan pul islohoti Buxoro xonligi tarixida muhim ahamiyatga ega voqea bo‘lgan. U oltin pul zarb etishni yo‘lga qo‘ygan va uning tarkibiga qiymati past bo‘lgan boshqa ma‘danlar aralashtirmasligini qattiq nazorat ostiga olgan. Bu pullar xonlikning butun hududida muomalaga kirdi. Bu hol, o‘z navbatida, hokimiyatning yanada markazlashuviga, xazinaga katta daromad tushishiga olib keldi, savdo-sotiq yanada

jonlandi.

Shayboniylar davrida ham iqtisodiy hayotda sun'iy sug'orish bilan bog'liq muammolarni hal etish ishiga jiddiy e'tibor bilan qaralgan.

Shayboniyxon avlodlari keyinchalik Qashqadaryoning irmoqlaridan Kesh viloyati yerlarini sug'orish uchun 10 dan ortiq kanallar qazitganlar. Sun'iy sug'orish ishlari, ayniqsa, Abdullaxon II davrida keng rivojlangan. Masalan, 1556-1585-yillar oralig'ida Zarafshon daryosida Karmana, Mehtar Qosim, Chahorminor, Jondor suv ayirg'ichlari; Murg'ob vohasida Sangzor, Hovuzixon suv omborlari qurilgan. Bundan tashqari, Sangzor daryosidan Jizzax vohasiga Tuyatortar kanali, Somonjuq dashtini obodonlashtirishga xizmat qilgan Xoja Ka'ab kanali, Afshona kanali, Amudaryodan Chorjo'yga, Murg'obdan Marvga, Vaxshdan uning atrof vohalariga suv chiqarishga imkon beruvchi kanallar qazilgan.



Chahor Minor ko'prigining plani va ko'ndalang kesimi.²⁸

²⁸ Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi (Qadimgi davrdan – XX asr boshlarigacha). – T., 1972. – 46-bet

Bundan tashqari, Abdullaxon II karvon yo'llarini qayta jonlantirish, sardobalar, karvonsaroylar qurish va ta'mirlashga ahamiyat berdi. 1577-yilda Buxoroda yirik usti berk savdo rastasi — Abdullaxon timi qurildi. Nurota tumanidagi Oqchob yaqinida Beklarsoy darasida joylashgan qadimgi to'g'on qoldiqlari o'rnida ulkan band qurdirdi. Abdullaxon bandi uning ravoqlarini to'g'on tepasida turib ochishi yoki bekitishi mumkin edi. Maqsad esa o'sha atrofdagi bo'z yerlarni sug'orib dehqonchilikni rivojlantirish va yurmi obod qilish edi.

Ayni paytda ko'plab mahalliy ahamiyatga ega suv inshootlari ham qurilgan.

Bu tadbirlar, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishini ta'minlagan. Shayboniylar davrida ishlab chiqarish tarmoqlari bo'lgan tikuvchilik, kulolchilik, temirchilik, qurolsozlik, zargarlik, qog'oz va qurilish ashyolarini ishlab chiqarish rivojlangan.

Ichki ziddiyatlar. Shayboniylar davlatidagi ichki ziddiyatlar markaziy hokimiyat bilan mahalliy hokimiyat o'rtasidagi ziddiyatlarda to'la namoyon bo'lgan.

Shayboniylar davrida yer egaligining iqto, suyurg'ol, tanho va jogir turlari bo'lgan. Shayboniyxon davrida davlatni kichik-kichik mulklarga (suyurg'olga) bo'lib idora qilinardi. Bu hol hokimiyatdan ajralib chiqishga sharoit yaratardi. Shayboniyxon bu xatoni tuzatishga urinib, bo'ysunishni istamagan mahalliy hukmdorlar mustaqilligini tugatishga, ayrim hukmdorlarni almashtirishga harakat qildi. Bu esa mahalliy hukmdor va zamindorlarning keskin noroziliklariga sabab boldi.

Shayboniylar davrida mehnatkashlarning iqtisodiy ahvoli nochor edi. Ko'pchilik omma yersiz bo'lib, ijaraga yer olib ishlashga majbur edi. Aholidan 20 turdan ortiq soliq va to'lovlar olinardi. Asosiy soliq sug'oriladigan yerdan olinadigan xiroj bo'lib, daromadning 30-40 foizini tashkil qilardi. Davlat muassasalari, qo'shin va xon xonadoni xarajatlarini qoplash uchun to'lanadigan soliq **ixrojot** deb atalardi. Davlat pulga muhtoj bo'lganida favqulodda soliqlar ham joriy etilgan.

Aholi soliq va jarimalar to‘lashdan tashqari, mehnat majburiyatini ham o‘tashi kerak edi. Bu majburiyat aholini kanallar, zovurlar qazishga, yo‘l va ko‘priklar qurishga, em-xashak yig‘ishga jalb etishni nazarda tutardi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. XVI asr boshlarida Shayboniylar qo‘shinlaridan keyin Movarounnahrda ko‘plab ko‘chmanchi chorvador qabilalarini kirib kelishi mamalakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida qanday o‘zgarishlarga olib olib keldi?
2. XVI asr boshlarida Shayboniyxonni qishloq xo‘jaligini jonlantirish uchun amalga oshirgan choralar haqida nimalarni bilasiz?
3. Shayboniylar hukmronligi davrida qaysi suv manbalaridan samarali foydalanib sug‘orma dehqonchiligining yuksaltirishga harakat qilingan?
4. XVI asrning 80 —yillarida Abdullaxon II ning farmoni bilan Nurota tumani eski Oqchob qishlog‘i yaqinidagi Beklarsoy darasida bunyod etilgan to‘g‘on («Abdullaxon bandi») haqida nimalarni bilasiz?
5. Shayboniy hukmdor Abdullaxon II ning sug‘orish inshootlari qurib, yurt obodonchiligi borasida olib borgan faoliyati haqida so‘zlab bering.
6. Shayboniylar hukmronligi davrida yer egaligining qanday shakllari mavjud bo‘lgan?
7. Mazkur davrda davlat yerlari tarkibiga kirgan «o‘lik yerlar» haqida qanday ma‘lumotlarga egasiz?
8. Davlat yerlaridan olinadigan soliqlar evaziga tushgan daromadlar nimalarga sarf qilingan?
9. «Mulki hurri —holis» yoki «Mulki holis» deb atalgan yer turlari haqida ma‘lumot bering.
10. Shayboniy hukmdorlarning ko‘proq ruxoniylarga suyanishlari natijasida vaqf erlarining daxlsizligi saqlab qolinishidan tashqari, qo‘shimcha ravishda yana ko‘plab vaqf erlari ajratish borasidagi amalga oshirgan ishlariga misol keltiring.

11. Shayboniylar davrida suyurg'ol shaklda yerlarni in'om etish keng qo'llanilgan bo'lib, ulardan bir turi bo'lgan "Darubast suyurg'ol" haqida nimalarni bilasiz?
12. Jo'ybor xojalarining qaysi hududlarda katta yer maydonlari bo'lgan hamda ularga qanday imtiyozlar berilgan?
13. Shayboniylar davrida xususiy yerlarning qanday ko'rinishdagi turlari mavjud bo'lgan?
14. Shayboniylar davrida aholi soliqlar to'lashdan tashqari qanday majburiyatlar bajarishgan?

8-mavzu. Ashtarxoniylar hukumronligi davrida Buxoro xonligida yer - suv munosabatlari.

Reja:

8.1-§. Ashtarxoniylar sulolasi davrida Buxoro xonligining siyosiy hayoti;

8.2-§. Ashtarxoniylar davrida yer-suv munosabatlari.

Tayanch iboralar: *Hojitarxon (Astraxon), Jonibek Sulton, Dinmuxammad, Boqimuxammad, Ashtarxoniylar (Joniyalar) sulolasi, Imomqulxon, otaliq, Jo‘ybor shayxlari, miroblar, mulki sultoniy, suyurg‘ol, tanho, tarxon, mulki hurri-holis, hiroj, Yalangto‘shbiy.*

8.1-§. Ashtarxoniylar sulolasi davrida Buxoro xonligining siyosiy hayoti

Shayboniylar sulolasi tugatilganidan keyin Buxoroda hokimiyat asli kelib chiqishi Hojitarxon (Astraxon)dan bo‘lgan Jonibek Sulton (Abdullaxon II ning singlisi Zuxraxonning eri) ga taklif etildi. Jonibek Sulton o‘g‘li Dinmuxammad foydasiga taxtdan voz kechdi. Bu vaqtda Obivardda noib bo‘lib turgan Dinmuhammad Hirot yaqinida safaviylar bilan bo‘lgan jangda halok bo‘ldi. Shundan keyin Jonibek Sultonning ikkinchi o‘g‘li Boqimuxammad hokimiyatni egalladi (1601 - 1605). Shu tariqa mamlakatda Ashtarxoniylar (Joniyalar) sulolasi hukmronligi o‘rnatildi. Biroq, o‘lkada feodal tarqoqlik kuchaygan bu davrda davlat boshqaruvida tinchlik va tartib o‘rnatish ancha qiyinlik bilan amalga oshirildi. 1605-yili hokimiyatni egallagan Valimuhammad (Jonibek Sultonning uchinchi o‘g‘li) ni 1611-yili o‘zaro til birlashtirishgan saroy a‘yonlari va zodagonlar taxtdan tushirdilar. Uning o‘rniga Dinmuhammadning o‘g‘li Imomqulxon (1611 - 1642) o‘tkazildi. U qalmiqlar, qoraqalpoqlar va qozoq biylari bilan bo‘lgan janglarda g‘alaba qozonib, o‘z mavqeini ancha mustahkamlab oldi. 1613-yili u qozoqlarni engib, Toshkentni egalladi. O‘g‘li Iskandarga otaliq belgilab, uni Toshkentga noib qilib jo‘natdi. Biroq, Iskandarning soliq siyosatidan norozi bo‘lgan Toshkent aholisi qo‘zg‘olon ko‘tarib, uni va amaldorlarini o‘ldirdilar. Imomqulxon Toshkentni bir oy qamal qilib, shahar aholisidan qattiq o‘ch oldi.

Imomqulxon 30-yildan ortiq hukmronligi davrida o‘zaro urushlarga va uluslar amirlarining mustaqillikka intilishlariga barham bergan bo‘lsada, feodal tarqoqliklarni bartaraf eta olmadi. 1642-yili u haj safariga jo‘nab, 1643-yili Madinada vafot etdi. Imomqulxondan keyin taxtni egallagan ukasi Nodirmuxammadxon (1642—1645) davrida ichki ziddiyatlar qayta avj oldi. U muxoliflar tazyiqi ostida taxtdan voz kechishga majbur bo‘ldi. Hokimiyat uning o‘g‘li Abdulazizxon qo‘liga o‘tdi (1645—1680). Bu davrda ham mamlakatdagi ichki ziddiyatlarga barham berilmadi, aholining ijtimoiy - iqtisodiy ahvoli yaxshilanmadi.

Abdulazizxonning ukasi Subhonqulxon davrida (1680—1702) ichki nizolar va feodal tarqoqliklar yanada kuchaydi. Uning o‘g‘li Ubaydullaxon (1709—1711) davrida ham vaziyat o‘zgarmadi. 1708—1709 yillarda Ubaydullaxon pul islohati o‘tkazdi. Islohatga ko‘ra, oldingi kumush tangalardan vazni 4 martaga kamaytirilgan holda zarb qilingan yangi kumush tangalarning qiymati oldingilariga barobar qilib qo‘yildi. Natijada pul qadrsizlanib, savdo —sotiq va bozorlar faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Narx - navoning ko‘tarilib ketishi axolining turmush sharoitini nihoyatda og‘irlashtirdi. Shundan keyin, Buxoro va Samarqandda xonning bu siyosatiga qarshi norozilik harakatlari ko‘tarildi. Ubaydulloxonning bu siyosati nafaqat mehnatkash xalqning, balki yirik yer egalarining ham jiddiy qarshiligiga uchradi. Ular tomonidan uyushtirilgan fitna tufayli Ubaydullaxon o‘ldirildi.

Bu davrda ayrim hukmdorlar davlat xazinasining og‘ir ahvolga tushib qolishiga sabab bo‘lgan yirik yer egalarining tanobini tortib qo‘yishga, ularni lavozimlaridan chetlatishga urinishgan. Biroq ko‘pincha bunday harakatlardan voz kechishga majbur ham bo‘lishgan. Bunga hukumatning yirik boylardan qarz olishi va iqtisodiy inqiroz oqibatida bu qarzlarni vaqtida to‘lay olmaganligi ham sabab bo‘lgan.

Tinimsiz ichki nizolar, Ashtarxoniylar davlatiga putur yetkazdi. Ayrim nufuzli amirlar mamlakatdagi og‘ir axvoldan foydalanib, Abulfayzxonni taxtga o‘tkazdilar (1711 - 1747). Jur’atsiz Abulfayzxon amirlar qo‘lida bamisoli

qo'g'irchoq bo'lib, maishatbozlikka berildi. Bundan foydalangan Eron shohi Nodirshoh Buxoroni egalladi va mang'it urug'i boshlig'i Muhammad Hakimbiyni o'zining Buxorodagi vakili (otaliq) qilib qoldirdi. 1747-yili Nodirshoh o'ldirilgach, Muhammad Hakimbiyning o'g'li Muhammad Raximbiy tomonidan Abulfayzxon ham o'ldirilib, o'rniga uning o'g'li Abdulmo'min, bir yildan so'ng, ukasi Ubaydullo xon deb e'lon qilinsa-da, amalda hokimiyat Muxammad Raximbiy boshchiligidagi yangi, mang'itlar sulolasi ixtiyoriga o'tdi (1753).

Ashtarxoniylar davrida o'zaro nizolar tufayli hokimiyat zaiflashgan sari xususiy yer egaligi va o'zbek urug'lari hukmronligi kuchayib bordi. Davlat boshqaruvida Otaliqdan keyin devonbegi (moliya vaziri), undan keyin parvonachi (shikoyatlarni qabul qiluvchi va ko'rib chiquvchi), ko'kaldosh, inoq (o'zbek urug'laridan chiqqan amirlar), qushbegi (xon qarorgohining boshlig'i), mirshabboshi, mehtar, dasturxonchi, to'pchiboshi, shayxulislom, qozikalon va boshqa lavozimlar joriy etilgan.

8.2-§. Ashtarxoniylar davrida yer-suv munosabatlari


XVII —XVIII asrlarda ham Turkiston xonliklarida ilgari davrlardagidek yer mulklari va sug'orish tizimlari asosan hukmron tabaqalar va yirik feodallar ixtiyorida bo'lib, ular o'z yer — mulklarida asosiy ishlab chiqarish vositalaridan mahrum bo'lgan dehqonlar kuchidan keng foydalanar edilar. Bu davrda yerga egalik qilishda o'zgarish sezilmaydi. Faqat Buxoro xonlari davlat mulkidan «tanho» olishni kuchaytirish bilan bir qatorda, davlatga tegishli yerlarning ma'lum qismini ayrim farmonlar bilan yirik yer egalariga sotishgan yoki hadya etishgan. Masalan, 1620-yilda Imomqulxon Miyonqoldagi bir necha qishloqlarni ularga tegishli yerlari bilan o'zining amaldorlaridan biri Raximbek parvonachiga 15000 tangaga sotgan. 1657-yilda Abdulazizxon Buxoro yaqinidagi Komot mavzeidagi davlatga tegishli yerlardan 2700 tanobini Xo'jakalon degan shaxsga 10000 tangaga, 1670-yilda Samarqand viloyatidagi katta yer maydoni (bir necha ming tanob yer)ni Hojimqul yasovulga 50000 tangaga, 1655-yili Buxoro atrofidagi katta yer maydonlarini Mahmudbek degan shaxsga 10000 tangaga sotgan. 1702-yili

Subhonqulxon Nodirmuxammadxonning qizi Shamsiyabonuxonimga G‘uzor tumanidagi 30000 tanob yerni hadya etgan. Bu faktlar o‘sha davr hujjatlaridan keltirilgan ayrim misollar bo‘lib, keyingi xonlar ham davlatga tegishli minglab gektar yerlarni turli yo‘llar bilan sotganlar yoki taqdim qilganlar.


Hujjatlarning ko‘rsatishicha, davlatga tegishli yer — suvni sotgan xonlar, sotilgan yerning 2/3 qismini hiroj hisobida davlat ixtiyoriga qaytarib olishgan, 1/3 qismi sotib olgan shaxsning xususiy mulkiga aylantirilgan, ya’ni mulki xurri — xolis kategoriyasiga o‘tkazilib, davlat solig‘idan ozod qilingan.

XVI asrda boshlangan bu tartib qisqa vaqt ichida ancha keng tarqalgan. Bu davr hujjatlarida davlat mulkiga xonning xususiy mulki sifatida qaralganligi tufayli, xonlar ularni sotish hukuqiga egaligi, shariat esa unga keng yo‘l berishi ko‘rsatilgan. Xususiy mulkni sotish, almashtirish, hadya qilish mumkiy bo‘lgan. Xususiy mulk egalariga tegishli yerlarning eng kattalari minglab tanoblarni tashkil etgan bo‘lib, bunday yer egalari o‘z yerlariga ishlov berishda minglab dehqonlar kuchidan foydalanishgan. Mulki holisning bir qismi ilgaridan nasldan — naslga o‘tib kelgan bo‘lsa-da, bu davrda davlat mulkining katta qismlari xususiy mulk qilib berilgan. Bunga qo‘shimcha ravishda «tanho» yerlar berilganligi ham hisobga olinadigan bo‘lsa, yirik feodallarning nakadar kuchayganliklarini va buning evaziga davlatning iqtisodiy jihatdan shunchalik zaiflashganligini ko‘rish mumkin. Bu davrda vaziyat shu darajaga borganki, ayrim feodallar yer - suvlarining kattaligi va o‘zlarining tutgan mavqeyi jihatdan ba’zi xonlardan kam bo‘lmagan.

Abdulazizxon davrida va undan keyin ham ko‘p yillar mobaynida Samarqand shahrini boshqargan Yalangtushbiy otaliq yirik amaldor va katta yer egalaridan biri bo‘lgan. Buxoro xonligining XVII asrga oid agrar munosabatlari tarxiga oid hujjatlarida ko‘rsatilishicha, katta mablag‘ga ega bo‘lgan Yalangto‘shbiyning 300 tagacha qullari bo‘lib, u qullarining mehnati bilan shaharda mahobatli Tillakori va Sherdor madrasalarini qurdirgan, o‘ziga tegishli maxsus qo‘shinlar yordamida qo‘shni mamlakatlarga yurishlar qilgan.



1-rasm



2-rasm

O'rta Osiyo xonliklarida XVI-XVII asrda suv chiqarishda qo'llanilgan katta (1-rasm) va kichik (2-rasm) chig'irlar²⁹.

²⁹ G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. Qadimgi zamondan hozirgacha. -T., 1959. – 268-bet.

Hujjatlarda ko'rsatilishicha, 1606-yili Yalangto'shbiy Samarqand tumanidagi Ofarinkent qishlog'ida Xo'ja Axrorning avlodi vakilasidan 4300 tangaga yer sotib olgan. Hujjatda yer maydoni ko'rsatilmagan. Biroq, 4300 tanga o'sha davrga nisbatan nihoyatda katta pul miqdori bo'lib, Yalangto'shbiy ko'p daromad keltiradigan katta mulkka ega bo'lganligini bildiradi. Hujjatda sotib olingan erlar mulki xolis bo'lib, sug'oriladigan va dehqonchilik uchun yaroqli ekanligi ko'rsatilgan. Yalangto'shbiyning yer sotib olganligini tasdiqlovchi yorliqda Imomqulxonning buyrug'i ham bo'lib, unda Yalangto'shbiyga tegishli barcha yerlar soliqdan ozod qilinganligi ta'kidlangan. Bu Yalangto'shbiyga o'z yerlarini yanada kengaytirish imkonini bergan. Jumladan, 1650-yili u Samarqand tumanining Shovdor qishlog'ida Ashur qushbegining o'g'illariga tegishli yerlarni ham sotib olgan.

Yalangto'shbiyning boshqa tumanlarda ham katta-katta yerlari bo'lgan. Jumladan, 1631-yili u 52500 tangaga Shaxrisabzda 1100 tanob yer sotib olgan. Hujjatlarda Yalangtushbiy keyinchalik vaqf yerlarini ham sotib ola boshlaganligi ko'rsatilgan. Masalan, unga berilgan vaqf yorlig'iga ko'ra, Sherdor va Tillakori madrasalari foydasiga Ofarinkent, Totkent, Shovdor tumanlaridagi bir qancha qishloqlarga tegishli yerlar ajratilgan. Mazkur yorliqqa ko'ra, 26 ta mulkiy yerlar Sherdor va Tillakori madrasalariga tegishli bo'lgan vaqf yerlariga aylantirilgan».

XVII - XVIII asrlarda berilgan yorliqlarda boshqa yirik yer egalari bo'lib, ular orasida Olloberdibiy parvonachi va uning o'g'li Olloyorbiy yetakchi o'rin tutadi. Yalangtushbiy kabi Olloberdibiy parvonachi ham o'z vaqtida Samarqand hokimi bo'lgan. U o'z mulklarini bir joyda to'plash maqsadida 1700-yili Buxoro viloyati hududidagi Hasanxo'ja qishlog'i yaqinida joylashgan va 30000 tangaga baholangan yerlarini Shovdor tumanidagi yerlarga almashtirgan. 1716-yilgi hujjatda ko'rsatilishicha, bu vaqtga kelib Olloberdibiyning o'g'li Olloyorbiyga tegishli 45 ta yer egaligi bo'lgan. Bu erlarning bir qismi Olloyorbiyga meros sifatida o'tgan bo'lsa, qolgan qismini u «tilla» bahosida sotib olgan. Shu yo'sinda, XVII —XVIII asrlarda davlat yerlarining katta qismining feodallar qo'liga o'tib ketishi oqibatida davlat xazinasida katta zarar ko'rdi.

Ba'zi xonlar yirik feodallar qo'liga o'tib ketgan davlat yerlaridan olinadigan soliqlarning o'rnini to'ldirish maqsadida yangi yerlar ochishgan, bu yerlarga suv keltirish uchun ariqlar qazishgan yoki ko'milib ketgan eski ariqlarni tiklashgan. Jumladan, Abulg'ozxon va Anushaxon davrlarida Xorazmda Amudaryoning chap qirg'og'idan eski Madra, Vadak, Buva ariqlari tiklangan. G'azovot, Shohobod, Yormish ariqlari bunyod etilgan. Imomqulxon farmoni bilan Qo'shqo'rg'onda yangi ariq qazilgan.

Geografik shartlarga va irrigatsiya tizimlarining rang-barangligiga qarab, asrlar davomida Turkiston xalqlari tomonidan kanallarning qismlarini bir-birlaridan ajratish uchun turli nomlar bilan atalgan. Jumladan, daryodan chiqarilgan bosh kanal rudi kom, kanalning boshi — daxan va sari rud yoki sari jo'y deb atalgan. Daryodan kanal chiqarilgan joyda qurilgan to'g'on varaq yoki band deb atalgan.

Turkistonda sug'orish inshootlarining bunyod etilishi va kanallarning ko'payishi, ekin maydonlarining kengayishiga imkon yaratdi. Biroq, bu yerlardan tushadigan daromadlar, asosan davlat xazinasini va hukmdorlar cho'ntagiga tushgan. XVI — XVII asr boshlarida yangi sug'oriladigan yerlarning asosiy qismi Jo'ybor shayxlariga berilgan. 1637-yilda Imomqullixon tomonidan chiqarilgan yorliqqa ko'ra, sayid Burxoniddin Qilich avlodlariga tegishli yerlardan o'tadigan ariqlar ularning xtiyoriga berilgan. Shariat qonunlariga ko'ra, suvni sotish va sotib olish mumkin emasligiga qaramasdan, yirik yer egalari (ularning diniy yoki dunyoviy bo'lishlaridan qat'iy nazar) sug'orish kanallarini egallab olganlar.

XVII asrning 80-yillarida Xiva xonlari tomonidan uyushtirilgan hujumlar natijasida dalalarni suv bilan ta'minlashning buzilishi natijasida Ashtarxoniylar davlatining ko'pgina viloyatlari (ayniqsa Samarqand, Qarshi va Farg'ona) da ocharchilik avj oldi. Dehqonlarning «yegani arpa yoki bug'doy noni yo'q edi».

XVII asr oxiri - XVIII asr boshlarida mamlakat iqtisodiyotidagi umumiy tushkunlik qishloq xo'jaligiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Markaziy hukumatning kuchsizlanishi, Xiva xonligi bilan bo'lgan urushlar va Eron shohi Nodirshoh qo'shinlarining bostirib kirishi ko'plab sug'orish tarmoqlarining buzilishiga va

ekin maydonlarining kamayishiga olib keldi. Bundan tashqari, o'sha davrda yashagan kishilarning ta'riflariga ko'ra, Subhonqulxonning vaziri «Mirza Beklarning o'zboshimcha harakatlari bechora fuqarolardan nihoyatda og'ir soliqlarni undirish eshiklarini ochib yuborishi» natijasida xalqning turmushi chidab bo'lmas darajaga keldi. Suv ta'minotining buzilishi ekinlarning halokatiga sabab bo'ldi.

Tabiiy ofatlar natijasida siyosiy beqarorlikning xo'jaliklarga ta'siri yanada chuqurlashdi. Jumladan, 1689-yilgi qurg'oqchilik oqibatida Qarshi viloyatiga chigirtkalarining hujumi natijasida xalqning ahvoli yanada og'irlashdi. Daryolarda suv hajmi keskin kamaydi, hovuzlar quridi, «dehqonlarning jazirama issiqda qurib qolgan ekinlarini shamollar uchirib ketdi». Ashtarxoniylar davlatining turli qismlarida avj olgan o'zboshimchaliklar va g'alayonlar yanada kuchaydi. Abulfayzxon hukmronligi davrida mamlakatning ko'pchilik viloyatlari batamom xonavayron bo'ldi. E'tiborga loyiq tomoni shundaki, har qanday og'ir sharoitga qaramasdan, dehqonlar o'z xo'jaliklarini saqlab qolish va uni tebratishga harakat qilganlar.

Ashtarxoniylar davrida davom etgan siyosiy parokandalik, urushlar va o'zaro kurashlar mamlakat iqtisodiyotining asosi bo'lgan qishloq xo'jaligiga ham ta'sir etmasdan qolmadi. XVIII asrga oid ayrim manbalar Zarafshon va Farg'ona vodiysidagi dehqonlarning o'z yerlaridan qochib ketishi holatlari haqida ham ma'lumotlar beradi. Hukmdorlar soliq va o'lponlarni o'z vaqtida va doimiy yig'ib olish uchun ham mamlakat iqtisodiyotini ko'tarishga harakat qilsalarda, bu harakatlar aksariyat hollarda samarasiz tugardi. XVIII asrning boshlariga kelib ko'plab sug'oriladigan yerlar jo'ybor shayxlariga berilgan. Shariat qonunlariga ko'ra, suv sotilmasligi va sotib olinishi mumkin bo'lmasada, boy amaldor va ruhoniy yer egalari sug'orish kanallarining xo'jayinlari edilar. XVIII asr 80-yillarining oxirlarida Xiva hukmdorlarining ko'plab hujumlari natijasida kelib chiqqan suv ta'minotining buzilishi Ashtarxoniylar davlatidagi ko'pgina viloyatlarda, ayniqsa, Samarqand, Qarshi, Farg'ona viloyatlarida ocharchilikka sabab bo'ldi. Manba tili bilan aytilganda, "dehqonlarda tariq va bug'doy noni yo'q

edi”.

Siyosiy beqarorlik va o‘zaro urushlar davom etib turgan og‘ir sharoitlarda ham dehqonlar o‘z xo‘jaliklarini davom ettirishga harakat qilganlar. Buxoro xonligining asosiy dehqonchilik hududi Zarafshon vohasi edi. So‘nggi o‘rta asrlar mualliflari boshqa viloyatlarda ham ekinlar va bog‘-rog‘lar mavjudligi haqida ma‘lumotlar beradilar. Misol uchun, Farg‘onaning “ajoyib bog‘lari va dalalari”, Qarshining sug‘oriladigan yerlari”, Toshkent vohasining “tog‘li g‘allakor tumanlari”, Termizning “yaxshi qovunlari va g‘allasi”, Shahrisabzning “hosil beruvchi yerlari” haqida ma‘lumotlar bor.

Ashtarxoniylar davrida sug‘oriladigan yerlarga O‘rta Osiyo mintaqasi uchun an‘anaviy bo‘lgan bug‘doy, arpa, jo‘xori, loviya, mosh, sholi, paxta, sabzavot va poliz ekinlari, dasht va tog‘oldilaridagi adirlardagi lalmi yerlarda bug‘doy arpa, qovun, tarvuz va boshqalar ekilib dehqonchilik qilingan. O‘zaro urushlar dehqonchilik taraqqiyotini birmuncha orqaga surib turgan bo‘lishiga qaramasdan, tinchlik davrlarida yerlardan ancha yuqori hosil olingan.

Bu davrda hozirgi O‘zbekiston hududlarida poliz ekinlari yetishtirish ancha rivojlangan. Bu ekinlar orasida qovun ayniqsa ko‘p yetishtirilgan. Bu haqida “Boburnoma” da shunday ma‘lumot beriladi. “Movarounnahrning hech qayerida Buxorodagidek ko‘p va xo‘b qovun bo‘lmaydi. Farg‘ona viloyatida, Axsida Buxoronikidan ham shirinroq miri timuriy navli qovun bo‘lsada, Buxoroda qovunlarning navi ko‘p ular ham juda shirin”. Mahmud Ibn Vali (XVI asr) ham hozirgi O‘zbekistonning ko‘pgina hududlarida qovun yetishtirilganligi haqida ma‘lumotlar beradi poliz mahsulotlaridan asosan, pul ko‘rinishida soliqlar olingan.

Sug‘oriladigan yerlarning ko‘pchilik qismini bog‘lar va uzumzorlar tashkil qilgan. Samarqand , Buxoro, Toshkent kabi shaharlar atrofida bog‘lar, chorbog‘lar mavjud bo‘lgan. Bu davrda chorvachilik ham qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i sifatida katta ahamiyatga ega edi. Xon va yirik saroy amaldorlari, din peshvolari, qabila boshliqlari, yirik chorvador boylarga tegishli katta-katta yaylovlarda, dasht hududlarda ming-minglab qo‘ylar, podalar, yilqilar, tuyalar boqilgan. Bobur ma‘lumotlariga ko‘ra, yirik zodagonlarning 30-40 mingtacha

qo'ylari bo'lgan. Andijon beklaridan biri, qal'a himoyasi paytida bu yerdagi askarlarga 18 mingta qo'y tarqatgan. Ayrim hududlarda, masalan, Qoraqo'lda qorako'l terisi, Qarshida qora va ko'kimtir kulrang teri ishlab chiqarish rivoj topgan. Qo'ychilik yarim ko'chmanchi aholining asosiy boyligi hisoblangan.

O'troq dehqonchilik tumanlarida an'anaviy uy chorvachiligi sut-qatiq uchun sigir, semirtirib boqish uchun buqa va qo'y boqish davom etgan. Ho'kizlar va otlardan dehqonchilikda omoch tortib yer haydashda keng foydalanilgan. Chorvachilik ishlab chiqarish ichki va tashqi bozorda talab katta bo'lgan qo'ylar, yirik shoxli hayvonlar, qorabayir otlar, ikki o'rkachli tuyalar hamda jun, teri va boshqa mahsulotlar yetkazib beradigan asosiy tarmoq sifatida ashtarxoniyalar davrida ham o'z mavqeyini saqlab qoldi.

Ayrim ashtarxoniy hukmdorlari davrida mamlakatning asosiy boyligi hisoblangan yerni taqsimlash rasman oliy hukmdor qo'lida bo'lsada, amalda ko'plab davlat yerlari yirik amaldorlar va din peshvolari qo'lida edi. Ayniqsa, XVI asrdan boshlab, yarim ko'chmanchi qabilalar boshliqlari bo'lgan amirlar va beklarning hokimiyati kuchayib, ular amalda yirik hududlarning xo'jayinlari edilar.

Shayboniyalar davrida bo'lgani kabi ashtarxoniyalar davrida ham davlat yerlari mamlakai devon, mamlakai podshohi, zamini mamla, mamlakai sultoni, mamlaka kabi nomlar bilan atalgan. Oliy hukmdor yerni sotish, hadya etish yoki vaqf mulkiga o'tkazish huquqiga ega bo'lgan. Shartli yer egalari suyurg'ol, iqto, tanho, tiyul kabi nomlar bilan atalgan. Ta'kidlash lozimki, XVII-XVIII asrlarga kelib suyurg'olning mazmuni o'zgaradi. Bu davrga kelib suyurg'ol asosan, hukmdor xizmatida bo'lgan ruhoniylar sayyidlar, xo'jalar, shayxlar, ulamolar, shuningdek shoirlarga hadya qilingan. Mahmud ibn Vali shunday ma'lumot beradi: Agar podsho yerni kimgadir hadya tariqasida bersa, bunday yerlar ulamolar va sayidlarga berilsa, suyurg'ol deyiladi, agar harbiylarga berilsa, u holda tanho deyiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Ashtarxoniyalar sulolasini hokimiyat tepasiga kelishiga qanday shart-sharoitlar zamin yaratgan?

2. Aytingchi nega mazkur sulola davrida ham feodal tarqoqlik hukm surib, ichki ziddiyatlar hamon saqlanib qolayotgan edi?
3. Ubaydullaxon II davrida Buxoro va Samarqandda yuzaga kelgan xalq norozilik harakatining asosiy sabablari nimalardan iborat?
4. Ashtarxoniylar davrida xususiy er egaligi va o‘zbek urug‘lari hukmronligi kuchayib borgaligining asosiy sabablari nimalardan iborat?
5. XVII —XVIII asrlarda Buxoro xonligida yer mulklari va sug‘orish tizimlari kimlarning izmida bo‘lgan?
6. Ashtarxoniy hukmdorlar tomonidan davlat yerlarini qanday shaklda xususiy shaxslarga sotish keng tarqaladi?
7. Asharxoniylar davrida Buxoro xonligida yer egaligining qanday shakllari mavjud bo‘lgan?
8. Xususiy yer egaligi shakllaridan biri bo‘lgan “tanho” yer shaklini bu davrdagi maqomi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
9. Ushbu sulola hukmronligi davrida eng katta xususiy yer egalaridan biri bo‘lgan Yalangto‘shbiy faoliyati to‘g‘risida so‘zlab bering.
10. XVII —XVIII asrlarda davlat yerlarining katta qismining feodallar qo‘liga o‘tib ketishi qanday salbiy oqibatlarga olib kelgan?
11. Ahtarxoniy hukmdorlardan qaysilari mamlakatda sug‘orish tizimini yaxshilash borasida bir qator ishlarni amalga oshirganlar?
12. Ashtarxoniylar davrida Jo‘ybar xo‘jalarining iqtisodiy mavqeyini mustahkamlagan omillar nimalardan iborat?
13. Tabiiy ofatlar natijasida siyosiy beqarorlikning xo‘jaliklarga ta‘siri yanada chuqurlashishiga misol keltiring.
14. XVIII asr 80-yillarining oxirlariga kelib mamlakatda suv ta‘minotining buzilishining asosiy sabablari nimalardan iborat.
15. XVIII asrga oid ayrim manbalarda Zarafshon va Farg‘ona vodiysidagi dehqonlarning o‘z erlaridan qochib ketishi holatlari haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan. Sizningcha bunga nima sabab bo‘lgan?

9-mavzu. Mang‘itlar sulolasi hukmronligi davrida Buxoro amirligida yer-suv munosabatlari

Reja:

9.1-§. Buxoro amirligining siyosiy hayoti;

9.2-§. Buxoro amirligida yer – suv munosabatlari.

Tayanch iboralar: *davlat yerlari, tanho, vaqf, amloki podshohiy, adra, axya, mulk yerlari, jamoa yerlari, sug‘orish inshootlari, Xurmo Sarazm, soliq majburiyatlari, begar, qazu, otlanuv, hachi, kannallar, chig‘ir, mehnat majburiyatlari.*

9.1-§. Buxoro amirligining siyosiy hayoti

Ashtarxoniylardan bo‘lgan so‘nggi Xon Abulfayzning o‘zbeklar davlatining azaliy dushmani Eron shohlari homiyligi va hukmronligini tan olishi amalda Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligini tugaganligini bildirar edi. XVIII asr boshlarida tashkil topgan Ashtarxoniylar sulolasi ikkinchi o‘ringa tushib o‘z o‘rnini yangi hokimlar, birinchi o‘ringa ko‘tarilgan o‘zbeklar urug‘i-mang‘itlarga bo‘shatib beradi. Butun hokimiyat Eron shohi tomonidan tayinlanadigan va keyingi yillarda forscha ulug‘ amir (amiri kabir) degan unvonni olgan Muhammad Hakimbiy otaliq qo‘liga o‘tib ketadi. Otaliq 1743-yilda vafot etgach o‘zbek amirlari davlatning turli yerlarida isyonlar ko‘taradilar. Ana shunday isyonlardan biriga Ibodulla xitoy (xitoy-qipchoqlaridan chiqqan) boshchilik qiladi va Buxoro devorlari atroflarigacha bostirib keladi.

Har yilgi odatga ko‘ra Buxoro xalqi 1745-yilning aprel oyi oxirlarida Bahovuddin Naqshband mozori atrofida an‘anaviy «Qizil gul» bayramiga chiqqan edi. Ana shu fursatdan foydalangan Ibodulla xitoy Buxoroga bostirib kirdi va juda ko‘p o‘ljalar bilan birga qo‘shinlarning ham kattagina qismini asir qilib olib ketadi. Bu voqeadan xabar topgan Nodirshoh sinalgan askarlardan otryad tuzib, uni Muhammad Hakimbiyning o‘g‘li Muhammad Rahimbiyga topshiradi. U ana shu qo‘shin bilan Buxoroga jo‘naydi. Marvda unga Rizoquli ham o‘g‘li o‘z askarlari vaartileriyasi bilan birga qo‘shiladi. Chorjo‘yga yetganda turkmanlar otryadi ham

qo`shiladi. Katta kuch bilan Muhammad Rahimbiy Buxoroga kirib keldi, unga «amirlar amiri» unvoni (amir-ul umaro) berildi. U otasiga qarashli Buxoroga yaqin G`oziobod qishlog`ini o`ziga makon qiladi. Davlatning barcha yuqori mansablariga o`z qarindoshlari va tarafdorlarini tayinladi. Xonlikning-marakazida o`z mavqeyini mustahkamlab olgan Muhammad Rahimbiy Eron qo`shinlari yordamida ko`tarilgan xalq qo`zg`olonini bostirishga muvaffaq bo`ldi. Qattiq janglardan so`ng Ibodulla xitoy Miyonqal`adan qochib Toshkentga boradi va shu yerda qo`lga olib o`ldiriladi. So`ng Shahrizabzda ko`tarilgan qo`zg`olon ham bostiriladi.

Muhammad Rahimbiyning ta`sir doirasi kengayib va kuchayib bordi. U kuchli qo`shin tuzdi va bu qo`shin tepasiga o`ziga sodiq kishilarni qo`ydi. 1747-yil 14-iyunda nodirshoh suiqasd oqibatida o`ldiriladi. U tuzgan davlat bo`linib tarqab ketdi. O`zaro taxt uchun kurash boshlandi. Bu kurashdan Muhammad Rahimbiy ham chetda turmadi. U 1747-yilda Abulfayzxonni Mirarab madrasasi xujralaridan birida o`ldirtiradi. Shundan keyin Muhammad Rahimbiy xonning birin-ketin ikki o`g`li Abdulmo`min va Abdullani qatl etib 1753-yilda amir unvoni bilan Buxoro taxtiga o`tiradi. Muhammad Rahim Buxoro taxtiga xon sifatida o`z da`vogarligini qonunla Shtirish maqsadida Abulfayzxonning qiziga uylandi hamda xon deb e`lon qilingan huquqni oladi. Lekin **Muhammad Rahim (1753-1758)** ham, undan keyingi vorislar ham xon unvonini olmay, otaliq unvoni bilan davlatni boshqardilar. Ana shu tariqa Muhammad Rahimxon Buxoro davlatida yangi amirlar sulolasi-mang`itlar urug`i sulolasi davrini boshlab beradi.

Cheklanmagan hokimiyatga ega bo`lgan Muhammad Rahimbiy akademik V.V.Bartoldning fikrlariga qaraganda, markazlashgan davlat barpo etish siyosatini olib borgan. Uning bu siyosatini islom dini arboblari, zodagon va savdogarlar qo`llab-quvvatlaganlar. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun Muhammad Rahimbiy itoat etmagan beklar ustiga bir necha bor qo`shinlar tortib borgan va ularni qattiq jazolagan. Toshkent, Xo`jand, Turkiston, Urgut, Shahrizabz, Ko`lob, Hisor va boshqa yerlarni Buxoroga qo`shib olib, o`z hududlarini kengaytiradi. Hisorga esa yuz, kenagas va saroy qabilalarini ko`chiradi.

Muhammad Rahimbiy vafotidan so`ng uning taxt vorisligiga o`g`li bo`lmaganligidan qizining o`g`li, nabirasi Fozil to`ra taxtga o`tiradi. U yosh bo`lganligi tufayli hokimiyatni amalda Muhammad Rahimbiyning amakisi **Doniyolbiy otaliq (1758-1785)** boshqarib boradi. Muhammad Rahimning vafot etganligi yangi kuch bilan amir va beklarning beboshligi va tarqoqligiga sabab bo`ladi. Ayrim o`zbek qabilalari hokimiyatdagi tashkiliy qiyinchiliklardan foydalanib davlat to`ntarishi yasashga va mang`itlarni hokimiyatdan chetlashtirishga harakat qiladilar. Ammo Doniyolbiy vaziyatning murakkabligini darhol tushunadi va keskin choralar ko`rib isyonchilarga o`z vaqtida qaqshatg`ish zarbalar beradi. Bu ishda unga markazlashgan davlatning foydasi vaafzalliklarini ko`rgan va tushungan zodagonlar, savdogarlar, hunarmandlar va aslzodalar zulmidan ko`proq azob chekib qiynalgan kambag`allar yaqindan yordam berdilar. Juda ko`plab yirik zodagonlar qatag`on qilindilar, ularning mulklari talanadi. Yuzlar qo`zg`oloni bostiriladi, G`uzor va Shahrisabzda zodagonlarning` Qarshida Norbo`tabiy isyonlari tor-mor keltiriladi.

Doniyolbiydan so`ng uning o`g`li **Shohmurod (1785-1800)** davrida zodagonlar o`zboshimchaligi va tarqoqligiga qarshi kurash davom ettiriladi. Aqlli va farosatli hukmdor bo`lgan Shohmurod davrida davlat hokimiyati ancha mustahkamlanadi. U Muhammad Rahimbiyning beva xotiniga uylanib o`zini xon deb e`lon ham qiladiradi. Ayni zamonda Samarqand hokimligini ham o`zida saqlab qoladi. Shohmurod o`z hukmronligini 1785-yilda Buxoro shahrida ko`tarilgan katta qo`zg`olonni bostirishdan boshlaydi. Bu qo`zg`olon harakat doirasining kengligi haqida shundan ham bilish mumkinki, uni bostirish chog`ida mingdan ortiq qo`zg`olonchilar nobud bo`lgan edilar. Shohmurod otasi davrida davlat idorasi tepasida turgan yuqori lavozimlardagi Buxoro amaldorlarini xalqqa zulm o`tkazganliklari va soliqlarni haddan oshirganliklari uchun o`z qo`llari bilan qatl ettiradi, viloyat hokimlari, amaldorlarni va qozilarni mansablaridan tushirib o`rniga o`z maslakdoshlarini tayinlaydi. «*Fathnomai sultoni*» asarining muallifi Muhammad Ali Buxoriyning bergan ma`lumotiga ko`ra Shohmurod Buxoro aholisini soliqlardan ozod qilib tarxon yorliqlari bergan. U 1786-yilda Karmana,

Shahrisabz, Ho`jand, Mari zodagonlari ustiga yurish qilib ularni o`ziga tobe etadi, qattiqqo`l davlat siyosati yurgizadi. U Afg`oniston hukmdori Temur Shohga qarshi muvaffaqiyatli urushlar olib bordi, o`zbeklar va tojiklar yashaydigan janubiy Turkistonni o`z qo`lida saqlab turadi.

Shohmurod hukmronligi davrida to`rtta: moliyaviy, *ma`muriy, qozi-hakamlar, harbiy ishlar sohasida* islohotlarni amalga oshirdi. Moliyaviy ishlarda ma`lum darajada tartib o`rnatdi va davlat hokimiyatini mustahkamladi. U tom ma`nodagi qimmatga ega bo`lgan kumush tangalar zarb etadi. Ayni zamonda har bir shahsning kumush tangalarni o`zi mustaqil zarb qilishiga ham Sharoit yaratildi. Davlat fuqarolarning tangalarini zarb qilishga yordam berardi. Fuqarolar esa o`z navbatida foiz hisobida bu ish uchun davlat hazinasi foydasiga haq to`lamlari kerak edi. Sof kumush tanganing joriy qilinishi va uni erkin zarb etilishi savdo va rivojlanayotgan iqtisodiy ehtiyojlarga to`la javob berar va pul muomalasining barqarorlashuviga imkoniyat yaratardi.

Shohmurod shariatga to`g`ri kelmaydigan: yo`rg`u, boj, tusmal, yasoq, oliq-soliq kabi soliqlarni, bepul ishlab berish tartib-qoidalarini bekor qiladi.

Ma`muriy sohadagi islohotni Shohmurod otasi Doniyolbiy va hatto Muhammad Rahimbiy davrida Buxoroda eng oliy martabali lavozimda ishlagan davlat Qushbegi va Nizomiddin qozi kalonni o`z qo`li bilan qatl etishdan boshladi.

U qozilik ishlarini ancha demokratiyalastirdi. Manbalarda ko`rsatilishicha, Shohmurod davrida agar qonunga xilof ish qilingan bo`lsa, xo`jayin ustidan qoziga arz qilish, hatto qul ham murojaat qilishi mumkin bo`lgan ekan. Ko`p hollarda qozilik jarayonida amirning o`zi ham ishtirok etib borgan. Albatta bu ishlarning o`z davrida Shohmurod tomonidan amalga oshirilganligi o`ziga xos katta jasorat edi.

Shohmurodning o`zi uchun kundalik harajati bir tangadan oshmagan, yeb ichishi va kiyinishi oddiy bo`lgan, biron-bir amaldorning uyiga ziyofatga bormagan, hech kimdan sovg`a olmagan, o`z sharafiga turli dabdabali tadbirlar uyushtirilishiga yo`l qo`ymagan. Oddiy xalqning Shohmurodga munosabati qanchalik bo`lganini shundan ham bilsa bo`ladiki, uni «begunoh amir», deb ataganlar. U bir tomondan, xalqqa, ikkinchi tomondan, lashkarga suyanib

mamlakat siyosiy yaxlitligini ta`minlashga katta e`tibor bergan. Ayni vaqtda Buxoro tasarrufidan chiqqan Xurosonni qaytarish uchun harbiy harakatlar olib borgan. Ammo bunga erisha olmagan.

Buxoro amirligi XX asrga qadam qo`ygan davrda amirlik hududida jami bo`lib 2 million aholi yashagan. Amirlik tepasida turgan mang`itlar sulolasiga tegishli bo`lgan qabila 100 ming kishidan iborat edi. Shundan Buxoro va uning atroflarida 44 ming Qarshi va uning atroflarida 31 ming Xivada 10 ming mang`it yashagan, qolganlari turli joylarga tarqalib ketgan.

Mang`itlar o`zbek qabilalari orasida eng nufuzli va obro`li qabilalardan biri bo`lgan. Umuman o`zbek qabilalarining umumiy soni to`g`risida fikrlar bir xil emas. O`zbek xalq og`zaki ijodida («Go`ro`g`li» dostoni) va ayrim manbalarda bu raqam 92 ta deb berilgan. Rus olimi N.Xanikov esa «Buxoro xonligining tavsifi» («Opisanie Buxarskogo Xanstva», 1843) asarida o`zbek qabilalari sonini 97 ta deb ko`rsatadi va mang`itlarni birinchi o`ringa qo`yib, uch guruhga bo`ladi. To`q mang`it, oq mang`it va qora mang`it.

Mang`itlar qabilasi o`z vaqtida Chingizxonning ham nigohida katta e`tiborda bo`lganlar. Qabila vakillari u boshqargan tizimlarida qatnashganlar. Chingizxon qo`shinlarida katta ta`sir kuchiga ega bo`lganlar. Hatto Chingiziylar davrida Oltin O`rda xoni bo`lgan Edigey o`zbek ham mang`itlar urug`ining farzandi edi.

Shohmuroddan so`ng sulola taqdiri uning o`g`li **Amir Haydar (1800-1826)**ga o`tdi. Uning hukmronlik yillari mamlakatda notinchlik hukm suradi. Har doim bo`lgani singari Shohmurod vafot etgach yana mahalliy o`zbek va amirlar o`zboshimchalik bilan O`rta hokimiyatga qarshi bosh ko`tarib chiqdilar. Birinchi bo`lib, 1800-yilda Mari turkmanlari o`lpon yig`ish siyosatidan norozi bo`lib qo`zg`olon ko`tardilar. Haydar qattiqqo`llik bilan bu qo`zg`olonni bostiradi.

Mariliklar 1804-yilda yana bosh ko`tardilar. Bu safar qo`zg`olonga amirning ukasi Din Nosirbek boshchilik qiladi. Amir Haydar Mari vohasini suv bilan ta`minlovchi Sultonobod to`g`onini buzdiradi. Natijada bir necha vaqt suvsiz qoldirilgan Mari aholisi jangni to`xtatishga majbur bo`ldi. Qo`zg`olonchilarning bir qismi shaharni tark etdi, yana bir qismi esa amir qo`liga tushib, Zarafshon

vohasiga ko`chirildi. Din-Nosirbek Amir Haydarning oilasi va ming kishini olib Eron Mashhadiga qochib ketdi. 1825-yilda Mari xivaliklar tomonidan egallanadi. Sultonobod suv omborini tiklash borasidagi harakat va urinishlar zoye ketadi.

Ayniqsa 1821-1825 yillarda Amir Haydarning Miyonqal`a vodiysida yashaydigan xitoy-qipchoqlarga va ularga qo`shilgan qoraqolpoqlarga qarshi olib borgan urushlari g`oyatda dahshatli va shiddatli bo`ldi. Qo`zg`olonning asosiy sababi soliq siyosatining og`ir oqibatlar edi. Tez orada qo`zg`olonchilar Kattaqo`rg`on, Yangiqo`rg`on va Chelak shaharlarini egalladilar. shaharlarning kambag`al fuqarolari qo`zg`olonchilar tarafdori bo`ldilar vaadolat talab qiladilar. Boy va amaldorlar esa Amir Haydarni qo`llab-quvvatlaydilar. Erk va ozodlikni talab qilgan qo`zg`olonchilarni Shahrisabz o`zbek qabilalari kenagaslari ham qo`llab quvvatlaydilar. Qo`zg`olon to`rt yil davom etdi va 1825-yilda bostiriladi. Qo`zg`olonchilardan qattiq va qonli o`ch olinadi. Amirlik hududidagi ichki qo`zg`olon va to`palonlarga qo`shni xorijiy mamlakatlarning qilgan hujumlari qo`shilib yanada dahshatli tus oladi. 1800-yilda O`ratepa masalasida Qo`qon xoni Olimxon bilan janjal kelib chiqadi. Qo`qon askarlari Jizzax, Zomin va boshqa amirlik hududlariga bostirib kirib aholini taladilar. 1804-yilda esa G`arbda Xiva xoni Eltuzarxon(1804-1806) Buxoro amirligi chegaralariga bostirib kiradi. Katta qiyinchiliklar bilan bu hujum qaytariladi.

1815 yil bahorida Qo`qon xoni Umarxon Buxoro amirligiga qarashli bo`lgan Turkistonga qo`shin jo`natdi va kechasi kutilmagan va qo`qqisdan qilingan hujum natijasida shahar egallanadi. Qo`qon xonligi tomonidan Turkiston shahrining egallanishi ikki qo`shni xonlikning o`rtasidagi dushmanlikning kuchayishiga sabab bo`ladi. Xullas, Amir Haydar o`z hukmronlik davrini to`xtovsiz harbiy yurishlar va jangu-jadallarda o`tkazadi.

Amir Haydar vafot etgach taxtga uning o`g`li Husayin o`tiradi. Lekin u ikki oy o`tar-o`tmas vafot etdi. Keyin ma`lum bo`lishicha Husayin zaharlab o`ldirilgan ekan. Husayindan so`ng Buxoroning zodagon va ayonlari uning boshqa bir og`asi Umarni amirlikka ko`taradilar. Yangi amirni naymanlar qo`llab-quvvatladilar. Ammo Haydarning yana bir o`g`li Nasrullo bu ishga rozi bo`lmadi va xitoy-

qipchoqlarini o`z tomoniga tortib Buxoroni qamal qiladi va hokimyatni qo`lga kiritadi. U naymanlar urug` aslzodalarining hammasini qatl ettirdi, bir qismini shahardagi baland minoralardan tashlattiradi, ularning uy-joylarini va oilalarini talash va haqoratlashni qo`shinlariga topshirdii. Nasrullo dastlab Umarga rahim qilib uni omon qoldirdi. Ularga Qo`qon xoni boshpana beradi. Lekin o`z va`dasiga vafo qilmagan Nasrullo jigarining orqasidan odam yubortirib o`ldirtiradi. O`sha paytda Umar 21 yoshga endigina to`lgandi. O`taketgan shuhratparast va ishi qora Nasrullo hamma narsadan shubhalanar va hech kimga ishonmasdi. U endi hali hayot bo`lgan uchta ukasidan havotirlanar va shubhalanardi. Shu bois Nasrullo ulardan qutilish uchun har uchchalasini ham qopga solib Amudaryoga cho`ktirib yuboradi. Nasrullo qonxo`rligi bilan nom chiqargan edi. Shu sababdan unga «qassobning botiri» deb laqab qo`yishgan.

Amir Nasrullo o`z hukmronligi davri (1826-1860) da qonxo`r jallod sifatida xalqning qonini zulukdek so`radi. U amirlikka qarashli barcha viloyat va tumanlarni Buxoro atrofida mustahkam birlashtirish uchun shafqatsiz qonli urush olib boradi. Amirlikning barcha mulklari orasida yarim mustaqillikka ega bo`lgan eng kuchli beklik-Shahrisabz bekligi edi. Shahrisabz kenagaslari mang`it amirlarining o`zaro og`a-inilar kurashib bir-birlarini o`ldirish bilan band bo`lganliklaridan foydalanib, o`zlarini Buxorodan mustaqil deb e`lon qiladilar. Darg`azab bo`lgan Nasrullo «o`zboshimcha» kenagaslarning adabini berib qo`yish maqsadida Shahrisabz ustiga 30 yil mobaynida 32 marta yurish qiladi. Faqat 1856-yilga kelgandagina kenagaslar qarshiligini yengib Shahrisabz va Kitobni o`ziga bo`ysundira oladi.

Nasrullo askarlari Shahrisabz va Kitob aholisini talab ko`p nomaqulchilik ishlarini amalga oshiradilar. Amirning o`zi esa Shahrisabz begining qizi-Kenagasoyimni zo`rlik bilan Buxoroga olib kelib o`ziga xotinlikka oladi. Xonliklarni birlashtirish uchun kelgan ingliz komissarlari Konolli va Stoddartlarni amir Nasrullo so`ydirtiradi.

Nasrullo bilan Qo`qon xonligi o`rtasidagi munosabatlar yuqorida ta`kidlaganimizdek tobora o`tkirlashib bordi. U Qo`qon xonligini bosib olish niyati

bilan nafas olardi. Nasrulloning 1840-yilda Qo`qonga qilgan birinchi yurishi natija bermadi. Qo`qon xonligidagi ichki o`zaro nizo-janjallardan foydalangan amir 1842-yilda ikkinchi marta bu yerga lashkar tortib keldi. U ishni dastlab Shahrisabzda turgan Nodirabegimning kichik o`g`li Sulton Mahmudxonni o`zi bilan birga olib kelib O`ratepaga hokim qilib tayinlashdan boshladi. O`sha davrda O`ratepa Buxoro amirligi ixtiyoridagi shahar edi. Mamlakat hayoti uchun yaqinlashib kelayotgan havfni sezgan Nodirabegim darhol o`g`illari o`rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilish uchun amaliy chora-tadbirlar ko`radi. U Xo`jand shahriga borib ikki o`g`lini murosai-madoraga keltiradi. 1841 yil noyabr oyida Muhammad Alixon taxtdan voz kechib Sulton Mahmudni o`z o`rniga o`tqazadi. Ammo bu ko`rilgan chora-tadbirlar amir Nasrulloni 1842-yilda Qo`qonga ikkinchi marta lashkar tortib borishiga to`sqinlik qila olmaydi. Nasrulloxon o`rdasiga kirib aka-uka Muhammad Ali va Sulton Mahmudxonni so`ydiradi. Amir Nasrulloning qonxo`r jallod sifatida nom qozonishining eng yuksak cho`qqisi shu bo`ldikim, u o`limi oldidan o`z xotinini-Kenagasxoyimni o`ldiradi, og`asi va uning barcha bolalarini ham qatl etadi. Xullas, amir Nasrullo o`zidan so`ng xalqning qonxo`r jallodi sifatida tarixda daxshatli iz qoldiradi.

Buxoro amirligi taxti Nasrullodan so`ng uning o`g`li **Amir Muzaffarxon (1860-1885)** ga o`tadi. Bu ham o`z avlod-ajdodlari izidan borib amirlik hududlarini kengaytirish maqsadida qonli urushlar olib boradi. Butun Farg`ona vodiysini zabt etib Qashqar hududlarigacha yetadi. 1865-yilda Muzaffarxon ikkinchi marta Qo`qonni o`ziga tobe` etib Xudoyorxonni Qo`qon taxtiga tiklaydi. Muzaffarxonning amirlik davri Buxoro tarixining eng og`ir va daxshatli qora davrlariga to`g`ri keladi..

Amir Muzaffarxon otasi davrida mansabda bo`lgan amaldorlarni bo`shatadi, mol-muulkklarini musodara qiladi, Karmanaga surgun qilingan kishilar yana poytaxtga keltirilib, ularga mansablar beradi. U shu yo`l bilan o`z mavqeyini mustahkamlamoqchi bo`lgan. Bu esaaslida kishi bilmas davlat va sulola kudratiga berilgan zarba edi. Ahmad Donishning fikricha, Karmanadan qaytarib yuqori davlat vazifalariga tayinlangan mansabdorlar o`z faoliyatlarida «xalqning qonini

so‘rganlar». Amir Muzaffar Hisor va Qo‘qonga harbiy yurishlar (1863—1865) olib boradi. Uning davrida lashkar ham zaiflashadi, otasi davrida harbiy yurishlarda chiniqqan sarkardalar qatl qilinadi. Ular o‘rniga «tagi past kishilar va g‘ulomlar» tayinlanadi. «Rusiya o‘lkaga bostirib kirganda esa, — deb yozadi Ahmad Donish, — tagi past, nodon va g‘ayratsiz sarkardalar juftakni rostlab qoladilar, to shu vaqtgacha ulardan ozor chekib kelgan askarlar g‘ulomlarga xizmat qilishni or bilib ketdilar. Natijada barcha viloyatlar Rusiya qo‘liga tushdi.»¹

O‘ziga qaraganda bir necha barobar kuchli bosqinchi chor Rossiyasi mustamlakachilariga qarshi teng bo‘lmagan janglar olib borgan va yengilgan Amir Muzaffarxon 1868-yilda sharmandali sulh bitimini imzolashga majbur bo‘ladi. Bu bitimga asosan Buxoro amirligi o‘z mustaqilligini yo‘qotadi va Rossiyaning vassaliga aylandi.

9.2-§. Buxoro amirligida yer – suv munosabatlari

Buxoro davlatida yer-suv mulkchiligining uch shakli mavjud edi: 1) davlat yerlari (bu amlok yerlar deb ham atalgan); 2) mulk yerlari (xususiy); 3) vaqf yerlari.

Davlat yerlarining suvsiz dasht, to‘qayzor qismi ko‘chmanchi jamoalarga bo‘lib berilgan bo‘lib, ular bu yerlardan foydalanganliklari uchun davlatga xiroj to‘lar edilar. Bunday yerlar sotilmasdi va ayirboshlanmasdi.

Davlat yerlarining boshqa bir qismi hukmron sulola a‘zolariga, yirik davlat mansabdorlariga, lashkarboshilariga davlat oldidagi xizmatlari evaziga suyurg‘ol shaklida in‘om etilgan edi. Suyurg‘ol olganlar u yerni boshqarish huquqini ham olganlar. Suyurg‘ol egasi davlat xazinasiga xiroj to‘lashi hamda oliy hukmdorning chaqirig‘iga ko‘ra o‘z qo‘shini bilan harbiy yurishlarda ishtirok etishi lozim edi. XVI asrdan boshlab davlat yerlarini “tanho” deb nom olgan shaklda in‘om etish qaror topa borgan. Bunday in‘omga sazovor bo‘lgan kishi yerga emas, shu yerdan olinadigan soliqqa egalik qilgan. XIX asrning birinchi choragida amirlikda tanholarning soni 12 mingdan 36 ming nafarga yetgan. Eng kichik tanho yeri 3-5 gektarni tashkil etgan.

¹Azamat Ziyov. O‘zbek davlatchiligi tarixi... 283-284-betlar.

Davlat yerlarining yana bir qismi dehqonlarga ijaraga berilgan. Xazinaga eng ko‘p soliq ham ana shu yerlardan tushar edi.

Xususiy yerlar (mulk) ning bir qismi xususiy shaxslarning yerlari bo‘lib, ularning bu yerlarga yegalik qilishlari davlat xizmati bilan bog‘liq bo‘lmagan. Bunday yerlar, asosan, amirlikda asrlar osha yashab kelayotgan arablarga qarashli yerlar bo‘lgan.

Bu yerlardan 110 qismi miqdorida o‘lpon to‘lanardi. Mulk yerlarining ikkinchi qismi (mulki hur yoki mulki hurri xolis) davlat xizmati bilan bog‘liq bo‘lib, bunday yerlar urushlarda jasorat ko‘rsatgan yoki hukmdorning alohida topshiriqlarini bajarishda namuna ko‘rsatgan shaxslarga berish natijasida vujudga kelgan. Bunday yerga ega bo‘lgan shaxslarga maxsus yorliqlar berilgan hamda ular barcha soliqlardan ozod etilganlar.

Vaqf yerlari - bu masjid, mozor, xonaqoh, madrasa va maqbaralar uchun ajratilgan yerlar edi. Bunday yerlar musodara etilgan, davlat hamda yirik yer yegalari tomonidan hadya etilgan yerlar hisobiga vujudga keltiriladi edi. Masjid, madrasa, qabristonlarning asosiy sarf-xarajatlari, shuningdek, talaba, mudarris hamda mutavallilarga beriladigan nafaqa va maoshlar vaqf yerlaridan olinadigan daromad hisobidan qoplanar edi. Vaqf mulkini mutavalli tasarruf etishi belgilab qo‘yilgan edi.

Shohmurod zamonida har bir ziroatchidan qo‘shpuli (har qo‘sh (48 - 50 tanob) - yerdan 40 tiyin) olingan. 1807--yili amir Haydarning bir yorlig‘ida har tanob yerdan bir tillodan tanobona olinishi zarurligi ko‘rsatilgan. Agar ekinzor egasi tanobona to‘lashdan bosh torsa, hosilning uchdan bir qismi mol (xiroj) tariqasida olingan. Ba’zida xiroj hosilning yarmini tashkil etgan.

Mirzo Badi Devonning “Majma’ ul-arqom” asaridagi ma’lumotlarga ko‘ra, amirlik quyidagi ma’muriy-hududiy bo‘laklarga:

- ✚ *100 ming tanobdan iborat sug‘oriladigan yer tuman,*
- ✚ *50 ming tanobdan iborat sug‘oriladigan yer hazora,*
- ✚ *25 ming tanob sug‘oriladigan yer nimhazora,*
- ✚ *10-15 ming tanob sug‘oriladigan yer obxo‘ri,*

✚ **400 tanob sug'oriladigan yer qoriya,**

✚ **300 tanob sug'oriladigan yer maraza (ekinzor) deb atalgan.**

Bunday tartibda bo'linish bo'yicha xiroj, zakot va boshqa turdagi soliqlarni yig'ish va olish qulay bo'lgan.

Manbalarga ko'ra, XIX asr boshlariga kelib amirlikda yer egaligining quyidagi to'rtta turi mavjud bo'lgan:

- 1. davlatga tegishli yerlar(mulki sultoni);**
- 2. xususiy yerlar(mulk);**
- 3. diniy muassasalar ixtiyoridagi yerlar (vaqf) va**
- 4. qishloq jamoalariga tegishli yerlar.**

Arxiv manbalarida amlok yerlar amloki sultoni, podshoh yerlari kabi atamalar bilan atalgan davlat yerlari bilan bir qatorda mulki xirojii, xiroj yerlari atamasi ham tilga olinadi.

Amir Nasrullo davridan boshlab yer egaligining tanho shakli keng tarqaladi. Nasrullo o'ziga bo'ysunmagan amaldorlar va urug' oqsoqollarining yerlarini musodara qilib, bunday yerlarni vaqtincha egalik qilish huquqi bilan o'z tarafdorlariga hadya(tanho) qilgan. Amir Muzaffar davridan boshlab tanho tog'li hududlarga ham yoyiladi. Tanho turli hajmda(bir necha tanobdan bir necha yuz tanobgacha) berilgan bo'lib, tanhoning berilish miqdori eng avvalo, yerning sug'orilishi, yerning unumdorligi, qolaversa, amaldorning egallagan mavqeyi va ta'siriga ham bog'liq bo'lgan.

XV - XVII asrdan zakot solig'i beva-bechoralar, musofirlar foydasiga olingan bo'lsa, XVIII asrdan boshlab xazina foydasiga olinadigan bo'ldi. Kanallar, inshoot, qal'a, ko'priklar, yo'llar ta'miri hashar yo'li bilan amalga oshirilgan. Boshda hasharchilar oziq-ovqat bilan ta'minlangan. XVIII asrdan boshlab hasharga keluvchilar oziq-ovqati, ish asboblari, ot-aravasi bilan kelishi lozim bo'lgan.

O'rta Osiyoda, jumladan, Buxoro davlatida ham qishloq xo'jaligining taqdiri sun'iy sug'orish ishlari sug'orishning qanchalik to'g'ri hal etilganligiga bog'liq edi.

Shuning uchun ham XVIII asrda sug'orish tarmoqlarining kengaytirilishiga alohida e'tibor berildi. Zarafshon daryosida Xurmo va Sarazm nahr(ariq)lari chiqarilgan. Ularning biri to'rt chaqirim, ikkinchisi uch chaqirim uzunlikda bo'lgan.



Ahmad Donish tomonidan tuzilgan Buxoro shahri va uning atrofi hamda sug'orish sestemasining xaritasi.³⁰

Amir Shohmurod zamonida 40 chaqirim uzunlikdagi Qozonariq (Urgut tumanini sug'organ), 24 chaqirim uzunlikdagi Toyman arig'i, 24 chaqirim uzunlikdagi To'g'uzariq qazilgan. Yana Oqdaryo va Qoradaryodan ham nahrlar chiqarilgan.

Sug'orish inshootlarini yaroqli holda saqlashning og'ir yuki mehnatkashlar gardanida edi. Aynan ularning matonatli mehnati, sabr-toqati, sug'orish inshootlarining muqim ishlashini ta'minlar edi. Dehqonlar suvdan foydalanishda asrlar davomida juda katta tajriba to'plagan edilar. Ular shunday sug'orish inshootlarini bunyod eta oladilarki, unga tan bermaslikning iloji yo'q edi. Xususan, suv ayirg'ich to'g'oni qurishdagi mohirlik buning isbotidir. Masalan, suv oqimi

³⁰ Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi (Qadimgi davrdan – XX asr boshlarigacha). – T., 1972. – 256-bet

qiya va tez bo‘lgan tog‘ daryolari hamda soylarda suv ayirg‘ich (sepoya)lar, tinch oqadigan daryolarda shox-shabbdan qurilgan to‘g‘onlar, Amudaryodek chuqur va tezoqar daryolarda esa ko‘p boshli suv ayirg‘ichlar qurganlar. Ayrim joylarda esa yirik to‘g‘onlar qurilgan.

Daryo va kanallarga o‘rnatilgan chig‘iriy eng ko‘p ishlatiladigan suv ayirg‘ich edi. Shunday chig‘iriqlar ham yaratilganki, ular suvni hatto 4 metr va undan ham balandga chiqarib bera olardi. Suvni chuqur ariqlardan chiqarib olish uchun tutqichli suv ayirg‘ichlar ishlatilar, bunda ot, tuya, eshak va ho‘kiz kuchidan foydalanilar edi. XIX asrda birgina Amudaryoning quyi oqimida 600 mingdan ko‘proq chig‘iriy o‘matilgan edi. Bu kabi inshootlar Buxoro xonligi xo‘jaligida katta o‘rin tutgan. Bu hayot ta‘minoti bo‘lgan inshootlarning bosh bunyodkori, dalalarni hosildor yerlarga aylantirgan asosiy kuch - dehqonlar ommasi edi. Har bir dehqon xonadoni-yiliga 60 kundan 100 kungacha sug‘orish inshootlari qurish, kanal va ariqlarni tozalash, sozlash ishlarida qatnashishga majbur edilar.

Dehqonchilik mehnat qurollari nihoyatda sodda edi. Oddiy dehqon so‘qasi (omoch) asosiy dehqonchilik quroli edi. Ot, ho‘kiz, sigir, tuya, eshak dehqonning suyanchig‘i hisoblangan. Yaxshiyamki, O‘zbekiston tuprog‘i hosildor, iqlimi qulay mamlakatdir. Shu ikki muhim omil ham oddiy ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ancha serhosil va unumdor dehqonchilikni yo‘lga qo‘yish imkonini berardi.

Amirlik yerlarida paxta, bug‘doy, jo‘xori, tariq, arpa, beda yetishtirish dehqonchilikning asosini tashkil etardi. Deyarli har bir dehqon xo‘jaligida o‘z yehtiyoji va sotish uchun paxta yetishtirilardi. Ipakchilik ham rivoj topgan edi. Bog‘dorchilik, sabzavotchilik va polizchilik keng rivojlangan. Piyoz, sabzi, bodring, qovoq, qovun, tarvuz, olma, olxo‘ri, o‘rik, shaflooli, nok, yong‘oq, bodom, anjir, uzum yetishtirilar edi. Buxoro amirligi o‘zining qovun va uzumi bilan mashhur edi. Ayni paytda, bog‘dorchilik ham yaxshi rivojlangan. Hatto ko‘pgina shaharlarni bog‘lar o‘rab turardi. 4 qismdan iborat alohida reja asosida bunyod etilgan bog‘lar ham bo‘lardi. Bog‘ qismlarining har birini ariqlar ajratib turgan. Bunday bog‘lar chorbog‘ deb atalgan.

Buxorodagi Jo'ybor, Toshkentdagi Kaykovus bog'lari eng mashhur bog'lar edi. Amirlikda bo'yoq olinadigan o'simlik - mardona ham o'stirilgan. Dorivor o'simliklardan esa dorilar tayyorlashgan.

Amirlikda, garchand salmog'i dehqonchilikdan pastroq bo'lsa-da, chorvachilik ham rivojlangan.

Chorvachilik tumanlarida dumbali va qorako'l qo'ylar, yirik shoxli qoramollar, tuya va otlar boqilgan. Jun, teri, go'sht, sut-qatiq va yog' kabi chorvachilik mahsulotlari xalq hayotida muhim rol o'ynagan.


O'rta Osiyoning barcha hududlarida bo'lgani kabi Buxoro amirligida ham agrar munosabatlar, ya'ni, erga egalik munosabatlari iqtisodiy hayotning asosini tashkil etgan. Manbalarga ko'ra amirlikda yer egaligining quyidagi to'rtta turi: davlatga tegishli yerlar (mulki sultoniy); xususiy yerlar (mulk); diniy muassasalar ixtiyorida yerlar (vaqf) va qishloq jamoalariga tegishli yerlar mavjud bo'lgan, Arxiv manbalarida amlok yerlar, amloki sultoniy, podshoh yerlari kabi atamalar bilan atalgan davlat yerlari bilan bir qatorda mulki xirojijiy, xiroj yerlari atamasi ham tilga olinadi.

Amir eng katta yer egasi hisoblangan. Davlat yerlarini rasman sotish, hadya etish hamda vaqfga berish ta'qiqlangan bo'lsa-da, bunga doimo ham amal qilinmagan. Davlat yerlari bo'sh yotgan yerlar (qamishzorlar, toshloq, to'qayzor, tog'oldi) ni o'zlashtirish hisobiga ko'paytirib turilgan. Bunday erlarni o'zlashtirgan shaxslar bir necha yil soliqlardan ozod etilib, keyin belgilangan tartibda soliq to'laganlar.

Undan tashqari davlat (amlok) yerlari hukmdor olidida katta gunoh qilgan yirik yer egallaridan musodara qilingan yerlar hisobiga hamda merosxo'ri bo'lmasdan vafot etgan shaxslarning yerlari davlat ixtiyoriga o'tishi hisobidan ham ko'paygan. Ayrim maibalarga ko'ra, davlat yerlaridan doimiy mavjud bo'lgan yer solig'i- xiroj olingan bo'lsa, boshqa manbalarda davlat yerlaridan hosilning katta qismi, ya'ni 40-50 foizi olinganligi qayd etiladi.

Amirlikda mavjud bo'lgan yana bir yer egaligi shakli mulk(xususiy) yerlar bo'lib, bu yer egaligi shakli qo'zg'almas mulk hisoblangan hamda hech qanday

cheklanishlarsiz meros qilib qoldirish mumkin bo‘lgan. Mulki yerlaridan olinadigan soliqlar haqida tadqiqotchilarning turli fikrlari mavjud. Yangi tadqiqotlar (R.Xoliqova) tahlili shuni ko‘rsatadiki, mulki hurr yoki mulki xolis ayrim yirik yer egalari tegishli bo‘lgan yer egaligi shakli hisoblangan. Mulki hurr egasi doimo amaldagi hukmdor tomonidan berilgan yorliqqa ega bo‘lishi shart bo‘lgan va aynan shu yorliq tufayli u yer solig‘idan ozod qilingan.



Buxoroning sug‘orish tarmoqlari bo‘ylab Zarafshon suvining taqsimoti to‘g‘risida hujjat.³¹

Amirlikda dehqon ahli foydalanayotgan yerlarga nisbatan mulki xiroj atamasi ishlatilgan. Bunday yerlarga ega bo‘lgan yer egalari o‘z yerlarini erkin sotish, meros qoldirish va hadya qilish huquqiga ega bo‘lganlar. Bunday yerlardan rasman hosilning uchdan biri miqdorida soliq belgilangan bo‘lsada, amirlikning

³¹ Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug‘orilish tarixi (Qadimgi davrdan – XX asr boshlarigacha). – T., 1972. – 164-bet

har bir hududida oʻrnatilgan va belgilangan tartib hamda urf-odatlariga koʻra, soliq miqdori uchdan biridan to beshdan birigacha boʻlgan.

Anʼanaga koʻra, vaqf yerlari asosan diniy muassasalar — machitlar, mozorlar, xonaqo, madrasalarga yer maydonlarini meros qoldirish hamda xayr-ehson qilish natijasida vujudga kelgan boʻlib, u yer egaligining alohida shaklini tashkil etgan. Ushbu yerlardan tushgan foyda mutavalli ixtiyoriga kelib tushgan. Mutavalli asosan vaqf egalari avlodlaridan tayinlangan boʻlib, u vaqf hujjatlariga asoslanib foydani taqsimlab chiqqan. Amirlikda vaqf yerlarini sotish, bunday yerlardan soliq olish taʼqiqlangan boʻlsada, manbalar va hujjatlar bunga amal qilinmaganligini koʻrsatadi

Amir Nasrullo davridan boshlab yer egaligining tanho shakli tarqaladi. Nasrullo oʻziga boʻysunmagan amaldorlar va urugʻ oqsoqollarining yerlarini musodara qilib, bunday yerlarni vaqtincha egalik qilish huquqi bilan oʻz tarafdorlariga hadya (tanho) qilgan. Amir Muzaffar davridan boshlab tanho togʻli hududlarga ham yoyiladi. Tanho turli hajmda (bir necha tanobdan bir necha yuz tanbogacha) berilgan boʻlib, tanhoning berilish miqdori eng avvalo, yerning sugʻorilishi, yerning unumdorligi, qolaversa, amaldorning egallagan mavqeyi va taʼsiriga ham bogʻliq boʻlgan dehqonchilik va chorvachilik Buxoro amirligi iqtisodining asosiy tarmoqlari hisoblangan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Mangʻitlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi arafasida mamlakatda siyosiy ahvol qanday edi?
2. Muhammad Rahibiyning mamlakatni markazlashtirish yoʻlida amalga oshirgan ishlari haqida soʻzlab bering.
3. Amir Shohmurod markaziy hokimiyatni mustahkamlash, iqtisodiy hayotni tartibga solish maqsadida qanday islohotlarni amalga oshirgan?
4. XIX asrda Buxoro-Qoʻqon va Buxoro-Xiva munosabatlarning keskinlashishini asosiy sabablari nimalardan iborat?

5. Amirlikda ma'muriy hududiy bo'linishga nima asos qilib olingan va nega shunday?
6. Mang'itlar davrida Buxoro davlatida yer-suv mulkchiligining necha xil shakli mavjud edi?
7. Buxoro amirligi davrida davlat yerlarining suvsiz dasht, to'qayzor qismi kimlarga berilgan va ulardan qanday soliq olingan?
8. Mazkur davrda mamlakatda xususiy yer egaligining qanday kuo'rinishlari ma'lum bo'lgan?
9. Mirzo Badi Devonning "Majma' ul-arqom" asaridagi ma'lumotlarga ko'ra, amirlik hududi qanday tartibda ma'muriy-hududiy bo'laklarga ajratilgan?
10. Amirlik hududida mavjud bo'lgan amlok yerlari arxiv manbalarida qanday atamalar bilan keltirib o'tilgan?
11. Buxoro davlatida ham qishloq xo'jaligining taqdiri sun'iy sug'orish ishlari sug'orishning qanchalik to'g'ri hal etilganligiga bog'liq edi. Shu sababli Mang'it amirlari mamlakatda qanday sug'orish inshootlarini barpo ettirgan?
12. Amirlikda dehqonchilikda suv chiqishi qiyin bo'lgan yerlarda qanday turdagi suv inshootlaridan keng foydalangan?
13. Buxoro amirligida ancha serhosil va unumdor dehqonchilikni yo'lga qo'yish imkonini bergan omillar nimalardan iborat?
14. Buxoro amirligida qanday yerlar hisobiga davlat yerlari ko'paytirib turilgan?
15. Buxoro amirligida "mutavalli" mansabi egasining maqomi haqida nimalarni bilasiz?
16. Buxoro amirligida yerlar "tanho" shaklda turli hajmda (bir necha tanobdan bir necha yuz tanbogacha) berilgan bo'lib, tanhoning berilish miqdorida qanday omillar hisobga olingan?
17. Amirlikda qanday soliqlar amalda bo'lgan?
18. Amirlikda yer egaligining suyurg'ol shaklida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?

10-mavzu. Xiva xonligida yer - suv munosabatlari.

Reja:

10.1-§. Xiva xonligining siyosiy hayoti;

10.2-§. Xiva xonligida yer egali tizimi;

10.3-§. Xiva xonligida soliq va majburiyatlar;

10.4-§. Xiva xonligida irrigatsiya tizimi.

Tayanch iboralar: *davlat yerlari, tanho, vaqf, amloki podshohiy, adra, axya, mulk yerlari, jamoa yerlari, sug'orish inshootlari, soliq majburiyatlari, begar, qazu, otlanuv, hachi, kannallar, chig'ir, mehnat majburiyatlari*

10.1-§. Xiva xonligining siyosiy hayoti

1510-yilda Shayboniyxon vafotidan so'ng Xorazm hududi Eron shohi Ismoil tomonidan bo'ysundirildi. 1510-1512 yillarda Xorazmni Eron shohining noiblari idora qildilar. Ammo, 1512-yilda Xorazm hududlarida eroniylarga qarshi xalq harakatlari boshlandi. Ushbu harakatga Vazir shahrining (Ustyurtda, Ko'xna Urganchdan 60 km uzoqlikda joylashgan bu shaharni XVasrda o'zbek xonlardan bo'lgan Mustafaxon barpo etgan) qozisi Umar Shayx boshchilik qildi. Qo'zg'olonchilar Xorazmning Vazir, Urganch, Xiva, Hazorasp shaharlaridagi eroniy noiblar va ularning qo'shinlarini qirib tashladilar. 1512-yilda Xorazmning obro'li shayxlaridan bo'lgan Shayx Ota avlodlari ko'chmanchi o'zbeklarning Berka sulton avlodidan bo'lgan Elbarsxonga maktub yo'llab, uni Xorazm taxtiga taklif qildilar. Elbarsxon taxtga o'tirgach, eroniylarni mamlakat hududidlaridan butunlay haydab chiqarib, amalda mustaqil xonlikka asos soldi. U mamlakat hududlarini hozirgi Turkmanistonning janubiy qismi, Eronning shimolidagi Seraxs viloyati, Mang'ishloq, Abulxayrxon, Durun hisobiga ancha kengaytirdi. Ammo, o'zbek sultonlari va shahzodalar o'rtasida siyosiy birlik yo'q edi. Tez orada ular o'rtasida hokimiyat uchun o'zaro kurashlar avj olib ketdi. Ushbu kurashlardan foydalangan Buxoro hukumdori shayboniy Ubaydullaxon 1537 – 1538 yillarda,

qisqa muddat Xorazmni egallashga muvaffaq bo'ldi. Mag'lubiyatga uchragan Avanihxon oilasi bilan shayboniylar tomonidan qatl etildi.

Ubaydullaxonning hukmronligi uzoqqa cho'zilmadi. Ubaydullaxon zulmiga chiday olmagan xorazmliklar Anushaxonning vorislari boshchiligida buxoroliklarga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Ubaydullaxon 1538-yilda yana Xorazmga qo'shin tortdi. Hazorasp bilan Xiva shaharlari oralig'idagi Kardaronxos degan joyda Buxoro qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Shayboniylardan ozod bo'lgan Xorazmda endi ichki kurashlar avj olib ketdi. Shuningdek, Urganch, Kat, Yangi shahar, Xiva, Hazorasp kabi shaharlar va viloyatlar hukmdorlarining markazdan qochuvchi harakatlari kuchayib, ular amalda o'zlarini mustaqil hisoblar edilar. Ayrim shaharlar bir vaqtning o'zida ikkita hukmdor tomonidan (masalan Xivada Po'lat Sulton va Temir Sulton) boshqarildi. O'zaro kurashlar ayniqsa Elbarsxon va Anushaxon avlodlari o'rtasida kuchayib ketdi. XVI asrda Abdulg'oziy ma'lumotlariga ko'ra, bunday kurashlar natijasida qisqa muddatga hokimiyatdan o'nlab xonlar almashganlar. Natijada markaziy hokimiyat deyarli inqirozga uchragan edi. O'zaro kurashlar va siyosiy tanglik, o'z navbatida iqtisodiy hayotning ham izdan chiqishiga sabab bo'lgan edi.

XVI asrning ikkinchi yarmida Hojimaxon (Xoji Muhammadxon, 1558-1593, 1598-1602 yy.) hukmronligi davrida Xorazmdagi o'zaro urushlarga biroz barham berilib tinchlik va osoyishtalik o'rnatildi. Sug'orish va dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sodiq ishlariga jiddiy e'tibor qaratilib, tashqi savdo hamda munosabatlar rivoj topdi. Hojimaxon hukmronligi davrida poytaxt Urganchdan Xivaga (Xivaning poytaxtg'a aylanganligi sanasi to'g'risida – 1556 y, 1598 y, 1602-1621 yy., 1611-1611 yy., 1610-1612 yy., 1557-1603 yy. kabi fikrlar mavjud) ko'chiriladi (ayrim manbalarda XVI asrning 70-yillarida, ayrimlarda esa 90-yillarda). Bunga asosiy sabab Amudaryo o'zanining o'zgarib Kasbiy dengizga oqmay qo'yishi natijasida Urganch va uning atroflaridagi suv tanqisligi bo'lsa, ikkinchidan, Xivaning bu davrda siyosiy va iqtisodiy mavqeyi ancha kuchayib, asosiy savdo markaziga aylanishi yana bir sabab edi. Poytaxt Xivaga ko'chirilganidan so'ng davlat ham Xiva xonligi deb atala boshlandi.

Bu orada Buxoro hukmdori Abdullaxon II Shayboniylar davlatini qayta tiklashga muvaffaq bo‘lib Xorazm hududlarini yana Shayboniylar tasarrufiga olish uchun harakat boshladi. Chunonchi, bir necha yurishlardan so‘ng 1593-yilda Xorazm yana Shayboniylar qo‘liga o‘tdi. Abdullaxondan mag‘lubiyatga uchragan Hojimxon Xivani tashlab bir guruh navkarlari bilan Eronga qochdi va shoh Abbos saroyidan panoh topdi. 1598-yilda Abdullaxon II vafot etganidan so‘ng Hojimxon shoh Abbosdan ruhsat olib Xorazmga qaytdi. Yangi sharoitda u Urganch bilan Vazirni boshqarishni o‘ziga olib Xiva bilan Katni Arab Muhammadxonga, Hazoraspni Isfandiyor Sultonga berdi. 1600-yilda Hojimxon Urganch va Vazir qal‘alari boshqarishini Turkiyadan kelgan o‘g‘illariga topshirib, o‘zi Xiva kichik o‘g‘li Arab Muhammadxon bilan qoladi. 1601-yilda Hojimxon 83 yoshida vafot etgach, taxtga uning o‘g‘li Arab Muhammadxon (1602-1623 yy.) o‘tirdi.

Arab Muhammadxonning dastlabki hukmronligi yillarida toju-taxt uchun kurashlar davom etdi. Xususan, 1605-yilda nayman urug‘i vakillari Elbarsxon avlodiga mansub Xusrav Sultonni taxtga o‘tkazishni rejalashtiradilar. Ammo, bu fitna oshkor bo‘lib, Xusrav Sulton qatl ettiriladi. Oradan ikki yil o‘tgach, uyg‘ur oqsoqollarining maslahati bilan Solih Sulton degan kimsa taxtga davogar bo‘ladi, bu isyon ham bostirilib, Solih Sulton o‘ldirildi.

1616-yilga kelib taxt va mansab talashish mojarolariga Arab Muhammadxonning o‘g‘illari ham qo‘shildilar. Uning Isfandiyorxon, Habash, Elbars, Abdulg‘ozi, Sharif Muxammad, Xorazmshoh va Afg‘on Sulton ismli 7 nafar o‘g‘li bor edi. Isfandiyor Hazoraspda, Abdulg‘oziy Sulton Katda, Habash bilan Elbars sultonlar Vazir va Urganch hokimlari etib tayinlangan edilar. Xon farzandlarining har biri taxtga davogar edi. Ayniqsa Habash sulton bilan Elbars sultonlarning harakatlari keskin edi. Ota – bolalar o‘rtasidagi ziddiyatlar kuchayib oxir – oqibatda qonli urushga aylandi. 1621-yilda Toshli Yorilish arig‘i (Xiva yaqinida) yonida Arab Muhammadxon va uning o‘g‘illari Habash hamda Elbars sulton qo‘shinlari o‘rtasida jang bo‘ldi. Isfandiyor va Abdulg‘oziy sultonlar otasi tomondan turib kurashgan bo‘lsalarda, bu jangda Arab Muhammadxon yengildi. Arab Muhammadxon avval ko‘zlari ko‘r qilinib Xivaga jo‘natildi. 1623-yilda esa

Qum qa'lasini yaqinida Arab Muhammadxon xotinlari, yosh o'g'illari va ikkita nabirasi bilan o'g'illari Habash va Elbars sulton tomonidan o'ldirildi. Isfandiyor Eronga (garchi unga Makkaga borishga ruhsat bergan bo'lsada), Abdulg'oziy esa Buxoroga qochib, jon saqladilar.

1623-yilda otasining qatl etirilganligini eshitgan Isfandiyorxon Durun shahri, Abdulxon tog'laridan, turkmanlarning taka, yovmut, sariq urug'laridan qo'shin to'plab Urganchga yurish boshladi. Urganch yaqinida Isfandiyorxon va Habash – Elbars qo'shinlari o'rtasida 23 kun davom etgan jangda birlashgan aka – ukalar qo'shinlari Isfandiyor qo'shini tomonidan tor – mor etildi. Elbars qo'lga olinib qatl etildi. Habash Sirdaryo bo'ylaridagi qoraqalpoqlardan najot so'radi. Ammo, u bu yerdan boshpana topolmadi va navkarlari bilan qo'lga olinib, Isfandiyorxonga topshirildi hamda ularning barchasi qatl etildi.

1623-1643 yillar davomida Xiva xonligi taxtini Isfandiyorxon boshqardi. O'zining yigirma yillik davlat boshqaruvini Isfandiyorxon turkman qabila boshliqlariga tayanib olib bordi. Xonlikning yuqori lavozimlariga turkmanlar tayinlanib, ularga katta imtiyozlar berildi. Natijada o'zbek urug'larning Isfandiyorxon siyosatiga qarshi noroziligi kuchayib bordi. Isfandiyorxon taxtga o'tirgan-yiliyoq nayman urug'larini qirg'in-barot qildi. Xonlikdagi o'zbek urug'lari uch bo'lakka bo'linib, biri – Mang'it, biri – Qozoqlar yurti va yana biri Movarunnahrga ko'chib ketdi. Oradan ko'p o'tmasdan o'z yurtiga qaytib kelgan o'zbeklar Isfandiyorxon tomonidan qilichdan o'tkazildi.


Isfandiyorxon xonligi davrida ham Xorazmda tinchlik va osoyishtalik o'rnatilmadi. Toju-taxt uchun kurashlar ilgarigi davrlardagidek davom etdi. Xonlikdagi siyosiy hokimiyatni turkmanlar qo'lga berib qo'ygan Isfandiyorxondan norozi bo'lgan kuchlar uni taxtdan chetlatish rejalarini tuzdilar. Bu kuchlarga xoning ukasi Abulg'ozini boshchilik qildi. Shuningdek, Amudaryoning Orolga qo'yilish joyida (Orol bo'yi)da istiqomat qilgan o'zbeklar (bu yerda o'zbek qo'ng'irotlari katta siyosiy mavqeyga ega edilar) ning xonlikning siyosiy hayotiga ta'siri kuchayib bordi.

Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, 1643-yilda Orol bo'yi o'zbeklari Abulg'ozil sultonni (1643-1663yy.) xon qilib ko'tardilar. Xorazm davlatchiligi tarixida yirik davlat arbobi va tarixnavis ijodkor sifatida mashhur bo'lgan Abulg'ozixonning hayot yo'li og'ir kechgan. Abulg'ozixon otasi Arab Muhammad taxtdan ketgach o'zi taxtga o'tirgunga qadar uzoq yillar (yigirma-yildan ko'proq) muhojirlikda yashashga majbur bo'lgan edi. U dastlab Buxoro hukumdori Imomqulixon himoyasida, keyinroq esa, ikki-yilga yaqin qozoq sultoni Eshimxon saroyida yashagan. Shundan so'ng Toshkentga kelib bu yerda ikki yil yashadi. Toshkentdan Buxoro orqali Xivaga qaytgan Abulg'ozini Isfandiyorxon bosqinchilikda ayblab hibsga oladi va Isfaxon shahriga Eron shohi huzuriga badarg'a qiladi. Isfaxon yaqinidagi Taborak qal'asida o'n yil asirlikda yashagan Abulg'ozil 1639-yilda o'z nazoratchilari yordamida bandilikdan qochishga muvaffaq bo'ldi. Shundan so'ng u bir-yilga yaqin Xurosonning Mohin qishlog'ida, ikki-yilga yaqin Mang'ishloq turkmanlari orasida yashaydi. Keyin uni qalmaq xoni o'z o'rdasiga taklif etadi. Bu yerda Abulg'ozil bir-yilga yaqin yashagach qalmaq xoni to'plab bergan katta kuch bilan 1643-yilda Urganchga qaytib, Orol bo'yi o'zbeklari yordamida Xiva taxtiga o'tiradi.

Akademik B.Ahmedovning yozishicha, "Abulg'ozil hammasi bo'lib yigirma yil atrofida xonlik masnadida o'tirdi. Lekin boshqa hukmdorlarga o'xshab huzurhalovat ko'rmadi. Umri ko'proq urush – talashlarda o'tdi." Manbalarga ko'ra, Abulg'ozixon haqiqatan ham butun umrini taxt uchun kurash va jangu – jadallarga bag'ishlagan hukmdor bo'lgan. Ammo, u davlat arbobi sifatida ham qobiliyatli shaxs bo'lgan. Abulg'ozixon dastavval xonlikda markazlashgan boshqaruv tizimini mustahkamlashga e'tibor qaratdi. Bu jarayonda u avvalo, turkman yo'l boshchilarini boshqaruv ishlaridan chetlashtirdi. Ularning yer – suvlari, mol – mulklari musodara qiinib, o'zlari mamlakat ichkarisiga surgun qilindi.

Xonlikdagi barcha lavozimlarga o'zbek urg'ularining boshliqlari qo'yildi. Xiva tarixchisi Munisning ma'lumot berishicha, Abulg'ozixon ma'muriy islohot o'tkazib, xonlikning boshqaruv tizimini batamom yangitdan tashkil etdi. Xonlikning boshqaruv tizimida o'zbek urug'larining mavqeyi ortib bordi hamda

ularning 360 nafar vakili xon saroyida turli lavozimlarga ko‘tarildi. Xon yangi amaldorlar orasidan eng obro‘li 32 nafarini o‘z yoniga oldi. Munis ta‘biri bilan aytganda, “andoqkim ikki shayx ul-islom, ikki qozi, bir rais Said ota avlodidan, bir mutavalli, bir naqib, to‘rt otaliq, to‘rt inoq, to‘rt mirob, to‘rt parvonachi, ikki oqo, ikki arbob, to‘rt chig‘atoyi inoqi va bir vazirkim, holo mehtar derlar va bir qushbegi, bu ikkovi o‘rinsiz xon huzurida oyoq ustida turadilar”.



XVII - XVIII asrlarda Xorazmda o‘zbek qabilalarining joylashuvi xaritasi. Shartli belgilar: 1 – qang‘li; 2 –qipchoqlar; 3 – uyg‘urlar; 4 – nayman; 5-kegaslar;6-nukuslar; 7- qiyotlar; 8-qung‘irotlar; 9-mang‘itlar; 10-sartlar.³²

³² G‘ulomov Ya.G‘. Xorazmning sug‘orilish tarixi. Qadimgi zamondan hozirgacha. -T., 1959. – 219-bet.

Abulg'ozixon o'zbek qabilalarini o'troqlashtirish siyosatini olib borish bilan birga, ularni to'rta guruhga bo'lib, Buxoro bilan chegaradosh bo'lgan Doyaxotun (Darg'onota yaqinida) dan tortib, to Orolgacha bo'lgan hududlarga joylashtirdi. Shuningdek, Abulg'ozixon 1645-1650 yillarda Xuroson, Janubiy Turkmaniston, Tajan, Murg'ob, Artek, Gurlan, Abulxon va Mang'ishloq atrofidagi turkmanlar ustiga yurishlar uyushtirdi. Xonlik sarhadlarini kengaytirishga harakat qildi. Xonning topshirig'i bilan Vazir qal'asi aholisi Gurlan qal'asi yaqinida tiklangan Kichik Vazir qishlog'iga ko'chirildi. 1646-yilda Abulg'ozixonning buyrug'iga binoan Urgancharna arig'i qaziladi va uning yaqinida yangi qal'a bunyod etilib, bu qal'aga Yangi Urganch deb nom beriladi. Bu yerga Ko'hna Urganch aholisining bir qismi ko'chirib keltiriladi. 1648-yilda G'ozibod kanali qazilib, uning yaqinda chegara istehkomi quriladi.

Davlat boshqaruvi va bunyodkorlik ishlari bilan shug'ullangan Abulg'ozixon tarixchi tabib sifatida ham bebaho meros qoldirgan. Taxminan 1657-yilda Abdulg'ozir tabobatga oid "Manafi' ul-inson" ("Insonga foydali narsalar") nomli asarini yozgan bo'lsa, 1658-1664 yillarda "Shajarai turk" nomli tarixiy asarlarini yaratdi.

Abulg'ozixon hali o'zi hayotlik davrida Xiva xonligi taxtini o'g'li Anushaxon (1663-1687 yy)ga topshirdi va oradan olti oy o'tib vafot etdi. Anushaxon Xiva xonligi mavqeyi va qudratini oshirish maqsadida otasining ishlarini davom ettirdi. U Buxoro, Samarqand va Xurosonga bir necha marta harbiy yurishlar uyushtirib xonlik chegaralarini mustahkamlash hamda kengaytirish harakatida bo'ldi. Anushaxonning harbiy yurishlarida jasorat ko'rsatgan turkmanlarga bo'lgan munosabat o'zgardi. Xon turkmanlarga Xorazm vohasi hamda uning atroflariga ko'chib kelishiga ruhsat berdi.

1687-yilda saroy a'yonlari tomonidan fitna uyushtirilib, Anushaxon o'ldiriladi. Taxtga esa uning o'g'li Xudoydod (1687-1688 yy) o'tkaziladi. Afsuski yangi hukumdorning xonlik faoliyati uzoq davom etmadi. Ogahiy habarlariga ko'ra, siyosatda bilimdon va xalqa adolatli xon sifatida obro' orttira boshlagan Xudoydodni inisi Arangxon (ayrim adabiyotlarda Ernaxxon yoki Erangxon deb

ham beriladi) shahid edi. Ammo, Arangxonning (1689-1690 yy.) hukmronligi uzoq davom etmadi. 1690-yilda u Orol o'zbeklari bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi.

Arangxon vafotidan so'ng, Buxoro xoni Subhonqulixon Xiva taxtiga o'z odami Shohniyozni (1690-1707 yy.) o'tkazib, amalda Xiva xonligini Buxoroga vassal davlatga aylantirdi. Shuning uchun ham Shohniyoz garchi o'zini xon deb e'lon qilgan bo'lsada, o'z faoliyati davomida Buxoro ta'siridan qutula olmadi. XVII asrning oxiri – XVIII asrning boshlariga kelib, Xiva xonligida siyosiy tarqoqlik, taxt uchun kurashlar va mahalliy hukmdorlarning mustaqillikka intilish harakatlari avj olib ketadi. Viloyatlar hokimlari xonga itoat etmay qo'yganliklari bois Xiva xoni saroy amaldorlari va mahalliy hukmdorlar qo'lidagi qo'g'irchoqqa aylanib qolgan edi. Shuning uchun ham XVIII asrga oid ayrim yozma manbalarda Xiva xonligi "Besh qal'a" deb atalgan bo'lsa kerak. Uning tarkibidagi Hazorasp, Xonqa, Urganch, Kat va Shovot qal'alarining markaziy hokimiyatga tobeligi yuzaki xususiyatga ega edi.

Shohniyoz Buxoro ta'siridan qutulish hamda markaziy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida 1703-yilda Rossiya hukumdori Pyotr I ga maktub yo'llaydi. Bu maktubda Xiva xonligini Rossiyaga qo'shib olish so'ralgan edi. Pyotr I ning Xivani Rossiya tarkibiga qo'shilganligi haqidagi yorlig'i 1707-yilda Xivaning yangi hukmdori Arab Muhammadga (1707-1715 yy.) topshiriladi. Ammo, Xivada siyosiy kurashlar avj olib turgan sharoitda ushbu yorliq hech kimning e'tiborini tortmadi. Umuman, Ogahiy ma'lumotlariga ko'ra, Arangxon davridan to Sherg'ozixon davriga qadar Xivada o'nlab hukmdorlar almashganlar.

Sherg'ozixon (1715-1728yy)ning hukmronligi davri siyosiy voqealarga boy bo'ldi. Uning hukmronligi davri o'zbek, turkman, qoraqalpoq zodagonlarining o'zboshimchalik harakatlariga qarshi kurash bilan o'tdi. Bu paytgacha kelib, Orol bo'yi o'zbeklari orasida ham siyosiy vaziyat keskinlashib ketgan edi. Buning asosiy sababi – Orol bo'yida yashayotgan o'zbeklarning Qo'ng'iroq, Mang'it, Xo'jayli va Qipchoq urug'iga mansub aholisining mustaqillik uchun kurashlari edi. Bu kurashlarga boshchilik qilgan, Mang'it biylaridan bo'lgan SHERALIBIY XIVA xonligiga itoat etishdan bosh tortib, Orol bo'yini mustaqil hokimlik deb e'lon qildi.

Sherg'ozixon bu yerdagi harakatlarni bostirishga harakat qilgan bo'lsa-da, bu ishning butunlay uddasidan chiqa olmadi.

XVIII asrning boshlariga kelib Rossiya hukumatining Xiva xonligining ichki ishlariga aralashuvi kuchaydi. Rossiya hukumron doiralari O'rta Osiyo, jumladan Xiva xonligini ham bosib olishni rejalashtira boshlagan edilar. Rossiya hukumdori Pyotr I ning 1717-yilda Xivaga uyushtirgan Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi ekspeditsiyasi ham aynan shu maqsadda tashkil etilgan edi. Ammo, Sherg'ozixonning hiyla ishlatishi natijasida 6 ming kishidan iborat bu ekspeditsiya bir kechada qirib tashlandi. Shunga qaramasdan to O'rta Osiyo bosib olinmagunicha Chor Rossiyasi hukumatining bunday harakatlari davom etdi.

O'zaro ichki kurashlar, shahzodalarning o'zaro mojoralari, ko'plab yig'iladigan soliqlar xonlikdagi iqtisodiy ahvolni og'irlashtirib yubordi. Natijada 1728 yil9ivada hokimiyatga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Bu yerda xonning zulmiga qarshi qullar bosh ko'targan edilar. Oqibatda Sherg'ozixon va uning yaqin mulozimlari o'ldirildi.

Sherg'ozixon o'limidan keyin taxtga o'tirgan qozoq sultoni Elbarsxon (1728-1740 yy.) davrida ichki kurashlar davom etib, qo'shni hududlarga ko'plab talonchilik yurishlari uyushtirilib turishi natijasida Xiva xonligining harbiy qudrati zaiflashib bordi. Bu vaziyatdan unumli foydalangan Eron shohi Nodirshoh 1740-yilda Xiva xonligiga hujum boshladi. Dastavval Hazorasp yonida Xiva qo'shinlari bilan eroniylar o'rtasida qattiq jang bo'ldi. Bu jangda Xiva qo'shinlari yengilib, Hazorasp qal'asiga chekindi. Eroniylar Hazorasp qal'asini uzoq muddat qamal qilib uni egallay olmagach, Xonqa qal'asiga hujum qildilar. Bu paytda vaziyat o'zgarib, Elbarsxonga madad berib turgan mang'it beklari Nodirshoh tomonga o'tib ketdilar. Oqibatda Elbarsxon yengildi va qo'lga olinib, Nodirshoh tomonidan qatl etildi.

Elbarsxonning mag'lubiyatidan so'ng qozoqlarning kichik juz qabilasi boshlig'i, rus fuqaroligini qabul qilgan Abulxayrxonni Xiva taxtiga o'tqazdilar. Abulxayrxon sulh tuzish uchun Nodirshohga noma yuborib rad javobini oldi. Oradan qisqa vaqt o'tib, Nodirshoh Xivaga ikkinchi marta yurish qildi va uni

egalladi. Abulxayrxon esa qozoq dashtlarga qochib ketdi. Bu yerga Nodirshoh Mang'it beklaridan bo'lgan Ortiqbek va Xo'rzodbeklarni noib etib tayinladi. Ammo, Orol bo'yi o'zbeklari Nodirshohga itoat etishdan bosh tortib, Abulxayrxonning o'g'li Nuralini o'zlariga xon qilib ko'tardilar. 1741-yilda Xivada eroniylarga qarshi qo'zg'olon ko'tarilib, Nodirshohning noiblari o'ldirildi, askarlari ham qirib tashlandi. Xivaga Nuralixon xon qilib o'tqazdirildi. Ammo, Nurallixonning xon sifatida siyosiy ta'siri deyarli yo'q edi.

1741-yilda Nodirshoh o'g'li Nasrullo boshchiligida yana Xivaga yurish qilib Nuralixon va uning tarafdorlarini Xivadan haydab yubordi. Taxtga esa Elbarsxonning o'g'li Abdulg'ozii II xon qilib o'tqazildi. Ammo, uning hukmronligi ham uzoq cho'zilmadi. 1746-yilda Xivada Mang'it inoqlari tomonidan uyutirilgan fitnada Abdulg'ozii II o'ldirildi. Shundan so'ng Nodirshohning roziligi bilan 1747-yilda qozoq sultoni Abulxayrxonning ukasi Taibxon (Kaipxon) (1747-1757 yy) taxtga o'tqazildi. Manbalarda Taibxonning nihoyatda zolim hukmdor bo'lganligi eslatiladi. U Xiva taxtiga o'tirgach avvalo, hokimiyatini inoqlar ta'siridan xalos qilish maqsadida Mang'it inoqlaridan bo'lgan Huzurbekni tarafdorlari bilan qatl ettirdi. Davlatdagi yirik mansablar esa qozoq beklariga bo'lib berildi. Taibxon aholiga nisbatan jabr-zulmini kuchaytirib, 1756-yilda Xiva aholisidan 40 ming tanga qo'shimcha soliq yig'ib oldi. Bu esa Xivada xalq qo'zg'oloniga sabab bo'ldi. Taibxon taxtni tashlab qozoq dashtlarga qochib ketdi. Hokimiyatni esa qisqa muddat uning ukasi Abdullaxon egalladi.

Xivadagi ichki nizolardan foydalangan Buxoro hukmdori Muhammad Rahimbiy Xivani o'z ta'siriga o'tkazish harakatini boshladi. Shu maqsadda o'z odami Temur G'ozixon (1757-1763 yy) ni Xiva taxtiga o'tqazdi. Temur G'ozixon ham Xivada yetarli darajada siyosiy barqarorlik o'rnatgan bo'lsada, uning hukmronligi davridan boshlab xonlikda o'zbeklarning qo'ng'iroq urug'idan bo'lgan inoqlarning mavqeyi ortib bordi. Temur G'ozixon bir necha yil hukmronlik qilib, saroy fitnasi natijasida o'ldirildi. Uning o'limidan so'ng Xiva hokimiyati qozoq sultoni Tavkaxon (1763-y.) qo'lga o'tdi. Biroq, oradan ko'p o'tmasdan u ham

taxtdan mahrum bo'ldi. 1763-yilda inoq Muhammad Amin amalda Xivadagi oliy darajadagi hukumdorga aylandi.

1763-yildan boshlab Xivada amalda qo'ng'iroq urug'i inoqlari hokimiyat tepasiga kelgan bo'lsa-da, 1804-yilgacha Xiva xonlari hukmdor sifatida boshqa shaxsni xon qilib e'lon qilganlar. Qo'ng'iroqlar sulolasi hukmdorlaridan Muhammad Amin inoq (1763-1790 yy.) Xivada hokimiyatni qo'lga olgach saroydagi bir qancha lavozim va amallarga o'ziga sodiq va ishonchli odamlarni tayinladi. Yangi xon shu yo'l bilan xonlikdagi muhim siyosiy-ma'muriy, moliyaviy va harbiy hokimiyatni o'z qo'lga olib, ayrim mustaqil beklarni o'ziga itoat ettirdi.

Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, shaharlik savdogarlar, hunarmandlar va din peshvolari yordamida o'z hokimiyatini ancha mustahkamlagan Muhammad Amin inoq 1770-yilda turkmanlar hujumini, 1782-yilda Buxoroliklar tajovuzini muvaffaqiyatli qaytardi. Uning hukumronligi davrida Xiva xonligida dehqonchilik, savdo – sotiq va hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadida ma'lum chora – tadbirlar amalga oshirildi. Mahalliy hukumdorlarning o'zaro nizomlari va kurashlariga chek qo'yilishi natijasida xonlikdagi iqtisodiy hayot yaxshilanib bordi.

Muhammad Aminning o'g'li Avaz inoq (1790-1804 yy.) otasining ishlarini davom ettirgan bo'lsa, Avazning o'g'li Eltuzar inoq 1804-yilda Xiva taxtiga o'tirib, soxta xon Abdulg'ozni V ni haydab yubordi va o'zini rasmiy xon (1804-1806 yy.) deb e'lon qildi. Shu tariqa Xivada qo'ng'iroqlar sulolasi hukumronligi rasmiy qaror topdi. Eltuzarxon xonlikdagi mustaqil hokimlarni birlashtirish siyosatini davom ettirdi. Ammo, uning hukumronligi uzoq davom etmadi. 1806-yilda Eltuzarxon buxoroliklar bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi. Taxtga uning ukasi Muhammad Rahimxon I o'tirdi.

Muhammad Rahimxon I (1806-1825 yy.) markazlashtirish siyosatiga katta e'tibor berib, Xiva xonligini birlashtirishni nihoyasiga yetkazdi. Xiva tarixchilarining ma'lumotlariga ko'ra, Muhammad Rahimxon I xonlikdagi vaziyatni to'g'ri tushunib, shunga yarasha davlat siyosati ishlab chiqdi va ushbu

siyosatni qat'iyatlik bilan amalga oshirdi. Xususan, uning bevosita tashabbusi bilan xonlikda ma'muriy – siyosiy, iqtisodiy va harbiy islohotlar o'tkazildi.

Dushmanlariga, markazdan qochuvchi kuchlarga nihoyatda beshafqat bo'lgan Muhammad Rahimxon I o'z atrofiga o'zbek, turkman, qozoq va qoraqalpoqlarning nufuzli vakillarini to'plab, ularga amallar va unvonlar berdi. Xon saroyi qoshida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash (Devon) ta'sis etildi. Ruhoniylarga ham alohida e'tibor berilib, Shayxulislom Kengashning a'zosi va xonning eng yaqin masahatchisiga aylandi. Muhammad Rahimxon I ning musulmon ruhoniylarining xalq orasidagi mavqeyini hisobga olib sayidlardan bo'lgan Sayid Pirmuhammad Xo'janing qiziga uylangani ham ma'lum.

Bu xon davrida mamlakatning iqtisodiy hayoti jonlanganligi haqida ham ma'lumotlar talaygina. Uning davrida maxsus islohotlar o'tkazilib, soliqlar tarkibiga solindi. Bojxona tashkil etilib, ichki va tashqi savdodan keladigan daromadlar ko'payib bordi.

Muhammad Rahimxon I mamlakat sarhadlarini kengaytirish hamda bo'ysunmas qabilalarni itoat ettirish maqsadida qator harbiy harakatlar olib bordi. Juda qiyinchilik bilan bo'lsa-da, 1811-yilda Orol-Qo'ng'iroq tobe ettirildi. 1812-1813 yillarda Sirdaryo bo'yidagi qozoq va qoraqalpoq ovullariga ketma-ket qo'shin yuborilib, ular Xiva xoniga bo'ysundirildi. Shundan so'ng xonlik hududlarini Janubiy Turkmaniston va Xuroson viloyatlari hisobiga kengaytirish harakati boshlandi. Ammo, bu masalada Xiva bilan Buxoro o'rtasida kurash boshlanib ketdi. 1817-yilgi Chorjuy qal'asi yaqinidagi birinchi to'qnashuvda Xiva qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Shunga qaramasdan Muhammad Rahimxon I Buxoro hududlariga 1820, 1823, 1824-yillarda talonchilik urushlari qilib turdi.

Janubiy Turkmaniston va Xuroson viloyatlariga harbiy yurishlar Muhammad Rahimxondan keyin taxtga o'tirgan o'g'li Olloqulixon (1825-1842 yy.) va nabirasi Rahimqulixon (1842-1845 yy.) davrida ham davom etdi. Olloqulixon Janubiy Turkmaniston va Xuroson viloyatlarida o'z hukmronligini mustahkamlash uchun ular ustiga besh marotaba yurish qildi. 1826-yilda Xiva qo'shinlari Shimoliy Xurosondagi Oqdarband qal'asini zabt etdilar. 1828-1829 yillarda bu hududdagi

Jalqon qal'asi egallandi. Olloqulixon zamonida Buxoro va Xiva o'rtasida Marv viloyati uchun to'qnashuvlar bo'lib turdi.

Olloqulixon 1842-yilda vafot etgach taxtga uning o'g'li Rahmonqulixon (1842-1845 yy.) o'tirdi. Taxtni egallagan yangi xon ham Janubiy Turkmaniston yerlariga hujum boshladi. Bu yurishlarga hujum qilib, Hazorasni qamal qildi. Ammo, mag'lubiyatga uchrab orqaga chekinishga majbur bo'ldi. Bu orada Rahmonqulixon Chorjo'yni qamal qilib, uning atrofidagi qishloqlarni taladi. Rahimqulixon Xuroson uchun bo'lgan janglarning birida halok bo'lgach taxtga uning ukasi Muhammad Aminxon (1845-1855 yy.) o'tirdi.

Muhammad Aminxon hukmronligi davrida ham Janubiy Turkmaniston va Xurosonda tinchlik hukm surmay, xonga qarshi isyonlar davom etdi. Ayniqsa, Marv va Seraxs shaharlarida ko'tarilgan qo'zg'olonlar hokimiyatni larzaga keltirdi. Qo'zg'olonchilar Xiva xoniga bo'ysunishdan bosh tortib, xon amaldorlari va soliq yig'uvchilarni tutib qatl qildilar. Ogahiy ma'lumotlariga ko'ra, Muhammad Aminxon Marv va Seraxs uchun o'n marotaba yurish qilgan, faqatgina 1854-yilda Marv qo'zg'oloni qiyinchilik bilan bostiriladi. 1855-yil Seraxs ostonasida turkmanlar bilan Xiva lashkarlari o'rtasida bo'lgan jangda Xiva qo'shinlari mag'lubiyatga uchrab, Muhammad Aminxon, uning o'n to'rt nafar shahzodalari va saroy amaldorlari fojeali halok bo'ldilar.

1855-yil Said Abdullaxon (besh yarim oy – 1855-yil 20-mart – 27 avgust) Xiva taxtiga o'tirdi. Ammo, bir guruh saroy amaldorlari Said Abdullaxonni tan olmasdan unga qarshi fitna uyushtirib, yovmut turkmanlari bilan aloqa o'rnatdilar hamda ularni isyonga chorladilar. Yovmutlar isyon ko'tarib G'ozovot va Ilonli atroflarida qishloqlarni talay boshladilar. Said Abdullaxon Xivadagi fitnachilarni fosh qilib, uning ishtiroqchilarini qatl ettirgach, isyonchilarga qarshi kurash boshladi. Dastavval, Xiva qo'shinlari bilan bo'lgan jangda yovmutlar mag'lubiyatga uchrab dasht ichkarisiga chekingan bo'lsalar-da, avgustning oxirida yovmutlar Xiva navkarlari qarorgohiga (Ilonli yaqinida) to'satdan tunda hujum qildilar. Bu hujumda Xiva navkarlari mag'lubiyatga uchrab, Said Abdullaxon o'ldirildi.

Bu voqeadan keyin saroydagi vazir Muhammad Yoqub mehtar boshchiligidagi bir guruh amaldorlar Sayid Abdullaxonning o'n yetti yashar ukasi Qutlug' Murodni xon qilib ko'tardilar, Yoqub mehtar va Ibrohim qo'shbegi davlat boshqaruvida xonning eng yaqin kishilari edilar. Bu orada xonlikdagi siyosiy vaziyat yana keskinlashib ketdi. Qutlug' Murodxonga bo'ysunmagan turkman yovmutlari Ota Murodni, qozoq va qoraqalpoqlar Jorliq To'rani o'zlariga xon deb e'lon qildilar. Qutlug' Murodxon ularning isyonlarini qiyinchilik bilan bostirdi. Ammo, uning hukmronligi ham uzoq cho'zilmadi (to'rt yarim oy). Qutlug' Murodxon o'z ukasi Niyozbek Muhammad tomonidan hiyla ishlatilib uyushtirilgan fitna (yovmut turkmanlari yordamida) natijasida o'ldirildi.

Qutlug' Murodxon o'limidan so'ng Xiva taxtiga Sayid Muhammadxon (1856-1864 yy.) xon qilib ko'tarildi. U hokimiyatga kelgan paytda xonlikda siyosiy vaziyat keskinlashgan, iqtisodiy ahvol nihoyatda og'ir bo'lib, ko'pchilik viloyatlarda ocharchilik hukm surgan, yuqumli kasalliklar tarqalgan edi. Vaziyatni to'g'ri baholay olgan Sayid Muhammadxon yuz berayotgan isyonlarni tinch yo'l bilan hal qilish, tinchlikni qaror toptirish, iqtisodiyotni tiklash choralari ko'rdi. U avvalambor Buxoro va Rossiya bilan savdo aloqalarini yaxshiladi. Dehqonchilik, obodonlashtirish va qurilish ishlarida qator tadbirlar o'tkazildi. Ammo, xonlikdagi ichki notinchlik to'xtamadi. Xonlikda faqat o'zbek urug'larigina emas balki, yarim ko'chmanchi va chorvador aholi bo'lgan turkman, qozoq, qoraqalpoq va boshqa xalqlar og'ir soliqlar va turli to'lov hamda majburiyatlarga tortilganligi bois xonlikning turli shahar va viloyatlarida noroziliklar, isyonlar bo'lib turdi.

Sayid Muhammadxon 1864-yil 10-sentyabrda kasallanib vafot etgach taxtga uning o'g'li Sayid Muhammadxon Rahimxon II (1864-1910 yy.) o'tirdi. Soniy va Feruz nomlari bilan ham ma'lum bo'lgan bu hukmdor Xiva xonlari orasida eng adolatparvar va ma'rifatparvar hukmdor bo'lganligi bois ham 47 yil davomida mamlakatni idora qilgan.

Uning zamondoshlari bo'lgan Ogahiy va Bayoniylar asarlarida Sayid Muhammadxon Rahimxon II (Feruz) faoliyatida adolatparvarlik va haqgo'ylik, qattiqqo'llik va talabchanlik bilan, ma'rifatparvarlik esa tashabbuskorlik bilan

uyg'unlashib ketganligi haqida ma'lumotlar beradilar. Bu xon o'zining butun hukmronligi davrida el-yurt farovonligi, tinchlik-osoyishtaligi uchun kurashdi. Xonlikda dehqonchilik, sug'orish ishlari, savdo-sotiq va hunarmandchilik taraqqiy etdi. Bu davrda Xorazmda ayniqsa ilm-fan, adabiyot va san'at, me'morchilik yuksaldi. Xonning o'zi "Feruz" taxallusi bilan ijod qilib o'zbek mumtoz adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shdi.

Zamonaviy Xorazm tarixchilari Sayid Muhammadxon Rahimxon II hukmronligini ikki bosqichga ajratadilar. **Birinchi bosqich** – 1864 – 1873 yillar, xon hukmronligining dastlabki o'n yilligi bo'lib, bu davrda Muhammadxon Rahimxon II davlatni mustaqil boshqarib, mamlakatda tinchlik va farovonlikni qaror toptirish, qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq va hunarmandchilik, fan va madaniyatni yuksaltirish yo'lida ulkan ishlarni amalga oshirdi. **Ikkinchi bosqich** – 1873-yil avgustdan 1910-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. 1873-yilda Xiva general Kaufman boshchiligidagi rus qo'shinlari tomonidan bosib olingach, tuzilgan sulhga binoan Xiva xonligi Rossiyaga qaram davlatga aylandi. Bu davrda Muhammadxon Rahimxon II ning faoliyati Rossiya hukumati tomonidan qat'iy cheklandi va nazorat ostiga olindi. Shunga qaramasdan xon o'zining adolatparvarlik va bunyodkorlik faoliyatini davom ettirdi.

Muhammadxon Rahimxon II vafotidan so'ng taxtga uning o'g'li Sayid Isfandiyor (1910-1918 yy.) o'tirdi. Isfandiyorxon xonlik davrini yangiliklardan boshladi. Uning farmoni bilan xonlik aholisi qadimdan to'lab kelayotgan soliqlarning bir necha turi qisqartirildi. General-mayor unvoniga ega bo'lgan Isfandiyorxon ham otasi kabi rus hukumatiga tobe edi. Uning davrida xonlikda bir qancha qo'zg'olon bo'lib o'tdi. Xon bu qo'zg'olonlarni ruslar yordamida bostirdi. 1918 yil 1 oktyabrda turkman Qurbon Muhammad Sardor (Junaidxon)ning buyrug'i bilan Isfandiyorxon o'ldirildi. Hokimiyatni Junaidxon o'z qo'liga oldi. Ammo, u Xiva taxtiga o'tira olmas edi. Shu bois ham Isfandiyorxonning ukasi Said Abdullaxon (1918-1920 yy.) nomigagina xon qilib ko'tarildi. 1920-yil 2-fevralda Xivaga kirib kelgan qizil armiya qo'shinlari Junaidxon lashkarlarini tormor etib, hokimiyatni sovetlarga topshirdi.

10.2-§.Xiva xonligida yer egali tizimi

Bu davrda xonlikning 800 mingga yaqin aholisi bo‘lib, ularning 65 foizini o‘zbeklar, 26 foizini turkmanlar, qolgan qismini esa qoraqalpoq va qozoqlar tashkil etardi. Aholining ko‘pchiligini tashkil etgan o‘zbeklar qabila-qabila, urug‘-urug‘ bo‘lib xonlikning shimoliy qismida- asosan Amudaryoning quyi oqimidagi yerlarda istiqomat qilardilar.

Xiva xonligi - Pitnak, Hazorasp, Xonqa, Urganch, Qo‘shko‘pir, G‘azovat, Qiyot, Shohaboz (Shohboz), Toshhovuz, Ambar-Manoq, Gurlan, Ko‘hna Urganch, Xo‘jayli, Chumanay va Qo‘ng‘irot deb ataluvchi 15 viloyatga, Beshariq va Qiyot-Qo‘ng‘irot deb ataluvchi ikkita noyiblikka, shuningdek, xonning bevosita o‘ziga qaram bo‘lgan tumanlarga bo‘lingan edi.

Oliy hokimiyatni xon amalga oshirardi. Inoq, otaliq va biy kabi unvonlarga ega bo‘lgan yuqori martabali amaldorlar xonlik hayotida juda katta ta’sir kuchiga ega edilar. Davlat hayotiga oid masalalarni hal etish maqsadida Muhammad Rahimxon I davrida nufuzli amaldorlardan iborat devon, ya’ni davlat kengashi \ tuzilgan edi.

Xiva xoniining ijtimoiy hayotida O‘rta Osiyoning boshqa ikki davlatidagidek sokinlik hukm surar edi. Bu sokinlik xonlikning jahon taraqqiyotidan deyarli uzilib qolganligi bilan bog‘hq edi. Mamlakatda siyosiy tarqoqlik hukm surayotgan, natural xo‘jalik ustun bo‘lgan, to‘xtovsiz davom etgan o‘zaro ichki urushlar hamda tashqi hujumlar oqibatida mamlakat iqtisodi izdan chiqqan bir sharoitda ijtimoiy hayot bundan boshqacha bo‘lishi mumkin ham emas edi. Hukmdorlar davlat, millat taqdiridan ko‘ra o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini ustun qo‘yar edilar.

Egalik shakliga ko‘ra, Xiva xonligining yerlari ham, Buxoro xonligida bo‘lganidek, uchga bo‘lingan edi.

1. Davlat yerlari (amllok); 2. Shaxsiy mulk (xususiy yerlar); 3. Vaqf yerlari. Ayni paytda, Xiva xonligida yer yegaligi Buxoro va Qo‘qon xonligidagi yer egaligidan farq ham qilardi. Xususan, xon va uning qarindoshlari barcha yerlarning

deyarli yarmiga egalik qilishgan. Qolgan yerlar davlat ixtiyoriga olingan (vaqf yerlaridan tashqari). Davlat yerlarida ijarachi dehqonlar mehnat qilganlar.

Xon va boshqa xususiy mulk yerlarida dehqonchilik qiluvchilar “yarimchi” lar deb atalgan. Bunday deb atalishiga ularning yetishtirgan hosilning yarmini ijara haqqi uchun berganliklari sabab bo‘lgan edi.

Xonning qarindoshlari o‘z xususiy yerlaridan davlatga soliq to‘lamas edilar. Davlat soliqlaridan ruhoniylar, katta amaldorlar, tarxon yorlig‘i olganlar ham ozod etilgan edilar.

Mayda yer egalari tobora xonavayron bo‘lib borganlar. Oxir-oqibatda, ular yerlaridan judo bo‘lganlar.

Xiva xonligi ahohsi asosan qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanar edi. Qishloq xo‘jaligining asosini dehqonchilik va chorvachilik tashkil etardi.

Xonlikda dehqonchilik qilish juda mushkul sharoitlarda olib borilardi. Chunki, yerlar Amudaryodan chiqarilgan katta kanallar orqali sug‘orilardi. Joylarda esa ekinlarni sug‘orish ish hayvonlari kuchi bilan chig‘irlar yordamida amalga oshirilardi. XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida Amudaryo o‘zanining o‘zgarishi, daryo avvalgi yo‘nalishining qurib borishi xonlikda ichki siyosiy ahvol qanchalik og‘ir bo‘lmasin hukmdorlarni “irrigatsiya” ishlariga e‘tibor berishga majbur etgan Alixon davrida (1538-1547) Yangiariq, Toshli yormish arnalari qurilgan. Arab Muhammadxon (1602-1621) zamonida To‘q qal’asi yonidan kanal qazilgan. 1681-yilda Shohobod arnasi ishga tushirildi.

XVIII asrning 70-yillarida Davkor ko‘liga quyiladigan irmoqlarda to‘g‘onlar qurildi. XIX asr boshlarida Amudaryodan Lavzan arig‘i chiqarilgan va u keyinchalik katta kanalga aylantirilgan. Bu kanaldan Porsu, Xo‘jayli va Ko‘hna Urganch oralig‘idagi yerlar sug‘orilgan. 1815-yilda Qilich Niyozboy katta kanali qazildi. Undan Daryoliqning o‘ng sohihdagi yerlar sug‘orildi. 1831-yilda Lavzan ko‘lidan ariq qazilib, Ko‘hna Urganch sug‘orildi. 1846-yilda Amudaryoning eski o‘zaniga to‘g‘on qurilib, u yerdan chiqqan suv bilan Ko‘hna Urganchning janubidagi yerlarni, katta Xonobod kanali qazilishi bilan esa Vazir atrofidagi, Gandum qal’a darasidagi yerlarni sug‘orish mumkin bo‘ldi.

10.3-§.Xiva xonligida soliq va majburiyatlar

Xiva xonligida ham soliq va majburiyatlar haddan tashqari ko'p bo'lgan. Asosiy soliq salg'ut, ya'ni yer solig'i edi. Bundan tashqari, alg'ut (bir yo'la to'lanadigan solig'), miltiq puli (qurol sotib olish uchun aholidan yig'iladigan jarima), arava oluv (aholining qo'lidagi aravalarini davlat ishlariga safarbar yetish), uloq tutuv (aholining qo'lidagi otlar va tuyalarni safarbar yetish), qo'nalg'a (yelchilar va amal-dorlarga ko'chib o'tish uchun joy berish), so'ysun (qo'nalg'a chog'ida amaldorni mehmon qilish uchun mol so'yish), chopar puli (soliq yig'ish xabarini yetkazuvchilar uchun haq to'lash), tarozuyona (tarozibonga to'lov haqi), mirobona (mirob uchun yig'im), darvozabon puli (yukni o'tkazganlik uchun shahar darvozasi qorovulga to'lanadigan haq), mahalliy hukmdorga haq to'lash, qorovulga haq to'lash, pul solig'ini qabul qilayotganda xazinachiga haq to'lash, qo'ruqbonga (o'rmon yoki yaylov nazoratchisiga) haq to'lash, mushrifona (hosilni tekshiruvchi va uning miqdorini aniqlovchi amaldorga haq to'lash), afanak puli (begar majburiyatini o'tash haqida xabar berganlik uchun to'lanadigan haq), chibik puli (ommaviy ishlarda qatnashishdan ozod etilgani uchun to'lanadigan haq), ruhoniylarga to'lanadigan haq.

Ko'rinib turibdiki, mehnatkash xalq 18 ta soliq va jarima to'lagan. Bu soliq va to'lovlar oddiy mehnatkash yelkasiga og'ir yuk bo'lib tushar edi.

Bundan tashqari, mehnatkash xalq tinkasini qurituvchi quyidagi bir qancha majburiyatlarni ham o'tar edilar:

1) Begar - rasman 12 kunlik davlat majburiyati; unga ko'ra, qishloqning har bir xonadonidan bir kishi-dan odamlarni to'plashardi. Ular har-yili turli qurilish ishlarida, kanal qazishda, yo'llarni tuzatishda, xon saroylari qurilishida ishlar edilar. Begarning muddati 12 kun deb belgilangan bo'lsa-da, aslida u bir oy, undan ko'proqqa ham cho'zilar edi.

2) Qazu - bu butun qishloq aholisini katta va kichik kanallarning bir qismini tozalashga safarbar yetish majburiyati.

3) Ichki va obxo'ra qazu - har-yili kanallarning suv taqsimlag'ichini tozalash majburiyati.

4) Hachi - himoya dambalari qurish va ularni mustahkamlashda qatnashish majburiyati.

5) Otlanuv - xon ovida qatnashish uchun lashkarlikka kelish.

Sug'orish tizimi bilan bog'liq majburiyatlar oddiy mehnatkash xalq yelkasidagi og'ir yuk edi. chunki, bu majburiyatlarning barchasi qo'lda ketmon bilan bajarilar, tuproqlar yesa zambilda tashilar yoki yelkada ko'tarilib chiqilar edi. Suv chiqarish va himoya to'g'onlari tuproq, yog'och hamda chimlardan qurilar ediki, ko'pincha ular suvning bosimiga bardosh beraolmas edi. Ana shunday paytlarda ular qaytadan qurilardi. Bosimga bardosh berganlari esa bir-yildan ortiqqa chidamas edi. Kelasi-yili ularni qayta qurish kerak bo'lardi.

Mehnatkash xalqning buningsiz ham og'ir qismatini o'zaro ichki urushlar, vayronalik keltiruvchi tashqi hujumlar battar og'irlashtirgan edi.

Butun O'rta Osiyo hududida bo'lgani kabi Xiva xonligida ham yer egaliginiig quyidagi shakllari hukmronlik qilgan: davlatga qarashli yerlar yoki podsholik yerlari; xususiy shaxslarga qarashli yerlar; diniy muassasalarga qarashli yerlar, yoki vaqf yerlari.

Podshohlik yerlari bevosita davlatga, xonga tegishli bo'lib, avloddan avlodga meros bo'lib o'tgan. Davlat yerlariga doimiy sug'oriladigan ekinbop yerlardan tashqari tashlandiq yerlar, qumlik, adirlar va yaylovlar, ko'l va to'qayzorlar ham kirgan. Davlat yerlari bosib olingan hududlar, xonga qarshi mulkdorlarning musodara qilingan yerlari, yangi yerlarning o'zlashtirilishi hisobiga ham kengayib borgan. Davlat yerlari xon tomonidan mulkdorlarga va ijarachi dehqonlarga, bevatan (yersizlar)larga foydalanish uchun bo'lib berilgan.

Bunday yerlardan davlatga olingan hosilning 40-50 foizigacha mahsulot yoki pul ko'rinishida soliq undirilgan. Davlat yerlari xonlik xazinasining asosiy manbai hisoblangan. Xon o'ziga xolis xizmat qilgan amaldorlarga, yaqin qarindoshlariga, sodiq xizmat qilgan navkarlarga va dindorlarga davlat erlaridan in'om qilib bergan. Bunday yerlar soliqlardan ozod etilgan.

Xususiy (mulk) yerlar xonning shaxsan o'ziga, uning yaqin qarindoshlariga, yirik boylarga, saroy amaldorlariga, harbiylarga va boshqa zodagonlarga tegishli

yerlar bo'lgan. Xonlikning suvga yaqin bo'lgan o'troq markaziy tumanlaridagi unumdor va serhosil yerlarning asosiy qismi mulkdorlar qo'lida edi. XX asrning birinchi yarmiga oid ma'lumotlarga ko'ra, mulk egalari tegishli yerlar xonlikdagi barcha sug'oriladigan yerlarning yarmidan ko'prog'ini tashkil etgan. Manbalarning ma'lumot berishicha, ayrim mulkdorlar ixtiyorida ikki-uch ming tanobdan o'nlab ming tanobgacha yer bo'lgan. Misol uchun, Pitnak, Hazorasp va Sho'roxon shaharlari hamda ularga tutash bo'lgan qishloqlar amir ul-umaroga tegishli bo'lgan. Muhammadaminxon o'g'li Abdulla to'raga 20 ming tanobdan ortiq yerni in'om qilgan va hokazo.

Vaqf yerlariga diniy muassasalarga, masjid, madrasa, qabriston, xonaqolarga qarashli yer-mulklar kirgan. Bu mulklar diniy muassasalarga xon, amaldorlar va ayrim shaxslar tomonidan vaqf qilib berilgan. Bunday yerlardan kelgan daromad diniy muassasalar ehtiyoji uchun sarf etilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr o'rtalarida xonlikdagi vaqf mulkini umumiy xajmi 170-175 ming tanobni tashkil etgan.

Xiva xonligidagi ham yerli va umuman yersiz, ot-ulovsiz dehqonlar ko'pchilikni tashkil etgan bo'lib, ular davlat, mulk hamda vaqf yerlarida ijaraga ishlaganlar. Ijaradorlar ijaraga olgan yer miqdoriga qarab davlatga soliq to'laganlar. Ular kimning yerida xizmat qilishlariga qarab bevatan, koranda va vaqfkor degan qatlamlarga bo'lingan. Davlat yerlarini ijaraga olgan yersiz va kamquvvat dehqonlar bevatanlar, mulk yerlaridagi ijarakorlar koranda, vaqf yerlari ijarakorlari esa vaqfkor deb atalgan.

10.4-§.Xiva xonligida irrigatsiya tizimi

Orol-Kaspiy havzasining qadimiy aholisi bo'lgan turkman g'uzlar Xorazmda qadimdan yashovchi asosiy xalqlardan biri bo'lgan. O'rta asrlarda ular Xorazm vohasi chekkalarida, Mang'ishloqda, Qoraqumda yashaganlar. Ular chorvachilik va qisman Adoq rayonida dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Xorazm turkmanlari o'zlarining hayotiy manfaatlarini Xorazm bilan bog'lab olib borganlar, Xorazm hukmronlarining xazinasini uchun soliqlar to'laganlar, harbiy kuch sifatida

shohlarga sodiq xizmat qilganlar. Ular Xorazm o'zbeklari bilan birga Janubiy Turkmaniston (Murg'ob vodiysi, Tajan, Atrek, Gurgan yaodiysi) da yashovchi o'zlarining urug'doshlariga qarshi bir necha marta urushga chiqqanlar. Ular bu kurashni Xorazm shohlariga sadoqatliklari yuzasidan emas, Xorazmning qoloq aholisiga shohlarning qilgan «g'amxo'rliqi» tufayli emas, balki siquv ostida qolmaslik, yerdan, suvdan va ona o'lkaning yaylovlaridan ajrab qolmaslik uchun qilganlar. Shunday bo'lsa-da, so'nggi o'rta asr davrida ko'p o'rinlarda "turkmanlarning Xorazmdan haydab chiqarilganligi" haqidagi ma'lumotga egamiz.

Abulg'ozining bayon qilishiga ko'ra, 1537-yilda Xorazmning o'zbek shahzodalari Buxoro xoni Ubaydulla bilan uzil-kesil jang qilmasdan oldin Adoq hizireli boshlig'ini chaqirib, unga shunday so'zlar bilan murojaat qilganlar: «Vatanni talab qilish uchun ketayotirmiz; agar siz yordam bersangiz, dushman ustidan g'alaba qozonguday bo'lsak, sizning urug'ingizni o'zbeklarning eng imtiyozli urug'lari bilan tenglashtiramiz va taxtning chap tomonidan o'rin beramiz, hamda sizning urug'ingizni «tarxon» deb e'lon qilamiz». "Bunday va'daga ishongan turkmanlar Xorazm shahzodalariga haqiqiy yordam berdilar va mamlakatni buxoroliklardan qutqarib oldilar, ammo keyingi voqealar haqiqatan ham xizireli turkmanlari shahzodalar tomonidan va'da qilingan huquqni olganliklari haqida guvohlik bermaydi.

Xorazmliklarning bu g'alabasidan keyin birnecha o'n yillar o'tgach. Ko'hna Urganch, Vazir, Adoq rayonlari suv qurib qolganligi sababla sahroga aylangan; hizireli va boshqa urug'lar uchun Janubiy Xorazm kanalining oxirgi uchastkalariga ko'chishdan boshqa chora qolmadi. Ali Sulton ham Arab Muhammad kanali orqali sug'oriladigan Oybo'g'ir yerlari esa, qo'ng'iroq va qiyotli va shu kabi o'zbek urug'lari bilan butunlay band edi. Qalmoqlar (jung'orlar) tez orada Mang'ishloqdan turkmanlarni siqib chiqarganlar, turkmanlar, aftidan, Xorazm vohasi atrofiga ko'chgan bo'lsalar kerak.

Janubiy Xorazm rayonlari XVII asrning birinchi yarmidan boshlab, o'zbek va turkmanlar o'rtasida yer, binobarin, suv uchun kurash maydoni bo'lib qoldi. Turkmanlar hamda o'zbeklar o'rtasida juda muhim, iqtisodiy manfaatlar uchun

bo'lgan bu kurashdan Arabmuhammadning o'g'illari Abulg'ozini va Asfandiyor o'z maqsadlari—taxt uchun kurash yo'lida foydalandilar. Asfandiyor turkmanlarga tayanib otasining taxtini egalladi. O'zbek urug'lariga suvangan Abulg'ozini faqat Asfandiyorxon o'lgandan so'ng, shunda ham birdaniga emas, xonlikni o'z qo'lga olgan. 1643-yilda avvalo uni Orol xoni qilib sayladilar. Hokimsiz qolgan Xiva turkmanlari Xivani tobelikka olish va bu yerga noib yuborishni so'rab Buxoro xoni Nodirmuhammadga (1642-1645 yy.) murojaat qilganlar. Abulg'ozini Orol o'zbeklariga tayanib Xivaga qarshi urush boshladi. U 1645-yilda Xivani ishg'ol qildi va turkmanlarni Xorazmdagina emas, balki Janubiy Turkmanistongacha bo'lgan yerlarda ham qira boshladi. Abulg'ozini turkmanlarni siqib qo'yib va kuchsizlantirib. Buxoroning shimoliy va g'arbiy oblastlarini xonavayron qilib, Buxoro xonligiga qarshi kurash boshladi. Abulg'ozini o'zi podsholik qilgan davrda Buxoroga qarshi yetti marta qirg'in keltiruvchi hujum qilgan. Uning vorislari ham shu siyosatni davom ettirganlar.

N.Veselovskiy bu hujumni «Xazinani to'ldirish uchun qilingan talontarojlik» deb qaraydi. Ammo bu, masalaga bir tomonlama qarash edi, masalaning ikkinchi, asosiy tomoni bu jiddiy raqibni kuchsizlantirish uchun Buxoro xonligining ichki kelishmovchiliklaridan foydalanish edi. Abulg'ozini o'zbek urug'larini qo'llab-quvvatlab, ularga sug'oriladigan yerlarni olib berdi. Masalan, Darg'ondan to Orol dengizigacha bo'lgan Amudaryoning chap va o'ng qirg'og'idan olingan kanal atrofidagi yerlar ular o'rtasida taqsimlangan edi. Uzbek urug'larining oqsoqol feodallariga davlatning yuqori mansablari berilgan edi.

Abulg'ozini davrida xonlik iqtisodiy va siyosiy jihatdan Movarounnahr va Xurosonga intildi. Bu, yangi markaz boshchiligida Janubiy Xorazmdagi «Beshqal'a» (besh shahar)ning salmog'ini kuchaytirdi.

1646-yilda, ya'ni Abulg'ozini Xiva taxtiga o'tirgandan keyin bir yil o'tgach, u Yangi Urganch (hozirgi Urganch shahri) istehkomini qurdi va u yerga o'rta asr Xorazmning markazi — Urganchdan aholini ko'chirib keltirdi. Eski Urganchning xarobalari o'sha davrdan boshlab Ko'na (Ko'hna) Urganch deb atala boshladi. O'rta asrdagi Vazir shahri xarobaligicha qolib ketdi. Eski Vazir shahrining aholisi

ko'chirilgan Kichik Vazir Gurlandan 12 km shimoli-g'arb tomonga joylashgan. Yangi Vazir shahri XIX asrda aholisi ancha zich shaharga aylangan.


Abulg'ozii 1663-yilda Xorazm taxtini o'g'li Anushaga topshirdi. Anushaxon davrida Xiva xonligi ancha mustahkamlandi. Anushaxon o'zining Buxoro xonligi territoriyasiga va Xurosonniig ichki rayonlariga qilgan talonchilik hujumlari bilan buxoroliklar, turkmanlar hamda eronliklarga dahshat solardi. U Mashhad shahrini egallab, u yerda Eron shohlarining taxtini ishg'ol qildi va shundan keyin u o'ziii shoh (Anushoh) deb atay boshladi. Anushoh Abulg'ozixonning turkmanlarga nisbatan qo'llagan siyosatini o'zgartirdi, bu uning uchun urush siyosatini amalga oshirishda harbiy kuch sifatida yaerak bo'lgan edi.

Shuning uchun biz Anushoh davrida turkman urug'larining yana qaytadan Xorazm vohasi atroflarida yashaganligini ko'ramiz. Anushohning o'zi Darg'on rayonidan chiqqan turkman qizi To'xtaxonimga uylangan. Anushoh hukmronlik qilgan davrda (1663-1686 yy.) Janubiy Xorazmda Shoxobod va Yermish kabi ikkita katta kanal qurilgan. Munisning hikoya qilishiga ko'ra, Yermish kanalining qurilishiga Anushoh hukmronligi davrida o'ng qirg'oqdagi Kat shahrining suvsiz qolganligi sabab bo'lgan. Shuning uchun shahar aholisining suvga muhtojligini nazarga olib, chap qirg'oqdan Yermish deb ataladigan kanaliy qazish haqida buyruq bergan va u yerda Qiyot qal'asini qurdirgan, eski Katda yashovchi aholi esa, yangi Qiyotga ko'chib o'tgan. Bu tadbir Shohobod kanali qurilmasdan ilgari (1681-y.) amalga oshirilgan edi.

Anushaxon Janubiy Xorazmda Xorazmning qadimgi shaharlarida yashagan aholini yig'ib Beshqal'ani mustahkamlashga, uni obod qilishga va havfsizlikni ta'minlashga harakat qilgan. Yermish kanali Urganchdan 15 km sharqda Amudaryodan qazib o'tkazilgan va u Daryoliq bilan parallel ravishda oqadi. Kanalning uzunligi 96 km, o'rtacha kengligi 17,5 m, boshlanish qismining chuqurligi 2 m. U Ilyali shahrining shimolidan 10,5 km naridagi Oqko'l chegarasida tamom bo'ladi.

Ikkinchi kanal—Shohobod (xalq tilida Shovot) Xorazmda eng katta kanal hisoblanadi. Uning boshlanish joyi qadimgi Dovdon daryosining o'zanida bo'lib,

sohil bo‘yi uchastkalari yosh allyuvial qatlamlar (qayr) bilan qoplangan. Kanal Xonqa shahri yaqinida Dovdonning ochiq qatlamlariga kirib boradi va shu eski o‘zanda 30 kilometrcha oqadi. U Urganchning g‘arb tomonida shimoli-g‘arbiy tomonga qarab keskin burilish yasaydi va ancha qadimiy bo‘lgan allyuvial qatlamlar polosasiga hamda Yermish kanali bilan parallel ravishda vodining o‘zanlararo umumiy qiyaligiga o‘tadi. Shohobod kanalining uzunlii 143 km, o‘rtacha kengligi 30 m, o‘rtacha chuqurligi 3,5 m. U Xonqa, Urganch, Shohobod, Toshovuz va Ilyali shaharlarining g‘arbidan 6-7 km narida tamom bo‘ladi.



1-rasm



2-rasm

Xorazm vohasida XVI-XVII asrda irrigatsiya tarmoqlarida ishlatilgan suv chiqarish mexanizmlari³³. 1-rasm: Shoduf³⁴; 2-rasm: suv chiqaruvchi mayatnik

Shohobod kanalining o‘rta va quyi havzalariga to‘g‘ri keluvchi Dovgdonning o‘ng qirg‘og‘idagi rayon ancha qadimiydir. Kushanlar hukmronligi

³³ G‘ulomov Ya.G‘. Xorazmning sug‘orilish tarixi. Qadimgi zamondan hozirgacha. -T., 1959. – 260-bet.

³⁴ Suvni baland joyga chiqarishni qadimgi qo‘l usuli (dastlab Qadimgi Misrda faodalangan).

davrida va qisman oʻrta asr boshlarida bu yerda Qandumqalʼa, Rait, Tuprok.qalʼa va shu singari bir qancha aholi yashaydigan punktlar vujudga keldi. Shohobod va Yermishni yangi kanal deb hisoblash mumkinmi degan savol tugʻiladi.

X asr arab geograflarining tasviriga koʻra, Anushoh qazdirgan Shohobod va Yermish kanallar joylashgan yerda Vadok va Buva kanallari boʻlgan. Bundan Vadok kanali kengligi va joylashish oʻrniga qarab Shohobodga, ikkinchisi esa, Yormish kanaliga toʻgʻri keladi. Vadok va Buva Koʻna Urganchga yetmasdan 30 km berida birlashib ketgan va umumiy bir oʻzan bilan (Amudaryo bu vaqtda Koʻna Urganchg bilan Mazdaxqon oʻrtasida oqqan) shahar tomonga oqqan.


X asrning ikkinchi yarmida Amudaryo gʻarb tomonga surilib Vadok-Buvaning umumiy oʻzaniga urib ketgan va markazni xavf ostida qoldirgan. Shu munosabat bilan Vadok kanali kadim zamonlarda, garchi tanaffus bilan boʻlsa-da, taxminan hozirgi Shohobod oʻrnida joylashgan degan taxmin kelib chiqadi. Amudaryoning Vadok va Buva kanallariga urib ketishi munosabati bilan moʻgʻullar istilosiga qadar daryoning yangi oʻzanini inkor etuvchi baʼzi fikrlar boʻlgan. IX—X asrlardagi Xonobod territoriyasidagi quruq oʻzanlar bu ikki kanaldan ajralib chiqqan tarmoklarning pastliklari boʻlishi mumkin.

Anushaxonning «irrigatorlari» qadimgi oʻzanni kuzatib borganlar va Daryoliqning quruq oʻzanini aylanib chiqib, bu ikki kanalni tiklaganlar. «Shohobod» soʻzining oʻzi ham keyinchalik Madra kanali Gʻoziobod deyilgana singari yangi qurilish emas, balki eskining qayta tiklanishini va obod qilinganligini koʻrsatadi.

Anushaxon Shohobod kanalida Igu nom bilan qalʼa qurdirdi. Ikkita yangi kanalning qurilishi Anushohning turkmanlarga nisbatan boʻlgan yangi siyosati edi; u turkmanlarga boʻsh yerlarni biriktirib qoʻyib, ularni yana qaytadan janubiy Xorazm atrofiga qaytarishga va joylashtirishga va buning uchun harbiy xizmatga ulardan odam olishni koʻzladi. «Dargʻondan dengizgacha» boʻlgan sugʻoriladigan yerlar Abulgʻozixon tomonidan oʻzbek urugʻlari oʻrtasida taqsimlangan edi. Bu yerlarni oʻzbeklardan tortib olib turkmanlarga berish juda janjalli edi.

Anushaxon bu masalani Shohobod va Yermish kanallarini qurish bilan hal qildi.

Ammo shunday bo'lsa-da, u kanalga qarashli bo'lgan asosiy yerlarni o'zbeklarga berdi, ularni davlatning yuqori organlariga ishga tayinladi. turkmanlarni esa, G'ozibod, Shohobod va Yormish kanallari etaklariga joylashtirdi. Qiyot, Shohobod kabi yangi qal'alarga faqat o'troq o'zbeklar —«sart»lar joylashtirildi. Turkmanlarning o'sha vaqtdagi Beshqal'a atrofiga kelishiga yo'l qo'yilmas edi. Bunday siyosat oqibat natijada Xeva xonligi hayotida hal qiluvchi rol o'ynadi.



Xorazm vohasida XVI-XVII asrda irrigatsiya tarmoqlarida ishlatilgan tik to'qurtqa³⁵ va uning ishlatilishi.³⁶

XVII asrning oxirlarida Janubiy Xorazmda Hazorasp, Xiva Xon(a)qo, Urganch, Shohobod, Qiyot, Gurlan, Vazir va G'ozibod shaharlari mashhur bo'lgan. Ularning har biri paxsa devordan yasalgan qal'alarni tashkil etib, darvozasi va suv to'latilgan xandag'i bo'lgan. Gurlandan 12—13 km quyiyoqda Amudaryodan o'tkazilgan Mang'it arna kanali Mang'it qishlog'i territoriyasidan shimoli-g'arbiy tomopiga qarab 18 km nariga oqib o'tgan; uning qurilgan davrini aniqlash qiyin. Abulg'ozida bu eslatilmaydi. Xiva xronikalarida u «Otalig arna» nomi bilan mashhur. Bu nomning o'zidan bu kanal Xiva xonliklarining bir otalig'i tomonidan qazilganligi ko'rinadi.

Xiva xronikalarida XVIII asr voqealarini hikoya qilish munosabati bilan kanalning shu nomi tez-tez eslatib o'tiladi. Har ehtimol Abulg'oz hokimiyat tepasiga kelguncha Mang'itada bo'lmagan, chunki Xiva xonlari Xorazmning

³⁵ To'qurtqa – uzunligi 50-60 sm. dan 2 metrgacha, diametric 5-10 sm dan 30 sm. gacha bo'lgan oddiy quvur.

³⁶ G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. Qadimgi zamondan hozirgacha. -T., 1959. – 257-bet.

shimoliy rayonlariga yurish qilgan davrlarida odatda bu kanalning nomi eslatib o'tilgan bo'lar edi. XVIII asrda bu kanal yoqasida mang'it urug'i yashagan.

XVII asrning saksoninchi yillarida Arangxon davrida mang'itlar hamma Odina Muhammad otaliq boshchiligidagi Orol qo'ng'irotlari Xivadan ajralib chiqadilar va Beshqal'a yerlariga hujum qila boshlaydilar. Arangxon ular bilan kelishib Odina Muhammadni Xiva xonligiga otaliq qilib tayinladi. Mang'itlar tomonidan ajratilgan yerlarni sug'oruvchi «Otalikarna» kanali o'sha Odina Muhammad otaliq tashabbusi bilan qazilgan bo'lishi mumkin. Demak, Abulg'ozni va Anushaxonning sug'orish sohasida qilgan buyuk tadbirlari natijasida Daryoliq atrofidagi yerlar suv bilan ta'minlangan. Odina Muhammad otaliq, tomonidan Arangxon davrida o'tkazilgan kanal shu kanal qazdirgan kishining nomini olgan. Xiva xonligining nisbatan siyosiy birligi va ba'zi xo'jalik xamda madaniy yuksalishi XVII asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi.

Xiva xoni Abulg'ozni davlatini boshqarishni reforma qilgan, keng sug'orish tadbirlarini joriy qilgan, bu o'zbeklarning sug'oriladigan yerlarga o'troqlashishini tezlashtirgan. Bu davrda bir qancha shahar va qal'alar qurilgan, rus davlati bilan diplomatik aloqalar tiklashga tashabbus ko'rsatgan. Anushaxon davrida Movarounnahr va Xorazmni Xiva xonligi qo'l ostiga birlashtirish tadbirlari ko'rilgan.

Xorazmning siyosiy birligi va nisbatan tinch hayot Omangxon hukmronligining tugallanishi bilan tamom bo'ldi. Ulardan oxirgisi Anushaxonning o'g'li Arangxon bo'lgan.

1722-yilda azob chekkan qo'ng'irotlar urug'lari Janubiy Xorazmning Yangiariq territoriyasiga ko'chirildi. Qo'ng'irotlar shahri o'sha vaqtda ham hozirgi o'rnida bo'lgan bo'lsa kerak. Gladishev Xivadan Orolga qaytib kelaturib, yo'lda, Xivadan qochib kelayotgan Abulxayrxon bilan Xo'jayli yaqinida Amudaryodan o'tgan va Orol hukmronligida bo'lgan Qo'ng'irotlar yeriga yetib kelgan, bu yerning aholisi, kichik uylarda yashaganlar, ularning atrofi devor bilan o'ralgan va bu joylarga Uludaryodan suv chiqarilgan.

Hozir Qo'ng'irotda yashayotgan xalqlarning bergan ma'lumotiga ko'ra, suyi deltaning «g'arbiy qismida joylashgan yerlar», ya'ni Quyg'undan eski haydaladigan yerlar «ishkili» urug'i boshchilik qilgan bir qancha qo'ng'irot urug'lariga berilgan.

Qo'ng'irot urug'ining ba'zi avlodlari Ko'ko'zak Quvonshjorma daryosining yuqori oqimi tomonida joylashgan. Ularning hikoya qilishiga qaraganda, Sherg'ozixon Ko'ko'zak havzasida joylashgan uncha katta bo'lmagan uchta qal'adan biri G'ozoyoqlida yashovchi aholini yangi ariqqa ko'chirgan. Mang'itlar Sherg'ozixonidan keyin Elbarsxon davrida yana qaytadan Janubiy Xorazmni egalladilar va qo'ng'irotlarni yangi ariqdan ilgarigi joyiga ko'chirdilar. Ammo G'ozoyoq qo'ng'irotlarining asosiy qismi o'sha davrdan boshlab Shimoliy Qo'ng'irot rayonidagi ishkili qo'ng'irotlari tomon ketgan.

XVII asrning oxirida Janubiy Xorazmda bo'lgani singari Orol yer uchastkalarini keng ko'lamda o'zlashtirish va tabiiy tarmoqlar hamda sun'iy kanal bo'yidagi yerlarga o'zbeklarning, keyinchalik qoraqalpoqlarning asta-sekin o'troqlashishi kuzatiladi.

Bu yerda deltaning bir qancha tarmoqlari bo'lganligi va ular oqimining tez-tez o'zgarib turishi, dastlab bu yerda magistral kanal qurish zaruriyatini tug'dirmadi, chunki tarmoqlarda juda ko'p katta va kichik to'g'onlarning mavjud bo'lganligi, yerlarning quritish va tarmoqlarni boshqarish sohasida katta ish olib borilganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, Eshim (kartada Isim) singari ancha ahamiyatga ega bo'lgan sun'iy kanallar qurilganligini ko'ramiz.

XVIII asrning o'rtalarida Orol territoriyasida chorvachilik rivojlangan bir qancha dehqonchilik vohalarini ko'ramiz, bu yerlarda o'zbek va qoraqalpoqlar o'rnashib, ularning markaziy joylari deltaning o'rta qismidagi Shohtemir va Mang'it, Dovqaradagi Oqyoqish shaharlari bo'lgan.

Bulardan tashqari Orolida ayrim kuchli qabilalar tomonidan bir qancha qal'alar, masalan Nukus, Qiyot, Qo'ng'irot qal'alari qurib bitkazilgan, bulardan Qo'ng'irot qal'asi XVIII asrning oxiri, XIX asrning boshlarida Orolning yangi siyosiy birlashmasining markazi bo'lib qoldi.

Orol yerlarining chegarasi Xo‘jayli shahriga borib tugagan, u ko‘p sonli aholisi bo‘lgan chegaraning qudratli qal’asi edi. Abulg‘ozi zamonasida Xo‘jayli shahar va qal’a sifatida mavjud bo‘lmagan. Xo‘jayli qal’asi o‘zbeklarning urug‘-qabila gruppalariga birlashishi munosabati bilan, xo‘jayli urug‘i (xo‘ja eli, ya’ni «xo‘ja urug‘i») mang‘it-nukuz gruppasi sostaviga (to‘piga) kiritilgan davrda, ya’ni XVIII asrda bunyodga kelgan bo‘lishi mumkin.

Gurlandan quyiroydagi Amudaryoning asosiy oqimi bo‘yidagi yerlar mang‘it, xo‘jayli va nukuslarga berilgan. Bu juda qulay rayon bo‘lgan, chuyki u yer Orol yerlaridan keltirilgan g‘alla va chorva mollari bilan savdo qilish uchun mo‘ljallangan edi. Xo‘jayli shahri Orol va Xiva o‘rtasidan o‘tadigan asosiy qulay yo‘l bo‘lgani sababli, karvonlar to‘xtaydigan asosiy punkt va hukumat boj oladigan joy bo‘lgan.

XVI asrdan so‘ng sug‘orish tarmoqlari Xiva xronikalari ma’lumotiga qarab hukm qilganda, Xo‘jayli olib bo‘lmaydigan qal’a bo‘lgan va u Xiva xonlariga qarshi orolliklarning istehkomi bo‘lgan. Eltuzarxon 1804-yilda bu qal’ani ishg‘ol qilgan va hammadan avval, qal’aning devorlarini buzish haqida farmon bergan. Xonning katta qo‘shini shaharning barcha istehkomlarini uch kunda xarobaga aylantirgan.

Xorazmning barcha sug‘oriladigan yerlarida, yirik sug‘orish kanallari bo‘ylab, shuningdek, daryo yoqalari bo‘yida o‘zbeklar o‘rnashgan. Qadimiy shaharlar yaqinidagi sug‘oriladigan yirik rayonlar urug‘larga ajralmagan, sartlar deb ataluvchi mahalliy o‘troq aholi qo‘lida qolgan.

Keyinchalik borib o‘troqlashgan o‘zbeklar tratsision urug‘larga bo‘linishni saqlab qolganlar va o‘zlarining tili hamda urf-odati bo‘yicha sartlardan hechqanday farq qilmaganlar.

Agar sug‘orish tarmoqlarida uchraydigan nomlarni etnografiya ma’lumotlari bilan taqqoslansa, bir qancha urug‘larni kanal va dare tarmoqlari bo‘ylab o‘rnashganligini ko‘rish mumkin. Masalan, Suvonli kanali u yerga o‘rnashib olgan urug‘ nomi bilan Xo‘jayli deb atalgan. Omonquli kanali Kenagas deb, Otalik kanali Mang‘it arna deb atala boshlagan. Lovzoning g‘arbidagi Qang‘li kanali,

Qipchoq, Uygʻur, Nayman, Gurlan yaqinidagi Nukus kanali, Hizreli (Xazorasp va Gurlan oʻrtasidagi), boshqird urugʻi kanali va shu kabi kanallar toʻgʻridan-toʻgʻri oʻsha yerda yashovchi urugʻlarning nomi bilan yuritilgan.

Shayx Abbosdan biroz shimol tomonda, daryoning oʻng qirgʻogʻida Qoʻngʻirot, Uygʻur, Uyshun va shu kabi kanallar bor. Albatta, hozirgi vaqtda yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ijtimoiy oʻzgarishlar va urugʻ munosabatining yoʻq boʻlib ketish munosabati bilan urugʻlarning urnashgan joylari saqlanmagan, ammo etnografik kuzatishlar orqali qadimgi manzarani qaytadan tiklash uncha qiyinchilik tugʻdirmaydi.

Endi qoraqalpoqlarning Xorazm va uning atrofida oʻrnashganligi haqida toʻxtab oʻtamiz. Biz yuqorida Sirdaryoda va uning delta tarmoqlari boʻlgan Quvondaryo hamda Yanidaryoda yashovchi shu yerlarda sugʻorib dehqonchilik qilgan, sunʻiy kanallar va toʻgʻonlar qurgan qoraqalpoqlar haqida gapirib oʻtgan edik.

XVIII asr sayyohlari va soʻnggi tadqiqotchilar Quvandaryo va Yanidaryo vodiysining koʻpgina yerlarida soʻgʻorish inshootlarining izlari saqlanib qolganligini qayd qilib oʻtadilar. Bu inshootlar XVII asr oxiri va XVIII asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlar yashagan zonaga toʻgʻri kelgan.

Yirik sugʻorish ishlaridan biri 1815-yilda Qilich Niyozboy kanalining qurilishi boʻldi. Kanalni Bogʻlon yordirib, Qiyot ustidan oʻtkarib boʻzgʻa chiqorib, yoinki qalʼayi Xitoyning janubiy hududidan (chegarasidin oʻtkarib, itmomga yetkurgan. Ul ariqning oyogʻi Sharqravuqgʻa (Saryoli) borurkim, oni Qilichboy arnasi derlar». Xiva xronikalarida eslatib oʻtilgan Bogʻlon haqiqatan ham Amudaryoning ancha suvi oqqanligi koʻrsatiladi. A.V.Kaulbars uni Kichik daryo deb tasvirlaydi, bu ariqda Qilich Niyozboy va Yermish kanallarining irmoqlari boʻlgan. Ularning oʻrtasida Daryoliq oʻzani boʻlgan.

Qilich Niyozboy kanalidan chap tomonga Beshuyli, oʻng tomonga esa, Gurlan, Nukus, Uygʻur, Polvonbek kanallari ajralib chiqqan. Qilich Niyozboy kanali Daryoliqning oʻng kirgʻogʻi boʻylab ketgan qurgʻoq yerlarni sugʻorish uchun maxsus qurilgan. Bu bilan Janubiy Xorazmning sugʻoriladigan yerlari ancha

kengaytirilgan. Kanal tarmog'idan 66 km narida eski traditsiyaga asosan qal'a qurilgan. Kanal ham, qal'a xam Muhammali Rahimxonning mashhur amaldorlaridan biri Qilich Niyozboy nomi bilan yuritilgan.

G.I.Danilevskiy Qilich Niyozboy bilan Mang'it arna o'rtasidan Buldumsozning shimoli-g'arbi tomon oqib o'tadigan Qorako'z kanali bo'lganligini eslatib o'tadi.

G.I.Danilevskiy bergan ma'lumotga ko'ra, «Arna kanalining (O'taliq arna yoki Mang'it arna) irmog'i Qorako'z kanali irmog'idan 24 chaqirim pastda va Mang'it shahridan 8 km yuqorida oqqan. Kanalning uzunligi 60 chaqirim bo'lgan. Arnaning quyi tomonida shu kanaldan Yangiyop kanali ajralib chiqqan va janubi-g'arbga tomon yo'nalib, 33 chaqirim yerni bosib o'tib, qumlar orasiga singib ketgan.

G.I.Danilevskiyda bu ikki kanalning qaysi tomonga yo'nalganligi va ularning irmoqlari orasidagi masofa aniq ko'rsatilmagan. Agar u tomonidan keltirilgan raqamlarga qarab hukm qilganda, Mang'it arig'ining boshi Mang'it shaharining kengligida bo'lgan. Bu fikr uning kanalni «sharqdan g'arbga oqadi» degan ko'rsatmasiga to'g'ri kelmaydi. Mang'it shaharining bu kanalning oqimi bo'ylab sakkiz chaqirim pastda bo'lishi ham mumkin emas.

XIX asr boshlaridagi Xiva xronikalarida Yangiyop kanali Mazdaxqon xarobasining janubi-sharqiy rayonidagi voqealar munosabati bilan tasvirlanadi. Bunday ma'lumot, Yangiyop va Qorako'z kanal dastlab bir nom bilan atalgan hamda XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligining mashhur amaldori Davlat Qorako'z tomonidan qurilgan degan xulosaga olib keladi. Davlat Qorako'z Xeva xronikalarida Qilich Niyozboyning o'zginasi qilib ko'rsatiladi. Xorazm miroblarining bergan ma'lumotiga ko'ra, Yangiyop kanali Davlat Qorako'z tomonidan Qo'ng'iro't ustidan g'alaba qozonishidan uch yil ilgari, ya'ni 1808-yilda qurilgan. Qorako'z kanali ko'p marta o'zgartirilgan: goho uning quyi otsimini O'taliq arig'iga qo'shib qisqartganlar, goho qaytadan uzaytirganlar.

Yangiyop (Qorako'z) kanalining qisqartirilishi yoki uning oqimini o'zgartirilishi va uning quyi oqimini Mang'it arig'iga qo'shib yuborilishi,

Muhammad Rahimxon orolliklar ustidan g'alaba qozongandan va Mang'it qal'asini tiklash haqida buyruq bergandan so'ng vujudga kelgan, albatta. Shu bilan bir vaqtda Mang'it arna kanalining irmog'i va uning quyi oqimi ham o'zgartirilgan bo'lsa kerak.



1-rasm



2-rasm

Xorazm vohasida XVI-XVII asrda suv chiqarishda qo'llanilgan eng oddiy usullar³⁷.
1-rasm: Sepma usuli; 2-rasm: nova usuli

³⁷ G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. Qadimgi zamondan hozirgacha. -T., 1959. – 260-bet.

Lovzon (Lovdon) tomonga birinchi marta suv urib ketish hodisasi XIX asrning boshlaridan avval bo‘lmagan. Bayoniy uning kelib chiqishi haqida quyidagicha ma’lumot beradi: Lovzonboy deb atalgan allaqanday qoraqalpoq o‘zining xususiy ekinlarini sug‘orish maqsadida kichkina ariq qazigan. Natijada daryo shu ariqqa o‘tib ketgan va katta tarmoq hosil qilgan, tarmoq qadimgidek, Lovzonboy nomida qolavergan. Bayoniy bu voqea Olloqulixon hukmronlik qilgan davrda (1825—1842) bo‘lib o‘tgan deb xato qiladi, ya’ni uni Lovzonning ikkinchi marta urib ketishi bilan aralashtirib yuboradi. 1814-yilda Muhammad Rahimxonning buyrug‘iga binoan Shohobod kanalining etaklari yaxshilab tozalanadi, 1815-yilda esa, u yerda Toshhovuz qal’asi barpo etiladi.

Muhammad Rahimxon 1810-yilda Yangiariq kanali etaklarida Oqmachit (Xivaning janubi-sharqidan 20 km narida) mavzeyigacha suv o‘tkazish va bu joylarni obod qilish haqida buyruq bergan. Bu tadbirlarning hammasi Gurlan rayonidan ko‘chirilgan «qo‘zg‘olonchi» uyg‘urlarni joylashtirish maqsadida o‘tkazilgan edi. Muhammad Rahimxon jazo chorasi sifatida butun qabilani uch qismga bo‘lgan: ularning bir qismini Oqmachtning yangi o‘zlashtirilgan yerlariga, ikkinchisini Toshhovuzga, uchinchisini esa Xiva shahrining shimolidagi Zax kanaliga ko‘chirgan.

XIX asrning birinchi choragida Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida hali aholi yashaydigan katta punktlar yo‘q edi. 1806-yilgi voqealar tasvirida Eltuzarxonning Shayh Abbosning shimolida qurgan mustahkam raboti haqida gapiriladi.

Eltuzarxonning o‘g‘li Rahmonberdibiy Shayx Abbosning shimolidan uncha katta bo‘lmagan kanal qazib o‘tkazgan va uning qirg‘oqlariga o‘z nomini qo‘ygan. Biybozor qishlog‘ining nomi shunday kelib chiqqan. Bu rayonda Rahmonberdibiy kanalidan tashqari uyg‘ur, qo‘ng‘irot va nayman qabilalarining uncha katta bo‘lmagan kanallari ham bo‘lgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. *Xiva xonligini tashkil topishi haqida so'zlab bering.*
2. *XVI asrda Xiva xonligining iqtisodiy hayotida sodir bo'lgan inqirozning sabablari nimalardan iborat edi?*
3. *Xiva va Buxoro xonligi o'rtasida g'animlik kayfiyatining kuyib borishi sabablarini tushuntirib bering.*
4. *Qanday omillar Xiva xonligida hokimiyatning qung'irotlar sulolasi qo'liga o'tishiga olib kelgan?*
5. *Muhammad Rahimxon I ning mamlakatda siyosiy barqarorlikni ta'minlay olganligi sabablarini tushuntiring.*
6. *Muhammad Rahimxon I o'tkazgan iqtisodiy islohotlar qanday natijalarga olib keldi?*
7. *Xiva xonligida yer egaligining qanday turlari bo'lgan?*
8. *Xiva xonligining yer egalik shakllarida Buxoro amirligida uchramaydigan qanday jihatlar mavjud edi?*
9. *Xiva xonligida yerlardan olinadigan soliqlarning miqdori nimaga bog'liq edi?*
10. *Xiva xonligida qanday yerlarda soliq olinmagan?*
11. *Xiva hukmdorlari Amudaryo o'z o'zanini o'zgartirganligi oqibatlarini bartaraf etish borasida amalga oshirgan ishlaridan qaysilarini aytib bera olasiz?*
12. *Xiva hukmdorlarini mamlakatda sug'orish tizimini yaxshilash borasidagi faoliyatlari haqida so'zlab bering.*
13. *XIX asr boshlarida Amudaryodan chiqarilgan Lavzan va Qilich Niyozbiy kanallari qaysi hududlardagi yerlarni suv bilan ta'minlagan.*
14. *Xiva xonligida mavjud bo'lgan soliq va majburiyatlar haqida so'zlab bering.*
15. *Anushaxon davrida barpo etilgan Yermish va Shohobod kanallarining ahamiyati haqida so'zlab bering.*

11-mavzu. Qo‘qon xonligida yer - suv munosabatlari.

Reja:

11.1-§. Qo‘qon xonligining siyosiy tarixi;

11.2-§. Qo‘qon xonligining ijtimoiy ahvoli;

11.3-§. Qo‘qon xonligida yer-suv munosabatlari.

Tayanch iboralar: *davlat yerlari, tanho, vaqf, amloki podshohiy, ming urug‘i, Koson, Asht, Chodak, mulk yerlari, jamoa yerlari, sug‘orish inshoatlari, soliq majburiyatlari, begar, «qo‘ra boshi», «tutun haqi», «soliq», kanallar, chig‘ir, mehnat majburiyatlari, chorikor, korranda, mardikor, Shahrixonsoy kanali, Namangan Yangi arig‘i, Chinobod arig‘i, Ulug‘nor, Andijonsoy kanali, Oltiariq, Mutagan arig‘i, mulk, ijara, urg‘u, tanho.*

11.1-§. Qo‘qon xonligining siyosiy tarixi

XVIII asrning boshlarida Farg‘ona vodiysida shakllangan yangi davlat – Qo‘qon xonligiga mahalliy aholi vakillari bo‘lgan **ming urug‘i** asos soldi. Chunonchi, XVII asrning oxiri – XVIII asr boshlarida ashtarxoniylarning siyosiy va ijtimoiy hayotida yuz bergan tushkunlik, Farg‘ona vodiysi iqtisodiy mustaqilligining o‘shishi hamda 1704-yilda Chodak xo‘jalarining isyon ko‘tarib, Farg‘onaning bir qismini egallashi bunga shart-sharoit yaratib berdi. Ammo, Farg‘onaning shimoli va shimoli – g‘arbidagi Koson, Asht, Chodak hududlari xo‘jalar qo‘l ostida bo‘lsa – da, ular mustaqil davlatga asos sola olmadilar.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, ming urug‘ining boshlig‘i, taxminan 1669-1670 yillarda tug‘ilgan Shohruhbiy ibn Ashur Muhammad (1709-1721 yy.) Chodak xo‘jalari qo‘lida bo‘lgan siyosiy hokimiyatni kuch bilan tortib olib, 1709/1710-yilda Farg‘ona vodiysidagi minglar sulolasi hukmronligiga asos soldi. Ammo, uning hokimiyati hali ashtarxoniylardan to‘la yoki batamom mustaqil emas edi. Chunki manbalarda Shohruhbiyning nomi ashtarxoniy Abulfayzxondan so‘ng tilga olinib, Shohruhbiyga Buxoro xoni tomonidan otaliq unvoni berilgani eslatiladi. Bu haqida tadqiqotchilarning ham fikrlari munozaralidir. Nima bo‘lganda ham,

Shohruhbiy Buxoro xonligidan mustaqil ravishda (nisbatan bo'lsa ham) siyosat olib borishga harakat qilib, minglar sulolasi tasarrufidagi yerlarni kengaytira boshladi. Shohruhbiy hukmronligi davrida Qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Konibodom, Isfara va ularning atroflaridagi qishloqlar minglar sulolasi qo'lida bo'lgan.

Shohruhbiyning o'g'li va vorisi Muhammad Abdurahimbiy (1721-1733 yy.) taxtga o'tirganidan so'ng minglar tasarrufidagi yerlar yana kengaya boshladi. Abdurahimbiy 1724-yilda Andijonni, 1725-yilda Xo'jandni, 1726-yilda O'ratepani bosib olib, xonlik hududlariga qo'shib oldi. U qisqa muddat bo'lsa-da Buxoroga qarashli Samarqand va Kattaqo'rg'onni egallab, Shahrisabzga ham tahdid solgan. Abdurahimbiy Qo'qon (Xo'qand) qishlog'i o'rni va atrofida yangi shaharga (dastlab Qal'ai Rahimbiy deb nomlangan, keyin esa Qo'qon) asos soladi va bu shahar xonlikning poytaxtiga aylanadi.

1733-1750 yillarda hukmronlik qilgan Muhammad Abdulkarimbiy ibn Shohruhbiy asosiy e'tiborini mudofaa ishlariga qaratdi. U xonlikning poytaxti Qo'qonda Isfara, Qatag'on, Marg'ilon, Haydarbek nomli darvozalar qurdirib, shahar atrofini mustahkam devor bilan o'ratib oldi. Shu bilan birga u 1741-1745 yillardagi qalmoqlar (jung'orlar) ning Farg'onaga qilgan hujumlariga zarba berdi. Abdulkarimbiy qalmoqlarga qarshi kurashda qirg'iz-qipchoqlar va O'ratepa hokimi Fozilbiy yuz yordamiga tayandi hamda xonlik mustaqilligini saqlab qoldi.

Abdulkarimbiy 1750-yilda vafot etganidan so'ng xonlik taxtiga uning o'g'li Abdurahmon o'tirdi. Ammo, u taxtga to'qqiz oy o'tirib, so'ng Marg'ilonga hokim etib jo'natildi hamda taxtga Abdurahimbiyning ikkinchi o'g'li Erdonabiy o'tirdi. 1753-yilda qalmoqlarning tazyiqi va talabi bilan ularning qo'lida garov sifatida o'shalab turilgan Bobobek xonlik taxtiga ko'tarildi. Lekin, oradan bir yil ham o'tmay O'ratepa yurishi vaqtida Bobobek Beshariqda o'ldirildi hamda Erdonabiy (1755-1769 yy.) qayta Qo'qon taxtini egalladi. Xitoylik geograflarning ma'lumotlariga ko'ra, uning hukmronligi davrida, 1759-1760 yillarda Farg'ona to'rtta mulk: Andijon, Namangan, Marg'ilon va Qo'qonga bo'lingan bo'lib, ular ichida Qo'qon yetakchilik qilgan. Erdonabiydan so'ng taxtga Shohruhbiyning

uchinchi o'g'li Shodibekning farzandi Sulaymonbek o'tiradi. Uning taxtni egallashida urug' oqsoqollarining ko'magi katta bo'lgan bo'lsada u atigi 6 oy hukmdorlik qildi.

1770-yilda Qo'qon taxtiga Abdurahmonbiyning o'g'li Norbo'tabiy (1770-1801 yy.) o'tiradi. Norbo'tabiy Markaziy hokimiyatni mustahkamlashda, bo'ysunmas hokimlar qarshiligini bostirishda nisbatan muvaffaqiyat qozonadi. U Chust va Namangandagi g'alayonlarni bostirganidan so'ng, bu shaharlarga o'z odamlarini hokim etib tayinlaydi. Norbutabiy bir qancha urinishlardan so'ng Andijon, O'sh, Xo'jand va yaqin atrofdagi qo'shni hududlarni bosib oladi. U 1799-yilda Toshkentni ham bosib olishga harakat qildi, ammo, uning yuborgan qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi.

Norbo'tabiydan so'ng uning o'g'li **Olimxon** (1801-1810 yy.) taxtga o'tirib, Qo'qon xonligining siyosiy qudratini mustahkamlash, mamlakat hududlarini kengaytirishga alohida e'tibor berdi. Natijada Qo'qon xonligining siyosiy mavqeyi oshib bordi. Olimxon davriga kelib Qo'qon xonligidagi davlat boshqaruvi oldingi davlatlar boshqaruv tizimidan deyarli farq qilmas edi. Uning davrida Qo'qon davlati kuchayib borishi bilan davlatning siyosiy maqomi ham o'zgaradi. Agar Qo'qonning dastlabki hukmdorlari "biy" va "bek" unvoni bilan mamlakatni idora qilgan bo'lsalar, Olimxon davridan boshlab (1805 yil) hukmdorlar rasman "xon" deb yuritila boshlandi.

O'z davrida Olimxon harbiy yurishlar qilib o'ziga yangi viloyatlarni , jumladan Ohangaron vohasi, Toshkent, Chimkent, Turkistonni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Qisqa muddat O'ratepani ham egalladi, Jizzax va Zominga yurishlar qildi. Harbiy islohatlar o'tkazib, markazlashgan va kuchli davlat tuzish uchun harakat qilayotgan Olimxonning siyosatidan norozi bo'lgan ayrim zodagonlar guruhi unga qarshi fitna tayyorlay boshladilar. Olimxon o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida ukasi Rustambekni, bir nechta sarkardalarni, din peshvolarini o'ldirtirib yuboradi. Manbalarning ma'lumot berishicha, bu voqyealardan so'ng kuchayib ketgan fitnachilarga Olimxonning ukasi Umarbek boshchilik qilgan. Natijada, 1810-yilda Olimxon Toshkentdan

Qo‘qonga qaytayotganda, Oltiqush mavzesida o‘g‘li Shohruhbek bilan birga Qambar Mirza tomonidan otib o‘ldiriladi.

XVIII asrning 80 yillarida Qo‘qon xoni Norbo‘tabiy o‘z davlati hududlarini kengaytira borib, Xo‘jand, O‘ratepa va Jizzaxni o‘ziga qaratish uchun urush harakatlarini olib bordi. Albatta Toshkent Qo‘qonga qarshi kuchlar tomonida bo‘ladi. Natijada 1794-yilda Qo‘qon xoni Norbo‘tabiy Toshkentni bosib olish niyatida urush harakatlarini boshlab yubordi. Biroq Chirchiq daryosi bo‘yidagi jangda Toshkent hokimi Yunusxo‘ja qo‘shinlari unga qaqshatg‘ich zarba beradilar. Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi yerlar Toshkentga qo‘shib olinadi. 1799-yilda Qo‘qon qo‘shinlari Toshkentga yana hujum uyushtiradi va Chirchiq daryosidan o‘tadi. Qorasuv arig‘i bo‘yida har ikkala tomon o‘rtasida qattiq jang bo‘ladi. Bu jangda Yunusxo‘ja yana o‘z raqibini mag‘lubiyatga uchratadi va Qo‘qon lashkarboshisi Xonxo‘jani, 70 nafar nufuzli harbiylar va askarlarni asir qilib oladi.

Yunusxo‘ja Qo‘qon xonligi ustidan ikki marta g‘alaba qozonganligiga mahliyo bo‘lib, endi uning o‘zi harbiy tashabbus ko‘rsatib Qo‘qonga qarshi yurish qilishga zo‘r tayyorgarlikni boshlab yuboradi.

Bu paytda Qo‘qon taxtiga Norbo‘tabiyning o‘g‘li Olimxon kelgan edi. U O‘ratepa, Jizzax va Xo‘jandni Buxoro amirligidan tortib olib xonlikning hududlarini ancha kengaytirgan edi. Shu boisdan mahalliy ulamolar Yunusxo‘jaga Qo‘qonga qarshi harakat qilmaslikni maslahat berdilar. Ammo Yunusxo‘jaga bu maslahat kor qilmaydi. U 1800-yilda 7-8 ming kishilik qo‘shin bilan yo‘lga chiqadi va Qo‘qonga yaqin bo‘lgan «Pungon» degan joyga keladi. Bundan xabar topgan Qo‘qon xoni Olimxon Yunusxo‘jaga nopisandlik bildirib «o‘zidan past kishi bilan teng kelish»ni or bilib unga qarshi («G‘urum») «Haramsaroy» mavzyeining hokimi So‘fi Alixo‘ja Mirasad boshchiligida qo‘shin jo‘natadi. Bu jangda Yunusxo‘ja askarlari talofotga uchrab yengiladi. Qo‘qonliklar Yunusxo‘ja kuchlarini quvlab Toshkent davlat hududiga qarashli «Qurama » qal‘asini egallaydilar. Shundan so‘ng Qurama mavzei Qo‘qon xonligi qo‘li ostiga o‘tadi.

Yunusxo‘ja biroz vaqt o‘tgach dardga chalinib vafot etadi. Uning o‘rniga Sultonxo‘ja taxtga o‘tiradi. Yunusxo‘ja vafotidan xabar topgan Olimxon ukasi

Umarxon boshchiligida Toshkentga qo`shin jo`natadi. Toshkent va uning atrofidagi yerlar 1805-yilda Qo`qon xonligi tomonidan bosib olinadi. 1809-yilga qadar Chimkent, Sayram, Turkiston hududlari ham harbiy kuch vositasi bilan Qo`qon xonligiga qo`shib olindi. Olimxonning markazlashgan davlatni barpo etish yo`lidagi qattiq qo`l siyosati ba`zi bir bek va biylarning noroziliklariga sabab bo`ladi. Ular xonga qarshi fitna uyushtirdilar. Olimxon o`ldi deb mish-mish tarqatishdi va ukasi Umarxonni Qo`qon xoni deb e`lon qilishdi. Olimxon bundan xabar topib Qo`qonga shoshiladi. Ammo yo`lda otib o`ldiriladi.

Toshkentning qo`lga kiritilishi Qo`qon xonligining kuch-qudratini va salohiyatini oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Chunki u mintaqaning eng yirik shahari edi. Undan boshlab taxt egalariga odatdagidek «biy» emas, balki «xon» unvoni beriladigan bo`ladi. Ayrim mahalliy manbalarga ko`ra, Olimxon nihoyatda qattiqqo`l va shavqatsiz kishi hisoblangan. «Bu Olimxonning laqabi,- deyiladi manbada,-Zolimxon edi. U o`z amakisi Xojibekni qatl qilib ko`p zulmlar chiqargan ediki, buni g`azabindan va zulmindan zolimxon ismi mashhur edi...».¹

Umarxon xonlikning qilgan davr (1810-1822) da Qo`qon xonligi hududlari yanada kengaytiriladi. Toshkent, Buxoro va Xivadan Orenburgga boradigan karvon yo`llari tutashgan joyda Oqmachit (hozirgi Qizil O`rda), Cho`loq va So`zak qal`alari quriladi. Umarxon 1817-yilda O`ratiyepani egallaydi. 1818-yili u «amir al-muslimiyn» unvonini oladi. Manbalarga ko`ra, Umarxon (1810-1822 yy.) hukmdorligi davrida yirik yer egalari, harbiy sarkardalar va ruhoniylarning mavqeyi yanada oshadi. U davlat boshqaruvi ishlarida izchil tartib, qonun – qoidalar o`rnatdi va diniy ishlarni tartibga soldi. Natijada, 1818-yilda Umarxon ruhoniylarnng roziligi bilan “amir al-muslimin” unvonini olib ham diniy, ham dunyoviy hokimiyatga ega bo`ladi.

Muhammad Hakimxon ma`lumotlariga ko`ra, Umarxon davrida Amir Temur va Sulton Husayn Boyqaro zamoniga taqlidan unvon va lavozimlar joriy etilib, ularga hokimiyatga yaqin shaxslar tayinlanadi. Shuningdek, Olimxon

¹Ibrat. “Farg`ona tarixi”. Meros. T., “Kamalak”, 1991 yil, 287-bet.

zulmidan qochib ketgan ayrim amaldorlar Umarxon xizmatiga qaytib kelib, lavozimlarni egallaydilar.

Manbalarning guvohlik berishiga qaraganda, Qo‘qon xonligining O‘rta Osiyo mintaqasidagi siyosiy jarayonlar va o‘zaro munosabatlarga faol aralashuvi ham Umarxon davridan boshlanadi. O‘z davrida Umarxonning elchilari Xiva, Xitoy va Turkiya davlatlariga jo‘natilganligi ma’lum.

N.Petrovskiy Umarxon hukmronligi davri haqida quyidagi ma’lumotlarni beradi: “Umarxonning xonligi ham oldingi xonlarnikidek davom etdi, ya’ni, u o‘z yerlarini kengaytirdi. Bu xon davrida Turkiston viloyati musulmonlarning Hazrat (Sulton al-orifin Ahmad Yassaviy davf etilgan Turkiston) shahri bilan birga zabt etildi. Umarxon xalq sevib ardoqlagan xonlardan biri bo‘ldi. Qo‘qonda ikki qator she’r tarqalgan bo‘lib, unda Umarxon haqida juda iliq va yaxshi so‘zlar aytilar edi”.

Umarxon hukmronligi davrida Qo‘qon xonligida bir qator ijobiy va foydali ishlar amalga oshiriladi. Davlat ishlari tartibga solinadi. Qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va savdo bir qadar rivojlanadi. Umarxon fan, maorif va madaniyatga katta e’tibor beradi. Uning o‘zi shoirlilik qobiliyatiga ega edi. Shul bois xonlikning saroyida ijod ahlining yetuk namoyondalari makon topgan edilar. Xalq maorifi ham ancha taraqqiy etadi. Bir qancha madrasa va maktablar, shu jumladan qiz bolalar uchun alohida maktablar ochiladi.

Bunday oliyjanob ishlarni amalga oshirishda Umarxonning umr yo‘ldoshi, o‘z davrining oqila va dono mutafakkiri, ijodkor shoir Komila-Mohlaroyimning ta’siri va xizmati beqiyos kattadir. U o‘zbek adabiyotida Nodira taxallusi bilan nom chiqargan.

Umuman, Umarxon hukmdorligi vaqti qo‘qonliklarning eng kuchaygan davri bo‘ldi. Bunday hol uning o‘g‘li Madalixon davrida ham ko‘zga tashlanadi.

Umarxon vafot etgach, taxtga uning 12 yashar o‘g‘li **Muhammad Alixon (Madali) (1822-1842)** o‘tiradi. Muhammad Alixon davrida daxshatli bosqinchilik urushlari davom etadi. Uning hukmronligi davrida Qo‘qon xonligining hududi yanada kengayib, qirg‘izlarning ba’zi tumanlari xonlikka qo‘shib olinadi hamda

1834-yilda Ko'lob, Hisor, Badaxshon, Darvoz, Maschoh kabi viloyatlar Muhammadalixon hukmronligini tan oladilar.

Manbalarga ko'ra, Muhammadalixon hukmronligining dastlabki yillari yaxshi va odilona kechgan. U 1826-1831 yillar davomida Qashg'arga yurishlar qilib, bu yerdagi musulmonlarni xitoyliklar zulmidan ozod qildi hamda 70 ming uyg'ur musulmonlarini Andijon viloyatiga ko'chirib keltirdi. Natijada din peshvorlari Muhammadalixonga "G'oziy" ("din homiysi", "din yo'lida kurashuvchi") unvonini berdilar.

1840-yilda Muhammadalixonning bosh maslahatchisi, davlatni boshqaruv ishlarida katta tajribaga ega bo'lgan Haqquli mingboshining tuhmatga uchrab xon tomonidan qatl etilishi shusiz ham qaltis bo'lib turgan vaziyatni yanada keskinlashtirib yubordi. Undan tashqari xon davlat ishlariga loqayd bo'lib, asosiy vaqtini haramida o'tkaza boshladi. Natijada davlatni boshqaruv ishlarida suiste'molliklardan umumiy noroziliklar boshlanib, xonni ag'darish uchun fitna tayyorlana boshladi.

Lekin, o'z kuchlari bilan fitnani amalga oshirishga ko'zi yetmagan bir guruh Qo'qon amaldorlari boshqa xon saylash maqsadida Buxoro amiri Nasrulloqa noma yozib, undan yordam so'rashdi. Qo'qon yurishi uchun bahona topolmay turgan Amir Nasrullo bu taklifni tezda qabul qilib, Qo'qonga yurish qiladi. 1840-yilda Qo'qon bilan Buxoro o'rtasidagi urush Muhammad Alixonning mag'lubiyati bilan yakunlanadi. Qo'qon xoni o'zini Buxoro amiriga tobe deb tan olishga, Xo'jand shahrini Buxoroga topshirishga majbur bo'ladi. U ukasi Sulton Mahmud foydasiga 1842-yili taxtdan voz kechadi. 1842 yil amir Nasrulloxon yana Qo'qon ustiga lashkar tortib keladi. U shaharni egallab yondiradi, xalqni talaydi. Atoqli o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy o'zining «Mehrobdan chayon» romanida Nasrulloning islom shariatini himoya qilish bahonasida Qo'qon xonligiga vahshiylarcha yurish qilib, shahar va qishloqlarni yondirib, xonavayron qilgani va ming-minglab begunoh oddiy odamlarning qonlarini to'kkanligini juda ko'plab dalillar asosida va badiiy buyo'qlarda yoritadi. Nasrulloxon o'rdasiga kirib, aka-uka Muhammad Ali va Sulton Mahmudxonni so'ydiradi. Har ikkala tomondan ko'plab odam qiriladi.

Shular qatorida Muhammad Alining onasi, mashhur o'zbek shoirasi Mohlaroyim (Nodirabegim), uning eng yaqinlari Xushxolbib, Norbib va boshqalar ham o'ldiriladi. Nasrulloxon Qo`qon xonligini Buxoro amirligiga qo`shib olinganligini e`lon qiladi. Qo`qonga Ibrohim dodhohni noiblikka va boshqa shaharlarga o`ziga sodiq beklarni tayinlab Nasrulloxon Buxoroga qaytib ketadi. Ammo oradan uch oy o`tgach, Ibroxim dodhohning Qo`qon xalqiga o`tkazgan jabr-zulmi, soliqlarning haddan tashqari oshib ketishi natijasida aholi qo`zg`olon ko`tarib, Buxoro hukmronligidan ozod qilish uchun qipchoqlarni yordamga taklif etadilar. 1842-yilning yozida Qo`qonda Ibrohim dodhohga qarshi qo`zg`olon natijasida Nasrulloxon hokimiyati ag`darib tashlandi.

Qo`zg`olonda asosiy rol o`ynagan qipchoqlar Qo`qon xonligida yetakchi mavqeyiga chiqib oladilar. Norbo`tabiyning ukasi **Sherali (1842-1844)** xon qilib ko`tariladi, Ibrohim Dodhoh Xo`jandga qochib ketadi. Xonlikning taxtiga Sherali o`tirgan bo`lsa-da, lekin amalda barcha davlat ishlarini Mingboshi etib tayinlangan qipchoq qabilalarining boshlig`i Musulmonqul olib borardi. Qo`shin ham uning ixtiyorida edi. Chunki qo`shin garnizoni asosan qipchoqlardan tuzilgandi. Eng mas`uliyatli lavozimlarga qipchoq beklari tayinlangan edilar. Amir Nasrulloxon o`z mavqeyini tiklash maqsadida 1842-yilda Qo`qonga yana qo`shin tortib keladi va shaharni 40 kun qamal qiladi. Biroq Xiva xoni Olloqulixon Buxoroga hujum qilganligi to`g`risida xabar yetib kekgach, Nasrulloxon qaytib ketishga majbur bo`ladi. Xo`jand va Toshkent yana Qo`qon xonligiga o`tadi. Qo`qon xonligi o`zining Umarxon davridagi chegaralarini tiklashga muvaffaq bo`ladi.

Sheralixon davrida xalqni ezish kuchayadi, buning ustiga qipchoqlar muhim lavozimlarni egallab olib o`zbek qirg`iz, tojiklar ustidan o`z hukmronligini o`tkazmoqchi bo`ladilar. Shu sabab xonlikda qipchoqlarga nisbatan norozilik kuchaya boradi. Buni Sheralixon ham tushunadi va Musulmonquldan qutilish yo`lini izlay boshlaydi. Bundan xabardor bo`lgan Musulmonqul nayrang ishlatishni rejalashtiradi. U qipchoq boshliqlarini maxfiy yig`inga chaqirib, Sheralixon o`rniga yangi xon qo`yishni taklif etadi. Shu bilan bir qatorda

qipchoqlarga va shaxsan Musulmonqulga qarshi bo`lganlarni ham yo`q qilishni rejalashtirishadi. Buni amalga oshirish uchun juda qulay vaziyat mavjud edi.

Soliqlar xaddan tashqari oshib ketishidan norozi bo`lgan o`shliklar qo`zg`olon ko`taradilar. Bu vaziyatdan foydalanmoqchi bo`lgan Musulmonqul Qo`qondagi mavjud qo`shin bilan O`shga borib qo`zg`olonni bostirmoqchi bo`ladi. Uning yo`qlik vaqtida Isfara hokimi Samarqandga borib mahrum Qo`qon xoni Olimxonning o`g`li Murodxonni Qo`qonga olib kelib taxtga o`tkazishlari lozim edi. Yangi xon taxtga o`tirgandan so`ng qipchoqlarga qarshi bo`lganlar shubhasiz Murodxonni qo`llab quvvatlashlari lozim edi. Musulmonqul esa qo`shinlar bilan kelib Qo`qonni «ozod» qilib, «fitnachi»larni jazolashi lozim edi.

Rejaga muvofiq Musulmonqul Qo`qon qo`shinlari bilan qo`zg`olonni bostirgani O`shga ketadi. Isfara hokimi Sotiboldibek esa Samarqandga jo`naydi. Ammo, Musulmonqulning rejasini bilmagan Shaxrixon hokimi o`zining qo`shinlari bilan O`shga borib qo`zg`olonni bostiradi. Musulmonqul, bu xabarni olgach, orqaga qaytmaydi va O`shga kelib yana ko`plab odamlarni qiradi. Shu payt Murodxon Qo`qonga keladi. Sheralixon vaziyatni tushunib Murodxonni o`zi taxtga o`tkazdiradi va uni ko`pshilik oldida tabriklaydi. Ko`plab zodagonlar yangi xonni tabriklash uchun salomga keladi. Murodxonning buyrug`i bilan kechasi Sheralixon o`ldiriladi. So`ngra Musulmonqul o`z lavozimida qolganligi haqida farmon chiqarilib O`shga yuboriladi. Musulmonqul "mamnunlik" bilan farmonni qabul qiladi va Qo`qon tomonga qarab salom beradi. Qo`shinlari bilan Namanganga kelib o`zining 12 yashar qizini Sheralixonning o`g`li Xudoyorga nikoh qilib beradi. So`ngra Qo`qonga kelib Murodxonni va unga salom bergani kelganlarni fitnachilar sifatida qatl etadi. Shunday qilib Musulmonqul Sheralixonidan va o`zining raqiblarning ko`pchiligidan qutiladi. Yosh Xudoyorni Qo`qon xoni deb e`lon qiladi. Xon yosh bo`lganligi tufayli xonlikni boshqarishni o`z qo`liga oladi. Xonlikda qipchoqlar hukmronlik davri boshlanadi.

Qipchoqlarga, ayniqsa Musulmonqulga nisbatan norozilik kuchaya boradi. Vaziyatni yumshatish uchun qipchoqlarning boshliqlari Musulmonqulni mingboshilik lavozimidan bo`shatadilar.

Shu davrda Rossiya qo`shinlari Qo`qon xonligining shimolida joylashgan Oqmachit qal`asini bosib olgan edilar. Musulmonqul rus qo`mondonining rasmiy vakili V.V.Velyaminov-Zernov bilan maxfiy ravishda uchrashadi. Musulmonqulning raqiblari bundan xabardor bo`lib, u fitna uyushtirishga tayyorgarlik ko`rishda gumonsiralib, ulg`ayib qolgan Xudoyorxon bilan kelishilgan holda 1853-yili qipchoqlar qirg`inini uyushtirishadi. Natijada 20 ming qipchoq qirib yuboriladi, Musulmonqul dorga osiladi.

Ana shu davrdan e`tiboran Xudoyorxon o`zi mustaqil davlatni boshqara boshladi. Uning davrida zulm-zo`ravonlik kuchayadi. Xudoyorxon Qo`qon taxtiga oraliq tanaffus bilan uch marta o`tiradi. Birinchi marta 1845-yildan 1858-yilgacha bo`lib, 1853-yilgacha taxtni asosan Musulmonqul boshqaradi, Xudoyorxon esa uning qo`lida qo`g`irchoq edi. Biroq Xudoyorxon ham Qo`qon taxtida uzoq qola olmadi. Xalq ommasining noroziligidan foydalangan Xudoyorxonning akasi Mallaxon ukasiga qarshi isyon ko`taradi va 1858-yilda Qo`qon taxtini egallaydi. Xudoyorxon Buxoroga qochib ketadi. Mallaxonni qipchoqlar, qirg`izlar qo`llab-quvvatladilar va yana hokimiyat tepasiga keladilar. **Mallaxon** o`z hukmronligi davrida (**1858-1862**) Qorateginni o`ziga tobe qilib oladi. Bu davrda Buxoro amiri Qo`qon xonligining Xo`jandgacha bo`lgan hududlarini egallab olgan edi. Endi u Qo`qondagi ichki o`zaro nizolardan foydalanib Qorateginni qo`lga kirish maqsadida bu yerga Xudoyorxon boshchiligida qo`shin yuboradi. Mallaxon vaziyatning og`ir ekanligini tushunib Marg`ilon hokimi Qanoatshoh rahbarligida Qorateginga qo`shin jo`natadi. Qorategin hokimi Muzaffarxon (tojik) va Xudoyorxon tor-mor qilinadi.

1860-yilda Mallaxon chor askarlariga qarshi himoyalaniq maqsadida Toshkentga keladi. Bu yerdan u Rustambek va Nurmuhammad boshchiligida qo`shin tuzib ruslarga qarshi yuboradi. Ular ruslarning kichik bir otryadi bilan jang qilib, bir necha asirlarni olib orqaga qaytadilar. Shundan so`ng rus qo`shinlari To`qmoq va Pishpakka hujum qiladilar, bu joylarni vayron qilib xalqni taladilar. Mallaxon yana qo`shin to`plab himoya choralarni ko`rishga majbur bo`ladi. Bo`lgan voqealarni o`z ko`zi bilan ko`rgan Mulla Niyoz Muhammadning bergan

ma'lumotlariga qaraganda, Andijon hokimi Olimbek dodhoh va yo`lda unga qo`shilgan Toshkent hokimi Qanoatshoh rahbarligida 19 ming kishilik Qo`qon qo`shinlari yo`lga chiqdilar. Ular Olmaota, To`qmoq va Ashtakni egallab ilgari intilayotgan rus qo`shinlarining harakatini to`xtatishlari kerak edi. Qo`qon qo`shinlari rus askarlarini o`rab oldilar. Shu paytda qo`shinga qo`mondonlik masalasida Qanoatshoh bilan Olimbek o`rtasida kelishmovchilik chiqadi. Olimbek sotqinlarcha orqaga chekinadi. Qozoqlar ham jang maydonini tashlab chiqdilar. Jang davom etadi. Qanoatshoh Pishpek qal`asini egallaydi. U Olma-ota, Ashtak hududlarida yashovchi aholining bir qismini Pishpek, Marka, Avliyoota tumanlariga ko`chiradi va qolgan kuchlarni orqaga qaytaradi. O`zi esa Pishpekni himoya qilish maqsadida bu yerda qoladi.¹ Mulla Niyoz Muhammadning hikoya qilishicha Qanoatshoh ruslarga qarshi kurash choralarini kuchaytirish o`rniga qozoqlarni talash bilan ovora bo`ladi. Qozoqlarning qabila boshliqlaridan biri Tursunboy sovg`a-salomlar bilan Qanoatshoh oldiga kelib: biz, musulmonlar sizning zulmingiz va siquvingiz tufayli kofir-ruslarga qo`shildik degan.

Mallaxon va Aliquli qirg`iz boshchiligida yangidan tiklangan ko`chmanchilar guruhi uzoq hukm surmadi. Aynan shu guruh a`zolari Mallaxonga qarshi til biriktirib, 1862 yil oxirida uyushtirilgan saroy to`ntarishi oqibatida hokimiyatdan mahrum etilib, 1863 yil 25 fevralda o`ldirildi. Taxtga Sarimsoqbekning o`g`li, Sheralixonning nabirasi **Shohmurod o`tiradi**. Bu hodisa Qo`qon xonligida va uning tashqarisida ziddiyatli vaziyatning kuchayishiga sabab bo`ladi. Toshkent hokimi Qanoatshoh Mallaxonning qotili hisoblab Shohmurodga qarshi chiqadi va Xudoyorxonni taxtga taklif qiladi. Bu payda Mallaxon o`limini eshitgan Xudoyorxon Amir Muzaffarning ruxsati bilan Buxorodan Jizzaxga kelgan edi. Turkiston hokimi Qanoatshoh yordamida qo`shin yig`ib, 1863-yilning mart oyida Jizzaxdan Toshkentga kelgan Xudoyorxon Qo`qonga qarshi yurish uchun Toshkent qo`shini bilan Xo`jandga keladi. Bu orada amir Muzaffar ham Buxoro lashkari bilan Xo`jandga keladi. Xudoyorxon Qo`qonga hujum qilishni

¹НабиевР.Н. «Истории Кокандского ханства». Т.,«Фан», 1973.58-бет..

rejalashtirayotga paytda, ya'ni, 1863-yilning 5 mayida shahar aholisi unga shimoliy darvozalarni ochib berdilar. Natijada Qo'qonda qirg'in boshlanib, Shohmurodxon o'z tarafdorlari bilan Marg'ilonga qochdi. Xudoyorxon ikkinchi marta (1863 y.) taxtni qo'lga kiritdi.

Ammo, xonlikdagi qirg'iz-qipchoqlar Koson va Chust atroflarida qo'zg'olon ko'tardilar va To'raqo'rg'onga hujum qildilar. Ular, hatto Toshkent atroflaridagi qabila boshliqlariga noma yuborib madad berishni so'radilar. Oqibatda Toshkent atrofida qozoqlar qo'zg'olon ko'tarib, Toshkentni qamal qildilar. Xudoyorxon tomonidan yuborilgan qo'shinlar bu isyonlarni bostirishga muvaffaq bo'ldilar. Ammo, mag'lubiyatga uchragan qirg'iz-qipchoq boshliqlari taxt uchun kurashni davom ettirdilar. Xususan, Shodmonxo'ja, Said Mahmudxonto'ra, Aliqulilar Sulton Saidxon boshchiligida Marg'ilon tomondan kelib Andijonni bosib oldilar va uning atroflaridagi Baliqchi, Quva, Asaka, Shahrixon, O'sh, Poytug' mavzellarini talon-taroj qildilar. 1863 yil 26 aprelda Sulton Saidxonning qo'shini Mingtutga kelib, Qo'qonni qamal qildi. Amir Muzaffarning Xudoyorxonga yordami tufayli qirg'iz-qipchoq lashkari Asaka tomonga ketib, Qo'rag'ulcha darasida himoyaga o'tdi. Qattiq kurashlardan so'ng 1863-yilning 24 iyulida Sulton Saidxon Qo'qon taxtini (1863-1865 yy.) egalladi. Xudoyorxon esa yana Buxoroga qochdi.

Xonlikdagi ichki nizolar tashqi dushmanlarga nihoyatda qo'l kelgan edi. Bunday vaziyatdan unumli foydalangan chor Rossiyasi qo'shinlari 1864-yilda Turkiston va Chimkentni bosib oldi. 1865 yil bahorida ular Toshkentga yaqinlashib, Niyozbek qal'asini egalladilar. Uzoq qamaldan so'ng 17-iyunda Toshkent egallandi.

Qo'qondagi sarosimaliklardan foydalangan Xudoyorxon 1865-yilning yozida amir qo'shinlari yordamida so'nggi marta Qo'qon taxtini qo'lga kiritdi. Shundan so'ng u amirning talablariga boshqa itoat etmay qo'ydi. Xudoyorxon 1867 yil yanvar oyida Rossiya bilan savdo bitimini, 1868-yil 13-fevralda Qo'qon va Rossiya shartnomasini imzoladi. Xudoyorxon 1868-1873 yillar oralig'ida Rossiya bilan munosabatlarini yaxshilash maqsadida Toshkentga ko'plab sovg'a-

salomlar yubordi. Shuningdek, Rossiya savdogarlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berdi. Natijada Qo‘qon xonligi amalda Rossiyaning vassaliga aylanib qoldi.

Xonlik hududida hukm surgan nisbiy osoyishtalik 1873-yilgacha davom etgan bo‘lsa ham, hukmdor, uning yaqinlari va mahalliy hokimlarning jabr-zulmi hamda qirg‘iz-qipqoqlarning qayta bosh ko‘tarishi natijasida bu yerlarda o‘zaro nizolar, xalq chiqishlari boshlandi. Xususan, 1873-yilda Po‘latxon (asli ismi Mulla Ishaq Hasan o‘g‘li) qirg‘izlar tomonidan xon qilib ko‘tarilib, u boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Saroydagi nufuzli amaldorlardan biri Abdurahmon oftobachi Xudoyorxonni taxtdan ag‘darish va uning o‘g‘li Sayid Nasriddinbekni xon taxtiga o‘tkazish maqsadida Po‘latxon bilan til biriktirdi va O‘rdada isyon ko‘tardi. Sayid Nasriddinbek Abdurahmon oftobachi ko‘magida xon deb (1875-1876yy.) e‘lon qilindi. Xudoyorxon Nasriddinbek foydasiga taxtdan voz kechib, avval, Xo‘jandga, undan Toshkentga qochdi.

Nasriddinbekning hokimiyat tepasiga kelishi ham mamlakatdagi siyosiy vaziyatning keskinligini bartaraf eta olmadi. Buni tushunib yetgan Abdurahmon oftobachi xonlik aholisini Rossiyaga qarshi kurashga safarbar qilmoqchi bo‘ldi. Ammo, ruslarning qattiq qarshiligiga duch kelib Mahram yaqinidagi jangda ulardan yengildi. Po‘latxon ham ruslarga qarshi kurashish maqsadida Qo‘qonga hujum qilmoqchi bo‘lib turgan vaqtda, ya‘ni, 1875 yil 25 sentyabrda Nasriddinxon Rossiya imperiyasi hukumati bilan bitim tuzdi. Bu xabar tezda butun Qo‘qonga yoyilib aholi yana isyon ko‘tardi va O‘rdaga hujum qildi. Nasriddinxon taxtni tashlab Xo‘jandga qochdi. Marg‘ilonda Rossiya imperiyasi askarlariga qarshi aholini safarbar qilayotgan Po‘latxon qo‘shiniga shaharliklar, madrasa talabalari va ko‘chmanchi aholi vakillari kelib qo‘shildi. Ularga qo‘zg‘olon vaqtida bosqinchilar bilan hamkorlik qilgan qishilar va xon oilasi vakillarini qatl etish buyurildi.

Bu paytda Namanganda bo‘lgan Skobelev Rossiya imperiyasining topshirig‘iga asosan 1876-yil fevralida Qo‘qon xonligini butunlay bosib olishga kirishdi. Abduraxmon oftobachi va Po‘latxon qo‘lga olindi. Abduraxmon oftobachi Rossiyaning Yekaterinoslav guberniyasiga, Nasriddinxon esa Vladimir guberniyasiga surgun qilindi. Shu tariqa, 1876-yil 19-fevralda 150-yildan ko‘proq

hukm surgan Qo‘qon xonligi tugatilib, uning hududlari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi va uning o‘rniga Farg‘ona viloyati tashkil etildi.

11.2-§. Qo‘qon xonligining ijtimoiy ahvoli

Qo‘qon honligida Qo‘qon, Toshkent, Andijon, Namangan, Marg‘ilon, Chimkent, Jizzax, O‘sh, Xo‘jand, O‘ratepa kabi aholisining soni jihatidan katta, hunarmandchilik va savdo rivojlangan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘nlab shaharlar mavjud bo‘lgan. Xonlikning poytaxti Qo‘qon shahri bo‘lib, u mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazi edi.

XIX asrda xonlikning chegara hududlarini bir necha qal‘a va istehkomlar muhofaza qilgan. Ular jumlasiga Oqmasjid, Avliyoota, Pishpak, To‘qmoq, Qurtka, Niyozbek, Mahram kabilarni kiritish mumkin. Chu vodiysi bo‘ylab bunyod etilgan istehkomlar esa nafaqat chegara muhofazasi uchun, balki ularning atrofidagi shahar va qishloqlarni itoatda ushlab turish uchun ham hizmat qilgan. Ushbu shahar va qal‘alarda harbiy qism hamda ularga boshliq bo‘lgan botirboshilar bo‘lgan. Mudofaa maqsadlari uchun qurol va aslahalar saqlangan.

Xonlik tarkibiga kiruvchi hududlar aholisining joylashuvi va turmush tarzi bir – biridan farq qilgan. Toshkent vohasi va Farg‘ona vodiysining sug‘orilib dehqonchilik qilinadigan qismi aholi joylashuvi jihatidan zich bo‘lib, ular o‘troq hayot kechirganlar. Sahro, tog‘ va tog‘ oldi tekisliklaridan iborat hududlarda ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi yashagan.

Xonlikdagi aholi soni haqida manbalar turli ma‘lumotlar beradilar. Bu ma‘lumotlarga ko‘ra, XIX asrning boshlarida xonlikda (Toshkent va Turkistonni ham qo‘shib hisoblaganda) aholi soni 1 million, XIX asrning o‘rtalarida 1,5-2 million, XIX asrning ikkinchi yarmida 3 million kishi bo‘lgan bo‘lsa, Rossiya imperiyasi tomonidan ko‘plab hududlarning bosib olinishi hamda ularning bosqinchilar ma‘muriyati tarkibiga kirishi natijasida xonlik tasarrufidagi Farg‘ona vodiysida 2 millionga yaqin aholi qolgani taxmin qilinadi.

Aholi tarkibida o‘troq aholi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholiga nisbatan ko‘pchilikni tashkil etgan. XIX asr boshlarida aholining 40 foizdan ortig‘i

ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lsa, shu asrning oxiriga kelib ular 15 foizni tashkil etgan. Xo'jalik mashg'ulotlariga ko'ra, o'troq aholining asosiy qismi dehqonchilik, hunarmandchilik, kosiblik hamda savdo-sotiq bilan band bo'lsa, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi chorvachilik bilan shug'ullangan.

Qo'qon xonligi aholisining ko'pchiligi o'zbeklar bo'lib, mamlakat shahar va qishloqlarida tojiklar ham yashagan. Xonlikda yana qirg'izlar va qipchoqlar ham istiqomat qilganlar. Ular Sirdaryoning boshlanish joylaridan Balxash ko'ligacha bo'lgan tog'li rayonlardan to Qashg'ar chegarasigacha bo'lgan yerlarda, Yettisuv, Talas vodiysi, Oloy tog'lari, Badaxshon, Farg'ona vodiysi hududlarida ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi hayot kechirishgan. Bundan tashqari, Farg'ona vodiysida qoraqalpoqlar, Toshkent atroflarida qozoqlar, xonlikning sharqiy qismida, Qo'qon xonligini Buxoro va Rossiyadan ajratib turadigan cho'llarda ko'chmanchi qozoqlar yashaganlar.

Manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrning boshlarida qirg'izlar, qalmoqlar, uyg'urlar, qoraqalpoq, qozoq va qipchoqlar Xitoy hukumati tazyiqi ostida Sharqiy Turkistondan Farg'ona vodiysigacha ko'chib kelishga majbur bo'lganlar. Shuningdek, xonlikning ayrim shaharlarida lo'lilar, hindlar, afg'onlar, arablar va boshqa Osiyo xalqlari istiqomat qilganlar. Turkiston general-gubernatorligi tashkil topganidan so'ng yahudiylar, armanlar va boshqa millat vakillari ham yashaganlar.

O'zbeklarning ming qabilasi (urug'i) boshliqlaridan biri Shohruhbiy asos solgan Qo'qon xonligidagi davlat boshqaruv tizimi o'rta asrlarda Movarounnahrda hukm surgan musulmon davlatlari boshqaruv tizimidan farq qilmas edi. Xonlikda Buxoro amirligida bo'lgani kabi Amir Temur davrida shakllangan hamda Shayboniylar davrida qisman islohot qilgan davlat boshqaruvi va tizimi mavjud bo'lgan. Xonlikda eng oliy va markaziy unvon xon unvoni bo'lib, uning hukumati cheklanmagan. Farmon berish va uning bajarilishini nazorat etish salohiyatlari xonning qo'lida bo'lgan.

Xonlikning ming qabilasidan bo'lgan hokimlar turli yillarda Shahrisabz, Urgut, Mog'iyon, Urmitan viloyatlari va bekliliklarida ham hukm surganlar.

Olimxon davrigacha (1798y.) ming urug‘i boshliqlari XIX asrning boshlarida biy unvoni bilan hokimiyatni boshqarganlar. Olimxon 1805-yilda o‘zini rasman xon deb e‘lon qildi. Xon unvoni bilan hokimiyatni boshqargan Umarxon (1810-1822yy.) 1818-yilda o‘zini “amir ul-muslimin” deb e‘lon qildi. 1822-yilda Muhammad Alixon ham xon unvoni bilan taxga o‘tirgan.

Xondan so‘ng quyidagi mansabdorlar o‘rin olishgan:

1. Shayxulislom, qozikalon, xo‘jakalon, naqib va muhtasiblar. 2. Mingboshi, otaliq, qo‘shbegi, mehtar. 3. Parvonachi. 4. Dodxoh. 5. Biy. 6. Eshikog‘asi, inoq, shig‘ovul. 7. To‘qsoba. 8. Miroxo‘r. 9. Qorovulbegi kabi oliy mansablar bo‘lgan.

Shayxulislom mansabiga bilimdon, o‘qimishli kishilar tayinlangan. Undan nasl-nasabi haqida hujjat, shajara ham talab qilingan. U xo‘jalar avlodidan bo‘lishi lozim oo‘lgan. Ruhoniylar vaqf mulklari daromadi hisobiga tirikchilik qilganlar. Bundan tashqari, ular har-yili xonadon sha‘ni tariqasida amaldorlardan sarpo, g‘alla, naqd pul olib turganlar.

Muhtasib lavozimiga axloqan pok faqihlar tayinlangan. Ular shariat qonun-qoidalarining musulmonlar tomonidan bajarilishini nazorat qilib turganlar.

Xonning shaxsiy daromadi daftardor tomonidan hisob-kitob qilib borilgan va xazinachiga axborot berib turgan. Sarkor va inoq xazinaga tushadigan mahsulotni saqlab turganlar. Barcha masalalarni hal qilish uchun xon, otaliq, mingboshi, otabek, sarkor, dasturxonchi, elchilik devoni, xazinachi, mehtar, noib, udaychilardan iborat kengash tuzilgan. Ijtimoiy hayot Qo‘qon xonligi ham Buxoro amirligi va Xiva xonligi kabi mustabid davlat edi. Butun hokimiyat rasman xon qo‘lida bo‘lib, u cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lgan. Xon armiyasiga mingboshi qo‘mondonlik qilgan. Ayni paytda u bosh vazir va ba‘zida bosh qo‘mondon vazifasini o‘tagan.

Xonlikda istiqomat qiluvchi barcha qabila a‘zolari o‘zlarining yashash joylaridagi hududlarda hisob daftariga yozib qo‘yilar edilar. Bu tartib xonga uning birinchi chaqirig‘idayoq ularning to‘planish buyurilgan joyga yetib kelishlarini ta‘minlar edi. Shu tariqa, Qo‘qon xoni agar zarurat taqozo yesa 60 ming qo‘shinni va oziq-ovqat ortil-gan 12000 aravani tezda yig‘a olish imkoniga yega edi.

Xonlikning ijtimoiy hayotida ruhoniylar alohida mavqega yega bo'lib, ular davlat siyosatiga kuchli ta'sir o'tkaza olganlar. Ularning mamlakatdagi nufuzi shu darajada ediki, ular olib borgan siyosati o'zlarining man-faatlariga mos kelmay qolgan xonlami hatto «xudodan qaytgan», «dindan chiqqan shakkok» deb ham ye'lon qila olardilar. Xonlikdagi butun sud ishlari ruhoniylar qo'hda edi.

Xonlikdagi o'zaro ichki urushlar va nizolar shunday shitob bilan davom yetgankim, shu omil oxir-oqibat markaziy hokimiyatni zaiflashtirgan, butun xonlikni larzaga keltirgan. Qo'qon xonligida hukmronlik qilgan 15 xondan 6 nafari (Bobobek, Sulaymonxon, Olimxon, Muhammad Alxon, Sheralxon, Mallaxon) saroy to'ntarishi natijasida o'ldirilgan edi.

11.3-§. Qo'qon xonligida yer-suv munosabatlari

Qo'qon xonligida yer yegali shakllarining quyidagi turlari mavjud bo'lgan: 1. Amlok yerlari (davlat yerlar); 2. Xususiy mulk yerlari va 3. vaqf yerlar (masjid va madrasalarga tegishli yerlar). Mamlakatdagi butun yer davlatniki edi. Shuning uchun ham xususiy yer yegalari aslida yerga yemas, balki, undan olinadigan mahsulot hamda shu yerlarda qurilgan imoratlarga egalik qilar edilar. Xususiy yer egalari yetishtirilgan hosilning 15 qismi hajmida soliq to'lar edilar. Mulklarining ko'pchiligi 30 sotixdan 60 sotixgacha bo'lgan. Bir gektar yeri bor kishi boy hisoblanar edi. Yerlar ishlov berish uchun dehqonlarga ijaraga berilar edi. Ular qilgan mehnatlari yevaziga hosilning 1/3 yoki 1/4 qismini o'zlariga olib qolar edilar.

Dehqonlar davlat yerlarida mehnat qilar edilar. Davlat yerlarida ishlash uchun majburan safarbar etilganlar soni 10 ming nafargacha yetardi. Bunday dehqonlar mardikor deb atalardi.

Xonlikda yer yegalariga hosilning 1/4 qismi uchun yollanib ishlovchi yersiz dehqonlar tabaqasi vujudga kelgan bo'lib, ular chorikorlar deb atalar edilar. Bundan tashqari korandalar deb ataluvchilar ham bo'lib, ular hosilning yarmi uchun yollanib ishlar edi. Bu yuqorida qayd etilganlar xonlikda mehnatkash xalqning qanchalik og'ir sharoitlarda yashaganligini ko'rsatuvchi dalillardir.

Mehnatkash xalqning qismati shu bilangina cheklanmagan. Ular o'ta og'ir soliqlar to'lash, tinka-madorni qurituvchi majburiyatlar o'tashga duchor etilgan edilar. Asosiy soliq - xiroj bo'lib, uning miqdori ekin ekiladigan yer maydoni va ekin turiga qarab olinar edi.

Ko'chmanchi xalqlardan olinadigan zakotning ham turi ko'p edi. Ularning asosiylari «qo'ra boshi», «tutun haqi», «soliq» deb atalar edi. «Qo'ra boshi» zakoti ko'chmanchi chorvadorlardan moli boshiga va qo'rasiga qarab olinadigan zakot edi. Bu zakot qishda mollar qo'ralarda turganida yig'ib olinar edi.

«Tutun haqi» zakoti - bu bahor kelganda yangi o'tloqlarga ko'chishdan oldin xonadon boshiga bittadan qo'y bilan olinadigan soliq (zakot) edi.

«Yig'im soliq» yesa - zakot to'lamaydigan boylar va ulaming qarindoshlarining bekka beradigan 9 buyumdan iborat in'omlardan iborat edi.

Ahvol shu darajaga borib yetgan ediki, mehnatkash xalq deyarli hamma narsa uchun soliq to'lar edi. Chunki, hamma qo'riq yerlar, chakalakzorlar, to'qaylar, daraxtzorlar, barcha yaylovlar xonning xtiyorida edi.

Xalqning tinka-madorini qurituvchi mehnat majburiyatini o'tash davomida aholi qal'a devorlarini ta'mirlash, istehkomlar qurishga, kanallar qazishga, ariqlarni tozalashga, yo'l-ko'priklar qurilishiga safarbar yetilardi.

Bulardan tashqari, eng og'ir yana bir majburiyat bo'lib, bu - harbiy xizmat majburiyati edi. Urush harakatlari boshlangan paytda har bir kishi zarur oziq-ovqat, kiyim-kechak g'amlab kelishi shart edi.

Aholisi va xo'jaligi XIX asrning birinchi yarmida shimolda Rossiya bilan (garchand ularning o'rtasida huvillab yotgan cho'l bo'lsa-da), g'arbda Buxoro va Xiva bilan, sharqda Sharqiy Turkiston bilan, janubda esa Qorategin va Darvoz bilan chegaradosh edi.

Xonlik aholisining soni 3 millionga yaqin edi. Aholining asosiy qismini o'zbeklar tashkil etgan. Shuningdek, xonlikda tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar, uyg'urlar va qoraqalpoqlar ham istiqomat qilardilar. Ayni paytda xonlik hududlarida, oz miqdorda bo'lsa-da, yahudiylar, hindlar, tatarlar va boshqa millat vakillari ham yashar edilar.

Xalq xo'jaligining asosini qishloq xo'jaligi tashkil etardi. Farg'ona vodiysining qulay iqlim sharoiti qishloq xo'jaligi rivojiga imkoniyat yaratgan edi. Ayni paytda xonlik aholisining mehnasevarligi ham o'lka taraqqi-yotida hal qiluvchi omil bo'lgan.

Xonlik hujjatlariga ko'ra, Qo'qonda hunarmandchilikning quyidagi turlari bo'lgan. Misgar, zargar, o'ymakor, qurolsoz, kulol, qog'ozgar, to'qimachi, do'ppi tikuvchi, kashtachi, ko'priksoz, temirchi, nonvoy, arava-soz, baxmalbof, bujgun, bo'yoqchi, gilkor, dorukash, jibachi, devorzan, degrez, yo'rmado'z, konchi, miltiqsoz, najjor, nayzagar, panjarasoz, pillakash, po'stindo'z, taqachi, to'brez, paranjido'z, chodirchi, chevar, chitgar, gilamchi va hokazo.

Xonlikda oltin madani Kosonsoy (Namangan)da, Qoratog' shimolidagi Ko'krev daryosidan, Chirchiq daryosi bo'ylaridan, Chotqol daryosi yuqori oqimlaridan olingan.

Samarqandda bo'lganidek Qo'qon xonligida ham qog'oz ishlab chiqarilgan. Qog'oz juvozxonasi Qo'qon shahrining Mo'yi muborak darvozasi orqasidagi maqbara yonida joylashgan. Qog'oz juvozi oddiy saroydan iborat bo'lib, sahni 25-30 kvadrat metr. Ayvonning bir tomoni-da juvozxona, boshqa tomonida qog'oz xamiri uchun katta moslama joylashgan. Usta o'z xalfalari yordamida bir kunda 300 varaq qog'oz tayyorlagan. Qo'qonda chinni idishlar ham ishlab chiqarilgan. (Usta Boybobo nomi bilan mashhur bo'lgan usta (vafoti 1876) chinni yasashda shuhrat qozongan.

Qo'qonga qo'shni shaharlar va xorijiy mamlakatlardan savdogarlar kelib turgan. Shaharda yakshanba va chorshanba kunlari bozor bo'lgan. Qo'qon xonligining iqtisodiy hayotida Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Koshg'ar, Hindiston, Afg'oniston, Eron, Xiva ayniqsa Rossiya bilan bo'lgan savdo katta o'rinni egallagan. Masalan, Koshg'ar bilan ohb borilgan savdo-sotiq faqat Qo'qon orqali bo'lar edi. Qo'qondan Koshg'argacha yuklangan ot karvoni 14-20 kun yo'l yurgan. Qo'qondan Koshg'arga temir, qizil charm, mato, oltin olib borilgan.

Hududlarning suv bilan ta'minlanishi davlatning qudrati oshuvi manbai bo'lsa, suv tanqisligi esa iqtisodiy inqirozga, xalq ahvolining yomonlashuviga,

siyosiy beqarorlikka olib kelar edi. Saroyda bosh mirob lavozimida ishlovchini mavqei baland hisoblangan. Bunday mutaxassislar har uchala xonlikda mirobboshi deb atalib, ular yer tuzilishi, suv xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlaridan to'la xabardor bo'lishlari lozim edi. Ular davlat maslahatchisi vazifasini ham bajarganlar. Miroblar mirobboshining saroy va viloyatlardagi yordamchilari edilar.

Qo'qon xonligi xo'jalik hayotining asosini tashkil qiladigan soha dehqonchilik edi. Chunki xonlikning asosini tashkil etgan Farg'ona vodiysida suv manbalarining yetarli darajada bo'lganligi dehqonchilik xo'jaligida mo'l hosil bo'lishni ta'minlagan. Xonlikda XVIII asrga qadar yerlarni sug'orish uchun soylar va jilg'alarning suvlaridan ham unumli foydalanilgan.

Xonlikdagi taxt uchun o'zaro kurashlar hamda siyosiy tarqoqlik davom etayotgan bo'lishiga qaramay XVIII asr ikkinchi yarmidan boshlab ayrim tumanlarning sug'orish tarmoqlari ta'mirlangan va yangilari qazilgan. Chunki, xonlikda ip va gazlama ishlab chiqarish hajmining ortib borishi, bu mahsulotlarni Rossiya va u orqali Sharqiy Yevropa mamlakatlari bozorlarida ko'plab sotila boshlashi, ularga bo'lgan talabning tobora kuchayib borishi sug'orma dehqonchilik yerlarini kengaytirish hamda yangi yerlarni o'zlashtirishni taqozo qilar edi.

Shuning uchun ham XIX asr Qo'qon xonligida, xususan, Farg'ona vodiysining sug'orilishi tarixida yangi davrni boshlab berdiki, aynan shu davrdan boshlab, vodiya yirik sug'orish inshootlari, ariqlar, kanallar, to'g'onlar qurila boshlangan. Masalan, Sirdaryoning asosiy irmoqlaridan bo'lgan Norin va Qoradaryolardan suv oladigan Shahrixonsoy kanali, Namangan Yangi arig'i, Chinobod arig'i, Ulug'nor, Andijonsoy kanali, Oltiariq, Mutagan arig'i va boshqa sug'orish tarmoqlarining ko'payishi, sug'oriladigan dalalarning sezilarli darajada kengayishi hamda dehqonchilik va bog'dorchilikning rivojlanishiga olib kelgan.

Qo'qon xonligida sug'orish inshootlarini barpo etishning ma'lum tartib – qoidalari mavjud bo'lgan. Chunonchi, sug'orish tarmoqlari va ularni barpo etish ishlari ikki guruhga ajratilgan. Birinchi guruhga hajm jihatdan kichik sug'orish inshootlaridan foydalanuvchi qishloq aholisi ishtirok etgan. Ularga mahalliy mutasaddi kishilar, mirobboshilar boshchilik qilgan. Ikkinchi guruh sug'orish

inshootlariga hajm jihatdan katta va yirik kanallar kiritilib, ularni bunyod qilish ishlariga xonlikning turli viloyatlaridan qazuvchi – hasharchilar jalb etilgan. Bunday inshootlar qurilishiga bevosita xon yoki joylardan uning vakili boshchilik qilgan.

Sugʻorish ishlari ayniqsa Fargʻona viloyatida yaxshi rivojlangan edi. Bu vodiya bunyod etilgan yirik kanallar — **Shahrixonsoy** (uzunligi 100 km), **Andijonsoy** (uzunligi 100 km) va **Yangiariq** (uzunligi 100 km) bir-biriga qoʻshilganda Sirdaryoga aylanuvchi Norin va Qoradaryo suvlarini dalalarga burishga imkon berardi. 1868-1871-yillarda **Xonariq (Ulugʻnor)** kanali qazildi.

Rus geografi knyaz **V.Masalskiy**: «Baʼzi ariqlar shu qadar ulkanki, bir necha oʻnlab chaqirimga obihayot eltayotgan bu qudratli oqimlarga koʻzing tushganda, beixtiyor qashshoq texnika vositalari bilan Turkistonning jazirama oftobi tigʻida mamlakatning sugʻorish inshootlari bilan chirmab tashlagan xalqqa hurmating oʻz-oʻzidan ortib ketadi», — deb yozgan edi.

«Oʻrta Osiyolik mehnatsevar kishi, — deb yozidi akademik **A.Middendorf**, — chidamliligi, ishga boʻlgan mehri, oʻz kuchini sidqidildan sarflashi va mehnatda toblanganligi, ayni mahalda aql-zakovati bilan ajoyib ibrat namunasidir».

Hunarmandchilikning **kustar ishlab chiqarishda** paxtadan ip yigirish va gazlamalar toʻqish ahamiyati jihatdan ikkinchi oʻrinda turgan.

Xonlikda dehqonchilik ekinlarining aksariyati Oʻrta Osiyo xonliklariga xos boʻlib, gʻallachilik, bogʻdorchilik, sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirish hamda ipakchilik yaxshi rivojlangan. Donli ekinlardan makkajoʻxori yetishtirish keng tarqalgan boʻlib, u shahar va qishloqlarda kambagʻallarning asosiy isteʼmol mahsuloti hisoblangan. Shuningdek, XIX asrga kelib xonlikda paxtachilik sohasiga katta eʼtibor berila boshlangan.

Xonlik gʻarbiy qismining tabiiy sharoitida bogʻdorchilik va uzumchilikni rivojlantirish uchun juda qulay boʻlgan. Janubi-gʻarbiy Xoʻjand, Konibodom, Isfara, Soʻx, Chimyon, Rishton hududlari asosan oʻrik yetishtirishga toʻla ixtisoslashgan. Bu davrda butun Fargʻona vodiysida tut daraxti keng tarqalib, u

togʻ oldi va qadimgi dehqonchilik vohalaridan hisoblangan Soʻx, Isfara, Namangan, Ashtda ipakchilik uchun qadimdan oʻstirib kelingan.

Xonlikda yer va suv hukmron tabaqalariniki hisoblanib, XIX asrga kelib yerga egalik qilishning toʻrtta turi mavjud boʻlib ular quyidagilar edi:

1. **Xiroj yerlar** – yer egalarining xususiy yerlari.
2. **Davlat yoki amloq yerlari** – xonga qarashli yerlar – oʻrmonlar, toʻqaylar, yoʻlu-koʻpriklar.
3. **Xususiy yerlar** – xonning maxsus farmoyishi bilan yirik amaldorlarga berilgan yerlar (suyurgʻol).
4. **Vaqf yerlari** – diniy muassalar, yaʼni, masjid, madrasa va mozorlarga qarashli yerlar.

Manbalarga koʻra, **amloq** xon ixtiyoridagi yer boʻlib, u “**zamini xos**”, deb atalgan. Bunday yerlar xon tomonidan ayrim guruh va mansabdor shaxslarga berilgan. Yerni olgan kishi unga oʻz hisobidan ishlov berib, sugʻorgan. Olgan hosildan esa xonga soliq toʻlagan va bu soliq miqdori xiroj (*xiroj – hosilning 1/5 dan 1/8 qismigacha tashkil etgan*) dan koʻproq boʻlgan.

Yerga egalik qilishda **mulk**, **ijara**, **urgʻu**, **tanho** shakllaridan ham foydalanilgan. Mulk – boylarga qarashli xususiy yerlar boʻlib, ular dehqonlarga ijaraga berilgan. Maʼlumotlarga koʻra, ijara – muayyan shartlar asosida beriladigan barcha koʻchmas va koʻchadigan mulk-yer, ariq, tegirmon, tim, rasta, ulov av boshqalarni oʻz ichiga olgan mulk shakli boʻlsa, urgʻu – musodara qilish yoʻli bilan xon mulkiga aylantirilgan yoki gunohkorni qoʻlga olishda jonbozlik qilgan shaxslarga berilgan yer va mol-mulkdir.

Tanho – hukmdor tomonidan alohida xizmat koʻrsatgan kishilarga amlok yerlardan baʼzilari inʼom etilishi tufayli paydo boʻlgan mulk shakli boʻlib, bunday yerlarda soliq yigʻish huquqi tanho egalari – tanhodorlarga berilgan. U oʻziga berilgan yer, bir nechta qishloq, hatto, katta mulkning yillik yoki yarim yillik daromadini hadya sifatida olgan. Baʼzan, amaldorlar bir umr tanhodor boʻlgan va oʻgʻli xon marhamatiga sazovor boʻlsa, tanhodorlik meros sifatida davom etgan. Harbiylarga tanho yoki xiroj taqdim etilsa, u tarxon deb atalgan.

Bu davrda xonlikning daromadi mahsulot va puldan iborat bo‘lib, ular asosan soliqlar undirish yo‘li bilan hosil qilingan. Soliq va majburiyatlar xonlikning barcha shahar va qishloqlarida deyarli bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Mamlakatda mavjud soliqlar joriy etilishiga ko‘ra, to‘rt turga: shariat qonun-qoidalariga binoan belgilangan asosiy soliqlar; rasmiy soliqlar; an’anaviy soliqlar; favqulodda joriy etilgan soliqlar.

Manbalarga ko‘ra, shariat qonun-qoidalarini asosida joriy etilgan asosiy soliqlar. – xiroj, ushr va zakot hisoblangan. Dehqonchilikda donli ekinlar ekiladigan yerlardan olinadigan soliq – xiroj deb atalgan. Bu soliq hosilning beshdan bir qismini tashkil etib, 5 qop g‘allaning bir qop miqdorida undirilgan. Soliqning bir qismi mahsulot, bir qismi esa pul bilan to‘langan.

Ushr yerlari – “zamini ushr” deb yuritilgan yerlardan hosilning undan bir qismi miqdorida ushr solig‘i ruhoniylar foydasiga undirilgan. Zakot – mahsulotdan olinadigan savdo solig‘i yoki chorva mollari hisobidan olinadigan soliq bo‘lib, daromadning qirقدan bir qismini tashkil etgan. Xonlikning savdogarlik sarmoyalari aniq bo‘lmaganligi sababli, sharoitga qarab daromaddan zakot olingan. Shuningdek, chorva mollaridan ham qirقدan bir ulush hisobida zakot olingan. Arxiv hujjatlarida an’anaviy zakotdan tashqari – bo‘roqi zakoti, elatiya zakoti, sarkarda zakoti kabilar haqida ma’lumotlar bor.

Xonlikda joriy etilgan tanobona, xonsoliq, karvonlardan chegara yoki maxsus belgilangan shaharlarda, Sirdaryo kechuvidan olinadigan boj to‘lovlari, tuz boji, bozorlarda savdogarlardan, xon mablag‘iga qurilgan barcha inshootlardan olinadigan soliq kabilar rasmiy soliqlarga kirgan. Bog‘dorchilik, sabzavotchilik, polizchilikda ekin ekiladigan yer maydonining hajmiga qarab tanob solig‘i olingan. Soliq yig‘uvchi amaldor **tanobchi** (har bir tanob yerdan soliq oluvchi), eakot solig‘ini yig‘uvchi amaldorlar **zakotchi** deb atalgan.

An’anaviy soliqlarga to‘y marosimlaridan, meros bo‘linishidan, tarozidan, daryodan o‘tish uchun sollardan, qirg‘iz va qozoqlarning chorvasidan olinadigan va shunga o‘xshash soliqlar kirgan. Xonlikda bulardan tashqari yana turli xil

favqo‘lodda soliqlar mavjud bo‘lib, u tilla puli va mis puli, ulov puli, alaf puli, nafsona, mushtak, kafsan, yaksara va boshqalardir.

Soliqlar qat’iy belgilangan miqdorda hamda o‘z vaqtida yig‘ilishi shart bo‘lsa-da, xon va amaldorlarning ixtiyori bilan bu holat o‘zgarib turgan. Harbiy harakatlar paytida, ayniqsa, soliqlarning turi va miqdori oshirilgan.

Xon xazinasiga kelib tushgan soliqlar – **xossachi**, bek xazinasiga tushgan soliqlar – **beklik** deb atalgan. Manbalarga ko‘ra, xon ixtiyoridagi yerlar “zamini xos” deb atalib, undan keladigan barcha daromad xonning ixtiyorida bo‘lgan. Xon xazinasiga tushadigan soliqlarning deyarli barchasi Qo‘qon shahri va uning atrofidagi qishloqlardan yig‘ilgan. Chetdan xon ixtiyoriga mahsulot va chorvadan yig‘iladigan zakot, Sirdaryo kechuvdan olinadigan boj, tuzdan, xossachi joylardan xon mablag‘iga qurilgan barcha inshootlardan olinadigan soliq, to‘y marosimlaridan va meros bo‘lishdan yig‘iladigan soliqlar tushgan.

Qo‘qon xoligida soliqlardan ozod qilingan, ya’ni, “**mulki xur**” yerlar ham mavjud bo‘lib, ularning egalari bo‘lgan sayyid, xo‘jalar, shayxlar va eshonlar xonning maxsus inoyatnomalari asosida barcha soliqlardan ozod qilinganlar. Shuningdek, xonzoda va to‘ralar, ba’zi qozi, rais, amin, darvesh va so‘filar ham tanob solig‘idan ozod qilingan.

Soliqlardan tashqari aholi majburiy ravishda turli ishlarga – kanallar qazish, ariqlarni tozalash, obodonchilik ishlari, turli qurilishlarga, ayniqsa, hukmron tabaqalarning xizmatlariga jalb etilgan. Soliq, to‘lov va majburiyatlarning-yildan-yilga oshib borishi natijasida Qo‘qon xonligida xalqning noroziligi ortib borib, xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning keskinlashuvi davlatning siyosiy inqirozini ta’minlab bergan edi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

- 1. Qanday omillar Farg‘ona vodiysini yagona davlatga birlashtirishga zamin yaratdi?*
- 2. Qo‘qon xonligining siyosiy tarixida Olimxon va Umarxonlarning tutgan o‘rni haqida so‘zlab bering.*

3. *Xonlikda qaysi hukmdorlar davridan boshlab ko'chmanchilarning mamlakat siyosiy hayotida muhim rol o'ynay boshlagan?*
4. *Aka-uka Olimxon va Umarxonlarning o'z hokimiyati qonuniyligini qanday yo'l bilan asoslaganligini taqqoslang.*
5. *Xonlik hududi qanday ma'muriy birliklarga bo'lingan edi?*
6. *Xonlikda yer egaligining qanday shakllari mavjud bo'lgan?*
7. *Vaqf avlod tushunchasi nimani anglatgan?*
8. *Mardikor, chorikor va korranda tushunchalariga izoh bering.*
9. *Xonlik tarkibiga kiruvchi hududlar aholisining joylashuvi va turmush tarsi bir-biridan nimasi bilan farq qilgan?*
10. *Nima sababdan XIX asrning boshlarida qirg'izlar, qalmoqlar, uyg'urlar, qoraqalpoq, qozoq va qipchoqlar Sharqiy Turkistondan Farg'ona vodiysigacha ko'chib kelishga majbur bo'lishgan?*
11. *Qo'qon xonligida sug'orish tarmoqlari va ularni barpo etish ishlari necha guruhga ajratilgan va qanday guruhlarga?*
12. *Qo'qon xonligida barpo etilgan yirik sug'orish inshootlarini sanab bering.*
13. *Xonlikda mavjud bo'lgan yerga egalik qilishning "mulk", "ijara", "urg'u", "tanho" kabi shakllari haqida so'zlab bering.*
14. *Mamlakatda mavjud soliqlar joriy etilishiga ko'ra necha turga bo'lingan?*
15. *Xonlikda mavjud bo'lgan yerga egalik qilishning "mulki hur" deb nomlangan yerlar kimlarga berilgan va qanday imtiyozga ega bo'lishgan?*

12-mavzu. O‘rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilishi va yer-suv munosabatlarining mustamlakachilikka moslashtirilishi

Reja:

12.1-§. Podsho Rossiyasining o‘lkada mustamlakachilik siyosatini asosiy xususiyatlari;

12.2-§. Podsho Rossiyasining o‘lkada yer egaligi to‘g‘risidagi siyosati;

12.3-§. 1886 yil Nizomining agrar bandlari va uning mustamlakachilik mohiyati;

12.4-§. Mustamlaka davrida o‘lkada sug‘orish tarmoqlarining ahvoli.

Tayanch iboralar: *“katta og‘alar”, Dasht komissiyasi, «Harbiy xalq boshqaruvi», davlat yerlari, vaqf, sug‘orish inshootlari, kannallar, chig‘ir, «Vaqtli Nizom loyihasi», Bo‘lis, Oqsoqol yordamchilari, Ariq oqsoqoli, Volost, pud, Volost boshqaruvchilari, yuzboshi-oqsoqollar, ellikboshilar va o‘nboshilar, polismeyster, «hokim to‘ra», "Besh-bosh" shirkati, chorikor, mardikor, I.V.Rayevskiy, Amerika paxtasi navi, «Upland», 1886-yilgi Nizom.*

12.1-§. Podsho Rossiyasining o‘lkada mustamlakachilik siyosatini asosiy xususiyatlari

Podsho Rossiyasi O‘rta Osiyoni bosib olgach, bepayon hududlarga ega bo‘ldi. U dunyoning eng yirik mustamlakachi mamlakatlaridan biriga aylandi. Shuning uchun ham o‘sha vaqtda Rossiya to‘g‘risida «**ulkan miqdordagi mulk o‘g‘risi**» degan haq gaplar aytilgani bejiz emas edi. Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyodagi tartiblari Polsha, Finlyandiya va Kavkazdagidan ham tafovutli xususiyatlarga ega edi. Bu hususiyat mahalliy xalqlarga mutlaqo ishonmaslik, ularga bepisandlarcha qarash kabi shovinistik ruh va kayfiyatlardan iborat edi.

K.P.Kaufman 1868-yil 22-yanvarda Toshkent jamoatchiligi vakillari yig‘ilishida so‘zlagan nutqida ruslarning hukmronligi baquvvat zaminga ega ekanligini alohida ta’kidlab, u hukmronlik abadiy bo‘lishini uqtirdi. U xuddi shu ma’ruzasida birinchi marta ruslarni Turkiston aholisining **katta og‘alari** deb atadi.

Musulmonlarning ashaddiy dushmani bo'lgan Kaufman rus harbiylarining eng faol ijrochi jandarmi graf **D.Milyutinning** — imperiya harbiy vazirining maslakdoshi va sirdoshi edi. U o'zining yurakdagi pinhoni sirini D.Milyutinga 1876-yili yo'llagan ma'ruzanomasida harbiylarga xos ochiqchasiga bayon etgani ham bejiz emas edi. General Kaufman bu ma'ruzanomasida Rossiya va Angliya kabi nasroniy davlatlarning Osiyodagi maqsadi mushtarak ekanligini alohida ta'kidlab, «bu joyda bizning umumiy dushmanlarimiz — musulmonlik va yovvoyilikdir» deb, harbiy vazirdan qattiq siyosat o'tkazishda o'ziga keng vakolatlar berilishini so'ragani ham tasodif emas edi.

Xuddi shunday siyosatni podshoning yaqin mulozimi, general-leytenantga teng unvondagi maxfiy maslahatchi **F.Girs** Turkiston o'lkasini boshqarish tartibi haqida tuzgan qonun loyihasida ham aks ettirgan edi. U aslzoda rus zodagonlari, harbiylari va mustamlaka ma'muriyatida ishlab, boy tajriba orttirgan amaldorlardan iborat **Dasht komissiyasida** (1865-1867) rahbarlik qildi. Turkiston o'lkasida qanday mustamlaka tuzumi o'rnatish haqida podshoga o'z mulohazalari bitilgan loyihani yubordi. Rus podshosi **Aleksandr II** (1856-1881) bu loyihani «O'rta Osiyodagi mulklarni o'zlashtirish bo'yicha Maxsus qo'mita» diqqatiga havola etdi.

Rossiya imperiyasi harbiy vaziri graf D.Milyutin 1867-yilda vazirlar qo'mitasiga Turkiston o'lkasi boshqaruviga doir qonun loyihasini taqdim etdi. Loyiha Rossiya tomonidan istilo etilgan Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarida Turkiston general-gubernatorligini tashkil etish va uni harbiy vazirlik ixtiyoriga berishni nazarda tutgan edi. Shu tariqa 1867-yildan 1882-yilga qadar Turkiston xalqlari taqdirini hal etish general-gubernator K.P. Kaufman ixtiyorida bo'ldi.

Sankt-Peterburg Oliy harbiy-siyosiy doiralari amri ila tashkil topgan «Harbiy xalq boshqaruvi» ga ko'ra Turkiston o'lkasi viloyatlarga, viloyatlar uyezdlar, uyezdlar esa volostlarga, volostlar uchastlarga, uchastkalar esa oqsoqollar boshqaradigan hududlarga bo'lindi. Viloyat, uyezd va uchastkalarni rus generallari va zobitlari boshqarishi, oqsoqolliklarni esa mahalliy xalq vakillari boshqarishi nazarda tutildi. Viloyatlarga harbiy gubernatorlar tayinlandi. Ular

shaxsan rus podshosi tomonidan tasdiqlanar edi. **Uyezd** boshliqlari rus armiyasi polkovniklari, uchastka pristavlari esa kapitan unvonidagi zobitlardan tayinlangan. Volost boshqaruvchilari, yuzboshi-oqsoqollar, ellikboshilar va o'nboshilar esa saylov asosida mahalliy aholi vakillaridan saylangan.

Turkiston general-gubernatorligi tashkil topgan 1867-yili Turkiston harbiy okrugi ham yuzaga keldi. Turkiston general-gubernatori bir vaqtning o'zida Turkiston harbiy okrug bosh qo'mondoni ham bo'lgan. Viloyatlarning harbiy gubernatorlari va uyezd boshliqlari ham o'z ixtiyorlaridagi harbiy qismlarning qo'mondonlari bo'lishgan.

Turkiston general-gubernatori o'z qo'lida harbiy va fuqaro hokimiyatini birlashtirgan. Bir vaqtning o'zida u podsho noibi, harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni, Yettisuv kazak qo'shinlari qo'mondoni, bosh mirshab, bosh prokuror vazifalarini ham o'tagan. Unga Buxoro amiri va Xiva xoni ham bo'ysungan. General-gubernator amir faoliyatini **Rossiya Imperator siyosiy agentligi** orqali (1885-1917), Xiva xonini esa **Amudaryo bo'limi** (1873-1918) boshlig'i orqali nazorat qilgan.

Yangi hududlar bosib olingani sayin Sirdaryo viloyatida yangi-yangi ma'muriy-hududiy birliklar, ya'ni 1868-yilda markazi Samarqand shahrida bo'lgan **Zarafshon okrugi**, 1873-yilda markazi Petro-Aleksandrovsk (hozirgi To'rtko'l)da bo'lgan **Amudaryo bo'limi**, 1876-yilda Qo'qon xonligi tugatilishi munosabati bilan markazi Yangi Marg'ilon (hozirgi Farg'ona shahri)da bo'lgan **Farg'ona viloyati** tashkil etildi.

1882-1884 yillarda Turkiston o'lkasidagi boshqaruvni atroflicha taftish qilgan Markaz vakili — imperatorning maxfiy maslahatchisi general-gubernator F.Girs Rossiyadagi gubernatorlardan farqli o'laroq, Turkistonda mustabid hokim — yarim podsho bo'lgani, imperiya qonunchiligiga mutlaq rioya qilmay, o'zicha qonunlar chiqargani va o'zboshimcha hukmdor bo'lganini e'tirof qilgan edi.

Fon Kaufmanning tashabbusi bilan tuzilgan **general-gubernatorlik Kengashi** ham butun imperiyada o'xshashi yo'q tashkilot edi. 1886-yilda imperator **Aleksandr III** (1881-1894) tasdiqlagan «**Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom**» bo'yicha Kengash Rossiyadagi gubernator

muassasasi sifatida belgilagan bo'lsa ham, aslida u katta vakolatga, hal qiluvchi kuchga ega tashkilot edi. Harbiy gubernator, sud palatasi raisi, prokuror, okrug shtabi boshlig'i, general-gubernator yordamchisi a'zolaridan iborat bo'lgan general-gubernatorlik Kengashi o'lka boshqaruvining eng dolzarb masalalarini hal qilgan. markaziy boshqaruvda general-gubernator mahkamasining ham ahamiyati beqiyos darajada ulkan edi.

Bosh boshqarmaning ijroiya organi bo'lgan **general-gubernator mahkamasi** dastlab to'rt bo'limdan iborat edi.

Birinchi bo'lim, ma'muriy va nazorat ishlarini boshqargan.

Ikkinchisi bosh boshqarmaning moliyaviy-xo'jalik ishlariga qaragan.

Uchinchi bo'lim soliqlar, shahar mablag'lari hamda boshqaruvga doir nizomlar loyihasini tayyorlash bilan shug'ullangan.

To'rtinchi bo'lim esa maxsus bo'lim bo'lib, uning faoliyati doirasi g'oyat keng va serqirra bo'lgan. 1886-yilgacha mustaqil ish ko'rgan bu bo'lim harbiy va adliya vazirlari ko'rsatmalariga xilof ravishda sud qarorlarini ham qayta ko'rish bilan shug'ullangan.

General-gubernatorning Rossiya imperatoriga tobe Buxoro amiri va Xiva hamda Afg'oniston va Qoshg'ar bilan munosabatini mahkamaning diplomatiya idorasi 1899-yilga qadar boshqargan. 1899-yildan boshlab, bu vazifani bajarish uchun general-gubernator huzurida diplomatik ishlar bo'yicha amaldorlik lavozimi joriy qilindi. Mahkama ixtiyoriga Turkiston ommaviy kutubxonasi, Toshkent muzeyi, markaziy arxiv, «Turkestanskije vedomosti» gazetasi va bosmaxona ham berilgan edi.

Ingliz imperialistlari bilan imzolangan shartnomaga ko'ra 1869-1872-yillarda **Panj daryosi** bo'ylab mahalliy xalqni ikkiga ajratib tashlab, sun'iy chegara o'rnatildi. 1881-yilda Skobelov Turkmanistonni bosib olishi natijasida Eron bilan hozirgi chegaralar belgilandi. Xuddi shu-yili Turkistonning Ili o'lkasidagi qo'zg'olon chor qo'shinlari tomonidan bostirilgandan so'ng Rossiya va Xitoy imperatori hozirgi (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Xitoy o'rtasidagi) chegaralarni belgilab, shartnoma imzoladilar.

Turkiston general-gubernatorligi 90-yillarga kelib besh viloyatga bo'lindi. **Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlarini** rus armiyasi generallaridan shaxsan imperatorning o'zi tayinlagan harbiy gubernatorlar boshqarardi. Barcha ma'muriy, politsiya va sud hokimiyati ham ular qo'lida

jamlangan. Viloyatlar o‘z navbatida **uyezdlarga** bo‘linib, ularni uyezd boshliqlari idora etishgan.

Sirdaryo viloyati quyidagi uyezdlarga bo‘lingan: Toshkent, Avliyoota, Kazalinsk, Perovsk, Chimkent, Amudaryo bo‘limi ham uezdlarga bo‘lingan. Farg‘ona viloyatiga Marg‘ilon, Andijon, Qo‘qon, Namangan, O‘sh uezdlari qaragan. Samarqandga Jizzax, Xo‘jand, Samarqand uyezdlari, Yettisuvga esa Verniy, Jarkent, Kopal, Lepsin, Pishpak, Prjevalsk uezdlari, Kaspiyorti viloyatiga Ashxobod, Krasnovodsk, Mang‘ishloq, Marv va Tajan uyezdlari kirgan.

Uyezd boshlig‘i Rossiya imperiyasidagi spravnik, zemstvo boshlig‘i, polismeyster, shahar boshqarmasi boshlig‘i huquqlariga teng vazifalarni o‘z qiyofasida mujassam etgan. Uyezd boshlig‘i viloyat harbiy gubernatori tavsiyasi bilan bevosita general-gubernator tomonidan lavozimga tayinlangan. Senator **graf K.Palen** Turkistondagi uyezd boshliqlarini o‘zbek xonliklaridagi «beklarning xuddi o‘zginasidir» deb atagani bejiz emas. Ular qo‘l ostidagi aholidan istagan kishiga jarima solishlari va 7 kungacha qamab qo‘yishlari mumkin edi. Ular rus armiyasi katta zobitlaridan, asosan mayor, rotmistrdan polkovnik unvonigacha ega bo‘lganlardan tayinlangan. Xalq ularni «**hokim to‘ra**» deb atagan. Uyezdlar bir necha uchastkalarga bo‘linib idora qilingan. Uchastkalarni kichik unvondagi (poruchik, shtabs-kapitan) harbiy zobitlar boshqargan. Ular uchastka pristavlari sifatida «Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom»da tilga olinadi. Imperator tomonidan 1886-yilda tasdiqlagan bu «Nizom»da uchastka pristavlariga mahalliy aholidan istalgan odamga jarima solish (5 so‘mdan 10 so‘mgacha) va 3 kungacha hibsdan saqlab turish huquqi berilgan edi.

Turkiston shaharlarida **polismeyster** lavozimi joriy etilib, huquq jihatdan tumanboshilar bilan teng edi. Toshkentda Yangi va Eski shahar polismeysterlari ish olib borishardi. Ularga politsiya pristavlari bo‘ysungan. **Mahalliy ma‘muriyat** — volost boshqaruvchilari va oqsoqollar ham quyi politsiya zobitlari vakolatlariga ega bo‘lib, ularga yollangan mirshablar xizmat qilgan.

Mustamlakachilik ma‘muriyatining muhim huquqiy bo‘g‘ini sud organlari hisoblangan. Sudlar ikki xil ko‘rinishga ega bo‘lib, sudlar va xalq sudlaridan

tashkil topgan. Ularning birinchisi mustamlakachilik shaklida bo'lsa, xalq sudlari shariat asosida ish yurituvchi qozilik idorasi edi. Sudlar hududiy bo'linishiga ko'ra tuman sudlari, sud palatasi huquqidagi viloyatlar boshqarmalari, mirovoy sudlar qurultoylari, harbiy sud komissiyalaridan iborat bo'lgan. Tuman (uyezd) sudyalari tomonidan mulkdan mahrum etishga daxldor bo'lmagan jinoiy ishlar, davlat xazinasiga oid bo'lmagan, 2000 so'mgacha bo'lgan miqdordagi da'volar ko'rib chiqilgan. Viloyatlar boshqarmalari esa tuman sudlari hukmidan norozi bo'lib yozilgan shikoyatlarni qaytadan ko'rib chiqqan. Davlat vazifalarini bajarish jarayonida ro'y beradigan jinoyatlar, hokimiyatga qarshi siyosiy jinoyatchilik, qaroqchilik, davlat mulkini o'g'irlash yoki talon-taroj etish, soxta pul yasovchilar ishlarini ko'rish ham viloyatlar boshqarmalari sud organlari zimmasiga yuklangan.

Toshkent, Marg'ilon, Samarqand va O'sh kabi shaharlarda faoliyat olib borgan harbiy sudlar muhim va og'ir deb hisoblangan jinoiy harakatlarni ko'rib chiqardi. Harbiy sud komissiyalari esa harbiy jinoyat nizomiga asoslanib davlatga xiyonat, hokimiyatga qarshi siyosiy faoliyat, pochta, telegrafga xujum, mansabdor shaxslarga suiqasd qilish, o'zga dindagi fuqarolarning nasroniylikka o'tgani uchun ularni o'ldirishga oid ishlar, rus millatiga mansub kishilar jinoyatlarini ko'rish bilan shug'ullangan.

1886-yildagi «Nizom» ga ko'ra mavjud sud tartiblari saqlangan holda unga ayrim o'zgarishlar kiritildi. Tuman sudlari bekor qilindi. O'lkada viloyat sudlari tashkil qilindi. Viloyat prokurorini va uning muovini, sud tergovchisi lavozimlari joriy qilindi. Imperiya sudining o'ziga xos xususiyati shundan iborat bo'lganki, unda mustamlakachilik tuzumiga qarshi maqsadlarda sodir etilgan jinoyatlar ko'rilgan. Uning asosiy vazifasi mahalliy xalq orasidan chiqqan vatanparvarlarning davlat hokimiyatini zaiflashtirish yoki unga xalqni otlantirish maqsadida harakat qilgan siyosiy jinoyatchilik ishlari ustidan hukm chiqarish edi.

Rossiya shu yo'sinda musulmon mamlakatlari uchun an'anaviy bo'lmish **musulmon huquqi — fiqh, oila huquqi — odat** va **xususiy huquq — shariat** asosida sud qilgan qozilar sudining qonuniyligini tan oldi.

Toshkent — Turkiston general-gubernatorligi markazi edi. 1865-yilda shahar bosib olingach, general-mayor Romanovski, zobitlar va amaldorlar uning sharqiy qismidan joy tanlashdi. Toshkent shahri boshqaruvi masalasiga XIX asrning 70-yillarida katta e'tibor berildi. «Shahar Nizomini qo'llash» bo'yicha 1872-yilda Sirdaryo viloyat boshqarmasi umumiy rayosati bu masalani ko'rib chiqdi. Sankt-Peterburg oliy mahkamasi 5-yildan so'ng uni kuchga kiritishga ruhsat berdi. Toshkent shahar Dumasining oqsoqoli vazifasini 1877-yildan 1907-yilgacha shahar boshlig'i — hokim To'raning o'zi bajardi. 1877-yildan boshlab Turkiston general-gubernatorligi hududidagi faqatgina ikkita shaharda shahar Nizomi qo'llanildi. Bular Toshkent va **Verniy** (Olmaota) shaharlari edi.

Shahar aholisi hunarmandchilik, savdo, qisman dehqonchilik bilan shug'ullangan. Oxunguzar, Parchabob va Janggoh mahallalarining aholisi savdo va hunarmandchilik bilan mashg'ul bo'lishgan. Taxtapul, Sebzor, Labzak, Chuvalachi, Qorasaroy aholisi asosan dehqonchilik bilan shug'ullangan. Shayghontoxur dahasida miskarlar, egarchilar, tikuvchilar, juvozkashlar yashagan. Sebzor dahasida bo'yoqchilar, tikuvchilar, etikdo'zlar, Beshyog'och dahasida esa g'isht quyuvchilar istiqomat qilishgan.

Ma'lumotlarga qaraganda, 1870-yilda Toshkentda 80 mingga yaqin aholi yashagan. Ulardan 7 mingga yaqin kishi dehqon, 6 ming kishi hunarmand, 4 ming kishi savdogar, 4 ming kishi mardikor bo'lgan. Shahar Chirchiq daryosidan boshlanadigan Bo'zsuv kanali tizimiga kiruvchi Qorasuv, Yalang'och, Qichqiriq, Darvozakent, Salor, Anhor va Kaykovus ariqlari kabi 9 ta shaxobcha orqali sug'orilgan.

Rossiya imperiyasining Turkistondagi agrar siyosatidan ko'zlangan bosh maqsad va asosiy yo'nalishlarni Davlat mulklari va zirotchilik vaziri A. V.**Krivoshein** shunday ifodalagan: «Bu markaziy masalada uch lavha mavjud. Agar birinchisida yarqmrab turgan yozuv «Paxta» bo'lsa, ikkinchisida «Sug'orish» va nihoyat uchunchisida soyalanib turgan bo'lsa ham aslida hammasidan muhimi «ruslarni keltirib o'rnashtirish» yozuvi turibdi.

Turkiston general-gubernatorligining umumiy yer maydoni 1,7 mln kv.km bo'lib, bu Fransiya va Germaniya hududini birga qo'shib hisoblaganda ikki barobar ko'p, ayni mahalda aholi esa jami 5,2 mln kishini tashkil etar edi. O'zbeklar va boshqa tub millatlar 1897-yilda 5 mln.ni, 1911-yilda qariyb 6 mln.ni tashkil etgan.

1886-yilgi Nizom ruslarni ko'chirib keltirish yo'li bilan o'lkani ruslashtirish harakatini qonunan mustahkamlab, unga siyosiy tus berdi. Ko'chib keluvchilarga 10 tanobdan kam bo'lmagan yer ajratish belgilandi. Turkistonga kelib o'rnashish va yer-mulkka ega bo'lish huquqi faqat nasroniy dinining pravoslav mas'habidagilargagina berildi. 1886-yilgi qonunga ko'ra o'lkaga ko'chib keluvchilarni tanlash va joylashtirish tartiblari belgilandi. «Besh davlat yerlari»ga birinchi navbatda xizmatdan bo'shagan zaxiradagi zobit, quyi unvondagi harbiy xizmatchilar joylashtirilishi alohida ko'rsatildi. Uzoqni ko'zlagan maqsaddan kelib chiqqan holda, Rossiya yer-suv munosabatlarida quyidagi siyosatni o'tkazdi:

1. Turkistondagi barcha yerlar davlat xazinasiga tegishli, deb e'lon qilindi. O'troq mahalliy aholiga yer merosiy yakka-jamoa ekanligi tariqasida, ko'chmanchi aholiga esa azaliy dehqonchilik odatlariga rioya etilgan holdi muddati cheklanmagan tarzda jamoa bo'lib foydalanish uchun topshirildi.

2. O'troq (aholi yashaydigan) joylarda yer undan amalda foydalanayotganlarga biriktirildi.

3. Ko'p hollarda vaqflar avvalgi tarzida qoldirildi, ammo ayrim hollarda vaqf ixtiyoriga olish ham mumkinligi belgilandi, yerlarini davlat keyinroq ushbu mulk tugatib yuborildi.

4. Sobiq imtiyozli shaxsiy mulk yerlariga boshqalar qatori soliq solindi. Ular endi xususiy mulk emas, balki davlat yerlari deb ataldi va ular dehqonlarga merosiy ravishda egalik qilish va foydalanishga topshirilgani ma'lum qilindi.

5. Shahar tashqarisida maxsus ko'chiruv fondlaridan tashqari rus aholisiga yer ajratish taqiqlandi.

6. Yevropaliklar, xususan ruslar tomonidan mahalliy aholi yerlarini sotib olish mutlaq man etildi. Bu taqiq 90-yillar oxiriga qadar o'z kuchini saqlagan.

Chorizm mustamlakachilari qishloqlarni boshqarishda 1867-yilgi Turkiston general-gubernatorligi viloyatlarini boshqarish haqidagi «**Vaqtli Nizom loyihasi**» deb atalgan qonunlar majmuasiga amal qildilar. Bu boshqaruv usuli Oʻrta Osiyo xalqlarining tarixiy rivojlanish xususiyatlariga tamomila zid edi. Ular Rossiyadagi ruscha idora usuli koʻrinishi boʻlib, imperiya manfaatlariga boʻysundirilgan edi. «Vaqtli Nizom layihasi»ga muvofiq koʻchmanchi aholiga ikki bosqichli (Volosti va ovullar) oʻtroq aholiga esa bir bosqichi (oqsoqollar idora qiladigan) boshqaruv joriy etildi. Volosti asosining ming xonadonidan ikki ming xonadonigacha ovul jamoalarini esa yuz oʻtovdan ikki yuz oʻtovga qadar aholi tashkil etgan.

Volost boshqaruvchisi — mingboshi, qishloq, ovul oqsaqoli, aholi tomonidan uch yil muddatga saylanib, nomzodlar rus mustamlakachilik maʼmuriyati tasdigʻidan oʻtgandan keyin oʻz faoliyatini boshlardi.

1886-yilgi «Nizom» aholini «qirgʻizlar va sartlar» sifatida emas, balki «oʻtroq va koʻchmanchi» degan ifoda bilan ajratdi.

Rossiya imperiyasi generallari ham, siyosatchilari ham shuni yaxshi bilar edilarki, faqat harbiy kuch, markaziy boshqaruv apparatini joriy qilish bilan oʻlkani uzoq muddatva ishonchli holda qoʻlda ushlab boʻlmaydi. Oʻlkaning doimiy xoʻjasi boʻlish uchun ularga rus millatiga mansub aholini mahalliy xalq orasiga aralashtirib yubordi. Rossiya imperiyasi koʻchirish boʻyicha uch yarim asrlik tajribaga ega edi. U Boltiq boʻyi xalqlarini va Qozon, Sibir, Qirim, Astiraxan xonliklarini bosib olib, koʻchirishning har bir shakl va uslublarini mukammal egallab olgan edi.

Istilo qilingan hududlarga rus aholisini koʻchirish tashkilotchilarining tashabbuskori fon Kaufman edi. U 1875-yilda **Avliyo ota** tumanida dastlabki rus qishlogʻini barpo etdi. Uning hukumronligi davrida 8 ta rus qishlogʻi vujudga keldi. 1886-yilgi «Nizom» rus aholisini koʻchirib keltirish yoʻli bilan oʻlkani ruslashtirish harakatini qonuniy mustahkamlab, unga siyosiy tus berdi. Koʻchib keluvchilarga 10 desyatınadan kam boʻlmagan yer ajratish belgilandi. Turkistonga kelib oʻrnashish va yer-mulkka ega boʻlish huquqi faqat nasroniy dinining pravoslav mazhabidagilargagina berildi.

15 yil davomida, ya'ni 1875—1890 yillar ichida Turkistonda 1300 ta oila joylashib 19 ta rus qishlog'ini tashkil qildi. 1891—1892 yillarda Rossida ocharchilik boshlanganda Turkistonga ko'chib keluvchilar soni nihoyatda ko'payib ketdi ana shu ikki yil davomida 25 ta rus qishlog'i paydo bo'lib, rus dehqonlarining soni ikki barobar ko'paydmi. Mahalliy aholi birlan rus dehqonlari o'rtasida yer-suv masalasida, sug'orish inshootlarida foydalanish bobida o'zaro to'qnashuvlar kuchaydi. Mustamlaka o'lkalarga ruslarni yuborish masalasi bilan shug'ullanuvchi maxsus idora — «Ko'chirib keltirish boshqarmasi» tashkil qilindi.

1888-yilda podsho generallaridan biri O'rta Osiyoga ko'chirib keltirilgan rus kazaklarining to'ng'iz va boshqa yovvoyi hayvonlar payhon qilib ketmoqda qabilida bahona qilib, o'lkada rus qishloq dehqonlarini qurollantirish kerak, degan masalasini qo'ydi. Bir-birini tushunadigan mustamlakachi hokimiyat vakillari masalaning mohiyatini darrov anglab oldilar. Shu tariqa Turkistonda dehqonchilik qiluvchi rus kazaklari dehqonlarini qurollantirishga kirishildi. Aslida esa mahalliy xalq milliy ozodlik harakatini boshlab yuborgudek bo'lsa, qurollangan dehqon kazaklari chorizm jazo kuchlarining eng ishonchli ittifoqchi, jangovor qismi bo'lib qolishi kerak edi. Hokimiyatdan qurol olgan rus dehqon kazaklarining o'z qurolini mahalliy xalqlarga sotish qattiq taqiqlandi.

12.2-§. Podsho Rossiyasining o'lkada yer egaligi to'g'risidagi siyosati.

1873-yilda general fon Kaufman rus podshosiga Turkistonda yerga egalik tuzilishini o'zgartirish loyihasini taqdim etadi. Loyihaga ko'ra amlok yerlar uni ishlatib turgan odamlar tasarrufiga o'tishi lozim edi. Bu qoidani vaqf yerlariga ham joriy qilish to'g'risidagi loyiha taklifi esa rad etiladi.

Ammo fon Kaufman o'z so'zida qat'iy turib oladi. U mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, yer masalasiga doir bir qancha tadbirlarni amalga oshiradi. Jumladan, yer haqiqatda kimning qo'lida ekanligini e'tiborga olish to'g'risida farmoyish beradi. Shunga muvofiq juda ko'p yerlar davlat hisobiga o'tkaziladi. Ayni chog'da mulkiy yerlarga va hatto vaqf yerlariga ham soliq joriy etiladi. 1886-yilda Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi yangi Nizomga muvofiq yer munosabatlariga doir bir qancha tadbirlar amalga oshiriladi. Bundan kuzatilgan

asosiy maqsad mahalliy boy-zodagonlarni zaiflashtirish va mustamlakachilar hokimiyatini kuchaytirish edi.

Chor ma'murlari Turkiston oikasida olib borgan mustamlakachilik siyosatlarida o'z oldilariga bosh maqsad qilib ruslashtirish siyosatini qo'ydilar. Bu boradagi eng muhim va boshlang'ich qadam Rossiya hududlaridagi xalqlarni Turkiston yerlariga 1 ko'chirishdan iborat bo'ladi. Chorizmning ko'chirish siyosatining mohiyati shundan iborat ediki ko'chirma xo'jaliklar uchun yer fondi mahalliy xalqning yerga bo'lgan huquqlarini o'taketgan darajada buzish yo'li bilan tuzilgan Rossiyadan dehqonlarni u yerga ko'chirish esa, chekka o'lkalarni ruslashtirish maqsadini ko'zlab millatchilik tamoyili asosida amalga oshirilgan.

1869-yildayoq Yettisuvdagi dehqonlar manzilgohlari to'g'risidagi qoidalar ishlab chiqilgan bo'lib, bu qoidalar ruslarning turkistonlilar yurtiga ko'plab ko'chib kelishlari uchun qulay sharoitlar yaratib berardi. 1868-1882-yillarda Yettisuvda har birida 250 aholi bo'lgan 29 rus qishlog'i tuziladi. Shu davrda Sirdaryo viloyatida bunday qishloqlar 19 ta bo'lib 1300 aholini o'z qamroviga olardi. Xususan 1891-yildagi Rusiyada ro'y bergan ochlikdan so'ng O'rta Osiyoga bamisoli vabodek yopirilib ke-layotgan rus oilalari oqimi kuchaydi. 1906-yilda oikaning besh viloyatida 451 ming tanob yerga ega bo'lgan 136 rus posyolkalari paydo bo'ladi. Har bir xo'jalikning tomorqasi 34,5 tanobdan iborat edi. Turkistondagi eng yaxshi yerlarga egalik qilgan bunday rus xonadonlari 1916-yilga kelganda 2.659 ming desyatina yerni o'ziniki qilib olgan 336 ming oiladan iborat edi. Bu o'lka umumiy aholisining 4,5 foizini tashkil etardi. Bundan tashqari 14 million desyatina yer bevosita davlat xazinasini xiyoriga olinadi. 190 ming desyatina yerni esa rus plantatorlari va pomeschchiklari o'zlariniki qilib oldilar. Yeng katta yer egasi bo'lgan podsho Nikolay II ning birgina Murg'ob vohasidagi yerlari 104 desyatina teng edi. 1886-yilda chor hukumati yer islohoti o'tkazadi. Mustamlakachilik harakteridagi bu yer islohoti natijasida barcha serunum va sug'oriladigan yerlar boylar va zamindorlar qo'lga o'tib ketadi, kambag'al dehqon xo'jaliklari yanada qashshoqlashdi va xonavayron bo'ladi. 1889-1893-yillarda

bunday xonavayron bo'lgan dehqonlar o'z bisotlaridagi 15.588 desyatina yerni sotib yuboradilar.

AQShdan paxta olishdan deyarli mahrum bo'lgan Rossiya hukumati bu qimmatli xomashyoga nisbatan o'sib borayotgan ehtiyojini asoratga solingan Turkiston hisobidan qondirishga asosiy diqqat-e'tiborini qaratadi. 1869-yili «Rus sanoati va savdosi o'sishiga yordam berish jamiyati» kengashida I.N.Raevskiy «Rossiya va unga qo'shni sharq mamlakatlarida paxtachilikni rivojlantirish» mavzuyida ma'ruza qiladi. Ma'ruzachi Rossiyaga O'rta Osiyo va boshqa paxtakor joylardan xom ashyo keltirilishi har jihatdan foydali va qulayligini isbotlab beradi. Uning ta'kidlashicha, Rossiyaga jami 3 088 285 pud (42 710 136 so'mlik) paxta keltirilgan bo'lib, shundan 639192 pud (5972491 so'mlik) paxta sharq o'lkalaridan olib kelingan ekan. Bu Rossiyaga keltirilgan paxtaning 21 foizini tashkil etgan. Albatta ko'p miqdordagi paxtani xarid qilish uchun millionlab so'm mablag' sarflangan. Rossiyada savdo floti bo'lmaganidan paxta Yevropa mamlakatlari floti va temiryo'llarida olib kelingan, natijada ulovidan tushovi qimmatga tushgan.

Turkistondagi paxtaga bo'lgan yuqori talab o'rta Osiyo iqtisodiyotida tub o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Paxta Turkiston dehqonlarining asosiy mahsulotiga aylandi. Sug'oriladigan yerlarda paxta ekishning ko'payishi dehqonlar ahvolining yomonlashuviga olib keldi. Donli ekinlar va sabzavot ekish uchun ajratiladigan yer maydoni kamayib bordi. Masalan, Farg'ona vodiysida sug'oriladigan yerlarning 50 foizi paxta bilan band qilindi. Qishloq aholisi qatlamlarga ajrala boshladi. Bir tomondan yersiz dehqonlar, ya'ni qishloq yollanma ishchilar soni o'sib bordi, ikkinchi tomondan esa sudxo'rlarning tor qatlami, "Besh-bosh" shirkati yoki Vadyayevlar uyi bilan hamkorlik qilgan savdogar yer egalari soni oshib bordi.

Mardikorlik Farg'ona vodiysida keng rivojlandi. Mardikorlar bir kunga o'z ketmoni bilan kuniga 10 soatdan ishlaydigan yollanma kunbaychilar, asosan yersiz dehqonlar edi. Ularga ish haqi kelishuv asosida to'lanardi. Yollanishning boshqa shakli chorakorlik bo'lib, u bilan ham yersiz dehqonlar shug'ullanishardi.

Chorikor, odatda, oilasini o'z yurtida qoldirib, yirik yer egalaridan ijaraga yer olib ishlash uchun 7—8 oyga ketardi. Yer egasi ekish uchun unga urug'lik

berardi, mardikor yollardi, mehnat qurollari, yashash uchun joy, oshxona anjomlari bilan ta'minlar edi. Chorikor esa chigit ekishdan boshlab hosil yig'ib-terib olinguncha dalada ishlardi. 1916-yilga kelib, qishloq aholisining 80 foizini mardikorlar va chorakorlar tashkil qilgandi.

Yerga egalikni saqlab qolgan boshqa dehqon xo'jaliklarining ham ahvoli og'ir edi. Ular kreditga pul va urug'lik olib, qaytara olmas, shuning uchun yanada og'irroq shartlar asosida yangi qarz olishga majbur bo'lishardi. Qarz-yildan-yilga o'tib, foizlar ortib borar, ko'pincha bu ish yerni tortib olish yoki sotish bilan tugardi. Dehqonlar mardikor yoki chorakorga aylanib borishardi. Birinchi jahon urushi davriga kelib, Turkiston dehqonlari to'liq xonavayron bo'lish yoqasiga kelib qolishgandi. Dehqonlarning 50 foizi qarz domiga tushib qolgan, har-yili xonavayron bo'lgan 500 ta dehqonning yeri arzimagan pulga sotilardi.

O'rta Osiyoda paxtachilikni rivojlantirish Rossiya uchun katta foyda ekanini I.N.Raevskiy alohida uqtirib o'tadi. U mahalliy g'o'za navlarining nuqsonlarini gapirib, uni Amerika) navlari bilan almashtirishni tavsiya qiladi.

1871-yili I.V.Raevskiyning shaxsan o'zi Toshkentga kelib Amerika paxtasini iqlimlashtirish borasida katta ishlarni amalga oshiradi. Samarqandda Amerika paxtasi navini ekadi.

XIX asrning 80-yillariga kelib, Amerika paxtasi urug'lari orasida «Upland» navi mahalliy sharoitda sifatli va ko'p hosilli bo'lib chiqdi. To'qimachilik sanoati talablariga har jihatdan mos tushadi. Vaqt o'tishi bilan dehqonlar Amerika paxtasi navi ekilgan maydonlarni oshira borganlar. 1884-yili xorijiy navlar 300 desyatina yerga ekilgan bo'lsa, 1890-yilga kelib 58859 desyatini tashkil etgan.

Paxtachilik rivoji chor hokimiyati xazinasini boyita bordi. Hatto adolasizlik haqida o'lkada rus tilida chiqadigan «Ukraina» ro'znomasining 1896-yilgi sonlaridan birida shunday yozilgan edi: «Rus sanoati ehtiyojini qondirish maqsadida paxtachilik rivojlanishidan sanoat egalaridan o'zga hech kim foyda ko'rmadi. Paxta arzon bahoda olinib, Rossiyaga yuborildi. Shu paxtadan ishlangan tayyor mahsulotlarni u yoqdan o'lkaga keltirib sotishadi va katta foyda ko'rishadi.

Mavjud paxta maydonlarini qisqartirib me'yorida ekish haqida jo'shib gapiriladi-yu, lekin uni ekishaveradi».

Chor hukumati yerning izdan chiqishiga qaramay, paxtachilikni kuchaytirishni o'z vakillaridan talab qilaverdi. Bu xususda Rossiya dehqonchilik noziri Krivoshein shunday degan edi: «Turkistonning har bir pud g'allasi Rossiyaga, rus va Sibir g'allasiga raqobatdir, ortiqcha har bir pud Turkiston paxtasi esa Amerika paxtasiga raqobatdir. Shuning uchun o'lkaga qimmatga tushsa ham g'alla keltirib berish lozimdir». Paxta yakkahokimligini o'rnatish haqidagi bunday g'oyani Turkiston general-gubernatori qo'llab-quvvatlab, bu tadbir hukumatgayiliga 70 million oltin rublni tejashga imkoniyat yaratishini uqtiradi. Uning fikriga ko'ra «ko'p millionli vatan paxta tolasini qayta ishlash sanoatini xonavayron bo'lishdan saqlovchi kafolat rolini o'ynashi mana shu Turkistonning Rossiyaga ko'rsatadigan buyuk iqtisodiy xizmatidir».

Bundan chiqqan ma'no shuki, agar Turkiston diyoriga g'alla ko'p ekilsa, Rossiyadan keltirilayotgan g'allaga nisbatan talab kamayib, ziyon ko'riladi. Demak qancha ko'p paxta ekilsa, Rossiya g'allasiga ehtiyoj shuncha oshib boraveradi. O'z navbatida bu Rossiyaning ulo6dan tusho6 qimmatga tushayotgan Amerika paxtasiga bog'liq muammolarni ham bartaraf etardi. Nozir-ning fikricha, paxtachilik rivojlanaversa, ikki tarafga foydadir. Turkiston aholisining ahvoli nima kechsa kechsinu, lekin Rossiya manfaatlari to'la saqlansin — bu chor ma'murlari yuritgan yakka-yu yagona siyosatdir. Chor Rossiyasi Turkiston xalqlariga taraqqiyot, baxt-saodat va istiqbol olib keladi, deb o'zimizni o'zimiz nodonlarcha aldamaylik.

Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olgandan keyin, bu o'lkada o'z manfaatlarini to'liq yuzaga chiqarish uchun birinchi galda Turkistonda mustamlaka boshqaruvi tizimini yaratishga kirishdi. Turkiston viloyatlar, okruglar, uyezd va volostlar (bo'lis)ga taqsimlandi. Bir so'z bilan aytganda, Rossiya imperiyasi Turkistonga tarixan begona ma'muriy tizimni kiritdi. An'anaviy boshqaruv tizimiga oid ba'zi elementlarni nomiga saqlab qolib, go'yo mahalliy xalq bilan

hisoblashgandek ko‘ringani bilan aslida butun siyosat eng avvalo imperiya, metropoliya manfaatlarini ta‘minlashga qaratildi.

1865-1886 yillar orasida agrar sohada olib borilgan ishlar 1886-yilda bu sohani boshqaruvini tashkil etishda asos bo‘ldi va umumlashtirildi. Buning natijasi 1886-yilda Rossiya hukumati Turkistonni boshqarish to‘grisida Nizomda o‘z aksini topdi. Nizomning qator bandlari agrar masalaga bag‘ishlandi.

Mazkur masalani tatbiq va tahlil etishga doir qimmatli ma‘lumotlar O‘zbekiston Davlat Markaziy arxivi fondlarida saqlanib qolgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi ilmiy iste‘molga kiritilmagan. Mazkur materiallar tahlilidan ma‘lum bo‘lishicha «Gulistonda olib borilgan agrar siyosat bugungi kunda qayta dan, yangicha yondashuv va xolisona ko‘rib chiqilishi kerak. Zero, mustaqillikka qadar Turkistonda Rossiya mustamlakachiligi davri tarxini o‘rganish masalasiga bo‘lgan uslubiy va g‘oyaviy yondashuvlar xolisona bo‘lmagan, aksincha bir yoqlama bo‘lgan. Chunonchi Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida yaratilgan tadqiqotlarda o‘lkaning iqtisodiy salohiyatini tobora chuqur o‘rganish etakchi maqsad bo‘lsa, sovetlar davrida mustamlakachilik davrining asl mohiyatini xaspo‘shlash, uning madaniyat va taraqqiyot gashuvchi omil sifatida ko‘rsatishga alohida urgu berildi. Shu munosabat bilan Turkistondagi agrar siyosat mohiyatini Turkiston o‘lkasini boshqaru6 haqidagi Nizomning 1886-1900 yillar orasidagi amaliy bosqichini yoritish lozim topildi.

Shu o‘rinda Nizomning 255, 257, 258, 259, 275, 277 bandlari va ularning joriy o‘zgarishlar tahlili alohida ahamiyatga ega.

Masalan, Nizomning 255 bandiga ko‘ra, 1886-yilda o‘troq qishloq aholisining doimiy, vorislik asosidagi hamda mahalliy an‘analarga ko‘ra amlok yerlari sifatida foydalaniladigan mulklari o‘z egalari xtiyorida qoldirilgan. Lekin shu bandga kiritilgan «Izoh»da «Turkiston o‘lkasida yer mulk soliq qoidalarini joriy qilishi to‘g‘risidagi hujjatga ishorat qilinganki, bu hol Turkiston mustamlaka ma‘muriyati an‘naviy qishloq jamoalari va amloklarni ham o‘z manfaatiga qaratilgan soliq tizimiga tortgan edi. Xuddi shu band yuzasidan 1889-yil 19-iyulda 5707 raqamli axborot berilgan va unda yuqoridagi 255 bandga to‘ldirishlar

kiritilgan: Qishloqdagi o'troq aholiga mahalliy odatlarga binoan quyidagi yer turlari biriktiriladi:

- a) yer egasi qaramog'ida bo'lgan sug'oriladigan doimiy mulk,
- b) yog'in-sochin suvlaridan (bahorikorlalmi tarzda) foydalanib ekiladigan maydonlar
- v) so'nggi o'n yil davomida qishloq jamoasi, qishloq yoki yakka shaxs ixtiyorida bo'lgan haydalmaydigan (yaylov) yer mulklari.

Ushbu bandeda ko'rsatilgan yer mulklaridan mustamlaka ma'muriyati tomonidan undiriladigan soliqlar tizimi o'zgarishsiz qoldi. To'g'rirog'i, yer mulklarining turlari bo'yicha xazinaga tushadigan soliq miqdori 1886-yil Nizomidan hisobga olib ulgurilmagan mulklarni aniqlashtirish hisobiga keskin ko'payadigan bo'ldi. Nihoyat, 255-modda 1900-yilda yana qayta ko'rib chiqilib, o'zgarishsiz qoldirildi.

Nizomning 257-moddasida mahalliy aholiga tegishli o'zlashtirilmagan tabiiy o'rmonlar, butazorlar kabi umumiy foydalanuvchi yerlar egasiz maydonlar sifatida davlat tasarrufiga kiritilishi belgilangan. Bu modda ayni mustamlakachilik ruhi bilan sugorilgan edi, chunki, Turkistonda an'anaviy ravishda «egasiz» yer tushunchasi bo'lgan emas. Har qanday yer bo'lsa, ulardan o'sha yerga yaqin qishloq jamoalari an'anaviy «kelishuv» asosida foydalanib kelgan. 1889-yilgi «tuzatish»da ushbu modda chiqarib tashlangani qiziq holatdir. Aftidan, Rossiya mustamlaka ma'muriyati «egasiz» yer mulklaridan soliq undirishning aniq ifodalangan shaklini topa olmagan. Bu hol O'rta Osiyoda yer ne'matlaridan foydalanishning qadimiy usullarini tushunib etilmagan oqibati bo'lsa kerak. 1900-yilda esa 257-moddani qayta tiklab Nizomning dastlabki talabi darajasida qoldirilganki, bu o'z navbatida mustamlakachilarning Turkistonda barcha turdagi mulklarga huquqiy daxldorligini ta'kidlab qo'ymog'i lozim edi.

Shu o'rinda A.P. Savitskiy ushbu Nizom haqida yozar ekan, ayni shu 257-moddaning mohiyatini tushunmagandek qilib tashlab o'tgan. Qolaversa, A.P. Savitskiy Nizom matni bilan bevosita tanish bo'lgani tabiiy. U keltirgan ma'lumotlar Nizomga ilova qilingan yer mulkchiligi va soliq tizimi haqidagi

«Qoidalar» majmuining 3-bandidan deyarli o‘zgarishsiz ko‘chirilgani buni isbotlab turibdi.

Nizomning 258-bandida Rossiya mustamlaka davlati mulkiga aylantirilgan yerlardan mahalliy aholining yaylov sifatida foydalanishi, u yerlardan tosh, shag‘al, tuproq olishi kabi masalalar bo‘yicha ruxsat beruvchi asosiy qoida bayon etilgan.

Shu qoidaga bog‘liq ilova qismida esa ushbu qoidalarni aniq bandlar bilan ta‘minlash Turkiston General gubernatori zimmasiga yuklangan. A.P. Savitskiyning mazkur maqolasida 258-band haqida ham alohida fikr bildirilmagan. Vaholanki bu bandning ijrosi yuzasidan Turkiston General gubernatoriga berilgan vakolat 1900-yilda yuqoridagi Nizomga kiritilgan o‘zgarishlarni tasdiqlash haqidagi hujjatda butunlay mustamlakachilik mohiyati bilan o‘z aksini topgan. Hujjatda shunday deyiladi: «Turkiston General gubernatoriga davlat tarmog‘idagi yerlardan mahalliy aholining foydalanishiga ruxsat berish vakolati berilsin. Mol boqish, qum-shag‘al, tosh olish, tuproqdan foydalanish, yantoq yig‘ish singari». Yerlardai ko‘rsatilgan tarzda foydalanim! qoidalarini General gubernator Yer ishlari va davlat mulki vazirligi bilan kelishilgan holda belgilaydi.

Xuddi shu bandni izohlash uchun ushbu hujjat varag‘ining ikkinchi ustunida bunday deyiladi: «Davlat yerlaridan foydalanishning tartibini belgilashda General gubernatorning va dehqonchilik boshqarmasining xulosasi bo‘lishi kerak. Binobarin, bu xulosada ko‘rsatilgan yerlardan aho-lining foydalanishini ta‘kidlovchi holatlar ham qayd etilishi kerak» bo‘lgan. Shu o‘rinda yana hujjatdagi bir qaydni ta‘kidlaymiz. Ayni shu masala yuzasidan 1900 yil 24 mart kuni 64 raqam ostida qabul qilingan Davlat kengashi birlashgan departamentlarining qo‘shma xati qabul qilingan. Ushbu xat davlat ixtiyoriga o‘tkazilgan yerlardan foydalanishdagi jamoalar huquqlarini cheklab, tarixan mavjud qadimiy an‘analarga zarba berishga qaratilgan.

Nizomning 259-bandida yerdan foydalanishning jamoachilik tartiblarini qayta ko‘rib chiqishga urinish kuzatiladi. Xususan, unda aytilishicha, qishloq jamoalari yerlari jamoaning umumiy mulki, bir necha qishloqning o‘rtada

foydalanadigan mulki, yoki ayrim qo'rg'on xonadonning tomorqa mulki bo'lishi mumkin. 259-band orqali ulardan foydalanishda jamoa umumiy mulkini ayrim qishloqlarga tegishli qilib ajratib tashlashga urinilgan. Bundan maqsad, bizning fikrimizcha, Turkistonda aholining an'anaviy jamoachilik birligi tuyg'usini yo'qotib, asta-sekin xo'jalik darajasida, keyin esa qishloqlararo, nihoyat oilalar hamda individual darajada xudbinlik tuyg'ularini uyg'otishdan iborat bo'lgan. Rossiya mustamlakachilik tizimi mahalliy aholini nafaqat hududiy ayrib tashlash, balki ruhiy yakkalesh rejasini ham o'ylagan. Chunki Turkiston xalqlarining jamoachilik birligi xalq noroziligi vaqtlarida xavfli kuchga aylanishi mumkin ekani doimo hisobga olingan.

Nizomning agrar masalaga oid 260-bandining ishlab chiqilishi va joriy qilinishi bilan bog'liq bir masala diqqatga sazovor. Avvalo 260-bandda yer mulklari xajmlarining huquqiy chegaralarni belgilashga harakat qilingan. Ya'ni Turkistonda bu band orqali yer taqsimlashning me'yorlari, miqdor chegaralari haqidagi masalani hal qilishga dastlabki qadam qo'yilgan. Lekin bu band azaliy an'anaga ko'ra yer mulkchiligining yuqorida (255-bandda) ko'zda tutilgan vorisiylik tamoyiliga zid kelishi e'tiborga, olingan. Qolaversa, 1898 yil Kommissiyasi o'z dokladida bunday deb yozadi: 255-moddada ko'rsatilgan mulklarning hajmlarini aniqlashda 1898 yil 205-buyruqning ushbu bandini ortiqcha sifatida chiqarib tashlansin» deyilgan. Demak, «Nizom»dan 255-banddagi an'anaviy yer mulkchiligi jamoachilik tamoyillarini sitib chiqarishga qaratilgan yo'l ushbu komissiya dokladida, ham yaqqol ko'rinib turibdi.

12.3-§. 1886 yil Nizomining agrar bandlari va uning mustamlakachilik mohiyati

A.P. Savitskiy Turkistonda Rossiya mustamlaka ma'muriyatining agrar siyosatini tahlil qilar ekan, arxiv hujjatlaridan istifoda etishning o'ta rasmiy usullaridan foydalangan. Ayniqsa, bu muallif o'zi foydalangan hujjat bandlarini tahlilsiz to'g'ridan-to'g'ri kuchiradi. Ko'p hollarda Nizomdagi yer mulkchiligi haqida muhim bandlar muallifning bizga noma'lum maqsad-munosabati tufayli

qisqartirib, uzib olingan. Masalan, biz yuqorida tahlil qilgan 255, 259, 260 va boshqa bandlardan bor-yo‘g‘i bir jumladan ko‘chirib olingan xolos. Vaholanki, shu bandlarda XIX asr oxirida Turkistonda yer mulkchiligi tizimida qilingan jiddiy o‘zgarishlar, mustamlakachi metropoliyaning bu masaladagi foydasini har bir qarich yer bo‘yicha hisobga olishni amalga oshirgan. Buning ustiga, A.P. Savitskiy «Nizom»ning ushbu mavzu uchun zarur bo‘lgan bir qator bandlarini e‘tiborga ham olmagan.

Hujjatlarni o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, 1886-yil Nizomdagi agrar masalaning qo‘yilishini jiddiy ravishda qayta o‘rganish lozimdir. Birgina misol keltirib ushbu fikrimizni asoslashga xarakat qilamiz. A.P. Savitskiy yuqorida qayd etilgan. maqolasini asosan «Alohida topshiriqlar amaldori, kollej maslahatchisi Xomutovning 1890-yil 28-avgustda Turkiston General gubernatoriga yozgan axborotida tahlil qilishga qaratilgan. Xomutov axboroti Yer mulkchiligi va soliq tizimi masalalaridagi chalkashliklar, anglashilmovchiliklar va qator kamchiliklarni ochib berishi kerak edi. Ushbu hujjatni baholar ekan, A.P. Savitskiy kutilmaganda Xomutovni tanqid qila boshlaydi. Jumladan, Farg‘ona vodiysida ma‘muriy usullar bilan yer mulkchiligi toifalarini ko‘paytirish, alohida, xususiy yer mulklari huquqiy kafolatlanishiga salbiy munosabatni ifodalaydi. Bundan xulosa chiqarib yer mulklarini xususiy, tarmoqlashtirish soliq yig‘ishni yaxshilashga xizmat qilgan bo‘lar edi, deb ko‘rsatadi. Yuqorida aytganimizdek, A.P. Savitskiy Turkistonda qadimdan mavjud jamoachilik prinsiplarining buzilishi mustamlakachilik tizimining maqsadi bo‘lgani haqida kerakli, xolisona xulosa chiqara olmagan.

Xulosa qilib aytganda, 1886-yil Nizomning Turkiston mustamlaka o‘lkasida agrar masalalar bo‘yicha bandlari va ularning ijrosi hamda takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha hujjatlarning mazmun va mohiyati o‘lkaning barcha yer zahiralarini istisnosiz ravishda iqtisodiy qaram holga solish maqsadini ko‘zda tutgan.

1886-yilda qabul qilingan Qonun to‘liq ishlab chiqilguniga qadar Turkistonda mustamlaka boshqaruvi va tizimini shakllantirishga qaratilgan bir necha qonun va Nizomlar loyihalari yaratilgan.

Ishimizda biz ularning har biri haqida alohida to'xtaldik va mavzuimiz doirasida zarur ma'lumotlarni tahlil qildik. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, 1865-1886 yillar orasida yuzaga kelgan barcha loyihalar bir maqsadga, ya'ni Turkistonni Rossiya ma'muriy xo'jalik tizimiga imkoni bor qadar ko'proq va har tomonlama tobe qilishga qaratilgan edi.

Mazkur loyihalar yaratila borgani sari Rossiyaning mustamlakachilik «tajribasi» ham orta bordi. Binobarin Rossiya sarmoyadorlik ishlab chiqarish tizimiga Angliya, Fransiya kabi davlatlarga nisbatan kechroq kirib kelgani sababli mustamlakachilik masalalarida hali etarli tajribaga ega emas edi.

1886-yil Qonuniga qadar ishlab chiqilgan boshqaruv loyihalari mohiyati jihatdan bir-biriga yaqin hujjatlar edi. Ular o'rtasidagi farqlar asosan hujjatlarning tarkibiga kiruvchi ayrim qoidalarning shakliga aloqador edi, desak xato bo'lmaydi. Barcha loyihalar haqida xulosa qilib, ularning bari Turkistonda mustamlakachilik tizimini mustahkamlashga xizmat qildi, deyish mumkin. 1886-yilgi hujjat esa boshqaruv tizimini «Qonun» shaklida qaror toptirishi lozim edi.

Qabul qilinganidan keyin 1886-yil qonuni bir qator barqaror amal qildi. Lekin Turkiston o'lkasining murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyati taqozosi bilan unga turli xil o'zgarishlar va to'ldirishlar kiritib borilgani ham ma'lum. Biz ishimizda agrar sohaga oid shu kabi tuzatish va to'ldirishlarga o'rni bilan munosabat bildirib o'tganmiz.

Bevosita 1886-yil Qonuni, uning yer-suv munosabatlariga tegishli qismlari haqida fikr yuritsak, Turkistondan chor Rossiyasi kutadigan manfaatlar yaqqol ko'rinadi.

Mazkur qonunning yer-suv munosabatlari qismi 3 bobdan iborat bo'lib, «O'troq aholi yer-suv mulkchiligi», «Ko'chmanchi aholi yer-mulkchilik munosabatlari», «Turkiston harbiy okrugining quyi mansabdorlari yer-mulk munosabatlari» kabi qismlarga bo'lingan.

Hujjatning 255-bandida odat asosida meroslik, shart va kelishuv bilan yerdan foydalanish davlat amlok yerlarida ekin-tikin qilib tirikchilik qilish kabi uch yo'nalish yer mulk munosabatlarning asosi ekanligi belgilab qo'yilgan. 256-

269 bandlarda esa shu bosh qoidaning turli huquqiy holatlar bo'yicha ichki qoidalari bayon etilgan.

Masalan, 256-bandda bosh ariq, tarmoqlar, anhor, ko'llardagi suvdan o'troq aholi odatga ko'ra foydalanadi, deb ko'rsatiladi. Mahalliy aholiga qarashli yerlarda o'sadigan yovvoyi o'rmonlar (daraxtzorlar) hamda bo'shliq maydonlar davlat mulki deb qaraladi (257-band). Bu bandning ma'nosida jiddiy chalkashlikni ko'rish mumkin. Avvalo, unda o'troq aholiga tegishli, yer «haqida» gap bormoqda. Demak, yerga egalik masalan bu jumlada aniq ifodalangan. Ketma-ket shu bandning o'zi ushbu huquqqa zid ma'noda davom etadi. Ya'ni egalik yerdagi yovvoyi daraxtlar davlatniki hamda «bo'shliq yerlar» ham davlatga qarashli deyiladi. Ayni shu kabi chalkash fikrlar Qonunning amal qilishda turli suiste'mollarga, ataylab buzib talqin qilishlarga mo'ljal qilingan, deb xulosa qilish mumkin.

Shunday usul bilan «davlat mulki»ga aylantirilgan yerlardan tabiiy ravishda uning atrofida yashovchi aholi foydalanishi shart. Shunday ekan, bu masalaning turli ko'rinishlari ham qonunda e'tiborga olingan. «Mahalliy aholi davlat tasarrufidagi yerlarda chorvasini boqishi, u yerlardan qum, tosh, tuproq olishi mumkin».

Qishloq jamoalariga qarashli yerlar ikki toifaga bo'lingan. 1. Jamoa mulki; 2. Tomorqalashgan shakldagi yerlar (259-band). Bu bandda ham yerdan foydalanishning mahalliy o'ziga xos jamoachilik prinsipi chuqur tushunilmagan. Masalan, jamoa chorvasi o'tlaydigan yerlar qadimdan umumiy mulk deb qaralgan. Davlatning bu masaladagi aralashuvi esa ma'lum shakllarda chorvadan olinadigan soliq turlari bilan belgilangan. Masalan, shayboniyxonlar davrida zakot solig'i va boshqalar. O'tloq maydonlarning egaligi masalasi podsholik mulki ekani alohida ta'kidlanishi shart bo'lmagan. O'tloq maydonlarning «davlatlashtirilishi» qonunda qat'iy qoida shakliga kelgan ekan, chor Rossiyasi bunda uzoqni ko'zlab ish tutgan: ya'ni kelgusida mahalliy aholining jamoachilik talablarini to'liq inkor etish va oqibatda Turkistonda metropoliya tartiblarini chuqur va barqaror o'rnatish bosh maqsad edi.

Qonunning yer mulkchiligi bandlaridan biri mustamlaka siyosatining ehtiyotkorligini yaqqol ko'rsatadi. «Uy egalari ularga qarashli yerlarda qurgan binolar, o'zlari ekib ko'kartirgan dovdaraxt to'laligicha ularning o'zlariga tegishlidir». O'troq aholi vakillari o'rtasida yer mulklarini qo'ldan-qo'lga berish, meros qoldirish, taqsimlash kabi ishlar har bir joyga xos odatlar orqali amalga oshiriladi deb ta'kidlanadi.

Qonunning 262-bandida keltirilgan huquqiy holat diqqatga sazovor. Unda aytilishicha: 1) rus fuqaroligida bo'lmagan, 2) xristian dinida bo'lmagan odamlar yer yoki boshqa xildagi ko'chmas mulkni sotib olish huquqiga ega emas.

Shu qoidaga ilova qilingan izohda yer mulki sotib olish huquqining cheklanishidan O'rta Osiyoga qo'shni davlatlar fuqarolari mustasnodir, deyiladi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, bu ilovaning ma'nosida ham aniqlik etishmaydi. Avvalo «qo'shni davlatlar» tushunchasi nimani ifodalaydi? So'ngra, diniy mansubligi bu holda e'tiborga olinadimi? Masalan yaxudiylar, xristianlar va hokazo?

Qonunning 263-bandida yerga egalik huquqini hujjatlashtirish haqida gap boradi. Asosiy shart qilib, yeri zamonaviy planga olingan mulkdorlarga egalik guvohnomasi olishi aniq ko'rsatiladi. Guvohnomalar berish vazifasi Turkiston general-gubernatorligining viloyat boshqarmalari zimmasiga yuklatildi. Egalari merosxo'r belgilamay vafot etgan mulklar jamoa tasarrufiga o'tishi ko'zda tutilgan. Ba'zan bunday hollarda jamoa vorislik huquqini belgilab, yer egasiga tegishli shaxsga mulkni topshirishi mumkinligi qayd etilmagan. Yer egasi farzandsiz hollarda bu masala, yaqin qarindoshlar foydasiga hal qilinishi mumkin bo'lgan. Buni belgilashda «o'lik ko'mgan» deb ataluvchi odat amal qilgan. «Qonun» esa bu kabi yechimlarni ajratib ko'rsatmagan.

1886-yilgi Boshqaruv Qonunida Turkistondagi an'anaviy vaqf yer-mulk munosabatlariga ham o'rin ajratilgan. Jumladan, unda aytilishicha davlat tomonidan tan olingan vaqf mulklari qishloq jamoalari xtiyorida bo'ladi. Buning huquqiy asoslari odat, shariat qoidalariga suyangan. Bundan tashqari davlat (ya'ni Turkiston mustamlaka tizimi) tomonidan tan olingan vaqf mulki meros huquqidan

foydalansa, u holda shu huquqqa ega shajara tugagunga qadar vaqf maqomi saqlanadi.

Bu qoida amalda mutlaqo boshqacha amal qilgan. Ko'pgina hujjatlarning ko'rsatishicha, vaqf mulkchiligini tubdan tugatish bunday yerlarni davlat tasarrufiga o'tkazish mustamlakachilarning asosiy maqsadi bo'lgan. Chunki an'ana bo'yicha vaqf mulki o'zining dahlsizligi bilan alohida mavqeiga ega bo'lib kelgan. Shu sharoitda yangi vaqf mulklari tashkil qilish masalasiga ham qat'iy cheklovchi shartlar qo'yilgan. Masalan, «alohida e'tiborga loyiq zarurat bo'lgan taqdirdagina general-gubernator ruxsati bilan vaqf mulki tashkil qilish mumkin» - deb ko'rsatilgan. Lekin alohida e'tiborga loyiq zaruratning biror aniq me'yori, ta'rifi berilmagan. Demak, bu chuchmal, noaniq jumla vaqf mulki tashkil qilishga mustamlaka amaldorlari zimdan qarshi bo'lishgan. Vaqf masalasi diniy ahamiyatga ega bo'lgani uchun ehtiyot yuzasidan shunday jumla kiritilgan deb o'ylash mumkin.

Mavjud vaqf yerlarini boshqarish, ulardan foydalanishni tartibga solish, daromadlardan to'g'ri istifoda etish, vaqf mulkini taftish qilish kabi vazifalar viloyat hokimlari zimmasiga yuklangan.

Vaqf mulklari masalasini uyushtirish uchun Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida shu viloyat boshqarmalari joriy qilgan qoidalar amal qiladi deb ko'rsatilgan. Bunday ixtiyoriylik oqibatida bu viloyatlarda vaqf mulklariga nisbatan zo'ravonlik bo'lmaydi deb, hech kim kafolat bera olmas edi.

Farg'ona vodiysida esa vaqf ishlarini boshqarish uchun viloyat boshqaruvi qoshida vaqf boshqarmasi tuzilgan. Hujjatlarning qonuniyligini esa vaqtincha muddatga tuzilgan maxsus komissiya tekshirib turgan.

1886-yilgi «Boshqaruv Qonuni»ning 268-269 bandlari shahar aholisiga qarashli yer mulkchiligi masalasiga qaratilgan. Bu bandlar ham umumiy, quruq bayoni bilan ajrab turadi. Masalan «shahar ijtimoiy tuzilmalarini-tartibga soluvchi qonun-qoidalar asosida yer mulklardan foydalaniladi» kabi jumla ko'p aniqliklar talab etadi.

Xulosa qilib aytganda «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi qonun» unga qadar bir qancha loyihalarda aks etgan fikrlarning tahliliy yakuni bo'lishiga qaramay bir qator kamchiliklarga ega hujjag bo'ldi. Eng muhimi, mohiyatiga ko'ra bu hujjat Turkistonda mustamlaka tizimini mustahkamlashga qaratilgan edi.

12.4-§. Mustamlaka davrida o'lkada sug'orish tarmoqlarining ahvoli

Paxta va boshqa dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishda suvning ahamiyati beqiyos. Shu bois Turkiston o'lkasida sun'iy sug'orishga alohida e'tibor berilib, u umumxalq ishiga aylangan. Suvdan foydalanish tartiblari shariat qonunlarida quyidagi tarzda o'z ifodasini topgan: Daryo va ko'l suvlari Olloh taoloning kishilarga bergan marhamati va ne'mati hisoblanib, undan hamma barobar foydalanish huquqiga egadir. Bundan xususiy kishilar tomonidan bunyod qilingan hovuz va quduqlar mustasno bo'lsa-da, lekin odamlarga ulardagi suvlardan ichishga, mollarni sug'orishga va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalanishga ruxsat etiladi.


Ayrim hollarda davlatga suvga egalik qilish huquqi berilsa-da. jamoa ahlining undan foydalanishiga to'sqinlik qilinmaydi.

Suvni sotish va sotib olish taqiqlanadi, faqat ayrim hollardagina bunga ruxsat beriliish mumkin. Suv kamchil vaqtlarda barcha odamlar ehtiyoji doirasida barobar taqsimlanadi. Zaruriyat tug'ilsa suvdan navbat bilan foydalaniladi.

Suvdan foydalanayotgan har bir kishi sun'iy sug'orish tarmoqlarini tuzatishda va ta'minlashda qatnashishi shart. Suvdan foydalanish o'z-o'zini boshqaruv asosida olib borilib, ariqlarni tuzatish va suvni taqsimlash xalq saylagan ko'kboshi va miroblar zimmasiga yuklatiladi. Ularga g'alla va boshqa dehqonchilik mahsulotlari bilan ish haqi beriladi.

Suv inshootlariga zarar yetkazmaslik sharti bilan tegirmonlarning ishlashiga ruxsat beriladi. Suvni ko'p talab etadigan sholi aholining roziligi bilan ekilishi mumkin. Suv kanallari xo'jalik yerlaridan o'tkazilgani taqdirda buning evaziga haq to'lanadi.

Mazkur tartiblar asosida asrlar mobaynida suvdan foydalanin kelingan. Yaxshi jihati shundan iboratki, suvdan foydalanishda o'zboshimchalik va to's-to'polonlar bartaraf qilinadi. Baribir suv tangis kezlarda janjallar bo'lib turgan.




1899 yilda Samarqand irrigatsiya sestemalariga o'rnatilgan dastlabki injenerlik tipidagi inshootlar.³⁸

O'lkada Chor hukumatining hukmronligi o'rnatilgandan keyin u sun'iy sug'orish tarmoqlariga va umuman suvga egalik qildi. Hukumat vakillari va kapitalistlar paxta ilinjida sun'iy sug'orishni rivojlantirish zarurligini yaxshi anglab, qidiruv ishlari olib bordi va loyihalar tayyorladi. Hukumat esa sun'iy sug'orishni izchillik bilan rivojlantirishga qodir emasligi tufayli yetarli darajada mablag bera olmadi. Turkiston o'lkasida Sirdaryo, Amudaryo, Zarafshon va Chirchiq daryolari eng katta suv manbai edi. Sirdaryo va Chirchiq Turkiston general-gubernatorligi. Amudaryo va Zarafshon ko'proq Buxoro hamda Xiva xonliklari yerlari uchun hayot manbai hisoblangan.

³⁸ Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi (Qadimgi davrdan – XX asr boshlarigacha). – T., 1972. – 237-bet

Markaziy hukumat sun'iy sug'orishga yetarli darajada e'tibor bermagan bo'lsa-da, o'lkadagi rus ma'muriyati vakillari uni e'tibordan chetda qoldirmadi. Chunonchi, gubernator Kaufmanning ko'rsatmasiga binoan, 1869 yildayoq Mirzacho'lda sun'iy sug'orishni yo'lga qo'yish maqsadida P.Aminov boshchiligida qidiruv guruhi tuzildi. Injenerlar va topograflar singari mutaxassislar guruh tarkibiga kiritildi. Guruh Mirzacho'lda ma'lumotlarni topladi. Keyin bu yerda NF Ulyanov rahbarligida ish olib borilib, 40 ming desyatina (240 ming tano) yerni sug'orish loyihasi tuzildi. XIX aming 70-yillarida Xo'jand uyezdiga qarshi Sirdaryonining chap qirg'og'ida Kaufman kanalini qazishga kirishildi. Olti yil olib borilgan mashaqqatli mehnat yaxshi natija bermay 13 km masofada qazildi xolos.



1878-1883 yillarda Samarqand vohasida o'zlashtirilgan yerlarning xaritasi.³⁹

Y.E.Smironovning gazetda bosilgan maqolasiga ko'ra, Mirzacho'lda qazish loyihasi 1872 yilda tasdiqlanib, 1874 yilda ish boshlangan. Shundan keyin bu ish 1875-1878 yillarda ham davom etgan bo'lsa-da, lekin 1883 yilda to'xtatilgan. Muallifning fikricha, Mirzacho'lni o'zlashtirish umuman qoldirilgan. Shundan

³⁹ Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi (Qadimgi davrdan – XX asr boshlarigacha). – T., 1972. – 215-bet


keyin Mirzacho'lda ayrim qidiruv ishlari olib borilib, taklif va mulohazalar ma'muriyatga ma'lum qilindi.

Mirzacho'l va Toshkent atrofida sun'iy sug'orishni rivojlantirishga imperatorning jiyani knyaz N.K.Romanovskiy o'z hissasini qo'shdi. 1881 yilda Toshkentga kelib o'rnashgandan keyin Chirchiq daryosidan 50 chaqirim uzunlikda kanal qazirdi va unga Iskandarbek nomini berdi. Bu kanal 4513 desatina yerni sug'orish imkoniga ega edi. O'sha yili Chirchiqda "Xonim" nomli kanalning ham qurilishi boshlandi. Bu 65 chaqirim uzunlikdagi kanal 3215 desyatina yerni sug'orish imkonini berdi. Aytib o'tilgan kanallar atrofida rus posyolkalari yuzaga kelib, suvdan ko'proq ular naf ko'rdilar. Knyaz N.K.Ramonovskiy 1887 yilda Mirzacho'lda "Nikolay I" kanalini qurishga kirishib, o'z hisobidan bir million so'm sarfladi.

1885-1890 yillarda Mirzacho'lda 28 chaqirim masofadagi Buxoro kanali qurishga kirishildi, mablag'ning yetishmasligi sababli ish to'xtatildi. N.K.Ramanovskiy 1891 yilda Mirzacho'lda "Xiva arig'i"ni qurdi. Bu 90 km uzunlikdagi kanal 1895 yilda ishga tushirildi. Biroq bu suvning m'lum qismigina tub aholiga berildi, xolos. Chunonchi, o'zbek va qirg'izlarga tegishli 750 desyatina yerni sug'organ bo'lsa, ruslarning 2000 desyatina, N.K.Ramanovskiyning 2000 desyatina va davlatning 4000 desyatina yerlari sug'orilgan. 1899 yilda N.K.Ramanovskiy tomonidan Mirzacho'lda qurilgan barcha kanallar hukumatning ixtiyoriga o'tkazildi. Buning uchun unga xazinadan pul to'landi. Mirzacho'lda sun'iy sug'orish birmuncha jonlantirilishi natijasida bir nechta rus posyolkalari tashkil topib, 1910 yilda 2827 desyatina yerga egalik qildilar. Kanallarni qazishning asosiy og'irligi esa asosan tub aholi zimmasiga tushdi va xonavayron bo'ldi. Ayniqsa, toshkentlik va xo'jandlik hasharchilarga og'ir bo'ldi.

Mirzacho'lda sun'iy sug'orishdan maqsad rus posyolkalarining sonini tobora ko'paytirib borishdan va paxtachilikdan oladigan daromadning oshirishdan iborat edi. Hatto, dehqonchilik vaziri A.V.Krivoshein davlat Dumasida so'zlagan nutqida "Rus nomining o'lkadagi mavqeyini ko'tarish nuqtai nazaridan Mirzacho'lga

o'rnashadigan ruslardan yer uchun olinadigan, soliqning tub aholiga nisbatan oz bo'lishini" uqtirdi.



Cho'ponota suv ayirg'ich to'g'onining 1878 yilda olingan plani.⁴⁰

1900 yilda rus hukumati Mirzacho'lning shimoli- sharqida 45 ming desyatina yerni o'zlashtirish haqida qaror qabul qilib, 2mln. So'mdan ortiq mablag' va qurilish jihozlari yetishmadi. Shu bois 1911 yilda Mirzacho'ldagi sun'iy sug'orish ishlarini tugallash uchun xazinadan 4.856.500 so'm ajratdi. Qurilishlarni 1915 yilgacha tugatish rejalashtirdi. Bu pul ham ko'rsatilgan miqdorda berilmaydi. Nihoyat, 1916 yilning boshlariga kelib "Imperator Nikolay II" kanalning qurilishi tugallanib, uning suvidan 35 ming gektar yerni sug'orish ko'zda tutildi. Bu yerning 80-90 foizi paxta yetishtirish uchun mo'ljallandi. Amalda esa 1914 yilda Mirzacho'ldagi paxta butun o'lkada yetishtirilgan paxtaning bir foizini tashkil qilgan. 1913 yilda Mirzacho'lda 50 ming desyatina yerni sug'orishga mo'ljallangan. N. Romonov kanali bitkazilgan edi. Buning natijasida 34 ming desyatina yerni sug'orish imkoni tug'ildi.

⁴⁰ Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi (Qadimgi davrdan – XX asr boshlarigacha). – T., 1972. – 158-bet

Shu tarzda chorak asr mobaynida Mirzacho'lda magistral suv kanali bitkazildi. Bundan ruxlangan rus ma'muriyati Mirzacho'lda 500 ming desyatina yerni o'zlashtirish masalasi o'rta qilib chiqdi. Bunga ko'ra, beshta shahar, 200 ta savdo va jamoat maydon hamda 47 mingdan 57 minggacha kishini o'z ichiga olgan rus posyolkalari bunyod etilishi lozim edi. Shuningdek ruslar yarim million aholi yashagan turar joylarni berib, bu yerdan Rossiyaga qiymati 130 mln. so'mga yaqin 8-9 mln. pud paxta olib ketish imkoni tug'ilishi qayd etildi. Rus ma'muriyati Chirchiq atrofidagi joylarda 32 ming desyatina yerni sug'oradigan sunniy sug'orish tarmoqlari qurishni va buning uchun 1800 ming so'm sarflashni rejalashtiradi. Ammo bu harakatni to'la amalga oshirishning iloji bo'lmay, avvaldan foydalanib kelinayotgan suv tarmoqlarini kengaytirish davom ettirildi. Bu vaqtlarda Chirchiqning ikki qirg'og'idan ko'plab suv shahobchalari turli tomonlarga tarqalib ketgan edi.

Toshkent vohasi Chirchiq daryosidan chiqarilgan jami 1725 km uzunlikdagi juda ko'p katta–kichik ariqlar mavjud bo'lgan. Ular bir sekundda 16305 kub.funt suv oqizish imkoniga ega bo'lib, 92,372 desyatina yerni sug'organ. Shu tariqa Chirchiq daryosi asosiy suv manbai bo'lgan. 27294 ta xo'jalikka xizmat qilgan. Suvning ma'lum qismi paxta yetishtirishga sarflangan. Shuningdek, Chirchiq daryosining chap qirg'og'idagi botqoqliklarni quritish hisobiga 20.000 desyatina yerni o'zlashtirishga rejalashtirilgan.

Samarqand viloyatini suv bilan ta'minlashda Zarafshon daryosi muhim o'rin tutgan. Undan chiqarilgan Tuyaotar, Bulung'ur, Koson va Darg'omsingari yirik ariqlar viloyatdagi 130.000 desyatina yerni sug'organ. Shuni aytib o'tish lozimki, XVI asrning ikkinchi yarmida Abdullahon vaqtida qurilgan Tuyatortar arig'i vaqtlar o'tishi bilan tashlandiq holga kelib qolgan. 1912 yilda rus harbiy ma'muriyatining tashabbusi bilan uni tiklash uchun 100 ming nafar kishi ishtirikida hashar uyushtirildi. Hasharchilar bir yarim oyga yetadigan oziq-ovqatni g'amlab, Jizzaxdan 200 chaqirim masofadagi Tuyaotar arig'i bo'yiga joylashib, ishga kirishdilar. Og'ir sharoit va mashaqqatli mehnatni mardonavor yenggan xalq ariqni tiklashga muvaffaq bo'ldi.

O'sha vaqtdagi gazetaning yozishicha, ariqdan suvni oqayotganligini ko'rgan xalq xursandchilikdan xalq birdaniga qichqirib yuborgan. Hasharchilarning orasida tiz cho'kib, Alloh taoloning marhamatiga shukr qilganlar, o'zini suvga urib, undan to'yib ichganlar, hatto suyunganidan yuragi yorilib yoki cho'kib o'lganlar bo'lgan. Tiklangan ariq yangi Tuyaotar deb atalib, Jizzax uyezdida 700 desyatina yerga paxta ekish imkonini bergan.

Rus ma'muriyati Chirchiq atrofidagi joylarda 12 ming desyatina yerni sug'oradigan sun'iy sug'orish tarmoqlari qurilishi va buning uchun 1800 ming so'm sarflashni rejalashtirgan edi. Ammo bu harakatni to'la amalga oshirishning iloji bo'lmay, avvaldan foydalanib kelinayotgan suv tarmoqlarini kengaytirish davom ettirildi. Bu vaqtlarda Chirchiqning ikki qirg'og'idan ko'plab suv shahobchalari turli tomonlarga taralib ketgan edi. Buni biz quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin:

Ariqlar nomi	Ariqlarning uzunigi (chaqirim)	Bir sekundda o'tadigan suv hajmi (kub-funt)	Sug'oriladigan yerlar (desyatina)	Suvdan foydalanadigan xonadonlar	Ariqlarni tozalashga safarbar etilgan ishchi kuch soni
Chirchiqning o'ng qirg'og'idan					
Iskandar ariq	50	40-90	2600	538	8500
Xonim arig'i	85	100-300	3500	524	-
Zaxariq	150	1000	23,500	4748	7000
Bo'zsuv	175	2300	13,416	-	-
Qorasuv	40	460	10,600	-	-
Qalmoq ariq	8	100	800	-	220
Taukat	10	150	750	-	300
Parnakat	12	524	883	-	100
Tolariq	18	200	2,474	430	1800
Barotxo'ja	9	226	347	267	100
Chortoq	12	268	131	-	250
Shohariq	8	197	193	-	50
Cho'ldak	5	20	15	-	-
Takbay	6	102	17	1250	300
Qilichota	12	70	29	-	-
Jo'nariq	47	500	7,839	1263	3500
Niyozbosh	30	230	3,417	533	1500

Kulkurdik	45	100	1,685	-	1000
8 ta kichik ariq	29	166	116	-	100
Chirchiqning chap qirg'og'idan Bektemir tizimi:					
31 ta kichik ariq	157	1,736	2,266	2064	3680
Yik	13	170	25	360	450
Qum I	10	170	60	210	450
Bektemir	19	100	345	815	1280
Tosh	22	850	75	447	2320
Qum 2	12	67	30	111	240
Uchtamg'ali	16	150	70	125	-
Toshloq	26	120	70	140	460
Ujakent	23	120	80	120	175
Chaqmoq	11	130	280	140	770
Qorasuv tizmi					
Qorasuv	90	1600	4490	4544	3000
Xon I	24	49	730	230	980
Qoraqalpoq	10	336	500	215	600
Aganay yuluk	15	90	400	130	-
Oq	11	163	800	306	575
Sasbuka	15	210	-	150	-
Darxon	20	170	-	200	1400
Baliq	10	27	90	200	-
Sarbuva	17	84	170	325	700
Savrau	10	170	200	230	-
Xon 2	24	246	800	810	2330
2 ta mayda ariq	107	1020	990	1924	488
Ohangaron daryosidan:					
Pskent	25	20	500	900	450
Shahriya	4	50	145	180	-
Xo'ja	16	30	525	150	-
Oq tepa	12	100	1640	800	-
Mozor	20	15	150	250	-
Xon	31	140	1763	810	2860
Shomansi	12	60	172	85	940
48 ta mayda ariq	192	932	5297	-	-
Jami	1725	16305	95372	27294	-

Mintaqadagi eng yirik suv manbalaridan biri Sirdaryo-Norin va Qoradaryoning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Norin daryosi Tyanshan tog'laridan boshlanib yo'l yo'lakay bir nechta suv tarmog'ini o'z ichiga oladi. U 40 km masofadan soo'ng Mingbuloq qishlog'ida Qoradaryo bilan qo'shilib, Sirdaryo nomi

bilan atalgan. Undan Uchqo'rg'on, To'ti, Kayka-1, Kayka-2, Xakilobod, Yangiariq, Koraskon, Rustang'aliq, Qumto'g'on, Zarbob, Davlatobod, Nazaruzdixon, Jidakenin, singari ariqlar chiqarilgan. Qoradaryoning chap va o'ng irmoqlaridan esa Shahrixonsoy, Andijonsoy, Ulug'nor, Chek Nasriddinek, Qo'qon qishlog'i, Sazi, Xayrobod, ariqlari tortilgan. Ulardan tashqari tog'lardan to'ppato'g'ri qishloqlar va shaharlarga oqib keluvchi Kagarsoy, Bozor qo'rg'onsoy, Esipastsoy, Podshooata, So'x, Uchqo'rg'onsoy, Shohimardonsoy, Isfara, Oqbo'ri, Arvohsoy va Qirg'izota ariqlari bo'lgan. XX asrning boshlarida Farg'ona vodiysidagi 36 ta sug'orish tarmoqlari mavjud edi. Uni janubi-sharqiy tomondagi Isfara, So'x, Sari Qo'rg'on, Avgon, Vox, Qora, qurjin, va Oqqo'rg'on, singari tarmoqlari asosan Qo'qon uyezdini suv bilan ta'minlab turgan.

Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida Farg'ona viloyatida joylashgan suv tarmoqlarining qancha ekin maydonini sug'orish imkoniyati haqidagi ma'lumot:

№	Suv tarmoqlarining nomi	Sug'orish maydoni (desyatina)
	Isfara va Rovot	50131
	So'x	5247
	Shohimardon	58235
	Isfayrom	68803
	Obshir	11018
	Aravan	57976
	Oqburan	100086
	Yassi va Kurshab	176320
	Kugart	17067
	Bozor Qo'rg'on	25461
	Moyli-Izboskan	20752
	Norin va shoxobchalar	67288
	Chortoq va suv shoxobchalari	9315
	Poshshoota	32977

	Qizilota	16811
	Koson	27203
	Sumasar	9502
	Gazin	25771
	Chodak	5102
	Asht	9317
	Bobodarxon	3867

Xullas, suv xo'jaligining barcha tarmoqlari nazorat ostiga olinib, Turkiston general-gubernatorligi qoshida va viloyatlarda yer va irrigatsiyaning boshqaruviga alohida mansab lavozimi ta'sis etildi.

1895 yilda Farg'ona viloyatidagi Uchqo'rg'on arig'ini kengaytirishga qaratilgan tadbirlar belgilanib, dehqonchilik va mulkchilik vazirliklarining hisobidan ishga kirishilgan. Biroq, temir yo'l qurilishi va ishchi kuchiga to'lanadigan haqning oshishi munosabati bilan ish deyarlik to'xtab qolgan. Bundan tashqari rus ma'muriyati sug'orish tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida Qoradaryodan suv chiqarib, 16250 desyatina yerni o'zlashtirish loyihasini tuzgan. Ammo hukumat tomonidan mablag' yetarli darajada berilmaganligi sababli ish to'liq amalga oshmadi.

Shunga qaramay, o'lka ma'muriyati sun'iy sug'orishni rivojlantirish zarurligini hukumatdan so'rayverdi. «Farg'ona viloyatining iqlim sharoiti va tuprog'ining o'zi, - deb yozgan edi harbiy gubernator Chaykovskiy, -to'qimachilik sanoatining eng qimmatli xom ashyosi bo'lmish paxtachilik talablariga yaxshi javob beradi. Negaki, bu yerdagi dehqonchilik o'simliklarini sun'iy sug'orishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu bois, suv tarmoqlarini kengaytirish va yangi kanallarni qurish birinchi galdagi vazifa hisoblanadi. Shunday qilinsa, sanoatni xom ashyo bilan ta'minlash va rus posyolkalarini ko'paytirish imkoni tugiladi».

Shuningdek, Chaykovskiy yangi yerlarni o'zlashtirish katta harajatlar talab qilishini, lekin yerning unumdorligi tufayli ular tez orada qoplanishini uqtirib o'tgan.

Ko'rinib turibdiki, u sun'iy sug'orishning rivojlantirilishi yangi yerlarni o'zlashtirish, dehqonchilik mahsulotlari, xususan, paxta xom ashyosini ko'paytirish imkonini berish bilan bir vaqtda, Farg'ona vodiysiga ko'plab ruslarni ko'chirib keltirishga sharoit yaratishini ham hukumatga ma'lum qilgan.

Rus ma'muriyati vakillarining sun'iy sug'orishni rivojlantirish haqidagi talablari bejiz emas edi, albatta.

Rossiyaning paxta koniga aylanib borayotgan Farg'ona viloyatida jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan maydoni quyidagi jadvalda keltirilgan:

Uyezdlar	Volostlar nomi	Aholi soni	Jami	Sug'oriladigan yerlar	Sug'orilmagan va yaroqsiz yerlar	Jon boshiga to'g'ri keladigan sug'orish maydoni
		desyat.	desyat.	desyat.	desyat.	desyat.
Marg'ilon uyezdi	Fayzobod	22352	36250	12277	23973	0,54
	Yozyovon	23720	39875	18495	21380	0,77
	Yakkatut	22454	32375	19825	12550	0,88
	Oltiariq	20376	24625	8687	15839	0,43
	Chimyon	22280	69125	20931	48194	0,94
	Avval	11123	39632	14636	24996	1,31
	Nayman	11781	496125	6686	489939	0,57
	Yovkesak	4560	178375	12285	13090	1.10
	Bo'ston	13145	12375	9889	2486	0,75
	Quva	13866	28375	12285	13090	1.10
	Qo'qon qishlog'i	14720	16875	10726	6149	0,72
	Qoratepa	22813	32000	16763	15237	0,73
Chavkent	11350	10750	7880	2870	0,69	

	Shahrixon	17137	10125	6891	3234	0,40
	Segazin	11581	25875	6994	16881	0,77
	Asaka	16292	23250	8121	1129	0,49
	Kulin	9634	40500	12034	30266	1,06
	Aravan	17675	2577.50	12791	244059	0,72
	Marhamat					
	Ichkelin					
	Jami	286.859	1.374.257	214.428	1,159,829	0.74
Qo'qon uyezdi	Aravan	14326	7375	4352	3023	0.30
	Ganjiravon	15480	5375	4652	723	0.30
	Qaynar	19549	15125	6459	8666	0.33
	Kenagaz	11422	25500	4928	20572	0.43
	Kudash	10170	15250	7111	8139	0.70
	Chirchiq	10300	13625	7488	6137	0.72
	Jidin	13907	24625	7488	17147	0.53
	Janjal	6596	29500	4287	25213	0.65
	Qipchoq	17485	109750	5600	104140	0.32
	Qoraqolaqsoy	7346	47125	3864	43261	0,52
	So'x	17970	25250	9633	15617	0,53
	Rishton	19590	34625	10101	24524	0,51
	Zadian	15379	28080	6936	21144	0,45
	Yangiqo'rg'on	11250	38125	5370	32755	0,48
Ultarma	16834	15650	7259	8391	0,43	

	Babaydin	11553	6375	5477	898	0,47
	Nayman	6730	346250	12186	334064	1.81
	Nagutqipchoq	4207	266125	6900	259225	0.64
	Laylak	15358	190875	7698	183177	0.50
	Isfarin	13780	45000	3120	41880	0.23
	Konibodom	14936	27875	6280	21595	0.42
	Yaypan	13124	34000	7035	26965	0.53
	Beshariq	7522	30125	5054	25071	0.69
	Maxshar					
	Jami	288,844	1,381,605	149,278	1,232,327	0.51
Andijon uyezdi	Xokent	14972	8250	5355	289	0.36
	Yorbosh	12910	26750	10158	16592	0.78
	Oltinko'l	19254	13875	10330	3545	0.53
	Baliqchi	22858	43750	19859	29891	0.86
	Jalaquduq	9015	16625	5741	10884	0.64
	Qo'rg'ontepa	18381	23125	12568	10557	0.68
	Oyim	18350	13250	8160	5090	0.44
	Qorasuv	12137	10276	3399	6877	0.28
	Moyli	22413	197152	19543	177582	87
	Izboskan	14556	28250	22513	5737	0.54
	Haqquliobod	16726	28125	18576	9549	1.11
	Norin	9039	256500	-	256500	-
	Kengkulkurachi	19911	31750	11551	20199	0.58
Jalolobod	31830	497125	13780	483345	0.43	

	O'zgan	1713	203500	4144	199356	0.24
	Kugart	15811	17100	9406	161594	0.59
	Bozorqo'rg'on	19220	58875	16998	41877	0.88
	Qo'qon qishloq	6186	21250	7229	13321	1.28
	Novkent	12334	17125	11146	5979	0.90
	Maygir	8110	509184	-	509184	-
	Susamir					
	Jami	321182	2181710	211159	1970554	0.65

Jadvaldagi raqamlarni sharhlashdan oldin, shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ular sug'oriladigan yerlarning har bir volostda bo'yiga jon boshiga qanchadan to'g'ri kelishini ko'rsatuvchi noyob hujjatdir.

Shuning uchun ham jadval to'la holda keltirildi. O'sha raqamlardan ko'rinadiki suy tarmoqlari volostlar va xo'jaliklar bo'yicha bir xilda taqsimlanmagan. Masalan, Marg'ilon uyezdiga qarashli Chimyon volostida jon boshiga - 0,94, Yakkatutda - 0,88, Yozyovon va Kulinda 0,77 desyatina sug'oriladigan yer to'g'ri kelgan bo'lsa, boshqa volostlarda, xususan, Asakada 0,40, Fayziobodda 0,54 desyatini tashkil qilgan. Avval, Qo'qon qishloq, Marhamat va Yaukesak-Bo'stonda yer bir desyatindan oshgan. O'rta hisobda Marg'ilon uyezdida sug'oriladigan yer jon boshiga 0,74 desyatindan to'g'ri kelgan.

Qo'qon uyezdida ham jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yerlarning hajmi bir tekisda bo'lmay, ayrim volostlarda, jumladan, Naygut-Kipchoqdal, 81 va Laylakda 0,64 desyatini tashkil etgan. Qolgan volostlarda eng ozi - 0,32, 0,23, 0,42 va undan ortiq desyatini borgan. O'rta hisobda Qo'qon uyezdida sug'oriladigan yerlar jon boshiga 0,51 desyatindan oshmagan.

Sug'oriladigan yerlarning hajmi, ayniqsa Andijon uyezdida kam bo'lgan. Bu yerda birgina Naukent va Kostida 1,28 desyatini o'z ichiga olgan bo'lib, boshqa yerlarda 0,24, 0,43, 0,58, 0,59, Qo'qon qishloqda 0,88 va Maygirda 0,90

desyatinadan iborat bo'lgan. Umuman olganda sug'oriladigan yer Andijon uyezdida jon boshiga o'rtacha 0,65 desyatinadan to'g'ri kelgan.

O'lkada sun'iy sug'orish bo'yicha amaliy ishga nisbatan qidiruv va loyihalash ishlari salmoqli bo'lgan. Masalan, Mirzacho'lda sun'iy sug'orishni rivojlantirish bo'yicha G.K.Rizenkampf, V.Chikov, G.V. Vedorov, N.K.Yakov va boshqalar yangi yerlarni o'zlashtirish takliflarini bayon etib, ish rejalarini va xaritani hukumat vakillariga tavsiya etdilar. Ammo bu rejalar to'la amalga oshirilmadi. Farg'ona vodiysidagi sun'iy sug'orish bo'yicha qidiruv ishlarida va loyihalar tuzishda D.I.Vayeykov, N.Jilin, N. Petrov, N.Korolkov. K Sinyavskiy, G.Rizenkampf va boshqa mutaxassislar katta xizmat qildilar. Ularning faoliyati S.Jalilovning kitobida bayon etilganligi chun uni atroflicha yoritishga hojat yo'q, albatta. Bundan tashqari ular tomonidan tuzilgan loyihalar va takliflar qog'ozdagina qolgan edi. Bu xususda masalani maxsus o'rgangan S.Jalilov quyidagicha vozgan: «Shunday qilib, chorizm bilan rus kapitalistlari o'rtasidagi yangi yerlarni o'zlashtirish ishini tashkil qilishga doir kelishmovchiliklar, Chor hukumatining xususiy tashabbuskor harakatiga hefaro garaganligi, shuningdek Chor ma'muriy idoralaridagi sansolarlik va byurokratizm kayfiyatlari Farg'ona vodiysida yirik irrigatsiya inshootlarini qurish va katta maydonlardagi bo'z yerlarni o'zlashtirish rejalarini amalga oshishiga yo'l bermadi».

Shunga qaramay, ayrim taklif va loyihalar haqida fikr yuritish foydadan xoli bo'lmaydi. Bu borada 1878 yilda Farg'ona vodiysida sug'orishning ahvoli bilan tanishgan akademik A.Middendorfning fikr-mulohazalari diqqatga sazovor. U, avvalo xonlik davrida cha qolgan ishlarni tugatishni va tub aholining ming yillik tajribasiga tayanishni taklif etdi. Uning fikricha, Norin va Qoradaryolardan ariq chiqarish va Ulug'nor arig'ini kengaytirish hamda sun'iy sug'orish xaritasi tuzilishi lozim edi. Suvni taqsimlash uchun barcha katta-kichik ariqlarga injenerlik inshootlarini qurishni taklif qildi. Uning ko'rsatishicha, sun'iy sug'orish ishlarini tartibga solish va nazorat qilish birinchi galdagi vazifadir. Modomiki, deb yozgan edi u. - bizning davlatimiz chiqargan qarorga binoan u butun Turkiston suvini o'z mulki deb e'lon qilgan ekan, modomiki, bu suvlardan ozuqa vositalari ishlab

chiqarish uchun foydalanish zarur ekan, irrigatsiya inshootlarini shirkat va uyushmalar qo'liga topshirib qo'yish mumkin emas ekan va u bilan dexqonchilikka bop tuproqni sug'orish juda foydali ekan, u holda tezlikda va g'ayrat bilan ishga kirishish kechiktirib bo'lmaydigan burch bo'lib qoladi».

Injener N.Jilin Ulug'nor arig'ini suv bilan ta'minlashga ahamiyat berdi. U quyidagi vazifalarni o'rta tashladi:

1. Ulug'norning Teshiktoshdagi to'g'onini qayta qurish har Tungiotar to'g'onini ta'mirlash.

2. Uni muntazam suv bilan ta'minlab turish uchun Andijonn shimolidagi Bobog'oz arig'ini Ulug'norga birlashtirish, sholiek ustidan nazorat o'rnatish.

Shu asosda ayrim ishlar amalga oshiriladi. Chunonchi, Ulug'nor arig'ining ma'lum qismi tozalanib, qirg'oqlari damba bilan ko'tarilib toshqin xavfining oldi olinadi. Bobog'oz arig'iga to'g'on qurilib Ulug'norga buriladi. Tungiotar va Teshiktosh to'g'onlari ham qayta quriladi. Ammo bu ishlar sun'iy sug'orishni ma'lum darajadagina tartibga solib, ularga arzimagan mablag' (1100 so'm) sarflangan, xolos. Ma'muriyat tomonidan yetarli darajada mablag' berilmasligi sababli N.Jilinning Ulug'nor arig'ini talab darajasida yaxshilashga qaratilgan loyihasi qolib ketdi. Ma'muriyat vakillari ancha xarobaga aylangan Musulmonqul arig'ini xalq kuchi bilan bir oz bo'lsa-da, tikladilar va oqibatda qishloqlarning suv bilan ta'minlanishi birmuncha yaxshilandi. Shuningdek, Kampir Ravotda, vodiya eng yirik hisoblangan Shahrixonsoyni va Andijonsoyni muntazam suv bilan ta'minlash uchun xasharlar uyushtirildi. Biroq, sun'iy sug'orishni rivojlantirishga qaratilgan barcha ishlar nihoyasiga yetkazilmadi. Buning ustiga suv toshqinlari qilingan ishlarga putur yetkazdi.

XX asr boshlarida ham sun'iy sug'orishni tartibga solish va rivojlantirish harakatlari to'xtatilmadi, lekin markaziy hukumat vakillari bu ishga yetarli darajada e'tibor bermadilar. Bu vaqtda Ulug'nor arig'ini tubdan yaxshilashga qaratilgan loyiha tuzilib, mablag' ajratishni so'rab Peterburgga murojaat qilindi. Biroq, bu yerda ushbu masalaga salbiy javob olindi. Shundan keyin viloyatda ish yuritish asosan o'lkadagi rus ma'muriyatining ta'sir doirasi bilan chegaralanib qoldi. O'lka

general-gubernatorining ko'rsatmasiga binoan Ulug'nor arig'ining davomi sifatida Baliqchi arig'ini qazishga kirishildi va bu ish nihoyasiga yetkazildi. Shahrixonsoyda ham sun'iy sug'orishlar ancha tartibga solinib, ekin maydoni 60 ming desyatnaga yetdi.

Ko'rilyotgan yillarda sun'iy sug'orishni rivojlantirishni o'z ichiga olgan 6 ta loyiha tuzildi. Ularni o'rtasida ko'p yozishmalar va yilda Turkiston o'lkasida sun'iy Dumasida qaror qabviha tuzildi. Ularni amalga oshirish bo'yicha hukumat idoralari ko'p yozishmalar va fikr almashuvlar bo'ldi. Pirovardida 1914 Turkiston o'lkasida sun'iy sug'orishni rivojlantirish masalasi Davlat suda muhokama qilinib, uni davlat hisobidan hal etish haqida qabul qilindi. Biroq, shundan keyin ham ahvol o'zgarmadi. Umuman aytganda, Turkiston o'lkasida paxtachilik asosan eskidan ish berib kelayotgan suv tarmoqlarini ma'lum darajada tuzatish va ayrim ariqlarni qazish asosida rivojlantirilib borildi.

Rus hukumatining 1908-1915 yillarda o'lkadagi suv xo'jaligiga sarflagan mablag'i quyidagi miqdorda bo'lgan: 1908 yil 234.000 so'm. 1909 yil - 630.000, 1910 yil - 581.100, 1911 yil - 1.21 304, 1912 yil - 1.458 140, 1913 yil - 3.194 743, 1914 yil - 354 196 va 1915 yil - 3.824 545 so'm.

Binobarin, davlat tomonidan ajratilgan mablag' juda oz bo'lgan. U ma'lum darajada soliqlar hisobiga ko'paytirilgan. Ayniqsa, ishni hashar usulida bitirish keng tarqalgan edi. O'n minglab kishilar o'zlarini ish qurollari va oziq-ovqatlari bilan sun'iy sug'orish tarmoqlarida oylab azob-uqubatda ishlagan.

Shu tarzda, asosan xalqning kuchi bilan sun'iy sug'orish tarmoqlari o'z samarasini berib turdi. 1917 yilda o'lkadagi sug'oriladigan yerlarning maydoni suv havzalari bo'yicha quyidagicha taqsimlangan:

Sirdaryo havzasida - 245.000 Chirchiq, Keles, Kuru-Keles, Ohangaronda -- 225.000, Talas, Avliyoota okrugida - 140.000, Chu daryosi bo'yicha - 141.000, Issiqko'l bo'yicha - 70,000, Balxash ko'li bo'yicha - 297.000, Sanzor arig'i bo'yicha - 106.000, Zarafshon va Kattaqo'rg'onda - 393.000, Murg ob va Tejen ariqlari bo'yicha - 172.000, Amudaryo bo'yicha - 64.000 desyatina, jami 2.853000 desyatina.

Demak, o'lkada Sirdaryo, Zarafshon va Chirchiq daryolaridan ko'p suvni olinishi natijasida ekin maydonlarining hajmi boshqa joydagilarga nisbatan ancha yuqori hisoblangan. Oldingi sahifalarda ta'kidlanganidek, sun'iy sug'orishni tuzatish va tozalash ishlarining butun og'irligi tamomila aholining zimmasiga tushgan. Manbalarning ko'rsatishicha, xalq oddiy soliqlardan tashqari chigirtkaga qarshi kurashga, yo'llarni va ko'priklarni hamda sun'iy sug'orishlarni tuzatishga sarflanadigan harajatlarni o'z ichiga olgan uch xil soliqni to'lab turdi. Ularning orasida, ayniqsa, «Irrigatsionniye povinnosti» (Sun'iy sug'orish solig'i) og'ir bo'lgan.

Turkiston general-gubernatorligida qug'oriladigan yerlar viloyatlar kesimida quyidagicha taqsimlangan edi:

Viloyatlar	XIX asr oxirlarida (desyat.)	1915-yilda desyat
Farg'ona	840.000	1.032.000
Sirdaryo	635.000	578.000
Samarqand	480.000	499.000
Yettisuv	703.000	308.000
Kaspiyorti	150.000	172.000
Amudaryo bo'limi	-	64.000
Jami	2.808.000	2.853.000

Shunday qilib, sun'iy sug'orish ishlariga har yili jalb qilingan ish mehnatining pul hisobida 1018197 so'm, yog'och, shoxqamich va boshqa narsalarga 105.888 so'm sarflangan. Suv solig'ining umumiy qiymati 1.124,085 so'm hisoblangan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. *Turkiston general-gubernatorligi boshqaruvi kimlardan iborat edi?*
2. *1886-yilgi «Nizom» bo'yicha boshqaruvda qanday o'zgarishlar bo'ldi?*
3. *Mahalliy aholi vakillari boshqaruvning qaysi lavozimlarida ish olib borgan?*
4. *Viloyatlarni va volostlarni kimlar boshqargan?*

5. *Rossiya imperatorining siyosiy agentligi vazifasi nimadan iborat edi?*
6. *Xaritadan Turkiston general-gubernatorligidagi viloyatlarni aniqlab, qaysi viloyatga bugungi O'zbekistonning qaysi hududlari kirishini belgilang.*
7. *Nima uchun podsho hukumati yerga egalik qilishni to'liq o'z qo'liga*
8. *olishga harakat qildi?*
9. *Mustamlakachi hukumat vaqf yerlariga nisbatan qanday siyosat olib bordi?*
10. *Ko'chirib keltirilganlarga qanday imkoniyatlar yaratilgan?*
11. *Turkiston o'lkasida paydo bo'lgan yangi shaharlarda kimlar yashagan?*
12. *Rossiya imperiyasi uzoqni ko'zlagan maqsaddan kelib chiqqan holda, Turkistonda yer-suv munosabatlarida qanday siyosat olib bordi?*
13. *Chorizm mustamlakachilari qishloqlarni boshqarishda qaysi nizomda belgilangan qoidalarga amal qilgan?*
14. *Mustamlaka o'lkalarga ruslarni yuborish masalasi bilan qaysi idora shug'ullahgan?*
15. *1873-yilda general fon Kaufman rus podshosiga taqdim qilgan Turkistonda yerga egalik tuzilishini o'zgartirish loyihasida nimalar nazarda tutilgan edi?*
16. *1886 yil Nizomining agrar bandlari va uning mustamlakachilik mohiyati haqida so'zlab bering.*
17. *Podsho Rossiyasining o'lkada yuritgan yer egaligi to'g'risidagi siyosatining salbiy oqibatlari nimalardan iborat.*

13-mavzu. 1917-1941-qillarda O‘zbekistonda yer-suv munosabatlari

Reja:

13.1-§. Turkistonda mustabit sovet hokimiyatining o‘rnatilishi;

13.2-§. Turkistonda sovet hokimiyatining dastlabki iqtisodiy o‘zgartirishlari;

13.3-§. Sovet hokimiyati hukmronligining dastlabki yillarida o‘lkada sug‘orish tarmoqlarining ahvoli;

13.4-§. Sovet tuzumi davrida vaqf erlarining tugatilishi va uning oqibatlari;

13.5-§. O‘zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv islohatlarining bosqichlari, amalga oshirilishi va bu islohatning salbiy oqibatlari;

13.6-§. Sovet hokimiyati tomonidan quloqlashtirish siyosatining amalga oshirilishi va uning salbiy oqibatlari.

Tayanch iboralar: *Perfilev, oziq-ovqat jarimasi, oziq-ovqat solig‘i, yangi iqtisodiy siyosat, kommunistik partiya, siyosiy byuro, muvaqqat hukumat, general Koro6chenko, F.Kolesov, ma‘muriy- buyruqbozlik tizimi, davlat yerlari, vaqf, masjid, madrasa, qorxonalar, maktab, mozor «Harbiy kommunizm», dehqon xo‘jaliklari, paxtachilik, metropoliya, ettisuv, Sirdaryo, Farg‘ona, «natura majburiyati», agrar islohot, Stolipin islohotlari, «Paxtachilikni, paxta tozalash sanoatini va paxta tayyorlashni davlat yo‘li bilan tashkil etish to‘g‘risidagi Nizom», yer-suv islohati, “Qo‘shchi” uyushmasi, 1921 yil, 1925-1929 yillar kollektivlashtirish, sanoatlashtirish, Zarafshon, Qashqadaryo, YaIS, Yer to‘g‘risidagi dekret, ommaviy jamoalashtirish, «lenincha kooperativ reja», an‘anaviy iqtisodiy munosabatlar, kolxoz, qishloq xo‘jalik artellari, «agrar inqilob», VKP(b) MQning 1930 yil 5 yanvardagi «Jamoalashtirish sur‘atlari va davlatning kolxoz qurilishiga yordam ko‘rsatish choralari to‘g‘risida»gi qarori.*

13.1-§. Turkistonda mustabit sovet hokimiyatining o‘rnatilishi

Ma‘lumki, 1918-yilning o‘rtalaridan sovet hukumati butun Rossiyada bo‘lgani singari Turkiston respublikasida ham harbiy chora-tadbirlar bilan bir qatorda favqulodda iqtisodiy chora-tadbirlarni ham belgiladi. Ya‘ni iqtisodiy

sohada «oziq-ovqat jarimasi (razvyorstkasi)» joriy qilindi. Bu tarixda «harbiy kommunizm» siyosati deb nomlandi. Ushbu siyosatning amalga oshirilishi sobiq Ittifoqda ma'muriy- buyruqbozlik tizimining dastlabki ko'rinishi edi. Bu siyosat o'z mohiyatiga ko'ra xalqqa qarshi qaratilgan bo'lib, unga ko'ra tovar-pul munosabatlariga barham berish, bolsheviklar hukumati qo'lida barcha resurslarni markazlashtirish asosida butun Rossiya kabi Turkistondagi dehqonlar qo'lidagi «ortiqcha» g'alla boyliklarini davlat xtiyoriga tortib olish, yirik sanoat bilan bir qatorda o'rta va may da korxonalarini ham davlat qo'lida umumlashtirish, 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan barcha erkak va ayollar uchun umumiy mehnat majburiyatini joriy etish singari chora-tadbirlar belgilangan. Ammo bu siyosat nafaqat o'zining samarasizligini ko'rsatdi, balki og'ir oqibatlariga ham olib keldi. Shuning uchun RKP(b) ning X sezdidagi (1921-yil mart) yangi iqtisodiy siyosatga, boshqacha aytganda, pul-tovar munosabatlariga o'tishga majbur bo'ldi. Oziq-ovqat jarimasi oziq-ovqat solig'i bilan almashtirildi. Tez kunda yangi iqtisodiy siyosat o'zining natijalarini bera boshladi.

Ittifoq miqyosida, xususan O'zbekistonda ham sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi barqaror o'sib bordi. Sovet hukumati bu siyosatni uzoq cho'zmad. 1929-yillarning oxirlaridan yangi iqtisodiy siyosatga barham berildi va kommunistik partiya o'z siyosatini tubdan o'zgartirdi. Ma'muriy - boshqaruv tizimining o'zagini kommunistik partiya, aniqrog'i, uning uncha katta bo'lmagan siyosiy byurosi va boshqaruv apparati tashkil qildi. Boshqaruv apparati esa bir shaxsning, ya'ni partiya bosh kotibining irodasiga bo'ysundirildi. Ma'muriy buyruqbozlik tizimiga xos bo'lgan yana bir xususiyat - huquqni muhofaza qiluvchi organlarning (Stalin davrida ular ko'proq jazolovchi, qatag'on qiluvchi organ sifatida namoyon bo'ldi) hattoki partiya tashkilotlaridan ham xoli qilinib, bevosita partiya bosh kotibiga bo'ysundirilib qo'yilganligidir. Ma'muriy- buyruqbozlik tizimi o'z faoliyati davomida faqat markazning manfaatlarini inobatga olganligi uchun ittifoqdosh respublikalarning huquqlarini poymol qildi, ularning ehtiyojlari

bilan hisoblashmadi. Natijada respublikalarning rivojlanishida nomutanosiblik va bir tomonlamalik avj oldi⁴¹.

Turkistonning Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand viloyatlarida aholi soni 5,5 mln. kishini tashkil etgan. 80 foizdan ko‘prog‘i qishloq joylarida, qolgani shaharlarda yashagan. Buxoro aholisi 3 mln.dan ortiq, Xiva aholisi 500-550 ming kishi bo‘lgan. Xiva xonligida o‘zbeklar aholining 65 foiz ini, turkmanlar 27 foizini tashkil qilganlar. 1917-yilda Sirdaryo, Samarqand, Farg‘ona viloyatlarida 330 ta rus qarorgohi bo‘lib, ulardagi xo‘jaliklar soni 16257 tani tashkil qilardi. Dehqonlar va hunarmandlardan keyingi o‘rinlarda tijoratchilar, ziyolilar, ishchilar, ruhoniylar, ma‘muriy idoralar xodimlari, madrasa talabalari turganlar. Dehqonlar 3 toifaga - yirik xo‘jaliklar egalari, o‘rtahollar va kambag‘al-batraklar toifalariga mansub edi. 10 desyatinadan ortiq yeri bo‘lgan baquvvat dehqonlar Samarqand va Toshkent uyezdida dehqonlar umumiy sonining 7 foizini, Farg‘ona viloyatida esa 2,4 foizini tashkil qilganlar. Eng ko‘pi o‘rtahol va kambag‘al dehqonlar bo‘lgan. Turkistonning 3 viloyatida 81241 nafar, Xiva xonligida 20 ming, Buxoroda undan qariyb 2 baravar ko‘p hunarmandlar bor edi. Hunarmandlar guruhlar (sexlar)ga mansub bo‘lib, har bir guruhni oqsoqol idora qilgan. Yollanma ishchilar soni Turkistonda 60 ming kishi bo‘lib, Buxoroda 3 ming, Xivada 2 mingi yashardi. Ishchilar Turkistonning yirik shaharlarida, Yangi Buxoro (Kogon), Qiziltepa, Chorjo‘y, Xivada joylashgan. Farg‘onadagi 160 ta paxta tozalash zavodidan 110 tasi, Samarqanddagi 37 zavoddan 27 tasi yerli millatlar vakillari qo‘lida edi.

Savdo-sanoat jamiyatlari paxtani sotib olish, uni tozalash, tolasini Rossiyaga yetkazish bilan shug‘ullanganlar. 1917-yil Turkistonda 270 ta paxta tozalash zavodi bo‘lib, ulardagi ishchilar soni 10849 kishini tashkil qilardi. Bularning ko‘pchiligi Farg‘ona viloyatida edi. O‘lkada tog‘ sanoati, pillakashlik, ko‘nchilik, spirtli ichimliklar va pivo, sovun, cho‘yan eritish korxonalari, g‘isht zavodlari - jami 300 ga yaqin korxonalar bo‘lgan. Buxoroning qorako‘l terilari jahonga mashhur bo‘lgan. Turkistonning 3 viloyatida paxta maydoni 466 ming desyatinaga borib

⁴¹ Shamsutdinov R. O‘zbekiston tarxi; o‘quv qo‘llanma / Shamsutdinov R., Mo‘minov R.; mas‘ul muharrir S.Inoyatov. T., “Sharq”, 2013. 444-445 betlar.

yetdi, eng ko'pi - 226 ming desyatina yer Farg'onada edi. Turkistonda hunarmandchilik markazlari - Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Chust. Chust qilich, xanjar, pichoqlari, Marg'ilon atlaslari, tilla baldoq va taqinchoqlar, zardo'zlik buyumlari ajnabiy tujjorlar uchun xaridorgir bo'lgan. Buxoro yagona zardo'zlik markazi bo'lib dong taratdi. Turkistonga g'alla, temir Rossiyadan keltirilardi. 4-Davlat Dumasi deputatlari ahvolni o'zgartirishga kirishdilar. Fevral oxirida Nikolay II taxtdan voz kechdi. 2 ta hokimiyat paydo bo'ldi. 4- Davlat dumasi Muvaqqat hukumati, ishchi, soldat, dehqon deputatlari Sovetlari tuzildi. Bu 1917- yil oktabr oxirlarigacha davom etdi.

1917 yil 25 oktabrda (yangi sana bilan 7 noyabr) bolsheviklar menshevik va «so'l» eserlar bilan davlat to'ntarishini amalga oshirdilar va hokimiyatni qo'lga oldilar. Turkistonda 1917-yil kuzida Sovetlar hokimiyatni qo'lga olishi masalasini ilgari surdilar. Oktabrning 2-yarmida Toshkentda norozilik yig'ilishlari va mitinglar avj oldi. Bolsheviklar boshchiligida Toshkent soveti ishchi va soldatlarni qo'zg'olon ko'tarishga da'vat qildi. General Korovichenkoga sodiq qismlar qarshilik ko'rsatdilar.

1917 yil 28-oktabrda Toshkentda qurolli to'qnashuv avj oldi. 1 noyabrda Toshkent harbiy qal'asi taslim bo'ldi, shu kuni qurolli qo'zg'olon g'alaba qozondi, deb e'lon qilindi. 1917-yil 15-noyabrda ish boshlagan o'lka ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarining 3-qurultoyida hukumat - Turkiston Xalq Komissarlari Sovetini tuzdi, unda 8 o'rin so'l eserlarga, 7 o'rin bolsheviklar bilan maksimalistlarga berildi. Faqat yevropaliklardan iborat hukumat tuzildi. Turkiston XKS raisi lavozimni chizmachi bolshevik F.Kolesov egalladi, harbiy komissar qilib izvoshchi Perfilev, boshqa komissarlik lavozimlariga o'rtamiyona yurist va shunga o'xshaganlar tayinlandilar. Tub aholi vakillaridan kiritilmadi.

Turkistonda tuzilgan hukumat, birinchi galda bolsheviklar mohiyatan chorizm mustamlakachilik siyosatiga amal qildilar. Oktabr to'ntarishidan keyin Turkistonda ham Bolsheviklarning Toshkentda hokimiyatni egallashi inqilobiy aqidalarga, eng avvalo sinfiylik tamoyillariga amal qilindi. Asosiy inqilobiy kuch proletariat va kambag'al dehqonlar, aholining boshqa qatlamlari ekspluatator guruh

deb e'lon qilindi. «Ijtimoiy adolat»ni o'rnatish, «odamning odam tomonidan ekspluatatsiya qilinishiga barham berish» uchun boyluklarni, ishlab chiqarish vositalarini egalaridan tortib olishga kirishildi. Ajnabiylar hukumati o'lkadagi harbiy qismlari, qurollangan ishchi gvardiyasiga tayanib ish ko'rdi. Shunday qilib, 1917 yil kuzida o'lkadagi so'l-bolshevistik doiralar, ular tuzgan hukumat, bir tomondan kolonial-shovinistik, 2- tomondan esa inqilobiy sinfiylik siyosati va bu boradagi amaliy ishlarni boshlab yubordi.

Turkistonning boshqarish tizimi va fevral inqilobidan keyin hukumat tuzilmalari- ning mahalliy aholiga nisbatan munosabati chorizm davriga qaraganda unchalik o'zgarmadi. To'g'rirog'i, ular mazmuni va shakli bir ozgina o'zgardi. Muvaqqat hukumat, uning joylardagi organlari imperieriyacha fikrlashidan kelib chiqib o'lka mahalliy aholisining siyosiy iroda va ehtiyojlarini nazar-pisand qilmadi, ularning boshqaruv jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatlarini chekladi.

Iqtisodiy siyosat xam avvalgidek qolaverdi. Buning ustiga, yangi hokimiyat xo'jalik vayrongarchiliklarining oldini olishda hamda, pishib yetilgan iqtisodiy muammolarni hal etishda sustkashlik ko'rsatdi. Natijada Turkiston iqtisodiy falokat yoqasida qoldi.

Bu hol, ayniqsa, qishloq xo'jalik sohasida yorqin ko'rindi. Muvaqqat hukumat Turkistonni hali ham xom ashyo, asosan, Rossiya sanoati uchun zarur bo'lgan paxta ta'minotchi sifatida ko'rar edi. Shu bois iqtisodiyotning hal qiluvchi tarmog'i qishloq xo'jaligi bir yoqlama rivojlandi.

O'lka iqtisodiy hayotiga kirib kelgan kapitalistik tovar-pul munosabatlari hali feodal jamiyat asoslariga putur yetkazadigan darajada emas edi, u ko'proq bozor soxasida, savdo-sudxo'rlik kapitali shaklida namoyon bo'lgandi. Siyosiy iqtisodiy hayotda feodal zamindorligi va mehnatni ekspluatatsiya qilishning feodal shakllari xukmron bo'lib qolgan edi. Mayda dehqon xo'jaliklari avvalgidek mahsulot yetishtirishning asosiy shakli bo'lib qolaverdi. Natijada qishloqda kambag'alchlik, vayrongarchilik kuchaydi, dehqonlar ommasi yersiz qoldi. Holbuki, qishloq xo'jaligini eng zamonaviy agrar o'zgarishlar yo'li bilangina taraqqiy ettirish mumkin edi. Afsuski, yangi hokimiyat, ko'plab yolg'on va'dalarga

asoslangan bayonotlarga qaramay, dolzarb bo'lgan yer-suv masalasini xal etish yuzasidan hech qanday amaliy ishlarni boshqarmadi⁴². Fevraldan keyingi davrda, xuddi avvaldagidek, Turkistondagi ekin maydonlarining kamida uchdan ikki qismi boy badavlat kishilar qo'lida jamlangan edi. 1917-yil ma'lumotlariga ko'ra, barcha dehqon xo'jaliklarining 51 foizi 98022 desyatina yerga egalik qilgan (xo'jalik boshiga bir desyatina gacha), bu o'lkada barcha ishlov beriladigan yerlarning 9,8 foizini tashkil etardi xolos. Ayni paytda, bir foiz xo'jaliklar 158589 desyatina yerga yoki barcha ishlov beriladigan yerlarning 16 foiziga egalik qilar edilar.

Sanoat ishlab chiqarishida ham xuddi shunday nomutanosibliklar saqlanib koldi. Turkiston sanoati juda sekin, asosan, paxta va chigitni dastlabki qayta ishlash, shuningdek, foydali qazilmalarni qazib olish bo'yicha uncha katta bo'lmagan korxonalar hisobiga rivojlandi. Korxonalar mayda, asosan, qoloq texnika bilan jihozlangan bo'lib, kam sonli ishchilarga ega edi.

Shaharlarda kosibchilik hali ham yetakchi o'rinni egallab, taxminan barcha fabrika-zavodlar ishlab chiqaradigan maxsulotga teng maxsulot tayyorlar edi (tog-kon va paxta tozalash korxonalaridan tashqari). Endigina yuzaga kelayotgan kam sonli milliy ishchi sinfi beshafqat ezib ishlatishga mahkum qilindi. Malakali mehnatning 70—80 foizini rus ishchilari bajarsalar, maxalliy millat vakillari kam malaka talab etmaydigan ishlarda mashg'ul edilar. Hatto bir xil malakaga ega bo'la turib ham milliy ishchilar rus ishchilariga qaraganda 30—40 foiz kam ish haqi olardilar. Ularning kundalik 14 soatlik ish haqi 30—40 tiyindan oshmasdi. Bu yarim och yashash bilan barobar edi.

Turkiston qo'mitasi oziq ovqat ahvolini yengillashtirish uchun ham hech bir chora ko'rmadi, faqat markazga yordam so'rab telegrammalar jo'natib turdi. Oziq ovqat qo'mitalari, shu jumladan, o'lka qo'mitalari ham turli manzilgohlarga murojaatnoma, va telegrammalar yuborardi, xolos. Qo'mita a'zolarining chayqovchilar va firibgarlar bilan til biriktirgan hollari ham ko'p edi.

⁴² A`zamxo`jayev S. Turkiston Muxtoriyati: Miilliy demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi//Mas`ul muharrir: D/Alimova//.-T.: "Ma`na6yat", 2000. -46-47 betlar.

Turkiston aholisi ko'zbo'yamachilik hisobiga boyiyotgan poraxo'rlar xo'jayinlik qilayotgan oziq-ovqat boshqarmalarini qayta tashkil etishni talab qildi.

“Samarqandda bu qo'mitalar, — deb yozgan edi “Hurriyat” gazetasi, — mahsulotlarni muhtoj va kambagallarga tarqatish o'rniga, bunga umuman ehtyoji bo'lmagan boylarga sotmoqda... Shu bois xalqqa masulotlar tarqatishni, ko'pchilik aholi talab etganidek, oziq-ovqat qo'mitalaridan mahallalarga berish kerak, biroq bunda qat'iy nazorat o'rnatish lozim, bo'lmasa hammasi eskichasiga qolaveradi” (“Hurriyat”, 1917, 15avgust).

Turkqo'mita Yettisuv viloyatidagi qirg'izlarning og'ir ahvoli xaqidagi ma'lumotlar yetib kelganda ham, sustkashlik va qat'iyatsizlik ko'rsatdi. Joylarga borib kelgan o'lka musulmonlari sho'rosi delegatlari shuni kuyinib aytishadiki, “Xitoydan qaytib kelayotgan qirg'izlarni ko'chmanchi-yettisuvliklar shafqatsiz o'ldirayotgani uchun favvqulodda choralar ko'rish lozim, ular o'ta muhtojlikka uchragan, ocharchilikda qolishgan...”.

Turkqo'mita 1917-yil 19-aprelda qirg'izlar haqidagi masalani tingladi va qaror qabul qildi: “... Ular Prjevalskiy va Pipshek uyezdlariga qo'yilmasin, balki hosilsiz toshloq yerlarga joylashtirilsin”.

Muvaqqat hukumat Yettisuvda ro'y berayotgan voqealar oshkor bo'lmasligi uchun barcha choralarni kurdi, biroq qozoqlar boshiga tushgan kulfat xaqidagi ma'lumotlar tez orada musulmonlar joylashgan Volgabo'yiga va boshqa joylarga yetib bordi. G'azablangan rossiyalik musulmonlar Turkiston qo'mitasi nomiga quyidagi mazmunda telegramma yuborishdi:

“Biz Yettisuv qirg'izlari haqida o'ta og'r xabarlar oldik. Eski tuzumda jazo otryadlaridan toglarga va qisman, Xitoyga qochib ketgan qirg'izlar yupun, och nochor, kasalmand ahvolda ortga qaytishmoqda. Hukumat tomonidan qurollantirilgan ko'chmanchi krestyanlar o'tgan-yilgi tartibsizliklar (1916-yilgi qo'zg'olon ko'zda tutilmoqda) uchun o'ch olib, ko'chib kelishga imkon bermayapti, qaytayotganlarni otishmoqda, ularga yordam kursatishga imkon berishmayotir. Darhol qirg'iz va rus komissarlarini harbiy komandalar bilan birgalikda jo'natish, mablag'lar ajratish, oziq-ovqat va kiyim-kechak yetkazib

berilish yordam ko'rsatish lozim" ("Proletarskaya revolyusiya", 1928, № 8, 118-bet). Biroq Turkqo'mita xech qanday harakat qilmadi. Bu mahalliy aholi orasida norozilik uyg'otdi⁴³.

O'zbekiston hududida o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qozoqlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar, ruslar, kelib chiqishi hindistonlik, afg'onistonlik, eronlik va boshqa mamlakatdan bo'lgan kishilar yashar edilar. Til va madaniyatdagi ba'zi tafovutlar ularning totuv va bahamjihat yashashlariga xalal bermagan. Ular ijtimoiy-siyosiy faoliyat ko'rsatib, ro'y bergan voqealar, o'zgarishlar, jarayonlar yo'nalishiga o'z ta'sirini o'tkazib borganlar. O'zbekistondagi milliy g'oya sog'lom va adolatli turmush tarzi olib borish, boshqa mamlakatlar xalqlari hayoti bilan tanishish, ular bilan savdo va madaniy aloqalarni o'rnatish kabi an'analarda mujassamlashgan. Ijtimoiy jihatdan aholining ko'pchiligini dehqonlar, so'ngra hunarmandlar, savdo-tijorat ahli, ziyolilar, yollanma ishchi-mardikorlar, ruhoniylar, rus posyolkalarining krestyanlari, aravakashlar, mahkama xodimlari tashkil qilgan. Sovet hokimiyati davrida banklar, aksionerlik jamiyatlari xodimlari, madrasa o'quvchilari, qisman masjidning imom-xatiblari guruhlariga zarba berildi, ular yo'q bo'ldi yoki doirasi qisqarib ketdi. Amalga oshirilgan iqtisodiy o'zgarishlar jamiyatning asosiy ijtimoiy guruhlariga salbiy ta'sir ko'rsatganiga qaramasdan, ular 20-yillar boshiga kelganda o'z xo'jalik faoliyatlarini davom ettirishga intildilar.

O'zbek dehqonlari xo'jalik salohiyati nuqtai nazaridan uch guruhga bo'linardi: badavlat dehqonlar, o'rta salohiyatli dehqonlar hamda kambag'allar. Sovet hokimiyati davridagi ba'zi o'zgarishlarni hisobga olmaganda, bu holat 20-yillar oxirigacha davom etib keldi. Turkistonning uchta o'zbek viloyatlaridagi dehqon xo'jaliklarining uchdan ikki qismiga yaqini ikkinchi guruhga molik bo'lgan. Buxoro davlatining markazi va g'arbiy qismlarida hamda Xorazmning voha qismida ham manzara umuman olganda shunday edi. Iqtisodiy mustaqil xo'jaliklarning o'rta hisobda 2 desyatina sug'oriladigan yeri, ish hayvonlari va

⁴³ A`zamxo`jayev S. Turkiston Muxtoriyati: Miilliy demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi//Mas`ul muharrir: D/Alimova//.-T.: "Ma`na6yat", 2000. -47-49 betlar.

boshqa mehnat vositalari bo'lgan. Dehqonlar tomonidan ekilib, hosili yig'ib kelingan yerlar ijtimoiy, shuningdek, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

Shaharlarda, uyezdlar, volostlar, beklklar va tumanlar mavzellarida, ishchi posyolkalarida O'zbekiston hududidagi aholining beshdan bir qismi yashar edi. Bu hunarmandlar, savdogarlar, xizmatchilar, ishchilar va boshqalar edi. Materiallar va xomashyoning kamayib va qimmatlashib borishi, buning ustiga sovet hokimiyatining tazyiqi hunarmandlar ahvoriga ham ta'sir qildi. Lekin hunarmandlar soni qisqarmadi, aksincha, ba'zi joylarda ko'paydi. Chunonchi, chetdan sanoat mollari kelishining kamayishi mahalliy kosibchilar mahsulotlariga talabni oshirib yubordi.

Masalan, Farg'ona va Sirdaryo viloyatlaridagi mahalliy to'qimachilik do'konlarini 1913-yilda 1100 kosib ishlatib turgan bo'lsa. 1920-yilda ularning soni 2280 kishiga yetdi. To'la bo'lmagan ma'lumotlarga qaraganda, 1920-yilda Turkistonda 150 ming (1917-yildagi 91241 o'rniga) hunarmand bo'lib, ulardan ko'ngchilar 8680, etik va mahsido'zlar 24030, ip yigiruvchilar 20150, to'qimachilar 62150, temirchilar 7470 kishini tashkil qilgan. Ko'plab sanoat korxonalarini to'xtab qolishi oqibatida ishsizlar soni ko'paygan, ularning ham bir qismi kosibchilik bilan shug'ullangan.

Turkistonning Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona viloyatlarida qariyb 400 ta rus posyolkalari bo'lib, undagi aholi 100 ming kishi atrofida edi. Ularni rus krestyanlari, temir yo'l ishchilari, baliqchilar tashkil qilardi. Shuningdek, O'zbek shaharlarining yangi shahar qismlarida ham rus ishchilari, turli xizmatchilar yashagan. 1920-yilda Rossiyaning ko'p guberniyalarida qurg'oqchilik bo'lishi natijasida Turkistonga 60 mingdan ko'p ochlar keldi. Mamlakatning Yevropa qismidan keluvchilar oqimi to'xtovsiz davom etdi. Turkistonda xususiy mulkchilik bekor qilingan joylarda vayrongarchilik kuchayib bordi, egasiz korxonalar, yer maydonlari, bog'lar qarovsiz qoldi, ulardagi jihozlar talab ketildi. O'lkada qimmatchilik va inqiroz chuqurlashib bordi.

O'lkada, ayniqsa, shaharlarda g'alla, aholini non bilan ta'minlash muammosi jiddiy tus oldi. Nonni, boshqa mahsulotlarni kartochkalar bilan cheklangan

miqdorda taqsimlash joriy qilindi. Bunga sinfiylik omili ham qo'shildi. Iste'molchilar soni esa pasaymadi. Buning usti-ga qizil armiya qismlari ham mahalliy zaxiralardan ta'minlanar edi.

Sanoat bilan qishloq xo'jaligi, shahar bilan qishloq o'rtasida mol almashuvining yo'qolib ketishi natijasida g'alla, oziq-ovqat mahsulotlarining dehqonlar tomonidan olib kelib sotilishi barham topdi. Oziq-ovqat diktaturasi qoniqarli natija bermadi.

Xalq xo'jaligidagi vayrongarchilik, iqtisodi-yotning izdan chiqishi. Sovet hokimiyati to'g'ridan-to'g'ri dehqonlarni hamda o'lkadagi rus krestyanlarini talashga, zo'rlik bilan ulardagi g'alla, oziq-ovqat, yem-xashak, ot-ulov, mollarni tortib olib ketishga kirishdi. Bunday bosqinchilik xatti-harakatlarini amalga oshirishda Turkistondagi bolsheviklar, qizil armiya qo'mondonligi Rossiyada joriy qilingan tadbirlardan andoza olmoqchi bo'ldilar.

Turkistonda 1920-yilga kelib qator dekretlar chiqarilib, oziq-ovqat razvyorstkasi joriy qilindi, ya'ni oziq-ovqatga davlat monopoliyasi asosida xo'jaliklardan ortiqcha g'alla va boshqa mahsulotlar majburan tortib olinadigan bo'ldi. Amalda esa soldatlar va qurollangan ishchilar (oziq-ovqat otryadlari) xo'jaliklardagi jamiki g'alla va boshqa mahsulotlarni zo'rlik bilan olib keta boshladilar, hatto urug'likka qoldirilganlari ham talab ketildi. Shahar bilan qishloq o'rtasida natural mol almashish va'da qilinganiga qaramasdan, dehqon xo'jaliklari hech qanday sanoat mollari olmadi. «Harbiy kommunizm» nomini olgan bu siyosat asosida shahar va tumanlarda voyaga yetgan va 55 yoshgacha bo'lgan mehnat bilan band bo'lmagan har bir fuqaro majburiy ravishda mehnatga jalb qilindi. Hatto namoz paytida askarlar masjidlarga bostirib kirib odamlarni zo'rlik bilan ishga haydab borgan. Dehqonlarni talash ularning qahr-g'azabi, noroziligini yanada oshirdi. Razvyorstka o'lkadagi rus krestyanlariga nisbatan ham amalga oshirildi, ularning noroziliklari, qarshiliklari ba'zida jiddiy tus oldi. Shunda ular sovet hokimiyati dushmanlari, krestyanlar posyolkalari esa «quloqlar posyolkalari» deb qoralandi. 1920-yil yozida Markazda ularga qat'iy choralar ko'rish belgilandi. 1921-1922-yillarda krestyanlarning yerlari natsionalizatsiya qilindi, bu tadbir yer

reformasi (islohoti) deb ataldi. Uning asosiy rayoni Yettisuv viloyati bo'ldi, Turkrespublika bo'yicha davlat yer fondiga olingan 230 ming desyatina yerdan 26 ming desyatini o'troq dehqonlarga berildi.

Shu bilan birga yevropalik yer egalariga nisbatan siyosat o'zgaruvchan bo'ldi, ba'zida bog'lar, mollar, yerlar egalariga qaytarib ham berildi. Rossiyaliklarning Turkistonga kelishi, ularning yer bilan ta'minlanishi davom etdi.

Sovet hokimiyati dehqonlar qarshiligini sindirish maqsadida ular orasida nizo va dushmanlikni keltirib chiqarmoqchi bo'ldi. 1920-yilda bo'lib o'tgan o'lka sovetlarining IX qurultoyi qishloqda sinfiy tabaqalanishni ayj oldirish to'g'risida qaror qabul qildi.

Oziq-ovqat razvyorstkasi, «harbiy kommunizm» Turkistonda normal xo'jalik aloqalarini buzdi, xo'jalik faoliyatining bosh obektiv qonuniyati bo'lgan moddiy manfaatdorlik tamoyilini yo'qqa chiqardi.

Sovet hokimiyatining iqtisodiy sohada ko'rgan choralari samarasiz bo'lib chiqdi. o'lkadagi xo'jalik hayotining inqirozi tobora halokatli tus olib bordi. Asrlar davomida tarkib topgan, dunyo mamlakatlarida mavjud bo'lgan xo'jalik shakllari va munosabatlari Turkistonda inqirozga yuz tutdi.

Turkistonda aholi barcha qatlamlarining moddiy va ijtimoiy ahvoli keskin og'irlashib ketdi. Xo'jalikdagi vayrongarchilik, ziroatchi aholining surbetlarcha talanishi xalq ommasini zarur mahsulotlar, birinchi navbatda non bilan ta'minlash ishini butkul izdan chiqardi. Odamlarning tuz, kerosin, sovun, paxta yog'i topishlari amri mahol bo'lib qoldi. To'qimachilik matolari, oddiy kalish, gugurt va shu kabilar savdodan yo'qoldi. Natijada qishloqlarda eski mato to'qish dastgohlari ishga solinib, dag'al bo'z va qalama to'qish bilan zarur ehtiyojlarni qondirish yo'liga o'tildi.

Qahatchilik zarbalarini butun aholi seza boshladi. Ayniqsa, shaharlar va posyolkalardagi aholining moddiy ahvoli juda og'ir kechdi. Farg'ona viloyatida achinarli ahvol vujudga keldi. Ishsizlik, ochlar, gadolar, vayron bo'lgan qishloqlardan va Rossiya guberniyalaridan kelgan juldur va boshpanasiz bolalar qayg'uli va mudhish manzarani tashkil qilardilar.

Aholi moddiy turmush darajasining yomonlashib borishi. Xodimlari, idora xizmatchilari, shuningdek, ayrim ishchi guruhlarining ish tashlashi xavfini tug'dirdi. Turar joy yetmaganligi tufayli ishchilar yuk vagonlaridan uy-joy sifatida foydalandilar. To'rt yil davomida Farg'ona viloyati aholisining soni to'rttdan bir qismga kamaydi. Bunday kamayish o'lkaning boshqa viloyatlarida ham ma'lum darajada ro'y berdi va keyingi qator yillarda davom etib bordi. 1920-yillar o'rtasiga kelib Farg'ona va Samarqand viloyatlaridagi dehqon xo'jaliklari soni 1917-yildagi 613506 tadan 372000 taga qisqardi. Sirdaryo viloyatini ham qo'shib olganda bu uch viloyat hududida aholi soni 3 mln emas, 2 mln 76 ming kishini tashkil qildi.

Moliya, sanoat tarmoqlari, transport, hunarmandchilikdagi o'zgarishlar. Sanoat bo'yicha sanoat, savdo, qishloq xo'jaligi va boshqa komissarliklar tuzilib, ish olib bordi. Turkiston respublikasining Xalq xo'jaligi Kengashi (1918-yil aprel), uning joylardagi tashkilotlari xo'jalik faoliyatiga rahbarlik qildilar. Tadbirkorlik bilan shug'ullanib kelgan jamiyatlar tarqatib yuborildi, xususiy mulk egalari tekinxo'rlar deb e'lon qilinib, fuqarolik huquqlaridan mahrum qilindi. Buning ustiga ularga tez-tez kontribut-siyalar (tovon, jarima) solindi, ular majburiy mehnatga jalb qilindilar.

Xususiy mulk yo'q qilinib, egasiz qolgan iqtisodiyot shiddat bilan talon-taroj bo'ldi. 1917-yilda o'lkada 326 ta paxta tozalash, yog'-sovun zavodlari bor edi. Ularning soni qisqarib borib, 1918-yilda 69 taga, 1919-yilda 43 taga, 1920-yilga kelib esa 37 taga tushib qoldi. Paxta yog'i, sovun ishlab chiqarish, toshko'mir va neft qazib olish nihoyat darajada pasayib ketdi. Temir yo'lda ishla-mayotgan parovozlar, vayron bo'lgan vagonlar soni tez ortib bordi. 1917-yilda Turkistonda 91242 hunarmand bo'lib, ulardan 52796 tasi shaharlarda, 38446 tasi qishloqlarda faoliyat ko'rsatgan. Farg'ona, Samarqand viloyatlari, Toshkent shahri va atrofida 31353 ta hunarmandchilik korxonalarini bo'lib, ular hunarmandlarning xususiy mulki bo'lgan. Ular davlat mulki deb e'lon qilindi. Hunarmandchilik ustidan qattiq nazorat o'rnatildi, mahsulotlar hokimiyat tomonidan taqsimlanadigan boldi. O'lkada savdo-sotiq buzildi, oziq-ovqat tanqisligi natijasida hamma bozorlar

yopildi, non bilan ta'minlash, g'alla davlat idoralari xtiyorida markazlashtirildi. Iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun Turkiston XKS pul emissiyasiga zo'r berish yo'lini tan-ladi. 1918-yil yoziga kelganda pul-moliya tangligi pulning o'ta qadrsizlanishiga olib keldi. o'lka hukumati o'z pul qiymati — Turkiston bonlarini chiqara boshladi, ba'zi joylarda o'z kredit biletlari chiqarildi.

Ishchilarning moddiy ta'minoti buzildi, ishlab turgan korxonalariga ishchilar yetishmay qoldi. 1919-yil yozidan 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan aholi yalpi majburiy mehnatga tortildi. 1920-yilda paxta tozalash sanoati, so'ngra irrigatsiya tarmoqlari ishchilari harbiy holatga ko'chirildilar. Shuningdek, ba'zi harbiy qismlar mehnat qismlariga aylantirildi.

Ko'rilgan chora-tadbirlar o'lka xalq xo'jaligini og'ir ahvoldan — jiddiy inqirozdan qutqara olmadi.

13.2-§. Turkistonda sovet hokimiyatining dastlabki iqtisodiy o'zgartirishlari

«Harbiy kommunizm» siyosati Turkiston Avtonom Respublikasi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini tushkunlik holatiga, ayniqsa, agrar sohani halokatli ahvolga olib keldi. Masalan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish 1914-yilgii darajaga nisbatan 1921-yilda 48,8%ga qisqardi. Sug'orish inshootlari misli ko'rilmagan darajada barbod bo'ldi. Chorvachilikka jiddiy ziyon etdi. Chorva mollari 1920-yilga nisbatan 3 baravardan ziyodroq qisqardi. 1915-yilda mavjud bo'lgan 24 mln. boshdan faqat 8.112 ming bosh mol saqlanib qolgan edi. 1921-yilda esa bu jarayon yana ham kuchaydi.

Dehqon xo'jaliklari va ishga yaroqli aholining soni sezilarli ravishda kamaydi. Xususan, 1921-yilning boshlariga kelib, dehqon xo'jaliklarining soni 1915-yildagiga nisbatan 15%, ularda ishlovchi ishga yaroqli erkaklarning soni 36% qisqardi. Boshqacha aytganda, oilalarning uchdan bir qismidan ko'prog'i boquvchisiz qoldi.

Yangi iqtisodiy siyosatga o'tilishi munosabati bilan agrar ishlab chiqarishni yuksaltirishga qaratilgan xo'jalik tadbirlari zanjirida mustaqil ish olib boruvchi,

mahsulot ishlab chiqaruvchi yakka dehqonning manfaati oldingi o'ringa qo'yildi. Mayda tovar ishlab chiqaruvchi esa iqtisodiy tizimning mustaqil harakat qiluvchi sub'ekta bo'lishi uchun uning erga egalik qilishini ta'minlash, imtiyozli soliq solish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirishni ko'paytirishning iqtisodiy omillarini joriy etish mo'ljallangan edi. Bunda xo'jalik jarayonini boshqarishda davlatning faol roli belgilab berildi.

Paxtachilik alohida g'amxo'rlikni talab qiladigan soha bo'lib, unda yuzaga kelgan tanglik holatlari ancha keskin darajada edi. 1915-yilda Turkistonda 669 ming desyatina maydonga paxta ekilib, undan 831 ming t. hosil olingan edi. 1921-yilda esa, yalpi terib olinangan paxta hosili faqat 15 ming t.ni tashkil etdi. paxta yetishtiriladigan maydon 1922-yilga kelib 11,5 ming desyatnaga tushib qoldi.

Paxtachilikning inqirozi metropoliyaning iqtisodiy manfaatlariga jiddiy ta'sir kildi. Shuning uchun ham markaziy xukumat birinchi navbatda paxtachilikni tiklash haqida tashvish torta boshladi. Mamlakatda paxtachilikni markazlashgan holda rivojlantirish uchun RSFSR Oliy Xalq Xo'jalik Kengashi huzurida Bosh Paxta qo'mitasi (Glavxlopkom) va paxta etishtiruvchi respublikalarda unga bo'ysunadigan paxta qo'mitalari ta'sis etildi. 1921 yil 13 sentabrda Lenin «Paxtachilikni, paxta tozalash sanoatini va paxta tayyorlashni davlat yo'li bilan tashkil etish to'g'risidagi Nizom»ni imzoladi. Bu nizom paxtani davlat monopoliyasi qilib mustahkamladi. Dehqonlarni paxta etishtirishga rag'batlantirish maqsadida markaziy davlat tuzilmalari qishloq xo'jalik ishlarini budjetdan mablag' bilan ta'minlash, qishloq xo'jalik qurollarini olib kelish, kamquvvatli xo'jaliklarni ish hayvonlari bilan ta'minlash choralarini ko'rdilar. Ko'rilgan choralar xo'jalik sohasida muayyan samarasini berdi.

Irrigatsiyani qayta tiklash, sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash muammolari o'ta qiyinchilik bilan hal qilinayotgan edi. Hokimiyat organlari suv xo'jaligini tiklash ishlariga keng dehqonlar ommasini majburan jalb qilishga asosiy e'tibor berdilar. 1921 yil 11 mayda Turkiston Avtonom Respublikasi XKK Moskvaning talabi bilan o'lkadagi irrigatsiya ishlarini harbiylashtirish to'g'risida dekret qabul qildi. Ayni vaqtda to 1923-yilga qadar dehqonlar zimmasida mehnat va ot-ulov

majburiyati saqlanib qoldi, keyin u «natura majburiyati» deb qayta nomlandi. Dehqonlar 1921-yilda bu majburiyat hisobiga irrigatsiya tizimlarida 2 mln. kishikunidan ortiq tiklash ishlarini bajardilar, bu pul bilan hisoblanganda 2,390 ming so‘m oltinni tashkil etardi.

Turkistonlik dehqonlarning majburiy bepul mehnati irrigatsiya shoxobchalarini ta‘mirlash masalalarini qisman hal qilishga yordamlashdi. Lekin suvdan foydalanish tizimini ta‘mirlash va tartibga solish sohasidagi asosiy ishlarni faqat aholining kuchi bilangina amalga oshirib bo‘lmasdi. Davlat buni his qilgan holda irrigatsiya ishlariga budjetdan tobora ko‘proq mablag‘ ajrata boshladi. 1923-yilda bu mablag‘lar 5.567 ming, 1924-yilda esa 6.260 ming oltin so‘mni tashkil etdi.’ Shu bilan birga dehqonlarning bepul mehnatidan samarali foydalanishga qaratilgan yo‘l saqlanib qoldi. 1923-yilda qishloq ahli natura majburiyati hisobiga qariyb 3,6 mln. kishi ishlab berdi, uning umumiy miqdori 3,8 mln. so‘mdan ortiq edi. Yangi iqtisodiy siyosatni isloh qilish yillarida o‘zgarishlarning muhim yo‘nalishi — muvofiqlashtirilgan yer siyosatining o‘tkazilishi bo‘ldi. Biroq, unda avvalgi yillardagi agrar siyosatning ko‘pgina jiddiy nuqsonlari saqlanib qolgan edi. Bular jumlasiga sinfiy yondashuvning ustivorligi qishloq aholisi orasida har tomonlama ijtimoiy tabaqalanishni kuchaytirish, Turkiston qishloqlarini sotsialistik qayta qurish kirar edi. Mazkur yondashuv 1921—1922 yillarda amalga oshirilgan yer-suv islohotida yaqqol ifodalandi. Agrar islohot yangi bosqichining umumiy vazifalari TKP V syezdi va Turkiston sovetlarining X qurultoyi (1920 y. sentabr) qarorlarida belgilab berilgan edi. Bu vazifalarni 3 guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi vazifa — sotsialistik yo‘nalishda bo‘lib, u «mehnat bilan shug‘ullanmaydigan boy-quloq xo‘jaliklari»ni tugatish va ko‘chmanchi aholini o‘troq holatga o‘tkazishdan iborat edi. Ikkinchi vazifa — «inqilobiy-demokratik xususiyat»ga ega bo‘lib, u erlarni ersiz va kam erli dehqonlar, batraklar, chorikorlar o‘rtasida mehnat normalari bo‘yicha taqsimlashni o‘z ichiga olardi’. Uchinchi ustivor yo‘nalish chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosatining kuchli sarqitlarini engishga qaratilgan bo‘lib, bu sarqitlar shu narsada ifodalanar ediki, mahalliy aholi yerlarining ko‘pchilik qismi, ayniqsa, Stolipin islohotlari davrida

chorizmning ko'chirish siyosati natijasida kelgindi rus dehqonlari tomonidan egallab olingan edi. Islohotlarning boshlanish davriga kelib qishloq xo'jaligidagi ko'chirib keltirilgan rus aholisining soni hammasi bo'lib 8%ni tashkil etardi, lekin ular butun madaniy yerlarning deyarli yarmini egallagan va mahalliy aholiga nisbatan yer bilan 15 baravar ko'p ta'minlangan edi.


Islohotni amaliy jihatdan ro'yobga chiqarishga 1921-yilning bahorida kirishildi. Islohot o'tkazish uchun dastlab ettisuv, Sirdaryo, Farg'ona viloyatlari olindi. Islohotning birinchi bosqichida asosiy vazifa ko'chirib keltirilgan ruslarning erlarini tortib olishdan iborat siyosiy «foydali» ishni amalga oshirish bo'ldi. Ko'chirib keltirilganlarning asosiy qismi quloqlar deb e'lon qilindi, ularning o'z manfaatlarini himoya qilishga urinishlari «quloq-mustamlakachi unsurlarning qarshilik ko'rsatishi» deb baholandi. Yer-suv islohoti favqulodda tadbirlar shaklida o'tkazildi. Islohotning asosiy vositasi — ma'muriy tazyiq o'tkazishdan iborat bo'ldi.

13.3-§. Sovet hokimiyati hukmronligining dastlabki yillarida o'lkada sug'orish tarmoqlarining ahvoli

Samarqand viloyatini suv bilan ta'minlovchi asosiy manba Zarafshon vohasidir. O'rta Zarafshon daryosining asosiy iste'molchilari Samarqand, Buxoro, Zarafshon okruglari bo'lib, 1926 - 1927 yillarda 165 ta har xil kattalikdagi ariqlar shu daryodan suv olgan. Bu ariqlarning atrofidagi sug'oriladigan yerlar maydoni 100 gektardan 80 ming gektargacha bo'lgan.

Bu inshootlarning ta'mirlanishi katta kuch va xarajatlarni talab etgan, suv chiqarishning boshqarilishi qiyinligi, zamonaviy mukammal-lashtirilgan regulyator yo'qligi, suv umumiy massasining rayonlarga bo'lib berilishida qiyinchilik tug'dirib, yer maydonlarining katta qismini qurib borishiga olib kelgan.

Mirzaariq magistral kanali Zarafshondan boshlanib 20 kub metr suv hajmiga ega bo'lgan. Mirza ariq Bulung'urga quyilgan va u yerda asosan sholi ekilgan. Magistral Payarig'i (hozirgi Payariq) Bulung'urdan boshlanib, Mirzoariqning davomi hisoblanadi va u 5 ta katta ariqqa bo'linadi.



Zarafshon vodiysida 1913-1916 yillarda loyihalashtirilgan suv omborlarining sxematik xaritasi.⁴⁴ Shartli belgilar: 1-suv omborlari; 2-yangi kanallar; 3-o‘zlashtiriladigan yerlar; 4-nasos stansiyasi; 5-gedroelektrstansiya; 6-loyihalashtirilgan temir yo‘llar.

To‘qizariq bo‘limi shart-sharoitiga ko‘ra yuqoridagi ikkitasiga o‘xshamaydi. Nomidan kelib aytish joizki, bu ariq 9 ta mustaqil kanallardan iborat. Ular suvni Oqdaryodan olgan. Bu bo‘limda suv etarlicha bo‘lgan. Boshqa ekinlar ekish foydasizligi uchun sholi va boshqa ziravor o‘simliklar, poliz ekinlari, oz miqdorda paxta ekilib, moy beradigan o‘simliklar ekilgan. Beda umuman o‘smaydi.

O‘sha davrning eng yirik suv xo‘jaligi obekti bo‘lgan Zarafshon daryosidagi Ravotxo‘ja to‘g‘oni 1916-yilda qurilib bitkazilmagan eski to‘g‘on ustiga qayta qurilgan. I.I.Levi loyihasi bo‘yicha qurilgan Ravotxo‘ja to‘g‘oni suvni Zarafshondan sekundiga 1350 kub metr tezlikda suv o‘tkazish kuchiga ega bo‘lib, 1921-yilgi kuchli toshqin vaqtida sekundiga 900 kub metrli bo‘lgan suv toshqinidan 1,5 barobar kuchliroqdir. To‘g‘on 1927-1929 yillarda qurilgan bo‘lib, uning ochilishi 1930-yilning 2 mayida bo‘lib o‘tgan. U bir to‘g‘on va ikki regulyatordan iborat bo‘lib ular daryoning ikkala qirg‘og‘i bo‘ylab magistral kanallarni suv bilan ta‘minlagan. Samarqand viloyatida sug‘oriladigan yerlarning kattagina qismi shu to‘g‘on yordamida sug‘orilib, suv taqsimlanishi idora qilingan.

⁴⁴ Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug‘orilish tarixi (Qadimgi davrdan – XX asr boshlarigacha). – T., 1972. – 256-bet

Ravotxo'ja suv olish inshooti xizmatidan foydalangan rayonlar o'zining asosiy o'rni va vodiya yaqinligi bilan bu suvlarning eng asosiy iste'molchilari hisoblanadi.

1926-yilda mazkur rayonlar vodiyni ekin ekiladigan yer maydonlarining 34,5 foizga ega bo'lib, Zarafshon daryosining 42,7 foiz umumiy hajmdagi oqar suvlaridan foydalangan. Katta miqdordagi suvni vodiyni yuqori qismida sarflanishi Buxoro vohasiga suv taqsimlashni chegaralab qo'ygan. Shuning uchun bu yerda 1928-yilda sug'orishga mo'ljallangan 73143 gektar yerdan faqatgina 48031 gektar yer yoki 70 foiz yerlar ishlatilgan. Zarafshon daryosini sug'orish sistemasining ekspluatasion harajatlari uncha katta bo'lmagan. 1925/1926 yillarda ular bir yarim million rublni yoki o'rta hisobda har bir xo'jalikka 7 rubl 49 tiyin, 1 gektar yerga esa 4 rubl 22 tiyin to'g'ri kelgan.

1926-yilda amalga oshirilgan yirik ishlar qatoriga 1925 yil oktabrida qaytadan yo'lga qo'yilgan Xo'jand uyezdining Nov rayonidagi Qurqat kanali ham kiradi. Kanalning bosh qismi qayta qurilib, unga regulyator moslamalari qurildi va tog' cho'qqisidan o'tadigan 1017 metrli tunnel qurildi. Qurqat kanalini qayta ta'mirlash uchun olib borilgan asosiy ishlar 1926-yilning 1 mayida tugallandi. Bu vaqtga kelib Samarqand suv xo'jaligi tomonidan yangi yerlarni o'zlashtirish va ekin ekiladigan dalalarga suvni o'z vaqtida yetkazish uchun 1920330 rubl sarflangan bo'lib, shundan 285 ming rubl Qurqat kanali uchun ajratilgan. 1926-yili Samarqand suv okrugi bo'yicha Qoradaryo suv taqsimoti ostki to'g'oni qurib bitkazildi, Yangiariq, Qoratepa va Toshtepa soylari kesuvda akveduk (osma quvur) lar qurish ishlari olib borildi.

Davlat tomonidan 7000 rubl 10000 gektar yangi yerlarni loyihalash va tadqiqot ishlari uchun ajratildi. Samarqand shahridan 8 km uzoqlikda joylashgan Tollig'ulon suv dambasi qurilishi rejalashtirilgan. Bu inshoot 15 ming gektar yerni sug'orish kerak bo'lib, Samarqanddan 25-40 km uzoqlikda joylashgan Polvon, Oq Sharshar, Sabaloq, Mitan, Qora, Tuyatortar, Oq ko'l, To'g'iz, Qoraqat kanallarida beton suv chiqarish tarmog'i qurish rejalashtirilgan. Umumiy hajmda ular 6 ming gektar yerni sug'orish kerak edi. Mazkur kanallarda qurilish ishlari uchun 26840

rubl ajratilgan. Yuqorida aytib o‘tilgan barcha qurilish ishlari 1920330 rublni tashkil etadi. Bu mablag‘ning asosiy qismi davlat budjeti hisobidan edi.

Suv inshootlari qurilishida hashar ishlari ham amalga oshirilgan bo‘lib, 1924-yilda 800 ming rubllik, 1925-yilda tozalash va mayda ta‘mirlash ishlari bo‘yicha 941388 rubllik, 1926-yilda esa 947040 rubllik ish hajmi bajarildi

Yer-suv islohoti davrida “Qo‘shchi” ittifoqlarining birlamchi vazifasi meliorativ shirkatlarni rivojlantirish va mustahkamlashdan iborat bo‘ldi. Turkiston ASSRda meliorativ shirkatlari 1923-yildan tashkil qilina boshlangan bo‘lib, lekin ularning soni oz miqdorda edi. 1924-yilda 9 ta meliorativ shirkatlari tashkil qilingan bo‘lib, ulardan 2 tasi Samarqand viloyatida faoliyat ko‘rsatgan.

1925-yilda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun O‘zbekiston suv xo‘jaligi tomonidan meliorativ ishlar uchun 200 ming rubl ajratilib, ular sug‘orish sistemasini rivojlantirib borish uchun ishlatilgan. “Qo‘shchi” ittifoqining ishtirokida 1925 yil oxirigacha Respublikada 52 ta meliorativ shirkatlar tuzilgan bo‘lsa, 1926-yilning 1mayiga kelib 118 ta meliorativ shirkatlar faoliyat olib borgan. Shu-yilning 15 iyuliga kelib faqatgina Samarqand viloyatida 29 ta meliorativ shirkatlar tuzilib, ularga 10 mingta dehqon xo‘jaliklari birlashgan. Meliorativ shirkatlarning uездlar bo‘yicha bo‘linishi Samarqand uездida -18 ta, Xo‘jandda-5 ta, Jizzaxda-1 ta, Kattaqo‘rg‘onda-1 ta, O‘ratepada-1 ta bo‘lgan .

Meliorasiya jamg‘armasining ajratilgan maxsus mablag‘idan tashqari 1929-yilda Samarqandning 29 ta meliorativ shirkatlariga yer-suv islohotiga ajratilgan ssudalardan 90 ming rubl berilgan bo‘lib, ular rejalashtirilgan yangi yerlarni sug‘orish uchun sarflangan. viloyat suv xo‘jaligi Respublika davlat budjetidan 516 ming rubl oldi va Angor, Siyob, Yangi, Pay, Polvon kanallaridan 5000 gektar yerlar sug‘oriladigan bo‘ldi. 1926 yil aprelida Respublika Markaziy Komiteti buyrug‘i bilan 15 ming rubl pul O‘zbekiston suv xo‘jaligi jamg‘armasidan, 3000 rubl esa Samarqand viloyati ijroiya qo‘mitasi tomonidan eski Tuyatortar kanalini tuzatish ishlari uchun ajratildi. Bu ishlar muvaffaqiyat bilan yakunlanib, kanal suvni o‘tkazish kuchi sekundiga 4,5 kubometrغا etdi va kanal Jizzax uездini suv bilan ta‘minlay boshladi.

To'g'onga 7,3 mln. kub metr shag'al to'kildi va bundan tashqari 4 mln.kub metr qazuv ishlari amalga oshirildi. Qurilayotgan to'g'on balandligi 13.5 metrga ko'tarildi, bu esa o'z navbatida 120 mln.kub metr suvni yig'ish imkonini berdi.

Suv ombori loyihasini O'rta Osiyo suv ishlab chiqarish (Sazvodproiz) tashkiloti xodimlari N.G.Borodinskiy, V.N.Gladey va I.D.Lebedevlar ishlab chiqishgan. Qurilish ishlarini I.G.Burdiashvili, S.K.Kalujnyuk, Sh.Ch.Aytmetov, V.F.Shpotinlar boshqardi. Suv omborining qurilib ishga tushirilishi natijasida Samarqand va Buxoro viloyatlarida 60 ming gektar yerni sug'orish imkonini berdi. Katta Farg'ona kanali qurilishi davom etayotgan bir vaqtda Samarqand viloyat mehnatkashlari ham o'n kun ichida uzunligi 43 km bo'lgan Zarafshon kanali qurilishi ishlarini amalga oshirdi.

Xullas, XX asrning birinchi yarmida Zarafshon vohasi miqyosida qurilgan irrigasiya inshootlari yangi dehqonchilik vohalari yuzaga kelishiga olib kelgan. Bu esa shu hudud aholisi kundalik turmush tarzi, mashg'uloti mazmuniga ta'sir etib, o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyotni shakllantirgan.

13.4-§. Sovet tuzumi davrida vaqf erlarining tugatilishi va uning oqibatlari

Musulmon ruhoniylarining vaqf mulklarining ancha qismini vaqf sirlari tashkil qilardi. Bu yerlar o'z davrining tadbirkor, ishbilarmon mulkdorlari tomonidan masjid, madrasa, qorxonalar, maktab, mozor va boshqalarni ta'minlash uchun vaqf qilingan. O'zbekiston SSR Maorif xalq komissariati huzurida Bosh vaqf boshqarmasi tuzilganda vaqf yerlari haqida aniq ma'lumotlar bo'lmagan. Boshqarma va uning joylardagi Vaqf bo'limlari vaqf mulklarini, jumladan, vaqf yerlarini hisobga olgan. Bosh vaqf boshqarmasining 1924 yil 1 yanvargacha bo'lgan ma'lumotiga qaraganda Toshkent, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida 3276x desyatina vaqf yerlari bo'lgan⁴⁵. Vaqf tashkilotlari gnrirnn ijaraga berib ijara haqi olgan.

⁴⁵ Alimov I. O'zbekistonda vaqf mulklarining tugatilishi (1917-1929 yillar). T: Fan, 2009. 178-bet

1924 yil 31 yanvarda Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Soveti (XKS) Bosh vaqf boshqarmasi va uning mahalliy idoralariga vaqf yerlaridan foydalanish va bu yerlardan ijara haqi olishni taqiqlash to'g'risida qaror qabul qilgan⁴⁶. XKS ning qaroriga asosan qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlardan, jumladan vaqf yerlaridan faqat qishloq xo'jalik solig'i olinishi kerak bo'lgan. Vaqf yerlari Bosh vaqf boshqarmasi qaramog'idan olinib Ziroat xalq komissariatiga berilgan edi, Bu yerlarni ilgari madrasa, maktab, qorxonona, mozor mutavallilaridan ijaraga olib foydalangan vaqfkor dehqonlar XKS qaroridan keyin moliya idoralariga qishloq xo'jalik solig'i to'ladilar.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasida 1924-yilda 488 tanob vaqf yerlar hisobga olingan edi. Shulardan 161127 tanob yer diniy vaqflarga tegishli edi. Buxoro Respublikasi vaqf idoralari madaniy va diniy vaqflarga qarashli vaqf yerlarini boshqargan va ijaraga berib foydalanishni tashkil qilgan. Diniy tashkilotlar yerlarni ijaraga berib, hosilni 0.3-0.4 qismini ijara haqi sifatida olardi. Vaqflarga tegishli yerlardan 1923-yildan boshlab IV Umumbuxoro sovetlarining qurultoyi qaroriga asosan hosilning o'ndan bir miqdorida ushur (solig) olish joriy qilingan. Madaniy-ma'rifiy vaqf yerlardan davlat solig'i Moliya xalq nozirliги tomonidan olingan. Diniy vaqf yerlaridan vaqf bo'limlari hosilning 0,1 miqdorida ushur solig'i yig'ib olgan. Yig'ilgan mablag'ning vaqf idoralari xarajatidan tashqarisi vaqfnoma shartlariga asosan foydalanilgan.

Xorazm Xalq Sovet Respublikasida 293167 tanob vaqf yerlari hisobga olingan edi. Xorazm viloyati vaqf idoralari barcha vaqf yerlarining 126167 tanobidan viloyat moliya bo'limi vakillari orqali daromad olingan. Yig'ilgan mablag'lar maxsus vaqf jamg'armasiga o'tkazilib, bu mablag'lar vaqf idoralariga Bosh vaqf boshqarmasi va O'z SSR Davlat Reja komissiyasi tasdiqlagan smeta bo'yicha berilgan.

Keltirilgan faktlar shundan dalolat beradiki, madrasa, masjid va boigqa tashkilotlar qaramog'ida katta miqdordagi vaqf yerlari bo'lgan. Bu yerlar diniy tashkilotlarga ko'p miqdorda daromad bergan. Bu mablag'lar madaniy-ma'rifiy va

⁴⁶O'sha manba, 178-bet

diniy maqsadlar uchun foydalanilgan. O‘zbekiston partiya va sovet organlari Turkiston Respublikasi hukumatining vaqf siyosatini davom ettirgan va vaqf yerlaridan tushadigan daromadlarni sovet makgablarini ta‘minlashga sarflash yo‘lini tutgan. Shuning uchun vaqf yerlarini ruhoniylardan tortib olish, ularning daromadlarini sovet madaniy-ma‘rifiy ishlariga sarflash masalasi sovet organlarining doimo diqqat markazida turdi.

Respublika rahbar sovet organlari ko‘rsatmasi bilan vaqf masalasi bo‘yicha taklif, fikr maslahatlar ishlab chiqish uchun komissiyalar va konferensiyalar tashkil qilgan. Bu maslahat beruvchi organlarda ishlab chiqilgan takliflar va belgilangan tadbirlar rahbar idoralar tomonidan vaqf masalasi bo‘yicha qaror va qonunlar qabul qilishda foydalanilgan.

Respublikaning barcha viloyatlarida vaqf masalasi bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish uchun Buxoro va Xorazm respublikalari viloyatlaridagi vaqf idoralarini sovet hukumatining vaqf siyosatiga jalb qilish qo‘shish maqsadida 1925 yil yanvarda Bosh vaqf boshqarma O‘zbekiston vaqf idoralari xodimlarining konferensiyasini tashkil qildi. Konferensiya vaqf sohasida olib boriladigan ishlarda hal qilinadigan masalalarning asosiy tamoyillarini ishlab chiqqan. Konferensiya vaqf yerlari bo‘yicha ham o‘z nuqtai - nazarini bayon qilgan. Bu masala to‘g‘risida Bosh vaqf boshqarmasining O‘zbekiston Maorif xalq komissariatiga 1925 yil 19 martda yozgan ma‘ruzasida shunday deyilgan: «Vaqf organlarining yer uchastkalariga huquqi to‘g‘risidagi masala bo‘yicha konferensiya qayd qildiki, qishloq xo‘jaligi ahamiyatiga ega bo‘lgan vaqf yerlari Respublikaning yerni sotsialistik mulkka aylantirgan rayonlarida yer tuzilishi o‘tkazish tartibi bo‘yicha mehnat normasi bo‘yicha bo‘linishi lozim. Qishloqlar yoki ayrim mehnatkashlar o‘rnashgan vaqf yerlari ularning egalari ixtiyoriga o‘tkazildi.

Buxoro, Xiva va boshqa qisman Turkiston viloyatlarida yerlar, mehnat normasi bo‘yicha bo‘linmagan va odamlar o‘rnashtirilmagan bo‘lsa, bu yerlardan tushadigan daromadlarni davlat qo‘lida saqlab qolish, ruhoniylarga vaqf yerlaridan mablag‘ tushish imkoniyatini bartaraf qilish maqsadida yerlarni hisobga olish Bosh

vaqf boshqarmasida qoldirilish, kelajakda esa yer tuzish ishlarini olib borish jarayonida bu yerlar ham mehnat normasi bo'yicha bo'lib beriladi»⁴⁷.

Konferensiyani qishloqlar va ayrim mehnatkashlar o'rnashgan, aslida ularning xtiyorida bo'lgan vaqf yerlarni mehnat normasi bo'yicha ijarachilarga bo'lib berish, ularga biriktirib qo'yish to'g'risidagi taklifi respublika rahbar organlari qarorlarida hisobga olindi va amalga oshirildi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti Ijroiya byurosining 1925 yil 16 avgustdagi vaqf masalasi bo'yichi qarorida respublika partiya va sovet boshqaruv organlariga quyidagi ko'rsatmalarni bergan: «Vaqf yer fondiga egalik qilish yerni natsionalizatsiya qilish to'g'risidagi qonunni asosiy mazmuniga zid ekanligidan kelib chiqib quyidagilar zarur deb hisoblansin:

a) madaniy-ma'rifiy vaqflarga tegishli barcha vaqf yerlari umumiy davlat yer fondiga kiritish uchun darhol Ziroat xalq komissariatiga berilsin;

b) yer tuzish bo'yicha komissiyaga diniy tashkilotlar ehtiyojini ta'minlash uchun zarur bo'lgan yer uchastkasi normasini aniqlash topishrilsin. Bu masalani ishlab chiqishda yer komissiyasi sobiq Buxoro Respublikasi va Xorazm viloyat rayonlarining o'ziga xos shart-sharoitlarini hisobga olsin»⁴⁸.

O'zbekiston Markaziy Ijroiya Komitetining «Vaqflar to'g'risida»gi 1925 yil 19 dekabrda qarorini tayyorlash va tasdiqlashda partiya organlarining vaqf yerlari to'g'risidagi ko'rsatmalari to'la hisobga olishan edi, Qarorda qayd qilingan ediki: «4. *Shahar chegarasidan tashqaridagi barcha vaqf yerlari davlat yer mulki tarkibiga kiritish uchun O'zSSR Ziroat komissariatiga beriladi,*

Izoh: *Shahardan tashqari joylashgan madaniy-ma'rifiy va diniy vaqflarga qarashli uzumzor va bog'lar bilan band vaqf yerlari Ziroat xalq komissariatiga berilmaydi.*

Qarorning mazmunidan ko'rinib turibdiki, shahar chegarasidan tashqarida joylashgan madaniy-ma'rifiy va diniy vaqf yerlari davlat yer fondiga kiritilgan va Ziroat xalq komissariatiga foydalanish uchun berilgan. Bu qarorda diniy vaqf

⁴⁷ O'zR MDA, 34-f., 1-r., 2723-ish, 45-46-v.

⁴⁸ Alimov I. O'zbekistonda vaqf mulklarining tugatilishi (1x17-1x2x yillar). T: Fan, 200x. 17x-bet

yerlarini natsionalizatsiya qilish to'g'risida ochiq, aniq aytilmagan bo'lsa ham kelajakda ularni to'la musodara qilish uchun zamin tayyorlangan edi,

Mahalliy aholi ongiga vaqf to'g'risidagi shariat qonun-qoidalari chuqur singib ketgan edi. O'zbekiston sovet hukumatining barcha vaqf yerlarini davlat yer foidiga o'tkazish, bu yerlardan vaqf idoralariga ijara haqi olishni man etish, faqat qishloq xo'jalik solig'i olish to'g'risida qarorlar e'lon qilinganligiga qaramay vaqf yerlaridan foydalanayotgan kambag'al dehqonlar Toshkent uyezdining, Farg'ona viloyatining ayrim joylarida ilsharigi mutavillilarga xtiyoriy ravishda vaqf haqi berib turgan. Bunday hollar ayniqsa soliq idoralarining e'tiboridan chetda qolib soliq solinmagan lalmikor vaqf yerlarida kepg tarqalgan edi. Farg'ona viloyatida ayrim sobiq vaqf yerlarining ijarachilari vaqf bo'limlariga ham vaqf yerlaridak foydalanganligi uchun ixtiyoriy ravishda hayr-ehson qilishgan.

Vaqf yerlarini sekin-asta bosqichma-bosqich tugatish maqsadida O'zSSR MIKning Farg'ona, Toshkent, Samarqand va Zarafshon viloyatlarida 1925-1926 yillarda yer-suv islohotini o'tkazish to'g'risidagi dekretlarda madaniy-ma'rifiy vaqf yerlar davlat mulki deb e'lon qilingan va yersiz, kam yerli dehqonlarga bo'lib berilgan. O'sha vaqtda siyosiy mulohazalardan kelib chiqib diniy vaqf yerlariga tegilmagan edi.

1927-yil 15-avgustdagi O'zSSR MIK va XKS qaroriga asosan vaqf mulklari davlat mulki deb e'lon qilingandan keyin bu xil vaqf yerlarini ham tugatishga huquqiy asos vujudga keldi. Respublikaning rahbar sovet organlari Ziroat xalq komissariatiga diniy vaqflarni tugatishga tayyorgarlik ko'rish va vaqf yerlarini yersiz va kam yerli dehqonlarga, mehnatkash dehqonlarga foydalanishga berish to'g'risida ko'rsatma berdi.

O'zSSR Ziroat xalq komissariati 1927-yil 25-noyabrda barcha okrug yer bo'limlariga diniy vaqf yerlarini tugatishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha tadbirlar to'g'risida maxfiy xat jo'natdi. Xatni kirish qismida Ziroat xalq komissariati vaqf yerlarini tugatish zaruriyatini tushuntirishga harakat qilgan. Bu tadbir, go'yoki yer-suv islohoti o'tkazilgan rayonlarda ham mehnatkash dehqonlarning ko'pchilik qismi yer bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi va yer bo'lib berishni so'rab

yozgan yersiz dehqonlarning ko'pdan-ko'p arizalari bu tadbirni o'tkazishni talab qilgan emish. Shundan kelib chiqib Ziroat xalq komissariati barcha okrug yer bo'limlariga qisqa vaqt ichida quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni taklif qilgan:

1. Diniy tashkilotlarga tegishli yerlar haqida, ularni musodara qilib mehnatkash dehqonlarga bo'lib berish sizning okrugingiz mahalliy sharoiti bo'yicha o'z vaqtida o'tkazilayotganligi to'g'risida tegishli partiya organlarining fikrini aniqlash.

2. Ilova qilingan shakl bo'yicha bu yerlar to'g'risida ma'lumotlar taqdim etish. Ilova qilingan shaklda quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatish taklif qilingan edi,

1. Vaqf kimga tegishli;

2. Necha desyatina yer;

3. Jumladan sug'oriladigan, foydalaniladigan;

4. Kim, qanday foydalanadi: ijarada, chorikorlar yordamida yoki foydalanilmaydi.

Ziroat xalq komissari o'rinbosari Nemsovich 1927 yil dekabrda barcha okrug yer bo'limlariga telegramma yuborgan va unda ko'rsatganki: *«65/s xati bilan talab qilingan ma'lumotlarni 1 yanvarga tezda topshiringlar, aks holda sizning okrugingiz bo'yicha vaqflarni tugatish masalasi kun tartibiga kiritilmaydi. Nemsovich».*

Diniy vaqf yerlar to'g'risidaga Ziroat xalq komissari-atining so'roviga barcha okrug yer bo'limlari javob qilgan va tegishli ma'lumotlar yuborgan. Buxoro okrug yer bo'limi 1928 yil martda Ziroat xalq komissariatiga diniy vaqf yerlar to'g'risida quyidagi ma'lumotnomalarni xabar qilgan: G'ijduvon tumanida 11035,72 desyatina, Bahouddinda 3070,40, Vobkentda 2555,54, Bo'ston, Azizobod, Vang'ozoda — 930,50, Shofirkonda 847,75, Sultonobodda 756,43 desyatina bor, Pirmast, Gajdumakda - yo'q. Okrug bo'yicha 19196,34 desyatina diniy vaqf yerlari bo'lgan. Izohda ko'rsatilgan-ki bu yerlarning bir qismi yer -suv islohoti jarayonida dehqonlarga foydalanish uchun bo'lib berilgan va yana bir qismini dehqonlar soliq to'lamay foydalanmoqda.

Qashqadaryo okrug yer bo'limi 1928-yil 11-yanvarda O'zbekiston SSR Ziroat xalq komissariatiga yozgan xatida quyidagilarni ma'lum qilgan: «Okrug yer bo'limi quyidagilarni xabar qiladiki, bu masalani xal qilgach katta qiyinchiliklarga duch kelmaydi. Chunki 50 umumiy maydoatar va Vaqf yerlari Okrug o'rmon xo'jaligi tomonidan hisobga olingan va xususiy shaxslarga, artellarga, davlat va kooperativ tashkilotlarga ijaraga berish yo'li bilan foydalaniladi. 20% maydonlar bir desyatinagacha bo'lgan maydon yer uchchastkalari bo'lib, ular o'rmon xo'jaligi bo'limi taklifi va okrug ijroiya komiteti qaroriga asosan yersiz dehqonlarga foylanish uchun berilgan. 30 % yerlar hisob qilib rasmiylashtirilmagan, ammo ko'p hollarda biz foydalanamiz».

Boshqa okruglarda bo'lganidek Qashqadaryo okrugida ham vaqf yerlari davlat yer fondi tarkibiga kiritilgan edi. Okrug yer bo'limi Ziroat xalq komissariatiga davlat yer mulklari — sobiq vaqf yerlari to'g'risida quyidagi malumotlarni bergan. Beshkent tumanida — 9940,5 ga, shundan sug'oriladigani 5302 ga, Kosonsoy tumanida 2072,56 ga, shundan sug'oriladigani 1904,17 ga, G'uzor tumanida - 168,87 ga, shundan sug'oriladigani 164,82 ga, Shahrisabz tumanida 114,05 ga, shundan sug'oriladigani — 100,28, Chiroqchi tumanida 13,08 ga, shundan sug'oriladigan — 9,81 ga. Okrug bo'yicha hammasi bo'lib 12429,41 ga diniy vaqf yerlar bo'lgan shundan sug'oriladigani — 7591,14 ga.

Farg'ona okrug yer bo'limi 1928 yil 16 yanvarda O'zSSR Ziroat xalq komissariatiga quyidagi xabarni ma'lum qilgan edi: « Diniy tashkilotlar yerlarini musodara qilish masalasi bo'yicha Farg'ona okrug partiya komiteti Ijrosi byurosi shu yil 12 yanvardagi majlisi bayonomasida quyidagicha qaror chiqardi: «5) Diniy tashkilotlarga tegishli yerlarni musodara qilishni kuzda amalga oshirish lozim deb topilsin. Okrug yer bo'limi, partiya byurosiga diniy tashkilotlarga tegishli yerlarni hisob ishlarini olib borish va bu masalani ishlab chiqish topshirilsin».

Xo'jand okrugi yer bo'limi ham diniy vaqf yerlarining hisob ishlarini olib borgan. Xo'jand yer tuzuvchisi okrug yer bo'limiga 1928 yil 16 yanvarda bergan axborotida quyidagilarni xabar qilgan edi. «O'zSSR MIK farmoyishiga muvofiq 1927 yil oktabr oyining ikkinchi yarmidan hozirgacha okrug yer tuzuvchisi masjid

vaqf yerlarini okrug yer bo'limiga olib berish uchun hisobga olish va qayd etish ishiga jalb qilingan. Xo'jand okrugi O'zbekistonning ayrim boshqa okruglariga nisbatan bunday yer maydonlarining miqdori va sifati jihatdan alohida o'rin tutadi. Ko'rsatilgan muddat ichida Xo'jand shahri atrofidagi sobiq Unjin volosti bo'yicha hisob ishlari, tugadi...

Xo'jand tuman bo'yicha bunday yerlarni taftish yakuni quyidagilardan iborat bo'ldi: Xo'jand tumanining 12 ta qishlog'i bo'yicha tubandagi diniy vaqf yerlar ma'lum bo'ldi: 124 desyatina 630 kvadrat sarjin⁴⁹ maydonli 348 bog' uchastkalari, 398 desyatina 1000 kvadrat sarjin maydonli 726 yer uchastkalari: jami 533 desyatina 1630 kvadrat sarjin maydonli 1110 uchastka. Bu yer uchastkalaridan ayrimlari okrug yer bo'limi tomonidan mehnatkash dehqonlarga yer tuzish boshlangunga qadar bepul foydalanib turish uchun berilgan. Qolgan yerlar esa Xo'jand ijroiya komiteti tashkil qilgan ko-missiya tomonidan kim ochdi savdosi bo'yicha ijaraga berilgan».

Okrug yer bo'limi qayd qiladiki, Xo'jand shahri atrofida qabul qilib olingan yerlar va bog'dorchilik xo'jaliklari yerlarining barchasi yaxshi sug'oriladigan va unumdor uchastkalar bo'lgan.

Bu uchastkalarining kattaligi yarim tanobdan 5 desyatina gacha yetadi. Bu uchastkalarining ko'pchiligi Xo'jand tumanidagi dehqonlarning birdan-bir yashash manbai hisoblanadi. Anchagina uchastkalar avloddan-avlodga o'tib, bitta sulola tomonidan foydalanib kelingan. Bu xo'jaliklarning vaqf yerlarini ijaraga olib foydalanish huquqidan boshqa muhtoj xo'jaliklarga bo'lib berish yo'li bilan mahrum qilish ularni butunlay xonavayron qilish bilan teng bo'lar edi. Shuni hisobga olgan holda okrug yer bo'limi Ziroat xalq komissariatiga ko'p yillar davomida bir mehnatkash xo'jalik ijaraga olib foydalanib kelgan vaqf yerlarini shu xo'jalikka berishni tavsiya etgan.

Respublikaning barcha okruglarida yer bo'limlari, bog' va uzumzorlarni va vaqf mulklarini yoppasiga statistik iqqisodiy hisobini olib chiqqanlar. Bu ish

⁴⁹ Sarjin - uch gazga teng uzunlik o'lcho6. Gaz-0,71 metrga teng uzunlik o'lcho6.

shuning uchun zarur bo'lgan ediki, vaqf yerlari va bog'-uzumzor yerlar haqidagi bor ma'lumotlar to'la va aniq emas edi. Okrug yer bo'limlarining dastlabki tahliliy ma'lumotlariga qaraganda, ayrim okruglar vaqf yerlarining maydoni quyidagicha edi: Buxoro okrugida —12000 desyatina, Andijon okrugida —12000, Farg'ona okrugida —10000, Xo'jand okrugida —4000, Toshkent okrugida — 1800, Samarqand okrugida —1200 desyatina. Respublika bo'yicha jami 35000 desyatina diniy vaqf yerlar bo'lgan.

Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Zarafshon viloyatlarida yer-suv islohoti o'tkazilganda diniy vaqf yerlari musodara qilinmagan va mehnatkash dehqonlarga bo'lib berilmagan edi. Ziroat idoralari diniy vaqf yerlarini tugatish bo'yicha bmrchn tayyorgarlik ishlarini yakunlagan. Shuni nazarda tutib O'zbekiston kompartiyasi Markaziy Komiteti diniy vaqf yerlari rini tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan. 1928 yil 16 avgustda O'zSSR XKS Ishlar boshqarmasi Ziroat xalq komissariatiga yozgan xatida quyidagilarni talab qilgan: «O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining mavjud qaroriga asosan Ziroat xalq komissariati qishloq xo'jalik banki bilan birgalikda mehnatkash dehqonlarga vaqf yerlarini berish rejasi loyihasini ishlab chiqishi lozim va buni XKSga ko'rib chiqishga taqdim etishi kerak».

O'zSSR XKS ning talabnomasiga Ziroat xalq komissari o'rinbosari Aminov 1928 yil 15 sentabrda quyidagi javobni yo'llagan: «Vaqf yerlarini mehnatkash dehqonlarga berish to'g'risidagi qaror loyihasi tayyorlangan va O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining muhokamasi uchun topshirilgan».

Yuqorida keltirilgan hujjatlardan ko'rinib turibdiki, diniy vaqflarini tugatish masalasi Komfirqaning qattiq nazoratida bo'lgan. Markazkom bu masala bo'yicha maxfiy qaror qabul qilgan va bu qaltis diniy masalani hal qilishda sovet idoralarining har bir qadamini o'zi nazorat qilib borgan. Diniy vaqflarni tugatish masalasi siyosiy jihatdan qaltis, xavfli tadbir edi. Bu masalani hal qilishda yo'l qo'yilgan ozgina xato nizolarga, ruhoniylarni, ularni qo'llab-quvvatlab turgan ko'pchilik mahalliy aholini sovet organlariga qarshi kurashga qo'zg'atishi mumkin

edi. Ehtiyotkorlik choralarini ko‘rish maqsadida partiya organlari sovet idoralarini diniy vaqf yerlarini tugatish sohasidaga ishlarini doimo nazorat qilib borgan.

O‘zbekiston Respublikasining Markaziy davlat arxivining Ziroat xalq komissariati fondida Markazning diniy vaqflarni va davlat yer mulki yerlarini mehnatkash dehqonlarga berish to‘g‘risidagi qarorining loyihasi saqlangan. Qaror loyihasida shunday deyilgan:

«... 3. Vaqf yerlari bilan birga bog‘lar va uzumzorlar ham berilishi kerak.

5. Davlat yer mulki yerlarini ham mehnatkashlarga bo‘lib berish zarur deb hisoblansin.

9. Vaqf va davlat mulki hisoblangan yerlarni aslida foydalanayotgan mehnatkash dehqonlarga bo‘lib berilsin...

Surxondaryo, Qashqadaryo va Xorazm okruglarida vaqf yerlarini tugatish va davlat mulki hisoblangan yerlarni mehnatkash dehqonlarga berish ishlarini pomeschik va yirik mehnatsiz kun kechiradigan xo‘jaliklarni tugatishni amalga oshirish vaqtiga to‘g‘rilansin».

Qaror loyihasining 3, 5, 9-moddalarida ruhoniylarni, mahalliy aholini diniy vaqf yerlarini tugatish to‘g‘risidagi fikrini chalg‘itish maqsadida birinchidan, bu yerlar ularga ishlov berib, sug‘orib, mehnat qilib aslida foydalanayotgan dehqonlarga beriladi va bunga ijarachilarning haqi bor, demoqchi bo‘lgan; ikkinchidan, faqat ruhoniylarni vaqf yerlarigina emas, davlat yer mulki, mehnatsiz kun ko‘radigan xo‘jaliklar yerlari va boshqa yerlar yersiz dehqonlarga bo‘lib berilyapti, degan fikrni dindorlarga singdirmoqchi bo‘ladi. Aslida partiya, sovet organlarining haqiqiy maqsadi ruhoniylarni moddiy asosini zaiflashtirish, ularni xalqqa ta’sirini susaytirish bo‘lgan va bu maqsadni yashirishga harakat qilgan.

Vaqf yerlarini hisobga olish va dehqonlarga bo‘lib berish ishlarini ziroat bo‘limlarining yer tuzuvchilari amalga oshirdilar. Ziroat xalq komissariati 1928 yil 5 noyabrdagi majlisida yer tuzish boshqarmasining 1928-1929 xo‘jalik-yiliga mo‘ljallangan okruglar bo‘yicha yer tuzish-ko‘chirish tadbirlarini dastlabki rejasi to‘g‘risidagi ma’ruzasini tish ii quyidagi hajmda ishlarini, ya’ni Buxoro okrugi bo‘yicha 15000 gektarga yaqin, O‘rta Zarafshon okrugi bo‘yicha 3000 gektarga

yaqin. Xo‘jand okrugi bo‘yicha 1500 gektarga yaqin, Samarqand okrugi bo‘yicha 1281 gektarga yaqin, Andijon okrugi bo‘yicha 985 gektarga yaqin, Farg‘ona okrugi bo‘yicha 500 gektarga yaqin vaqf va davlat mulki hisoblangan yerlarni mehnatkash dehqonlarga bo‘lib berishni rejalashtirishga qaror qilgan.⁵⁰

1928 yil 19 noyabrda O‘zbekiston SSR MIK davlat 141 mulki tarkibidagi sobiq madaniy-ma‘rifiy va diniy naqf yerlarini yersiz va kam yerli dehqonlarga o‘z mehnati bilan foydalanishga va ularni mehnat birlashmalariga berish to‘g‘risida qaror qabul qilgan.

O‘zSSR MIK qarorida shunday deyilgan: « 1. O‘zbekiston SSR hududidagi (Tojikiston ASSR dan tashqari) qishloqlarda davlat yer mulki tarkibidagi sobiq madaniy ma‘rifiy va diniy naqf yerlarini yersiz va kam yerli dehqonlarga va ularning mehnat birlashmalariga o‘z mehnati bilan foydalanishga berilsin.

Izoh: *Ushbu moddada ko‘rsatilgan yerlarga, shuningdek, ilgari madaniy — marifiy va diniy naqf hisoblangan bog‘lar va uzumzorlar ham daxldordir.*

2. Ushbu qarorning 1- moddasida ko‘rsatilgan band bo‘lmagan yer fondi, shuningdek, ijaraga yoki boshqa biror yo‘l bilan mehnatsiz kun kechiradigan xo‘jaliklar foydalanayotgan yerlar mavjud kolxozlarga, shu yerlarda tashkil qilinayotgan kollektiv xo‘jaliklarga qirqib berish uchun ishlatilish, mabodo kollektiv xo‘jaliklarga berish mumkin bo‘lmasa, bu yerlarga yersiz va kam yerli dehqon xo‘jaliklaridan o‘rnatilsin»⁵¹.

Ziroat xalq komissariatiga bir hafta ichida qabul qilingan qarorni tatbiq qilish to‘g‘risida yo‘riqnoma ishlab chiqish va uni MIK hay‘atiga tasdiqlash uchun taqdim etish topshirilgan. Davlat yer mulki va naqf yerlarini aniqlash tartibi va ularni kolxozlarga, shuningdek, yersiz va kam yerli dehqonlarga o‘z mehnati bilan foydalanishga berish to‘g‘risidagi yo‘riqnomani Ziroat xalq komissariati ishlab chiqqan va 1928-yil 22-dekabrda O‘zSSR MIK hay‘ati tasdiqlagan.

Vaqf va davlat mulki hisoblangan yerlarni dehqonlarga o‘z mehnati bilan foydalanish uchun berish okrug ijroiya komiteti komissiyasi, rayon komissiyasi va

⁵⁰ Alimov I. O‘zbekistonda vaqf mulklarining tugatilishi (1917-1929 yillar). T: Fan, 2009. 179-bet

⁵¹ Alimov I. O‘zbekistonda vaqf mulklarining tugatilishi (1917-1929 yillar). T: Fan, 200x. 180-bet

qishloq sovetlari nomidan ularning qishloq xo‘jalik sho‘balari orqali amalga oshirilgan. Okrug komissiyasi Okrug ijroiya komiteti, Okrug partiya komiteti, Okrug yer bo‘limi, Okrug kolxozlar sho‘basi va Okrug suv xo‘jaligi bo‘limi vakillaridan tashkil qilingan. Bu komissiyaning asosiy vazifasi okrug rayonlarida davlat mulki hisoblangan vaqf yerlarini aniqlash va o‘z mehnati bilan foydalanishga berish ishlarini doimo kuzatib borish va rahbarlik qilish bo‘lgan. Komissiya o‘z ishini okrug yer bo‘limi xodimlari orqali bajargan.

Rayon komissiyasi rayon ijroiya komiteti, rayon partiya komiteti, rayon yer bo‘limi, «Qo‘shchi» rayon komiteti, qishloq xo‘jalik ishchilar uyushmasi vakillaridan barpo kdpingan.

Rayon komissiyalari vaqf va davlat mulki hisoblangan yerlarni kdshloq sovetining qishloq xo‘jalik sho‘basi yordamida aniqlash, hisobga olish va mehnatsiz kun kechiradigan xo‘jaliklarning vaqf yerlarini musodara qilish va davlat yer mulkini iste‘moldan chiqarishni amalga oshirgan. Ular bu yerlarni kolxozlarga, o‘z mehnati bilan foydalanish uchun dehqonlarga, chorikor, batrak, mehnatkash ijarachilarga berish to‘g‘risida qaror qabul qilganlar. Ular kolxozlar tashkil qilishga va yer bilan ta‘minlanganlarni kooperatsiyaga jalb qilishga ko‘maklashganlar.

Qishloq xo‘jalik sho‘balari rayon komissiyasiga yordam qilish uchun maxsus xodimlar guruhini tashkil qilmagan va yer bilan ta‘minlash bo‘yicha mustaqil hech qanday qaror qabul qilmagan. Qishloq xo‘jalik sho‘basi vaqf va davlat muiin hisoblangan yerlarni mehnatkash dehqonlarga bo‘lib berishda jamoatchilik nazorati markazi va rayon komissiyasining jamoatchi yordamchisi bo‘lgan.

Vaqf va davlat mulki hisoblangan yerlar, yersiz va kam yerli dehqonlarga quyidagi tartibda bo‘lingan: Birinchi navbatda bu yerlarni ijaraga olib foydalanayotgan xo‘jaliklarga berilgan. Ikkinchi navbatda mavjud kolxozlarga yer qirqib, qo‘shib berilgan. Qolgan yerlar mehnatkash yersiz na kim yerli xo‘jaliklarga mehnat normasi miqdorida bo‘lib berilgan.

Rayon komissiyalari ijara yoki boshqa yo'l bilan foydalanayotgan quyidagi guruh xo'jaliklarning vaqf va davlat mulki hisoblangan yerlarini miqdoridan qat'i nazar to'la iste'moldan chiqarishgan:

1.Yer - suv islohoti vaqtida tugatilgan yoki ortiqcha yeri qirqib olingan xo'jaliklar.

2.Yer-suv islohoti vaqtida tugatishdan yoki ortiqcha yerini qirqib olishdan yashiringan xo'jaliklar.

3.Yer-suv islohoti vaqtida tugatilishi yoki ortiqcha yeri qirqib olinishi kerak bo'lmagan, lekin keyin mehnatsiz kun ko'radigan xo'jalikka aylanganlar.

4.Yerlarni ijaraga olib, uni bo'lib-bo'lib, qayta ijaraga beradigan xo'jaliklar.

5.Doimiy ravishda yollanma mehnatdan foydalanadigan yoki chorikorlarga beruvchi xo'jaliklar.

1929-yil yanvarda rayon komissiyalari amaliy ishga kirishdilar Qishloq sovetining qishloq xo'jalik sho'balari vaqf va davlat mulki hisoblangan yerlarni aniklagan, bu yerlarni olishni xoxlagan barcha xo'jaliklarni hisobga olgan va bu yerlarni bo'lishni mo'ljallagan. Qishloq xo'jalik sho'basi yerlar ro'yxatini, bu yerlar bilan ta'minlanadigan xo'jaliklar ro'yxatini qishloq soveti xulosasi bilan Rayon komissiyasiga tasdiqlashga topshirgan. Rayon komissiyas qishloq xo'jalik sho'basining taklifini, qishloq soveti xulosasini ko'rib chiqqan va yerlarni tegashli xo'jaliklarga bo'lib berish to'g'risida qaror chiqargan. Shundan keyin bu yerlar darhol dehqonlarga foydalanish uchun bo'lib berilgan.

Ko'p okruglarda vaqf va davlat mulki hisoblangan yerlarni bo'lib berish 1929 yil yanvar - mart oylarida yakunlangan. Farg'ona viloyatida vaqf va davlat mulki hisoblangan yerlarni o'z mehnati bilan foydalanishga berish bo'yicha amaliy ishlar 1929-yil martda tugagan edi. Hisobga olingan va dehqonlarga bo'lib berilgan yerlarning miqdori to'g'risida umumlashtirilgan ma'lumotlarni okrug yer bo'limi O'zSSR Ziroat xalq komissariatiga 1929-yil aprelda topshirgan. Ziroat xalq komissari o'rinbosari Nemso'ch ishtirok etgan Farg'ona okrug yer bo'limining 1929-yil 27-martdagi kengashida vaqf va davlat mulki hisoblangan yerlarni o'z mehnati bilan foydalanishga berish va boy xo'jaliklarni butunlay tugatish masalasi

ko‘rib chiqilgan edi. Kengash quyidagicha qarorni qabul qildi: “Okrug yer bo‘limi mudiri Karimovning hisobga olingan va o‘z mexnati bilan foydalanishga beradigan vaqf va davlat mulki hisoblangan yerlar miqdori to‘g‘risidagi Farg‘ona okrugi bo‘yicha dastlabki ma‘lumotlarni, shuningdek, boy xo‘jaliklarni butunlay tugatish ishlari to‘g‘risida”gi axborotini Ziroat xalq komissariatiga 1929-yil 1-aprelgacha jo‘natiladi, deb bergan bayonoti hisobga olinsin.

2. Okrug yer bo‘limiga boy xo‘jaliklarni butunlay tugatish bo‘yicha materiaplarni ishlab chiqish ish rejasi va smetasini Ziroat xalq komissariatiga topshirish taklif qilinsin. Okrug yer tuzuvchisi Rozevskiyga bu masalani shoshilinch ishlab chiqish va okrug yer bo‘limi mudiriga kelishish uchun taqdim etish topshirilsin.

Shu tarzda O‘zbekistonning barcha okruglarida vaqf yerlari tugatilgan edi. Sovet mustabid tuzum idoralari musulmon ruhoniylarga qarshi kurashda va vaqf mulkini tugatishda o‘z oldiga ikki xil vazifa qo‘ygan edi. Birinchisi, musulmon ruhoniylarnikg iqtisodiy asosini zaiflashtirish, ularni mahalliy aholi orasida tutgan o‘rmini pasaytirish, xalq ommasiga yuyaviy ta‘sirini kamaytirish bo‘lgan. Ikkinchidan, sovet idoralari musulmon diniy tashkilotlarining juda katta moddiy boyligi hisoblangan vaqf mulklarini musodara qilib davlat xazinasini boyitishni maqsad qilgan edi.

Vaqf yerlari islomiy tashkilotlar vaqf mulkining muhim tarkibiy qismi hisoblangan. Ular masjid, madrasa va boshqa diniy tashkilotlarning asosiy daromad manbai bo‘lish, Bolsheviklar rahbarligidagi sovet idoralari musulmon ruhoniylarini iqtisodiy jihatdan quvvatsizlantirish maqsadida vaqf yerlarini tugatishga qaratilgan bosqichma-bosqich tadbirlar, islohotlar o‘tkazdilar.

Dastlab O‘zbekiston sovet hukumatining qarori bilan madaniy-ma‘rifiy vaqf yerlari davlat mulki deb e‘lon qilindi. Keyin bu yerlar Farg‘ona, Toshkent, Samarqand va Zarafshon viloyatlarida yer-suv islohoti vaqtida kambag‘al dehqonlarga bo‘lib berildi. Shu yo‘l bilan madaniy vaqf yerlari tugatilgan edi. Shundan keyin diniy vaqflar ham davlat mulki deb e‘lon qilindi. Diniy vaqf yerlarini tugatishga huquqiy asos yaratildi. Ziroat xalq komissariati va uning

joylardagi bo'limlari hokimiyat organlarinshi topshirig'i bilan vaqf yerlarini tugatishga katta hozirlik ishlari olib bordi. Bu islohotni o'tkazishga tayyorgarlik ishlari yakunlangandan keyin davlat yer mulki tarkibida sobiq madaniy-ma'rifiy va diniy vaqf yerlarni yersiz, kam yerli dehqonlarga va ularning mehnat birlashmalarit o'z mehnati bilan foydalanishga berish to'g'risida respublika sovet hukumati qaror e'lon qildi.

Rahbar sovet organlari belgilangan islohotni amalsh oshirish uchun okrug va rayon ijroiya komitetlari qoshilp komissiyalar tashkil qildi. Ular qishloq sovetlarinish qishloq xo'jalik sho'balari yordamida diniy vaqf yerlari ni anikladi, hisobga oldi va mehnatkash dehqonlarga bo'lib berdi. Bu islohot natijasida masjid, madrasa, eski maktab va boshqa diniy tashkilotlar iqqisodiy daromad manbai bo'lgan vaqf yerlaridan butunlay maxrum bo'ldi. Sovetlarning bu islohoti masjid, an'anaviy maktablarni va xar xil hayr-ehson tashkilotlarini daromad manбайдan judo qilishni jadallashtirdi. Diniy tashkilotlarning vaqf mulklarini, jumladan, vaqf yerlarini tugatilishi ruhoniylarning ma'naviy, axloqiy tarbiya sohasidagi faoliyatini susaytirdi. Bu esa o'z navbatvda mahalliy aholini umuminsoniy, milliy odob-axloq qonun-qoidalari bilan qurollantirishga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

13.5-§. O'zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv islohatlarining bosqichlari, amalga oshirilishi va bu islohatning salbiy oqibatlari

Qurolli qarshilik ko'rsatish harakatining avj olishi, iqtisodiy va siyosiy vaziyatni og'irlashishi 20-yillarning boshlariga kelib bolsheviklarni islohotlarini boshlashga majbur qildi. Bu yo'nalishdagi dastlabki harakatlar 1920-yilning sentabridan e'tiboran amalga oshirila boshlagan yer-suv islohotida o'z aksini topdi. Bolsheviklar fikricha islohotdan ko'zlangan asosiy maqsad mahalliy aholi va boy rus dehqonlarining yer va suvga bo'lgan huquqlarini tenglashtirish edi. Shu yo'l bilan ular mahalliy dehqonlarni o'z tomonlariga tortmoqchi bo'ldilar. Haqiqatdan ham 1921-1922 yillar davomida boy rus dehqonlarga tegishli bo'lgan yerlar musodara qilindi, o'lka hududlarda yashayotgan kam yerli va yersiz dehqonlar yer bilan tamirlandi. Islohot davomida boy, cho'loq dehqonlar xo'jaliklari tugatildi va

ko'chmanchilarni o'troq xayotga o'tkazishga ko'rsatilgan tadbirlar amalga oshirildi. Lekin vaqt o'tkan sari ana shu umuman olganda ijobiy bo'lgan tadbirlar bo'lgan qatori mahalliy sharoit milliy mentalitet hisobga olinmagan choralar xam ko'rildi. Bu choralar vaqf yerlarini musodora qilish, mahalliy aholining «mehnat bilan shug'illanmaydigan yuqori qatlamlari» degan vakillarining yerlarini musodora qilish yoki kamaytirishdan iborat bo'ldi.

Mahalliy sharoit ayniqsa diniy xis tuyg'ularni nazar pisand qilmaslik, qishloqdagi siyosiy vaziyatni keskinlashtirdi va sinfiy ziddiyatlarni kuchaytirdi. Ko'chmanchilarni o'troqlashtirishning bolshevikcha zo'rovonlik usullari bilan amalga oshirishi salbiy oqibatlarga olib keldi. Natijada ijtimoiy, sinfiy millatlararo ziddiyatlar kuchaydi. Islohot mamlakat iqtisodiy va siyosiy xayotidagi tanglikka xam barxam bera olmas edi. Tanglikdan chiqish uchun o'lkada keng qamrovli o'zgarishlarni amalga oshirish zarur edi. Bunday o'zgarishlarni amalga oshirish zarur ekanligini markaz xam anglab yetdi. 1921-yildan e'tiboran amalga oshirilgan islohotlar yangi iqtisodiy siyosiy deb nomlandi, unga ko'ra «harbiy komunizm» siyosatini moxiyatan belgilab bergan oziq-ovqat razvyortkasidan voz kechildi va uning o'rniga oziq-ovqat soligi joriy qilindi. Natijada qishloq xo'jaligida davlat nazorati ostida bo'lsada, iqtisodiy qonuniyatlarning amal qilinishi tiklana boshlandi. O'sha 1921-yilning o'zidayoq hosildorlik keskin ko'tarildi, ochlik chekindi va bozor jonlana boshlandi. Oziq-ovqat solig'ining joriy qilinishi bilan birgalikda davlat dehqonlarga agrotexnik va moliyaviy yordam bera boshlaganligi, vaziyatni yanada yaxshilashga yordam berdi. Sanoat sohasida yangi iqtisodiy-siyosat davlatga tegishli bo'lgan mayda va o'rta korxonalarining tadbirkorlarga ijaraga berishida jismoniy shaxslarga yangi korxonalar ochishga ruxsat berishdi, yirik korxonalarining xo'jalik hisobiga o'tkazishda namoyon bo'ldi. Davlat ixtiyorida Turkiston bo'yicha 99 tagina korxonalar qoldirilib, ular xam bozor qoidalariga amal qilgan xolda faoliyat ko'rsata boshladilar.


Yangi iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida pul isloxati o'tkazilib yagona pul tizimi joriy qilindi. Rubl bir-yilning ichida konvertasiya qilinadigan valyutaga aylandi.

Ko‘rilgan choralar 1921-yilning o‘zidayoq o‘z natijasini bera boshladi. 1921-yilning oxirida o‘sha-yilning yanvariga nisbatan Toshkent mexanika zavodida ishlab chiqarilgan maxsulot 16 barobar ko‘paydi. 1924-25 xo‘jalik-yiliga kelib Turkiston sanoatining yalpi mahsuloti urushdan oldingi darajaning 79,4 foizni tashkil qildi. Yangi iqtisodiy-siyosatga o‘tilgach sanoat ishlab chiqarishning yillik o‘sishi suratlari 16-18 foizni tashkil qila boshladi.

Kollektivlashtirish siyosati V.I.Lenin ilgari surgan sotsializm qurish rejasining tarkibiy qismidir. Taniqli tarxchi olimi Rahima Aminova kollektivlashtirishga baho berib bunday degan edi: «Kollektivlashtirish -ishlab chiqarishga davlat monopoliyasi o‘rnatilishining naq o‘zginasidir. Partiyaviy-g‘oyaviy siyosat hukmronligi tufayli yuzaga kelgan kollektivlashtirish nazariyasi va tajribasi bugunga kelib chilparchin bo‘ldi. Kishining ishlab chiqarishdagi mehnatiga haq to‘lov o‘zaro tenglik asosiga qurilganidan bu siyosat o‘zini oqlamadi. Tabiiyki, moddiy manfaatdorlik bo‘lmagan joyda tashabbuslar ham so‘nadi. Tashabbus, izlanish bo‘lmagan joyda yesa, ish orqaga ketadi. Buning ustiga hayotning o‘zi kollektivlashtirish muommosini ko‘tarib chiqmagan edi. Nazazariyachilar asrlar osha shakllanib kelgan ishlab chiqarish usullariga bepisand qaradilar. Zo‘ravonlik bilan o‘tkazilgan siyosat ko‘plab ishbilarmon, tadbirkor odamlarning ishga, yerga bo‘lgan munosabatini sovitdi. E’tirof etmoq joizki, bugungi dasturxonimizning g‘aribligi ham, ko‘p jihatdan qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish «samarasidir».

Sovet hukumati va kompartiya mustamlaka asoratidagi o‘lka xalqlarini qul o‘rnida ishlatib hisobsiz foyda va daromad olishning yeng maqbul shakli bo‘lgan kollektivlashtirish siyosatini amalga oshirish uchun ayyorlik va ustamonlik bilan uzoq tayyorgarlik ishlarini olib bordi. Bu borada amalga oshirilgan yer-suv islohoti muhim o‘rin tutadi.

Yer-suv islohoti ikki bosqichda amalga oshirildi.



1920-1921-yillarda o'tkazilgan yer-suv islohotining asosiy maqsadlaridan biri, o'lkaga ko'chirib keltirilgan rus zamindorlarining yerlarini mahalliy dehqonlarning yerlari bilan tenglashtirish edi. Chunki bu rus kelgindi mujiklari Chor ma'murlaridan juda katta hajmdagi serunum yaxshi yerlarni olgan edilar. Sovet hukumati bu bilan o'zini go'yo mahalliy mehnatkash xalqning «g'amxo'ri» va «mehriboni» qilib ko'rsatmoqchi bo'lgan edi. O'lkada yer-suv islohoti sovet hukumatining («Yer to'g'risida») gi dekreti asosida amalga oshirildi va uning bosh maqsadi qishloqda sinfiy tabaqalanishni kuchaytirishdan iborat edi. Sovet va kompartiya korchalonlari bu yerda ham «bo'lib tashla, hokimlik qil») qabilida ish yuritdilar, qishloq aholisini boy va kambag'allarga bo'lib ularning sopini o'zidan chiqarib bir-birlariga qarshi gij-gijladilar. 1921-yilda tashkil etilgan «Qo'shchi» ittifoqi xuddi ana shu maqsadda tuzildi. 20-yillarning o'rtalaridayoq uning saflarida 160 ming nafarga yaqin a'zo bor edi. Bu ittifoqqa asosan yersiz va kam yerli kambag'al dehqonlar uyushar edi. Uning faoliyati bolsheviklar tomonidan boshqarilar edi.

«Qo'shchi» ittifoqi boylar va ruhoniylarning yerlarini tortib olib, yersiz va kam yerli dehqonlarga bo'lib berardi. 1921-1922-yillarda o'tkazilgan yer-suv islohoti natijasida Sirdaryo, Farg'ona, Yettisuv viloyatlari, Turkman viloyatining Marv uyezdida 1.722.626 desyatini yer musodara qilindi. Ana shu yerlardan 117.512 desyatini yersiz va kam yerli o'zbek dehqonlariga berildi va 3 ming xo'jalik tashkil etildi. Dehqonlarga yer bilan birgalikda 1.517 ot, 87 tuya, 1042 sigir va 133 eshaklar ham taqsimlab berildi. Bundan tashqari qishloq

kambag'allariga mehnat qurollari ham ulashildi.

O'zbek qishlog'ini rivojlantirishda 20-yillarning o'rtalariga kelib ba'zi yutuqlar qo'lga kiritildi. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tilishi bilan O'zbek dehqoni erkinroq nafas ola boshladi. Oziq-ovqat razvyorstkasining oziq-ovqat solig'i bilan almashtirilishi dehqonga ortiqcha mahsulotni sotishga, shuningdek, g'o'za va boshqa ekinlar maydonini kengaytirishga imkon berdi. Buning natijasida dehqonlarning tovarlar bilan ta'minlanishi o'sdi, ularning turmush darajasi bir qadar ko'tarildi.

1925-yilda O'zbek qishloqlarida 1917-yil oktabr to'ntarishidan oldingi rivojlanish tamoyillari saqlanib qolgan edi. Qishloqda ijtimoiy tabaqalanish mavjud bo'ldi, yersiz dehqonlar barcha xo'jaliklarning taxminan 10 %ini, 1—3 desyatinagacha yeri bor kam yerli dehqonlar 64 foizni, 3—10 desyatinagacha yeri bor o'rtahol dehqonlar 20 foizni, 10 desyatinadan ortiq yerli boy dehqonlar 6 foizni tashkil qilgan. Bu boy xo'jaliklar barcha xo'jaliklar yerlarining 36 foizga egalik qilganlar. Boy xo'jaliklar ikki toifaga bo'lingan. Bular 40-50 desyatinadan ortiq sug'oriladigan yeri bor boy xo'jaliklar va 10-40 desyatinagacha yerli o'ziga to'q xo'jaliklar. Chorakor, yetim, qarol kabi dehqon tabaqalari asosan boy xo'jaliklarning yerini ijaraga olib, unda ishlab, oilasini boqar edi. Katta yer egalari odatda yerga ishlov berishga qatnashmay, chorikorlar yetishtirgan hosildan o'z ulushini olib, boshqalar hisobiga yashardilar. Quloq xo'jaliklar a'zolari yerda o'zlari ishlagan va ortiqcha yerlarini ijaraga bergan. Yerni ijaraga bergan, birovlarining kuchidan foydalanganlarni sovet hukumati ekspluatator deb yomonotliqqa chiqardi.

Boylarga nisbatan bunday munosabatda bo'lishning sababi shundaki, kommunistlar partiyasi dasturida ekspluatator sinflarni yo'q qilish, sinfsiz, xayoliy sotsia-listik, kommunistik jamiyat qurish vazifasi qo'yilgan. Shu maqsaddan kelib chiqib sovet hukumati O'zbekistonda mulk egalari sekina-asta cheklash va tugatish siyosatini olib bordi. O'zbek qishloqlarida mana shu siyosatni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlardan biri 1925-1929-yillardagi yer-suv islohoti bo'lgan. Bu islohot joy-larda shart-sharoitlar va tayyorgarlik darajasiga qarab uch

bosqichda o'tkazildi. Birinchi bosqich Farg'ona, Toshkent, Samarqand viloyatlarida 1925-1926-yillarda bo'ldi. Zarafshon viloyatida 1927-yili yer-suv islohoti o'tkazildi. Islohot Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm okruglarida oxirgi navbatda 1928-1929-yillarda amalga oshirildi. O'zbekiston sovetlarining Markaziy Ijroiya Komiteti 1925-yil 1-2 dekabr kunlari o'zining favqulod-da sessiyasiga to'planib, yer-suv islohoti o'tkazish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqdi. 2-dekabrda sessiya «Yer va suvni musodara qilish to'g'risida», «Yer-suv islohoti o'tkazish to'g'risida»gi dekretlarni qabul qildi.

Islohotni o'tkazish uchun MIK huzurida Markaziy yer-suv islohotini o'tkazish komissiyasi, viloyat ijroiya qo'mitalari huzurida viloyat komissiyalari, har ikki oblastga bittadan rayon yer-suv islohoti o'tkazish komissiyalari tashkil etildi.

“Yer-suv Islohotini o'tkazish to'g'risida”gi dekretga asosan Farg'ona viloyatida 40 desyatina, Toshkent va Samarqand viloyatlarida 50 desyatina va undan ortiq sug'oriladigan yerlari bor katta yer egalari xo'jaliklarining butunlay tugatilishi, ularning yerlari davlat yer fondiga o'tkazilishi, dehqonlarga bo'lib berilishi nazarda tutildi. Yer bilan barcha ishchi ot-ulovlari, dehqonchilik asbob-uskunalar ham musodara qilindi. O'ziga to'q xo'jaliklar, yer egasining to'la yoki qisman kuchi yoki oila a'zolari kuchi bilan ishlanadigan xo'jaliklar uchun Farg'ona viloyatida 7 desyatina, Toshkent, Samarqand viloyatlarida 10 desyatina norma belgilandi. Bu xo'jaliklarning belgilangan normadan ortiqcha yerlari musodara qilindi. Ortiqcha dehqonchilik asbob-uskunalar, ot-ho'kizlari majburan olinib, davlat fondiga o'tkazildi.

1926-yil 13-dekabrda O'zbekiston MIK “Zarafshon viloyatida yer-suv islohoti to'g'risida” qaror qabul qildi. Qaror mazmuni 1925-yildagi dekret bilan asosan bir xil edi. Qisman farqi shunda ediki, bu qarorda 35 desyatina va undan ko'p yeri bo'lgan xo'jaliklar va amir amaldorlarining yerlarini, miqdoridan qafiy nazar, musodara qi-lish belgilandi. Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida mehnat qilmay yerdan foydalanadigan xo'jaliklarni tugatish to'g'risida O'zbekiston hukumati 1928-yilda qaror qabul qildi. Qarorda mehnatsiz

kun kechiradigan, 20 gektar va undan ortiq sug'oriladigan yoki 45 gektar lalmi yerga ega bo'lgan boy xo'jaliklar butunlay tugatilishi nazarda tutildi. Bu qarorda boy va o'ziga to'q xo'jaliklarning ortiqcha yerlarini musodara qilish belgilandi.

Islohot dastlab Farg'ona, Samarqand, Toshkent viloyatlarining barcha rayonlarida 1925-yil dekabrda boshlandi. Andijon uyezdining Norin tumanida katta yer egasi Sotvoldiqozi Abdurahmonxo'jayev xo'jaligi rayon komissiyasi qaroriga asosan tugatildi. Bu xo'jalikning 13 ta qishloqda 1726 tanob yeri, 83 bosh buqasi, 14 bosh oti va ko'p miqdordagi asbob-uskunalari musodara qilindi. Uning yerlarida 120 ga yaqin chorikor mehnat qilardi. Boy mulki chorikorlarga bo'linib berildi. Ulardan ortgan yerlar davlat fondiga o'tkazildi. Toshkent viloyatining Obliq volostida RJsmatovning 57 desyatina yeri, Dalvarzin volostida bir boyning 90 desyatina yeri, Pskent volostida LDurmatovning 79 desyatina yeri musodara qilindi. 1925-1929 yillarda o'tkazilgan islohotlar natijasida barcha viloyatlarda 5 mingga yaqin xo'jaliklar tugatildi. Ular yerga ishlov berishda qatnashmagan, chorikorlar-ning o'ziga tashlab qo'yilgan, ular esa nochor xo'jaliklar bo'lganligi uchun dehqonchilikka yangi texnika, agro-texnika yutuqlarini qo'llamas edi.

Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm va Qoraqalpog'iston viloyatlarida yer-suv islohoti 1928-1929 yillarda o'tkazildi. 1924-yil, 1-noyabrda tashkil etilgan Qashqadaryo viloyatida yer-suv islohoti 1929-yil bahorida yakun topdi. Bu o'tkazilgan tadbir natijasida katta yer yegallari yo'q qilindi, amirlikning katta amaldorlari va savdogarlari xo'jaliklari tugatildi.

Ayni paytda sovet hukumati o'z yerida halol mehnati bilan kun ko'radigan dehqon xo'jaliklarni ham islohot girdobiga tortib quloqlarga aylantirgan, ularning yer-suv, ot-ulov va bor-bisotidan mahrum yetgan edi.

Qashqadaryo viloyatida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra musodara etilgan yerlar 17906 tanob sug'oriladigan va 7315 tanob lalmikor zamindan iborat bo'lib, jami 25311,23 tanobni tashkil etgan edi.

Yer-suv islohoti 1929-yilda o'tkazilgan Qoraqalpog'istonda 300 dan ortiq yarim zamindor yer yegallarining xo'jaliklari musodara qilindi. 5000 dan ortiq boylarning yerlari tortib olindi. Xorazm okrugida 458 xo'jalik, Farg'ona okrugida

1541 xo‘jalik tugatildi. Jami bo‘lib butun O‘zbekiston bo‘yicha o‘tkazilgan yer-suv islohoti natijasida 4801 ta xo‘jalik quloq xo‘jaligi sifatida tugatildi, 23036 xo‘jalikning ortiqcha yerlari tortib olindi, yer jamg‘armasiga 474393 desyatina yer qo‘shildi. U yerlar bilan birga ot-ulov va asbob-uskunalar ham musodara qilingan edi.

O‘zbekistonda o‘tkazilgan yer-suv islohoti jarayonida boy xo‘jaliklar bilan birga to‘q, badavlat xo‘jaliklarning har bir rayon uchun belgilangan norma 7-10 desyatindan ortiq yerlari musodara qilindi. Bu xo‘jaliklar yerni to‘la yoki qisman o‘z kuchlari bilan ishlar edilar. Ular ishbilarmon xo‘jaliklar bo‘lib, yerdan samarali foydalanishga, ishlab chiqarishni kengaytirishga harakat qilardilar. Yer egasining o‘z kuchi bilan ishlanadigan xo‘jaliklarida «me'yordan ortiqcha» yerlar tortib olindi. Ularning «ortiqcha» ot-ho‘kizlari, dehqonchilik asbob-uskunalari davlat tomonidan majburan sotib olindi. «Ortiqcha» yerlari tortib olingan to‘q xo‘jaliklar soni 23 mingdan ortiqni tashkil qildi. Bu dehqonchilikni rivoj-lantirish, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ko‘paytirish imkoniyatini chekladi. O‘zbekistonda yer-suv islohotini o‘tkazish jarayonida to‘q xo‘jaliklarning cheklanishi adolat va insonparvarlikka zid bo‘lib, keyinchalik ularning batamom yo‘q qilinishi mehnatkash xalqimiz uchun katta fojiga aylandi.

Islohot davomida tortib olingan yer fondi 475 ming desyatini tashkil etdi. Tortib olingan yerlarning bir qismi, ya'ni faqatgina 10 foizi kambag‘al va kam yerli xo‘jaliklarga taqsimlab berildi. Shuni aytish joizki, islo-hotdan keyin ham dehqonlarning kambag‘al qatlami hamon katta foizni tashkil etardi. Tortib olingan yerlarning asosiy qismi davlat tasarrufida bo‘lib, kolxoz va sovxozlarga berildi. Chunonchi, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida tortib olingan yerlar asosida 120 kolxoz tashkil etildi. Samarqand, Toshkent, Farg‘ona viloyatlarida 1925-1929-yillarda 354 ta yangi kolxoz tuzildi. Respublika bo‘yicha ularning soni 522 tani tashkil etdi. Shunday qilib, O‘zbekistonda 1925-1929 yillarda amalga oshirilgan yer-suv islohotlari sovet hukumatining mulkdor sinflarni cheklash va tugatishga, sinfsiz jamiyat qurishga qaratilgan navbatdagi tadbirlaridan biri bo‘ldi. Bu holat keyinchalik qishloq xo‘jaligini zo‘ravonlik yo‘li bilan yalpi

jamoalashtirish jarayonini tezlashtirish uchun qulay shart-sharoitlar hozirladi.

Kommunistik partiyaning siyosiy doktrinasi xo'jalik yuritishning jamoa shakllarini rivojlantirishni ko'zlar edi. Butun Ittifoqda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham dehqon xo'jaliklarini kooperatsiyalash siyosati izchillik bilan amalga oshirib borildi. Ta'minot-tijorat ishlari, ishlab chiqarishga doir va boshqa oddiy ishlarni birgalikda bajaruvchi universal (integral) kooperatsiya keng rasm bo'ldi. 1925-yili respublikada barcha dehqon xo'jaliklarining 36 foizdan ko'prog'ini birlashtirgan 595 shirkat ishlab turdi.

1926-yilning ikkinchi yarmidan boshlab qishloq xo'jalik kooperatsiyasini ixtisoslashtirishga kirishildi. Universal qishloq kooperatsiyasidan iborat «Узбексельсоюз»dan paxtachilik, keyin esa chorvachilik kooperatsiyasi, mevasabzavot, ipakchilik kooperatsiyalari va boshqalar ajralib chiqdi. Ular markaziy boshqaruv-raysoyuz-shirkatdan iborat tugal tizimga ega bo'ldi.

Kooperatsiyaning qaysi shakllaridan aholi manfaat-dor bo'lsa, uning shu shakllari ko'proq rivojlanib bordi. O'zbekiston uchun dehqon xo'jaliklarining 60% dan ortig'ini birlashtirgan paxtachilik kooperatsiyasining rivojlanishi alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Sug'oriladigan dehqonchilik shirkatlarida dehqon xo'jaliklarini rivojlantirishda avval tashkil etilgan melioratsiya kooperativlari katta rol o'ynadi. o'lkada sug'oriladigan dehqonchilik rasm bo'lganidan beri yerlarni sug'orish ishlari, ya'ni irrigatsiya ishlari birgalikda olib borilardi.

Qishloq xo'jalik kooperatsiyasining qishloq xo'jalik mahsulotlarini shartnoma asosida to'plab, sanoatga topshirish faoliyati dehqon xo'jaliklari uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bunda davlat sanoat korxonasi bilan yakka dehqon xo'jaligi o'rtasida mahsulotning ma'lum miqdorini oldindan belgilangan narxlar asosida top-shirish, shartnoma tuzayotgan tashkilotlar tomonidan dehqonlarga pul va natura ko'rinishida bo'naklar berib turish, dehqonlarni qishloq xo'jalik asbob-uskunalari hamda urug'liklar bilan imtiyozli ta'minlab borish to'g'risida kooperatsiya orqali shartnoma tuzilar edi. Bunday shartnomalarning rasm bo'lishi O'zbek qishlog'ini bozorga jalb etish, mayda tovar dehqon xo'jaliklarini

rivojlantirishga ko‘maklashdi. 1929-yildayoq O‘zbekistonda tayyorlanadigan paxta xom ashyosining deyarli 100 foizi, qorako‘l terining 82 foizi, junning 70% foizi, quruq mevaning 60 foizi shartnoma asosida topshiriladigan bo‘ldi.

Qishloq xo‘jalik kooperatsiyasi tizimi, butun Ittifoqda bo‘lgani kabi, O‘zbekistonda ham 20-yillarning oxiriga qadar saqlanib keldi. 1929-yili dehqon xo‘jaliklarining 80 foizi kooperatsiyaning turli xillariga jalb etilgan edi. Kooperatsiyaning birorta shakli ham imkoniyatlarini tugal namoyon etmadi. 1929-yil kuzidan boshlab qishloq xo‘jalik kooperatsiyasining kolxozlargacha bo‘lgan shakllariga barham berildi. 1927-yildan boshlab kooperatsiyani «davlatlashtirish» tendensiyalari kuchayib, uning xo‘jalik hisobi asosidagi negizlari tobora ko‘proq qo‘porila boshlandi. Dehqon xo‘jaligini yuksaltirishga doir masalalarning barchasi davlatga borib taqaladigan bo‘lib qoldi (soliq siyosati, kredit, narxlar va boshqalar).

Yangi iqtisodiy siyosat tamoyillaridan voz kechish kooperativ qurilishga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Kooperatsiyaning sotsialistik shakllari degan xillari jadal sur‘atlarda rasm bo‘la boshladi. 20-yillarda bu yerni jamoa bo‘lib ishlovchi shirkatlar, ya‘ni TOOZ lar (товарищество по общественной обработке земли) tuzish, qishloq xo‘jalik artellarini tashkil qilishda namoyon bo‘ldi. O‘zbekistonda o‘sha kezlar 550 ta artel va 166 ta TOOZ tuzilgan.

20-yillar oxirida yangi iqtisodiy siyosatga barham berilishi kooperatsiya tizimining yemirilishiga olib keldi. Partiya qishloq xo‘jaligini boshqarishni davlat qo‘liga o‘tkazish yo‘lini tutdi. Mamlakatning siyosiy rahbariyati yalpi jamoalashtirish yo‘liga o‘tish vazifalarini ilgari surdi.

Mamlakatda yer-suv islohotini amalga oshirish ishlari bilan viloyat, okrug va tumanlar yer komissiyalari shug‘ullandilar. Ularga yordam berish us‘hun qishloqlarda yordamchi komissiyalar tuzildi.

Xullas O‘zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv islohoti natijasida respublika qishloq aholisining tarkibida bir qator jiddiy o‘zgarishlar bo‘ldi, Kambag‘al dehqonlar kamayib o‘rtahol dehqonlar salmog‘i ortdi. Jumladan yer-suv islohotiga qadar kambag‘al dehqonlar guruhi barcha dehqonlarning 76 foiziga

teng edi. Yer-suv islohotidan keyin esa, ularning salmog‘i 30 foizga qisqardi va aksincha o‘rtahol dehqonlarning salmog‘i 17 foizdan 52 foizga ortdi.

«Oktabrning o‘n yillik bayrami nishonlanish arafasida O‘rta Osiyo Byurosining «За партию» nashri 1927-yil, sentabr sonida, kambag‘al turkistonliklarning o‘zlariga bo‘lib berilgan tomorqalarni avvalgi yegalariga o‘z xohishlari bilan qaytarib berishgani haqidagi bir qancha hodisalarni keltirgan. Hatto, yerlarni zo‘rluk bilan mahalliy hokimiyat tazyiqida bo‘lib berish hollari ham yuz bergan.

«Правдо Востока» gazetasi 1928-yil, 2-sentabr sonida quyidagi juda bir qiziq rasmiy ma‘lumotni bergan edi: «Boylarning o‘zboshimchalik bilan o‘z yerlarni tortib olish hollari sodir bo‘lgan. Bunaqa hodisalar, ayniqsa Samarqand va Buxoro viloyatlarida ko‘p takrorlanmoqda. ... o‘z xohishlari bilan yer olishdan voz kechayotganlar ham uchrab turibdi. U yoki bu shaklda boylarning yerlarini tortib olishga uo‘l qo‘ygan yoki qo‘l qo‘ylshayotgan ba‘zi qishloq va rayon ijroiya qo‘mitalari xodimlariga qarshi biz qattiq choralar ko‘rishimiz zarur». O‘zbekistonda yer-suv islohoti o‘tkazilishi davrida kompartiya va sovetlarning agrar siyosatiga qarshi norozilik harakati keng tus oldi. Natto terors‘hilik keng tus olgan. Faqat 1928-yilning o‘zida O‘zbekistonda 218, 1929-yilda 429, 1930-yil, yanvar-aprelida 106 jami 653 terrorchilik hodisalari yuz bergan.

13.6-§. Sovet hokimiyati tomonidan quloqlashtirish siyosatining amalga oshirilishi va uning salbiy oqibatlari

Qishloq xo‘jaligini sotsialistik asosda o‘zgartirish istiqbollari yondashish jarayonida kommunistik mafkurachilar yirik agrar jamoa korxonasi yakka dehqon xo‘jaligidan yaxshiroq, degan fikrga qat’iy asoslanib ish ko‘rdilar. Chunki erdan foydalanishning jamoa tizimi markazlashgan rejalashtirishni va ko‘pmillionli qishloq mehnatkashlarini boshqarishni osonlashtirar, qishloqdagi keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy ishlarini butun mamlakat miqyosida tezroq amalga oshirish imkonini berardi. Eng asosiysi, jamoa xo‘jaliklari markscha tasavvurga ko‘ra,

sotsializm ideallariga yot bo'lgan «mayda burjua psxologiyasi» bilan «zaharlangan» dehqonni sotsialistik yo'lga solishni tezlashtirar edi.

Ommaviy jamoalashtirish g'oyasi, umuman olganda, «lenincha kooperativ reja»da o'z ifodasini topgan bo'lib, unda dehqonlarni bosqichma-bosqich kooperatsiyalash yo'li taklif qilingan edi, u dehqonlarning eng oddiy shakllar orqali yuqori va murakkab shakl bo'lgan jamoa xo'jaliklariga birlashuvini nazarda tutardi.

1929-yilning kuzidan e'tiboran sovet davlati kooperativlashtirishning xilma-xil shakllarini tugatish, mavjud bo'lgan bir qancha kooperativ tizimlarini (matbuot, ishlab chiqarish va hokazo) davlatlashtirish yo'lga o'tdi. Kooperatsiyani barcha turlari va sohalari bo'yicha rivojlantirish siyosatini yoppasiga jamoalashtirish yo'li bilan almashtirdi. Bu yo'l esa ehtiyoriylik prinsiplari asosida emas, balki «yuqoridan belgilash» yo'li bilan amalga oshirilardi.

Stalinning 1929-yil 7-noyabrda bosilib chiqqan maqolasi jadal jamoalashtirishni «nazariy» jihatdan asoslab berdi. Unda, keng qishloq ommasi kolxozlarga kirish uchun etildi, deb aytilgan edi. VKP(b) MQ ning 1929-yilgi noyabr plenumi «dohiy» fikrini partiya direktivasiga aylantirdi. Plenum jamoalashtirish sur'atlarini haddan tashqari kuchaytirish, unga ommaviy tus berishdan iborat aniq vazifani qo'ydi. 1929-yil 27-dekabrda markschilar konferensiyasida so'zga chiqqan Stalin «yoppasiga jamoalashtirish asosida quloqlarni sinf sifatida tugatish» shiorini e'lon qildi..

Hokimiyat organlari «dohiy»ning ko'rsatmasini bajarish uchun jadal jamoalashtirishning boshida turib asosan zo'ravonlik usullariga e'tiborni kuchaytirdilar. Qishloqda an'anaviy iqtisodiy munosabatlarni yoppasiga buzish avj oldirildi. Davlat qishloq mehnatkashlariga qancha va nima ekishni, etishtirilgan mahsulotni qanday narx bilan topshirishni aytib turadigan bo'ldi. Qishloq aholisining badavlat qatlamlariga qarshi mislsiz quvg'inlar uyushtirildi, qishloq ahlini zo'rlik bilan kolxozlarga kiritish boshlandi.

Agrar siyosatdagi yangi yo'l O'zbekistonda og'ir oqibatlarini keltirib chiqardi. VKP(b) MQning 1930-yil 5-yanvardagi «Jamoalashtirish sur'atlari va

davlatning kolxoz qurilishiga yordam ko'rsatish choralari to'g'risida»gi qarorining dastlabki tahririda O'zbekiston SSR hududida jamoalashtirishni ikkinchi besh yillik mobaynida tugallash muljallangan bo'lishiga qaramay, «buyuk darg'a» bu harakat birmuncha ertaroq tugallanishi mumkin degan «bashorat»ni o'rta tashladi.

Shuni ham aytib o'tish joizki, respublikamizning ayrim rahbarlari (xususan, F.Xo'jaev va A.Ikromov) volyuntaristik usullarga qarshi turishga intildilar, raqamlarga va muddatiga tuzatish kiritish fikrini bildirdilar. Biroq ularning takliflariga umuman e'tibor berilmadi. Natijada VKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosining qarori bilan 1932-yilning boshlariga kelib dehqon xo'jaliklarining 68%ini kolxozlarga birlashtirish rejasi qabul qilindi.

Yoppasiga jamoalashtirishga rahbarlik qilish uchun respublika va viloyat shtablari tuzildi. Hamma joyda ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlari harakatga keltirildi. Qishloq ahlini kolxozlarga «g'ayratlantirish» uchun ishchilar sinfi ham jalb qilindi. VKP(b) MQ 1929-yil noyabr plenumi qarori bilan «yakka xo'jalik» qishloqlariga kamida 25 ming ishchini yuborish taklif etildi, ular joylarda «agrar inqilob»ni avj oldirishni ta'minlashlari lozim edi. Xususan, O'zbekistonga Rossiyaning markaziy rayonlaridan 437 ishchi yuborildi. Ular bilan birgalikda mahalliy ishchilar sinfi o'z saflaridan 263 kishini jalb qildi. «Yigirma besh mingchi» ishchilar partiya tashkilotlariga kolxozlar tuzishda yordam ko'rsatdilar, kambag'al faollarni «quloqlar»ga qarshi birlashtirdilar, qishloq xo'jaligi va mahalliy sharoit haqida umuman tasavvurga ega bo'lmasada, «yigirma besh mingchi» ishchilar yangi tashkil etilgan qishloq xo'jalik artellariga boshchilik qildilar. Oqibatda, shoshma-shosharlik bilan dastlab tashkil qilingan kolxozlarning ko'pchiligi ishni eplay olmay tarqab ketdi.

O'zbek qishlog'ining keng batrak kambag'allari ommasini ham «buyuk burilish»ning «inqilobiy» harakatlariga faol jalb qilishga alohida e'tibor berildi. Bu vazifani hal qilish bo'g'inlaridan biri 1929-yil oktabrda qayta tashkil etilgan «Qo'shchi» ittifoqi asosida «Kambag'allar uyushmasi»ning ta'sis etilganligi bo'ldi. Ular bilan bir vaqtda qishloq sovetlari qoshida, kooperativlarning

boshqaruvida, kolxozlarda va boshqa xo‘jalik-siyosiy tuzilmalari qoshida kambag‘allar guruhlarini tuzila boshladi.

Jamoa xo‘jaliklariga birlashtirish uchun dehqon xo‘jaliklariga bevosita xujum qilish amaliy jihatdan buzg‘unchilik harakatiga aylanib ketdi. Raqamlar ortidan quvish boshlandi. Sovet davlatining hamma joyida bo‘lgani kabi O‘zbekistondagi jamoalashtirish ham «harbiy kommunizm» yillarida sinovdan o‘tgan kampaniyabozlik, «hujum va tazyiq» usullari bilan amalga oshirildi. Dehqonlarni zo‘rlilik bilan kolxozlarga kirishga majbur etdilar. Qarshilik ko‘rsatganlar ijtimoiy mansubligidan qat‘i nazar «quloq qilindi». Ko‘pincha qishloqlarning aholisini bu yerdan ko‘chirib yuboramiz, oziq-ovqat ta‘minotidan, suvdan mahrum etamiz, deb qo‘rqitib kolxozlarga yozilishiga majbur qilardilar. Shunday hollar ham bo‘lar ediki, kolxozlarni tashkil etish u yoki bu qishloqdagi deyarli dehqon xo‘jaliklarining kolxozga kirish-kirmaslik istagidan qat‘i nazar sun‘iy ravishda varaqa to‘ldirishdan iborat bo‘lardiki.

Ma‘muriy tazyiq natijasida oradan bir necha hafta o‘tgandan keyin hali birorta ham kolxoz tuzilmagan ayrim tumanlar jamoalashtirishni tugatganliklari haqida ma‘lumot berdilar. Chunonchi, Andijon okrugining Asaka tumanida dehqon xo‘jaliklarining «yuz foiz jamoalashtirilishi» haqidagi ma‘lumotlar respublika shtabiga 1930 yil fevralning boshlarida kelib tushdi. Xorazm okrugining Shovot va G‘ozovot tumanlarida to‘liq jamoalashtirish uch hafta ichida tugallandi. Samarqand okrugi bo‘yicha 1929-yil 2-iyulgacha 3602 ta xo‘jalik, 1930-yil 15-martgacha 51 ming xo‘jalik jamoalashtirildi.

Jamoalashtirishning «jadal sur‘atlari» natijasida respublika bo‘yicha 1930-yil martda dehqon xo‘jaliklarining 47 foizi jamoalashtirildi, holbuki, 1929-yil 10-oktabrga kadar kolxozlar dehqon xo‘jaliklarining bor-yo‘g‘i 3,4 foizini qamrab olgan edi, xolos. Shu bilan birga ishlab chiqarish vositalarining umumiy lashtirish masalasidagi noaniqlik tufayli yakka xo‘jalikdan birdaniga jamoa xo‘jaligining oliy shakli bo‘lgan kommunalarga sakrab o‘tish hollari sodir bo‘ldi. Kommunalarni tashkil etilgan joylarda darhol turar-joylarni, mayda hayvonlarni, parrandalarni va hokazolarni umumiy lashtirish ko‘zda tutilgan edi. Qishloq xo‘jalik artellarini

tashkil etish vaqtida ham joylarda chorva mollari va parrandalarni umumiyLashtirishga intilish sodir bo'ldi. Shunday qilib, jamoalashtirish dehqonlarga zo'rvonlik qilish yo'li bilan amalga oshirildi.

Badavlat xo'jaliklarining mol-mulkini to'liq musodara qilish «boy-quloqlar» oilalarini o'zga yurtlarga surgun qilish ommaviy qonunsizliklar asosida amalga oshirildi. «Quloqlar»ga qarshi kurash niqobi ostida asosan tadbirkor, ishbilarmon dehqonlarga nisbatan yalpi urush e'lon qilindi. Dindor bo'lgani uchun, ma'muriyatning hatti-harakatiga norozilik bildirgani uchun shaxsiy uch olish maqsadida quloq qilish hollari ham uchrab turardi.

Ijtimoiy jihatdan esa, asosan o'rtahol dehqonlar ashaddiy «quloq qilish» zarbasiga uchradilar. Aslida boylar va quloqlar «inqilobdan keyingi» dastlabki yillarda va 20-yillarning islohotlari jarayonida tugatilgan edi. Avvalo, bunga asosiy sabab «quloqlar»ni aniqlash uchun davlat tomonidan ishlab chiqilgan qat'iy mezonning yo'qligi edi. «Quloqlar»ni belgilashda ular ijtimoiy jihatdan emas, ko'p hollarda xo'jaliklarning ahvoliga qarab baholandi. Natijada «quloq» toifasiga dastlabki islohotlar jarayonida olingan erda o'z mehnatlari bilan xo'jaliklarni o'rtacha va o'rtachadan yuqori darajaga ko'tarishga muvaffaq bo'lgan dehqonlarni ham kiritish hollari yuz berdi.

Statistik ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, jamoalashtirishning boshlarida O'zbekistonda shartli ravishda «quloq» xo'jaligiga kiritish mumkin bo'lgan xo'jaliklarning salmog'i prinsip jihatidan 5 foizdan kamroqni tashkil etardi. Biroq «buyuk burilish» boshlanishi bilan 15 foizdan ortiq xo'jaliklar «quloklashtirish»ga duchor bo'ldi. Aslida esa, bular o'rtacha xo'jaliklar edi. Faqat 1930-yilning o'zida respublikada «boy» yoki «quloq» xo'jaliklar toifasiga kiritilgan 2648 ta o'rtacha xo'jalik tugatilgan edi.

Biroq hokimiyat organlari qishloq aholisining ancha boyroq va kambag'alroq qatlamlariga nisbatan zo'rvonlik qilish bilangina cheklanib qolmadilar. Tez orada «quloqlarning dumi» degan atama paydo bo'ldiki, uni har qanday odamga, hatto ent kambag'al xo'jalikka nisbatan ham ishlatish mumkin edi.

Ommaviy «quloqlashtirish» fuqarolar urushi qonunlari asosida haddan tashqari zo‘ravonlik bilan o‘tkazildi. Bu harakat joylarda amalda qanday o‘tkazilganini Zarafshon viloyatidagi «kolxoz faollari»ning Stalinga yo‘llagan xatlari asosida tasavvur qilish mumkin: «Biz quloqlar va boylarga nisbatan zamonaviy siyosatning barcha qoidalari asosida muomala qilmoqdamiz, faqat chorva mollari, go‘sht, asboblarni emas, balki urug‘lik, oziq-ovqat va qolgan mol-mulkni ham olib qo‘ymoqdamiz. Onasi qanday tuqqan bo‘lsa, o‘shanday holda qoldirmoqdamiz».

Ruhoniylar ham kuchli ta‘qib ostiga olindi, din xizmatchilarining mol-mulki xatga olinib, yerlari tortib olindi. Masjid va cherkovlar ommaviy ravishda yopib qo‘yildi.

Jadal jamoalashtirishga, quloq qilishga, o‘rtahol qatlamlarga shubha bilan qarashga, qishloq aholisining boshqa qatlamlari insoniy huquqlarining poymol etilishiga qaratilgan yo‘l qishloqda siyosiy vaziyat keskin tus olishiga sabab bo‘ldi. Rasmiy targ‘ibot bu holni sinfiy kurashning kuchayishi deb atadi. Haqiqatda esa qatag‘onlar iskanjasida siqib qo‘yilgan va ezilgan tinch qishloq ahlining noroziligi edi. Qishloq aholisi orasidagi bu ijtimoiy norozilik qudratli portlashni keltirib chiqardi. 1930 yil 15 iyunda Iskovat qishloq soveti hududidan ko‘llarida ketmon, bolta ko‘targan 2 ming kishilik qishloq odamlari yo‘lga chiqib, tuman markaziga shikoyat bilan yurish qildilar. Tuman rahbariyati to‘planganlarga qarab o‘t ochishga buyruq berdi. Bir necha batraklar yarador bo‘ldi, 20 dan ortiq xotin-qizlar hibsga olindi.

Bu xildagi chiqishlar Farg‘ona, Bag‘dod tumanlarida, Oyimda, Chustda, Xatirchida ham ro‘y berdi. Faqat Qashqadaryo okrugida 1929-1930 yilning boshlarida dehqonlarning 14 marta ommaviy chiqish hollari sodir bo‘lib, ularda 3,7 ming kishi ishtirok etgan edi. Kolxozlarga qarshi chiqish hollari OGPU ning ma‘lumotlariga qaraganda, respublikada bu davrda 240 marta sodir bo‘lgan. Umuman olganda, SSSR bo‘yicha 1930-yil martining o‘rtalariga kelib 2 mingdan ortiq qurolli chiqishlar qayd etilgan. 1921-yil bahori (bu erda «harbiy

kommunizm» siyosatidan norozi bo'lgan dehqonlar g'alayonlari ko'zda tutilmoqda. — Tahririyat)ning yana takrorlanish xavfi aniq bo'lib qolayotgan edi.

Qishloqqa «qizil gvardiya hujumi» siyosatining barbod bo'lganligi mamlakatning yuqori siyosiy rahbariyatini tashvishga soldi. 1930-yil 2-martda «Pravda»da Stalinning «Yutuqlardan esankirash» nomli maqolasi bosilib chiqdi, unda jamoalashtirish davridagi «qing'irliklar» uchun butun ayb mahalliy xodimlarga to'nkaldi. Stalin ularga nisbatan g'oyat qattiq choralar ko'rilishini talab qildi.

«Agrar inqilob» yo'lini bo'shashtirish bo'yicha ayrim tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, jamoalashtirishni jadallashtirish sur'atlari sekinlashtirildi. 1930-yilning mart-aprelida «quloq qilish» aksariyat to'xtatildi. Barcha tumanlarda, qishloq sovetlarida quloq qilingan va huquqlardan mahrum etilganlarning ro'yxatini tekshirish bo'yicha komissiyalar tashkil etildi. Bu ro'yxatga tushgan o'rtahol dehqonlarning fuqarolik huquqlari tiklandi, ularning tortib olingan chorvasi va mol-mulklari qaytarib berildi.

Biroq bu xildagi «tuzatish kiritish» bolshevik ma'murlar nuqtai nazaridan «noxush oqibatlar»ga olib kelardi. Ma'muriy usullar bilan tuzilgan kolxozlar tarqalib keta boshladi. Masalan, Farg'ona okrugining Bag'dod tumanida 20 fevral kuniga dehqon xo'jaliklarining 80 foizi jamoalashgan bo'lsa, mart oyiga kelib ulardan faqat 10 foizi qolgan edi'. Respublika bo'yicha esa jamoalashtirish darajasi 1930 yil martdan maygacha 47,8 foizdan 27,5 foizga tushib qolgan.

Bunday manzarani butun mamlakatda kuzatish mumkin edi. Kolxozlardan ketib qolish natijasida, 1930-yilning yozi oxirlariga kelib SSSRning qishloq xo'jalik artellariga yozilganlarning uchdan bir qismidan kamrog'i (martdagi 60 foizdan 21 foizga) qolgan edi. Bunday holat stalincha rahbariyatni mutlaqo qanoatlantirmasdi.

1930-yilning sentabridayoq VKP(b) MQ barcha o'lkalar, viloyat ko'mitalariga va ittifoqdosh respublikalar kompartiyalari MQga «jamoalashtirish to'g'risida» maktub yo'lladi, unda «kolxoz harakatini yangidan qudratli

yuksaltirishga erishish» uchun dehqonlar orasida faol siyosiy va tashkilotchilik ishlarini avj oldirish tavsiya qilingan edi.

Markazning partiyaviy direktivasi jamoalashtirish sur'atlarini qayta tiklash, kishloq ahlini nafrat uyg'otuvchi kolxozlarga «haydab kirish» uchun yana sinab ko'rilgan ma'muriy-buyruqbozlik usullaridan ham tap tortmaslikka da'vat etgan edi.

Moskvaning tazyiqi bilan 1931-yilning bahoridan e'tiboran O'zbekistonda yoppasiga jamoalashgan tumanlar tashkil etish tajribasi qayta tiklandi. Ittifoqning g'allakor tumanlarini jamoalashtirish sur'atlari bo'yicha «quvib yetish va o'zib ketish» shiori yana ilgari surildi. Bu vazifani ta'minlash ilgari ishlab chiqilgan reja bo'yicha amalga oshirildi. Natijada, agar 1930 yil iyunda respublikada 6124 ta kolxoz mavjud bo'lib, ularga jalb qilinganlar dehqon xo'jaliklarining 27,1%ini tashkil etgan bo'lsa, -yilning oxiriga borib, u 37,7% ga, 1931-yilning mayida 56,7% ga etdi. 1 dekabrda esa 68,2% bo'ldi.

Yoppasiga jamoalashtirish yana avj olishi bilan «quloq-boy unsurlar»ga qarshi kurash chora-tadbirlari ham sezilarli ko'lamda olib borildi. Odatda ta'qib qilinganlar tuman tashqarisiga, respublikaning aholi kam yashaydigan mintaqalariga chiqarib yuborilardi, u joylarda 17 ta maxsus posyolkalar tashkil etilgan edi'. Shuningdek, ular O'zbekistondan tashqariga: dastlab qo'shni O'rta Osiyo respublikalariga, 1931-yildan boshlab esa Shimoliy Kavkaz, Ukraina. Sibirga ham surgun qilindilar.

«Surgun qilinganlar» va «maxsus surgun qilinganlar»ning ahvoli nihoyatda og'ir edi. Ularga «homiylilik»ni OGPU amalga oshirardi, «posyolka»lar konslagerlardan deyarli farq qilmasdi. Etarli darajada ovqat va tibbiy xizmatning yo'kligi sababli ko'plar mehnat qobiliyatini yo'qotardi, kasalliklardan son-sanoqsiz halok bo'lardilar, qolganlar esa doimo hayot va mamot chegarasida turishar, omon qolish uchun kurashardilar. Lekin «quloq qilingan» dehqonlarning ko'pchilik qismi jinoyatchi emas edi. Ular kolxozga kirishni istamaganliklari, haddan ortiq soliqlarni to'lash uchun mablag'lari yo'qligi va shunchaki ijtimoiy kelib chiqishlari uchun jazolangan edilar. Yangi iqtisodiy siyosat tufayli o'z xo'jaligini tiklab

olgan oilalarning quloq qilinishi natijasida 20-yillarning oxirlarida bozor munosabatlari muhiti barham topdi. Sovet davlati tortib olingan yer-suvlar hisobiga kooperatsiyalar, so'ng kolxozlar tuzish siyosatini olib bordi. Jamoalashtirish «yuqori»ning tazyiqi asosida o'tkazildi. Matbuot o'rta Osiyo respublikalarining jamoalashtirishga «tayyor» ekanligini targ'ib qilib, mahalliy, ijtimoiy sharoit mutlaqo hisobga olinmadi. 1930-yil 17-fevralda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti «Kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida» qaror qabul qildi. Respublika yalpi jamoalashtiriladigan o'n yetti tumanga bo'lindi. Mahalliy rahbarlar raqamlar orqasidan quvib, qonuni buzishgacha bordilar. Jamoalashtirish mutasaddilari dehqonlarning majlislarida kolxozga kirmaganlar suvdan mahrum etiladi, sanoat mollari bilan ta'minlanmaydi, katta soliq solinadi, surgun qilinadi, deb qo'rqitishgacha borganlar. Natijada ko'pchilik tumanlarda kolxozlashtirish bir necha hafta ichida tugallandi.

1930-yil 6-fevralda qishloq xo'jaligi artelining birinchi Namunaviy Nizomi qabul qilindi. Nizomda raulkni umumiyashtirish mezonlari, kolxozlarning bo'linmas fondlari to'g'risida tushuncha berilmagan edi. Natijada turar joy binolari, qo'y-echki, qoramollar ham umumiyashtirildi. Ana shunday noqonuniy hollar Qo'qon, Toshkent, Samarqand okruglarida qayd qilindi.

Jamoalashtirishni jadallashtirish amalda o'ziga to'qroq xo'jaliklarni tugatish, ya'ni xo'jalik mulklari va imoratlarni musodara qilishga aylanib qoldi, yuqoridan qilingan qattiq tazyiq shunga olib keldi. Quloq xo'jaliklarini tugatish kampaniyasi O'zbekistonda 1930-yil fevraldan boshlab avj oldi.

Yuqoridan kelib turgan har xil yo'1-yo'riqlar va ko'rsatmalar zo'rlikni avj oldirishga mo'ljallangan edi. Bu yo'1-yo'riqlar kimlarni quloqlar toifasiga kiritish ke-rakligini aniq belgilab bermasdi. Yakka tartibda qishloq xo'jalik solig'i solinadigan o'ziga to'q dehqon xo'jaliklarining ro'yxati quloq xo'jaliklarini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qildi. Bu ro'yxatlar moliya organlari tomonidan tuzilar va o'rta hol dehqonlar hatto kam-bag'allar hisobiga kengaytirib borilardi. Chunonchi, Mirzacho'1 tumani (Toshkent viloyati)da 137 ta quloq xo'jaligini tugatish ko'zda tutilgan edi, lekin ro'yxatlar tekshirib chiqilganidan keyin 75 ta

xo'jalik tugatildi. Ko'pgina tumanlarda quloq xo'jaliklarinigina emas, balki o'rtahol va hatto kambag'al xo'jaliklar ham musodara qilindi.

Bunday xo'jaliklarning tugatilishi dehqonlarda ishonchsizlik va xavotir uyg'otdi. Ko'pgina odamlar o'z xo'jaliklarini qarovsiz tashlab qochdilar, chorvalarini so'yidilar va sotib yubordilar. Mollarning ko'plab so'yilishi jiddiy muammo bo'lib qoldi. Qoramollar boshi respublika bo'yicha 1930-yili 60 mingdan ziyodga kamaydi.

Jadal jamoalashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish, o'rtahol dehqonlarga nisbatan zo'rlik qilish respub-likadagi siyosiy vaziyatni keskinlashtirdi. Dehqonlarning noroziligi kuchayib, ayrim tumanlarda ommaviy norozilik namoyishlari boshlandi. 1930-yil 25-fevralda ular Farg'ona vodiysining bir qancha tumanlarida bo'lib o'tdi. So'ngra Andijon, Buxoro, Toshkent, Xorazm va Samarqand okruglarining ba'zi tumanlariga yoyildi.

Jamoalashtirishga qarshi chiqishlar bir qancha hollarda sovet hokimiyatiga qarshi siyosiy chiqishlarga aylanib ketdi. Jumladan, Farg'onada kolxozlarga qarshi namoyishlar ko'pchilik hollarda siyosiy tus oldi.

Partiya ma'muriy tazyiq o'tkazishni pasaytirgan bo'lsa ham, haddan oshish va buzg'unchilik hollari avj olib ketgan edi. Shuning uchun dehqonlar kolxozlardan chiqib keta boshladilar. Natijada 1930-yilning martida kollektivlashtirish foizi respublika bo'yicha 47 % dan ko'proqni tashkil etgan bo'lsa, may oyiga kelib u 29% gacha kamaydi. 1930-yilning kuzidan boshlab dehqonlarga yangidan tazyiq o'tkazish to'liqini boshlandi. 1931-yilning yoziga kelib dehqon xo'jaliklarining 56,7% i birlashtirildi.

1931-yilning bahoridan boshlab O'zbekistonda yalpi jamoalashtiriladigan tumanlar qaytadan tuzildi. 1930-1933-yillari tugatilib, quloq qilingan xo'jaliklar soni 5,5 mingtaga yetdi.

Quloq qilinganlarning ahvoli Majburan ko'chirib yuborilganlarning ahvoli nihoyatda og'ir kechdi, ularning ko'pchiligi yo'lda nobud bo'ldi. Quloq qilinganlarning bir qismi Ukraina, Sibir va Qozog'istonning odam yashamaydigan cho'llariga, o'rmonlariga surgun qilindi, yana bir qismi respublikaning boshqa

joylariga zoʻrluk bilan koʻchirildi. Kolxozlashtirishga qarshi chiqishi mumkin deb hisoblangan tadbirkor xoʻjaliklarai, ruhoniylarni «uchlik», ya'ni partiya, sovet, ichki ishlar organ-lari rahbarlaridan iborat komissiya qarori bilan quloq qil-ganlar. Koʻchirilganlar uchun respublikaning oʻzida — chekka joylarda 17 ta «quloq qishloqlari», aniqrogʻi, lagerlari tashkil qilingan.

Shunday lagerlardan biri Samarqand viloyatidagi Miyonkoʻl orolida joylashgan edi. Miyonkoʻllik keksalarning eslashicha, 30-yillarning bosblarida bu yerga ichki ishlar organlari xodimlari bir necha ming quloq qilinganlarni keltirib joylashtirgan. Ular kelganida orolning toʻqayzorlarida qayragʻoch, saksovul va qamishlar oʻsib yotardi. Orol oʻrtasi botqoqlik va koʻllardan iborat edi. Bandilarga zovurlar qazdirilib, botqoqliklar suvi quritilgan, qayragʻochlar, saksovullar kesilib pechlarda yoqilgan. Ular qamishlardan boʻyralar toʻqib, lager qurganlar. Bu lagerda NKVD xodimlari bandilarni oddiy hayvonchalik qadr qilmay kamsitar, xoʻrlar, ovoz chiqarishsa birovdan soʻramay otib tashlar, beayov ish-latardilar. Quloqlar Miyonkoʻl orolida yer chopar, paxta, sholi ekardilar. Koʻp bandilar mehnatning mashaqqatlaridan, ochlikdan, kasallikdan, soqchilarning zulm va azoblaridan begunoh oʻlib ketdilar. Har kuni oʻnlab murdalar oʻris arava-brichkasida bandilarning oʻzlari qazigan handaqlarga kafansiz eltib tashlanar edi. 1930— 1933-yillarda Miyonkoʻlda Fargʻona vodiysi va boshqa viloyatlardan quloq qilib keltirilgan begunoh kishilarning yarmiga yaqini qatl etilgan.

Surgun qilingan quloqlarning ahvoli koʻchirilgan-larnikidan oson boʻlmagan. Ularning bola-chaqalari ba'zan dim, ba'zan sovuq usti yopiq mashinalarda, qizil vagonlarda uzoq-uzoq Rossiya oʻlkalariga olib ketilardi. Yoʻl azobiga, issiq-sovuqlarga, suvsizlik, ochlikka chidamay, quloq qilinganlarning koʻpchiligi manzilga yetib bormasdan halok boʻlardi.

Forishlik tibbiyot olimi A.Abdurahmonov otasi va qariyalardan eshitib hikoya qilishicha, Forish tumanidan 1929—1933-yillarda bir necha yuz xoʻjalik quloq qilingan. Shu tumanning Nokurt qishlogʻidan oʻndan ortiq xoʻjalik, jumladan, uning otasi va ikki amakisi Stavropol oʻlkasining Terek oʻrmonlariga surgun qilingan. Otasi 10 yil muddatni oʻtab, ona-yurtiga qaytgan. Ammo ikki

amakisi o'sha yerda sovuq va ochlikdan o'lib ketgan. Barcha quloq qilinib surgun qilingan va ko'chirilgan-larning taqdiri shunday kechgan. Ularning taxminan uchdan ikki qismi halok bo'lgan.

O'zbekiston qishloq xo'jaligini jamoalashtirish rasman 1932-yili poyoniga yetdi. Shu vaqtga kelib respub-likadagi dehqon xo'jaliklarining 75 foiziga yaqin qismi umumiy lashtirilgan sektorga birlashtirildi. Yakka xo'jalik dehqonlarning bir qismi kolxozlardan tashqarida qoldi, lekin ularga iqtisodiy jihatdan tazyiq o'tkazish yanada kuchaydi. Yakka xo'jaliklarga solinadigan qishloq xo'jalik soliqlari oshirildi, davlatga majburan topshiriladigan mahsulot hajmi esa kolxozlar uchun belgilangan me'yorlarga qaraganda 50 foizga ko'paytirildi. 1939-yilga kelib esa respublikada yakka xo'jaliklarga butkul barham berildi. Jamoalashtirish qishloq xo'jaligini ma'muriy-buyruqbozlik tizimi bilan boshqarishni mustahkamladi, dehqonlarning mustabid davlat asoratiga tushishiga yo'l ochdi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini jamoalashtirish davrida 40000 dan ortiq dehqon xo'jaliklari quloq qilinib, ulardan 31700 tasi qatag'on qilindi.

Kolxoz tuzilishining eng boshidan qishloq xo'jalik artellari mulklarini davlat ta-sarrufiga o'tkazish boshlandi. Kolxozlar dehqonlarning ishlab chiqarish vositalarini birlashtirish asosida tuzildi, bu vositalar yagona bo'linmas fondga qo'shildi. Mabodo kolxozchilar kolxozdan chiqib ketadigan bo'lsalar, vosi-talar ularga qaytarib berilmas edi. Bu dehqonlarning mulkdan ajralishini boshlab berdi. Kolxozlar iqtisodiy jihatdan butunlay davlatga qaram bo'lib qoldi. Ularning mustaqilligi va tashabbusi keskin cheklandi.

Yirik ishlab chiqarish vositalari MTSlar ko'rinishida davlat qo'lida to'planib bordi. MTSlar kolxoz dalalarini natural haq evaziga ishlab berar, bu haqning miqdorlari esa yuqoridan belgilab berilardi. 1933-yil boshlariga kelganda O'zbekistonda 73 ta MTS ishlab turdi. Ular qishloq xo'jaligini texnik jihatdan qayta qurishni tezlashtirdi, lekin texnikani ularda to'plash qishloq mehnati imkoniyatlarini ochib berishga yordam qilmadi. Amalda kolxozlar ham, MTSlar ham yer egalari emasdilar, yerning egasi aslida davlat bo'lib qoldi.

O'zbekistonda kolxozlar tuzish bilan bir qatorda sovxozlar — davlat

xo'jaliklari tuzish yuzasidan ham ish olib borildi. 1932-yilda respublikada 60 dan ziyod sovxoz bor edi.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi dehqonlarni majburlashning noiqtisodiy usullaridan foydalandi. Bu avvalo dehqonlar ishlab chiqargan mahsulotning bir qismini o'ziga xos bir o'lpon tariqasidagi soliq ko'rinishida tortib olishda ifodalandi.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi o'z e'tiborini paxta yetishtirishni ko'paytirish, respublika iqtisodiyotini xom ashyo tayyorlashga moslashtirishga qaratdi. Bunday siyosat mamlakatning paxta mustaqilligini qisqa muddatlarda qo'lga kiritishini ko'zlar edi. 1929—1932-yillarda g'o'za ekiladigan yer maydonlari 550 ming gektardan 928 ming gektarga kengaytirildi, yalpi paxta hosili esa 652 ming tonnadan 750 ming tonnaga yetkazildi. 1932-yili respublika sobiq Ittifoq bo'yicha paxta hosilining 60 foizini berdi. Mana shu paytdan boshlab xorijdan paxta olib kelish to'xtatildi. Biroq paxta yetishtirishni ko'paytirish ekin maydonlarini kengaytirish asosidagina amalga oshirildi.

Mana shu davrda kolxozlar ichki turmushi tartibga solinmaganligi tufayli katta qiyinchiliklarni boshidan kechirdi. Kolxozchilar mehnatini oqilona tashkil etish, hisobga olish va unga haq to'lash usullari hali yo'q edi. 1931—1932-yillardan boshlab mehnatga ishbay asosda haq to'lanadigan doimiy brigadalar tashkil etila boshlandi. Bu mehnat sarflni va mehnat kunlari shaklida to'lanadigan haq miqdorlarini belgilashni ko'zda tutardi.

Ko'rilgan choralarga qaramay, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida biror yirik o'zgarishlar bo'lgani yo'q. Dehqonlarning qattiq mehnati va shijoati tufayli O'zbekiston qishloq xo'jaligida 1935—1937-yillardan boshlab ba'zi yutuqlar qo'lga kiritildi. Don, sholi, arpa, makka-jo'xori ishlab chiqarish ko'paydi. Chorvachilik qishloq xo'jaligining muhim sohasi bo'lib qoldi. 1940-yil boshiga kelib qoramollar soni 1934-yildagiga qaraganda bir yarim baravardan ziyodga ko'paydi.

Qishloq ahlining fidokorona mehnati o'zining natijasini berdi. 1939-yilda yalpi paxta hosili deyarli 1 mln 583 ming tonnaga yetdi, paxta hosildorligi esa

gektariga 17,8 sentnerni tashkil etdi. O‘zbekistonda kanop yetishtiriladigan bo‘ldi, kanop ishlab chiqarish umumittifoq miqyosiga nisbatan 3 foizni tashkil etdi. Urushdan oldingi yillarda O‘zbekiston mamlakatda yetishtiriladigan barcha pillaning yarmini berar edi. Qishloq xo‘jaligini mustahkamlash, ayniqsa, paxtachilikni rivojlantirish uchun sug‘orish inshootlari qurilishi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bunday qurilishlarni hashar usulida olib borish odat tusiga kirdi. O‘zbek xalqining jasorati bilan, jumladan, 1939-yil 1-avgust—15-sentabrda Katta Farg‘ona kanali qazildi. Natijada 1937 — 1940-yillar mobaynida O‘zbekistondagi sug‘oriladigan yerlar maydoni 260 ming gektarga kengaydi. Lekin O‘zbekistonda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi asosan Markaz sanoatining ehtiyojini qoplashga qaratildi.



Katta Farg‘ona kanalini qurilish jarayoni. 1939 yil.

Kolxoz tuzilishi sharoitlarida qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining hamma sohalari qafiy nazorat ostiga olindi: mahsulot ishlab chiqarish va mehnat unumdorligi yuzasidan reja ko‘rsatkichlari, soliq majburiyati joriy etildi, jamoa xo‘jaliklarining daromadlari va sarf-xarajatlari belgilab qo‘yildi. Kolxozchilar o‘z mehnatlarining mevalaridan mustaqil ravishda foydalana olmas edilar. Jamoa xo‘jaliklari ekin maydonlari, hosillari va daromadlarining o‘sishi aniq bir kolxozchining, shu jamoadagi ma‘lum bir mehnatkashning o‘z moddiy holatiga amalda ta‘sir o‘tkazmas edi. Ko‘pgina oilalar qashshoqlarcha turmush

kechirardilar. Majburlovchi va eksplua-tatsiya qiluvchi feodal tuzum o'rnini partiya-davlat tuzumi egalladi.

Jamoalashtirish natijasida dehqonlarga xos butun turmush tartibi buzildi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar zavol topdi. «Yuqoridan qilingan inqilob»dan meros bolib qolgan eng og'ir narsa — yer egasining yo'qolganligi, mehnatkash inson bilan yer, jamiyat bilan tabiat aloqalarining yemirilganligi bo'lsa, ajab emas. Qishloqda an'anaviy bo'lgan ko'pgina xalq odatlari va rasm-rusumlarini qoralash, dinga qarshi o'ylamasdan, qo'pol ravishda o'tkazilgan tashviqot-targ'ibot ham yomon ta'sir qildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

- 1. 1917-yilda Rossiyada bo'lgan voqealar, ularning mohiyati nimadan iborat va bu voqealar tarixda qanday ahamiyat kasb etdi? Ushbu voqealarning Turkistonga ta'siri qanday kechgan?*
- 2. Mazkur davrda Turkistonda iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar qaysi tomonga yo'nalgan edi, bu to'g'rida siz qanday fikrdasiz?*
- 3. Turkistonda o'rnatilgan bolshevistik diktatura va sovet rejimining asl mohiyati nimadan iborat bo'lgan?*
- 4. Sobiq ittifoq davrida vaqf yerlarining taftish etilishi qanday oqibatlarga olib keldi?*
- 5. Turkistonda yer-suv komitetlari, kambag'allar uyushmalarini tashkil qilish harakatidan qanday maqsadlar ko'zda tutilgan edi?*
- 6. Sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan Yangi iqtisodiy siyosat (YaIS) Turkiston qishloq xo'jaligida qanday o'zgarishlarni amalga oshirdi?*
- 7. Turkistonda o'tkazilgan yer-suv islohotining birinchi bosqichida nimalarga*
- 8. asosiy e'tibor qaratildi? Yer-suv islohoti oldida qanday vazifalar turar edi?*
- 9. Sovet hukumati boy xo'jalik va to'q xo'jalik o'rtasidagi farqlarni qanday*
- 10. mezon asosida yuzaga keltirgan?*
- 11. To'q xo'jaliklarning qanday turdagi moddiy boyliklari musodara qilingan edi?*

12. *Tartib olingan yerlar hisobidan nimalar tashkil etildi? Yangi tashkil etilgan*
13. *birlashmalar mahalliy aholining manfaatlariga qay darajada xizmat qildi?*
14. *Yer-suv islohotining oqibatlari nimalarga olib keldi?*
15. *Yer islohotining ijtimoiy oqibatlarini dalillar asosida bayon qilib bering.*
16. *O'zbekistonda kooperatsiyaning qanday shakllari qay darajada rivojlanib bordi?*
17. *20-yillarning oxirlarida kooperatsiya asosiy shakllarining yemirilishiga nimalar sabab bo'ldi?*
18. *O'zSSR xalq xo'jaligida qishloq xo'jaligining ulushi baland bo'lishining sabablari nimada?*
19. *Qishloq xo'jaligini jamoalashtirish O'zbekistonda qanday amalga oshirildi?*
20. *Qishloq xo'jaligini jamoalashtirishning oqibatlari qanday bo'ldi?*
21. *Og'ir siyosiy va iqtisodiy ahvolga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining 30-yillardagi siljishlariga nima sabab bo'ldi?*
22. *Quloqlashtirish siyosati O'zbek qishlog'ini qanday ahvolga olib keldi?*
23. *Siz yashab turgan hududda kimlar quloq qilinganligini aniqlashga harakat qiling.*

14-mavzu. 1941-1991-qillarda O'zbekistonda yer-suv munosabatlari

Reja:

14.1-§. Ikkinchi jahon yillarida O'zbekiston qishloq xo'jaligining qayta qurilishi;

14.2-§. XX asrning 60-80 yillarida qishloq xo'jaligining ahvoli;

14.3-§. O'zbekistonda paxta yakkahokimligining qaror topishi va uning salbiy oqibatlari;

14.4-§. Irrigatsiya-melioratsiya qurilishi va yangi yerlarning o'zlashtirilishi;

14.5-§. O'zbekistonda ekalogik holatning buzilishi, uning sabablari va oqibatlari;

14.6-§. XX asrning 80-yillarida O'zbekiston qishloq xo'jaligida salbiy holatlarning kuchayishi.

Tayanch iboralar: *«Hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun!», «O'zim uchun va frontga do'stim uchun!» «Qizil tong», «Toshselmash», RSFSR, oziq-ovqat mahsulotlari, VKP(b), «O'zbekistonda paxtachilikni tiklash va rivojlantirish choralari to'g'risida» qaror, VKP(b) MK., paxta yakkahokimligi, Amerika paxtasi, VKP(b), «O'zbekistonda paxtachilikni tiklash va rivojlantirish choralari to'g'risida» qaror, VKP(b) MK, Paxta yakkaxokimli, oziq-ovqat mahsulotlarining tanqisligi, shaxsiy yordamchi xo'jaliklari, Farg'ona, Toshkent, paxta maydonlari, beda va makkajo'xori.*

14.1-§. Ikkinchi jahon yillarida O'zbekiston qishloq xo'jaligining qayta qurilishi

Urush boshlanishi bilan respublika qishloq xo'jaligi oldida ham front va front ortini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan, sanoatni esa xom ashyo bilan ta'minlash vazifasi turardi. Buning uchun xalq xo'jaligining barcha sohalari kabi, qishloq xo'jaligini ham harbiy izga solish, texnik ekinlar, don, poliz va sabzavot ekinlarini ko'paytirish, chorvachilik mahsulotlarini oshirish zarur edi.

Bu jiddiy muammolarni tez hal qilish bir necha sabablarga ko'ra og'irlashdi, Avvalo, Markaz hukumati yakkahokimligiga yo'l berganligi sababli, respublikaning dehqonchiligi asosan paxta ekishga moslashib bo'lgan edi. Endi donni O'zbekistonda yetishtirish mosi ko'ndalang bo'ldi. Markaz O'zbekiston oziq-ovqat bilan ta'minlash vazifasini qo'yarkan, axta maydonlarini kamaytirmaslikni ham talab qildi. Chunki mudofaa sanoati uchun paxta muhim xom ashyo sanalardi. Ikkinchi tomondan, urush boshlanishi bilan MTS va sovxozlarga yangi traktorlar, qishloq xo'jalik tnashinalari va ularga ehtiyot qismlar kelishi barham topdi, yoqilg'i va mineral o'g'itlar berilishi kamaydi. Aksincha, traktorlar, avtomobillar va otlarning bir qismi harakatdagi armiya ehtiyojlari uchun ulardan olib qo'yildi- Natijada qo'l mehnatiga ehtiyoj oshdi, yer ho'kizlarda omoch va pluglar bilan haydala boshlandi.

Navbatdagi muammo — kadrlar masalasi edi. Malakali kadrlar va qishloq aholisining mehnatga yaroq-li asosiy qismi frontga safarbar etildi. Mehnatga layoqatli necha-necha ming qishloq ahli sanoat va qurilishga jalb etildi. Shu sababli 1941—1942-yillarda mehnatkash dehqonlar soni 20 foizga, 1945-yilga kelib 40 foizga kamaydi. Ayniqsa, mexanizatorlar soni kamayib ketdi — 30 mingdan 3 mingga tushdi. Urushga ketganlarning o'rnini ayollar, qariyalar va o'smirlar egalladilar.

1941-yildayoq qishloq xo'jaligining barcha bo'g'in-laridagi ish tartibini qafiyashtirish yuzasidan shoshilinch choralar ko'rildi. Kolxozlarda eng kam miqdordagi majburiy mehnat kunlari soni urushdan oldingi-ga qaraganda 1,5 baravar oshirildi. o'smirlar uchun ham, 12 yoshdan boshlab, eng kam miqdordagi mehnat kunlari belgilandi. Belgilangan miqdordagi mehnat kunlarini ishlab bermagan kolxozchilar va ularning oila a'zolari sudga berilar edi.

Ushbu choralar qishloqda qolgan kam sonli mehnatga layoqatli aholining kuch-quvvatini eng muhim qishloq xo'jalik ishlarini bajarishga qaratdi. Biroq, qishloq mehnatkashlarining tabiati bunday qattiq choralarni talab qilmas edi.

Urush yillarida qishloq xo'jaligini tashkil etish. Barcha qiyinchiliklarga qaramay, qishloq ahli frontni mahsulotlar bilan ta'minlash uchun fidokorona


mehnat qildi. 1941-yili davlatga 1,6 mln tonnadan ziyod paxta topshirildi, sabzavot, poliz ekinlari, meva, jun, go'sht topshirish majburiyatlari oshig'i bilan bajarildi.

Don va texnik ekinlarni ko'paytirish harakati natijasida 1942-yil bahorida qo'shimcha 220,5 ming gektar yer o'zlashtirildi. Qishloq xo'jalik ekinlarining miqdori ham o'zgardi. Urushgacha ekin maydonlarining 90% ida paxta ekilgan bo'lsa, urush yillarida bu ko'rsatkich ancha kamaydi. Chunonchi, Farg'ona viloyatida paxta maydoni 51%ga kamaydi. Natijada oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash imkonini oshdi.

Urushning suronli yillaridagi mashaqqatli mehnat natijasida don muammosi hal etila boshlandi. Bu yillarda davlatga 82 mln pud don, 213 ming sentner sholi topshirildi. Don ekini maydonlarini kengaytirish va respublika uchun yangi ekinlar — qand lavlagi, kanop va boshqalar ishlab chiqarish ham kun tartibida bo'ldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'proq ishlab chiqarish masalasi sug'oriladigan dehqonchilik sharoitlarida boshdanoyoq irrigatsiya quvvatlariga bog'liq edi. Bu quvvatlarni oshirish va shu asosda ekin maydonlarini kengaytirishni ta'minlash muhim xalq xo'jaligi vazifasiga aylandi. Respublikada irrigatsiya qurilishi yuksak sur'atlar bilan davom etib bordi: Shimoliy Toshkent kanalini barpo etish 15 ming gektar yerni sug'orish imkonini berdi. Buxoro viloyati Koson, Qarshi va Beshkent tumanlarining kolxozchilari Rudasoy suv omborini qurdilar. Kolxoz dehqonlari va butun O'zbekiston mehnatkashlarining kuchlari bilan Yuqori Chirchiq, Shimoliy Farg'ona, So'h-Shohimardon, Uchqo'rg'on kanallari, Kosonsoy suv ombori bunyod etildi. Kattaqo'rg'on suv ombori suvga to'ldirila boshlandi. Natijada respublika sug'oriladigan yerlarining maydoni faqat 1942—1943-yillar mobaynida 546 ming gektarga kengaydi. Samarqand, Farg'ona, Toshkent viloyatlarida qand lavlagi uchun umumli yerlar ajratilib, 1943-yili 1,5 mln sentnerdan ortiq lavlagi davlatga topshirildi. O'zbekistonga ko'chib kelgan Ukraina va Belorussiya olimlari, kolxozchilari, agronomlari bebaho yordam ko'rsatdilar. Qand lavlagini qayta ishlovchi Zirabuloq,

Qo‘qon va Yangiyo‘l qand zavodlari qurildi. Urush yillarida respublika butun mamlakatda ishlab chiqiladigan qandning to‘rtidan bir qismini berar edi. Bundan tashqari kungaboqar, zig‘ir, kanop, makka-jo‘xori, kunjut kabi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish ham yo‘lga qo‘yildi va-yildan-yilga oshib bordi.



Kattaqo‘rg‘on suv omborining qurilishi. 1941 yil.

Respublika qishloq xo‘jaligining xalq xo‘jaligi va mudofaada katta o‘rin tutgan sohasi ipakchilik bo‘lib qolaverdi. Qorako‘lchilikka ham ahamiyat berilar edi. Chorvachilik juda tig‘iz vazifalarni bajarib bordi, go‘sht, yog‘ va sutga ortib borayotgan talablarnigina emas, teri va junga bo‘lgan talablarni ham ta‘minladi.

Urush yillarida O‘zbekiston meva, uzum, sabzavot va Poliz mahsulotlari ishlab chiqarishda alohida o‘rin tutdi. Sabzavot maydonlari 1942-yili 1939-yilgi 16,5 mingdan 29 ming gektarga oshdi. Uzumzorlar maydoni 1940-yili 26,6 ming gektar bo‘lsa, 1943-yili 31,7 ming gektarga yetdi.

Respublikada mustahkam oziq-ovqat bazasi yaratishida qo‘yilgan vazifa bajarilgan edi, Respublika talablarni qondirish bilan cheklanmay, frontni va ozod etilgan shahar va tumanlarni qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan ta‘minlashda ham qatnashdi, shuningdek ozod etilgan rayonlarga talay chorva, urug‘lik va qishloq xo‘jalik texnikasi yuborildi.

Urush yillarida paxta ishlab chiqarishni oshirish eng muhim vazifa bo'lib qoldi. Qishloq xo'jaligini qayta qurishning murakkab sharoitlarida harbiy talablarga muvofiq, respublika 1941-yili paxta topshirish rejasini muvaffaqiyat bilan bajardi. Lekin keyingi ikki yil davomida paxta tayyorlash rejasi bajarilmay qoldi. Chunki g'oz'a ekiladigan maydonlar salmog'i keskin kamayib g'oz'a hosildorligi pasayib ketgan edi. Mexanizatsiya darajasining pasaygani, mineral o'g'itlardan foydalanish qisqargani va paxta yetishtirish agrotexnikasi yomonlashgani ham ta'sir o'tkazdi. Chopiq, sug'orish, irrigatsiya tarmoqlarini tozalash ishlarini muntazam olib borish uchun ishchi kuchi yetishmas edi.

Biroq, urush davri sharoitidagi bu obyektiv omillarni Markaz hukumati rahbariyati inkor etdi. Shunday og'ir sharoitda O'zbek qishloq ahli 1942—1943-yillarda mar-donavor mehnat qilganligi inobatga olinmadi. Aksincha, paxta tayyorlash rejasi bajarilmagani uchun javobgarlik mahalliy partiya va xo'jalik organlari bo'yniga qo'yilib, ular qishloq xo'jaligini boshqarishni operativ ravishda qayta qurishga layoqatsizlikda ayblandilar va jazolandilar. Hatto O'zbekistonning o'sha paytdagi rahbari Usmon Yusupov qattiq ogohlantirish bilan jazolandi. Holbuki, u urush yillari O'zbekistonga mohirlik bilan rahbarlik qilgan edi.

Paxtachilikni yuksaltirish vazifalari 1944-yil yanvarida o'tkazilgan birinchi respublika paxtakorlari qurultoyida jiddiy muhokama qilindi. Paxtakor xo'jaliklarni tashkiliy jihatdan yiriklashtirish zarurligi e'tirof etildi. Tajribali paxtakorlar xalq xo'jaligining boshqa uchastkalaridan paxta dalalariga qaytarib kelindi, suvdan foy-dalanish, dalalarni o'g'itlar bilan ta'minlash ishlari yaxshilandi. Davlatga 820 ming tonna, 1943-yilga nisbatan 325 ming tonna ko'p paxta topshirildi.

Shunday-qilib, urush yillarida O'zbekiston qishloq xo'jalik ahli eng murakkab va og'ir sharoitlarda mehnat qilib 4 mln tonnadan ziyod paxta xom ashyosi, 82 mln ud don, 55 ming tonna pilla, 1,1 mln tonna sholi, 57,5 ming tonna meva va uzum, 36 ming tonna meva, 159,3 ing tonna go'sht, 22,3 ming tonna jun va boshqa mahsilotlar yetkazib berdilar. Bu fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shilgan munosib hissa edi.

1941-1945-yillardagi urushda qozonilgan tarxiy g'alabada O'zbekiston qishloq xo'jaligi mehnatkashlarining ham salmoqli hissaları bor. Dushman Boltiqbo'yi, Ukraina va Belorussiya chegaralaridan tortib toki - Moskva Leningrad shaharlarigacha bo'lgan katta hududni bosib olgandi. Bu hol sanoatni horn ashyo bilan, aholini xususan jangchilarni kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda juda katta qiyinchiliklar tug'dirdi. O'zbekiston qishloq mehnatkashlari vujudga kelgan bu qiyinchiliklarni ongli suratda to'g'ri tushundilar va dushman vaqtincha okkupasiya qilib olgan hududlar hissasini ham qoplaydigan xomashyo, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish uchun o'zlarining butun mehnat faoliyatlarini ishga soldilar.

Bir qator obektiv va subektiv sabablarga ko'ra jumhuriyatda qishloq xo'jaligini qayta qurish g'oyatda katta qiyinchiliklar bilan ko'chdi. Mamlakatdagi barcha sanoat korxonalarini urush manfaatlariga bo'ysundirilib, qayta qurilganligi oqibatida respublikamizga Markazdan traktorlar va boshqa qishloq xo'jaligi mashinalari kelishi deyarlik to'xtab qoldi. Jamoa va davlat xo'jaliklaridagi texnikani ta'mirlash uchun kerakli materiallar, ehtiyot qismlar, o'g'it va yonilg'i bilan ta'minlash umuman qisqarib ketdi. Yuz-yuz minglab qishloq mehnatkashlari frontga, Vatan mudofaasiga safarbar qilindilar.

Asosan paxtachilikka ixtisoslashtirilgan respublika dehqonchiligining yo'nalishi ham keskin o'zgardi. Paxtachilikni asosiy tarmoq sifatida saqlab qolgan holda endi respublika mehnatkashlari mamlakatga juda ko'p miqdorda don, qand lavlagi, kanop, pilla, sabzavot va poliz mahsulotlari ham yetkazib berishi kerak edi. Bunday murakkab, og'ir vazifani O'zbekiston mehnatkashlari so'zsiz bajardilar. Y.Oxunboboev 1941-yil, 21-oktabrda «Qizil O'zbekiston» gazetasida chop etilgan o'zining «G'alaba biz tomonda!» maqolasida bunday yozgan edi: «Hamma narsa front manfaatlarini uchun qaratilgan. O'zbekiston kolxozchilari bu yil yetishtirilgan mo'l paxta hosilini yig'ib-terib olishda katta jasorat ko'rsatmoqdalar. Terimchilar o'rtasida o'n besh mingchilar harakati keng yoyildi. Hammaning diqqat e'tibori mo'l hosilni tez terib olib, davlatga topshirishga qaratilgan. Biz yetishtirgan paxtaning har bir grammi dushman uchun o'zgarilmas zarbadir!».

O‘zbekiston qishloq mehnatkashlari 1942-1943-yillarda hamjon kuydirib mehnat qildilar. «Hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun!», «O‘zim uchun va frontga do‘stim uchun!» degan shiorlar ostida qo‘shimcha majburiyatlar oldilar. Jamoa va davlat xo‘jaligi dalalarida ko‘p ming kilogrammchilar «o‘n ming kilogrammchilar», «o‘n besh ming kilogrammchilar» harakati keng quloq yoydi. Ammo 1942-1943-yillarda vaziyat juda og‘ir keldi. Jumhuriyat paxtakorlari paxta tayyorlash davlat rejalarini bajara olmadilar, paxtaning hosildorligi gektar boshiga keskin pasayib ketdi. 1941-yildagi 17,7 sentnerdan 1942-yilda 9,4 va 1943-yilda yesa 7,1 sentnerga tushib ketdi. Jami bo‘lib O‘zbekiston SSRning jamoa va davlat xo‘jaliklari davlatga paxtani 1 million tonnaga yaqin kam berdilar.

VKP(b) Markaziy Komiteti 1944-yil, 6-martida «O‘zbekistonda paxtachilikni tiklash va rivojlantirish choralari to‘g‘risida» qaror qabul qildi va O‘zbekiston firqa va sovetlar rahbarlarini qattiq siquvga oldi.

Majlisda raislik qilayotgan A.S.Shcherbakov O‘z KP MKning birinchi kotibi Usmon Yusupovning qo‘pollik bilan bo‘lib: «O‘rtoq Yusupov, mamlakat uchun og‘ir bo‘lgan shunday vaqtda siz armiya va xalqni ishtonsiz qo‘ymoqchimisiz?» degan edi. Respublikadagi haqiqiy ahvolni minglab yetishni istamagan VKP(b) MK Tashkiliy byurosi U.Yusupovni paxta yekin maydonlarini asossiz qisqartirganlikda ayblab, unga «qattiq hayfsan» ye‘lon qildi. Qarorda O‘zbekistondagi vaziyat tahlil qilindi, firqa sovet va jamoat tashkilotlarining paxtachilikka rahbarlik qilishda yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklari keskin tanqid qilindi. Ozuqabop yekinlar maydonini kengayishi hisobiga paxta maydonlari kamayib ketdi. Xo‘jaliklarda yekin maydonlarining tuzilmasi o‘zgarib ketdi, ishchi kuchi, texnika, o‘g‘itlar yetishmay qoldi, mexanizator va kombaynchilar tayyorlash kamayib ketdi: mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish ham keskin kamaydi.

Jamoa xo‘jaliklarining yuk avtomobillari bilan ta‘minlash darajasi ham achinarli ahvolda edi. Paxtachilikni rivojlantirishdajamoa xo‘jaliklarining ichki imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmadi. Ularni tashkiliy jihatdan mustahkamlashga yetarli darajada e‘tibor berilmadi, ilg‘orlar tajribasi umumlashtirilmadi va

ommalashtirilmadi, mehnatni tashkil yetish va hisobga olishda egasizlikka va buzilishlarga yo'l qo'yildi, yerlar agrotexnika qoidalari asosida ishlanmadi, shudgorlash ishlari sifatisiz amalga oshirildi va paysalga solindi. Ba'zi tuman xo'jaliklarida g'o'zapoyalarni yig'ishtirib olish cho'zilib ketdi. G'o'za qator oralariga ishlov berish muddatlari kechikib, sifasiz o'tkazildi. Albatta bu kamchiliklarning urush bilan bog'liq obyektiv va subyektiv sabablari bor edi. Shu sababdan O'zbekiston firqa va sovet tashkilotlari markaziy Ittifoq hukumatining yordami bilan respublika jamoa, davlat xo'jaliklari va MTSlarining moddiy-texnika bazalarini mustahkamlash uchun 1944-1945-yillarda urush yillarining qiyinchiliklariga qaramasdan O'zbekiston uchun 2300 yangi traktorlar, 3000 yuk avtomobili, 70 mingdan ortiq dona qishloq xo'jalik inventarlari, 660 ta ta'mirlash asbob-uskunolari va 375 ming tonna mineral o'g'itlar ajratdilar. Shaharning qishloqqa otaliq yordami kuchaytirildi.

Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida O'zbekiston 1944-yilni quvonchli muvaffaqiyatlar bilan yakunladi. Paxta tayyorlash rejasi 15-dekabrdayoq ado yetildi. Davlatga 820 ming tonna yoki 1942-yildagiga qaraganda 325 ming tonna ko'p paxta sotildi.

O'zbekiston qishloq mehnatkashlari mamlakat va xalq hayoti uchun yeng og'ir bir sharoitda bu murakkab vazifani muvaffaqiyatli suratda hal yetib, 1945-yilda kattagina yutuqlarga erishdi. Davlatga paxta topshirish rejasi 26-dekabrda 100,6 prosent qilib ado yetildi va 1944-yildagiga nisbatan bir necha ming tonna ko'p paxta yetkazib berildi.

Urushning dahshatli va og'ir yillarida ishchilar bilan dehqonlar, shahar bilan qishloq o'rtasidagi mustahkam do'stlikning samarasi tufayli bunday murakkab va ulug'vor ishlarni amalga oshirish mumkin bo'ldi. Birgina Toshkent shahar sanoat korxonalarining o'ziga 1941-1945-yillar mobaynida jamoa xo'jaliklariga 5 ming seyalka, 2 ming dizel, 1552 kurak chuviydigan mashina, 8,8 ming g'o'zapoyalarni yig'ishtirib beradigan mashinalarni berdi. Butun respublika qishloq xo'jaligi uchun tayyorlab berilgan yehtiyot qismlar 16 million so'mni tashkil yetdi.

Bundan tashqari shahar aholisi qishloq mehnatkashlariga ming-ming tonnalab mineral va mahalliy o'g'itlar bilan ham yordam berdi. Respublikamizning yirik sanoat korxonalarida ming-minglab qishloq mehnatkashlari slesarlik, temirchilik, tokarlik, quruvchilik kasblarini egalladilar.

Oliy va o'rta maxsus ma'lumotli muhandis-texniklar, qishloq xo'jaligi mutaxassisleri, iqtisodchilar, o'qituvchilar, respublikaning turli shaharlaridagi o'quv dargohlarida ta'lim olib, o'z qishloqlariga qaytdilar. Xullas, 1941-1945-yillar davomida O'zbekistondagi har xil kurslarda 200 mingdan ko'proq jamoa a'zosi o'qib chiqdi.

Umuman aytganda O'zbekiston qishloq mehnatkashlari g'oyatda og'ir va qiyin sharoitlarda mehnat qilib, Germaniya fashizmi ustidan qozonilgan g'alabani tezlashtirishda o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Respublika dehqonlari urush yillarida front va g'alaba uchun havo va suv kabi zarur bo'lgan 4 million 148 ming tonna paxta, 82 mln, pud g'alla, 57 ming 444 tonna meva va uzum, 36 ming tonna qoqi, 159 ming 300 tonna go'sht, 22,3 ming tonna jun va boshqa ko'pgina mahsulot yetkazib berdilar.

1941-1945-yillardagi urush bizga tarxiiy saboq berishi kerak. Xalqimiz urush tufayli kelib chiqqan barcha qiyinchiliklarni hisobga oldi, har bir jabhada bo'lmasin bosh tortmay astoydil mehnat qildi va onglilik namunasini ko'rsatdi. Ammo bizning mustamlaka xo'jayinlarimiz bu ishni qonuniy jarayoni deb tushundilar, mehnat ahlining qadriga yetmadilar. Buni Moskvaning urushdan keyingi davrda ham ulug' davlatchilik siyosati asosida O'zbekiston qishloq xo'jaligini faqat paxtachilikka xoslashtirish yo'lidan olib borganligida ko'ramiz. Bu paxta yakka hokimligini yanada kuchayishiga olib keldi. O'zbekiston SSSRning xomashyo bazasi bo'lib qoldi. Bu hol O'zbekiston mehnatkashlarining milliy fojiasi sifatida uning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy qashshoqligiga bosh sababdir.

14.2-§. XX asrning 60-80 yillarida qishloq xo'jaligining ahvoli

Respublika dehqonchiligi qadimdan sun'iy sug'orishga asoslangan. O'zbek xalqi suvni obi hayot deb ardoqlaydi. Kanallar qurish, eskilarini ta'mirlash,

ariqlarni tozalash ishlari doimo hashar yo‘li bilan amalga oshirilgan. Bu an'ana hozirgacha davom etadi. Urushdan keyingi ikki o‘n yillikda respublika hududida ko‘plab yirik kanallar, suv omborlari, kollektorlar qurildi. Ularning barchasi mehnatsevar O‘zbek xalqining qo‘li bilan bunyod etildi.

50-yillarning o‘rtalariga qadar Sirdaryoda Boyovut kanali, Farg‘ona va Namangan viloyatlari orqali o‘tuvchi Oxunboboyev nomli kanal, Qashqadaryo, Samarqand viloyatlarida Eski Angor kanali qurildi. 1954-yili Namangan viloyatida Kosonsoy suv ombori ishga tushirildi. Ittifoq hukumatining ko‘rsatmasi bilan 1956-yili Paxta yetishtirishni ko‘paytirish maqsadida Mirzacho‘ldagi 300 ming gektar unumdor qo‘riq yerlarni sug‘orish o‘zlashtirishga qaror qilindi. Shu munosabat bilan 1961-yili 127 km uzunlikdagi eng yirik Janubiy Mirza cho‘l kanali qurib bitkazildi. U 350 ming gektardan ortin yerni sug‘orishga mo‘ljallandi. Shuningdek, 1968-yilij 63 km uzunlikdagi Markaziy Mirzacho‘l kollektori qurildi Bu sug‘orish inshootlari Mirzacho‘lni o‘zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Respublikaning boshqa mintaqalarida ham muhim inshootlar barpo etildi. Jumladan, Amudaryodan Buxoro viloyatiga suv yetkazish maqsadida 1965-yili uzunligi 200 km bo‘lgan Amu—Buxoro kanali qurildi. Uning suvini 67 m balandlikka tortib beruvchi yirik nasos stansiyalari bunyod etildi. Kanal ishga tushishi bilan Buxoro viloyatida 90 ming gektar yer, shu jumladan, 26 ming gektar yangi yerlar sug‘oriladigan bo‘ldi. Bundan tashqari, Qizilqum sahrosida maydoni 300 ming gektardan ortiq bo‘lgan yaylovlar suv bilan ta‘minlandi.

Qarshi dashti, Surxon-Sherobod vodiysini o‘zlash-tirish boshlanishi munosabati bilan u joylarda ham katta sug‘orish inshootlari qurilishi boshlandi. Janubiy Surxon suv ombori, Zang, Sherobod va Amu—Zang kanaUari-ning qurilishi Surxon-Sherobod vodiysini sug‘orishga imkon berdi. O‘zbek xalqining qahramonona mehnati natijasida yangi yerlarni o‘zlashtirish bilan birga, ularda yangi tumanlar, shaharlar, sovxoz va kolxozlar bunyod etildi. Mirzacho‘lning yangi o‘zlashtirilgan joylarida Guliston, Zarbdor, Zafarobod, Mehnatobod, Mirzacho‘l, Mirza-obod, Oqoltin, Paxtakor, Sayxunobod, Sharof Rashidov

tumanlari, Baxt, Guliston, Do'stlik, Paxtakor, Yangiyer shaharlari, yuzga yaqin sovxoz va kolxozlar, cho'lquvar-lar uchun turar joylar qurildi. Shuningdek, Surxon-Sherobod, Qarshi dashtlarini o'zlashtirishda ham katta qurilish ishlari olib borildi, ko'plab tumanlar, shaharlar, sovxozlar tashkil qilindi.

Respublikada yirik suv omborlari ham bunyod etildi. Urushdan keyingi ikki o'n yillikda 10 ta suv ombori qurildi. Jumladan, Buxoro viloyatida Quyimozor, Qashqadaryo viloyatida Chimqo'rg'on, Toshkent viloyatida Toshkent suv omborlari ishga tushirildi. Paxta maydonlarini kengaytirish maqsadida sovet hukurnati tomonidan sug'orish inshootlari tarmog'ining shiddat bilan kengaytirilishi respublika uchun katta salbiy oqibatlariga olib keldi. Kanallar, suv omborlari va boshqa suv inshootlari qo'riq yerlarni o'zlashtirish imkonini berdi. Shu bilan birga, bu inshootlar yaqin atrofidagi joylarga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu irrigatsiya qurilishteri natijasida yer osti suvlari sathi yuqoriga ko'tarilib, haydaladigan yerlarni sho'r va botqoq bosdi, bog'-rog'lar, tokzorlar qurib qoldi. Yangi paxta ekinzorlarini barpo etish maqsadida puxta o'ylanmagan sug'orish inshootlarini qurish, Sirdaryo va Amudaryodan ko'p suv olish Orol dengizining qurishiga sabab bo'ldi. Bu esa Orol fojiasini keltirib chiqardi, Orolbo'yi mintaqasidagi vaziyatni mushkullashtirib qo'ydi.

Markaz ko'rsatmasiga ko'ra respublika qishloq xo'jaligining asosiy vazifasi paxtachilikni har tomonlama rivojlantirishdan iborat edi. Undan kelib chiqib oziq-ovqat yetkazib beruvchi tarmoqlarga yetarli e'tibor berilmasdi. G'alla, chorvachilik, poliz-sabzavot mahsulotlari, kartoshka yetishtirish talab darajasida emas edi. 1970-yilga qadar qishloq xo'jaligining bu tarmoqlari past sur'atlar bilan rivojlanib keldi. 1970-yilda g'alla, kartoshka yetishtirish urushdan oldingi darajadan past edi.

Umuman olganda, 1970-yili oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish darajasi respublikada urushdan oldingi darajada edi. Holbuki, paxta yetishtirish uch baravardan ziyod (1,3 mln t dan 4,5 mln t ga) ko'paydi. Oziq-ovqat yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi tarmoqlarini mexanizatsiyalashtirish darajasi juda past edi. Buning natijasida oziq-ovqat ekinlarini ekish va hosilni o'rib-terib olish muddatlari

choʻzilib ketardi. Ularga solish uchun mineral oʻgʻitlar kam ajratilardi. Eng unumdor ekin maydonlari gʻoʻza ekish uchun berildi. Gʻoʻza oziq-ovqat ekinlarini yaroqsiz yerlarga, togʻ oldi joylarida oʻzlashtirish mushkul boʻlgan zarang yer va toʻqaylarga siqib chiqardi.

Shaxsiy tomorqa xoʻjaliklarining cheklanishi qishlon xoʻjalik ishlab chiqarishining pasayishiga, aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlanishi yomonlashishiga olib keldi. Tomorqa uchastkalari normalari 1950-yilgacha sugʻoriladigan yerlarda 0,15 gektardati 0,25 gektargacha deb belgilangan boʻlsa, 1950-yilning yanvar oyidan boshlab tomorqa yerlari va chorva tuyoqlari qisqartirildi. Tomorqa uchastkalarining maydoni qisqartirilib, 0,12—0,15 gektarga tushirildi. «Normadan yuqori» degan bahona bilan sugʻoriladigan yerlar olib qoʻyildi, bogʻlar, tokzorlar kesib tashlandi, chorva tortib olindi.

Dehqonlarning tomorqa maydonlarini kamaytirish keyingi yillarda ham davom etdi. Chunonchi, 1956-yildayoq dehqon tomorqasining oʻrtacha maydoni 0,1 gektarni tashkil qildi. Shaxsiy xoʻjalikda, odatda, bitta ona-bola sigir, ikki yashargacha boʻlgan bir bosh qoramol, 4-6 bosh qoʻy, echki boqishga ruxsat berilar edi. Shaxsiy tomorqa xoʻjaligiga nisbatan bunday munosabat bu qishloqda sotsialistik ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishiga toʻsqinlik qiladi, degan qoidadan kelib chiqqan edi. Shu sababli «jamoat chorvachiligining ziyoniga, aholida chorva koʻpayishiga» yoʻl qoʻygan xoʻjaliklar tanqid ostiga olindi.

Qishloq xoʻjaligi oziq-ovqat mahsulotlari bilan respublika aholisi ehtiyojini qondira olmadi. Oʻzbekistonda aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish belgilangan fiziologik normalardan ancha kam edi. Oʻzbekistonning iqlimi va tuproq sharoitlari oziq-ovqat mahsulotlarini zarur miqdorda ishlab chiqarish imkonini berardi. Lekin yalpi paxta hosilini oshirish ketidan quvish respublikada oziq-ovqat muammosini hal qilish imkoniyatlarini cheklab qoʻydi.

Qishloq xoʻjalik kadrlari. Urush yillari respublikadagi erkaklarning katta qismi frontga joʻnab ketishi munosabati bilan qishloq xoʻjaligida barcha toifadagi kadrlar soni keskin kamaydi. Qishloq xoʻjalik mutaxassislarini tayyorlash muhim vazifa boʻlib qoldi. Qishloqda asosiy xodimlar mexanizatorlar kadrlarni

tayyorlash MTS lar qoshidagi qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash maktablari va kurslari orqali olib borildi. 1944-1950-yillarda turli ohalar bo'yicha 50 ming nafar mexanizatorlar tayyorlashga muvaffaq bo'lindi.

60-yillarda mexanizatorlar tayyorlashning eng samarali shakli qishloq hunar-texnika bilim yurtlari bo'lib noldi. Qishloq hunar-texnika bilim yurtlari qishloq xo'jaligining barcha sohalari uchun mexanizatorlar: tokarlar, elektrchilar, traktorchilar, kombaynchilar, mashinada sut sog'ish operatorlari, parrandaboqarlar va boshqalarni tayyorlab berardi. Ularda o'quvchilar kasb bilan birga o'rta ma'lumot ham olardilar. Qishloq hunar-texnika bilim yurtiga 8-sinfni tamomlagan yoshlar qabul qilinardi. Bunda noto'g'ri tartib belgilandi: o'zlashtiruvchi o'quvchilar o'qishni davom ettirish uchun maktabda qoldirilar, o'zlashtirishi past o'quvchilar majburiy ravishda qishloq hunar-texnika o'quv yurt-lariga yuborilar edilar. Qishloq yoshlari bunday o'quv yurtlarida o'qishni istamasdilar, chunki xo'jaliklardagi mehnat rag'batlantirilmas edi. Buning natijasida qishloq hunar-texnika bilim yurtlaridan kasb-korni yetarlicha egallamagan mutaxassislar yetishib chiqardi.

Urushdan keyingi dastlabki yillarda respublikada qishloq xo'jalik oliy o'quv yurti va 12 ta texnikum ishlab turdi. Urushdan keyingi davr qiyinchiliklari ularning faoliyatiga ham ta'sir qildi. Ularning moddiy ta'minot bazasi juda qashshoq edi. o'quv xonalari, amaliy mashg'ulotlar uchun qishloq xo'jalik texnikasi, laboratoriyalar, darsliklar, ayniqsa, o'zbek tilidagi darsliklar yetishmasdi. Shunga qaramay, respublikadagi qishloq xo'jalik o'rta maxsus o'quv yurtlari urushdan keyingi yillarda 4 mingdan ortiq agronom, zooveterinar, texnik va boshqa mutaxassislarni tayyorlab berdi. 1944-1953 yillarda qishloq xo'jalik oliy o'quv yurtlari 4 ming nafarga yaqin turli kasbdagi mutaxassislarni tayyorlab chiqardi. Shunday bo'lsa-da, 50-yillar o'rtalarida qishloq xo'jalik rahbar xodimlari orasida oliy, o'rta va yetti yillik ma'lumotga ega bo'lganlar 4 kishiga faqat bittadan to'g'ri kelardi. Xo'jaliklarning mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoji ortib bordi. 1953-1958-yillarda respublika texnikumlarida mutaxassislar yetishtirish 3 baravar ortdi. 1965-yilda esa qishloq xo'jaligi mutaxassislari — agronomlar,

zootexniklar va veterinarlar soni bir yarim baravar ko'paydi. Lekin oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash son va sifat jihatidan davr talablariga mos kelmas edi. Ayrim mutaxassisliklar bo'yicha va mahalliy xotinqizlardan mutaxassislar kam tayyorlanardi. Moddiy manfaatdorlik yo'qligidan o'quv yurtlarini bitirib chiqqanlar tayinlangan joylarga bormas, mutaxassisligi bo'yicha ishlamas edi. Buning natijasida xo'jaliklarda kadrlar masalasi dolzarb bo'lib qoldi.

14.3-§. O'zbekistonda paxta yakkahokimligining qaror topishi va uning salbiy oqibatlari

Jahondagi har bir xalq o'zining geografik o'rni va iqlimiga bog'liq bo'lgan xolda biror xil qishloq xo'jalik maxsulotini yuqori darajada yetishtirish yoki ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Respublikamizning qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning asosi texnika ekini bo'lgan paxta yetishtirishga moslashtirilgan.

O'zbek xalqi o'z tarixida ikki marta paxta yakkahokimligining jabrini tortgan. Birinchisi Podsho Rossiyasi mustamlakachiligi davrida, ikkinchisi 74 yil hukm surgan sobiq sho'rolar davrida.

XX asrning 30-yillarda shakllangan paxta yakkahokimligi (monokulturasi) urush yillarida ancha o'zgardi. Davr taqozosi bilan paxta dalalari qisqardi, g'alla, sabzavot, poliz ekinlari maydoni kengaydi. Paxta mustaqilligi uchun kurash boshlanishi bilan 1929-yilda tugatilgan qand lavlagi ekish yana tiklandi. Ko'p tarmoqli qishloq xo'jaligi shakllana boshladi. Lekin bu jarayon uzoq davom etmadi. Urushdan so'ng Markazning O'zbekistonda paxta yetishtirishni ko'paytirishga qaratilgan siyosati qayta tiklandi. Bu maqsadda paxtachilikning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Birinchi galda paxtachilikni mexanizatsiyalashga e'tibor qaratildi.

Urushning og'ir oqibatlari respublikaning kundalik hayotida hamon sezilib turar edi. Respublika qishloq xo'jaligiga, uning moddiy-texnik bazasiga putur yetganligi, xodimlarning kamayib ketganligi uchun dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish darajasi pasayib ketdi. Mana shu va boshqa ko'pgina omillar urushning

respublika qishloq xo'jaligidagi oqibatlarini bartaraf etish sur'atlariga ta'sir o'tkazdi. Biroq boshqa barcha sohalarda bolganidek, qishloq xo'jaligida ham zo'ravonlik siyosati hukm surardi. Shuning uchun ham respublika qishloq xo'jaligini rivojlantirish Markaz tomonidan belgilanardi.

1946-yil 5-fevralda Ittifoq hukumati «1946-1953-yillar davrida O'zbekistonda paxtachilikni tiklash va yanada rivojlantirish rejasi va tadbirlari to'g'risida» qaror qabul qildi. Bu qaror asosan O'zbekistonda paxta monokulturasini shakllantirishga qaratilgan edi. Sovet hukumatining ko'rsatmasi bilan oziq-ovqat ekinlarining sug'oriladigan maydonlari paxta ekish uchun ajratildi. Paxta ekin maydonlari kengaytirildi. Qarorda O'zbekistonda davlatga paxta sotishni 1946-1953 yillarda ikki baravardan ortiq ko'paytirish rejalashtirildi. Respublika hududidan ancha olisda — Moskvada Ittifoq hukumati tomonidan O'zbekistonda 1946—1953-yillarda paxtachi-hkni tiklash va yanada rivojlantirish rejalari, choralari belgilab berilgani tasodifiy emas edi. Bu hukumat O'zbek xalqi manfaatini hisobga olmasdan respublikada paxta monokulturasini shakllantirishni, paxta yalpi hosilini tez sur'atlarda ko'paytirishni maqsad qilib qo'ygan edi.

Markazning ko'rsatmasiga muvofiq, g'o'za ekin maydonlarini jadal sur'atlar bilan kengaytirib borish respublika qishloq xo'jaligini qayta qurishning asosiy vazifasi bo'lib qoldi. Paxta ekin maydonlari asosan oziq-ovqat ekinlari, birinchi galda g'alla ekinlari ekiladigan yerlarni tomorqalarni qisqartirish hisobiga oshdi. 1946-yili 218 ming gektar sug'oriladigan maydon paxta ekish uchun bo'shatib berildi. Viloyatlar, respublika bo'yicha paxta ekiladigan maydonlar rejasi ham yuqoridan, aniqrog'i majburiy tartibda belgilanardi. Markazdan paxta ekin maydoni 1946-yilda Toshkent viloyati uchun 86 ming gektar, butun respublika bo'yicha esa 779 ming gektar qilib belgilab berildi.

Paxta ekin maydonlarining nihoyat darajada kengaytirib yuborilganligi respublikada chorvachilikni, poliz hamda sabzavot ekinlari yetishtirishni rivojlantirishga imkon bermadi. Paxta yetishtirishni kengaytirish asosiy qishloq xo'jalik ishlarini mexanizatsiyalashga g'oyat katta sarf-xarajatlar qilishni, zarur miqdorda mineral o'g'itlar ishlab chiqarishni, yangi irrigatsiya qurilishini ken-

gaytirishni talab qildi. Bu o'z holicha olinganida ijobiy hodisa edi. Lekin u asosan paxtachilikni rivojlantirishga qaratilganligi uchun qishloq xo'jaligining ko'p tarmoqli bo'lib rivojlanishini izdan chiqardi, paxta yakka hokimligining shakllanishiga olib keldi. Bu respublika qishloq xo'jaligining bir tomonlama rivojlanib borishini belgilab berdi. Umumiy ekin maydonlarida paxta ekin maydonlari salmog'ining keskin ortib borishi sug'oriladigan yerlarda poliz va bog'dorchilik, sabzavot ekinlarini tobora siqib chiqardi. Paxta yetishtirish-yildan-yilga o'sib bordi. 1945-yili respublikada 850 ming tonna paxta yetishtirilgan bo'lsa, 1950-yili uning miqdori 2 mln 222 ming ton-naga yetdi. Shu davrda g'allaning yalpi mahsuloti 742 ming tonnadan 666 ming tonnaga, sabzavotlar yalpi mahsuloti 433 ming tonnadan 328 ming tonnaga kamay-di. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish sohasida bosh yo'l bo'lib qolgan paxtachilikni jadal kengaytirish respublika hayotida ko'pgina salbiy oqibatlarga olib keldi. Oziq-ovqat mahsuloti yetishtirish qisqardi, oziq-ovqat muammosi vujudga keldi. Ekologiya buzilib, aholi salomatligi yomonlashdi.

Urushdan keyingi dastlabki yillarda qishloq xo'jaligida har turdagi texnika yetishmas edi. Paxta qolda terilar traktor bilan yer haydalib, o'g'it solinardi, hosil oaxta punktlariga ot-aravalarda olib borilardi. Bu talay vaqt va qo'l kuchini talab qilardi. Shu sababli paxtachilikni rivojlantirishda uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash asosiy masala bo'lib keldi.

Mashina-traktor stansiyalari (MTS) yangi traktorlar bilan to'ldirila boshlandi. 1948-yili «Tashselmash» zavodi paxta terish mashinalarining dastlabki namunalarini ishlab chiqardi. Oradan bir yil o'tib «Tashavtomash» zavodi ishga tushirildi, unda traktorlar, paxta tashishga moslashtirilgan mashina va tirkagichlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi (shu zavod bazasida 1969-yili Toshkent traktor zavodi barpo etildi). Ko'rilgan bu tadbirlar paxtachilikni kengaytirib, uning industrial bazasini mustahkamladi.

Biroq, bu texnikaning MTSlarda bo'lishi salbiy oqi-batlarga olib keldi. Asosiy kamchilik shunda ediki, ular-ning aksariyati texnikadan unumli foydalanmas, kol-xozlar bilan tuzgan shartnomalardagi majburiyatlariga

mas'uliyatsizlik bilan yondashardi. Ularda traktor ishla-rining bajarilishi yuzasidan qo'shib yozish hollari keng rasm bo'ldi. Qishloq xo'jalik mashinalarining davlat tasarrufidagi MTS larda to'planishi ishlab chiqaruvchilar, ya'ni dehqonlarni ishlab chiqarish vositalaridan be-gonalashtirib qo'ydi. MTSlar qishloq xo'jaligining rivojlanishiga to'g'anoq bo'ldilar. Mashina-traktor stansiyalarini qayta tashkil etish va texnikani bevosita xo'jaliklarga sotish to'g'risida 1958-yil fevralida qaror qabul qilinishi tasodifiy bo'lmadi. Bu chora xo'jaliklarga yer, texnika va boshqa ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishni yaxshilashga qaratilgan edi. Biroq xo'jalikni yuritishning ma'muriy-buyruqbozlik tartiboti snaroitida qo'yilgan maqsadga erishilmadi. Texnikani yuqoridan belgilangan baland narxlarda sotish xo'jaliklarning iqtisodiyotiga jiddiy zarar yetkazdi.

Paxtachilikda zaharli ximikatlarning keng ishlatilishi va buning salbiy oqibatlarini. Natijada xo'jaliklarda mehnat kuniga to'lanadigan haq kamaydi dehqonlarning moddiy ahvoli yomonlashdi. Biroq hayot bir joyda to'xtab qolmadi. O'zbekistonning qishloq xo'jaligi, uning asosiy tarmog'i bo'lgan paxtachilik dehqonlarning mehnati tufayli rivojlanib bordi. Traktor parki yangi texnika bilan to'ldirildi. Qishloq xo'jaligida traktorlar soni 1960—1970-yillarda 60mingtadan 121 mingtaga oshdi. Shu davrda paxta terish mashinalari soni 8 mingtaga ko'paydi. Qishloq xo'jalik texnikasining bir qismi paxta yetishtirishni oshirish maqsadida paxtakor xo'jaliklarga berildi.

Paxtachilikni rivojlantirish maqsadida respublikaga beriladigan mineral o'g'itlar va zaharli ximikatlar-yildan-yilga ko'payib bordi. 1951-yili mineral o'g'itlar 0,9 mln tonnani tashkil etgan bo'lsa, 1970-yili ularning miqdori 3,5 mln tonnaga yetdi. Holbuki, ko'pgina xo'jaliklarda mineral o'g'itlar ham xuddi texnika singari mahalliy shart-sharoitlar: iqlim, tuproq strukturasi, yer osti suvlari sathi va minerallanish darajasi va boshqa omillarni yetarlicha hisobga olinmay ishlatib kelindiki, bu tabiiy tuproq unumdorligiga katta ziyon yetkazdi.

Ayniqsa, paxta dalalarida zaharli ximikatlarning ish-latilishi qishloq aholisi uchun fojiali bo'ldi. Bu o'ta zaharli ximikatlar g'o'za zararkunandalariga qarshi kurashda va paxtani mashinada terishga tayyorlash uchun g'o'za barglarini sun'iy

to'kishga isblatilardi. Fan-texnika yutuqlarining paxtachilikka joriy etilishi, umuman olganda, ijobiy hodisa edi. Biroq merkaptafos, buti-fos va boshqa zaharli ximikatlardan haddan ortiq ko'p foydalanish salbiy oqibatlarga olib keldi. 1964-yili respublika dalalarida 150 ming tonnaga yaqin 30 xildan ortiq zaharli ximikatlar qo'llandi. Bundan tashqan, ularni saqlash va ishlatishda qo'pol xatolarga yo'l qo'yildi. Markaz ko'rsatmasi bilan paxta dalalariga aviatsiya damida zaharli ximikatlarni sepish-yildan-yilga ken- bordi. 1964-yili paxta maydonlarining 66,5 foiziga aviatsiya yordamida zaharli moddalar bilan ishlov berildi. O'sha-yili 659 kishi zaharlandi, ularning ko'pchiligi jjayotdan ko'z yumdi. Odamlar zaharli ximikatlardan yoppasiga zaharlana boshladilar. Markaz O'zbekistonni mamlakatning asosiy paxta bazasi hisoblar, qanday bo'lmasin ko'proq paxta olishni o'ylar, O'zbek xalqining manfaatlari bilan hisoblashmasdi. o'ta zaharli himikatlarning paxtachilikda keng qo'llanishi tufayli o'lim hollari, og'ir kasb kasalliklarining ko'payishi respublika jamoatchiligini tashvishga soldi. Deputatlar, vrachlar, olimlar paxta dalalarida o'tkir zaharli ximikatlar ishlatilishiga asosli e'tiroz bildirdilar. Shuni hisobga olib respublika rahbarlari Sharof Rashidov va Rahmonqul Qurbonov Ittifoq hukumatiga kuchli ta'sir qiluvchi zaharli ximikatlar o'rniga boshqa ximikatlar jo'natishni so'rab 1969-1970 yillarda bir necha bor murojaat qildilar. Xatlarda ko'rsatilishicha, paxta zararkunandalariga qarshi kurashda uzoq yillar davomida o'ta zaharli moddalarning qo'llanishi tufayli ariq suvlari, tuproq, atmosfera me'yordan bir necha baravar ortiq zaharlangan. Bu inson va hayvonot dunyosi, umuman, tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Ittifoq rahbar tashkilotlari kam ta'sirli ximikatlar chet eldan olinadi, bunga valyuta yo'q, deb bahona qildilar. Vaholanki, Ittifoq valyutasining salmoqli qismi paxta eksporti evaziga olinardi.

Zaharli ximikatlardan paxtachilikda keng foydalanish biologik va ekologik oqibatlardan tashqari, jiddiy ijtimoiy oqibatlarga ham olib keldi. Respublikada kasalliklar soni ortib, ayniqsa, bolalar o'rtasida o'lim hollari ko'paydi, farzand ko'radigan yoshdagi ayollarning salomatligi yomonlashdi. Paxtachilik moddiy-texnik moddiy texnika bazasining Markaz tomonidan mustahkamlanishi paxta xom

ashyosi yetishtirishning ko‘payishiga olib keldi. O‘zbekistonda paxtachilikni rivojlantirishni bir qadar rag‘batlantirish maqsadida paxta xom ashyosining xarid narxlari oshirildi, mineral o‘g‘itlarga imtiyozli narxlar saqlab qolindi. Ko‘rilgan choralar natijasida paxta tayyorlash rejaları bajariladigan va oshirib bajariladigan bo‘ldi.

Markaz paxta xom ashyosi ishlab chiqarish yuzasidan O‘zbekiston uchun belgilangan rejani bajarishga doir respublika ishlarini qattiq nazorat qilib bordi. Paxta bo‘yicha topshiriqlarning bajarilmasligi jiddiy choralar ko‘rilishiga — oliy hokimiyat doiralarida muhokama qi-lishdan tortib jinoiy javobgarlikka tortilishgacha sabab bo‘ldi. Chunonchi, 1947-yilda paxta topshirish rejalarining bajarilmaganligi Markazda muhokama qilindi. Respublika rahbariyati «mahalliy vazifalarni deb umumdavlat manfaatlarini unutilib qo‘yganlikda» ayblanib, O‘zbekiston rahbari Usmon Yusupovga hayfsan e‘lon qilindi.

Urushdan keyingi yillarda O‘zbekistonda paxtachilikni har tomonlama rivojlantirish yo‘liga o‘tilishi yangi yerlarni o‘zlashtirish, paxta ekin maydonlarini ken-gaytirishni talab qildi. 50-yillarning o‘rtalaridan boshlab yangi paxtachilik rayonlarini barpo etish maqsadida qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish boshlandi. Mirzacho‘l va Qarshi dashtlarini, Surxon-Sherobod vodiysi va boshqa qo‘riq yerlarni sug‘orish va o‘zlashtirish ishlari avj oldi. Yerlarni o‘zlashtirish asosan paxta ekishga mo‘ljallangan edi. 1965-yili suv chiqarilgan yangi mintaqada bitta bog‘dorchilik-uzumchilik va 16 ta paxtakor xo‘jaliklar faoliyat ko‘rsatdi.

Respublika irrigator, meliorator va cho‘lquvarlari-ning fidokorona mehnati bilan yangi yerlar o‘zlashtirilib, g‘o‘za ekiladigan maydonlar kengayib bordi. Paxta may-doni 1960-1970-yillarda 1386 ming gektardan 1709 ming gektarga, ya‘ni 323 ming gektarga ortdi. Shu davrda respublikada sug‘oriladigan yerlar maydoni atigi 253 ming gektarga ortgan edi. Ko‘rinib turibdiki, paxta maydoni yangi sug‘oriladigan yerlardan tashqari, poliz va bog‘dorchilik ekinlari yerlari hisobiga ham ko‘paydi. Markazning zo‘rlik siyosati bilan paxta uchun hamma narsa qurbon qilindi. Tomorqa yerlari yo‘qqa chiqarildi. O‘zbek dehqonlarining mehnatsevarligi, yerni, paxtani ardoqlashi natijasida respublikada paxta yetishtirish-yildan-yilga

ortib bordi. Yalpi hosil 1945-1970 yillarda 50 ming tonnadan 4 mln. 495 ming tonnaga, ya'ni 5,3 baravar ko'paydi.

Paxtachilikdagi bu yutuqlar o'z-o'zidan qo'lga kiritilmadi. Ular paxtakorlarning dalalarda Vatanim, o'zbekim deb yonib qilgan mehnati natijasi bo'ldi. «Sharq yulduzi» jamoa xo'jaligidan H.Tursunqulov, Andijon tumanidan I.Bakirov, Bog'ot tumanidan I.Do'stov va 50-yillarda har gektar yerdan 30-40 sentnerdan paxta yetishtirgan boshqa ko'pgina paxtakorlarning nomlari O'zbekistonda mashhur bo'ldi. Ko'pgina paxtachilik brigadalari boshliqlari (R.Odilboyev, Sh.Voisxonov, P.Yo'ldoshev va boshqalar), paxta terish mashinalarida mavsumda 70—80 tonna va undan oshirib paxta tergan mexanik haydovchilar (N.Bakirov, A.O'roqboyev, I.Tursunov va boshqalar) munosib ravishda shuhrat topdilar.

Lekin O'zbek xalqi mehnati bilan yaratilgan boylikning foydasini Markaz ko'rdi. O'zbek xalqi uning salbiy oqibatlari natijasida azob-uqubatlar tortdi. Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida urushdan keyingi yillarda respublikada paxta yakkahokimligi yana qaror topdi. 1970-yilga kelib paxta maydonlarining salmog'i respublika bo'yicha uchdan ikki qismdan ko'proqni, ayrim viloyatlarda esa bundan ham oshiqni tashkil qildi. Chunonchi, 1970-yili Andijon viloyatida 244 ming gektar sug'oriladigan yerlardan 192 ming gektariga, Farg'ona viloyatida 277 ming gektardan 209 ming gektariga paxta ekilardi. Bu rasmiy raqamlar. Amalda g'o'za ekiladigan maydonlar bundan ham ko'proq bo'lgan. Vaholanki, madaniylashgan mamlakatlarning qishloq xo'jaligida g'o'za ekinlari maydoni 60 foizdan oshmasligi lozim, bu ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Ana shu nisbat saqlangandagina tuproq unumdorligini qayta tiklash, almashlab ekish mumkin bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, paxtachilikka zo'r berish O'zbek xalqining manfaatlariga zid edi. Paxta monokulturasining shakllanishi yuqorida aytilgan salbiy ekologik oqibatlardan tashqari, respublikada oziq-ovqat mahsulotlari muammosini ham keltirib chiqardi. O'zbekistonda go'sht va boshqa mahsulotlarni iste'mol qilish normalari boshqa respublikalardagiga qaraganda ancha past edi.

Bundan tashqari, paxta yetishtirgan dehqonlar mehnatiga yarasha haq olmasdilar. Paxtaga qo'yiladigan narxlar juda past bo'lib, ular respublikadan uzoqda belgilanar edi. Paxta xom ashyosini ishlab chiqarish kengaygani sari O'zbekiston metropoliyaning xom ashyo bazasiga aylanib bordi. Xo'jaliklar foyda olish u yoqda tursin, xarajatlarni ham qoplashga qiynalardilar. Natijada paxta yetishtiruvchi xo'jaliklarning davlatdan qarzlari tobora ko'payib bordi. Shu bilan bir vaqtda qishloq mehnatkashlarining daromadlari, turmush darajasi ham pasayaverdi.

Paxtakor xo'jaliklarning dehqonlari dam olish va bayram kunlari nimaligini bilmay, erta tongdan quyosh botguncha jaziramada mehnat qilib, haddan tashqari oz ish haqi olardi. Har bir qishloq oilasi a'zosiga to'g'n keladigan oylik daromad, masalan, Rossiyada 98,1 so'mni tashkil etgan bo'lsa, O'zbekistonda u 58,8 so'mga teng bo'ldi. Quvayt, Saudiya Arabistoni va boshqa davlatlar xalqlari «qora oltin» — neft hisobiga badavlat yashaganlari holda o'zbek xalqi «oq oltin» — paxta hisobiga kambag'allik darajasidan past sharoitda yashab keldi. Bunga xalq xo'jaligini boshqarishning ma'muriybuyruqbozlik tizimi va respublika, uning tub xalqi manfaatlari bilan hisoblashmaydigan mustamlakachilik siyosati sababchi edi.

14.4-§. Irrigatsiya-melioratsiya qurilishi va yangi yerlarning o'zlashtirilishi

O'zbekiston sug'orma dehnchihkning eng qadimgi o'lkalaridan biridir. Bobodehqonlarimizning sug'orish sohasidagi boy tajribasidan foydalanib hozirgi davrda qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil olinmoqda. Respublika dehqonchiligida yerlarni sun'iy sug'orish tizimi (kanallar, irrigatsiya inshootlari) hal qiluvchi rol o'ynaydi. Cho'llarni sug'orish ishlarini amalga oshirishda O'zbek xalqi fidokorona mehnat qildi. Cho'lquvarlarning qahramonona mehnati tufayli ulkan suv omborlari, kanallar, kollektor va drenajlar qurildi. Bu suv inshootlarining bunyod etilishi cho'llarni sug'orish va obod qilish imkonini berdi.

50-yillarda boshlangan respublikadagi cho'llarni o'zlashtirish ishlari keyin ham keng miqyosda davom etdi. 70-yillarda Mirzacho'1 va uning tarkibiy qismi

boʻlgan Jizzax choʻlida yirik paxtachilik vohasi tashkil etish maqsadida unumdor qoʻriq yerlarni sugʻorish va oʻzlashtirish ishlari davom ettirildi. Shu munosabat bilan uzunligi 127 km ga boradigan eng yirik janubiy Mirzachoʻl bosh kanali, markaziy Mirzachoʻl kollektori qurildi, shimoliy Mirzachoʻl kanali kengaytirildi. Mirzachoʻlning Jizzax mintaqasini suv bilan yaxshiroq taʼminlash uchun Jizzax suv ombori qurildi.

Mirzachoʻlda yangi sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga alohida eʼtibor berildi. Ochiq va yopiq kollektor-zovurlar tarmogʻi va tik drenaj quduqlari qurildi. Suvdan birmuncha samarali foydalanish uchun taqsimlovchi nov tarmoqlari qurildi va kanallarga beton yotqizildi.

Markaziy Fargʻona qoʻriq yerlarini oʻzlashtirish maqsadida katta hajmda irrigatsiya inshootlari qurildi. 70-yillarda Fargʻona vodiysini suv bilan taʼminlashni yaxshilash, choʻllarni oʻzlashtirish uchun sersuv Norin daryosidan suv oladigan Katta Andijon, Katta Namangan kanallari va sigʻimi 2 mlrd kub metr keladigan eng yirik Andijon suv ombori qurildi.

Surxon-Sherobod vodiysida ham choʻllarni oʻzlashtirish ishlari davom etdi. Sherobod choʻlini sugʻorish va oʻzlashtirishda Janubiy Surxon suv ombori, shuningdek, Uchqizil, Degeres suv omborlarining qurilishi muhim ahamiyatga ega boʻldi.



Janubiy Surxon suv omborining umumiy koʻrinish. 1965 yil⁵².

⁵² Boʻriyev S. Surxonning suv toʻgʻoni. Monografiya. – Toshkent: «TURON-IQBOL», 2019. – 23-b.




Surxondaryoning to‘silishi. 1967-yil⁵³.

Janubiy Surxon suv ombori vujudga kelishi 100 km li Sherobod mashina kanalini ishga tushirish va Sherobod cho‘lida 90 ming gektar yangi yerlarni sug‘orish imkonini berdi. 90 km li qadimgi Zang kanali qayta ta‘mirlandi va suv o‘tkazish imkoniyati kengaytirildi. Sherobod cho‘lidagi muhim sug‘orish inshooti hisoblangan 56 km li Amu—Zang kanali 1973-yili qurilib bitkazildi. O‘sha yili Oqqapchig‘ay kanalining qurilishi boshlandi. Bu kanalning ishga tushirilishi tufayli Qiziriq cho‘lida 30 ming gektar unumdor yerlar suv bilan ta‘minlandi.

Qarshi dashtini Amudaryo suvi bilan sug‘orishni xalqimiz asrlar davomida orzu qilib kelgan. Dashtda bir million gektar yerni sug‘orish va o‘zlashtirish mumkin edi. Bu ulkan ishlarni amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik imkoniyatlar vujudga kelganidan so‘ng 60-yillarda Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish boshlandi. Qarshi dashtida uzunligi 165 kmga boradigan Qarshi magistral kanali va Tallimarjon suv ombori asosiy irrigatsiya inshootlari edi. Qarshi kanalini qurish 1974-yili tugallandi. Ketma-ket joylashtirib qurilgan 6 ta nasos stansiyasi Amudaryo suvini 132 m balandlikka ko‘tarib beradigan bo‘ldi. Ana shu eng yirik irrigatsiya inshootlarining ishga tushirilishi Qarshi dashtidagi qo‘riq yerlarni

⁵³ Bo‘riyev S. Surxonning suv to‘g‘oni. Monografiya. – Toshkent: «TURON-IQBOL», 2019. – 41-b.

sugʻorishga imkon berdi. Oʻzbekistonda 1985-yilga kelib 20 dan ortiq suv omborlari ishlaydigan boʻldi. Shu bilan birga kanallar soni ham ortdi. Bu kabi irrigatsiya inshootlarining kengayib borishi xalq xoʻjaligi uchun birmuncha iqtisodiy samara berdi, biroq buning salbiy oqibatlari yanada ogʻirroq boʻldi.



Tolimarjon suv omborining umumiy koʻrinishi. 2018-yil.

Ittifoq hukumatining aybi bilan choʻllarni oʻzlashtirish, sugʻorish ishlari ekstensiv yoʻl bilan olib borildi. choʻllarni oʻzlashtirishda, ekin maydonlarini sugʻorishda suvni tejab ishlatadigan usullar, yangi texnikalardan keng foydalanilmadi. Natijada koʻp miqdordagi suv yerga sin-gib, havoga bugʻlanib ketishi tufayli isrof qilindi. Sugʻorishda ekstensiv usulning qoʻllanilishi, suvdan foydalanishda isrofgarchilikka yoʻl qoʻyilishi Sirdaryo, Amudaryo suvlarining bir qismini Orol dengiziga quyish imkoniyatidan mahrum qildi va Orol fojiasiga olib kelgan asosiy sabablardan biri boʻldi.

Katta-katta suv omborlari, oʻnlab, yuzlab kilometr masofaga choʻzilib ketgan Aydar, Arnasoy, Sariqamish, Chordara va boshqa drenajlar kollektor

suvlari to'p-lagichlar bilan birga yerosti suvlarining ham yuzaga ko'tarilishiga yordam berdi. Oqibatda hatto eskidan sug'orilib kelayotgan yerlar ham ikkinchi bor sho'rlandi, botqoq bosdi, bog'-rog'lar va tokzorlar qurib qoldi. Yangi paxtachilik tumanlarini barpo etish maqsadida puxta o'ylamasdan sug'orish inshootlarini qurish, Sirdaryo va Amudaryodan tobora ko'p suv olish Orol dengizining qurib borishiga olib keldi va uni obihayotdan mahrum etdi. Bu narsa bugun Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik vaziyatni mushkullashtirib qo'ydi.

Dehqonchilik madaniyatining oshishi, yangi yerlarni o'zlashtirishi, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashning keng joriy etilishi tufayli Surxon vohasida paxta yetishtirish borasida anchagina yutuqlar qo'lga kiritildi. Vohada paxta yetishtirish 1969 yilga kelib 1928 yildagiga nisbatan 29 hissa ko'p bo'ldi ya'ni har gektardan olingan hosildorlik 29,5 sentnerdan tashkil etdi. Natijada 1970 yilga kelib Surxondaryo viloyati paxta yetishtirish bo'yicha Xorazm viloyatidan keyin ikkinchi o'ringa chiqib oldi⁵⁴. Viloyat qishloq xo'jaligining shitob bilan o'sishida irrigatsiya inshootlarning barpo etilishi ham muhim o'rin tutdi. Markazning paxta xom ashyosiga bo'lgan ehtiyojining yildan yilga o'sib borishi paxta maydonlarini yanada keskin kengaytirishni taqozo qilardi. Buning uchun esa yirik gidrotexnik inshootlarni bunyod qilish lozim edi. Respublikaning janubiy zonasi sanalgan Surxon-Sherobod sahrosini qishloq xo'jaligi ekin maydonlari balansiga kiritish uchun katta suv xo'jaligi qurilishi amalga oshirilishi lozim edi. Chunki bu yerda 145 ming gektar maydonda sug'orish uchun yaroqli g'oyat katta bo'sh yer massivi mavjud edi. 1955-yildan 1958-yilning yanvarigacha bo'lgan davrda bu yerda gidrotexnik inshootlar qurilishi uchun 21423 ming kub metr yer hamda 16825 kub metr beton va temir beton ishlari bajarildi⁵⁵. 1958 yil 19 martda Respublika Minstrlar Soveti "Surxondaryo viloyatida Janubiy Surxon suv omborini qurish to'g'risida" qaror qabul qildi⁵⁶. Texnik loyiha bo'yicha suv omborning hajmi 800 mln kub metr, shundan suv saqlanadigan qismining sig'imi 610 mln kub metr bo'lishi lozim edi. Suv omborning yuzasi esa 150 ming gektarni

⁵⁴ Tursunov S va boshqalar Surxondaryo tarixi. T.: "Sharq". 2004. 407-bet.

⁵⁵ Ochilov N. O'zbekistonda irrigatsiya va melioratsiya ishlari. (1946-1964). T.: "Fan". 1991. 49-bet.

⁵⁶ Общественные науки в Узбекистане. Т.: 1969. №10.С.42.

tashkil etardi⁵⁷. Janubiy Surxon suv ombori 1958-1967 yillarda Zarkamar va Xo‘jamulki to‘qaylari o‘rnida bunyod etildi. 1967 yilda, Janubiy Surxon suv omboridan olingan suv tufayli 24 ming gektar yangi yerlar o‘zlashtirilib, 13 ming gektar yerning melliorativ holati yaxshilandi⁵⁸. 1958 yili “Janubiy Surxon suv omborining qurilishi boshlanganda Surxon vohasida ekin maydonlarining miqdori 166,6 ming gektar, jumladan paxta maydoni 86,3 ming gektar bo‘lgan bo‘lsa, ushbu suv ombori ishga tushgan 1968 yilda esa vohada ekin maydonlarining hajmi 214,8 ming gektarga, shundan paxta maydoni 111,5 ming gektarga yetdi, ya’ni faqatgina paxta maydonlarining o‘zigina 32,3 ming gektarga oshdi⁵⁹.

Urushdan keyingi yillarda Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligini ham tinchlik davri talablari asosida qayta qurish ishlari keng qamrovda olib borildi. Qashqadaryoda suvning tanqisligini hisobga olib 1948 yili Zarafshon darayosidan Qashqadaryoga suv berish masalasi ko‘rib chiqildi⁶⁰. Shu davrda viloyatning yer fondi 2850,9 ming gektardan iborat bo‘lib, u ikki mintaqaga ya’ni sug‘orish shaxobchalari bo‘lgan hududlar va bahorikor lalmi ekin maydonlariga bo‘linardi. Sug‘orish shaxobchalari bo‘lgan yerlar 429,1 ming gektarni yoki umumiy maydonning 15,1 foizini tashkil etardi⁶¹. 1947 yilda Qashqadaryoda 22 ming gektar yerda paxta yetishtirildi. 1948 yilda esa viloyatda paxta maydonlarining miqdori 25 ming gektarga yetkazildi. Shu yili birinchi marta Chiroqchi va Qamashi tumanlaridagi sug‘orish tarmoqlariga yaqin joylashgan kolxozlarda ham chigit ekildi⁶². Bu davrda viloyatda sug‘oriladigan yerlarni to‘liq hisobga olgan holda kolxozlararo 86,3 kilometr uzunlikda kanallar barpo etildi va viloyatdagi irrigatsiya tarmoqlarida 188 ta gidroinshoot qurish ta’minlandi⁶³. Koson tumanidagi Rudasoy suv ombori ham qayta ta’miralanib anchagina kengaytirildi. Qashqadaryoda paxtachilikni keskin rivojlantirish uchun ilmiy-tekshirish ishlari olib borish zarur edi. Ushbu vazifani O‘zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi

⁵⁷ Ochilov N. O‘zbekistonda irrigatsiya va melioratsiya ishlari. (1946-1964). T.: “Fan”. 1991. 50-bet.

⁵⁸ Lenin bayrog‘i. 1964 yil 4 fevral

⁵⁹ Bo‘riev S. XX asrda Surxon-Sherobod vohasining sug‘orilishi tarixi. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. T. 2008. 94-bet.

⁶⁰ O‘zbekiston kolxoz va sovxozlari tarixi. IX kitob. T.: “O‘zbekiston”. 1980. 412-bet.

⁶¹ O‘zMA 2349-fond, 1-yozuv, 134-ish, 16-varaq.

⁶² Qashqadaryo haqiqati. 1948 yil 18 fevral

⁶³ Qashqadaryo haqiqati. 1948 yil 16 sentyabr

Tuproqshunoslik instituti olimlari amalga oshirishdi. Ushbu tekshirishlar natijasida viloyatda 1 million gektar yerni sug'orish imkoni borligi aniqlandi. 1953-1955 yillarda 185 kilometr uzunlikdagi Eski Anhor kanali hashar yo'li bilan bunyod etildi. Natijada Zarafshon daryosining suvlari Qashqadaryo vohasining ekin maydonlariga yo'naltirildi⁶⁴. Bu esa o'rta va quyi Qashqadaryo o'zanidagi kolxoz va sovxozlarning qishloq xo'jalik ekin maydonlari kengaydi. Ushbu ishlarning davomi sifatida Qashqadaryo darayosi o'zanida Chim qo'rg'on suv omborini qurish ishlari ham rejaga kiritildi. Bu ulkan vazifani amalga oshirish uchun Chimqo'rg'on qurilish montaj boshqarmasi tuzildi.

Boshqarma Qashqadaryo daryosi o'zanida Chimqo'rg'on suv omborini qurish bilan bir qatorda Qizilsuv irmog'i va Langar daryosi etagida Qamashi suv omborini ham qurishi lozim edi. 1956 yilning ikkinchi yarmida Chimqo'rg'on suv omborida qurilish montaj ishlari boshlab yuborildi⁶⁵.




Chimqo'rg'on suv omborining umumiy ko'rinishi. 2018-yil.

⁶⁴ O'zbekiston kolxoz va sovxozlari tarixi. 1X-kitob. T.: "O'zbekiston". 1980. 413-bet..

⁶⁵ Qashqadaryo haqiqati. 1956 yil 28 oktyabr.

Chimqo‘rg‘on suv omborining qurilishi natijasida 77 ming gektar bo‘z yerni o‘zlashtirish imkoni yuzaga keldi. Qolaversa, o‘rta va quyi Qashqadaryo mintaqasidagi kolxozlarni suv ta‘minoti ham yaxshilandi. Bundan tashqari Yakkabog‘ daryosining Qizilsuv irmog‘idan va Langar daryosidan keladigan suvlar hisobiga to‘lg‘aziladigan Qamashi suv ombori ham aynan shu yillarda bunyod etildi. Qamashi suv omborining umumiy hajmi 18 million kub metr bo‘lib, unda to‘plangan suv bilan 10 ming gektarga yaqin yerlarni suv bilan ta‘minlash mumkin edi⁶⁶.

Qashqadaryo viloyatining G‘uzor tumani ham suvga muhtoj biroq unumdor yerlari ko‘p bo‘lgan tumanlar sarasiga kiradi. G‘uzor daryosining suvini to‘plash maqsadida tuman markazidan 15 km uzoqlikda Pachkamar suv omborini bunyo etish ishlari 1962 yilda boshlab yuborildi. Pachkamar suv omborida 260 mln kub metr suv to‘plash va ushbu suv orqali 20 ming gektarga yaqin yerni sug‘orish imkoniyati vujudga kelardi⁶⁷.



Pachkamar suv omborining umumiy ko‘rinishi. 2018-yil.

⁶⁶ Fan va turmush. 1985. 4-son. 16-17-betlar.

⁶⁷ Qashqadaryo haqiqati. 1963 yil 6 mart.

Pachkamar suv ombori 1963-1967 yillarda qurib bitkazildi. Qashqadaryo vohasining eng yirik choʻl hududi Qarshi choʻl sanaladi. Qarshi choʻli Qashqadaryo viloyatining toʻrtidan uch qismini tashkil etardi. Bu choʻl shimoldan Jom togʻi, janubi-gʻarbiy tomondan Sandiqli choʻl qumlari, shimoli-gʻarbiy tomondan Buxoro va Navoiy viloyatlari hamda Qizilqum choʻli bilan tutashgan Qarshi choʻlini oʻzlashtirish masalasi XX asrning 30-yillarida kun tartibiga kiritilgan edi. Biroq koʻplab sabablar va yetishmovchiliklar boʻis bu masala oʻz yechimini topmay qolgandi. Ikkinchi jahon urushi tugagandan soʻng Oʻzbekiston SSR Suv xoʻjaligi komissariati L.V.Dunin-Borkovskiy boshchiligidagi bir guruh mutaxassislarni Qarshi choʻlini oʻzlashtirish imkoniyatlarini oʻrganib axborot tayyorlash uchun safarbar qildi. Ushbu axborot “Oʻzbekistonning sugʻorish tarmogʻini rivojlantirish toʻgʻrisida” deb atalgandi. Unda Amudaryo suvini oʻz oqimi bilan Kalif kanali orqali 200 km uzunlikdagi oʻzan boʻylab Qarshi choʻliga olib kelish maqsadi koʻzda tutilgan edi⁶⁸. Shundan soʻng “Sredazvodproekt” ilmiy tekshirish instituti Amudaryo ekspeditsiyasini tashkil etdi. Ushbu ekspeditsiya Amudaryo suvi bilan Qarshi choʻlini sugʻorish va oʻzlashtirish muammosini hal qilishi lozim edi. Ekspeditsiya oʻz ishini maʼlum uzilishlar bilan 1961 yilda yakunladi va toʻplangan maʼlumotlarni Davlat Plan komissiyasiga taqdim etdi. Davlat Plan komissiyasi ushbu loyiha chizmasini koʻrib chiqib, Qarshi choʻlini oʻzlashtirish mamlakat hayoti uchun nihoyatda zarur ekanligini qayd etdi. Shundan soʻng “Sredazgiprovdxlopok” institutining ilmiy izlanishlariga asoslangan holda Qarshi choʻlini oʻzlashtirishning bosh rejasi tasdiqlandi. Ushbu rejaga binoan qudratli nasos stansiyalari yordamida Qarshi mashina kanali orqali Amudaryo suvini yuqoriga koʻtarib bergan holda choʻlga oqizish va 905 ming gektarlik maydonni oʻzlashtirish koʻzda tutilgan edi. Ushbu loyiha asosida ikkita yirik kanal Qarshi mashina kanali va uning Shoʻrsoy tarmogʻi, shu bilan birga ikkita suv havzasi 1,5 milliard kubga moʻljallangan Tallimarjon va 2 milliard kubga moʻljallangan Shoʻrsoy suv omborlarini qurish lozim edi.

⁶⁸ Жалилов Э.Каршинская целена. Т., 1979, С.11.

Mazkur reja asosida O‘zbekiston Kompartiyasi va Ministrlar Soveti 1963 yil 7 fevralda Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish maqsadida 160-sonli qarorini qabul qildi. 1963 yil 15 apreldan boshlab “Qarshiqurilish” boshqarmasi tuzildi. Lekin Qarshi cho‘lini o‘zlashtirishning bosh rejasi bo‘yicha o‘zlashtiriladigan yerlar uchun mablag‘ hal etilmagan edi. 1963-1969 yillar oralig‘ida “Qarshiqurilishi”, “Sredazsovxozstroy” bosh boshqarmasi Respublika mablag‘i va Qashqadaryo viloyati xo‘jaliklari mablag‘lari asosida ishlab turdi. Haqiqatda esa hukumatning Qarshi cho‘lini sug‘orish va o‘zlashtirish to‘g‘risidagi bosh rejasi katta muhokamalardan o‘tib qattiq tortushuvlardan keyin amaliyotga tadbiiq etildi.

Nihoyat 1969 yilning 8 avgustida Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish va sug‘orishning birinchi navbatini amalga oshirish uchun 1 mlrd 113 mln so‘m mablag‘ ajratildi. Ushbu qaror asosida Qarshi dashtining yuqori qismida 200 ming gektar yerni o‘zlashtirish ishlari boshlab yuborildi⁶⁹.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish harakatlari yildan yilga muhim ahamiyat kasb etib bordi. To‘g‘irog‘i, respublika rahbariyati Qarshi cho‘lini o‘zlashtirishning erkin istiqbollarini Moskva oldida isbot qila oldi. “Qarshiqurilish” boshqarmasining 50 ming kishilik jamoasi har yili taxminan 20 ming gektar yerni o‘zlashtirib, ekinzor va bog‘-bo‘stonga aylantirishga tayyorlab bordi⁷⁰. Qarshi cho‘lini o‘zlashtirishning birinchi bosqichida 200 ming gektar yerda 34 ta yangi sovxoz tuzildi. Shundan 29 tasi paxtachilik, 3 tasi bog‘dorchilik hamda 2 tasi chorvachilikka ixtisoslashgan edi⁷¹.

1970 yilda KPSS MQ va SSSR Ministrlar soveti Qarshi cho‘lini o‘zlashtirishni jadallashtirish 1971-1980 yillar mobaynida 300 ming gektar yangi yerni qishloq xo‘jalik oborotiga kiritish, 1980 yilga kelib bu yerdan 400 ming tonna paxta yetishtirishni ko‘zda tutuvchi qarorni qabul qildi⁷². Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish maqsadida Amudaryo qirg‘oqlarida 6 ta nasos stansiyasi barpo etildi, ular orqali azim Amudaryoning suvi 132 metr balandlikka ko‘tarilib Qarshi cho‘liga suv olib kelindi. Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish natijasida bu yerda 46 ta

⁶⁹ Xudoyqulov M. Qarshi cho‘li. T.: “Sharq”. 1998. 26-bet.

⁷⁰ Manzarov Yu. Cho‘ldan gul isi keladi. Fan va turmush. 1985. 4-son. 16-17-betlar

⁷¹ Alimardanov T. O‘chmas sharaf. T.: “Dono”. 2017. 70-bet

⁷² Экономика и жизнь. 1970 г. №7.

sovxozi, 6 ta yangi tuman jumladan: Kasbi, Usmon, Yusupov, Nishon, Muborak, Bahoriston, Tallimarjon tumanlari tashkil etildi. 1978 yilda Qarshi choʻlida 137 ming kv metrga uy-joy, 1696 oʻquvchiga moʻljallangan oʻrta maktablar, 690 oʻrinli maktabgacha taʼlim muassasalari, 750 oʻrinli klub, 600 oʻquvchiga moʻljallangan hunar-texnika bilim yurti qurildi⁷³. 1980 yilda Qarshi choʻlini oʻzlashtirishga 5 milliard soʻm kapital mablagʻ sarflandi⁷⁴. Qarshi choʻlidagi dasht yerlarga suv kelishi odamlar turmushining ijtimoiy- iqtisodiy asoslarini tubdan oʻzgarishiga, ishlab chiqarish kengayib turmush tarzini farovonlashishiga xizmat qildi.

Tadqiq etilayotgan davrda Janubiy Oʻzbekistondagi Surxon-Sherobod va Qarshi choʻllarini oʻzlashtirish, bu qaqroq maydonlarda obod qishloqlar, shinam posyolkalar, goʻzal kentlar bunyod etilishida, minglab gektar yerlar oʻzlashtirilib qishloq xoʻjaligi oborotiga kiritilishida qolaversa bogʻ-rogʻlar, madaniy-maishiy muassasalar, uy-joylar bunyod etilishida oʻsha davrda Oʻzbekistonga birinchi rahbar boʻlgan Sharof Rashidovning cheksiz xizmatlari bor. Sharof Rashidov tez-tez choʻlquvarlar bilan uchrashgan, ularning koʻpgina muammolarini joyida hal qilgan uddaburon rahbar edi. Sh.Rashidovning qoʻriq yerlarni oʻzlashtirish faoliyatiga Oʻzbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov yuksak baho berib, shunday degan edi: “Mirzachoʻl, Qarshi, Jizzax, Yozyovon, Surxon-Sherobod va Makrit choʻllarining oʻzlashtirilishi, Oʻzbekiston kelajagi bilan bevosita bogʻlangan edi. Millionlab gektar qoʻriq yerlarda paxta, bogʻ-rogʻlar va boshqa oziq-ovqat ekinlarining oʻstirilishi aslida uzoqni koʻzlab ish tutish natijasi edi. Kechagi choʻlu-biyobonlar bugun Oʻzbekiston istiqloli uchun xizmat qilmoqda”⁷⁵.

Yangi paxtachilik tumanlarini barpo etish. Respublikaning choʻl tumanlarida qurilgan yirik suv inshootlari, suv xoʻjaligi ishlari Mirzachoʻl, Qarshi dashtlarini, Surxon-Sherobod vodiysi va boshqa qoʻriq yerlarni sugʻorish va oʻzlashtirishga yoʻl ochib berdi. Yerlarni oʻzlashtirish (asosan paxta ekish uchun

⁷³ Степной край. Орган Каршистроя. 26 декабря 1980.

⁷⁴ Правда Востока. 28 февраля 1980 года.

⁷⁵ Karimov I. Xalqimizning otash qalb farzandi. T: “Oʻzbekiston”. 1992. 16-bet

o'zlashtirish) kompleks tarzda olib borildi, boshqacha aytganda, yerlarga suv chiqarish bilan birga yangi xo'jaliklar barpo etilib, qishloqlar, shaharlar, turar joylar, sanoat korxonalari va madaniy-maishiy obyektlar qurildi.

1980-yilning boshiga kelib Mirzacho'1 hududida 300 ming gektardan ortiq qo'riq yerlar o'zlashtirildi va Mirzacho'1 yirik paxtachilik vohasi bo'lib qoldi. Yangi o'zlashtirilgan yerlarda Sirdaryo va Jizzax viloyatlari, Paxtakor, Ilich, Do'stlik, Armasoy, Oqoltin, Mehnat-obod kabi yirik paxtachilik tumanlari, 50 ta yangi sovxozlar, Yangiyer, Guliston, Paxtakor, Do'stlik, Baxt, Shirin shaharlari vujudga keldi. Mirzacho'1 dashtining tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketishi cho'lquvarlarning fidokorona mehnati natijasi bo'ldi. O'zbekistonning yangi paxtakor mintaqasi paxta xom ashyosi yetishtirishni muntazam ravishda oshirib borib, 1980-yilda 492 ming tonnaga yetkazdi.

Shu bilan birga, Mirzacho'1 yerlari va boshqa qo'riq tumanlarga suv chiqarib, ularni o'zlashtirishda katta kamchiliklar ham bo'ldi. Suv xo'jaligi tashkilotlari yangi o'zlashtirilgan yerlarni xo'jaliklarga hali ko'p chala ishlari qolgan holatda topshirar edilar. Buning natijasida yerlarning kattagina qismi qishloq xo'jaligida foydalanilmay qoldi. Jizzax viloyatining Zarbdor tumanida 1984-yili har gektar yerdan bor-yo'g'i 7 sentner paxta olindi. Bunga, qisman, Jizzax viloyatidagi kollektorlarning 25 foizi umuman ishdan chiqqanligi, yopiq va vertikal drenajning uchdan biri qisman ishlamaganligi, ba'zi joylarda yopiq zovurlarning umuman qurilmaganligi sabab bo'ldi. Ko'p hollarda qo'riq tumanlarda xo'jaliklar mukammal bo'lmagan holda qurilar, jumladan, turar joy va kommunal-maishiy obyektlar qurilishiga doir masalalar yaxshi hal qilinmas edi. Holbuki, bunday obyektlar yetishmas, mavjudlari esa sifati pastligi bilan ajralib turardi.

Qarshi dashtida yangi yirik paxtachilik tumanini barpo etish uzoq yillar davomida Ittifoq hukumatining diqqat markazida bo'lib keldi. Bu maqsad uchun 1970-yilda 1 mlrd so'mdan ortiq mablag' ajratildi.

1963—1979-yillar davomida Qarshi dashtida 30 ga yaqin sovxozlar tashkil etildi. 70-yillarning ikkinchi yarmida 60 ming gektar yangi yer qishloq xo'jalik

oborotiga qo'shildi.

Surxon-Sherobod vodiysida qurilgan sug'orish inshootlari 114 ming gektar maydondagi qo'riq yerlarni sug'orishga imkon berdi. Sherobod cho'lining yangi o'zlashtirilgan yerlarida ikkita shahar, 17 ta yangi sovxoz tashkil qilindi. Irrigatsiya-melioratsiya qurilishining kengayishi, ekin maydonlarini suv bilan ta'minlashning yaxshilanishi paxta hosildorligini oshirdi. 1970-yili Qashqadaryo viloyati paxtakorlari har gektar yerdan 32,3 sentner paxta olishgan bo'lsa, 1983-yili hosildorlik 36,4 sentnerga yetdi. O'sha yillarda yangi yerlarni sug'orish geografiyasi va hajmlari ancha kengaydi, G'o'za ekiladigan maydonlar ortdi. Irrigatsiya, melioratsiya ishlari dasturining amalga oshirilishi natijasida yangi yerlarni o'zlashtirish sur'atlari jadallashdi. 1946-yilgacha bo'lgan davrda 600 ming gektarga yaqin yangi yerlar ishga tushirilgan bo'lsa, 1966-1985-yillar mobaynida 1800 ming gektarga yaqin, ya'ni uch baravar ko'p yer foydalanishga topshirildi. Qo'riq yerlarga suv chiqarish va ularni o'zlashtirish, Ittifoq hukumatining zo'ri bilan yangi paxtachilik tumanlarini yaratish, paxta ekiladigan maydonlarni kengaytirish paxta yakkahokimligining yanada kuchayishiga olib keldi. Bu hol o'z navbatida oziq-ovqat va ekologik muammolarni hal qilishni yanada qiyinlashtirib, respublikada ijtimoiy keskinlikni kuchaytirdi.

14.5-§. O'zbekistonda ekologik holatning buzilishi, uning sabablari va oqibatlari

Ekologik muvozanatning buzilishi. Tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi, asosan inson faoliyati natijasida, ya'ni insonning tabiiy jarayonlarga aralashuvi kengayib va chuqurlashib borishi sababli paydo bo'ldi. 1970—1985-yillarda bu muammo bashariyat uchun katta tashvish tug'dirdi. Insonning xo'jalik faoliyati-yildan-yilga kuchayib bordi, qo'riq yerlar o'zlashtirildi, elektr stansiyalari, zavod-fabrikalar qurildi, yangi shaharlar soni ko'paydi. Yangi yerlarning o'zlashtirilishi, sanoat va qishloq xo'jalik korxonalari, transport faoliyatining nazoratdan chetga chiqib ketishi esa tabiatda mavjud muvozanatni buzib, noxush ekologik vaziyatni vujudga keltirdi. Butun dunyoda

olimlar ekologik muvozanat buzilgan, buning xavf-xatari yadro urushi xavfidan qolishmaydi, deb turgan bir paytda sovet hukumati, KPSS bizning mamlakatimizda ekologiya muammosi yo‘q, deb bu tahdidning oldini olish uchun hech qanday chora ko‘rmadi. O‘zbekiston olimlariga bu xavf to‘g‘risida gapirishga yo‘l berilmadi.

Islom Karimov «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida shunday deydi: «Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik falokatning g‘oyat xavfli zonalari-dan biri vujudga kelganligini alam bilan ochiq aytish mumkin. Vaziyatning murakkabligi shundaki, u bir necha o‘n yilliklar mobaynida ushbu muammoni inkor etish natijasidagina emas, balki mintaqada inson hayot faoliyatining deyarli barcha sohalari ekologik xatar osti-da qolganligi natijasida kelib chiqqandir. Tabiatga qo‘pol va takaburlarcha munosabatda bo‘lishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Biz bu borada achchiq tajribaga egamiz. Bunday munosabatni tabiat kechirmaydi. Inson—tabiatning xo‘jayini, degan soxta sotsialistik mafkuraviy da'vo, ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida ko‘plab odamlar, bir qancha xalqlar va millatlarning hayoti uchun fojiga aylandi. Ularni qirilib ketish, genofondning yo‘q bo‘lib ketishi yoqasiga keltirib qo‘ydi».

Sovet hukumati amalga oshirgan agrar siyosati tufayli yillar osha mustahkamlanib borgan paxta yakkahokimligi O‘zbekiston tabiati muvozanatining buzilishiga sabab bo‘ldi. Paxta ekin maydonlarining beda va oziq-ovqat ekin yerlari hisobiga kengayishi almashlab ekishni cheklab qo‘ydi. Monokultura g‘o‘zaning yoppasiga kasallanishiga olib keldi. G‘o‘za zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurashda Markaz ko‘rsatmasi bilan o‘ta zaharli kimyoviy moddalar ishlatildi. 80-yillar o‘rtalarida respublikada 90 ming tonna pestitsidlar qishloq xo‘jaligi-da qo‘llanildi. Zaharli moddalar bilan ishdab berish maydonlarning taxminan yarmida samolyotlarda bajarildi. Zaharli moddalarning paxta dalalariga samolyotda sepilishi havoni, suvni zaharlab, aholi salomatligiga, tabiatga, hayvonot dunyosiga zarar yetkazdi.

Zaharlilik darajasi yuqori bo‘lgan kimyoviy modda-butifos g‘o‘zani


defolyatsiya qilish uchun 20-yilga yaqin ishlatildi. Defolyatsiya asosan samolyotlarda bajarilar edi. Ko'p hollarda butifos har gektar paxta maydoniga belgilangan me'yordan 2—3 baravar ko'p ishlatilardi. Zaharli butifosning defolyatsiyada keng qo'llanilishi atrof-muhitga va odamlar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Respublika rahbar organlari 1981-yili bu zaharli kimyoviy moddadan foydalanishni taqiqladi. Biroq, butifosdan g'o'zani defolyatsiya qilishda ayrim xo'jaliklar keyingi yillarda ham foydalandilar.

Pestitsidlarni tashish, saqlash qoidalariga xo'jaliklar yetarli e'tibor bermas edi. Respublika xo'jaliklarida pestitsidlar saqlanadigan omborlarning uchdan ikki qismi zaharli kimyoviy moddalar saqlash uchun belgilangan sanitariya normalariga mos kelmasdi. Ularning ko'plari aholi istiqomat qiladigan joylarga, transport yuradigan yo'llarga, ariqlarga yaqin yerlarga qurilgan edi. Bu hol odamlarning va ichimlik suvlarining zaharlanishiga olib keldi. o'sha davrda qishloqlarda vodoprovodlar juda kam bo'lganligi tufayli ko'pchilik qishloq aholisi ariq va hovuzlardan suv ichar edi. Pestitsidlarni saqlash va qo'llash qoidalariga rioya qilmaslik ariq suvlarining zaharlanishiga, aholi orasida sariq, anemiya (kamqonlik), sil, yurak-qon-tomir va boshqa og'ir kasalliklarning keng tarqalishiga olib keldi.

O'zbekistondagi irrigatsiya tarmoqlarining ko'p qismi zamonaviy texnik talablarga javob bermas edi. Ariqlar-ning suv shimilishiga qarshi qoplamalari yo'qligi natijasida suvning ko'pi yerga singib ketardi. 1978-1982 yillarda respublikamizda har gektar yerga sarflangan suvning o'rtacha miqdori normadagidan ikki baravar ko'p bo'ldi. Markaziy idoralar aybi bilan Orol dengizi havzasida tashvishli va halokatli murakkab ekologik vaziyat yuzaga keldi. O'zbekistonda yuzlab, minglab gektar yerlarning meliorativ holati yomonlashdi. Natijada umumdavlat manfaatlariga ham, milliy manfaatlarga ham mos bo'lmagan ahvol vujudga keldi.

Ana shunday bir sharoitda qurilgan suv omborlari-ning ta'siri ahvolni og'irlashtirdi. Uzoq yillar qishloq xo'jalik muammolari bilan shug'ullangan akademik M. Muhammadjonovning ma'lumotlariga qaraganda, jamiyatimizda

ekologik fojining yuzaga kelishida, ya'ni atrof-muhitning yomonlashuvida suv omborlarining ham ulushi bor. Markaziy Osiyodagi eng yirik Tuyamo‘yin suv ombori loyihachilar taklifiga asosan Sulton Sanjar tuz koni va ko‘m-ko‘k o‘rmonzorlar ustiga qurildi. Oqibatda asrlar davomida Xorazm vohasini tuz bilan ta'minlab kelgan kon suv ombori tagida qolib ketdi. Ombordagi sho‘r suv esa vohaning paxta dalalari tomon oqizildi. Bu esa Xorazm viloyatida ekologik vaziyatni juda og‘irlashtirib yubordi.



Orol dengizining qurib borishi.

1985-yilga kelib suv omborlari soni yana ham ko‘paydi. Ularning ta'siri ostida daryolarning suvi tarkibida tuz va zaharli moddalar ko‘payib ketdi. Natijada yerlarning sho‘rlanishi milliy fojia sifatida har tomonlama xavf sola boshladi. Namangan yerlarining 48 foizi, Andijon yerlarining 23 foizi, Sirdaryo yerlarining 22 foizi kuchli sho‘rlandi. Respublikamizda 1,5 mln gektardan ortiq yerlar sho‘rlangan edi.


Suv inshootlarini kengaytirib borish respublika iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ham ega bo‘ldi. Qo‘riq yerlar suv bilan ta'minlandi, yangi yerlar tashkil etildi. Biroq ular iqtisodiy samara berishdan tashqari salbiy ta'sir ham ko‘rsatdi, ularning natijasida yer osti suvlarining sathi yuqoriga ko‘tarilib, haydaladigan yerlarni sho‘r va botqoq bosdi, bog‘-rog‘lar va tokzorlar qurib qoldi.

Orolbo‘yi mintaqasida og‘ir vaziyatmng yuzaga kelishi. Orol dengizi fojiasi sovet hukumati va KPSSning atrof-muhit, tabuy resurslardan foydalanishda o‘ylamasdan yuritgan siyosati natijasi bo‘ldi. Buning bosh sababi Amudaryo va Sirdaryodan sug‘orish uchun haddan tashqari ko‘p suv olish edi. Bu holat Orol dengizining qurib borishiga olib keldi va Markaziy Osiyo mintaqasi hamda qo‘shni davlatlar ekologiyasiga misli ko‘rilmagan tarzda salbiy ta'sir ko‘rsatdi.

Islom Karimov Orol fojiasi haqida shunday degan: «Markaziy Osiyoning hududi bo‘ylab sug‘orish tizimlarini jadal sur'atda qurish ko‘plab aholi punktlariga va sanoat korxonalariga suv berish barobarida keng ko‘lamdagi fojia — Orol halok bo‘lishining sababiga ham aylandi. Yaqin-yaqinlargacha cho‘l-u sahrolardan tortib olingan va sug‘orilgan yangi yerlar haqida dabdaba bilan so‘zlanardi. Ayni chog‘da ana shu suv Oroidan tortib olinganligi, uning «jonsizlantirib qo‘yilganligi» xayolga kelmasdi. Endilikda Orolbo‘yi ekologik kulfat hududiga aylandi».

Suvning tobora kamayib ketayotgani va sifatining yomonlashuvi tuproq, o‘simlik va hayvonot dunyosidagi o‘zgarishlarga, baliqni qayta ishlash sohasining yo‘qolib ketishiga, shuningdek, sug‘oriladigan yerlar samaradorligining pasayishiga olib keldi. Ekologik vaziyatning yomonlashuvi Orol dengizi havzasidagi 35 millionga yaqin aholining turmush sharoitiga, ularning salomatligiga bevosita va bilvosita salbiy ta'sir ko‘rsatdi, xo‘jalik faoliyatini buzib yubordi. Bularning barchasi mazkur mintaqadagi migratsion jarayonlarning kuchayishiga olib keldi.

Mustabid sovet tuzumining mudhish xatosi bo‘lgan Orol fojiasi kun sayin murakkablashib boraverdi. Orol dengizi suv rejimining buzilganligi, sathining halokatli darajada pasayganligi va 2,2 mln gektardan ortiq sho‘rxok maydonning qurishi Qoraqalpog‘iston uchun, butun O‘zbekiston va qo‘shni respublikalar uchun ekologik kulfat bo‘ldi.



Orol dengizining qurib borishi (1957-2008 yy). Sun'iy yo'ldosh orqali olingan suratlar.

Orol dengizining chekinishi natijasida bu mintaqada tuz-qumli bo'ronlar soni bir necha baravar oshdiki, natijada har-yili osmonga 70 mln t dan ziyod zaharli aralashmalar ko'tarildi. O'zbekistonning Qoraqalpog'iston, Xorazm viloyati va Turkmanistonning Toshhovuz viloyatining har gektar yeriga-yiliga 600—700 kg dan tuz-qumli changlar yog'ilardi. Ko'zdan kechirilayotgan yil-larda Orol dengizining qurib borishi Orolbo'yi respub-likalari, shu jumladan, O'zbekiston uchun ham katta iqtisodiy zarar keltirdi. Amudaryo quyi oqimi mintaqasi-da baliqchilik, ondatrachilik, ovchilik xo'jaliklari deyarli yo'q bo'lib ketdi. Paxtachilik va chorvachilik 1980— 1985-yillarda har-yili 30 mln so'mdan ortiqroq zarar ko'rdi.

Biroq pul bilan o'lchab bo'lmaydigan ijtimoiy ziyonlar ham borki, ularni raqamlarda ifodalab bo'lmaydi. Bu inson salomatligidir. Orolbo'yi mintaqasida vujudga kelgan og'ir vaziyat yerli xalq ahvolini nihoyatda tang qilib qo'ydi. Bu yerda turli xil kasalliklar ko'paydi. yosh bolalar o'limi ortib bordi. Nogiron tug'ilgan bolalar soni ham ortdi, bir yoshgacha bo'lgan bolalar orasida o'lim har ming bolaga nisbatan 1980-yildagi 46,5 nafardan 1986-yilda 72 nafarga yetdi.

Ayollarning 60 foizi kamqonlik kasalligiga chalingan edi. Butun Orolbo‘yida qorin tifi kasalligi o‘ttiz baravar, yuqumli sariq kasalligi yetti baravar ortdi, ayniqsa, rak kasalligi ko‘payib ketdi.

1981—1986-yillarda buyrakka tosh yig‘ilish kasaliga chalinganlar o‘n marta, surunkali oshqozon kasalligi uch baravar ko‘paydi. Yuqumli kasalliklar bilan, ayniqsa, sil bilan og‘riganlar soni oshdi. Orolbo‘yi mintaqasida vujudga kelgan og‘ir ekologik vaziyatda, ayniqsa, bu dengizga yaqin bo‘lgan Mo‘ynoq, Qo‘ng‘irot, Chimboy kabi sjiaharlar va ular atrofidagi qishloqlar ko‘p aziyat chekdi. 70-yillar boshlarida ham baliqchilik bilan nom chiqargan mo‘ynoqliklarning ko‘pchiligi oradan o‘tgan o‘n yil ichida ishsiz, nochor ahvolga tushib qoldi. Shahar rivoj topib turgan paytlarda boshqa joylardan kelib qolgan aholining 80-90 mingdan ortiqrog‘i so‘nggi vaqtdagi ekologik talafot tufayli yana o‘z yurtlariga qaytib ketdi. Qiyinchiliklarga qaramasdan o‘z yerida qolgan bardoshli mahalliy xalq murakkab muammolar iskanjasida qoldi.



Orol dengizi sathi 1960-yillardan boshlab kundan-kunga pasayib bormoqda

Orol fojiasi oqibatlariga to‘xtalib, Islom Karitnov shunday degan: «Orol dengizining qurib borishi va shu jarayon tufayli Orolbo‘yi mintaqasidagi tabiiy muhitning buzilishi ekologik fojia sifatida baholanmoqda. Chang va tuz bo‘ronlarining paydo bo‘lishi, faqat Orolbo‘yida emas, balki dengizdan ancha naridagi bepoyon hudud-larda yerlarning cho‘lga aylanishi, iqlim va landshaftning o‘zgarishi — bular ana shu fojia oqibatlarining to‘liq bo‘lmagan ro‘yxatidir».

Suvning tobora kamayib ketayotgani va sifatining yomonlashuvi tuproq, o‘simlik va hayvonot dunyosidagi o‘zgarishlarga, baliqni qayta ishlash sohasining

yo‘qolib ketishiga, shuningdek, sug‘oriladigan yerlar samaradorligining pasayishiga olib keldi. Yekologik vaziyatning yomonlashuvi Orol dengizi havzasidagi 35 millionga yaqin aholining tunnush sharoitiga, ularning salomatligiga bevosita va bilvosita salbiy ta‘sir ko‘rsatdi, xo‘jalik faoliyatini buzib yubordi. Bularning barchasi mazkur mintaqadagi migrasion jarayonlarning kuchayishiga olib keldi.

Orol dengizining chekmishi natijasida bu mintaqada tuz-qumli bo‘ronlar soni bir necha baravar oshdiki, natijada har-yili osmonga 70 mln tonnadan ziyod zaharli aralashmalar ko‘tarildi. O‘zbekistonning Qoraqalpog‘iston, Xorazm viloyati va Turkmanistonning Toshhovuz viloyatining har gektar yeriga-yiliga 600—700 kg dan tuz-qumh changlar yog‘ilardi. Ko‘zdan kechirilayotgan yillarda Orol dengizining qurib borishi Orolbo‘yi respublikalari, shu jumladan, O‘zbekiston uchun ham katta iqtisodiy zarar keltirdi. Amudaryo quyi oqimi mintaqasida baliqchilik, ondatrachilik, ovchilik xo‘jaliklari deyarli yo‘q bo‘lib ketdi. Paxtachilik va chorvachilik 1980—1985-yillarda har-yili 30 mln so‘mdan ortiqroq zarar ko‘rdi.

Biroq pul bilan o‘lchab bo‘hmaydigan ijtimoiy ziyonlar ham borki, ularni raqamlarda ifodalab bo‘lmaydi. Bu inson salomatligidir. Orolbo‘yi mintaqasida vujudga kelgan og‘ir vaziyat yerli xalq ahvolini nihoyatda tang qilib qo‘ydi. Bu yerda turli xil kasalliklar ko‘paydi. Yosh bolalar o‘rni ortib bordi. Nogiron tug‘ilgan bolalar soni ham ortdi, bir yoshgacha bo‘lgan bolalar orasida o‘lim har ming bolaga nisbatan 1980-yildagi 46,5 nafardan 1986-yilda 72 nafarga yetdi. Ayollarning 60 foizi kamqonlik kasalligiga chalingan edi. Butun Orolbo‘yida qorin tifi kasalligi o‘ttiz baravar, yuqumli sariq kasalligi yetti baravar ortdi, ayniqsa, rak kasalligi ko‘payib ketdi.

1981—1986-yillarda buyrakka tosh yig‘ihsh kasalga chalinganlar o‘n marta, surunkali oshqozon kasalligi uch baravar ko‘paydi. Yuqumli kasalliklar bilan, ayniqsa, sil bilan og‘riganlar soni oshdi.

Orolbo‘yi mintaqasida vujudga kelgan og‘ir yekologik vaziyatda, ayniqsa, bu dengizga yaqin bo‘lgan Mo‘ynoq, Qo‘ng‘irot, Chimboy kabi shaharlar va ular

atrofidagi qishloqlar ko‘p aziyat chekdi. 70-yillar boshlarida ham baliqchilik bilan nom chiqargan mo‘ynoqliklarning ko‘pchiligi oradan o‘tgan o‘n yil ichida ishsiz, nochor ahvolga tushib qoldi. Shahar rivoj topib turgan paytlarda boshqa joylardan kelib qolgan aholining 80—90 mingdan ortiqrog‘i so‘nggi vaqtdagi yekologik talafot tufayli yana o‘z yurtlariga qaytib ketdi. Qiyinchihklarga qaramasdan o‘z yerida qolgan bardoshli mahalliy xalq murakkab muammolar iskanjasida qoldi.

Orol fojiasi oqibatlariga to‘xtalib, Islom Karimov shunday degan: «Orol dengizining qurib borishi va shu jarayon tufayli Orolbo‘yi mintaqasidagi tabiiy muhitning buzilishi yekologik fojia sifatida baholanmoqda. Chang va tuz bo‘ronlarining paydo bo‘lishi, faqat Orolbo‘yida emas, balki dengizdan ancha naridagi bepoyon hududlarda yerlarning cho‘lga aylanishi, iqlim va landshaftning o‘zgarishi — bular ana shu fojia oqibatlarning to‘liq bo‘hnagan ro‘yxatidir».

Sovetlar saltanatining O‘zbekistonda olib borgan qabohatli mustamlakachilik siyosati, boylik orqasidan quvish, ishlab chiqarishning yekstensiv yo‘ldan rivojlantirilishi, paxta yakkahokimligi, turli xildagi ximiyaviy zaharli moddalarning ishlab chiqarilishi va ulaming qishloq xo‘jaligida haddan ziyod ishlatilishi mamlakatimizda ayniqsa 80-yillarda halokatli tus olgan ekologik buhronni keltirib chiqardi. Nafaqat O‘zbekistonda, balki butun Turkiston o‘lkasida yekologik qabohatning dastlabki tamal toshini V.I.Lenin qo‘ygan edi. Biz bu yerda 1918-yil, 18-mayda V.I.Lenin imzolagan RSFSR Xalq Komissarlari Sovetining «Turkistonda sug‘orish ishlariga 50 million so‘m mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi» dekretni nazarda tutmoqdamiz. Aslida shu pul berilmagan edi. «Inqilobiy dohiysi» bu ajratilgan summani Mirzacho‘l yerlarini o‘zlashtirishga sarflashni nazarda tutib, o‘tgan asming 70-yillarda bu hududlarni «ilmiy tadqiqot» qilgan rus olimi N.F.Ulyanov, P.P.Semyonov-Tyanshanskiy xulosalariga suyangan.

V.I.Lenin boshlagan bu «tashabbus»ni Sovetlar hukumati Kommunistik firqa rahnamoligida rivojlantirdi. «SSSRda paxta mustaqilligi uchun kurash» amalda O‘zbekiston xalq xo‘jaligining ekstensiv yo‘l bilan bir tomonlama rivojlanishining bosh omili bo‘ldi va turg‘unlik yillarida ekologik buhronni kuchaytirdi. Ayni paytda Markaziy Osiyo sharoitidagi tog‘ reliefi, dasht

zonalarining yaqinligi, yuqori quyosh harorati va boshqa shuning singari geografik va iqlimiy xususiyatlar-yildan-yilga ortib bordi. Urbanizasiya jarayoni kuchayib sug'orma qishloq xo'jalik ekinlari maydonlari kengaydi, kommunikasiyalar o'tkazildi, o'rmonlar kesib yuborildi, suv resurslaridan oqilona foydalanilmadi, yerosti qazilma boyliklari ochiq usulda qazib olindi. Bu ishlar amalda tabiatga nisbatan shafqasizlik, zug'um edi. Tabiat ham albatta insondan o'ch olishi tabiiy bir holdir.

Mamlakatdagi ekologik qabohat aholi o'rtasida har xil kasalliklarning ko'payishiga olib keldi va katta fojialarga sabab bo'ldi. Katta yoshdagi kishilar va o'smirlar o'rtasidagi umumiy kasallanish 1979-yildagi 2466,5 kishidan 1990-yilda 3598,6 kishiga yetdi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1989-yilning o'zidagina asab sistemasi, teri, teri osti hujayralari kasalliklari 1,4 barobar, qon aylanishi sistemasining kasallamsh 1,3 baravar ko'paygan. Faol sil kasalligiga chalinish 3 foiz oshgan. Oshqozon-ichak, virusli gepatit kasalliklari ko'paydi, har xil shish kasalliklari kelib chiqdi.

Xotin-qizlarda kamqonlik kasalligi avjiga mindi, bolalar o'limi ko'paydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat og'ir bo'lgan mintaqalar-Orolbo'yi, Toshkent viloyati, ayniqsa Angren, Olmaliq, Chirchiq va Toshkent shahrida, Farg'ona vodiysining ko'pgina shaharlarida turli kasalliklarga chalinish yuqori darajadadir

Xullas, 90-yillarda mamlakat boshiga tushgan ekologik qabohat uzoq davom yetishi mumkin emas edi. Vujudga kelgan og'ir vaziyat yaxlit ijtimoiy-adolatli ekologik siyosat yuritishni talab qilayotgan edi.

14.6-§. XX asrning 80-yillarida O'zbekiston qishloq xo'jaligida salbiy holatlarning kuchayish

Uzoq yillar davomida sovet hukumati O'zbekistonni qishloq xo'jalik xom ashyosi, asosan paxta bazasiga aylantirishga harakat qilib keldi. Bu vazifa mashaqqat va katta yo'qotishlar evaziga hal qilindi. Umumittifoq mehnat taqsimotiga ko'ra, O'zbekiston qishloq xo'jaligi paxta yetishtirishga, bir qator

sanoat tarmoqlari esa paxtani dastlabki qayta ishlashga ixtisoslashtirildi. Oqibatda respublikada oziq-ovqat masalasi murakkablashdi. Chorvachilik mahsulotlari, g'alla, kartoshka, sabzavot, poliz ekinlari yetishtirish ko'rsatkichlari pasayib ketdi. Natijada oziq-ovqat mahsulotlari bilan tez sur'atlarda o'sib borayotgan aholi talabini qondirish muammolari keskinlashdi. Bu esa iqtisodiyotning bir yoqlama rivojlanishiga, aholi turmush darajasining pasayishiga olib keldi. Eng unumdor ekin maydonlari, sug'oriladigan yerlar g'o'za ekishga ajratildi. G'o'za oziq-ovqat ekinlarini yaroqsiz yerlarga, tog' oldi joylariga, qumloq va to'qay-larga surib chiqardi. Buning ustiga go'zaga haddan tashqari e'tibor berilishi boshqa ekin maydonlarini suvdan amalda mahrum etdi.

Markaz talabi bilan respublikadagi ko'pgina hayotiy muhim manfaatlarga ziyon yetkazib bo'lsa-da, urushdan keyingi yillarda tag'in paxta yakkahokimligi tarkib topdi. 70—80-yillarning o'rtalarigacha respublikada sug'orish tarmoqlari qurilishi keng miqyosda amalga oshirildi, paxta ekish uchun eng unumdor yerlar o'zlashtirildi. Natijada shu davrda paxtaga ajratilgan maydon 1709 ming gektardan 1989 ming gektarga yetdi. 1980-yilga kelib paxta maydonlarining salmog'i respublika bo'yicha o'rtacha 75%ga yetdi, Jizzax viloyatida u deyarli 80%ni, Andijon viloyatida 80%dan ko'proqni tashkil qildi. Hol-buki, paxta 60%dan ortiq maydonni band etsa, chirindi yo'qolishi, tuproqning sillasi qurishi, hosildan qolishi, oxir-oqibat yerning tamoman ishdan chiqishini fan allaqachon isbotlab bergan. Keyingi yillarda jahonda g'o'za ekinlari maydoni qisqardi, ammo paxta yetishtirish ikki baravar oshdi. Bunga gektar hosildorli-gini oshirish hisobiga erishildi. O'zbekistonda paxta maydoni ortdi, hosildorlik va sifat esa yomonlashdi.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi, iqtisodiyotga par-tiyaviy rahbarlik va uning haddan tashqari mafku-ralashtirilishi oqibatida jiddiy murakkabliklar yuzaga keldi. Qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish borasidagi ko'p urinishlar ham kutilgan natijani bermadi. Masalan, 1975— 1980-yillarda paxtachilikni rivojlantirish sohasida olimlar olib borgan tadqiqotlar natijasida paxtaning 20 ta yangi istiqbolli navlari yaratildi. Jumladan, paxta ekiladigan maydonlarning 65%ini ishg'ol etuvchi «Toshkent» navi ular ichida ancha serhosil chiqdi. Biroq bu kabi

yangiliklar ham umumiy hosildorlikni oshirish imkonini bermadi. Bunga mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanmaslik sabab bo'ldi. Paxta maydonlarini zo'r berib kengaytirib, hosildorlikni oshirishga yetarli e'tibor bermaslik natijasida, jumladan, 1971—1975-yillarda respublika bo'yicha paxtaning o'rtacha hosildorligi gektariga 28,5 sentnerni, 1981—1985-yillarda o'rtacha 26,7 sentnerni tashkil etdi. Buning natijasida 1976—1980-yillarda har-yili o'rtacha 5,3 mln t, 1981—1985-yillarda esa 5,1 mln t paxta yetishtirildi.

Bu yillarda qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini oshirish o'rniga yangi yerlar ochish, qurilishlarga va qo'shimcha ishlab chiqarish vositalarini jalb etishga ko'proq e'tibor berildi. Natijada paxtaning hosildorligi va sifati muttasil pasayib bordi, tuproqning sho'rlanishi oshib, ekinzorlarning ahvoli keskin yomonlashdi.

Paxtachilikning moddiy-texnik bazasi. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirishga katta e'tibor berildi. Ayniqsa, paxtachilikni rivojlantirish uchun ko'plab texnika jalb etildi. Bunda 1969-yili Toshkent traktor zavodining barpo etilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Paxtachilik uchun zanir mashina va uskunalari ishlab chiqarish ko'paytirildi. Faqatgina 1976—1978-yillar ichida shu soha uchun 9 turdagi yangi zamonaviy mashina yaratildi. 1979-yildan 1986-yilga qadar respublikada 12 mingta yangi, kabinalari maxsus jihozlangan paxta terish mashinasi ishlab chiqarildi. Paxtaga moslashtirilgan maxsus mashinalarni ishlab chiqarish paxtachilikni yanada kengaytirish imkonini berdi. Respublika paxta maydonlarida 1985-yili 40 mingta paxta terish mashinasi ishladi. Shu bilan birga, texnikaga ehtiyotsizlik bilan, xo'jasizlarcha munosabatda bo'lish, undan maqsadga nomuvofiq ravishda foydalanish, qishloq mehnatkashlarida xo'jayinlik hissining yo'qligi kutilgan natijalarni qo'lga kiritish imkonini bermadi. 1970-yilda yetishtirilgan umumiy hosilning atigi 28%i, 1985-yilda esa faqat 37%i mashinalarda terildi. Paxta terimiga har-yili yuz minglab shaharliklar jalb etilardiki, bu hol respublika iqtisodiyotiga ancha salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu davr mobaynida paxta terishni mexanizatsiyalashtirish darajasi ikki hissa pasaydi.

Qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirishning yangi texnologiyalari sust joriy etildi, qo'l mehnatini kamaytirishga jiddiy e'tibor berilmadi. Paxtachilikdagi eng

sermehnat jarayon — paxta hosilini yig'ib olish sust mexanizatsiyalashtirilganligi sababli og'ir jismoniy mehnat asosan ayollar zimmasida edi.

Qishloq xo'jaligi texnikasini yuqoridan belgilangan narxlarda sotib olish xo'jaliklar iqtisodiyotiga sezilarli zarar yetkazdi, ya'ni mehnat kuniga to'lanadigan haqning kamayib ketishiga, dehqonlarning moddiy ahvoli yomonlashishiga olib keldi. Chiqarilayotgan texnikaning ko'pchiligi sifatsiz yoki mahalliy sharoitga to'g'ri kelmas edi. Agar 1976—1980-yillarda respublika qishloq xo'jaligi 85 ming dona traktor olgan bo'lsa, shu yillar ichida ularning 12 mingtasigina ishlatildi. Hosildorlikni oshirish uchun ishlatiladigan mineral o'g'itlar ham nihoyatda qimmat narxlarda sotilardi. Ammo ularning ham ko'p turi mahalliy sharoitga to'g'ri kelmasdi. G'o'za bargini to'kish, zararkunandalarga qarshi kurashda ishlatiladigan zaharli ximikatlarda esa inson salomatligi uchun nihoyatda xavfli bo'lib, ayniqsa, qishloq aholisi salomatligiga katta ziyon yetkazdi.

70-yillarda odamlar zaharli ximikatlardan yoppasiga zaharlana boshladi. Bu hol respublika hukumatini muayyan choralar ko'rishga undadi. Aviatsiyadan foydalanish bir qadar qisqartirildi, dalalami yerda turib ishlashga keng o'rin berildi. o'simliklarni himoya qilish-ning biologik usullari qo'llanila boshlandi. Biroq paxta ekin maydonlarining kengayib borishi natijasida aviatsiya vositasida ishlov berishdan to'la voz kecbilmadi, bu hol odamlarning hayoti va salomatligi uchun avvalgidek xavfli bo'lib qolaverdi.

Yoppasiga kimyolashtirish, paxta dalalariga zaharli ximikatlarda yordamida ishlov berish tuproq, suv va havoning jiddiy zaharlanishiga olib keldi. G'o'za, g'alla, sabzavot ekinlari ekilgan yerlar va bog'lar tuprog'i olib tekshirilganida (1984-yil) unda, masalan, DDT moddasining miqdori yo'1 qo'ysa bo'ladigan sanitariya normalaridan 2—3 baravar oshiqdigi aniqlangan. Farg'ona va Xorazm viloyatlarida paxta maydonlari tuprog'ining ifloslanishi sanitariya normalaridan 8—10 baravar yuqori bo'lib chiqqan. Zaharli ximikatlardan qishloq xo'jaligida keng foydalanish biologik va ekologik oqibatlardan tashqari jiddiy ijtimoiy oqibatlarga ham olib keldi: kasalliklar soni ortib, ayniqsa, bolalar o'rtasida o'lim hollari ko'paydi, ayollar salomatligi yomonlashdi.

Qishloq mehnatkashlarining ahvoli. Oziq-ovqat yetkazuvchi qishloq xo'jaligi respublika ehtiyojlarini aslo qondirmas edi. O'zbekistonda aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish belgilangan fiziologik me'yorlardan ancha kam bo'ldi. Mustabid sovet hukumati olib borgan siyosat tufayli paxta hosilini oshirish ketidan quvish respublikada oziq-ovqat muammosini hal qilish imkoniyatlarini cheklab qo'ydi. Natijada respublikada aholi jon boshiga go'sht, sut, kartoshka, sabzavot va poliz ekinlarini iste'mol qilish ancha kamaydi. Sabzavot-poliz mahsulotlari iste'moli bo'yicha O'zbekiston boshqa respublikalar o'rtasida 5-o'rinni, meva va rezavor iste'moli bo'yicha 13-o'rinni egallagan. Respublika aholi jon boshiga ishlab chiqarishda milliy daromad miqdori bo'yicha ittifoqdagi o'rtacha ko'rsatkichdan 3 baravar orqada edi. Past milliy daromad mehnatkashlarning maoshi kamayishiga, ayniqsa, qishloq aholisining moddiy ahvoli yomonlashishiga olib keldi. Buning asosiy sababi O'zbekistonda paxta, pilla va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlariga belgilangan xarid narxlarining juda past bo'lganligi edi.

Paxtachilikni rivojlantirishdan O'zbek xalqi manfaatdor bo'lmadi. Chunki u mehnatga haq to'lashning past me'yorlariga asoslangan edi. Paxtakor g'allakor, kartoshka va karam yetishtiruvchiga nisbatan bir necha baravar ko'p va og'ir mehnat qilsa-da, ulardan kam haq olardi. 80-yillarning o'rtalarida ham, 70-yillardagi singari, dehqonga mavsum boshida terilgan paxtaning har kilosi uchun bor-yo'g'i 4 tiyindan haq to'lanardi. Demak, terimning kunlik texnologik normasi 48 kg bo'lganda 1 so'm 92 tiyin ishlay olardi, xolos. Bir tonna paxta yetishtirishga 30 baravar ko'p sarf-xarajat ketsa-da, xarid narxlari atigi 4-5 baravar farq qilardi.

Ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligi xom ashyosiga narxlarda katta nomuvofiqlik bo'lgan. Bu birinchi navbatda mehnat haqi darajasiga ta'sir ko'rsatgan. Respublikamizda bu ko'rsatkich ittifoqning boshqa hududlariga nisbatan ancha past bo'lgan. Chunonchi, qishloq xo'jaligi xodimining 80-yillar o'rtalaridagi yillik mehnat haqi ittifoq bo'yicha 2200 so'mni, O'zbekistonda esa 1753 so'mni tashkil etardi, ya'ni 21% kam edi.

Qishloq aholisining shaxsiy tomorqa xo'jaliklariga e'tibor berilmadi.

Mexanizatsiya darajasining pastligi natijasida ekish, ayniqsa, o'rib-terib olish muddatlari uzayib ketardi, bu esa unumdorlikni pasaytirib yuborar-di. Tomorqa xo'jaliklarining hajmi-yildan-yilga qisqarib bordi. Bu qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari pasayishiga, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashning yomonlashuviga olib keldi. Tomorqa uchastkalarining maydoni 0,07 - 0,13 gektardan oshmasdi. Bundan tashqari, bir necha yuz ming qishloq aholisida umuman tomorqa yeri yo'q edi. Oqibatda O'zbekiston oziq-ovqat iste'moli, umuman, turmush darajasi bo'yicha ittifoqda oxirgi o'rinlardan biriga tushib qoldi.

O'zbekistonda paxta yakka xokimligining ikkinchi davri XX asrning 30 – yillarida, sobiq sho'rolar davrida shakillandi. Sobiq sho'rolar tuzumi iskanjasida bo'lgan davrda O'zbekiston, asosan, paxta ekishga ixtisoslashgan bo'lib, SSSRda yetishtirilgan paxtaning uchdan ikki qismini yaratib, SSSR sanoat markazlarining va hatto butun socialistik tuzimning xomashyo bazasiga aylanib qolgan edi. Respublikaning barcha iqtisodiy resurslari paxta kompleksi deb atalgan majmuaga yo'naltirilib, xo'jalikning boshqa sohalari e'tiborsiz qoldirildi. Paxta yakkaxokimligining vujudga kelishi oqibatida respublikaning don va undan olinadigan o'ta muhim oziq – ovqat xom ashyosi turlari go'sht va sut bo'yicha, ya'ni eng zarur oziq–ovqat ta'minoti bo'yicha markazga, boshqa respublikalarga qaramligi vujudga kelgan edi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda ikkinchi jahon urishidan keyingi yillarda Respublika aholisi jon boshiga go'sht va go'sht mahsulotlari istemoli 1980-yilda 31 kg, 1987-yilda 29 kg ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatgich sobiq ittifoqda 62 – 64 kg, ho'l meva va sabzavot istemoli bizda 170 – 173 kg, ittifoqda 260 – 270 kg dan ortiq bo'lgan.

Vaholanki bu davrda Respublika aholisining non va non mahsulotlari istemoli ittifoq darajasidan bir necha baravar yuqori bo'lib, aholi jon boshiga bu mahsulotlarni istemol qilinishi o'rtacha 1980-yilda 177 kg, 1987-yilda esa 217,2 kg ni tashkil etgan. Bu juda ayanchli ahvol, chunki tibbiy xulosalarga ko'ra sog'lom inson bir-yilda 100 – 110 kg non va non mahsulotlari istemol qilishlari

mumkin. Undan ko‘p istemol qilish insonda turli xil kasalliklarni: noo‘rin semirish, keraksiz vaznning ortishi esa yurak – qon tomirlarda turli xil kasalliklarni ko‘payishiga olib keladi.

Qishloq axolisini ijtimoiy ahvolini yaxshilashga e‘tibor susayib bordi. 1966–1970 yillarda qishloqlarning ijtimoiy sohadagi ahvolini yaxshilash uchun 21,9 % kapital mablag‘ ajratilgan bo‘lsa, 1981–1985 yillarda bu ko‘rsatgich 19,4 % ga tushib qoladi.

XX asrning 70–80 yillarida O‘zbekistonda aholini sog‘ligini saqlash darajasi ham-yildan-yilga pasayib borgan. 1981–1985 yillarda qishloq aholisi sog‘iligini yaxshilash uchun 48 mln rubl kapital mablag‘ ajratilgan bo‘lsa, bu mablag‘ umuman o‘zlashtirilmagan. O‘zbekistondagi 8% sog‘liqni saqlash idoralari avariya holatda ish olib borgan. Ularning 2/3 qismida kanalizasiya tizimi bo‘lmagan. Vaholanki bu davrda O‘zbekistonda qishloq joylarida aholining 17,6 % gaz bilan ta‘minlangan. 50% xonadonlarda vodoprovod tizimi bo‘lmagan, 99,5% aholi uylari kanalizatsiyaga ulanmagan.

O‘zSSR oblastlarida tomorqa yer uchastkalari ajratish to‘g‘risidagi 1989 yil 1 oktabrgacha bo‘lgan ma‘lumot

Oblastlar	Yer uchastkasi olgan oilalar	Ajratilgan yer (gektar hisobida)
QQASSR	1400	350
Andijon	15216	1250
Buxoro	24340	5114
Qashqadaryo	0	0
Namangan	31467	2608
Samarqand	10330	1013
Surxondaryo	3010	301
Sirdaryo	750	73
Toshkent	11847	1190
Farg‘ona	18376	1905
Xorazm	4326	638
<i>Respublika bo‘yicha</i>	<i>121056</i>	<i>14444</i>

Paxta yakkahokimligi tufayli ilmiy jihatdan asoslangan almashlab ekish tizimi buzilgan. O‘tgan asrning 60–80 yillarida Respublikada paxta maydonlariga

beda va makkajo‘xori hamda boshqa ekinlarni almashlab ekish atigi 14% ni tashkil etgan. Bu ahvoldan shu narsa ma’lumki asosiy yer maydonlariga o‘n yillar davomida doimiy paxta ekib kelingan. Buning oqibatida yerning xosildorligi-yildan-yilga kamayib bordi, unumdorligi pasaydi.

Paxta yakkahokimligi tufayli ilmiy jihatdan asoslangan almashlab ekish tizimi buzildi, yer o‘z hosildorligini yo‘qota bordi. Uning oqibatida paxta hosildorligi har gektar yerdan 25–29 sentnerdan oshmadi. Hatto Samarqand viloyatidagi ba’zi tumanlardagi paxtachilikka xoslashgan xo‘jaliklar har gektar yerdan 7–9 sentnerdan hosil olgan, xolos. Voholanki bu davrda ba’zi paxta yetishtirib, beruvchi rivojlangan davlatlar har gektar paxta maydonidan 65 – 70 sentnerdan (Isroil misolida) hosil olishgan.

Paxta yakkahokimligining kuchayishi qishloq xo‘jaligining ko‘plab sohalarini qaloqlikka olib keldi. Paxta maydonlarining ko‘payishi avvalambor aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari, tomarqa xo‘jaliklarini qisqarishi evaziga amalga oshirildi. O‘tgan asrning 50-yillari oxirlarida respublika rahbarlarining tashabbusi bilan sug‘oriladigan yerlarda tomarqalar hajmi o‘rtacha 25 sotxdan 13 sotxga, hatto ba’zi viloyatlarda 8 sotixga, bora–bora 6 va 3 sotixga tushirilgan. Ayniqsa bunday holat Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida ommaviy tus oldi. Bunday sharoitda o‘zbek oilasi qanday qilib o‘z oilasini go‘sht mahsulotlari, poliz ekinlari, meva va boshqa oziq–ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashi mumkin edi. Oqibatda bunday turdagi oziq–ovqat mahsulotlarining tanqisligi sezildi, bozorlarda narx–navo osha boshladi. Bunday tovarlarni chetdan respublikamiz hududiga olib kelish ko‘paydi. Bu esa xalqimiz boyligini talon –taroj qilinishiga olib keldi.

“Ma’lumki, - deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov, - sobiq tuzum davrida respublikamizning iqtisodiyoti bir tomonlama rivojlangan faqat xom ashyo yetishtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ma’lum salbiy oqibatlarga olib kelgan paxta yakkahokimligi avjiga chiqqan edi. O‘zbekiston o‘zining qaloq ishlab chiqarish va sosial infrotuzilmasi bilan sobiq ittifoqda jon boshiga istemol darajasi bo‘yicha eng past o‘rinda turardi”

Shuni ta'kidlab o'tish joizki O'zbekistonda yetishtirilgan paxtaning 95% ini shu yerda qayta ishlamasdan, respublikadan tashqariga olib chiqib ketilgan. O'zbek paxtasi qayerda qayta ishlansa asosiy foydani o'sha joy ko'rgan. Chunki bu davrda Respublikada qishloq xo'jalik mahsulotlarining qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari yetarli emas edi. Respublikadagi bunday muammoga markaz "panja orasidan" qarab kelgan.

Xulosa qilib aytganda Respublika qishloq xo'jaligida sobiq ittifoq davrida amalga oshirilgan paxta yakkaxokimligi o'lkada juda ko'plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Paxta maydonlarining tinimsiz ortib borishi Mirzacho'l, Jizzax, Qarshi va boshqa hudularda cho'llarning o'zlashtirilishi oqibatida Respublikada XX asrning 60 yillarida ichimlik suvi, uy-joy, aholi sog'ligi hamda eng katta global masala bo'lgan Orol fojeasi muammosini keltirib chiqardi. Bunday muammolarni bartaraf etish Mustaqil vatanimiz, xalqimiz, qolaversa biz yoshlarning kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifasidir

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

- 1. O'zbekiston qishloq xo'jaligini harbiy izga o'tkazish, urush davri ehtiyojlarini qondirish jarayonlari qay tarzda amalga oshirildi.*
- 2. Urush yillarida qishloq xo'jalik ahlining mehnat jasoratlari haqida so'zlab bering.*
- 3. O'zbekiston qishloq mehnatkashlarining g'alabaga qo'shgan hissasi nimadan iborat bo'ldi?*
- 4. O'zbek xalqining front ortidagi mashaqqatli mehnati to'g'risida misollar keltiring.*
- 5. Nima maqsadda O'zbekistonda ko'p tarmoqli qishloq 'jaligi tugatildi va paxta monokulturasi shakllantirildi?*
- 6. Urushdan keyingi dastlabki davrda paxtachilikning mod-diy-texnik bazasi qanday ahvolda edi?*
- 7. Paxtachilikda zaharli ximikatlarning keng ishlatilishi qan-day salbiy oqibatlarga olib keldi?*

8. *Nima uchun respublika dalalarida ko'proq paxta ekiladi-gan bo'ldi?*
9. *Nima sababdan paxta yakkahokimligi O'zbek xalqining mil-liy manfaatlariga mos kelmas edi?*
10. *Mirzacho'l, Qarshi dashtlari, Surxon-Sherobod vodiysini o'zlashtirish to'g'risida so'zlab bering.*
11. *Oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishdagi og'ir ahvolning sabablarini tushuntirib bering.*
12. *Shaxsiy tomorqa xo'jaliklari faoliyatining cheklanganligi nimalarda ko'rindi?*
13. *Mirzacho'l, Qarshi, Surxon-Sherobod cho'llarini o'z-lashtirish uchun qanday yirik suv inshootlari bunyod etildi?*
14. *Qo'riq yerlarni o'zlashtirishdan Markaz qanday maqsadni ko'zladi?*
15. *Ittifoq hukumati aybi bilan cho'llarni o'zlashtirishda yo'I qo'yilgan xatolar qanday yomon oqibatlarga olib keldi?*
16. *Paxta ekin maydonlarining kengayishi qanday ekologik muammolarni keltirib chiqardi?*
17. *Tabiat muvozanatining buzilishiga sabab bo'lgan qanday omillarni bilasiz?*
18. *Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik vaziyatga baho bering.*
19. *Orol fojiasini misollar bilan ko'rsating.*

15-mavzu. Mustaqillik yillarida yer va suv munosabatlari.

Reja:

15.1-§. Qishloq xo‘jaligining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati;

15.2-§. Mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan agrar iqtisodiy islohotlarning asosiy yo‘nalishiari;

15.3-§. Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslari, ulardan samarali foydalanish yo‘llari.

Tayanch iboralar: *Bozor iqtisodiyoti, xususiylashtirish, fermer xo‘jaliklari “Yer to‘g‘risidagi qonun” mulkiy islohotlar; institusional va moliya-kredit islohotlari; agrar islohotlar; Tadbirkorlik shakllari: Kichik biznes qishloq xo‘jalik shirkatlari.*

15.1-§. Qishloq xo‘jaligining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati

Mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi tarmog‘i muhim ahamiyatga ega. Chunki respublikamiz aholisining 48,4 foizi qishloq joylarda istiqomat qiladi va ularning turmush farovonligi mazkur tarmoq rivoji bilan uzviy bog‘liqdir. Bundan tashqari mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida ham qishloq xo‘jaligi tarmog‘i sezilarli salmoqqa ega. Qishloq xo‘jaligi tannog‘i mamlakatimiz agrosanoat majmuasining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, uning quyidagi ahamiyati mavjud:

Birinchidan, u aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlaydi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashda mazkur tarmoqning o‘rni beqiyosdir, chunki aholi iste‘mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlari asosan qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida yetishtiriladi.

Ikkinchidan, qishloq xo‘jaligi yengil va oziq-ovqat sanoati uchun xom ashyoning asosiy qismini yetkazib beradi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanish darajasi sanoat ushbu sohalarining ishlab chiqarish miqdori va

samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, to'qimachilik sanoatida barcha moddiy xarajatlarning 40 foizini qishloq xo'jalik xomashyosi tashkil qilsa, ushbu ko'rsatkich qand ishlab chiqarish sanoatida 70 foizni, sut va yog' mahsulotlari ishlab chiqarishda esa 80 foizga yaqinni tashkil qiladi.

Uchinchidan, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi mamlakat og'ir sanoatining rivojlanish sur'atiga va darajasiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi tarmog'i yirik miqdorda ishlab chiqarish vositalarini iste'mol qilgani holda, qishloq xo'jalik texnikalari va melioratsiya mashinalari ishlab chiqaruvchilar hamda qishloq xo'jalik mashinasozligi, kimyo sanoati, ayniqsa mineral o'g'itlar ishlab chiqarishga faol ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ketadigan moddiy xarajatlarning asosiy qismini sanoat tarmog'i yetkazib beradigan ishlab chiqarish vositalari tashkil qiladi (YMM, ehtiyot qismlar, mineral o'g'it, omuxta yem va boshqalar).

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligi tarmog'i mehnat resurslarini ish bilan ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 50 foizga yaqini qishloq joylarda istiqomat qiladi. Aholini ish bilan ta'minlash, ularning turmush farovonligini oshirish ko'p jihatdan mazkur tarmoqda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning natijalariga bevosita bog'liqdir. Bu tarmoqda 2000-yilda 3,7 mln. kishi band bo'lgan bo'lib, u iqtisodiy faol aholining 38 foizini tashkil etgan. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligida band bo'lganlarning jami mehnat resurslaridagi salmog'i pasaygan bo'lsada, ushbu tarmoq qishloq aholisini ish bilan ta'minlash va ularning turmush farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi roli yana shu bilan aniqlanadiki, u mamlakatning iqtisodiy salohiyatini belgilab bemo'vchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda ham sezilarli salmoqqa ega. Bu tarmoqda mamlakat yalpi ichki mahsulotining salmoqli qismi yaratiladi. 2010-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 17,5 foizi qishloq xo'jaligi

tarmog'ida yaratilgan. Kelajakda boshqa tarmoqlar izchil rivojlanishi natijasida qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi kamayishi mumkin. Lekin mamlakatimiz iqtisodiyotida mazkur tarmoqning o'рни va ahamiyati sezilarli darajada qolaveradi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari va ulami qayta ishlash hisobiga olingan mahsulotlar mamlakatimiz jami eksporti tarkibida sezilarli salmoqni egallaydi. Masalan, 2009-yilda mamlakatimiz eksportining 8,6 foizi faqatgina paxta tolasi hissasiga to'g'ri kelgan.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida bozor iqtisodiyoti talablariga mos iqtisodiy munosabatlarni shakllantiradigan, huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta'minlash imkoniyatini beradigan tadbirlar ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmoqda.

Bunda sohaga oid turli dasturlarning qabul qilinib, hayotga tatbiq etilishi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Natijada qishloq xo'jaligining yuqori sur'atlarda rivojlanishini ta'minlash va shu orqali respublika iqtisodiyotini yuksaltirishga erishilmoqda.

15.2-§. Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan agrar iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishi

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan agrar sohani rivojlantirishda qator iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Qishloq xo'jaligida turli mulkchilikka asoslangan erkin tovar ishlab chiqaruvchi subyektlar shakllandi. Dehqonlarning mulkka egalik hissining ortishini, erkin iqtisodiy faoliyat yuritishini, daromadlarini o'z xohishiga ko'ra mustaqil taqsimlash hamda tasarruf etish imkoniyatini beradigan xo'jalik yuritish shakllarini mazkur tarmoqqa joriy etishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti LA.Karimov «Agrar sektorni tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirish muammolari islohotlarning dastlabki bosqichida hamda O'zbekistonning bozorga o'tish strategiyasida hal

qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Biz qishloqning ustun darajada rivojlanishini ta'minlashni, qishloq xo'jaligini sifat jihatidan yangi asoslarda qayta tiklashni o'z oldimizga vazifa qilib qo'ydik»⁷⁶, - deb ta'kidlagan edi. Davlatning bosh islohotchiligida qishloq xo'jaligida bozor iqtisodiyoti munosabatlarini barpo etish maqsadida islohotlarning huquqiy asoslari yaratildi va amalga oshiriladigan tadbirlar majmuasi ishlab chiqildi.

Mamlakatimizda davlat rahbarligida qishloq xo'jaligini moliyalashtirish, kreditlash hamda soliqlar tizimlari ishlab chiqilib, ular hayotga bosqichma-bosqich tatbiq qilinmoqda. Davlat, shuningdek, fan, texnika, ilg'or va samarali texnologiyalar tizimlarini tarmoq miqyosida ishlabnchiqishga ham, qishloq aholisini ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilishga ham rahbarlikni amalga oshirmoqda.

Qishloq xo'jaligida mustaqillikning dastlabki yillarida davlatning bevosita rahbarligida agrar islohotlarning negizi hisoblangan yer va mulk islohotlari, mazmunan yangi fermer, dehqon xo'jaliklari va qo'shma korxonalar tashkil etildi va bu jarayon takomillashtirib borilmoqda.

Davlat qishloq xo'jaligi bilan bogiiq boigan tarmoqlami ham (xizmat ko'rsatuvchi, qayta ishlovchi, sotuvchi) isloh qilishga alohida e'tibor bermoqda.

Natijada bu tarmoqlardagi davlat korxonalari davlat aksiyadorlik korxonalariga, tashkilotlariga aylantirildi. Masalan, paxta zavodlari, un, non, yog'moy, go'sht kombinatlari, konserva zavodlari hissadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Natijada shu tamioqlarda bozor munosabatlarini erkin amalga oshirish imkoniyatiga ega borgan turli shakldagi mustaqil korxonalar, birlashmalar, uyushmalar tashkil etildi. Ulaming serqirra faoliyatlarini samarali boshqarishni ta'minlash qobiliyatiga ega boigan tarmoq tashkilotlari ham davlatning bevosita rahbarligida tashkil etilib, takomillashtirilmoqda.

Shu bilan birgalikda «O'zpxatasanoatsotish» uyushmasi, «O'zdonmahsulot» davlat-aksiyadorlik korporatsiyasi, Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr qo'mitasi, «O'zqishloqxo'jalikta'minottuzatish» davlat kooperativ

⁷⁶ Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlami chuqurlashtirish yo'lida», T.: «O'zbekiston», 1995, 59-60 betlar

kompaniyasi, «O‘zqishloqxo‘jalikkimyo» davlat aksiyadorlik jamiyati, «O‘zagromashservis» uyushmasi, «O‘zagrosug‘urta» davlat aksiyadorlik kompaniyasi, «O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing» aksiyadorlik kompaniyasi, O‘zbekiston fermer xo‘jaliklari uyushmasi va boshqalar tashkil etildi. Islohotlar faqat tarmoqlarda yangi vazirliklar, konsemlar, kompaniyalar tashkil etishgagina emas, balki qishloq xo‘jaligi va u bilan bog‘liq bo‘lgan xo‘jaliklar va tarmoqlarning boshqaruv tizimini bozor iqtisodi talablariga moslashtirishga qaratilmoqda. Davlat rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar tarmoqqa ichki hamda chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratmoqda. Bular pirovard natijada qishloq xo‘jaligining yanada rivojlanishini, samaradorligi oshirishini ta’minlaydi.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan islohotlardan yana biri - tarmoqda yer va suv resurslaridan unumli foydalanish mexanizmlari ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etildi. Chunki, yer va suv resurslaridan foydalanishni tartibga soluvchi me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Ularda respublikamizda yer va suvga egalik qilish, ulardan maqsadga muvofiq hamda samarali foydalanish borasidagi munosabatlar tizimi va ularni amalga oshirish tartibi ko‘rsatilgan. Yer-suv resurslariga egalik qilishning huquqiy asosi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida «Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralarni umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir»⁷⁷ - deb belgilab qo‘yilgan.

Respublikamiz jami yer maydoniga umummilliy boylik, davlat mulki sifatida egalik qilish huquqi O‘zbekiston Oliy Majlisi zimmasiga yuklatilgan. Oliy Majlis o‘z vakolatidagi yer munosabatlarining ayrim masalalarini xalq deputatlari qishloq, shahar, tuman hamda viloyat kengashlari va ularning ijroiya qo‘mitalari zimmasiga yuklagan. Ular yuqorida keltirilgan me‘yoriy hujjatlar talablaridan kelib chiqqan holda yerlarni ulardan oqilona, samarali foydalanish

⁷⁷ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, -T.: «O‘zbekiston», 2008

maqsadida foydalanuvchilarga ma'lum muddatga haq to'lash evaziga foydalanish uchun bermoqdalar. Demak, ular yer islohotini amalga oshirishga mas'uldirlar. Chunki ular yerlarni samarali foydalanish uchun haqiqiy egasiga berish bilan bogliq bo'lgan masalalarni hal etadilar.

Shu bilan birgalikda respublika fuqarolariga shaxsiy yordamchi xo'jaliklarini yuritish hamda yakka tartibdagi uy-joy qurilishi va uni obodonlashtirish uchun meros qilib qoldirish sharti va umrbod egalik qilish huquqi bilan belgilangan miqdorda yer berilmoqda. Demak, shu qoidaga muvofiq yemi avloddan-avlodga meros qilib qoldirish ta'minlangan, ya'ni shu yerlarga egalik qilish hamda ulardan foydalanish huquqi fuqarolarga umrbod berilgan. Bu respublikamiz yer islohotidagi eng muhim yutuq hisoblanadi.

Lekin fuqarolar qonunlarda ko'rsatilgan shartlarni buzadilar, ularning yerga merosxo'r sifatida egalik qilish huquqi yuqoridagi tashkilotlar tomonidan bekor etilishi ham ko'rsatilgan. Islohot natijasida respublika qishloq hududlarida yashayotgan fuqarolarga umrbod foydalanish uchun 1990-2002-yillar davomida 600 ming gektarga yaqin qishloq xo'jalik yerlari berildi. Bu maydon Andijon viloyatining qishloq xo'jalik yerlariga nisbatan 2,2 marta, Farg'ona viloyatiga nisbatan 1,8 barobar ko'pdir. Yerlarni berish natijasida 3,2 mln. dan ortiq oilaning yer bilan ta'minlanganlik darajasi hozirgi davrda qondirilgan.

2001-yilning boshiga kelib mamlakat aholisi ixtiyorida 625,8 ming gektar tomorqa yerlari bor edi. Aholi o'zlariga berilgan yerga qonun doirasida egalik qilish hamda undan samarali foydalanish natijasida yurtdoshlarimizni qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlashga ulkan hissa qo'shmoqda.

Aholiga yer maydonlarining berilishi ulaning uy-joyga bo'lgan talabini qondirish, mahsulotlar yetishtirish orqali o'z daromadlarini ko'paytirish va eng asosiysi, ularning ish bilan bandligini ta'minlashga, turmush farovonligini oshirishga juda katta hissa qo'shdi. O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimov tomonidan mazkur islohotning amalga oshirilishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyatga egadir.

Bozor iqtisodiga o'tish sharoitida mulkchilikning turli shakllari va erkin mulk munosabatlari mavjud boiishi, bunda xususiy mulkchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor berilishi lozimligini inobatga olib, hukumatimiz tomonidan ularning huquqiy asoslari yaratildi: «Mulk to'g'risida», «Ijara to'g'risida», «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi qonunlar va ko'pgina qarorlar, farmonlar qabul qilindi. Shularga asoslangan holda tarmoqda bosqichma-bosqich mulkchilikning turli shakllari tashkil etildi.

Masalan, Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq 1992-yilda 224 ta davlat xo'jaligi oqtisodiy ahvoli nochor boiganligi uchun jamoa xo'jaliklariga, ulaming mulki esa jamoa mulkiga aylantirildi. Qishloq xo'jaligida mulkni davlat tasarrafdand chiqarish va xususiylashtirish jarayoniga alohida e'tibor qaratildi. Xususiy mulkchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor berildi. Chunki haqiqiy mulk egasiga aylangan qishloq ahli undan oqilona hamda samarali foydalanishi tabiiy.

Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini shakllantirish maqsadida moliya, soliq, kredit hamda baholar tizimini isloh etishga ham e'tibor berildi. Chunki davlat mulkchiligiga asoslangan korxonalaming faoliyati davlat tomonidan moliyalashtirilar, yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining xarid baholari davlat tomonidan rejali tarzda belgilanar edi. Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida esa korxonalar ishlab chiqiishi uchun zamm bo lgan mablag'larni o'zlari ishlab topishlari kerak.

Mablag' yetishmagan hollarda uni chetdan o'zaro manfaatli tarzda qarzga olishi, ishlab chiqargan mahsulotlarini esa bozor talablari asosida sotishga harakat qilishlari lozim.

Bu o'rinda ta'kidlash kerakki, qishloq xo'jalik yerlariga, yirik irrigatsiya-melioratsiya inshootlariga nisbatan davlat mulkchiligi saqlanib qolishi maqsadga muvofiq. Yangi yerlarni kompleks o'zlashtirish, foydalalayotgan yerlarning unumdorligini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari, yirik irrigatsiya-melioratsiya inshootlarini qurish, ta'mirlash va ulardan foydalanish uchun

davlat byudjetidan mablagʻ ajratilmoqda. Qishloq hududlarida ekologik muhitni sogiomlashtirish bilan bogʻliq boʻlgan tadbirlarga, qishloq xoʻjahidagi urugʻchilik, seleksiya, naslchilik, veterinariya sohalariga ham davlatning koʻmagi zarur hisoblanadi.

Oʻtish davrining dastlabki bosqichida davlat ehtiyojlari uchun talab etiladigan paxta, gʻalla, sholi yetishtirishni moliyalashtirish davlat byudjetidan maxsus transh mablagiari orqali amalga oshirilar edi. Lekin bu mablagʻlardan yanada unumli foydalanishni taʼminlash maqsadida qishloq xoʻjalik ishlab chiqaravchilariga imtiyozli kreditlar berish tizimi yoʻlga qoʻyildi va u oʻzini oqlamoqda.

Qishloq xoʻjaligida soliqlar tizimi ham takomillashtirib borilmoqda. 1999-yilgacha qishloq xoʻjalik korxonalari daromad, yer, suv, mulk va boshqa turdagi soliq va toʻlovlarni toʻlar edilar. 1999-yilning 1-yanvaridan boshlab qishloq xoʻjalik korxonalari yagona yer soligʻini toʻlamoqdalar. 2011-yil holatiga yagona yer soligʻi stavkasi yerning meʼyoriy qiymatining 6 foizi miqdorida belgilangan. Yagona yer soligʻining joriy etilishi xoʻjaliklar uchun ancha qulaylik yaratmoqda. Chunki mazkur holat soliq miqdorini yerlarning holati, unumdorligi va ekilgan ekin turiga qarab hisoblashga imkon yaratdi hamda soliqlarni hisoblash va toʻlash jarayonlarini ancha soddalashtirdi.

Keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash boʻyicha ham koʻpgina islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu sohaga taalluqli 2008-2012-yillarga moʻjallangan Davlat dasturi qabul qilindi, maxsus jamgʻarma va ixtisoslashgan lizing kompaniyasi tashkil etildi hamda koʻplab meʼyoriy hujjatlar qabul qilindi.

Prezidentimiz tomonidan 2009-yil “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi-yili” deb eʼlon qilindi va maxsus Davlat dasturi ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etildi. Ushbu dasturda qishloq xoʻjaligini yanada rivojlantirish bilan bir qatorda qishloqlarda hayot darajasini oshirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, qishloqlarimizning qiyofasini zamonaviylashtirish,

qishloq aholisi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratib berishga alohida e'tibor qaratildi.

Barcha sohada boigani singari, bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo'jaligida ham tadbirkorlik faoliyatiga e'tibor berish va unga keng imkoniyatlar yaratib berish taqozo etiladi. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik — foyda olish maqsadida tavakkalchilikka asoslangan holda mavjud me'yoriy hujjatlar asosida mulkchilik subyektlarining qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish, ulami qayta ishlash va sotish hamda xizmatlar ko'rsatish sohalarida faoliyat ko'rsatishidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik qishloq xo'jaligida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Bu jarayonda ular O'zbekiston Respublikasining «Mulk to'g'risida»gi, «Korxonalar to'g'risida»gi hamda «Tadbirkorlik to'g'risida»gi qonunlari talablariga qat'iy rioya etishlari zarur. Ular faoliyatlarini samarali amalga oshirishlari uchun mustahkam iqtisodiy negizga ega boiishlari kerak. Ularning iqtisodiy negizini esa mulk tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida mavjud me'yoriy hujjatlarga binoan qishloq xo'jaligida mulkning quyidagi shakllari mavjud:

1. Xususiy mulk. Bu shakldagi mulk egasi o'z mol-mulkiga xususiy tarzda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlariga ega. Xususiy mulk mulkdorning ishlab chiqarish jarayonida o'z mehnati va yollanma mehnatni qo'llashi orqali shakllanadi.

2. Jamoa mulki. Bu mulk tarkibiga qishloq xo'jaligidagi jamoa korxonalarining, shirkat (kooperativ) xo'jaliklarining, hissadorlik jamiyatlarining, agrofimalarning va boshqa shu kabilaming mulklari kiradi.

3. Aralash mulk. Bu mulk ikki yoki undan ortiq turdagi mulkchilik shakllarining o'zaro manfaatli uyg'unlashishi natijasida shakllanadi. Jumladan, davlat va jamoa mullkining o'zaro birikishi natijasida aralash mulk tashkil boradi.

4. Davlat mulki. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi bilan shug'ullanadigan davlat korxonalarining mulki. Bunday mulk shakli ilmiy

tadqiqot institutlariga qarashli tajriba xo‘jaliklarida saqlanib qolgan. Bundan tashqari, davlat mulki urug‘chilik va naslchilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklarda ham saqlanib qolgan. Ushbu sohalar qishloq xo‘jaligining rivojlanishi uchun muhim hisoblanganligi sababli ular davlat tasarrufida bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligida 1991-yildan boshlab siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy ahamiyatga ega boigan tub agrar-iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Davlat bosh islohotchi boigan bu jarayonda tarmoqdagi davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarishga, negizida xususiy mulkchilikni va shunga asoslangan tadbirkorlik shakllarini tashkil etishga asosiy e‘tibor qaratilmoqda. Bunda yerga umummilliy boylik sifatidagi davlat umumxalq mulkchiligi saqlab qolinmoqda. Boshqa mulklar esa davlat tasarrufidan bosqichma-bosqich chiqarilib, xususiylashtirilmoqda. 1990-yilda davlat mulkchiligiga asoslangan xo‘jaliklar, ya’ni davlat xo‘jaliklari 1038 ta edi. Ular O‘zbekistonda XX asming 30-yillarida tashkil etila boshlangan.

Respublikaning Qarshi va Mirzacho‘l, Surxon-Sherobod, Markaziy Farg‘ona hududlarida yangi yerlarni o‘zlashtirish natijasida keng miqyosda davlat xo‘jaliklari tashkil etildi. Davlat xo‘jaliklarining tashkil etilishida davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘ evaziga ishlab chiqarishni tashkil etish hamda yuritish uchun zarur boigan barcha ishlab chiqarish vositalarini davlat tomonidan o‘rnatilgan baholarda sotib olinar edi. Ulardan foydalangan holda faoliyat yuritib, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarini davlat tomonidan belgilangan xarid narxlarida davlatga qarashli tayyorlov tashkilotlariga sotar edilar va olingan daromad davlat moliya organlari tomonidan o‘raatilgan tartibda taqsimlanar edi. Bunda asosiy e‘tibor davlat manfaatlarini rivojlantirishga qaratilgan boilib, davlat xo‘jaliklariga iqtisodiy erkinlik berilmagan edi. Shuning uchun ular yuqori tashkilotlar tomonidan belgilangan qonun-qoidalarga bo‘ysungan holda qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish bilan shug‘ullanar edilar. Ular asosan paxtachilik, g‘allachilik, bog‘dorchilik, chorvachilikka ixtisoslashgan bo‘lib, respublikada yetishtirilayotgan

mahsulotlarning sezilarli qismini ishlab chiqaradilar. Bu xo'jaliklarning respublikada yetishtirilgan yalpi qishloq xo'jalik mahsulotidagi ulushi 1990-yilda 37,5 foizni tashkil etgan. Lekin ular iqtisodiy negizi, faoliyat yuritish mazmuni bo'yicha erkin bozor iqtisodiyoti talablariga javob bermas edi.

Shuning uchun ham davlat mulkchiligiga asoslangan xo'jaliklar negizida tashkiliy, iqtisodiy islohotlar amalga oshirilishi zarur bo'ldi. Islohoilar jarayonida ularning negizida dastavval jamoa xo'jaliklari, keyinchalik shirkatlar hamda hozirgi vaqtda mustaqil fermer xo'jaliklari tashkil etildi.

Respublika hukumati qishloq xo'jaligi oldidagi muhim vazifalarni e'tiborga oigan holda bir qancha muammolarni o'z zimmasiga olgan. Bunda davlat bosh islohotchi vazifasini bajarmoqda. Hozirgi davrda respublikamiz hukumati agrar siyosatning strategik yo'nalishlarini belgilab, uni ta'minlash bilan bogliq tadbirlarni amalga oshirish chora-tadbirlarini ko'rmokda. Hukumatimiz asosiy e'tibori qishloq xo'jaligining barcha sohalari yagona fan-texnika siyosatiga asoslangan holda rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Bu nihoyatda muhim masala hisoblanadi. Chunki faqat ilm-fan, yangi, samarali texnika hamda ilg'or texnologiya barcha yutuqlarning asosiy negizidir. Bu masalani hal etish maqsadida qishloq xo'jaligida davlat xo'jaliklari qisman saqlab qolingan. Ular asosan qishloq xo'jaligida davlat ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasining tajriba xo'jaliklari, urug'chilik va naslchilik xo'jaliklari ko'rinishida saqlanib qolgan. Hozirgi vaqtda markaz tarkibida 100 taga yaqin tajriba xo'jaliklari faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Ular asosan davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar evaziga qishloq xo'jaligining rivojlanishini ta'minlaydigan ilmiy g'oyalarni yaratish, sinash asosida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanmoqdalar. Ular faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- ✚ urug'chilik, naslchilik va ko'chatchilikni rivojlantirish, yangi, serhosil, tez pishar navlar hamda mahsuldor zotlarni yaratish;

- ✚ qishloq xo'jaligiga fan yutuqlarini joriy etishni tashkillashtirish; iqtisodiyotda erkin bozor iqtisodiyoti munosabatlarini yaratish va ularni chuqurlashtirish;
- ✚ yangi texnika, ilg'or texnologiyalarni yaratish, agrotexnika tadbirlarini
- ✚ takomillashtirish va boshqalar.

Markaz tarkibidagi ilmiy-tadqiqot institutlarida yaratilayotgan yangiliklar eng avvalo tajriba xo'jaliklarida sinalib, so'ngra amaliyotga tatbiq etish uchun tavsiya qilinadi. Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilayotgan yalpi mahsulotning 1 foizini mazkur tajriba xo'jaliklari bermoqda. Fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etishdagi o'mini e'tiborgaolgan holda ularni saqlab qolish va faoliyatini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida o'tgan asming 80-yillari oxiri va 90-yillari boshida 887 ta jamoa xo'jaligi faoliyat ko'rsatib, respublikada yetishtirilayotgan yalpi qishloq xo'jalik mahsulotining 35 foizini berar edi.

Ularning iqtisodiy negizini jamoa mulki tashkil etgan. Lekin mulkchilikning bu shakli uning haqiqiy mazmuni, mohiyatiga mos emas edi, chunki amalda ular davlat tasarrufida edi. Bunday hoi bozor iqtisodiyoti talablariga to'g'ri kelmaydi. Shu bois bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan tarmoqdagi davlat xo'jaliklari negizida jamoa xo'jaliklari bosqichma-bosqich yangicha ko'rinishda tashkil etila boshlandi.

Bu o'rinda eslatib o'tish kerakki, jamoa xo'jaliklari 1990-yillargacha qishloq xo'jaligini rivojlantirishga ma'lum darajada o'z hissalarini qo'shganlar.

Ular o'sha yillarda tarmoqda yetishtirilayotgan paxtaning 41 foizini, g'allaning 37 foizini, sutning 36 foizini berar edi. Lekin ulaming faoliyatlari ham davlat xo'jaliklari kabi to'liq davlat tomonidan boshqarilardi, ya'ni ularda mahsulotlar yetishtirish jarayoni davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtirilib, yetishtirilgan mahsulotlarni davlat o'z tashkilotlari yordamida hukumat tomonidan belgilangan xarid baholarida sotib olar edi. Olingan daromad esa hukumat tomonidan belgilangan tartibda taqsimlanar edi. Bunda jamoaning erki, huquqi to'liq e'tiborga olinmas edi. Demak, u xo'jaliklarda amalga oshirilgan iqtisodiy munosabatlar bozor iqtisodiyoti munosabatlari talablariga

mos emas edi. Bunday hollarni bartaraf etish maqsadida avvalo jamoa mulkchiligiga asoslangan jamoa xo'jaliklarida haqiqiy bozor iqtisodiyoti munosabatlarini barpo etishga alohida e'tibor berildi. Bunda respublikada amalga oshirilayotgan yer islohotiga asoslangan holda mavjud jamoa xo'jaliklariga davlat mulki hisoblangan yer foydalanish uchun ijaraga berildi.

Ular yerdan foydalanganlik uchun belgilangan muddatda ijara haqi to'laydigan bo'lishdi. Ijara haqi 1999-yildan boshlab yagona yer solig'i shaklida tolanadigan bo'ldi. Shu bilan birga «Mulk to'g'risida»gi qonun talabiga muvofiq u xo'jaliklarda haqiqiy jamoa mulkchiligi tashkil etishga e'tibor berildi. Mulkchilikning bu shakli jamoa xo'jaliklari negizida shirkat xo'jaliklari tashkil etish orqali shakllantirildi. Uning huquqiy asoslari yaratildi. Oliy Majlis tomonidan 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan «Qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkatlar) to'g'risida»gi Qonun, uning hayotga tatbiq etilishini ta'minlash maqsadida Respublika Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-iyuldagi 229-sonli qarori qabul qilingan edi.

Shirkat xo'jaligi - qishloq xo'jalik tovar mahsulotlari ishlab chiqarish va xizmatlarni bajarish maqsadida fuqarolarning paychilikka asoslangan oilaviy pudrat asosida uyushib, erkin, mustaqil faoliyat ko'rsatadigan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan xo'jalik yuritish subyektidir. Ular o'tish davrida qishloq xo'jaligida tadbirkorlikning yirik tovar ishlab chiqaruvchi shakli sifatida namoyon bo'ldi. Ulaming ixtiyoriga qishloq xo'jalik yerlarining asosiy qismi uzoq muddatga ijaraga foydalanishga berildi. Shirkat xo'jaliklarining iqtisodiy negizini, ya'ni mulkini pay (ulush) asosida tashkil etilgan paychilarning jamoaviy mulki tashkil etar edi. Shirkat xo'jaliklarining barcha mulki (yerlarning qiymatini ham qo'shib) a'zolariga pay shaklida bo'lib berildi. Shuning natijasida shirkat a'zolari mulk egasi bo'ldilar. Bu hol ularga barcha mulkka birgalikda egalik qilish, foydalanish imkoniyatini berdi.

Shirkat xo'jaliklarini faoliyat ko'rsatib turgan jamoa xo'jaliklari zaminida qayta tashkil etish nazarda tutilgan edi. Faoliyat ko'rsatib turgan jamoa xo'jaligini shirkat xo'jaligiga aylantirish xo'jalik a'zolarining umumiy

majlisi qaroriga asosan amalga oshirilgan. Ushbu qaror o'zgartirilayotgan xo'jalikning kreditorlariga ham yozma ravishda yetkazilishi nazarda tutilgan.

Shu qarorga asosan shirkat xo'jaligiga aylantirilayotgan xo'jalik rahbarlari, mutaxassislari va a'zolaridan iborat komissiya tuziladi. Turnan hokimining qarori bilan komissiya ishida turnan holtimligi, moliya va soliq idoralari, banklar, kasaba uyushmasi vakillari ishtirok etadilar. Komissiya zimmasiga nihoyatda muhim masalalar yuklatilgan edi. Shu jumladan mazkur komissiya yangi tashkil etilayotgan shirkat xo'jaligining Nizomi loyihasini ham tayyorlagan.

Agrar soha mutaxassislari, xodimlari va ishchi-xizmatchilariga turmush tarzini hisobga olib qishloq xo'jaligida islohotlar o'tkazilar ekan, oldingi davlat va jamoa xo'jaliklari o'rniga qishloq xo'jalik shirkatlarini joriy etish maqsadga muvofiq bo'ldi. Chunki, u shirkat a'zolarini ko'ngillilik va muayyan shartlar asosida birlashtirar edi. 1998 yil 30 aprelda «Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida» qonun qabul qilindi. Qonunga ko'ra, shirkat xo'jaligi qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish uchun pay usuli va oila pudratiga, fuqarolarning ixtiyoriy ravishda birlashishiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektdir. Shirkat xo'jaligi o'z hududi va undan tashqarida yetishtirilgan xom ashyoni qayta ishlash, turli mahsulotlar ishlab chiqarish, savdo-sotiq, ta'mirlash va qurilish ishlari, yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish, shuningdek qonunlarda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanishga haqli ekanligi ko'rsatib o'tildi. Bundan tashqari, shirkat xo'jaliklarini tuzish va uning faoliyati yuritish tartibi, shirkatga a'zolik, yer uchastkalarini ajratish va boshqarishning huquqiy masalalari belgilandi. Shirkatning har bir a'zosiga mulk va yer paylari shaklida hissa ajratildi⁷⁸.

Mulkiy pay – qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) har bir a'zosining kooperativ (shirkat) pay jamg'armasi qiymatidagi ulushini belgilaydi va kooperativ (shirkat) a'zosiga kooperativning yakuniy daromadidan (foydasidan)

⁷⁸ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y., 5-6-son, 84-modda; 2003 y., 9-10-son, 149-modda; 2004 y., 1-2-son, 18-modda.

dividendlar tariqasida tegishli ulushni olish huquqini beradi. Pay jamg'armasi qishloq xo'jaligi kooperativi a'zolariga umumiy ulushli mulk asosida, bo'linmas jamg'arma esa, umumiy birgalikdagi mulkka qarashli bo'ladi. Pay jamg'armasi qishloq xo'jaligi kooperativi a'zolari o'rtasida mulkiy paylarga taqsimlanadi⁷⁹.

Oilaviy pudrat – bu ishlab chiqarish resurslaridan unumli foydalangan holda eng ko'p mahsulot yetishtirish maqsadida ishchilarning oilaviy jamoasi bilan xo'jalik ma'muriyati o'rtasida tuziladigan jamoaviy shartnomaning ko'rinishi. Oila jamoasi ma'lum shartlar asosida ishlab chiqarish vositalaridan foydalangan holda muayyan miqdordagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarib, xo'jalikka yoki tayyorlov idorasiga topshirishni o'z bo'yniga oladi. Xo'jalik ma'muriyatining asosiy majburiyati oilaviy jamoaning ishlashi uchun qulay sharoit yaratib berishi, unga zarur bo'lgan moddiy-texnik ta'minotni yetkazishi, mahsulotni hech bir muammosiz qabul qilib, jamoa bilan kelishuv bo'yicha o'z vaqtida hisob-kitob qilishdir. Tomonlarning majburiyatlari shartnomada qayd etiladi. Shu bois uning bajarilishi uchun har ikki tomon mas'ul hisoblanadi. Pudrat boshqa shakllardan shunisi bilan farq qiladiki, ijarachilar yerga vaqtinchalik egalik qilgan holda yetishtirgan mahsuloti va o'z mehnati natijasining to'laqonli egasi bo'ladi.

Mamlakatimizda tashkil etilgan shirkat xo'jaliklari dehqonlarning moddiy manfaatdorligini oshirgan bo'lsa-da, bozor munosabatlari talablariga to'liq javob bera olmadi. Ayrim holatlarda esa shirkat xo'jaliklarini tashkil etishda tashkiliy-iqtisodiy tomondan ma'lum kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Shu sababli mamlakatimiz hukumati tomonidan qishloq xo'jaligiga samarali, dehqonlarda haqiqiy mulkdorlik hissini uyg'otadigan, ularning iqtisodiy erkinligini ta'minlaydigan xo'jalik yuritish shakllarini joriy etishga e'tibor qaratildi. Avvalo, dehqonning ishlab chiqarishga va mulkka egalik hissining ortishi, erkin iqtisodiy faoliyat yuritishi, daromad olishi, uni o'z xohishiga ko'ra mustaqil taqsimlash hamda tasarruf etish imkoniyati yaratildi. Respublika agrar sohasida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari boshqa subyektlarga nisbatan Amaliyotda o'zining bir qancha ijobiy ustunliklarini ko'rsatdi va shu sababli

⁷⁹ Ismoilov A., Murtazaev O. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. –Toshkent: Moliya, 2005. –B. 90.

fermer xo‘jaliklariga istiqbolli xo‘jalik yuritish shakli sifatida juda katta e‘tibor qaratildi. 1998-yil 30-aprelda O‘zbekiston Respublikasining «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilingan bo‘lib, u 36 moddadan iborat. Ushbu qonunning yangi tahriri 2004-yil 26-avgustda qabul qilindi. «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi Qonunning 3-moddasida fermer xo‘jaligiga quyidagicha ta‘rif berilgan: fermer xo‘jaligi - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektlardir.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida fermer xo‘jaliklari faoliyatining rivojlanishi hamda samaradorligining oshishi ta‘minlanmoqda.

Chunonchi, respublikamizda 2008-yil 1-yanvar holatiga 217,1 mingta fermer xo‘jaliklari faoliyat yuritgan bo‘lib, ularda 1621,4 ming kishi band edi. Fermer xo‘jaliklariga 5787,8 ming gektar yer uzoq muddatga ijaraga berilgan bo‘lib, bir fermer xo‘jaligiga o‘rtacha 26,7 gektar yer to‘g‘ri kelar edi.

Mamlakatimizda fermer xo‘jaliklari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Fermer xo‘jaliklari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari:⁸⁰

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2004	2005	2006	2007	2008	2009
Qishloq xo‘jalik yalpi mahsuloti tarkibida fermer xo‘jaliklarining ulushi	%	18,6	24,3	31,4	33,4	32,5	34,5
Shu jumladan, o‘simlikchilikda	%	17,3	20,6	31,1	60,3	57,6	32,9
chorvachilikda	%	1,3	3,7	1,2	3,2	3,6	1,6
Fermer xo‘jaliklari soni	dona	103921	125668	189235	217095	105033	103081
Fermer xo‘jaliklariga birlashtirilgan ekin maydoni	ming gektar	1762,6	2140,7	2710,6	3001,6	3045,2	3052,9
Jami ekin	%	47,7	58,7	74,7	84,3	84,4	84,6

⁸⁰ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.

maydonida fermer xo'jaliklarining ulush								
Fermer xo'jaligida band bo'lganlar soni		ming kishi	765,3	954,2	1381,1	1621,4	1710,2	1521,6
shulardan: yollanma ishchilar		ming kishi	95,2	280,8	382,5	456,1	455,7	465,8
Bir fermer xo'jaligiga o'rtacha to'g'ri keladi:	-band bo'lganlar	kishi	7	8	7	7	16	15
	-ekin maydoni	gektar	28,2	30,0	26,2	26,7	29,0	29,6

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotidagi ulushi keyingi yillarda ortib bormoqda. Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish va uning samaradorligini oshirishdagi afzalliklari bilan bugungi bozor munosabatlari sharoitiga mos kelishini inobatga olib, fermer xo'jaliklarini tashkil etish va ulami rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-yanvardagi 8-sonli «Qishloq xo'jalik korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori qabul qilinib, unda zarar ko'rib ishlayotgan shirkat xo'jaliklari negizida fermer xo'jaliklarini tashkil etish ko'zda tutilgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdagi «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi PF-3226-sonli Farmonida fermer xo'jaliklarini rivojlantirish ustuvor yo'nalish qilib belgilandi. Farmonni amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish ko'zda tutildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 27-oktabrdagi PF-3342-sonli «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi Farmoniga asosan, Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi 476-sonli «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2004-yil 24-dekabrda 607-

sonli «2005-2007-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlari qabul qilindi. Ushbu qarorlar bilan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning asosiy shakli sifatida fermer xo‘jaliklarini tashkil etish va ularning faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish asosiy masala qilib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 6-oktabrdagi «Fermer xo‘jaliklari faoliyatini yuritishda yer uchastkalari miqdorini maqbullashtirish choralarini ko‘rish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo‘yicha maxsus komissiya tashkil etish to‘g‘risida»gi 3077-sonli Farmo‘rishga muvofiq fermer xo‘jaliklari uchun ajratiladigan yer maydonlari hajmi qayta ko‘rib chiqildi. Ushbu tadbirdan so‘ng mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan fermer xo‘jaliklari soni 2009-yil holatiga 103081 tani tashkil etmoqda, ularga 3052,9 ming gektar ekin maydoni ajratib berilgan bo‘lib, bu jami ekin maydoninig 84,6 foizini tashkil etadi. 2009-yil holatiga ko‘ra fermer xo‘jaliklarida 1521,6 ming kishi ish bilan band bo‘lib, bitta fermer xo‘jaligiga o‘rtacha 15 kishidan to‘g‘ri keladi.

2009-yilda fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jalik yalpi mahsulotidagi uhisshi 34,5 foizni tashkil etgan. Bu ma‘lumotlar fermer xo‘jaliklarining O‘zbekiston iqtisodiyotidagi o‘mi va ahamiyatining ulkan ekanligidan dalolat bermoqda. Shuning uchun ham Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida qilgan ma‘ruzasida “...fermerlik qishloqda xo‘jalik yuritishning eng istiqbolli va samarali shakli sifatida yetakchi o‘rinni egallamoqda”, - deb nihoyatda istiqbolli xulosa qilgan edi.

Yurtboshimiz joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan tanishish maqsadida 2009-yil 25-avgustdagi Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida ham mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda fermerlik harakatining ahamiyatiga to‘xtalib, fermerlar mamlakat ravnaqi, xususan qishloq taraqqiyoti va farovonligini ta‘minlashda hal qiluvchi kuchga aylanganini ta‘kidlab o‘tdi. “Fermer nafaqat dehqon, balki iqtisodchi, menejer, agronom, sanoatchi bo‘lishi lozim. Bugunning

talabi - shu. Fermer o'zi yetishtirgan mahsulotni o'zi qayta ishlashi, shu orqali qishloqqa sanoatni olib kirishi va aholi farovonligini oshirishga, yoshlarni ish bilan ta'minlashga o'zining faol hissasini qo'shishi lozim“, - deb ta'kidlagan edi.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, agrar sektorni rivojlantirish maqsadida aniq va uzoqni ko'zlab ishlab chiqilgan chora-tadbirlar natijasida fermerlar ushbu sohada haqli ravishda yetakchi kuchga aylanib borayapti. Bevosita davlatimiz rahbari tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, yaratilayotgan imkoniyatlar ulami ana shunday ishlashga undayapti, yangi-yangi marralar sari yetaklamoqda.

Hozirgi davrda fermer xo'jaligi o'ziga uzoq muddatga ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo'jaligi ishlab ehiqarishi bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir. Fermer xo'jaliklari tanlov asosida zahira va maxsus respublika fondi hisoblangan hamda mehnat resurslari ortiqchaligi sezilmagan yerlarda va hududlarda tashkil etiladi.

Fermer xo'jaligini shu xo'jalikning o'n sakkiz yoshga to'lgan, qishloq xo'jaligida tegishli bilim, malaka va ish tajribasiga, yaxshi muomala qilish qobiliyatiga ega boigan barkamol a'zolaridan biri boshqarishi mumkin. Fermer xo'jaligining Nizom fondida ko'rsatilgan quyidagi vositalar, mablag'lar uning mulki hisoblanadi:

- uy-joylar, xo'jalik inshootlari, qishloq xo'jalik ekinlari va ko'chatzorlari, ko'p yillik daraxtlar, mahsuldor chorva mollari, parrandalar, qishloq xo'jalik texnikasi, asbob-uskuna, transport vositalari, pul mablag'lari, intellektual mulk obyektlari;

- ishlab chiqarish faoliyati natijasida yetishtirilgan mahsulotlar;

- ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishdan, ish va xizmatlar ko'rsatishdan tushgan pul mablag'lari, olingan foyda;

- olingan kredit mablag'lari;

- a'zolarining qimmatli qog'ozlari, ular evaziga olingan dividendlar;
- yuridik va jismoniy shaxslarning beg'araz xayriya, homiylik mablag'lari va boshqalar.

Shu mulklardan samarali foydalanish natijasida xo'jalikni rivojlantirish uning a'zolari shaxsiy mehnatiga bog'liq. Bu shakldagi xo'jalik faoliyat ko'rsatish jarayonidagi ishlarga ayrim hollarda, ya'ni a'zolarining quvvati yetmaganda mehnat shartnomasiga asoslangan holda ishchi-xizmatchilarni yollashi mumkin.

Fermer xo'jaligi o'z mulkidan, mehnat resurslaridan oqilona foydalangan holda ixtisoslashishi bo'yicha shartnomalar asosida qishloqxo'jalik mahsulotlari yetishtirish, ularni qayta ishlash, xizmatlar ko'rsatish, mahsulotlarni sotish, shuning natijasi oigan pul daromadlarini taqsimlash, ishchi-xizmatchilarini rag'batlantirish hamda ijtimoiy himoyalash, faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatlarni ko'rsatadi. Uning iqtisodiy negizini oila a'zolarining mol-mulki, mahsulotlari tashkil etadi va xo'jalik faoliyatini «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonun asosida yuritadi. Fermer xo'jaligi o'z mulki, ijaraga olgan yer maydoni, texnika vositalaridan samarali foydalangan holda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, ularni qayta ishlash hamda sotish bilan shug'ullanadi. Tadbirkorlikning bu shalcli iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda salmoqli o'rinni egallaydi. AQSh, Fransiya, Gollandiya kabi davlatlarda mazkur xo'jalik yuritish shakli juda keng tarqalgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 20-oktabrdagi «Oziq-ovqat ekinlari ekiladigan maydonlarni optimallashtirish va ularni yetishtirishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 4041-sonli Farmoni fermer xo'jaliklarining faoliyatini har tomonlama kengaytirishda yangi bosqichni boshlab berdi. Mamlakatimiz aholisi uchun kerak bo'ladigan oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishni yanada rivojlantirishda fermer xo'jaliklari ham munosib hissa qo'shib kelmoqdalar. Hozirgi vaqtda mamlakatimizdagi fermer xo'jaliklarining 47 mingdan ortig'i paxta va g'allachilikka, 35 mingdan

ko'prog'i bog'dorchilikka, 5 mingdan ziyodi sabzavot va polizchilikka, qariyb 5,5 mingtasi chorvachilikka, 9 mingdan ortig'i esa boshqa sohalarga ixtisoslashgan.

Fermer xo'jaliklarining rivojlanishida hukumatimiz tomonidan ularga yaratib berilgan sharoit va turli imtiyozlarning ham ahamiyati katta.

Fermerlarga quyidagi imtiyozlar belgilangan:

- fermer xo'jaligi tashkil etilgan kundan boshlab ikki -yilgacha yagona yer solig'idan ozod qilinadi;

- tugatilayotgan shirkatlar o'mida tashkil etilgan bog'dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklari 5 yil davomida yagona yer solig'ini to'lashdan ozod etiladi;

- fermer xo'jaligi faoliyatini Respublika muvofiqlashtirish Kengashining ruxsatisiz tekshirish ta'qiqlanadi;

- fermer xo'jaliklari faoliyatini tekshirish muvofiqlashtirish Kengashining ruxsati bilan 4-yilda bir marta o'tkaziladi;

- yangi faoliyat boshlagan fermer xo'jaliklariga boshlang'ich sarmoya uchun eng kam ish haqining 300 barobari miqdorida imtiyozli kredit beriladi;

- xorijiy texnologiyalarni respublikaga olib kirgan fermer xo'jaliklari bojxona to'lovlaridan ozod qilinadi;

- fermer xo'jaligi tegishli loyihada nazarda tutilgan yerni. o'z hisobidan o'zlashtirayotgan davrda va yer o'zlashtirib bo'lingandan keyin 5 yil davomida yerning mazkur o'zlashtirilgan qismi uchun yagona yer solig'i to'lashdan ozod qilinadi.

Mamlakatimizda dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyat yuritmoqda. Mazkur jamg'arma Fermer xo'jaliklari uyushmasiga a'zo bo'lgan fermerlarga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki ba'zi yirik tijorat banklari orqali 3 -yilgacha bo'lgan muddatga imtiyozli kredit beradi.

Fermer xo'jaligi tashkil etilib, davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng 6 oy ichida tegishli buyurtmanomalar bilan o'zlariga xizmat qiluvchi banklarga murojaat qilishi mumkin. Dastlabki sarmoya uchun beriladigan kreditlarning yillik ustama foizi imtiyozli bo'lib, Markaziy bank qayta moliyalash

stavkasining oltidan bir qismi miqdorida belgilangan. Dastlabki sarmoya uchun kredit fermer xo'jaliklariga 3 -yilgacha bo'lgan muddatga, eng kam oylik ish haqining 300 baravari miqdorigacha, foizlar to'lashni 12 oyga kechiktirish va asosiy qarzni kredit olingandan so'ng 18-24 oy o'tgach qaytarishni boshlash shartlarida beriladi.

Mahsulotlarni sotish jarayonini yanada takomillashtirish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashni tashkil etish uchun fermer xo'jaliklari birikib, agrofirmalar tashkil etishi va marketing tizimini yo'lga qo'yishlari maqsadga muvofiqdir. Bozor talabini chuqur o'rgangan holda mahsulot yetishtirishni tashkil etishlari lozim. Shunda hamma fermer xo'jaligi bir xil mahsulotni yetishtinmaydi va mahsulot taklifi kopayishi natijasi narxlarning keskin tushib ketishi oldi olinadi. Bundan tashqari fermer xo'jaliklari zamonaviy mini texnologiyalarni o'z faoliyatiga joriy etishlari lozim va meva-sabzavotlarning ehtiyojdan ortiqchasi murabbo, konserva yoki boshqa mahsulotlar ko'rinishida qayta ishlansa, qishloq xo'jalik mahsulotlari nobudgarchiligining oldi olinadi, fermerlarning daromadi yanada ortadi, qishloq joylarda yangi ish o'rinlari barpo etiladi.

Surxondaryo viloyatida 2008-yil holatiga yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlari tarkibida fermer xo'jaliklarining ulushi 34,8 foizni, dehqon xo'jaliklarining ulushi 64,0 foizni va qishloq xo'jalik korxonalarining ulushi esa 1,2 foizni tashkil etgan.

2009-yilning 1-yanvar holatiga Surxondaryo viloyatida fermer xo'jaliklari soni 15103 ta bo'lib, ularga birlashtirilgan umumiy qishloq xo'jaligi yer maydoni 696908 gektarni tashkil etgan, ularda band bo'lganlar soni 162863 kishini, shundan yollanma ishchilar soni 44639 kishini tashkil etgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 6-oktabrdagi «Fermer xo'jaliklari faoliyatini yuritishda yer uchastkalari miqdorini maqbullashtirish choralarini ko'rish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha maxsus komissiya tashkil etish to'g'risida»gi Farmoyishiga muvofiq viloyatdagi fermer xo'jaliklari uchun ajratiladigan yer maydonlari hajmi qayta ko'rib chiqildi va

ushbu tadbirdan so'ng viloyatda faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari soni 7458 tani tashkil etgan.

Fermer xo'jaliklari bilan birgalikda dehqon xo'jaliklari ham qishloq xo'jaligida tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqdalar. Dehqon xo'jaliklari shaxsiy yordamchi xo'jaliklari zaminida vujudga kelgan xo'jalik yuritish shaklidir.

Respublikada qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, qishloqlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, agrar soha mutaxassislari, xodimlari va ishchi-xizmatchilarini ish bilan band qilishda davlat tomonidan qabul qilingan dasturlar muhim rol o'ynadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi PQ-1046-son qaroriga ko'ra tasdiqlangan «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi-yili» Davlat dasturiga ko'ra, Xalqaro moliya institutlarining kreditlari hisobiga quyidagi hududlarda suv ta'minoti bo'yicha investitsiya loyihalari amalga oshirilishini ta'minlash ko'zda tutildi. Chunonchi, Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida – 53,0 km, Koson tumanida – 98 km, bo'lgan suv quvurlarini qurish, Surxondaryo viloyatining Angor, Muzrabot, Sherobod, Bandixon, Qiziriq, Qumqo'rg'on va Oltinsoy tumanlarida suv o'tkazgichlarni tiklash rejaga kiritildi⁸¹.

Shuningdek, agrar soha mutaxassislari, xodimlari va ishchi-xizmatchilarini ijtimoiy-turmush tarzini hisobga olib qishloq joylarda zamonaviy tom yopish materiallarini tayyorlash bo'yicha Andijon, Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Xorazm, Toshkent viloyatlarida jami 6 ta korxonani tashkil qilish, Zamonaviy bezak materiallari ishlab chiqarish bo'yicha Buxoro, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Toshkent, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'istonda yangi quvvatlarni ishga tushirish belgilandi⁸².

«Obod turmush-yili» Davlat dasturi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 14 fevraldagi PQ-1920-sonli Qaroriga muvofiq, Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishga tijorat banklarining 269,6 mlrd. so'm miqdorida kreditlar berishini ko'paytirish, shu

⁸¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 yil, 5-son, 33-modda; PQ-1046-son 26.01.2009. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» davlat dasturi to'g'risida. <http://lex.uz>

⁸² O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2009 yil., 1-son, 21-modda.

jumladan: 110,1 mlrd. so‘m oilaviy, xususiy tadbirkorlik va hunarmandchilik sub’ektlariga; 106 mlrd. so‘m – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va qoramol sotib olish uchun shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklariga, 53,5 mlrd. so‘m o‘z tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishi uchun 15 ming nafar kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga yo‘naltirish belgilandi.

Ushbu dasturlar Respublika agrar soha mutaxassislari, xodimlari va ishchi-xizmatchilarini ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning yaxshilanishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, agrar soha mutaxassislari, xodimlari va ishchi-xizmatchilarini turmush darajasining oshishida muhim ahamiyat kasb etdi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda dehqon xo‘jaliklarining mavqei ortib bordi. Chunonchi, dehqon xo‘jaliklari 2004-yilda respublika qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotning 66%ini bergan bo‘lsa⁸³, bu raqam 2014 yil yanvarida faqat Surxondaryo viloyati bo‘yicha 86,2 %ni tashkil qildi⁸⁴.

Dehqon xo‘jaliklari - shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari zaminida vujudga kelgan xo‘jalik yuritish shaklidir. Qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritish shakllaridan bin bo‘lgan aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari XX asming 30-yillaridan boshlab vujudga kela boshlagan. O‘sha davrda qishloq xo‘jaligining asosini tashkil etgan jamoa xo‘jaliklari va davlat xo‘jaliklari qishloq aholisining oziq-ovqatga bo‘lgan talabini to‘liq qondira olmas edi.

Shuni e‘tiborga olib, qishloq aholisi uchun cheklangan miqdordagi tomorqa uchastkasi va chorva hayvonlariga ega bo‘lgan shaxsiy yordamchi xo‘jalik yuritishga imkon berildi. Garchi aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari mamlakat aholisini oziq-ovqat mabsulotiari bilan ta‘minlash va ularda o‘ziga xos bo‘lgan turmnsh tarzini shakllantirishga muhim hissa qo‘shgan boiishiga qaramay, sobiq shoio tizimida ulaming ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatiga yetarli e‘tibor berilmay, jamoa va davlat xo‘jaliklarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida qarab kelindi.

⁸³ Ismoilov A., Murtazaev O. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. –B. 65.

⁸⁴ Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari. –Termiz, 2015. –B. 15.

O‘zbekistonda aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarini rivojlantirish tomon dastlabki tadbirlar o‘tgan asming 80-yillari oxirlaridan boshlab amalga oshirildi. O‘zbekiston respublikasi Ministrlar Kengashining 1989-yil 15-avgustdagi “Ishchilarning shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarini va yakka tartibda uy-joy qurishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1990-yil 17-maydagi “Jumhuriyat aholisining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklaridagi mol va parrandalarni yem- xashak bilan ta‘minlash hamda ularda chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirish to‘g‘risida”gi farmoni respublikamizda shaxsiy yordamchi xo‘jalikdagi rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Buning natijasida aholining tomorqa yer maydonlarini sezilarli darajada kengaytirish, yakka tartibda uy-joy qurishga bo‘lgan ehtiyojni qondirish va ko‘pgina qishloqda yashayotgan oilalar chorva mollarni sotib olish hamda yem-xashak yetishtirish imkoniyatlarini oshirishga erishildi. Xususan, 1989-1990-yillar davomida 1,5 milliondan ziyod oilalarning tomorqa uchastkalari hajmi kengaytirildi, ilgari tomorqa uchastkasiga ega bo‘lmagan 580 ming oila esa yer uchastkasi bilan ta‘minlandi. Aholiga 183 ming gektardan ko‘proq sug‘oriladigan yer maydonlari ajratib berildi. O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan o‘sha paytda yuritilgan oqilona siyosat natijasida nafaqat qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshirish va qishloq aholisining daromadlarini oshirish, balki ularning uy-joyga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va ish bilan bandligini ta‘minlash kabi muhim ijtimoiy masalalarning ham hal etilishiga sharoit yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil yanvar oyida e‘lon qilingan “Ishchilar va qishloq joylarda yashovchi boshqa fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va “Shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarning egalari bo‘lmagan dehqonlarga moliyaviy yordam berish va ular uyushmasi moddiy-texnika negizini mustahkamlash to‘g‘risida”gi farmonlariga asosan o‘sha yili shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari uchun yana qo‘shimcha ravishda 108,5 ming gektar sug‘oriladigan

yerlar ajratib berildi va 1991-yil oxiriga kelib shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarida foydalaniladigan maydonlar qariyb 500 ming gektarga yetdi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qoiga kiritgandan so‘ng aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarini har tomonlama rivojlantirish tomy n qat’iy chora-tadbirlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil mart oyida qabul qilingan “Shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarini davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash hamda mamlakatni oziq-ovqat bilan ta‘minlashda ulaming rolini kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarini rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hamda ulaming manfaatlarini himoya qiluvchi uyushma faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari belgilab berildi.

1998-yil 30-aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi bilan aholi shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarining maqomini aniqlashtirish, ularning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta‘minlashning qonuniy mexanizmlari takomillashtirildi.

Birinchidan, aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari dehqon xo‘jaligi sifatida qayta nomlandi va uning tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy asoslari mustahkamlab qo‘yildi. **Ikkinchi**dan, dehqon xo‘jaligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, maqomi, tashkiliy-iqtisodiy asoslari va uning qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyekti sifatidagi xususiyatlari aniq belgilab berildi. **Uchinchi**dan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-iyuldagi 300-sonli qarori bilan faoliyat ko‘rsatayotgan shaxsiy yordamchi xo‘jaliklami dehqon xo‘jaliklariga o‘zgartirish tartibi tasdiqlandi.

To‘rtinchidan, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunda ularni davlat yo‘li bilan va boshqa tarzda qo‘llab-quvvatlash hamda ulaming faoliyatini tartibga solish mexanizmi belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunning 1-moddasida dehqon xo‘jaligiga quyidagicha ta‘rif berilgan: dehqon xo‘jaligi - oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a‘zolarining shaxsiy mehnati asosida

meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga (merosxo'rga) foydalanishga birlashtirilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiradi. Bu mahsulotlarni dastavval o'z talablarini qondirish uchun ishlatib, ortiqchasini realizatsiya qiladi. Dehqon xo'jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo'jaligi a'zolarining istagiga ko'ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin. Dehqon xo'jaligi o'z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishi mumkin emas.

Dehqon xo'jaligi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi Qonuni asosida amalga oshiradi. Ushbu qonun 31 moddadan iborat. Dehqon xo'jaligi a'zolariga birgalikda yashayotgan va dehqon xo'jaligini birgalikda yuritayotgan oila boshlig'i, uning turmush o'rtog'i, bolalari, shu jumladan, farzandlikka olingan bolalari, tarbiyaga oigan bolalari, ota-onalari, mehnatga qobiliyatli yoshga yetgan boshqa qarindoshlari kiradilar.

Dehqon xo'jaligini yuritishdan ko'zda tutilgan maqsad ichki iste'mol uchun va tovar mahsuloti yaratish, shuningdek boshqa faoliyat turlari orqali o'zi va oilasining moddiy farovonligini ta'minlashdan iboratdir. Dehqon xo'jaligining asosiy vazifasi qishloq aholisini foydali mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish orqali ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanishga erishish hamda shu asosda eng kam sarf-xarajat evaziga mahsulot yetishtirishni har toraonlama ko'paytirishdan iborat. Shuningdek, yer resurslaridan unumli foydalanish, mamlakat aholisining oziq-ovqatga boigan ehtiyojini qondirishda hissa qo'shish, o'zi joylashgan hududning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda ishtirok etish kabi bir qator vazifalarni yechishda ham dehqon xo'jaliklari o'z hissalarini qo'shishlari lozim.

Dehqon xo'jaligi qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik shakllaridan biri sifatida bir qator afzalliklarga ega:

- ishlab chiqarish hajmining kichikligi bozor konyunkturasiga tez moslashish va ko'p mablag' sarflamay o'z faoliyati yo'nalishlarini qayta shakllantirish imkonini beradi;

- oila mehnatiga tayanish uy bekalari va bolalar mehnatidan, qariyalar tajribasidan unumli foydalanish hamda asrlar davomida shakllanib kelgan dehqonchilik madaniyatini avloddan-avlodga o'tkazib borishga sharoit yaratadi;

- xususiy mulk egaligi hamda yeming meros qilib qoldirilish huquqi bilan umrbod egalikka berilishi moddiy manfaatdorlikni oshiradi va mulkdan oqilona foydalanishga yo'l ochadi.

Dehqon xo'jaliklari tarkibiga tomorqa yerlariga ega bo'lgan oila xo'jaliklari ham kiradi va ularning asosiy maqsadi - shaxsiy mehnatlari, mol-mulkalaridan foydalangan holda o'z talablarini hamda boshqalarning talablarni qondirish uchun qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishdir. Oila xo'jalidari chorvachilik, sabzavot, poliz mahsulotlari bilan iste'mol bozorini todirishda faol qatnashmoqdalar. Aholi iste'mol qilayotgan mahsulotlarning aksariyat qismini dehqon xo'jaliklari yetkazib bermoqda. Ular hozirgi vaqtda respublikada yetishtirilayotgan jami go'sht va go'sht mahsulotlarining, sut mahsulotlari, kartoshka, sabzavot va poliz mahsulotlarining asosiy qismini yetishtirmoqdalar.

Dehqon xo'jaliklari agrar sohada yangi xo'jalik yuritish shakli sifatida shakllanib borishi bir tomondan haqiqiy mulk egaligining vujudga kelishiga imkon yaratsa, ikkinchi tomondan mulkchilikning boshqa turlariga asoslangan korxonalar bilan ma'lum darajada raqobat kurashi muhitini yaratishga yo'l ochadi. Dehqon xo'jaligi ichki iste'mol va mayda tovar qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish bilan bogliq hamda xo'jalik a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslangan faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi. Dehqon xo'jaligi o'z faoliyati yo'nalishlarini, ishlab chiqarish tuzilishi va hajmlarini inustaqil ravishda belgilaydi. Mamlakatimizda dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Mamlakatimizda 2009-yilda qishloq xo‘jalik yalpi mahsulotining 63,3 foizi dehqon xo‘jaliklari tomonidan yaratilgan. 2009-yil holatiga mamlakatimizda 4759174 ta dehqon xo‘jaliklari mavjud bo‘lib, ularga 472,8 ming gektar ekin maydoni ajratib berilgan, bu jami ekin maydoninig 13,1 foizini tashkil etadi. 2009-yil 1-yanvar holatiga jami qoramollarning 92,8 foizi, shu jumladan sigirlarning 94,3 foizi, qo‘y va echkilarning 76,9 foizi, yilqilarning 82,2 foizi, parrandalarning 65,8 foizi dehqon xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keladi. 2008-yilda jami yetishtirilgan go‘shning 95,0 foizi, sntning 96,8 foizi, tuxumning 61,8 foizi dehqon xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Surxondaryo viloyatida 2008-yil 1-yanvar holatiga dehqon xo‘jaliklarining umumiy soni 386307 ta bo‘lib, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan dehqon xo‘jaliklari soni 512 tani tashkil etadi. Ularga 64738 gektar yer maydoni birlashtirilgan. 2007-yilda Surxondaryo viloyati bo‘yicha ishlab chiqarilgan 96,5 ming tonna kartoshkaning 94,2 ming tonnasi (97,6 foiz), 349,7 ming tonna sabzavotning 261,9 ming tonnasi (74,9 foiz) dehqon xo‘jaliklari tomonidan yetishtirildi.

Fermer va dehqon xo‘jaliklarida ekinlarning hosildorligi, chorva hayvonlarining mahsuldorligi boshqa turdagi xo‘jaliklardagiga nisbatan ancha yuqori. Chunki ularda mulkka egalik hissi va moddiy manfaatdorlik ancha yuqori, ular o‘z mehnatlari natijalariga o‘zlari egalik qiladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda fermer va dehqon xo‘jaliklarining faoliyatini yanada rivojlantirishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishda boshqa tarmoq korxonalariga tegishli yordamchi xo‘jaliklar ham ishtirok etadi. Masalan, transport korxonasi o‘z xodimlarining qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan talabni qondirish maqsadida maxium yer uchastkasini ijaraga olib, yordamchi xo‘jalikni tashkil etishi va unda turli qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishi mumkin.

O‘zbekiston aholisining deyarli teng yarmi qishloq joylarda yashaydi. Shu sabab, bevosita sohada faoliyat olib bormasada, qishloq xo‘jaligiga taaluqli bo‘lgan

har bir yangilik, o'zgarish, joriy etilayotgan yangi ish usullari ko'pchilikni qiziqtirishi tabiiy. Chunki, qishlorq xo'jaligi - tepadan keladigan topshiriq asosida ekib, terib olinadigan soha, unda ishlaydiganlar ketmon chopishni bilsa bo'ldi, degan tushunchalar allaqachon o'tmishda qolgan. Bugun o'zgarishlar ko'lami shu qadar ko'p-ki, garchi qishloqda tug'ilib, qishloqda yashayotgan bo'lsa-da sohada kechayotgan islohotlarni, yangiliklarni to'liq bilaman, deb maqtanadigan odamni topish qiyin. Umuman, sohaga joriy qilinayotgan yangiliklar fermer va dehqonlarga manfaat keltirmas ekan, uning kelajagi yo'qligi ayon. Qolaversa, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash eng dolzarb masala bo'lib turgan bugun davr qishloq xo'jaligiga eng ilg'or texnologiyalar, suvni tejaydigan va biotexnologiyalarni, urug'chilik, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi yutuqlarni keng joriy etishni talab qilmoqda.

Xo'sh, bu talablarga qishloq xo'jaligiga joriy qilingan klaster tizimi to'liq javob bera oladimi?

Bu savolga nafaqat ijobiy, balki salbiy javob beradiganlar ham bor hamda bunga tabiiy holat sifatida qarashimiz kerak. Chunki, qaysi sohani olib qaramang, hech bir yangilik qisqa muddatda ommaviylashib ketmasligi aniq, ayniqsa asriy an'analariga ega qishloq xo'jaligi sohasida...

Shunday yangiliklardan biri – klaster tizimining joriy etilishi bo'ldi. Xo'sh, klaster o'zi nima? Bu savolga jaydari tilda javob qaytaradigan bo'lsak, Klaster bu – to'planib ishni amalga oshirish. Bir paytlar, O'zbekiston jahondagi yetakchi paxta yetishtiradigan mamlakatlardan biri, biroq, biz faqat xomashyo sotayapmiz, agar shuni ip-kalavaga, ip kalavani matoga, matoni tayyor mahsulotga aylantirsak, qancha foyda olishimiz mumkin, degan gap-so'zlarni bot-bot eshitardik. Bu qishloq xo'jaligida faoliyat olib borayotganlarning orzusi edi. Xo'sh, bu orzuni ro'yobga chiqarish uchun nima qilish kerak? Bu savolning javobi siz o'ylayotgandek oddiy emas. Buning uchun nafaqat qishloq xo'jaligi sohasini, balki to'qimachilik sanoatidan tortib, qishloq xo'jalik texnikalari, urug'chilik, kimyo sanoati va yana qancha shunga o'xshagan sohalarni isloh qilishga, ularni yangi ish usuliga o'tib, muvofiq ishlashini ta'minlashga to'g'ri kelardi. Jahon tajribasi

o'rganib ko'rildi. Fransiya va Niderlandiyada klaster tizimi o'z samarasini ko'rsatgan. Bejizga Niderlandiya qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish bo'yicha dunyoda ilg'or mamlakatlar qatorida tilga olinmas ekanda. Biroq, ular tajribasi ko'r-ko'rona ko'chirib olinibdi-da, degan o'ylarga bormang. Mutaxassislar e'tiroficha, O'zbekistondagi klaster tizimi butunlay novotarlikka asoslangan o'ziga xos tizim.

Ko'zga tashlangan dastlabki yangilik shuki, avvallari fermerlar bevosita «O'zpaxtasanoat» bilan shartnoma tuzib, ularni paxta tolasi bilan ta'minlab bergan. «O'zpaxtasanoat»dan esa to'qimachilik korxonalarini paxta sotib olardi. Endilikda fermer va to'qimachilik korxonasi o'rtasida uzviylik paydo bo'lmoqda. Klaster tizimi ikkita yo'nalishda tashkil qilindi. Birinchisi, fermerlar va to'qimachilik korxonalarini o'rtasida bevosita shartnoma. Ikkinchi, salmog'i yuqori bo'lgan to'qimachilik korxonalarini fermerlikni o'zi shakllantirmoqda.

O'z-o'zidan tushunarlik, eng ilg'or ish usuli ham sohada so'nggi bir necha o'n yillarda to'plangan muammolar girdobidan olib chiqishga qodir emas. Buning uchun ham uquv, bilim, yangicha dunyoqarash, peshona teri evaziga qilingan halol mehnat va albatta, fidoyilik talab qilinadi.

O'tgan davr maboynida klaster tizimining ijobiy natijalari ko'zga tashlana boshlana boshladi. Masalan, Jizzax viloyatida 5 ta paxta-to'qimachilik klasterlari hamda 1 ta paxtachilik kooperatsiyasi mavjud. 78,1 ming gektar paxta maydonining 6,2 ming gektari bevosita klasterlarning o'ziga, qolgan 71,9 ming gektari fermer xo'jaliklari bilan fyu'chers shartnomasi asosida ajratib berilgan edi.

Ko'zga tashlangan dastlabki holat. Yodingizdami, yaqin-yaqingacha, to'rt-besh yil oldin ham paxta mavsumi butun respublikamiz ahliga "hosil uchun kurash maydoni"ga aylanardi. Hozirchi? Ba'zilar hatto paxta mavsumi qachon boshlanib, qachon tugaganini ham sezmay qolishdi.

2021-yilgi yetishtirilgan paxta xom ashyosini 2020-yilga solishtirganda, o'rtacha 4,4 sentnerga oshib 33180 tonnani tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Mashina terimi 26,6 foiz ko'proq. Muvaffaqiyatlar omili anchagina. Ulardan biri, 2021-yilda paxtachilikda 4971 gektarda yoki 6,4 foiz maydonda tomchilab

sugʻorish texnologiyasi joriy etildi. Birgina, Sh.Rashidov tumanidagi “Industrial toʻqima” paxta-toʻqimachilik klasteri tomonidan 3762 gektarda yoki 40,4 foiz maydonda tomchilab sugʻorish ishlari amalga oshirildi. Klasterlar tomonidan 59 kilometr uzunlikdagi irrigatsiya tarmoqlarida, 34,5 kilometr uzunlikdagi melioratsiya tarmoqlarida hamda 29 gidroinshoot, 26 ta gidropostlarda taʼmirlash-tiklash ishlari bajarildi. Bu oʻtgan-yilga nisbatan 2 borabardan ortiq demakdir. Klasterlar tomonidan jami 493 gektar, shundan 365 gektar foydalanishdan chiqib ketgan yerlar foydalanishga kiritildi, 128 gektar yangi yerlar oʻzlashtirdi.

Ayni paytda paxta-toʻqimachilik klasterlarida 3 ta ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilib, 384 ta yangi ish oʻrinlari yaratildi. Ishlab chiqarish quvvatlarining jami soni 10 taga yetib, ularda 3 mingdan ziyod yangi ish oʻrinlari yaratildi.

Mazkur korxonalarda oʻtgan-yili 315,7 mlrd. soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, shundan 86,8 mlrd. soʻmlik paxta tolasi ichki bozorga, 62,5 mlrd. soʻmlik ip kalavadan 3,3 mlrd. soʻmlik ichki bozorga, 59,2 mlrd. soʻmlik eksportga chiqarildi.

2021-yilda klasterlar tomonidan qiymati 159,5 trln. soʻmlik 7 ta investitsiya loyihalarini amalga oshirildi. Bu loyihalar amalga oshirilish natijasida 1300 nafar yangi ish oʻrinlari yaratildi⁸⁵.

Birinchi agroklasterni tashkil etilganidan bir necha oy oʻtib, 2018-yilning yanvar oyida respublikamiz hukumati ushbu amaliyotni paxta sanoatiga keng koʻlamli tadbiriq etishga qaror qildi. Taxminan bir xil shart-sharoitlarda, jumladan, birinchi agroklasterga berilgan soliq imtiyozlarida, davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, faoliyatdagi mustaqillik va boshqa shunga oʻxshash shartlarda, respublikaning barcha hududlarida 16 ta paxta-toʻqimachilik klasterlari tashkil etildi. Bu klasterlar tarmogʻi mamlakatimizning barcha hududlarini qamrab oldi – har bir viloyatda va Qoraqalpogʻistonda bir yoki ikkita klaster tashkil yetildi. Har bir paxta-toʻqimachilik klasteriga 3,5 mingdan 18 ming gektargacha yer ajratildi. Yoʻnalishning yetakchisi hisoblangan «Bek cluster» qoʻshma korxonasi bilan birga

⁸⁵ <https://uzlidep.uz/news-of-party/8277>

hisoblaganda 17 ta paxta klasteriga ajratilgan yer maydoni 140 901 gektarni tashkil etdi.

2018-yilning mart oyida, 17 ta paxta-to'qimachilik klasterlari xudularida joylashgan 13 ta paxta tozalash zavodlari va 68 ta paxta tayyorlash punktlari 5 yil muddatga bo'lib to'lash sharti bilan baholash qiymatida ushbu klasterlarga berildi.

Bundan tashqari, paxta-to'qimachilik klasterlari paxta sanoatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash uchun belgilangan bir qancha imtiyozlarga ega, jumladan:

- ✚ fermer xo'jaliklariga paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishining tegishli tashkilotchilari tomonidan kontraktatsiya shartnomasida nazarda tutilgan miqdorlarda va shartlar asosida avans beriladi;
- ✚ paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishi tashkilotchilari paxta xom ashyosini yetishtirish va ularga yetkazib berishni moliyalashtirish uchun Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan kreditlar ajratiladi;
- ✚ paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishi tashkilotchilariga kreditlar Jamg'arma mablag'lari hisobidan-yiliga 3% dan ortiq bo'lmagan stavkasi bo'yicha ajratiladi.

2018-yilda paxta-to'qimachilik klasterlariga berilgan barcha imtiyozlarni keyingi yillarda tashkil etiladigan klasterlarga ham tatbiq etish, klasterlar faoliyatini yanada kengaytirishga alohida etibor qaratildi. 2019-yilda jami bo'lib 61 ta klaster tomonidan paxta maydonlarining 51% da paxta yetishtirildi. Yangi quvvatlarni tashkil etish va klasterlar faoliyatini yo'lga qo'yish natijasida, 2019-yilda ishlab chiqarilayotgan paxta tolasining 78 foizi mamlakatimizda qayta ishlana boshladi. Bu 2017-yilga nisbatan 2 marotaba ko'p degani. 2020-yilga kelib, paxta tolasini to'liq qayta ishlashga o'tildi. Tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish ulushi 40 foizdan kamida 60 foizga yetkazildi⁸⁶.

Qishloq xo'jaligida chuqur qayta ishlashni va sanoatni rivojlantirmasdan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmashligini bugun hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

⁸⁶ <https://www.uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/3264/>

So‘nggi yillarda birlamchi qayta ishlash sanoatida qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan yutuqlarimiz ko‘lami kengayib borayotgani ana shu jihatdan e‘tiborga molikdir.

Jumladan, Toshkent viloyatida 2018-2021 yillarda barcha sohalarga klaster tizimi keng joriy etildi. Xususan, viloyatda 50 ta agroklasterning faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ularga fermerlar biriktirilayotgani o‘zaro iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar barqarorlashishi, raqobatbardoshlik oshishida mustahkam zamin bo‘ldi. Bugungi kunda viloyatda yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 20,5 foizi agroklasterni tomonidan tayyorlanmoqda. Natijada so‘nggi 5-yilda hududlarda 31,5 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi.

2021-yilgi mavsumda Toshkent viloyatida paxta-to‘qimachilik klasterlari yaratilgan sharoitlardan omilkorlik bilan foydalanib, paxtadan mo‘l hosil yetishtirishdi. Xususan, paxta hosildorligi o‘tgan yillarga nisbatan 1,2 barobarga va hosildorlik 5-6 sentnerga oshirildi.

Birgina Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan 2021-2025 yillar davomida umumiy qiymati 1 trln. so‘mlik investitsiya loyihalari amalga oshirilib, qishloq hududlarida 2,1 ming nafar ishsiz fuqaroning bandligini ta‘minlash ko‘zda tutilgan. Masalan, O‘rta Chirchiq tumanida faoliyat olib borayotgan “Ko‘kcha Textil” MChJ tomonidan ip-kalava ishlab chiqarish bo‘yicha-yilik quvvati 6,5 ming tonna bo‘lgan, qiymati 140 mlrd. so‘mlik yangi loyihani ishga tushirish hisobiga 1050 ta yangi ish o‘rni yaratilmoqda.

2020-2021 yillarda meva-sabzavotchilik klasterlari tomonidan ham o‘tgan davrga nisbatan mahsulot yetishtirish hajmi 115,6 foizga oshganini kuzatish mumkin. E‘tiborlisi, ular tomonidan 35,4 mln. dollarlik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport qilindi.

Bundan tashqari, mazkur viloyatda 2021-yilda umumiy quvvati 13 ming tonna va saqlash sig‘imi 10 ming tonnaga ega bo‘lgan 2 ta agrologistika markazi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Toshkent viloyatida 2021-yilda g'alla yetishtirish 100 foiz klaster usulda amalga oshirilishi hisobiga o'tgan yillarga nisbatan yalpi hosil 1,2 barobarga, hosildorlik esa 7-8 sentnerga oshdi. 2022-2025 yillarda viloyatda sholichilik, pillachilik yo'nalishidagi klasterlar tomonidan ham yana 3 mingga yaqin ish o'rinlari yaratish rejalashtirildi.

Yana bir e'tiborga molik jihat — klaster usuli yo'lga qo'yilganidan so'ng sohaga 762,2 mlrd.so'mlik 4609 ta zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari xarid qilinishi evaziga hosildorlik ham, daromad ham oshganligini ko'rish mumkin. Masalan, Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq tumanini misol tariqasida oladigan bo'lsak, yillar davomida bu tumanda paxtachilikda biror yutuq va yuqori hosildorlikka erishilmagan. Shu sababli tumanda bugun fermer xo'jaliklari deyarli saqlab qolinmadi. Ayta olamizki, hozir bu tuman paxta yetishtirish bo'yicha lider hududga aylandi. 2020 yil paxtadan 43 sentnerdan hosil olinib, belgilangan reja 123 foizga bajarildi. Ya'ni, respublika bo'yicha eng yuqori hosil olgan tuman sifatida e'tirof etildi. Tumanda mazkur sohada ilgari 1200 nafarga yaqin ishchi mehnat qilgan bo'lsa, klaster tomonidan bugun qariyb 8100 nafardan ziyod odamlarning bandligi ta'minlandi. Soliq tushumlari ham-yiliga 8,7 mlrd. So'mdan 30 mlrd. so'mgacha ortdi. Shuningdek, joriy yil hosili uchun paxta maydonlarida tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy qilish natijasida 4364 gektar paxta maydonlari uchun 39,1 mlrd. so'm subsidiya mablag'lari ajratildi.

Toshkent viloyatda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish borasida klaster tizimini yo'lga qo'yish o'z samarasini berayotganini inobatga olib, viloyatning 8 ta tumanidagi fermer xo'jaliklari klasterlarga birlashtirilgan. Birgina Bekobod tumanida jami 12 ming 500 gektar maydonda paxta va 14 ming 800 gektarda g'alla yetishtirildi. Shundan 6700 gektar paxta, 5000 gektar g'alla maydoni klaster tizimiga ajratilgan. 250 dan ortiq fermer xo'jaliklari klasterlar bilan shartnoma tuzgan holda faoliyat olib bormoqda. Viloyat hokimning 2021 yil 16 sentyabrdagi qarori bilan 2022 yil hosili uchun tumanda fermer xo'jaliklari boshqoli don yetishtirish bo'yicha g'allachilik klasterlari bilan shartnomalar

tuzishdi. Sababi, o'tgan mavsumda 165 ta fermer xo'jaligi g'allani davlatga sotish rejasini bajarishda belgilangan hosildorlikka erisha olmadi.

Bu kabi holatlarni har bir tuman misolida ko'rish mumkin. Masalan, Bo'ka tumanidagi "MELEK DON AGRO" MChJning jamg'arma tomonidan ajratilgan imtiyozli kredit mablag'laridan jami 37,5 mlrd so'mlik qarzdorligi mavjud bo'lib, shundan fermer xo'jaliklar oldidagi yakuniy hisob-kitoblardagi qarzdorligi 10 mlrd. so'mni tashkil etmoqda. Shundan kelib chiqib, 14 ming 800 gektar maydon hududda faoliyat ko'rsatib keluvchi "SANTA GROUP AGRO" MChJga birlashtirilib berildi.

Biz klaster faoliyatiga oid ba'zi bir raqamlarga to'xtalib o'tdik, xolos. Klaster tizimining joriy etilishi misolida sohada hali muammolar ko'pligini, ularni bartaraf etishda keng ko'lamli ishlar olib borilayotganini ko'rish mumkin. Ish bor ekan, muammolar ham yuzaga kelishi tabiiy.

Bir so'z bilan aytganda, klaster tizimi nafaqat qishloq xo'jaligi, balki sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarini qamrab olmoqda. Zamon talabiga mos odimlash esa hamisha barcha jabhalarda yutuq va samaralar garovi bo'lib kelgan. Ya'ni, klasterlar boqimandalikka chek qo'yib, erkin va samarali mehnat qilishga undaydi.

Xulosa qilganda, mamlakatimizning barcha tumanlarida amalga oshirilayotgan agraklaster tizimi iqtisodiyotimizga munosib hissa qo'shishi bilan birga qishloq xo'jaligi mehnatkashlari turmush darajasini ko'tarilishiga va ularning oilaviy daromadlari oshishiga zamin yaratdi.

15.3-§. Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslari, ulardan samarali foydalanish yo'llari

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi asosan sug'oriladigan yerlarda olib boriladi. Sug'oriladigan yerlar umumiy yer maydonining 9,6 foizini tashkil qilib, qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 95 foizdan ortig'i shu yerlarda yetishtiriladi. Respublikamiz dehqonchiligi sug'orishga asoslanganligi sababli suv ham yer resursi kabi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida muhimdir. Qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarining xomashyoga, aholining esa oziq-ovqat

mahsulotlariga b'lgan talabi qondirilishida yer va suvning ahamiyati juda katta. Yer va suvdan qanchalik oqilona, samarali foydalanilsa, ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmi shunchalik ko'payadi. Natijada yuqorida ta'kidlangan talablarning qondirilish darajasi ortadi.

Yerdan foydalanishda uning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir:

a) yeming tabiat mahsuli ekanligi. Boshqa asosiy vositalar, ya'ni binolar, inshootlar, kombaynlar, traktorlar va boshqalar inson mehnatining mahsulidir. Zarariyat bo'lganda ular inson tomonidan ishlab chiqarilishi mumkin, lekin yerni inson yarata olmaydi;

b) yer maydonining cheklanganligi va takror ishlab chiqarilmasligi. Ona zamin tabiatan cheklangan, uning maydonini inson kengaytira olmaydi. Chunki u tabiat mahsuli hisoblanadi. Boshqa asosiy vositalarni, masalan traktorlarni, mashinalarni talabni qondirish maqsadida ko'plab ishlab chiqarish mumkin;

d) yer - qishloq xo'jaligining abadiy ishlab chiqarish vositasidir. Respublika hududida mavjud boigan yerlardan qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda bizdan oldingi avlodlar foydalangan, hozirgi davrda biz foydalanmoqdamiz, kelajalcdada esa avlodlarimiz foydalanadi. Jamiyat rivojlanishi natijasida ayrim ishlab chiqarish vositalari takomillashtirilishi natijasida o'z o'rnini boshqasiga bo'shatib beradi. Masalan, bir paytlar yemi shudgorlashda qoramollar va omochdan foydalanilgan boisa, keyinchalik fan-texnika taraqqiyoti natijasida qudratli traktorlar va pluglar ularning o'rnini egalladi. Lekin yer qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositasi sifatida abadiy qolaveradi, chunki uni boshqa vosita bilan almashtirib bo'lmaydi;

e) yerni qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish maqsadida bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib bo'lmasligi. Yerdan joylashgan o'mida oqilona foydalanish mumkin. Lekin mashina va traktorlarni talab etilgan joyga olib borib, turli xildagi ishlarni amalga oshirish, bino-inshootlarni ham talab etilgan joyga qurish mumkin;

f) yerning yuqori qatlami hisoblangan tuproq unumdorligining mavjudligi. Tuproq unumdorligi tabiiy, sun'iy va iqtisodiy unumdorliklarga bo'inadi. Asrlar davomida tashqi ta'sirlar, ya'ni quyosh nuri, yogingarchilik, chirindilar tushishi va boshqalar ta'sirida shakllangan unumdorlik yerning tabiiy unumdorligi deyiladi. Tuproqning tabiiy unumdorligi - tabiat mahsulidir.

U tabiatning ta'siri natijasida uzoq yillar mobaynida shakllanadi. Uning holati quyosh nuri hamda yogingarchilik miqdoriga, shamol va suvlarning ta'siriga bog'liqdir. Ularning ijobiy ta'sirida tuproq tabiiy unumdorligi yaxshi bo'ladi.

Sayyoramizdagi yerlarning tabiiy unumdorlik darajasi turlicha bo'ladi. Insonlar ta'sir etishi, ya'ni tekislash, shudgorlash, mahalliy va m a'danli o'g'itlar berish, mehnat, mablag' sarflash, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va boshqalar ta'sirida shakllanadigan unumdorlik sun'iy unumdorlik deyiladi.

Agar yerga to'g'ri munosabatda bo'linsa, uning unumdorlik darajasi ortib borish xususiyatiga ega. Darhaqiqat, tuproqqa vaqtida ishlov berilsa, o'g'itlansa, uning unumdorligi oshib borishi mumkin. Lekin boshqa asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida qatnashishi oqibatida jismoniy jihatdan eskiradi. Ular vaqt o'tishi bilan fan-texnika taraqqiyoti natijasida ma'naviy jihatdan ham eskiradi. Lekin yerga e'tibor berilsa, undan fan-texnika yutuqlarini joriy etgan holda oqilona, samarali foydalanilsa, u yaroqsiz holga kelmaydi, unumdorligi oshib borishi mumkin. Ammo bu, uning unumdorligi cheklanmagan, degani emas. Shunday ekan, yerning unumdorligidan tadbirkorlik bilan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

1998-yil 30-aprelda qabul qilingan Yer Kodeksining 8-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasida yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko'ra quyidagi toifalarga bo'inadi:

1) qishloq xo'jaligiga moijallangan yerlar - qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga moijallangan yerlar. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar sug'oriladigan va sug'orilmaydigan (lalmikor)

yerlar, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, ko'p yillik mevali dovdaraxtlar va tokzorlar egallagan yerlarga bo'linadi;

2) aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari - shaharlar va posyolkalar, shuningdek qishloq aholi punktlari chegarasi doirasidagi yerlar;

3) sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga moijallangan yerlar - ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar;

4) tabiatni muhofaza qilish, sogiomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga moijallangan yerlar - alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, tabiiy davolash omillariga ega bo'lgan yerlar, shuningdek ommaviy dam olish va turizm uchun foydalaniladigan yerlar;

5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar - tarixiy-madaniy yodgorliklar joylashgan yerlar;

6) o'rmon fondi yerlari - o'rmon bilan qoplangan, shuningdek o'rmon bilan qoplanmagan bo'lsa ham, o'rmon xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar;

7) suv fondi yerlari - suv obyektlari, suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv obyektlarining qirg'oqlari bo'ylab ajratilgan mintaqadagi yerlar;

8) zahira yerlar.

O'zbekiston Respublikasi yer fondi O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri qo'mitasi tomonidan har yili 1-yanvar holati bo'yicha korxonalar, muassasa va tashkilotlarning yerlaridagi barcha o'zgarishlar to'g'risidagi ma'umotlar, xo'jaliklar tomonidan yer hisobi hujjatlari asosida tuzilgan hamda tuman, shahar va viloyat hokimlarining qarorlari bilan tasdiqlangan yillik yer hisobotlarini respublika bo'yicha umumlashtirish natijasida tuziladi.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy chegarasidagi yer maydoni 44896,9 ming gektarni tashkil qiladi. 2009-yil 1-yanvar holatiga O'zbekiston

Respublikasi korxonalar, tashkilot, muassasa va fuqarolari foydalanishidagi yerlar jami 44410,3 ming gektarni, sug'oriladigan yerlar esa 4303,0 ming gektarni yoki umumiy maydonning 9,6 foizini tashkil qiladi.

Mamlakatimiz yer fondining toifalari bo'yicha tarkibi 3.1-jadvalda keltirilgan.

3.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi yer fondining 2009-yil 1-yanvar holatiga toifalar bo'yicha taqsimlanishi⁸⁷

Yer fondining toifalari	Jami maydon		Shundan sug'oriladigan	
	ming gektar	oiz	ming gektar	oiz
Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar	22338,3	50,3	4206,8	94,7
Aholi punktlari yerlari	236,3	0,53	48,8	0,11
Sanoat, transport, aloqa, raudofaa va boshqa maqsadlarda foydalaniladigan yerlar	1955,5	4,4	11,7	0,03
Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlarida foydalaniladigan yerlar	72,5	0,2	0,6	0,002
Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	0,3	0,001	-	-
O'rmon fondi yerlari	8562,3	19,2	26,3	0,6
Suv fondi yerlari	827,2	1,86	4,3	0,01
Zahira yerlar	10417,9	23,4	4,5	0,01
Jami yerlar	44410,3	100	4303,0	100

2009-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlari yerlarning umumiy maydoni 22338,3 ming gektarni yoki yer fondining 50,3 foizini tashkil qiladi.

Mamlakatimizda ekin maydonlarining boshqa maqsadlarga ajratilishi natijasi ularning umumiy maydoni da kamayish kuzatilgan. 2000-yilda barcha turdagi xo'jaliklarda umumiy ekin maydoni 3778,3 ming gektarni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2008-yilda 3609,3 ming gektarni va 2009-yilga kelib 3608,5 ming gektarni tashkil etgan.

⁸⁷ O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri qo'mitasi ma'lumotlari.

Mamlakatimiz hududlari bo'yicha sug'oriladigan ekin maydonlarining taqsimlanishi⁸⁸

№	Viloyatlar	Sug'oriladigan ekin maydonlari, ming ga		
		2006	2007	Farqi
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	419,4	419,2	-0,2
2	Andijon	198,3	199,3	+1,0
3	Buxoro	199,6	200,2	+0,6
4	Jizzax	260,4	261,7	+1,3
5	Qashqadaryo	421,6	422,1	+0,5
6	Navoiy	89,7	89,6	-0,1
7	Namangan	198,6	200,2	+1,6
8	Samarqand	257,0	255,4	-1,6
9	Surxondaryo	242,0	242,0	-
10	Sirdaryo	256,0	255,9	-0,1
11	Toshkent	301,7	304,1	+2,4
12	Farg'ona	249,6	249,3	-0,3
13	Xorazm	209,2	209,0	-0,2
14	Toshkent shahri	0,5	0,5	-
Jami:		3303,6	3308,5	+4,9

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarga qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanadigan yoki shu maqsadga moijallab qishloq xo'jaligi korxonalari, tashkilotlari, muassasalari va fuqarolarga ajratib berilgan yerlar kiradi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qishloq xo'jaligini yuritish uchun zarar boigan qishloq xo'jalik yerlari va daraxtzorlar, ichki xo'jalik yo'llari, kommunikatsiyalar, o'rmonlar, yopiq suv havzalari, bino va inshootlar egallagan yerlarga ajraladi. Qishloq xo'jalik yerlari maxsus muhofaza qilinishi lozim. Qishloq xo'jalik yerlarini bir toifadan boshqa toifaga o'tkazish belgilangan qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Mamlakatimizning iqlim sharoitiga ko'ra tabiiy namlik darajasi dehqonchilik bilan shug'ullanish va chorvachilikni ozuqa bazasi bilan to'liq ta'minlash uchun yetarli emas. Shu sababli qishloq xo'jaligida suv resursining ham ahamiyati juda katta.

⁸⁸ O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri qo'mitasi ma'lumotlari.

Yer sharining 72 foizi dunyo okeani bilan band bo'lsada, chuchuk suvlar miqdori juda cheklangan. Yer usti chuchuk suvlari miqdori 360 ming km³ bo'lib, bu gidrosferaning atigi 0,25 foizini tashkil etadi. Dunyo bo'yicha 1 milliarddan ortiq aholi suv tanqis hududlarda istiqomat qiladi. Suv tiriklik manbaidir, uni e'zozlash, undan tejab-tergab foydalanish kerak.

O'zbekiston hududini ikki yirik daryo: Amudaryo va Sirdaryo kesib o'tgan, ularning suv olish havzalari Tyan-Shan va Pomir-Oloy tizimi tog'larida joylashgan. O'zbekistonda eng yirik daryo Amudaryo hisoblanadi. Uning tog' qismida suv oluvchi havzasi 227 ming km², uning havzasidan har-yili o'rtacha 79 km³ suv oqib o'tadi. Shundan respublikamiz hududida taxminan 6 km³ (7,5 %) suv oqimi vujudga keladi. Sirdaryoning tog' qismidagi suv oluvchi havzasi maydoni 150 ming km², ushbu havzada har-yili o'rtacha 38 km³ suv oqib o'tadi. Shundan taxminan 4 km³ (qariyb 10 %) suv O'zbekistonda vujudga keladi.

Ushbu daryolar transchegaraviy daryolar bo'lib, ularning suvidan qo'shni respublikalar ham foydalanadi. Shu sababli mazkur daryolar suvidan foydalanuvchi barcha davlatlar hamkorlikda, o'zaro kelishuv asosida harakat qilishi maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizning suv resurslari haqida fikr bildirilganda Orol dengizi to'g'risida ham to'xtalib o'tish lozim. Orol havzasida aholi ko'pligi va ular sonining barqaror oshib borishi sug'oriladigan dehqonchilikni muttasil rivojlantirishni talab etadi. Bu hol daryolardan ko'p miqdorda suv olinishiga olib keladi. 1960-yilga kelib Markaziy Osiyoda salkam 5 mln. gektar maydonni sug'orish uchun 40,4 km³ suv olingan holda, 1986-yil oxirida qariyb 7 mln. gektar maydonni sug'orish uchun 86 km³ suv olingan, bu sug'orish maydoni 2 mln. gektarga ortgan holda sug'orish uchun sarf qilingan hajm ikki baravardan ham ortiq b'lgan. Binobarin, ekinlarni suv bilan ta'minlash uchun juda ham ko'p suv olinganligi ayon bo'ladi. Ko'p miqdordagi suvning sug'orish va boshqa maqsadlarga sarflanishi o'lkada suv tanqisligini kuchaytiraboshladi. Shu vaqtga kelib Markaziy Osiyoda yirik suv omborlari:

To'xtog'ul, Andijon, Chorvoq, Chordara, Qayroqqum, Nurek, Janubiy Surxon, Hovuzxon, Tuyamo'yin va boshqalar qurildi. Ularda ko'plab suv g'amlab olina boshlandi. Bu hol, ayniqsa, Orol dengizi suv rejimida yanada kuchliroq sezila boshlanishi tufayli uning gidrologik xususiyatlarida o'zgarishlar kuchaydi.

Mutaxassislaming ma'lumotiga ko'ra, 1911-1960 yillar davomida Orol dengiziga har - yili o'rtacha 52 kub suv quyilib kelgan va uning sathi muntazam ravishda 53 m mutlaq balandlikda bo'lgan, dengiz maydoni 66 ming km², suv hajmi 1061 km² ga teng edi. Ushbu yillar mobaynida dengizga kelgan suv bilan uning suv sarfi deyarli teng boigan. Orol sathining 1961 -yildan boshlab pasayishi turli yillarda turlicha sodir boigan. 1961-1970 yillar mobaynida pasayish o'rtacha 21 sm, 1971-1980 yillarda 58 sm, 1981-1985 yillarda 80 sm, 1986-1995 yillarda 46 smni tashkil qildi. Ayrim yillarda suv sathining pasayishi hatto bir metrdan ham ziyod edi. Orolning qurigan qismining (maydoni 3,8 mln. ga dan ortiq) tabiiy sharoiti o'ziga xos, 1961 -yildagi qirg'oqdan ichkari tomon 10-20 Ion masofada qumli mintaqa vujudga kelgan. Bu yerlar asosan barxan qumlari bilan band. Ushbu global ekologik muammoni hal etish borasida O'zbekistonning birinchi Preidenti Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimiz hukumati zarur choralarni amalga oshirmoqda va xalqaro hamjamiyatning e'tiborini ushbu masalaga qaratmoqda. Mazkur muammoni yechishda mintaqadagi mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar hamkorlikda harakat qilishi yuqori samara beradi.

O'zbekiston hududida vujudga keladigan yer usti suvlarining o'rtacha yillik oqim hajmi 10 km³, atrofdan qo'shimcha 89 km³ suv keladi. Daryolar oqimini tartibga solish, irrigatsiya va energiya ishlab chiqarish maqsadida mamlakatda 53 ta katta-kichik suv ombori va 28 ta selxona qurilgan, suv omborlarining jami suv sig'imi 16 km³ dan ziyod.



To'palang suv ombori. 2018-yil.

Respublikamizda suv resurslarining 85,6 foizi qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalaniladi. 1993-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilingan bo'lib, suv resurslaridan foydalanishni tartibga solib boruvchi asosiy me'yoriy hujjatlardan biri hisoblanadi.

Suvdan foydalanish tartibi suv xo'jaligi organlari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, suv maxsus foydalanish ruxsatnomasi bo'lganlarga limit bo'yicha beriladi. Suv olish va uning hisob-kitobini qilish suv xo'jaligi organi bilan tuzilgan shartnomaga binoan amalga oshiriladi. Sug'orish va suv bilan ta'minlashni magistral kanallar, suv omborlari va boshqa suv xo'jaligi obyektlari bajaradi. Suvdan foydalanish ishlari ichki xo'jalik va suv tizimi rejalariga asosan amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligidagi foydalaniladigan suvni monitoring qilish orqali salbiy jarayonlarning sabablari va oqibatlari o'rganilib, ularni bartaraf etish va suvdan foydalanish samaradorligini oshirishga erishiladi. Suvdan samarali foydalanishda suvning aniq hisob-kitobini yo'lga qo'yish, suv oichash

qurilmasi, ya'ni gidropostlar qurishni tashkil etish, xo'jalik ichki ariqlarini tozalash, suv sarfi isrofgarchiligini bartaraf etish muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan suvlarning sifati ham barcha viloyatlarda bir xilda boim ay, bir-birlaridan farq qiladi. Masalan, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarining aksariyat hududlarida ekinlarni sug'orishda foydalaniladigan suvlarning sifati yaxshi, ya'ni ularning tarkibida hosildorlikka salbiy ta'sir etuvchi turli xildagi minerallar kam, lekin Qoraqalpogiston Respublikasi, Xorazm viloyati hududlarida foydalanilayotgan suvlarning tarkibida xlor va boshqa moddalar ko'p. Shuning uchun ham ularning sifati nihoyatda yomon. Bunday hoi qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish hajmiga, sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kelajakda yerlarning unumdorligini oshirish, suvlarning sifatini yaxshilashga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasini samarali amalga oshirish orqali zarur qishloq xo'jalik mahsulotlari miqdorini ko'paytirishga va sifatini yaxshilashga erishish mumkin.

Kollektor-zovur suvlarining bir yillik oqimi butun Orol havzasida hozirgi vaqtda o'rtacha 33 km³ni tashkil etadi, shundan 17 km³ Amudaryo, 13 km³ Sirdaiyo, 3 km³ kichik daryo havzalarida vujudga keladi, 20 km³ zovur suvi Amudaryo va Sirdaryoga qaytadan tashlanadi, qolgan qismi Qoraqum va Qizilqumdagi bekiq botiqlaridagi koilarga yuboriladi. Kollektor-zovur suvlarini daiyolarga qaytadan tashlanishi ularning suv hajmini oshiradi, boshqacha aytganda suvni tejashga erishiladi, ko'llarga tashlangan suv esa bug'lanishga sarf bo'ladi. Bu bir jihatdan foydali. Lekin kollektor-zovur suvlarining 60-yillardan boshlab daryolarga tashlanishi ularning suvini asta-sekin ifioslanishiga olib keldi. Yaqin vaqtlargacha daryo suvlari asosiy ichimlik manbai bo'lib kelgan. Endilikda, ulardan ichimlik suvi sifatida foydalanish darajasi pasayib bormoqda.

Kollektor-zovur suvlarining 8-10 km³ qismi respublika hududida turli kattalikdagi botiqliklarga markaziy kollektorlar orqali yuboriladi. Buning

oqibatida ko‘plab sun‘iy koilar paydo bo‘ldi (Amasoy, Aydarkoi, Dengizkoi, Katta Sho‘rko‘l, Oyoqogitma, Ayozkoi, Axchakoi, Sariqamish va boshqalar).

Ularda hozirgi kunda katta hajmda suv to‘plangan. Aydarko‘lda jamg‘arilgan suv miqdori 30 km³ dan ziyod. Sariqamishda esa bundan ham ko‘p. Gap shundaki, suvning asosiy qismi bekorga bugianishga sarf bo‘lmoqda. To‘g‘ri ularning ba‘zilarida baliqchilikda foydalaniladi, lekin bu hoi suvdan oqilona foydalanish tamoyiliga to‘liq javob bermaydi. Iqtisodiy jihatdan zarari shundaki, botiqlar bundan avval mahsuldor yaylov sifatida foydalanilgan, endilikda yaylovlar maydoni qisqardi. Bundan tashqari tevarak atrofida grunt suv sathining ko‘tarilishi yaylov mahsuldorligining kamayishiga ta‘sir etdi. Chunonchi, Aydarko‘l 1969-yilgacha Forish tumanining asosiy yaylov maydoni hisoblangan, hozir esa yaylov maydoni 600 ming gektarga qisqardi.



Aydarko‘l. 2021 yil.

Mustaqil rivojlanish yillarida hukumatimiz tomonidan suv xo‘jaligini boshqarishni takomillashtirishga alohida e‘tibor berilmoqda. Jumladan, suvdan samarali foydalanishni ta‘minlash maqsadida sobiq Qishloq xo‘jaligi va Suv xo‘jaligi vazirliklari negizida Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tashkil etildi.

Suvdan foydalanish tartibi ham bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Suv xo'jaligi bosh boshqarmasi suv resurslaridan foydalanishni tartibga solish hamda respublika iqtisodiyoti va aholisini suv bilan ta'minlashga doir zarur tadbirlarni amalga oshiradi. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- suvdan foydalanishda bozor islohotlarini joriy etish, suvdan maqsadli va samarali foydalanishni tashkil etish;

- suv xo'jaligiga suvni tejoychi ilg'or texnologiyalarni joriy etish;

- iste'molchilarni suv bilan uzluksiz o'z vaqtida ta'minlash;

- suvdan foydalanish hisobi va hisobotini yuritishni ta'minlash;

- suv xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirish ishlarini muvofiqlashtirish va ular amalga oshirilishining monitoringini yuritish;

- mavjud me'yoriy hujjatlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, qonun buzilishi hollarida belgilangan tartibda chora ko'rilishini ta'minlash;

- suv xo'jaligi uchun yangi inshootlar qurilishini va mavjudlarining rekonstruksiya qilinishini ta'minlash;

- suvdan foydalanish uchun maxsus ruxsatnomalar berishni va suv inshootlarini ro'yxatga olish, suvdan foydalanuvchilar uyushmalari va ularning boshqa birlashmalarini tashkil etish va rivojlantirishda, ichki xo'jalik suv hisobini tashkil etishda uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish;

- suv resurslarini tartibga solish va ulardan foydalanish, suv xo'jaligini va yerlarni melioratsiyalash bo'yicha davlatlararo masalalarni muhokama qilish va hal qilishda respublika nomidan ishtirok etish.

Mamlakatimizdagi mavjud suv xo'jalik tashkilotlari va xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalar hamda ularning hududiy bo'linmalari negizida Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tuzilgan. Uning vazifasi xalq xo'jalik tarmoqlari hamda qishloq xo'jalik korxonalarida mahsulot yetishtirish uchun suv bilan ta'minlash

va suv xo'jaliklariga servis xizmat ko'rsatishdan iboratdir. Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining suv xo'jaligi sohasidagi hududiy organi hisoblanib, suv resurslarini tartibga solish va foydalanishni amalga oshiradi.

Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining asosiy vazifalari:

- ✚ suvdan foydalanishning bozor mexanizmlarini joriy etish asosida suv resurslaridan maqsadli va samarali foydalanilishini tashkil etish;
- ✚ suvni tejash, ilg'or texnologiyalarni joriy etish asosida suv xo'jaligida yagona texnika siyosatini yuritish;
- ✚ iste'molchilarni suv bilan uzluksiz va o'z vaqtida ta'minlashni tashkil etish;
- ✚ suv inshootlarining texnik ishonchliligini ta'minlash;
- ✚ suv resurslarini oqilona boshqarish va tezkorligini oshirish; suv iste'molchilari o'rtasida yillik hisobotini ta'minlashdan iborat.

Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining asosiy funksiyalari - suvdan foydalanish bashoratini umumlashtirib, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga suv olish limitlari bo'yicha takliflar kiritib, tasdiqlangan limitlar asosida magistral kanallar, suv xo'jaligi obyektlari, irrigatsiya tizimlari, viloyat va tumanlar bo'yicha suv olish limitlarini belgilaydi, nasos stansiyalari ish rejimini belgilaydi.

Magistral kanallar boshqarmasi Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining tashkiliy bo'linishi hisoblanib, suv resurslarini tartibga solish bo'yicha faoliyat yuritadi. Magistral kanallar boshqarmasining asosiy vazifalari quyidagilar:

- magistral kanallar, inshootlar va suv resurslarini oqilona boshqarish, uning tezkorligini oshirish;
- suv inshootlarining texnik ishonchliligini ta'minlash, ishonchli foydalanish uchun ish holatida saqlash;
- suv bo'yicha hisob-kitob yuritish;
- suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, ajratilgan mablaglar, moddiy- texnika resurslari, asbob-uskunalaridan samarali foydalanish.

Ayrim yillarda yog'ingarchilik miqdori kam boiishi natijasida suv resurslari taqchilligi kuzatilmoqda. Shu sababli mamlakatimizdagi sug'orish tizimlarining holatini yaxshilash, mavjud suvdan oqilona foydalanish va sug'orishning zamonaviy usullarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Yer va suv umummilliy boylikdir. O'zbekiston Respublikasi xalqining hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida ulardan oqilona hamda samarali foydalanish zarurligi Yer Kodeksida, «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonunda alohida ta'kidlangan. Respublika hududidagi barcha korxonalar, fuqarolar bu qonuniy talabni bajarishlari shart. Shuning uchun ular tuproq unumdorligini saqlash va oshirishga, suvni iflos qilmaslikka, shuning negizida ulardan talab darajasida samarali foydalanishga katta e'tibor berishlari lozim. Shu mas'uliyatni his etgan holda qishloq xo'jalik korxonalari uni ijobiy hal etishga, foydalanish mumkin boigan maydonlardan to'liq va samarali foydalanishga intilmoqdalar. Eng asosiy maqsad aholining oziq-ovqatga, sanoatning esa xomashyoga bo'lgan talabini qondirishdir.

O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan agrar iqtisodiy islohotlar natijasida yangi tamoyillarga asoslangan yer munosabatlari shakllanmoqda. Uning asosiy qoidalari qonunchilik hujjatlarida o'z ifodasini topgan. Bosh qomusimiz hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida «Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralari umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir» - deb belgilab qo'yilgan. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish ijara usuliga asoslangan bo'lib, yer ijara mexanizmi orqali bozor munosabatlariga kiritiladi.

Shuni ta'kidlash zarurki, agrar islohotlar jarayonida qishloqda turli toifadagi yerdan foydalanuvchilar soni keskin ko'paydi va bu hozir ham davom etmoqda. Shu bilan birga, har-yili qishloq xo'jaligi yerlari noqishloq Xo'jalik maqsadlari uchun ajratilishi davom etmoqda. Ushbu vaziyatlarda davlatning yer resurslaridan foydalanishni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish

katta ahamiyatga ega. Bunda rivojlangan xorij davlatlarida to'plangan tajribalarni hisobga olish samarali yo'llardan biridir.

1998-yil 30-aprelda O'zbekiston Respublikasining Yer Kodeksi qabul qilingan. Ushbu Kodeks 14 bob, 91 moddadan iborat bo'lib, yer resursining toifalari va undan foydalanish bo'yicha barcha qoidalar yoritib berilgan. Ushbu Kodeksning 1-moddasida «Yer umummilliy boylikdir, O'zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi» - deb ta'kidlangan.

Respublikamizda ekin maydonlarining aholiga shaxsiy tomorqa xo'jaligi va turar joylarni qurish uchun, sanoat, sug'orish inshootlarini barpo etish uchun ajratilishi oqibatida ekin ekiladigan maydon kamaymoqda. Bu obyektiv jarayon kelajakda ham davom etadi. Shuning uchun mavjud yerlardan yil davomida oqilona, samarali foydalanish zarur. 1993-2003-yillarda respublikaning umumiy ekin maydoni 173,5 ming gektarga yoki 4,1 foizga qisqargan. Lekin shu davrda g'alla maydoni salkam 400 ming gektarga ko'paygan. Bu g'alla hosili kuzayishiga ijobiy ta'sir etdi. G'alla maydonining kengayishi asosan paxta hamda ozuqa ekinlari maydonlari kamayishi evaziga yuz bergan. Shu davrda paxta ekiladigan maydon 260,6 ming gektarga, ozuqa ekinlari ekiladigan maydon esa 410 ming gektarga qisqargan. Ozuqa ekinlari maydonlarining qisqartirilishi o'z navbatida almashlab ekish tizimining buzilishiga olib keldi hamda chorvachilikning mustahkam ozuqa bazasini barpo etishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois kelajakda yerdan foydalanish samaradorligini yuksaltirish uchun almashlab ekishni joriy etishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimiz hukumati tomonidan aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlash, eksport hajmini oshirish, tarmoqda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash maqsadida qishloq xo'jaligidagi ekin maydonlarini optimallashtirishga e'tiborni kuchaytirmoqda.

2008-yil 20-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oziq- ovqat ekinlari ekiladigan maydonlarni optimallashtirish va ularni yetishtirishni ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4041-sonli Farmoni e‘lon qilindi va unga ko‘ra mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishni ko‘paytirish maqsadida paxta ekib kelinayotgan maydonlarning bir qismi g‘alla va boshqa ekinlar uchun ajratib berildi. Ushbu farmon ijrosini ta‘minlash bo‘yicha Surxondaryo viloyati Hokimining 2008-yil 23-oktabrda 169-sonli qarori qabul qilingan va ushbu qarorda 2009-yil hosili uchun avval paxta ekib kelingan 3400 gektar yerning 3000 gektariga g‘alla, 115 gektariga sabzavot, 30 gektariga kartoshka va 255 gektariga moyli ekinlar ekish rejalashtirilgan.

Ekinlar ekiladigan yerlardan to‘liq va samarali foydalanishga barcha xo‘jaliklar alohida e‘tibor bermoqdalar. Bu harakat ijobiy natijalar bermoqda va so‘nggi yillarda barcha turdagi ekinlarning hosildorlik darajasi ortib bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligining suv resurslariga boigan talabi so‘nggi yillarda 49,4 mlrd. m³ ni tashkil etmoqda. Suv resurslaridan unumli foydalangan holda xo‘jaliklar g‘alla, paxta ekilgan maydonlardan yuqori hosil olib, yerdan samarali foydalanmoqdalar. Buning uchun ular ekin ekiladigan yerlarni vaqtida sifatli haydab, sara urug‘larni yangi texnologiyalar asosida ekib, parvarishlashga aloqador boshqa tadbirlarni e‘tibor bilan o‘tkazmoqdalar. Ekinlarga agrotexnik muddatlarda suv, o‘g‘it berish, yetishtirilgan hosilni qisqa muddatda sifatli qilib yig‘ishtirib olishga e‘tibor bermoqdalar. Bu jarayonda xo‘jalik rahbarlari, mutaxassislari barcha imkoniyatlardan to‘liq va samarali foydalanmoqdalar.

Hozirgi davrda fermer va dehqon xo‘jaliklarida yerlardan foydalanish samaradorligi yil sayin yaxshilanmoqda. Bunga asosan mulk va unga egalikning o‘zgarishi, ya‘ni manfaatdorlikning ortishi ta‘sir ko‘rsatgan.

Qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligining oshishi yerdan foydalanish samaradorligi yuksalishini ta‘minlaydi. Lekin erishilgan natijalar o‘ziga borayotgan talab darajasida emas. Yer va suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun bir qancha tashkiliy, iqtisodiy

tadbirlarni amalga oshirish lozim. Yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilashni ta'minlovchi tadbirlarni kompleks amalga oshirishni rivojlantirish juda muhim hisoblanadi. 1990-yilda respublikamiz bo'yicha umumiy sug'oriladigan maydonlarning 48,2 foizi turli darajada sho'rlangan bo'lsa, 2005-yilga kelib 65,9 foizga yetgan edi. Ayrim viloyatlarda ushbu ko'rsatkich juda yuqori. Masalan, Sirdaryo viloyatida bu ko'rsatkich mos ravishda 79,3 va 85,7 foizni tashkil qilgan. Yerlarning sho'rlanish darajasiga ayrim joylarda irrigatsiya tizimining yaroqsiz holga kelganligi, suvdan tejab-tergab samarali foydalanish qoidalarining buzilishi, ekinlarni sug'orish texnologiyasining takomillashmaganligi, yerdan foydalanuvchi subyektlar sonining ko'payishi, ularga ijaraga berilayotgan yer uchastkalarining maydalashib ketganligi va ularning meliorativ tadbirlarni amalga oshirishga mablag'lari yetishmasligi sabab bo'lmoqda.

O'zbekistonning birinchi Prezidenti I. Karimov ta'kidlaganlaridek: «...yerlarning meliorativ holatini, ishdan chiqqan vertikal va gorizontal drenajlarni, kollektorlarni tartibga solmasdan, bu boradagi og'ir muammolarni hal qilmasdan turib, bugungi vaziyatdan chiqishni umuman tasavvur qilish qiyin. Toki ushbu masala yechilmas ekan, dehqonlarimiz qanday fidokorona mehnat qilmasin, qanday shijoat ko'rsatmasin, bu harakatlar kutilgan natijaga olib kelishi amrimahol»⁸⁹.

Bu muammoni yechishda davlatning bevosita ko'magi lozim. Bu muhim tadbirni qishloq xo'jalik korxonalarining o'zlari bajara olmasligi mumkin, chunki ularning texnik-iqtisodiy quvvati yetmaydi. Qishloq xo'jalik korxonalari yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda irrigatsiya va melioratsiya davlat hissadorlik tashkilotlarining ma'lum haq evaziga xizmat qilishini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Mazkur soha bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarning huquqiy asoslari yaratilgan bo'lib, ular jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 29-oktabrdagi «Sug'oriladigan

⁸⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi. «O'zbekiston ovozi» gazetasi, 27-noyabr 2004-yil

yerlaming meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3932 sonli Farmoni,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 31-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi sug'oriladigan yerlaming meliorativ holatini yaxshilash jam g'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-718 sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 21-dekabrdagi «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasini tashkil etish to'g'risida»gi 266-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 19-martdagi «2008-2012-yillarda sug'oriladigan yerlaming meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturi to'g'risida»gi PQ-817-sonli Qarori va boshqalarni kiritish mumkin.

Bundan tashqari «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi -yili» Davlat dasturida belgilab berilgan chora tadbirlaming to'rtinchi yo'nalishi - 2008-2012-yillarda sug'oriladigan yerlaming meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturida ko'zda tutilgan chora-tadbirlar tizimining izshil amalga oshirilishiga, ya'ni ekin maydonlarining meliorativ ahvolini yaxshilash, faoliyat ko'rsatayotgan irrigatsiya-melioratsiya obyektlarining tegishli texnik holatini ta'minlash, ixtisoslashgan suv xo'jaligi, qurilish va ekspluatatsiya tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ulami zamonaviy texnika bilan jihozlash masalalariga alohida e'tibor qaratishdir. Bundan tashqari mazkur dasturda sug'orishning tejamli usullarini, jumladan, tomchilatib sug'orishni joriy qilishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Unda tegishli asbob-uskunalar va tizimlarni mamlakatimizning o'zida ishlab chiqarishni tashkil etgan holda 2009-2020 yillarda tomchilatib sug'orish tizimlarini joriy etish dasturini ishlab chiqish nazarda tutilgan. Bundan tashqari respublika viloyatlarida 2009-yilda jami 3710 gektar maydonda tomchilatib sug'orishni joriy etish mo'ljallangan edi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning 2007-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga

bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi «Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash- barcha islohot va o'zgarishlanmizning bosh maqsadidir» mavzusidagi ma'ruzasida yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratdi.

Bugungi kunda mamlakatimiz qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish masalasi sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini oshirish bo'yicha o'ta muhim vazifani hal etish bilan bevosita bogliqdir. Mazkur muammoni hal etish ko'p jihatdan 2008-2012-yillarga moijallangan sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan davlat dasturini amalga oshirish bilan bog'liqdir. Ushbu dasturda melioratsiya inshootlarini barpo etish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, melioratsiya texnikasi parkini yangilash bo'yicha keng kolam li ishlarni bajarish belgilangan. 2008-2012-yillarda umumiy uzunligi 3,5 ming kilometrda ziyod bo'lgan magistral, tumanlararo va xo'jaliklararo kollektorlami, mingdan ortiq melioratsiya qudugini baipo etish va rekonstruksiya qilish, 7,6 ming kilometrlik drieriaj tarmog'ini qayta tiklash vazifasi qo'yilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 19-martdagi PQ-817-sonli «2008-2012-yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturi to'g'risida»gi qaroriga muvofiq 2008-yilda mazkur Davlat dasturi doirasida jami 92,9 mlrd. so'm mablag' maqsadli o'zlashtirildi.

Jumladan, rekonstruksiya qilish va qurish bo'yicha 47 ta loyiha (22,4 mlrd. so'in) hamda 243 ta obyekt bo'yicha (38,6 mlrd. so'm) ta'mirlash-tiklash ishlari amalga oshirildi va 31,9 mlrd. so'mlik meliorativ texnikalar xarid qilindi. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida 266,5 kilometr masofadagi kollektor-drenaj tarmoqlari rekonstruksiya qilindi va qurildi, uzunligi 11052,7 kilometr magistral, tumanlararo va xo'jaliklararo kollektorlar tozalandi, jami 896,2 kilometr masofada yopiq-yotiq zovur tarmoqlari ta'mirlandi hamda lizing asosida 144 dona gidravlik zanjirli ekskavatorlar keltirilib, shundan 112 tasi yangi tashkil

etilgan Davlat unitar korxonalariga yetkazib berildi. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, tuproqning unumdorligini tubdan oshirish borasida 2009-yilda 3710 ga yer maydonida tomchilab sug'orishni tashkil qilish ko'zda tutilgan edi.

Hozirgi vaqtda yurtimizda jami sug'oriladigan yerlarning qariyb 49 foizi turli darajada sho'rlangan bo'lib, buning qariyb 18 foizi kuchli va o'rta darajada sho'rlangan yerlardir, 23 foizdan ortig'i esa boniteti past yerlar toifasiga kiradi. Meliorativ holati qoniqarsiz yerlarning katta qismi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Jizzax va Farg'ona viloyatlariga to'g'ri keladi.

Mamlakatimizda yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini oshirishga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi yil sayin oshirib borilmoqda. Ayni paytda ushbu maqsadlar uchun yo'naltirilayotgan katta miqdordagi mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish va ularni maqsadli ishlatish, zamonaviy texnologiyalar va texnikani joriy etishga e'tibor berish lozim.

Maxsus ishlab chiqilgan keng ko'lamli dasturni izchil amalga oshirish hisobidan yerlarning meliorativ holati muttasil yaxshilanmoqda. Faqat 2010-yilning o'zida yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun 150 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi va bu 724 kilometrlik kollektor-drenaj tarmoqlari, 208 ta meliorativ quduqlarni barpo etish va rekonstruksiya qilish, qariyb 14 ming kilometrlik kollektor-drenaj tizimini ta'mirlash, qayta tiklash va 335 ta zamonaviy melioratsiya texnikasini xarid qilish imkonini berdi.

Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy, Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari, shuningdek, Markaziy Farg'ona hududi va Qoraqalpog'iston Respublikasida irrigatsiya hamda melioratsiya inshootlarini qayta tiklash uchun 2010-yilda xalqaro moliya institutlarining 62 million dollardan ziyod mablag'lari jalb qilindi va o'zlashtirildi.

Amalga oshirilgan ana shunday keng miqyosdagi ishlar natijasida 260 ming gektar sug'oriladigan yeming meliorativ holati yaxshilandi va bu qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini, fermer hamda dehqon xo'jaliklarining daromadini oshirish uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

2007-yil 25-dekabrda « O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksini tasdiqlash to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi va mazkur Kodeks 2008-yil 1-yanvardan amaliyotga joriy etildi. Mazkur Kodeksning 57-bobi yagona yer solig'iga bag'ishlangan bolib, unda qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar va qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari yagona yer solig'i to'lovchilari ekanligi, o'rmon va ovchilik xo'jaliklari, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yagona yer solig'ini tolovchilar sifatida qaralmasligi ko'rsatib o'tilgan.

Ushbu Kodeksning 364-moddasida yer uchastkalari ijaraga (shu jumladan ichki xo'jalik pudratiga) berilganida yagona yer solig'ini to'lash majburiyati ijaraga beruvchining zimmasida saqlanib qolishi ko'rsatilgan. 365-moddada esa qonun hujjatlariga muvofiq qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkasi soliq solish obyekti ekanligi ko'rsatilgan. 366-moddada soliq solinadigan yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normativ qiymati soliq solinadigan bazadir. Yer uchastkalarining normativ qiymati belgilanmagan qishloq xo'jaligi tovari ishlab chiqaruvchilari uchun soliq solinadigan yer uchastkalari maydoni soliq solinadigan bazadir.

Mazkur Kodeksning 367-moddasida yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlar belgilab berilgan. Yagona yer solig'ini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

- yangi tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan boshlab ikki yil muddatga. Mazkur

imtiyoz tugatilgan fermer xo'jaliklari bazasida tashkil etilgan fermer xo'jaliklariga tatbiq etilmaydi;

- ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlari - yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki faoliyati qayta tiklangan taqdirda ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Yagona yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davrining 1-mayigacha taqdim etiladi.

Yil davomida berilgan yer uchastkalari uchun yagona yer solig'i yer uchastkasi berilganidan keyingi oydan boshlab to'lanadi. Yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) taqdirda, yagona yer solig'ini to'lash yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) oydan boshlab to'xtatiladi (kamaytiriladi). Yer uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o'zgargan, shuningdek yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'Mgan huquq vujudga kelgan (tugatilgan) taqdirda, soliq tolovchilar davlat soliq xizmati organlariga hisobot-yilining 1-dekabrigacha yagona yer solig'ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari shart. Yagona yer solig'ini to'lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi: hisobot -yilining 1-iyuligacha - yillik soliq summasining 20 foizi, hisobot -yilining 1-sentabrigacha - yillik soliq summasining 30 foizi, hisobot -yilining 1-dekabrigacha — soliqning qolgan summasi.

Yer va suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligim yuksaltirish uchun yer-suv munosabatlarini takomillashtirish, chuqurlashtirish, ya'ni liberallashtirish masalalarini hal etishni tezlashtirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun yer va suvning baholarini va ulardan foydalanganlik uchun to'lanadigan haqlarni, soliqlar miqdorini realroq aniqlash lozim. Bunda bozor iqtisodiyoti qonunlari talablariga asoslanish, shuningdek, yer va suv resurslarining cheldanganligi, takror ishlab chiqarilmasligi, holati, sifati, iste'molchilarga uzoq-yaqinligi, ishlab chiqarish vositalari hamda infratuzilmalar

bilan ta'minlanganligi, olinayotgan mahsulot, foyda summasi kabi indikatorlarni ham e'tiborga olish zarur.

Yer - xalqimiz hayoti, faoliyati va farovonligining asosidir. Undan faqat bugunni emas, kelajak avlodlarning ham manfaatlarini ko'zlab, ilmiy asoslangan holda, oqilona, samarali foydalanish, uni muhofaza etish umummilliy dolzarb masala hisoblanadi. Mamlakatimiz hududidagi barcha boyliklardan, shu jumladan, yer va suv resurslaridan ham oqilona, samarali foydalanish lozim. O'ta muhim bu vazifa hal etilishini ta'minlash maqsadida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2000-yilning 23-dekabrida «Yer monitoringi to'g'risidagi Nizom»ni tasdiqladi va shu kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida yer monitoringi to'g'risida»gi 496-sonli Qarori qabul qilindi. Yer monitoringi respublika yer fondidagi barcha o'zgarishlarni o'z vaqtida ilmiy asoslangan holda aniqlash, yerlarga to'liq baho berish (sifat hamda iqtisodiy jihatdan), ularga ta'sir etuvchi salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini izchil tugatish maqsadida yerning holatini kuzatib borish bilan bog'liq bo'lgan axborotlar tizimidan iboratdir. Respublikamizning barcha yerlari monitoring obyekti hisoblanadi.

Nizomda vazirliklar va idoralar faoliyatini va yer monitoringi ma'lumotlarini umumlashtirishdek muhim vazifa O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri qo'mitasi zimmasiga yuklatilgan. Demak, yuksak davlat ahamiyatiga molik bo'lgan vazifani muvaffaqiyatli hal etishda qo'mita tarkibidagi barcha idoralar, tashkilotlar faol qatnashishlari zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda «O'zdavyerloyiha» instituti yer monitoringi amalga oshirilishini ta'minlashga quyidagi yirik masalalarni hal etish bilan hissa qo'shishi rejalashtirilgan. Qishloq xo'jalik yerlari tuproq monitoringini amalga oshirish uchun tuproqshunoslik tadqiqotlariga oid to'plangan barcha ma'lumotlarni umumlashtirib, monitoring tadqiqotlarini olib borish maqsadida respublika, viloyatlar hamda tumanlar hududida asosiy

maydonlarni tanlash va ularni asoslash; vaqt o'tishi bilan tuproqlarning asosiy xususiyatlari o'zgarishini isbotlovchi ma'lumotlarni teran va to'liq tahlil etish; tadqiqot olib boriladigan asosiy hamda ekologik maydonlarda tuproqlarning holatini isbotlovchi ko'rsatkichlar majmuasini asoslash, tuproqning holatini kuzatish, unga oid ma'lumotlarni sifatli to'plash hamda ularga o'zgartirishlar kiritishi kerak. Buning uchun qishloq xo'jalik yerlari tuproqlarini suv va shamol erroziyasi ta'siri oqibatida o'zgarishi monitoringi; qishloq xo'jalik yerlari tuproqlari sho'rlanganlik darajasining o'zgarish jarayoni monitoringi; qishloq xo'jalik yerlari tuproqlari og'ir metallar bilan zararlanganlik darajasining o'zgarishi monitoringi; qishloq xo'jalik yerlari tuproqlarining texnogen o'zgarishi monitoringi; neft mahsulotlari salbiy ta'siri natijasida tuproqlarning ifloslanishi monitoringi; barcha o'simliklarning og'ir metallar bilan zaharlanish darajasi monitoringi; qishloq xo'jalik yerlari tuproqlarining gerbitsid va pestitsidlar bilan zaharlanish darajasi monitoringi; mineral o'g'itlardan foydalanish natijasida tuproqlar tarkibidagi o'zgarishlar monitoringi amalga oshiriladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. *Tarmoqda mulkchilik munosabatlarining huquqiy asoslan qaysi qonunlarda o'z aksini topgan?*
2. *Qishloq xo'jaligida mulkchilikning qanday shakllari mavjud?*
3. *Qishloq xo'jaligida qanday xo'jalik yuritish shakllari mavjud?*
4. *Agrofirmalar haqida tushuncha bering.*
5. *Fermer xo'jaliklari ta'rifini izohlab bering.*
6. *Dehqon xo'jaliklari ta'rifini izohlab bering.*
7. *Fermer xo'jaliklarining tashkiliy-iqtisodiy asoslarini tushuntiring.*
8. *Qishloq xo'jaligida qo'shma korxonalar haqida tushuncha bering.*
9. *Yer va suv resurslarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati nimadan iborat?*
10. *Yer resursining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?*
11. *Yer resursining tarkibi nimalardan iborat?*

- 12. Yer kadastrı, uning tarkibi, amalga oshirilishi haqida nimalarni bilasiz?*
- 13. Yer va suv resurslari bo'yicha mamlakatimizda qanday me'yoriy hujjatlar qabul qilingan?*
- 14. Yer monitoringining mazmuni nima?*
- 15. Yerning me'yoriy qiymatini aniqlash tartibi qanday?*
- 16. Yer va suv resurslaridan foydalanish holati hamda samaradorligiga baho berishda qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi?*
- 17. Yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning qanday yo'llari bor?*

Xulosa

Yurtimiz hududida qadimdan istiqomatqilib kelgan ajdodlarimiz o‘zlarining o‘zoq tarixiy taraqqiyotlari jarayonida dehonchilik madaniyati va qishloq xo‘jaligining boshqa sohalarini takomillashtirib borishda o‘zlariga xos hayotiy tajriba maktabini yaratdilar. Asrlar davomida olib borilgan ushbu tajribalar asosida yaratilgan bu maktab jamiyat taraqqiyotini ta‘minlashda yetakchi omil bo‘ldi. Insonlar moddiy farovonlik va ma‘naviy yuksalishga faqat jamiyat a‘zolarining hamkorlikdagi fidokorona mehnati, qo‘shni xalqlar va elatlar bilan tajriba almashish, o‘zaro madaniy va ma‘naviy hamkorlikni kuchaytirish orqali erishganlar.

Ibtidoiy jamoa odamlari dastlab yuz ming yillar davomida tabiatda tayyor mahsulotlarni iste‘mol qilish bilan cheklanishgan. Biroq, vaqt o‘tishi, inson ongining takomillashib borishi jamiyat hayotiga ham yangicha qarashlarni shakllantirdi. Natijada, keyinchalik jamiyat a‘zolari doimiy oziq — ovqat zahiralari ega bo‘lish umidida, yovvoyi hayvonlarni qo‘lga o‘rgatish bilan bir qatorda so‘gorma dehonchilik madaniyatini o‘zlashtirib olishlari ularning hayotida katta ijobiy ahamiyat kasb etdi hamda bu jarayon ularning ijtimoiy — iqtisodiy hayotlarining rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratdi.

Dastlab, bu ishni Sharqda yashagan qabilalar boshlab berishdi. Ibtidoiy jamoa vakillari to‘kinroq yashash uchun qulaylik yaratish va oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini muntazam qondirib borish maqsadida chorvachilik va termachilik bilan bir qatorda sug‘orma dehqonchilikni ham o‘zlashtira boshladilar. Bu davrga kelib, Yer yuzining yashash uchun tabiiy muhiti qulay bo‘lgan janubi-sharqiy hududlarida insonlar dehqonchilik madaniyatining dastlabki, bosqichlarini o‘zlashtirishib, o‘zlarining ijtimoiy-iqtisodiy turmush sharoitlarini yaxshilashga harakat qila boshladilar.

Insonlar toshdan yasalgan mehnat qurollarini muntazam takomillashtirib borishlari, sopoldan uy-ro‘zg‘or idishlari yasashni o‘rganib olishlari — ularning moddiy turmush sharoitlarini yaxshilanishida muhim omil bo‘ldi.

Odamlar doimiy suratda oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo'lish uchun yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatish va madaniy ekinlarni yetishtirish uchun ming yillar davomida sabr-toqat bilan tinimsiz mehnat qilishgan. Olib borilgan tadqiqotlarning guvohlik berishicha, ibtidoiy jamoa qabilalari dehqonchilik xo'jaligi yuritishning dastlabki yutuqlariga jamoaning ahillik bilan qilgan mehnati, qo'shni urug' va qabilalar bilan o'zaro tajriba almashishni kuchaytirish orqali erishganlar.

Hozirgi vaqtda butun insoniyat tomonidan iste'mol qilib kelinayotgan don ekinlari, poliz va bog'dorchilik mahsulotlari ibtidoiy jamoa tuzumi odamlarining ming yillar davomidagi mashaqqatli mehnatlarining samarasidir. Bugungi kunda ommaviy suratda ekilayotgan madaniy ekinlar dastlab dunyoning turli qit'alarida yetishtirilgan.

O'rta Osiyoning qulay tabiiy va iqlim sharoiti bu mintaqada insonlarning uzoq o'tmishdan boshlab dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishlariga imkon yaratdi. Mehnat taqsimoti va ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyat tufayli vujudga kelgan. Hunarmandchilik har ikkala sohani uyg'unlashtirib, insoniyat madaniy hayotining ancha erta shakllanishiga sabab bo'ldi. Buning natijasida o'lkada qal'alar, shahar-davlatlar bunyod etildi. Dehqonchilik madaniyatining rivojlanishi mamlakatimiz hududida dastlabki davlat tuzilmalari (Katta Xorazm, Qadimgi Baqtriya)ning vujudga kelishiga, keyinroq yangi davlatlar (Sug'd, Qang', Dovon, Kushan) ning gullab — yashnashlariga sharoit yaratdi.

Ilk o'rta asrlarga kelib O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotlarida bir tub qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Eftaliylar va Turk xoqonligi davrida feodal munosabatlar shakllanib, xususiy yer egaligi takomillasha boshladi. Arablar bosqinidan keyin davlat va jamiyat boshqaruvi tizimida muhim o'zgarishlar joriy etildi. Somoniylar, Qoraxoniylar, ayniqsa, Amir Temur va Temuriylar davrida yerga egalik qilish munosabatlari yuqori bosqichga ko'tarildi. "Temur tuzuklari"da dehqonchilik madaniyatiga e'tibor yanada kuchaytirildi.

XVI asr boshlarida, ya'ni Shayboniylar hukmronligi davrida Temuriylar tomonidan "suyurgol" qilib berilgan yerlarning bir qismini davlat o'z ixtiyoriga

olish harakatlari kuchaydi. Bu davlatni markazlashtirish uchun hamisha muddatli urinishlar tufayli kelib chiqqan edi.

Keyinchalik, davlat yerlarining hajmi shartli yer egaligi (suyurg'ol, iqto, tanho, tiyul va b.) ning o'sishi hisobiga ancha qisqardi. Mazkur shakllarning mazmun - mohiyati tarixiy davrlarning xususiyatiga qarab o'zgarib bordi.

O'rta Osiyo xonliklarga bo'lingandan keyin yirik urug'lar boshliqlarining o'zlariga tegishli hududlarni mustaqil boshqarishga intilishlari feodal tarqoqlikni yanada kuchaytirdi. Ijaraga berilgan davlat yerlaridan olinadigan daromad dunyoviy, diniy va harbiy aslzodalarning o'zlariga qilgan xizmatlariga qarab o'zgarib bordi.

Buxoro amirligi dehqonlari hayotini yevropalik dehqonlar hayoti bilan solishtirgan Abdurauf Fitrat shunday fikrlarni bildirgan: «Yevropa dehqonlari yerni shudgorlash uchun mashinalarga egadirlar. Bu mashinalar bir kunda bir necha tanob yerni haydash qudratiga ega. Buxoro dehqonlari esa, eng avvalo ikkita ho'kizni ancha qimmat narxda sotib oladirlar, keyin yil buyi yem uchun kuniga o'n tanga sarflab, ularni asraydilar va bahor kunlarining boshlanishida katta mashaqqat bilan bir tanob yerni kunlab shudgor qiladirlar. Qarshida ham, Buxoroda ham bir necha kishiga Farangistondagi ziroatchilikning yo'l —yurig'ini tushuntirdim, ammo ular «siz jannatdagi dehonchilik haqida so'zlamogdasiz, deb ustimdan kuldilar». Haqiqatdan ham jahon fani va texnikasida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni xonliklar davrida tashqi dunyodan o'zilib, o'zlarining tor doiralarida o'ralashib qolgan Turkiston xalqlari o'z tasavvurlariga sig'dira olmas edilar Bu O'rta Osiyoda asrlar davomida shakllangan feodal - patriarxal munosabatlar va ishlab chiqarish usullari, mehnatkash aholining ijtimoiy - iqtisodiy va ma'naviy hayotida tub o'zgarishlar yasashga to'sqinlik qilganligining bevosita isbotidir.

Shunday qilib, davlat yerlarini turli toifadagi aslzodalarga in'om etilishi yoki vaqf sifatida tortiq qilinishi xazinaga tushadigan daromadning kamayishiga, oqibatda markaziy hokimiyatning zaiflashib, feodal tarqoqlikning kuchayishiga olib keldi. Bu Turkiston o'lkasini osonlik bilan chor Rossiyasi asoratiga tushib

qolishining asosiy sabablaridan biri bo'ldi. Chor Rossiyasining Turkistonda olib borgan mustamlakachilik siyosati, o'lkaga rus savdo-sanoat kapitalining kirib kelishi, bu yerda sanoat ishlab chiqarishi va urbanizatsiya jarayonining kuchayishi va yerlarning katta qismini mulkdorlar qo'lida to'planishiga olib keldi. Turkistonda bozor munosabatlari rivojlanishi, o'z navbatida tovar - pul munosabatlarining jonlanishiga, yer bilan savdo qilish, uni garovga qo'yish, sudxo'rlikning kuchayishiga qulaylik yaratildi. Bu o'z navbatida yersiz dehqonlarning ko'payishiga, shahar va qishloqarda tabaqalanish jarayonlarining tezlashishini yuzaga keltirdi.

O'lkada savdo — sudxo'rlik kapitali mehnatkashlarni o'z domiga tobora kuproq torta boshladi. Ayni paytda, chor ma'murlari o'lkada mustahkam o'rmashib olish ilinjida Rossiyaning notinch rayonlaridan «ortiqcha» aholini ko'chirib keltirish, ularga imkoni boricha yaxshi yerlarni mahalliy aholidan tortib olib berishga e'tiborini kuchaytirdi. Bu o'z navbatida milliy adovatlar va ziddiyatlarni kuchayishiga sharoit yaratdi.

Rus va boshqa xorijiy sarmoyadorlar o'lkada sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga turtki berib, tarixiy jihatdan progressiv rol o'ynagan bo'lsada, biroq ularning harakat doiralari chegaralanganligi tufayli yetarli samara bermadi. Rus burjuaziyasi o'z zimmasidagi vazifalarni nihoyatda to'porilik, qo'pollik va reaksion usullar bilan bajardi. Biroq, ular o'sha davrda bu yo'lning o'zlari uchun ham, o'lka mehnatkash aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti uchun ham halokatli ta'sir kursatishi mumkin ekanligini sezishga qodir emas edilar.

XX asrning 20-yillarida sovet hokimiyati tomonidan yurtimizda yer-suv islohoti amalga oshirildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mahalliy aholi va boy rus dehqonlarining yer va suvga bo'lgan huquqlarini tenglashtirish edi. Shu yo'l bilan ular mahalliy dehqonlarni o'z tomonlariga tortmoqchi bo'ldilar. Haqiqatdan ham 1921-1922 yillar davomida boy rus dehqonlarga tegishli bo'lgan yerlar musodara qilindi, o'lka hududlarda yashayotgan kam yerli va yersiz dehqonlar yer bilan tamirlandi. Islohot davomida boy, cho'loq dehqonlar xo'jaliklari tugatildi va ko'chmanchilarni o'troq xayotga o'tkazishga ko'rsatilgan tadbirlar amalga

osHIRildi. Lekin vaqt o'tkan sari ana shu umuman olganda ijobiy bo'lgan tadbirlar bo'lgan qatori mahalliy sharoit milliy mentalitet hisobga olinmagan choralar xam ko'rildi. Bu choralar vaqf yerlarini musodora qilish, mahalliy aholining «mehnat bilan shug'illanmaydigan yuqori qatlamlari» degan vakillarining yerlarini musodora qilish yoki kamaytirishdan iborat bo'ldi. Islohot davomida mahalliy sharoit ayniqsa diniy xis tuyg'ularni nazar pisand qilmaslik, qishloqdagi siyosiy vaziyatni keskinlashtirdi. Ko'chmanchilarni o'troqlashtirishning bolshevikcha zo'rovonlik usullari bilan amalga oshirishi salbiy oqibatlariga olib keldi. Natijada ijtimoiy, sinfiy millatlararo ziddiyatlar kuchaydi. Xullas O'zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv islohoti natijasida respublika qishloq aholisining tarkibida bir qator jiddiy o'zgarishlar bo'ldi, Kambag'al dehqonlar kamayib o'rtahol dehqonlar salmog'i ortdi.

Qishloq xo'jaligini sotsialistik asosda o'zgartirish istiqbollariga yondashish jarayonida kommunistik mafkurachilar yirik agrar jamoa korxonasi yakka dehqon xo'jaligidan yaxshiroq, degan fikrga qat'iy asoslanib ish ko'rdilar. Chunki erdan foydalanishning jamoa tizimi markazlashgan rejalashtirishni va ko'pmillionli qishloq mehnatkashlarini boshqarishni osonlashtirar, qishloqdagi keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy ishlarini butun mamlakat miqyosida tezroq amalga oshirish imkonini berardi. Eng asosiysi, jamoa xo'jaliklari markscha tasavvurga ko'ra, sotsializm ideallariga yot bo'lgan «mayda burjua psxologiyasi» bilan «zaharlangan» dehqonni sotsialistik yo'lga solishni tezlashtirar edi.

XX asrning 30-yillari boshlariga qishloq xo'jaligini jamoalashtirish jarayoni boshlanishi bilan ushbu ishga mutasaddilar dehqonlarning majlislarida kolxozga kirmaganlar suvdan mahrum etiladi, sanoat mollari bilan ta'minlanmaydi, katta soliq solinadi, surgun qilinadi, deb qo'rqi-tishgacha borganlar. Natijada ko'pchilik tumanlarda kolxozlashtirish bir necha hafta ichida tugallandi. Jamoalashtirish natijasida dehqonlarga xos butun turmush tartibi buzildi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar zavol topdi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan respublika qishloq xo'jaligi oldida ham front va front ortini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan, sanoatni esa xom

ashyo bilan ta'minlash vazifasi turardi. Buning uchun xalq xo'jaligining barcha sohalari kabi, qishloq xo'jaligini ham harbiy izga solish, texnik ekinlar, don, poliz va sabzavot ekinlarini ko'paytirish, chorvachilik mahsulotlarini oshirish zarur edi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'proq ishlab chiqarish masalasi sug'oriladigan dehqonchilik sharoitlarida boshdanoyoq irrigatsiya quvvatlariga bog'liq edi. Bu quvvatlarni oshirish va shu asosda ekin maydonlarini kengaytirishni ta'minlash muhim xalq xo'jaligi vazifasiga aylandi. Respublikada irrigatsiya qurilishi yuksak sur'atlar bilan davom etib bordi.

Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonda paxtachilikni har tomonlama rivojlantirish yo'liga o'tilishi yangi yerlarni o'zlashtirish, paxta ekin maydonlarini kengaytirishni talab qildi. 50-yillarning o'rtalaridan boshlab yangi paxtachilik rayonlarini barpo etish maqsadida qo'riq yerlarni o'zlashtirish boshlandi. Mirzacho'l va Qarshi dashtlarini, Surxon-Sherobod vodiysi va boshqa qo'riq yerlarni sug'orish va o'zlashtirish ishlari avj oldi. Yerlarni o'zlashtirish asosan paxta ekishga mo'ljallangan edi.

Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida urushdan keyingi yillarda respublikada paxta yakkahokimligi yana qaror topdi. 1970-yilga kelib paxta maydonlarining salmog'i respublika bo'yicha uchdan ikki qismdan ko'proqni, ayrim viloyatlarda esa bundan ham oshiqni tashkil qildi. Chunonchi, 1970-yili Andijon viloyatida 244 ming gektar sug'oriladigan yerlardan 192 ming gektariga, Farg'ona viloyatida 277 ming gektardan 209 ming gektariga paxta ekilardi. Bu rasmiy raqamlar. Amalda g'o'za ekiladigan maydonlar bundan ham ko'proq bo'lgan. Vaholanki, madaniylashgan mamlakatlarning qishloq xo'jaligida g'o'za ekinlari maydoni 60 foizdan oshmasligi lozim, bu ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Ana shu nisbat saqlangandagina tuproq unumdorligini qayta tiklash, almashlab ekish mumkin bo'ladi. Sovet hukumati amalga oshirgan agrar siyosati tufayli yillar osha mustahkamlanib borgan paxta yakkahokimligi O'zbekiston tabiati muvozanatining buzilishiga sabab bo'ldi.

Suv inshootlarini kengaytirib borish respublika iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ham yega bo'ldi. Qo'riq yerlar suv bilan ta'minlandi, yangi yerlar

tashkil yetildi. Biroq ular iqtisodiy samara berishdan tashqari salbiy ta'sir ham ko'rsatdi, ularning natijasida yer osti suvlarining sathi yuqoriga ko'tarilib, haydaladigan yerlarni sho'r va botqoq bosdi, bog'-rog'lar va tokzorlar qurib qoldi.

Orol dengizi fojiasi sovet hukumati va KPSS ning atrof-muhit, tabiiy resurslardan foydalanishda o'ylamasdan yuritgan siyosati natijasi bo'ldi. Buning bosh sababi Amudaryo va Sirdaryodan sug'orish uchun haddan tashqari ko'p suv olish edi. Bu holat Orol dengizining qurib borishiga olib keldi va Markaziy Osiyo mintaqasi hamda qo'shni davlatlar ekologiyasiga misli ko'rilmagan tarzda salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bolgan agrar sohani rivojlantirishda qator iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Qishloq xo'jaligida turli mulkchilikka asoslangan erkin tovar ishlab chiqamvchi subyektlar shakllandi. Dehqonlarning mulkka egalik hissining ortishini, erkin iqtisodiy faoliyat yuritishini, daromadlarini o'z xohishiga ko'ra mustaqil taqsimlash hamda tasarruf etish imkoniyatini beradigan xo'jalik yuritish shakllarini mazkur tarmoqqa joriy etishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti LA.Karimov «Agrar sektorni tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirish muammolari islohotlarning dastlabki bosqichida hamda O'zbekistonning bozorga o'tish strategiyasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Biz qishloqning ustun darajada rivojlanishini ta'minlashni, qishloq xo'jaligini sifat jihatidan yangi asoslarda qayta tiklashni o'z oldimizga vazifa qilib qo'ydik»⁹⁰, - deb ta'kidlagan edi. Davlatning bosh islohotchiligida qishloq xo'jaligida bozor iqtisodiyoti munosabatlarini barpo etish maqsadida islohotlarning huquqiy asoslari yaratildi va amalga oshiriladigan tadbirlar majmuasi ishlab chiqildi.

.Aholini yer bilan ta'minlashga qaratilgan islohotlar natijasida respublika qishloq hududlarida yashayotgan fuqarolarga umrbod foydalanish uchun 1990-2002-yillar davomida 600 ming gektarga yaqin qishloq xo'jalik yerlari berildi. Bu

⁹⁰ Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlami chuqurlashtirish yo'lida», T.: «O'zbekiston», 1995, 59-60 betlar

maydon Andijon viloyatining qishloq xo‘jalik yerlariga nisbatan 2,2 marta, Farg‘ona viloyatinikiga nisbatan 1,8 barobar ko‘pdir. Yerlarni berish natijasida 3,2 mln. dan ortiq oilaning yer bilan ta‘minlanganlik darajasi hozirgi davrda qondirilgan.

Istiqloqlarning dastlabki yillarida respublikamizda amalga oshirilayotgan yer islohotiga asoslangan holda mavjud jamoa xo‘jaliklariga davlat mulki hisoblangan yer foydalanish uchun ijaraga berildi. Ular yerdan foydalanganlik uchun belgilangan muddatda ijara haqi to‘laydigan bo‘lishdi. Ijara haqi 1999-yildan boshlab yagona yer solig‘i shaklida tolanadigan bo‘ldi. Shu bilan birga «Mulk to‘g‘risida»gi qonun talabiga muvofiq u xo‘jaliklarda haqiqiy jamoa mulkchiligi tashkil etishga e‘tibor berildi. Mulchilikning bu shakli jamoa xo‘jaliklari negizida shirkat xo‘jaliklari tashkil etish orqali shakllantirildi. Uning huquqiy asoslari yaratildi. Oliy Majlis tomonidan 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan «Qishloq xo‘jalik kooperativlari (shirkatlar) to‘g‘risida»gi Qonun, uning hayotga tatbiq etilishini ta‘minlash maqsadida Respublika Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-iyuldagi 229-sonli qarori qabul qilingan edi.

Mamlakatimizda tashkil etilgan shirkat xo‘jaliklari dehqonlarning moddiy manfaatdorligini oshirgan bo‘lsa-da, bozor munosabatlari talablariga to‘liq javob bera olmadi. Ayrim holatlarda esa shirkat xo‘jaliklarini tashkil etishda tashkiliy-iqtisodiy tomondan ma‘lum kamchiliklarga yo‘l qo‘yildi. Shu sababli mamlakatimiz hukumati tomonidan qishloq xo‘jaligiga samarali, dehqonlarda haqiqiy mulkdorlik hissini uyg‘otadigan, ularning iqtisodiy erkinligini ta‘minlaydigan xo‘jalik yuritish shakllarini joriy etishga e‘tibor qaratildi. Avvalo, dehqonning ishlab chiqarishga va mulkka egalik hissining ortishi, erkin iqtisodiy faoliyat yuritishi, daromad olishi, uni o‘z xohishiga ko‘ra mustaqil taqsimlash hamda tasarruf etish imkoniyati yaratildi. Respublika agrar sohasida faoliyat yuritayotgan fermer xo‘jaliklari boshqa subyektlarga nisbatan Amaliyotda o‘zining bir qancha ijobiy ustunliklarini ko‘rsatdi va shu sababli fermer xo‘jaliklariga istiqbolli xo‘jalik yuritish shakli sifatida juda katta e‘tibor qaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 6-oktabrdagi «Fermer xo‘jaliklari faoliyatini yuritishda yer uchastkalari miqdorini maqbullashtirish choralarini ko‘rish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo‘yicha maxsus komissiya tashkil etish to‘g‘risida»gi 3077-sonli Farmoyishiga muvofiq fermer xo‘jaliklari uchun ajratiladigan yer maydonlari hajmi qayta ko‘rib chiqildi. Ushbu tadbirdan so‘ng mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan fermer xo‘jaliklari soni 2009-yil holatiga 103081 tani tashkil etmoqda, ularga 3052,9 ming gektar ekin maydoni ajratib berilgan bo‘lib, bu jami ekin maydoninig 84,6 foizini tashkil etadi. 2009-yil holatiga ko‘ra fermer xo‘jaliklarida 1521,6 ming kishi ish bilan band bo‘lib, bitta fermer xo‘jaligiga o‘rtacha 15 kishidan to‘g‘ri keladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, agrar sektorni rivojlantirish maqsadida aniq va uzoqni ko‘zlab ishlab chiqilgan chora-tadbirlar natijasida fermerlar ushbu sohada haqli ravishda yetakchi kuchga aylanib borayapti. Bevosita davlatimiz rahbari tomonidan ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik, yaratilayotgan imkoniyatlar ulami ana shunday ishlashga undayapti, yangi-yangi marralar sari yetaklamoqda.

Yangi O‘zbekiston sharotida mamlakatimizning barcha tumanlarida amalga oshirilayotgan agraklaster tizimi iqtisodiyotimizga munosib hissa qo‘shishi bilan birga qishloq xo‘jaligi mehnatkashlari turmush darajasini ko‘tarilishiga va ularning oilaviy daromadlari oshishiga zamin yaratdi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezident asarlari

- I.1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –B.50.
- I.2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –B.59.
- I.3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib –intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.–B.107.
- I.4. Mirziyoev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –B.491.
- I.5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. –B.56.
- I.6. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ halqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. –B.205
- I.7. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996. T. 1.
- I.8. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent: Sharq, 1998.
- I.9. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008.
- I.10. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent. O‘zbekiston, 2011.
- I.11. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T., O‘zbekiston. 2015.
- I.12. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2003. – B.40.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

- II.1. «Qatag‘on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 1 mayda qabul qilgan Qarori // Xalq so‘zi gazetasi. 2001 yil, 2 may.
- II.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi 4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. <http://strategy.regulation.gov.uz>.
- II.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 17 oktyabrdagi PQ-3978-sonli «Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori. www.lex.uz
- II.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 noyabrdagi № PQ-4021 «Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish xalqaro jamg‘armasi ishtirokida

«Qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya va modernizatsiya qilish» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori.www.lex.uz

II.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 dekabrdaqi PQ-4087–sonli «Paxta xomashyosini yetishtirishda tomchilatib sug‘orish texnologiyalaridan keng foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori.www.lex.uz

II.6. O‘zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi». -T.: «Adolat», 2007.

II.7. O‘zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi Qonuni. / Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me‘yoriy hujjatlar to‘plami. -T.: «Sharq», 1998.

II.8. «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahriri). N 602-I son 30.04.1998 y. «O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami», 2004 yil, 40-41-son, 433-modda // www.lex.uz.

II.9. «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi qonun. 604-I-son 30.04.1998. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi», 1998 yil, 5-6-son, 88-modda // www.lex.uz.

II.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020—2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5853-sonli Farmoni. 2019 yil 23 oktyabr // www.lex.uz.

II.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004-2006 yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida»gi PF-3342-sonli Farmoni. 2003 yil 27 oktyabr // www.lex.uz.

II.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni. 2017 yil 7 fevral // www.lex.uz.

II.13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni. 2022 yil 28 yanvar. // www.lex.uz.

III. Hujjatlar va statistik to‘plam materiallari:

III.1. Deyatelnost kompartii i sovetskogo pravitelstva po razvitiyuxlopkovodstvav Uzbekistane (1925-1937 g.g.). (Dokumenty i materialy) Sost. J.A. Zaychenko, L.N. Zotova, A.A. Abdukadyrov, P.G. Kim (otv. red.). -Tashkent: Fan, 1990. – 317 s.

III.2. Xlopkovodstvo Uzbekistana za 50 let Spravochnik (2-ye, dop, i pererab izd.)-Tashkent: Fan 1973.-673 s.

III.3. O‘zbekistonning yillik statistik to‘plami. 2008 yil. –Toshkent, 2009. –B. 386.

IV. Arxiv hujjatlari

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Davlat arxivi:

- III.1. O‘zMA. 837-jamg‘arma. O‘zbekiston SSR Minstrlar Soveti qaror va farmoyishlari.
- III.2. O‘zMA.2454-jamg‘arma. O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi.
- III.3. O‘zMA.2384-jamg‘arma. O‘zbekiston SSR Xalq xo‘jaligi fondi.
- III.4. O‘zMA.2384-jamg‘arma. O‘zbekiston SSR Statistika boshqarmasi.
- III.5.O‘zMA.96-jamg‘arma. O‘zbekiston SSR Ijtimoiy ta‘minot minstrligi.
- III.6.O‘zMA.90-jamg‘arma. O‘zbekiston SSR Qishloq xo‘jaligi minstrligi.
- III.7. O‘zMA.86-jamg‘arma. O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya qo‘mitasi.
- III.8.O‘zMA.737-jamg‘arma. O‘zbekiston SSR Kasaba uyushmalari. (Uzsovprof).
- III.9. O‘zMA.1623-jamg‘arma. O‘zbekiston SSR Sovхозlar minstrligi.
- III.10. O‘zMA.2483-jamg‘arma. O‘zbekiston SSR Suv xo‘jaligi minstrligi.
- III.11.O‘zMA.58-jamg‘arma. O‘zbekiston SSR Kompartiyasi Markaziy qo‘mitasi.
- III.12. O‘zMA.2703-jamg‘arma. Sovхозlar bosh boshqarmasi.
- III.13.O‘zMA.1970-jamg‘arma. O‘zbekiston SSR Oziq-ovqat sanoati minstrligi.
- III.14. O‘zMA.2389-jamg‘arma. O‘zbekiston SSR Qurilish minstrligi.
- III.15. O‘zMA.2775-jamg‘arma. O‘zbekiston SSR Paxta tayyorlash va qayta ishlash bosh boshqarmasi.
- IV.16. O‘zMA.2325-jamg‘arma– O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati ministriligining paxta tayyorlash va paxta tozalash sanoati Bosh boshqarmasi(Uzglavxlopok) (1971-1991).
- IV.17. O‘zMA.2357- jamg‘arma-O‘zbekiston sovnarxozlari Oziq-ovqat sanoati Boshqarmasi.
- IV.18. O‘zMA. R-2483- jamg‘arma, (O‘zbekiston Respublikasi sug‘orish va o‘zlashtirish vazirligi)
- IV.19. O‘zMA. 33, 38, 39, 2483- jamg‘armalar, O‘zbekiston suv xo‘jaligi vazirligi arxivi fondlari.

VI. Monografiya, maqola, patent va ilmiy to‘plamlar

- VI.1. Abdullaev A.N.O‘rta Osiyoda paxta yakka-hokimiligi paydo bo‘lishidagi ilk bosqichlar.Uslubiy qo‘llanma.Toshkent,2000.-34 b.
- VI.2. Abdullaeva A.N. Sovet hokimiyati davrida O‘zbekiston paxtachiligida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar //Oliy o‘quv yurtlar ilmiy ishlari.2-nashr.- Toshkent,202.-B.8-1.
- VI.3. Abdug‘aniyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodi. -T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2004
- VI.4. Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI — первой половине XIX века. Т. И. —Ташкент: «Фан». 1966.

- VI.5. Abdugʻaniyev A. Yer monitoringi. // «Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligi», 2001. -№1
- VI.6. Abdullayev Z. Yer resurslaridan foydalanishda xorij tajribasi. // «Oʻzbekiston iqtisodiy axborotnomasi», 2006. -№11
- VI.7. Abu Bakr ibn Jafar Narshaxiy. Buxoro tarixi T.: Kamalak, 1995.
- VI.8. Abu Rayhon Beruniy qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlanma asarlar I jild, T.: Fan, 1968.
- VI.9. Abulgʻozi. Shajarai turk. T.: Choʻlpon, 1990.
- VI.10. Avesto / Asqar Maxkam tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2001.
- VI.11. Avdiev V. I. Qadim Sharq tarixi. —Toshkent, 1956.
- VI.12. Avliyoqulova D. Mustabid tuzum surguni qurbonlari. Muloqot. 2005 yil, 5-son.
- VI.13. Alimov I., Rajabov Q. Oʻzbekistonda ijtimoiy-siyosiy inqirozning kuchayishi va iqtisodiy turgʻunlik (1971-1985 yy) // Oʻzbekiston Respublikasi. T. 2006. 182-184-bet.
- VI.14. Аминов А. М. Экономическое развитие Средней Азии (колониальный период). —Ташкент, 1959.
- VI.15. Anorboev A., Islomov U., Matboboev B. Oʻzbekiston tarixida qadimgi Fargona. —Toshkent: «Fan», 2001.
- VI.16. Ahrorova X. Istiqlol fidoyilari. Izlarini izlayman. –Toshkent: Sharq, 1998. – B. 176.
- VI.17. Аскарлов А. Древне земледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. —Ташкент, 1977.
- VI.18. Askarov A. Eng qadimgi shahar. —Toshkent: «Maʼnaviyat», 2001.
- VI.19. Askarov A. Oʻzbekiston tarixi (Eng qadimgi davrlardan eramizning V asrigacha). —Toshkent, 1994. Askarov A. Qadimgi Xorazm tarixiga oid baʼzi bir masalalar// Oʻzbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va yondoshuvlar toʻplamida. —Toshkent, 2004.
- VI.20. Askarov A. Oʻzbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. - T., 2007.
- VI.21. Azamat Ziyov Oʻzbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). T., 2000.
- VI.22. Axmedov B.A. Oʻzbekiston tarixi manbalari. - T.: Oʻqituvchi, 2001.
- VI.23. Батулин.С. Советская ирригация Узбекистана–всенародноотворение. –Ташкент: Госиздат, 1954. – С.152.
- VI.24. Bobojonova D. Oʻzbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70-80 yillar misolida). T.: Sharq. 1999.
- VI.25. Bunyodov Z.M. Anushtegin-Xorazmshohlar davlati. - T., 1998.
- VI.26. Boʻriev S.D. Surxonning sunʼiy dengizi. – T.: «Sharq» nashriyoti, 2013 y.

- VI.27. Bo‘riev S.D. Surxon suv ombori ob‘ekti. Sharq yulduzi jurnali, 2000 y. №2. 39-bet.
- VI.28. Bo‘riev S.D. «Ilk dehqonchilik». Fan va turmush jurnali, 2003 y, 4. 12-b.
- VI.29. Bo‘riev S.D. Surxonning suv to‘g‘oni. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali, 2001 y. №5, 53-bet.
- VI.30. Bo‘riev S.D. Sug‘orma dehqonchilik tarixi. Jamiyat va boshqaruv jurnali, 2006y, №4, 83-84 betlar.
- VI.31. Bo‘riev S.D. Hayot inshootlari tarixi. Jamiyat va boshqaruv jurnali, 2007y, №1, 88-90 betlar.
- VI.32. Bo‘riev S.D. XX asr boshlarida Sherobod bekligida yer–suv munosabatlari. Jamiyat va boshqaruv jurnali, 2009 yil, № 4-soni.
- VI.33. Bo‘riev S.D. Suv – umumbashariy ne‘mat. Respublika ilmiy-amaliy anjumani tezislari. – Termiz. TerDU, 2010 yil.
- VI.34. Bo‘riev S. Surxonning suv to‘g‘oni. – Toshkent: «TURON-IQBOL», 2019. – 248 b.
- VI.35. Vengerskiy V. O‘zbekistonda paxtachilikning rivojlanishi. T.: O‘zbekiston SSR siyosiy va ilmiy bilimlar tarqatuvchi jamiyati. 1968. №-1-16641. Od.
- VI.36. Eshov B.J., Odilov A.A. O‘zbekiston tarixi. I - II– jild. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014.
- VI.37. Eshov B.J. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi. (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Ma‘rifat, 2009.
- VI.38. Eshov B.J. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – T.: Yangi asr avlodi, 2012.
- VI.39. Ergashev R.X. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik -T.: «Extremum press», 2011.
- VI.40. Gaft M.M. Beshinchi besh yillikda O‘zbekistonda paxtachilikning rivojlanishi // Fan haqida suhbatlar. №41-42. – Toshkent: O‘zbekiston KP Markaziy Komiteti huzuridagi «Qizil O‘zbekiston», «Pravda Vostoka» va «O‘zbekiston Surx» birlashgan nashriyoti, 1953. –B. 1-8.
- VI.41. Гулямов Я. Г История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. —Ташкент, 1957
- VI.42. Зелькина Т. И. Очерки по аграрному вопросу в Средней Азии. — М., 1930.
- VI.43. Ziyoeva D. Turkiston mustaqilligi uchun kurash masalalari. 20-30 yillar talqinida // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1998. –№1. –B. 67-73.
- VI.44. Ziyoev X. Chorizm va paxta yakkahokimligi (1991).. T.: “Sharq yulduzi” jurnali. №-5son. 169-175 betlar. Asarlar to‘plami. IV. T.: “Sharq”. 2003.
- VI.45. Ziyoev X. O‘zbekistan paxtachiligi tarixidan.— Toshkent. «Fan», 1980. 48.

- VI.46. Ziyoev X. O‘zbekistonning mustaqillik uchun kurashlari tarixidan. – Toshkent, 2000.
- VI.47. Ziyoev X. O‘zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlari). - T.: Sharq, 2006. – B.352.
- VI.48. Ирригация Узбекистана. –Ташкент: Госиздат УзССР, 1959. –С. 27.
- VI.49. Ирригация Узбекистана. В 4-х томах. –Ташкент, 1975-1979-1981 гг.
- VI.50. Istomin M.S. Surxondaryoda ingichka tolali paxtadan yuqori hosil olish agrotexnikasi. №12. –Toshkent: O‘zbekiston KP MKning nashriyoti, 1969. – B. 40.
- VI.51. Игамбердиев Р.С., Раззаков А. История мелиоратсии Узбекистана. Т.:Фан. 1972.
- VI.52. Ирригация Узбекистана. II том, стр. 203. – Т.: 1975 г.
- VI.53. Yormatov I. Поq tarixi. - Т., 2005.
- VI.54. Ismoilova J. Farg‘ona vodiysida milliy ozodlik kurashlari. Т., 2003.
- VI.55. Jabborov I. Antik madaniyat va ma’naviyat hazinasini. —Toshkent: «Uzbekistan», 1999.
- VI.56. Jabborov I. O‘zbeklar. – Toshkent, Sharq. 2008.
- VI.57. Janubiy Surxon suv ombori ob’ekti tayyor!. «Lenin bayrog‘i» gazetasi, 1968 yil, 15 iyun, №118, (9555), shanba soni.
- VI.58. Kabirov J. , Sagdullaev A . O‘rta Osiyo arxeologiyasi. — Toshkent: «Ukituvchi». 1994.
- VI.59. Кабулов Э.А. Развитие хлопководства в Сурханской долине // Вопросы науки и образования. 2019 год. –№ 32 (82). Издательство Олимп (Иваново). – С. 14-23.
- VI.60. Логофет Д.Н. Страна бесправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – СПб., 1912. –С. 239.
- VI.61. Мамедов М. Ирригация Средней Азии. Москва, 1969.
- VI.62. Mamatqulov A.V. Qishloq xo‘jaligida sug‘oriladigan sho‘rxok yerlardan samarali foydalanish. -T.: «Cho‘lpon», 2007
- VI.63. Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. 5.–СПб., 1879. – С. 400.
- VI.64. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. - Т., 1994.
- VI.65. Mirzayev Q., Husanov M. Suvdan foydalanish muammolari. // «O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi», 2002. -№4
- VI.66. Murtazaeva R.H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik. –Toshkent: Universtitet, 2007.
- VI.67. Musaev N.U. O‘rta Osiyoda dehqonchilik madaniyati va agrar munosabatlar tarixidan (Tosh davri oxiridan - XX asr boshlariga qadar). – Toshkent: Fan, 2005.

- VI.68. Mustabid tuzumning O‘zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari. Loyiha rahbari va mas’ul muharrir: t.f.d. D.A.Alimova. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 430.
- VI.69. Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug‘orilish tarixi (Qadimgi davrdan – XX asr boshlarigacha). – T., 1972. – B. 376.
- VI.70. “Paxtachilikdagi dolzarb masalalar va uni rivojlantirish istiqbollari”. O‘zbekiston paxtachilik ilmiy-tadqiqot institutining 80 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ma’ruzalari.T.: O‘zFA.№-2011-11-49. 2009.
- VI.71. Muhammedov B, Soatov O. Surxondaryo melioratsiyasi. Samarqand: Sug‘diyona nashriyoti. 1998.
- VI.72. Murtazayev O., Ismoilov A.Q. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. —T.: «Mehnat», 2003
- VI.73. Nizomulmulk. Siyosatnoma. - T.: Adolat, 1997.
- VI.74. Rajabov Q. Turor Risqulovning tarjimai holi // Saodat. 1992. – №3-4, 5-6.
- VI.75. Обламуродов Н. Аграрная политика в Узбекистане. Т.: Узбекистан, 1993.
- VI.76. Qobilov E. Surxon vohasi xo‘jaligi. T.: Akademnashr, 2012.
- VI.77. Pardaev T.R. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini kimyolashtirish va uning ekologik salbiy oqibatlarini (1960-1970 yu). T.:Fan, 1996.
- VI.78. Raxmonov N. Turk xoqonligi. - T., 1993.
- VI.79. Razzoqov A. O‘zbekistonda qo‘riq yerlarni sug‘orish, o‘zlashtirish va melioratsiyalash tarixi. T.: Fan, 1984.
- VI.80. Rashidov Sh. Irrigatsiya va O‘rta Osiyo sovet respublikalaridagi sotsial o‘zgarishlar. T.1976.
- VI.81. Rafiqov A. Orol taqdiri. T:Mehnat, 1996.
- VI.82. Ризаев Г. Аграрная политика советской власти в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 1967. – С. 187.
- VI.83. Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullaev Ye.V. Qadimgi O‘zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. - T., 2001.
- VI.84. Ro‘zиеv A.N., Mirzaev Sh. P., Barotaliev U. Surxondaryo suv omborlari va agrosanoat majmuini rivojlantirish masalalari. – T.: 1997 y.
- VI.85. Ro‘zиеv A.N. Surxondaryo viloyati. –Termiz: Jayxun, 1996. – B.116.
- VI.86. Ro‘zиеv A.N., Mirzaev Sh.P., Barataliev U. Surxondaryo suv omborlari va agrosanoat majmuini rivojlantirish masalalari. Termiz: Jayxun nashriyoti, 1997.
- VI.87. Po‘zиеv A.N. Surxon-Sherobod qishloq xo‘jaligi. T.: O‘zbekiston, 1967.
- VI.88. Sagdullaev va boshkalar. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., 2000.
- VI.89. Sulaymonova F. Sharq va g‘arb. - T.: Fan, 1991.
- VI.90. Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. - T., 2001.

- VI.91. Surxondaryo tarixidan lavhalar. –Toshkent. 1991.
- VI.92. Tursunov S. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini rivojlanishining shartlari va pasayish omillari (1946-1965). T.: Fan, 1996.
- VI.93. Tarix shohidligi va saboqlari. Chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida O‘zbekiston milliy boyliklarining o‘zlashtirilishi. T.: Sharq, 2001.
- VI.94. Tojiboev O. O‘zbekiston kolxozchi dehqonlarining paxtachilikni yuksaltirish uchun kurashi (1956-1965 yillar). T.: Fan, 1973.
- VI.95. Tursunov S.N. Qobilov E.O. Pardaev T.R.Murtazaev Z.M., Surxondaryo tarix ko‘zgasida. –Toshkent: Sharq, 2001. – B. 382.
- VI.96. Tursunov S., Qobilov E., Murtazoev B., Pardaev T. Surxondaryo tarixi. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 608.
- VI.97. Tursunov S.N. Sherobodliklar. –Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2007. – B. 385.
- VI.98. Tursunov S.N., To‘xtaev A. Jarqo‘rg‘on. –Toshkent: Fan, 2008. –B. 303.
- VI.99. Tursunov S., Turdiev T. Denov. –Toshkent: Fan, 2009. – B. 501.
- VI.100. Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. –Toshkent: Akademiya nashri, 2011. –B. 551.
- VI.101. Tursunov S.N., Eshboev Q. Sho‘rchi tarixidan lavhalar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – B. 316.
- VI.102. Tursunov S., Tursunov A., Tog‘aeva M. Sherobod tarixidan lavhalar. – Toshkent: Yangi nashr, 2014. – B. 353.
- VI.103. Tursunov S., To‘xtaev A., Annaeva Z. Jarqo‘rg‘on tarixidan lavhalar. – Toshkent: Yangi nashr. 2019. – B. 320.
- VI.104. Tursunov S.N., Eshboev Q.P., To‘xtaev A.Q., Xo‘janazarov A.Z. Qumqo‘rg‘on tarixidan lavhalar. –Toshkent, 2019. –B. 352.
- VI.105. Choriev Z.U. Rivojlangan sotsializm davrida Surxon-Sherobod vohasi qo‘riq yerlarini o‘zlashtirish tarixi. –Toshkent: O‘zbekiston, 1983.
- VI.106. Shamsiddinov R. Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun. T.: Sharq, 2003.
- VI.107. Shamsutdinov R.T. O‘zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojiali oqibatlarini. Toshkent: Sharq, 2001. – B. 368.
- VI.108. Shamsuddinov R. O‘zbekiston dehqonlarining Shimoliy Kavkazga surgun qilinishi // O‘zbekiston tarixi. 2003 yil, 1-son. –B. 55-56.
- VI.109. O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolariga yangi chizgilar. Davriy to‘plam. –№2. –Toshkent: Sharq, 1999. – B. 208.
- VI.110. O‘zbekiston tarixi. Oliy o‘quv yurtlarining tarix fakulteti talabalari uchun darslik / Mas‘ul muharrir A.S.Sagdullayev. – Toshkent, 2019.
- VI.111. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 13-jildlik. T.: O‘zME, 2000-2006. O‘zbekiston tarixi. T.: Universitet, 1997.

- VI.112. O‘zbekiston tarixining eng asosiy sanalari. - T., 2006.
- VI.113. O‘zbekiston kolxoz va sovxozlari tarixi. Ocherklar. V-kitob, T.: O‘zbekiston, 1975.
- VI.114. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. T.: Sharq, 2000.
- VI.115. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. T.: Sharq, 2000.
- VI.116. G‘ulomov Ya.G‘. Xorazmning sug‘orilish tarixi. Qadimgi zamondan hozirgacha. -T., 1959. – B. 326.
- VI.117. G‘afurov A. O‘zbekistonda suv xo‘jaligi kompleksining rivojlanishi. T.: Mehnat. 1987.
- VI.118. Xudoybediev Q., Odinaev A. To‘palang suv ombori ob‘ekti bunyodkorlari. – T.: «Sharq» nashriyoti, 2006 yil.

VII. Dissertatsiya va avtoreferatlar

- VII.1. Abdullaev A.N. O‘zbekistonda paxta yakkahokimligi va uning oqibatlari (1917-1991 y.y.) .Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi.T.:2021.
- VII.2. Агзамходжаев С.С. Туркестанский мухтарият: борба за свободу и независимость (1917-1918гг.). Автореф.дис. канд. ист. наук. –Ташкент, 1996. – С. 62.
- VII.3. Bo‘riev S.D. XX asrda Surxon-Sherobod vohasining sug‘orish tarixi. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T., 2008.
- VII.4.Sa‘dullaev S. O‘zbekiston mehnatkashlarining paxtachilikni yanada yuksaltirish uchun kurashi (1959-1970 yillar. Surxondaryo oblasti misolida). Tarix fanlari nomzodligi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent. 1975. – B.194.
- VII.5. Sattorov A.U. Surxondaryo viloyat qishloq aholi manzilgohlarining rivojlanish va joylashish xususiyatlari. Geografiya fanlari nomzodlik dissertatsiya. T. 2009.
- VII.6. Хайдаров М.М. Централизаторская политика советский власти в Туркестане и ее последствие (1917-1924 гг.) Автореф.дисс. канд. ист.наук. – Ташкент,1998. –С. 31.
- VII.7. Yunusova X.E. XX asrning 80-yillarida O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va ma‘naviy hayot. Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: 2009.
- VII.8. Qarshiev Sh. Fermer xo‘jaliklarida iqtisodiy munosabatlarning takomillashtirilishi (Qashqadaryo misolida). Iqtisod fan.nom.diss. – Toshkent: Bozor islohotlari ilmiy tadqiqot instituti, 1998. – 142 b.

VII.10. Quvvatova N. Q. XX asrning 20-80 yillarida O‘zbekiston qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti (Qashqadaryo viloyati misolida) tarix. fan. nom. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T, 2010.

VIII. Vaqtli matbuot

Jurnallar.

- VIII.1. Вестник ирригации, 1925-1930 gg.
- VIII.2. Хлопковое дело, 1923-1940 gg.
- VIII.3. Советский хлопок, 1936-1938 gg.
- VIII.4. Inson va siyosat, 1991 g.
- VIII.5. “Sotsialistik” Fan va turmush SSSR fanlar akademiyasining O‘zbekiston filiali nashri. 1940-1443 yillar.
- VIII.6. “Fan va turmush”. 1972-1989 yillar.
- VIII.7. Узбекистан, 1965 g.
- VIII.8. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. 1952-1969 yillar.
- VIII.9. Partiya turmushi, 1956-1967 yillar.

Gazetalar.

- VIII.10. Правда, 1929-1943 гг.
- VIII.11. Правда Востока, 1939-1990 гг.
- VIII.12. Qizil O‘zbekiston. 1940-1960 yillar.
- VIII.13. Узбекистанская правда. 1932-1940 гг.
- VIII.14. Sovet O‘zbekistoni, 1969-1986 уу.
- VIII.15. Советский Узбекистан, 1960-1970 гг.
- VIII.16 Qishloq haqiqati, 1990-1991 уу.
- VIII.17. Комсомолес Узбекистана, 1968-1969 гг.
- VIII.18. Ilg‘or Surxon uchun, 1941-1958 уу.
- VIII.19. Lenin bayrog‘i, 1957-1990 уу.
- VIII.20. Ленинская знамя, 1943-1990 гг.
- VIII.21. Xalq so‘zi, 1996-2000 yillar.
- VIII.22. Surxon Tongi, 1991-2007 yillar.
- VIII.23. Xalq yo‘li, 1991-2007 yillar.

GLOSSARIY

ANAXITA (NOHID)	zardushtiylikda yer-suv, hosildorlik, farovonlik ilohasi.
AFRIG'IYLAR	Xorazmda 305-995-yillarda hukmronlik qilgan sulola. Afrig'iylarning poytaxti dastlab Tuproqqal'a, keyinchalik Kat shahri bo'lgan. Abu Rayxon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida afrig'iylar sulolasiga oid 21 ta xorazmshoh nomini tilgan olgan. 712-yilda Xorazmni arablar egallashga muvaffaq bo'ladilar. Xorazmda yangi din va islom madaniyati yoyila boshlaydi. Siyosiy hokimiyat arablar qo'liga o'tgan bo'lsada hudud boshqaruvida mahalliy feodal aristokratiyaning o'rni saqlanib qolgan. Afrig'iylar sulolasining oxirgi vakili Abu Abdulloh Muhammad 995-yilda Shimoliy Xorazm (Urganch) amiri Ma'mun ibn Muhammad tomonidan poytaxt Kat shahri egallangach taxtdan ag'dariladi.
AFROSIYOB	Samarqandning eng qadimgi qismi. Miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda bunyod etilgan. Afrosiyob tepaligi hozirgi Samarqandning Sharqiy chekkasida joylashgan bo'lib, uning maydoni 219 gektarni tashkil etadi. Mifologik (afsonaviy) tasavvurlardan o'sib chiqan adabiy an'ana, ya'ni Afrosiyob Turon podshohi degan tushincha tufayli Samarqandning qadimiy qo'rg'onidan tashqari Toshkentdagi Mingo'rik xarobalari, Buxorodagi Romiton qo'rg'oni va boshqa tarixiy yodgorliklar xalq orasida hozirga qadar Afrosiyob nomi bilan bog'lanadi.
ARDVISURA	zardushtiylarning daryo va suv xudosi. Avestoning yasht kitobidagi 5-bob unga bag'ishlangan ("Ardivisura-yasht").
ARAKS	Amudaryoning qadimgi nomi. Yunon tarixchilari (Gerodot) asarlarida Amudaryo shunday nomlangan.
AVESTO	o'rta fors tilidan "apastak" ya'ni "asos" deb tarjima qilinadi. O'rta Osiyoning ajralmas qismi hisoblangan Turonzamin hududlarida shakllangan qadimiy din – zardushtiylikning muqaddas kitobi. Unda o'zbek, tojik, turkman, ozarbayjon, fors, afg'on va boshqa xalqlarning ibtidoiy va qadimiy axloqiy tasavvurlari, koinot va yerdagi dunyoning yaratilishi bilan bog'liq tushunchalar, afsona va rivoyatlar, falsafiy-axloqiy qarashlar o'z ifodasini topgan. Fanda zardushtiylik va uning muqaddas kitobi Avesto paydo bo'lgan hududni Midiya deb hisoblovchi "G'arbiy" nazariya va bu ta'limotning beshigi Baqtriya, Sug'diyona, Farg'ona deb tasdiqlovchi "Sharqiy" nazariya mavjud. Zardushtiylikni Xorazm bilan bog'lovchi nazariyaning ilmiy adabiyotda juda ko'p tarafdorlari bor. Avestoda zardushtiylarning muqaddas olovi – "azarxurra" birinchi marta yoqilgan, hamda Axuramazda Zardushtga namoyon bo'lgan mamlakat sifatida "Aryonam vayjo" eslatiladi. Avestoda keltirilgan geografik-iqlimiy sharoitlar ko'proq Xorazmga mos keladi. Avestoda Axuramazda tomonidan yaratilgan mamlakatlar sanab o'tilgan. Birinchi o'rinda "Aryonam-vayjo" (Xorazm) tilga olinib,

	<p>“go“zallikda u bilan dunyoda hech narsa tenglasha olmaydi” deyiladi. Keyin “odamlarga va chorvaga boy Gava (Sug“d)”, “Qudratli va muqaddas Mouru (Marg“iyona)”, “Bayroqlari baland ko“tarilgan mamlakat Bahdi (Baqtriya)” ta“riflanadi. Yuqoridagi ma“lumotlarga asoslanib Avesto Vatani O“rta Osiyo ekanligi haqida xulosa chiqarishimiz mumkin.</p> <p>Avesto dastlab 21 kitobdan iborat bo“lgan. Bizgacha uning ayrim qismlarigina saqlanib qolgan. Bu qadimgi qismlar Yasna, Visparat, Yasht va Videvdat deb nomlanadi.</p>
MILODIY YIL HISOBI	<p>- Jahon xalqlari o“tmish tarixdagi voqea-hodisalarni Ma‘lum tartib, ketma-ketlikda bayon etishga ehtiyoj sezib, o“zlarining yil hisoblarini – kalendarlarini yaratishgan. Qadimgi misrda, mesopotamiya xalqlarida, hindlarda, Xitoyliklarda, yunonlarda va qadimgi rimliklarda o“ziga xos yil hisobi (kalendar) amal qilgan. Jumladan, musulmon dunyosida bugunga qadar amal qilib kelinayotgan Hijriy yil hisobi mavjud. O“rta osiyo xalqlari ham movarounnahrda islom dini va Islom madaniyati kirib kelishi bilan bir vaqtda hijriy yil hisobidan foydalana boshlaganlar. Vatanimiz tarixining arab istilosidan to XX asr boshlarigacha bo“lgan Tarixiy voqealari o“rta asr qo“lyozmalari va boshqa yozma manbalarda hijriy yil hisobi bilan yoritib kelingan.</p> <p>Turkistonda Rossiya imperiyasi va keyinchalik sovetlar hokimiyati o“rnatilgach, O“rta osiyoda ham yevropada amalda bo“lgan milodiy yil hisobi joriy qilindi va bu hozirgacha amalda bo“lib kelmoqda. Milodiy yil hisobi xristian (nasroniylik) dinining Payg‘ambari iso alayhissalom (iesus xristos)ning tavallud topgan yilidan boshlanadi. “Milod” so“zi arabchadan “tug‘ilmoq” degan ma“noni anglatadi. Aniqroq qilib aytadigan bo“lsak, masalan: hozirgi 2015-yil bu iso payg‘ambarning yoshi. Iso Payg‘ambar tug‘ilganidan keyin sodir bo“lgan voqealar milodiy (eramiz), iso Payg‘ambar tug‘ilishidan oldin bo“lib o“tgan voqealar esa miloddan avvalgi (eramizdan avvalgi) deb yuritiladi.</p>
BANDAR	port; kema to“xtaydigan joy.
BANTAK	ilk o“rta asrlarda erkak qullar toifasi.
BAQTRIYA	geografik hudud. Qadimgi Baqtriyaga hozirgi Janubiy O“zbekiston (Surxondaryo), Janubiy-G“arbiy Tojikiston va Shimoliy Afg“oniston yerlari kirgan. Ilk o“rta asrlar davriga kelib qadimgi Baqtriya yerlarida ko“chmanchi turkiy qabila – toxarlar kelib joylashishi munosabati bilan Tohariston deb yuritilgan.
BIRINCHI YIRIK MEHNAT TAQSIMOTI	<p>- Dehqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqishi. Mezolit-neolit davridan boshlab insoniyat ishlab chiqaruvchi xo“jalik shakliga o“ta boshlaydi. Eneolit va bronza davriga kelib mehnat qurollarining takomillashuvi va yerga ishlov berish usullarining mukammallashuvi natijasida ortiqcha mahsulot paydo bo“ladi. Bu hol birinchi ijtimoiy mehnat taqsimotini yuzaga keltiradi.</p>

BRONZA DAVRI	- mehnat qurollari asosan mis bilan qalayning aralashmasi – bronzadan yasalgani uchun shunday nom berilgan. Miloddan avvalgi 3-2-ming yilliklarni o‘z ichiga oladi.
ENEOLIT	- (lotincha “aeneus” – mis, yunoncha “litos” – tosh) – mis-tosh davri. Mehnat qurollari ishlab chiqarishda birinchi marta mis ma’dani qo‘llanila boshlangani uchun shunday nom berilgan. Eneolit davri 4-3-ming yilliklarni o‘z ichiga oladi.
HUDUDIY QO‘SHNICHILIK JAMOASI	xo‘jalikning ilg‘or shakllariga o‘tilishi, ortiqcha mahsulotning paydo bo‘lishi va mehnat taqsimotining yuzaga kelishi oqibatida jamiyatda mulkiy tengsizlik paydo bo‘lgach urug‘chilik jamoasi o‘rnida vujudga kelgan jamoa. Hududiy qo‘shnichilik jamoasining belgilaridan biri shuki, unda aholi bir necha guruhlarga (zodagonlar, harbiylar, zaroatchilar, chorvadorlar, hunarmandlar) bo‘linib ketadi va o‘zlariga xos hayot tarziga ega bo‘ladilar.
IKKINCHI YIRIK MEHNAT TAQSIMOTI	dehqonchilik va chorvachilikdan hunarmandchilikning ajralib chiqishi. Bu jarayon asosan eneolit bronza davrlarida sodir o‘lgan
ISHLAB CHIQUARUVCHI XO‘JALIK	insoniyatning tabiatdagi tayyor mahsulotlardan foydalanib qolmasdan balki, xo‘jalik va hayot uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat, xom ashyo va mehnat qurollarini bevosita o‘zlari tomonidan yaratishga o‘tilgan xo‘jalik shakli. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik ishlab chiqaruvchi xo‘jalik turlaridir. Insoniyat ishlab chiqaruvchi xo‘jalik shakliga asosan mezolit-neolit davridan o‘ta boshlagan.
NEOLIT	(yunoncha “neo” yangi, “litos” tosh) – yangi tosh davri. 6-4-ming yilliklarni o‘z ichiga oladi. Neolit davriga kelib insoniyat dehqonchilik, chorvachilik, kulolchilik, to‘qimachilik va boshqa hunarmandchilik sohalarini o‘rgandi. Insoniyat tarixida ishlab chiqaruvchi xo‘jalik tarixi boshlandi. Bu davrda O‘rta Osiyoning janubiy mintaqalarida ilk dehqonchilik madaniyati (Joytun madaniyati), shimoliy mintaqalarida esa ovchi baliqchilar madaniyati (Kaltaminor) shakllandi.
ORIYLAR (ARIYLAR).	Oriy so‘zi “erkin” degan ma’noda tarjima qilinadi. Avestoga ko‘ra, ariylar ijtimoiy hayotda jamoaning erkin, ozod, jangovar mulkdorlar tabaqasi bo‘lib, mana shu tabaqa va uning oila a‘zolari o‘z urug‘-aymoqlaridan farqli o‘laroq “ozodlar” ya’ni “oriylar” deb yuritilgan. Ular yashagan yurt oriylar vatani, oriylar kengligi, ya’ni “Aryanam Vaychah” deb nomlangan. Oriylar Markaziy Osiyo chorvador qabilalarining iqtisodiy yuksalishidagi ko‘chmanchilik hayot bosqichining ijtimoiy mahsuli, ularning tashabbuskor va ishbilarmon qatlami, endi shakllanib kelyotgan sinfiy jamiyatning aslzodalar tabaqasi edi. Tarixiy tilshunoslik va arxeologik tadqiqotlarga ko‘ra, ular kelib chiqishi jihatidan eroniy til sohiblari bo‘lmay, balki turkiyda so‘zlashganlar. Miloddan avvalgi II ming yillikning o‘rtalarida Yevroosiyo cho‘llarining oriylari o‘z chorvalariga yangi yaylovlar qidirib, janubga tomon, nafaqat O‘rta Osiyoning ichki rayonlariga, hatto Eron va Hindistongacha kirib boradilar. Chorvador oriylarning shimoliy mintaqalardan kelib Eron adirlariga o‘rnashib qolgan joylar Avestoda “Ariana” nomini olgan. Demak, Eron Ariana so‘zining yangi shaklidir. Avesto va “Rigveda”ga ko‘ra, dastlab oriylar Eron va Hindistonga kelganda mahalliy aholiga nisbatan “begona”, “kelgindi”,

	<p>“bosqinchi” maʼnosini anglatgan. Keyinchalik esa “xoʻjayin”, “aslzoda” maʼnosini kasb etgan. Ahmoniy podsholari Kir II va Doro I lar qoyatoshlarga bitilgan yozuvlarida oʻzlarini “haqiqiy oriy” ekanliklarini alohida taʼkidlab koʻrsatadilar. “Oriy” atamasi dastlab ijtimoiy maʼnoda qoʻllanilgan, keyinroq esa ular mahaliy aholi bilan qorishib ketgach, bu soʻz yangi etnik maʼno va mazmun kasb etdi, ulardan son jihatdan bir necha marta koʻp boʻlgan Eronning mahaliy aholisi til muhiti taʼsirida oriylar asta-sekin oʻz tillarini yoʻqotib, eroniy lashib ketadilar.</p>
SAKLAR	<p>Oʻrta Osiyoning togʻlik, choʻl va sahro yerlarida istiqomat qilgan koʻchmanchi chorvador qabilalar. Ahmoniy podsholarining qoyatoshlarga yozilgan bitiklarda Oʻrta Osiyoning koʻchmanchi chorvador aholisi shunday nom bilan yuritilgan. Qadimgi yunon va rim tarixchilarining yozishlaricha, saklar uch ijtimoiy guruhga boʻlingan. Ularning koʻpchilik qismi “saka-tigraxauda”, yaʼni oʻtkir uchli kigiz qalpoq kiyib yuruvchi saklar deb atalgan. Ular hozirgi Toshkent viloyati va Janubiy Qozogʻiston yerlarida yashaganlar. Saklarning ikkinchi guruhi “saka tiay-tara-darayya”, yaʼni daryoning narigi tomonida yashovchi saklar deb atalgan. Ular Orol dengizi boʻylarida, Sirdaryo (Yaksart)ning quyi oqimida yashaganlar. Pomirning togʻli tumanlarida va Fargʻonada “saka-xaumovarka” deb ataluvchi saklar yashagan</p>
SART	<p>Oʻrta asrlardan to oʻtgan asrning oʻrtalariga qadar jonli tilda va adabiyotlarda keng ishlatilgan tarixiy tushuncha. Ushbu atama turli davrda turli maʼnolarda qoʻllanilgan:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1) VI asrlarda turklar Oʻrta Osiyoni bosib olgach, shaharlarda istiqomat qilayotgan fors-tojik tilida gaplashuvchi aholini sart deb atashgan. 2) XII-XIII asrlarda moʻgʻullar oʻz yurtlariga kelgan asosan musulmon savdogarlarini sart deb atashgan. 3) XVI asrda Dashti Qipchoqdan kelib, Temuriylar davlatini egallagan koʻchmanchi oʻzbeklar mahalliy shahar va oʻtroq aholini sart deb atagan. <p>Sart atamasi etnik nom emas. Bu haqda fanda turli qarashlar mavjud. Uning muayyan bir etnosga tegishli ekanligi maʼlum emas. V.V. Bartoldning fikricha, “sart atamasi tojik maʼnosini beradi. Ammo u kelib chiqishi jihatdan turkiylashgan sugʻdiylar boʻlib, tojik va oʻzbeklarga tegishli muqim yashovchi, savdo-sotiq va hunarmandchilik ahlining yigʻindi nomi ekanligi tarixiy haqiqatdir. Oʻrta Osiyodan Sharqiy oʻlkalarga savdo karvoni bilan borgan savdogarlar kelib chiqishi qaysi etnosga tegishli boʻlishidan qatʼiy nazar, ular sartlar deb atalgan”.</p> <p>Mahmud Qoshgʻariyning “Devoni lugʻatit turk” asarida sart qadimgi turkchada savdogar maʼnosida berilgan. Dastlab sartlar forsiy va turkiyda soʻzlashgan boʻlsalar, XVI-XVII asrlardan ular faqat turkiyda, eski oʻzbek tilida soʻzlasha boshlaganlar. Endi bu atama koʻproq Fargʻona vodiysi, Toshkent vohasi va Xorazmda turgʻun yashovchi oʻzbeklarga nisbatan qoʻllaniladigan boʻldi.</p> <p>Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olgach, rus olimlari va tadqiqotchilarining asarlarida ham Turkistonning oʻtroq aholisini shu nom bilan yuritishgan.</p>
SIVILIZATSIYA	<p>(lotincha “civilis” – fuqaro jamiyati, harbiylarsiz va cherkovsiz hayot) – jamiyat erishgan moddiy va maʼnaviy taraqqiyot darajasi. Faqat insonga xos sunʼiy olamni moddiy va maʼnaviy jihatdan takomillashuvdagi muvaffaqiyatlari koʻrsatkichi. Insoniyat jamiyatining hayvonot</p>

	<p>olamidan asosiy farqi shundan iboratki, inson o‘z mehnat faoliyati, aql va zakovati bilan yaratgan sun‘iy dunyoda yashaydi.</p> <p>Tabiatda uy-joy, non, mashina, kitob va shu kabi moddiy va ma‘naviy ne‘matlar tayyor holda uchramaydi, ularni tabiat yaratmaydi. Ularni odam o‘z mehnati va aql-zakovati bilan vujudga keltiradi. Jamiyatning taraqqiyot darajasi ana shu sun‘iy narsalarning soni va sifati bilan belgilanadi. Tarix fani shu ma‘noda sivilizatsiya – tarixiy taraqqiyotni o‘rganuvchi fandır.</p> <p>Insoniyat tarixi doimo bir tekisda rivojlanmagan. Tarixda yuz bergan davriy madaniy yuksakliklar sivilizatsiyalar tarixini tashkil etgan. Taniqli olim, akademik A.Asqarov kishilik tarixi o‘z taraqqiyot yo‘lida 5 marta sivilizatsion yuksalishlarni boshidan kechirdi deb, ularni quyidagicha ko‘rsatadi: Birinchi sivilizatsiya dastlab, miloddan avvalgi 3-ming yillikda Yefrat va Dajla, Nil va Hind daryolari havzalarida yuz berdi. Shuning uchun u tarixga “Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi” nomi bilan kirdi. Uning ta‘sir doirasi miloddan avvalgi 3-ming yillikning oxirlarida Xurosonga va 2-ming yillik boshlarida esa Movarounnahrda yoyildi. Ikkinchi jahon sivilizatsiyasi miloddan avvalgi 1-ming yillikning o‘rtalarida Gretsiya va Rimda yuz berdi. U tarixda “Antik davr sivilizatsiyasi” nomi ostida ma‘lum. Uning ta‘sir doirasi makedoniyalik Iskandarning qadimgi Sharqqa tomon harbiy yurishlaridan so‘ng O‘rta Osiyoga kirib keldi va u “Osiyo-Yevropa ellinizm sivilizatsiyasi”ning shakllanishiga olib keldi. Uchinchi sivilizatsiya o‘chog‘i Movarounnahr va Xuroson bo‘lib, ushbu hududlarida milodiy IX-XIII asr boshlarida yuz berdi va uning ta‘sirida Yevropa uyg‘ondi. To‘rtinchi sivilizatsiya XIV-XV asrlarda Yevropa va Osiyoda yuz bergan uyg‘onish davri bilan bog‘liq va nihoyat beshinchi sivilizatsiya jamiyat rivojlanishining barcha jabhalarini qamrab olgan XX asr sivilizatsiyasidir. Sivilizatsiyalar oraliqida notekis rivojlanishlar, uzoq yillar davom etgan turg‘unliklar va tez-tez davriy inqirozlar yuz berib turgan.</p>
<p>TURKISTON</p>	<p>tom ma‘noda turkiy xalqlarning tarixan tarkib topgan va keng yoyilgan tarixiy-geografik hududi. Ba‘zi olimlar Turkistonni Turonning islomiy vorisi deb hisoblaydilar. 639-yilda Turfonda tuzilgan sug‘d hujjatida O‘rta Osiyo mintaqasining nomi sifatida ilk bor ishlatilgan. “Turkiston” atamasi “O‘rta Osiyo” va “Movarounnahr” nomlaridan farqli ravishda nafaqat geografik, balki etno-geografik tushunchani anglatib, shuningdek, siyosiy-huquqiy mazmunga ham ega. VIII asrdagi arablar istilosidan so‘ng Turkiston atamasi o‘zining siyosiy-huquqiy ma‘nosini yo‘qotmagan.</p> <p>Turkistonning sarhadlari tarixiy-an‘anaviy jihatdan keng ma‘noda quyidagi qismlardan iborat:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1) Markaziy Turkiston (hozirgi O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, qisman Tojikiston); 2) Sharqiy Turkiston (Ichki Mo‘g‘uliston, Xitoyning Sintszyan-Uyg‘ur Muxtor viloyati, Qoraqurum); 3) Janubiy Turkiston (Tog‘li Badahshon, Ko‘ksuv, Shimoliy Hindistonning Jammu-Kashmir viloyatlari, Shimoliy-Sharqiy Afg‘oniston); 4) G‘arbiy Turkiston (Eronning shimoli, qisman Kavkaz, Xazar-Kaspiy havzasi); 5) Shimoliy Turkiston (Shimoliy Qozog‘iston, Ural-Volgabo‘yi, Ob, Yenisey, Lena daryolari havzasi va Sibir).

	Tor maʼnoda Turkiston deb asosan, Markaziy Turkiston tushuniladi.
TURON	<p>(forscha “turon” – turkiylar degan maʼnoni anglatadi) – turkiy xalqlar yashaydigan hududlarni bildiruvchi ijtimoiy, tarixiy-etnik atama. “Turon” atamasi bundan 3000-2500-yillar muqaddam qoʻllanila boshlangan. Avestoda chorvachilik bilan shugʻullanuvchi qabilalar “turlar” deb, turlar yurti esa “Turon” deb atalgan. “Turon” atamasi yonida, u bilan birga, uning maʼnodoshlari sifatida “Turk yurt”, “Turk eli”, VII asrdan boshlab esa “Turkiston” atamali yozma bitiklarda uchraydi. Turon turkiy xalqlarning jahoniy hamda ijtimoiy-etnik birligini ifodalovchi asosiy tushuncha va nom sifatida XX asrgacha yetib kelgan.</p> <p>Turonni geografik-tarixiy taʼriflaganda, uning hududlari Tinch okeanidan Oʻrta yer dengizidagi Egey-Adriatikagacha, Shimoliy Muz okeanidan Tibet, Ximolay togʻlarigacha, Shimoliy Hindistondan Anadoli (hozirgi Turkiya) gacha boʻlgan hududlarni, mazkur hududda yashovchi turkiy xalqlar Vatanini bildiradi.</p>
URUGʻ JAMOASI	birgalikda yashagan va hamkorlikda mehnat qilgan, umumiy mehnat qurollari va qurol-yaroqqa ega boʻlgan qon-qarindoshlar jamoasi. Urugʻ jamoasi soʻngi paleolit davriga kelib (miloddan avvalgi 40-35-ming yilliklarda) paydo boʻlgan.
OʻZLASHTIRUVCHI XOʻJALIK	tabiat inʼom etgan narsalardan foydalanib hayot kechirish. Kishilarning eng qadimgi mashgʻuloti boʻlgan termachilik va ovchilik oʻzlashtiruvchi xoʻjalik deb yuritiladi. Oʻzlashtiruvchi xoʻjalik tarzi odam paydo boʻlganidan to mezolit-neolit davriga qadar davom etgan.
CHOPPER	ibtidoiy odamlarning tosh qurollari. Ular qoʻpol daryo toshlari boʻlib, bir tomoni oʻtkirlashtirilgan boʻladi.
SKIFLAR	qadimgi yunon tarixchilari Oʻrta Osiyo va Dashti Qipchoqda yashovchi saklarni skiflar deb atashgan. Tarixchi Gerodotning yozishicha, saklar skiflarning oʻzginasi boʻlib, “forslar barcha skiflarni saklar deb ataganlar”. Saklarni sugʻdiylardan Sirdaryo ajratib turgan. Massagetlar, derbiklar, osiylar, daxlar, pasianlar, toxarlar, usunlar, sakaravakalar va yana boshqa nomlarda ataluvchi qabilalarning barchasi sak-skif qabilalari ittifoqiga kirgan Oʻrta Osiyoning qadimgi aholisidir.

MUNDARIJA

Kirish	3
1-mavzu: O‘zbekistonda dehqonchilik madaniyatining shakllanishi	6
1.1-§. Qadimgi dehqonchilik madaniyatining shakllanishida suv va suv inshootlarining tarxiiy o‘rni	6
1.2-§. Qadimgi Sharq, jumladan O‘rta Osiyoda dehqonchilik madaniyatining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari	11
1.3-§. O‘zbekistonda dastlabki irrigatsiya tarmog‘larining vujudga kelishi	39
1.4-§. O‘zbekistondagi eng qadimgi sug‘orma dehqonchilik hududlari	54
2-mavzu. Qadimgi davlat birlashmalarining shakllanishida yer va suv munosabatlari	61
2.1-§. Qadimgi Baqtriyada yer va suv munosabatlari.....	61
2.2-§. Qadimgi Xorazm va So‘g‘diyonda yer va suv munosabatlari	72
2.3-§. Ahamoniylar hukmronligi davrida yer va suv munosabatlari	75
2.4-§. Yunon-makedonlar hukmronligi davrida yer va suv munosabatlari	86
2.5-§. Qang‘ davlatida yer va suv munosabatlari	90
2.6-§. Davan davlatida yer va suv munosabatlari	94
2.7-§. Kushon davlatida yer va suv munosabatlari	96
3-mavzu. Ilk o‘rta asrlarda yer-suv munosabatlari	101
3.1-§. O‘zbekiston hududida ilk o‘rta asrlar davrining o‘ziga xos xususiyatlari... ..	101
3.2-§. Ilk o‘rta asrlarda dehqonchilik vohalarining kengayishi.....	103
3.3-§. O‘zbekiston hududida ilk o‘rta asr davlatlarida yer-suv munosabatlari	107
4-mavzu. O‘rta asrlarda O‘zbekistonda yer - suv munosabatlari (IX-XIII asrlar)	113
4.1-§. Tohiriylar davrida yer-suv munosabatlari	113
4.2-§. Somoniylar davrida yer-suv munosabatlari	115
4.3-§. Qoroxoniylar davrida yer va suv munosabatlari.....	119
4.4-§. Xorazmshohlar davrida yer va suv munosabatlari	123
5-mavzu. Chig‘atoy ulusi davrida yer-suv munosabatlari	151
5.1-§. Movarounnahrning mo‘g‘ullar tomonidan istilo etilishi oqibatlarini	151
5.2-§. Chig‘atoy ulusida ijtimoiy siyosiy vaziyat	153
5.3-§. Chig‘atoy ulusi davrida Movarounnahrning xo‘jalik hayoti va yersuv munosabatlari.....	155
6-mavzu. Amir Temur va temuriylar davrida yer-suv munosabatlari	163
6.1-§. Amir Temur davlatining vujudga kelishi va siyosiy tarixi	163
6.2-§. Sohibqiron va uning avlodlari tomonidan yirik sug‘orish inshootlarining barpo etilishi.....	170
6.3-§. Amir Temur va avlodlari davrida yer egaligi turlari.....	174
7-mavzu. Shayboniylar hukmronligi davrida Buxoro xonligida yer - suv munosabatlari	184
7.1-§. Movarounnahrda Shayboniylar sulolasi hukmronligining o‘rnatilishi va	

mazkur sulola hukmronligining siyosiy tarixi	184
7.2-§. Shayboniylar davrida yer-suv munosabatlari	187
8-mavzu. Ashtarxoniylar hukmronligi davrida Buxoro xonligida yer - suv munosabatlari.	197
8.1-§. Ashtarxoniylar sulolasi davrida Buxoro xonligining siyosiy hayoti	197
8.2-§. Ashtarxoniylar davrida yer-suv munosabatlari	199
9-mavzu. Mang‘itlar sulolasi hukmronligi davrida Buxoro amirligida yer-suv munosabatlari	207
9.1-§. Buxoro amirligining siyosiy hayoti	207
9.2-§. Buxoro amirligida yer – suv munosabatlari	215
10-mavzu. Xiva xonligida yer - suv munosabatlari	223
10.1-§. Xiva xonligining siyosiy hayoti	223
10.2-§. Xiva xonligida yer egali tizimi	237
10.3-§. Xiva xonligida soliq va majburiyatlar	239
10.4-§. Xiva xonligida irrigatsiya tizimi.....	242
11-mavzu. Qo‘qon xonligida yer - suv munosabatlari.	255
11.1-§. Qo‘qon xonligining siyosiy tarixi	255
11.2-§. Qo‘qon xonligining ijtimoiy ahvoli	268
11.3-§. Qo‘qon xonligida yer-suv munosabatlari.....	271
12-mavzu. O‘rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilishi va yer-suv munosabatlarining mustamlakachilikka moslashtirilishi	280
12.1-§. Podsho Rossiyasining o‘lkada mustamlakachilik siyosatini asosiy xususiyatlari	280
12.2-§. Podsho Rossiyasining o‘lkada yer egaligi to‘g‘risidagi siyosati.	289
12.3-§. 1886 yil Nizomining agrar bandlari va uning mustamlakachilik mohiyati.	298
12.4-§. Mustamlaka davrida o‘lkada sug‘orish tarmoqlarining ahvoli.....	303
13-mavzu. 1917-1941-qillarda O‘zbekistonda yer-suv munosabatlari	321
13.1-§. Turkistonda mustabit sovet hokimiyatining o‘rnatilishi	321
13.2-§. Turkistonda sovet hokimiyatining dastlabki iqtisodiy o‘zgartirishlari	333
13.3-§. Sovet hokimiyati hukmronligining dastlabki yillarida o‘lkada sug‘orish tarmoqlarining ahvoli	336
13.4-§. Sovet tuzumi davrida vaqf erlarining tugatilishi va uning oqibatlari.....	340
13.5-§. O‘zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv islohatlarining bosqichlari, amalga oshirilishi va bu islohatning salbiy oqibatlari.....	354
13.6-§. Sovet hokimiyati tomonidan quloqlashtirish siyosatining amalga oshirilishi va uning salbiy oqibatlari.....	364
14-mavzu. 1941-1991-qillarda O‘zbekistonda yer-suv munosabatlari.	379
14.1-§. Ikkinchi jahon yillarida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining qayta qurilishi.....	379

14.2-§. XX asrning 60-80 yillarida qishloq xo'jalining ahvoli	387
14.3-§. O'zbekistonda paxta yakkahokimligining qaror topishi va uning salbiy oqibatlarini.....	392
14.4-§. Irrigatsiya-melioratsiya qurilishi va yangi yerlarning o'zlashtirilishi.....	401
14.5-§. O'zbekistonda ekalogik holatning buzilishi, uning sabablari va oqibatlarini.....	411
14.6-§. XX asrning 80-yillarida O'zbekiston qishloq xo'jaligida salbiy holatlarning kuchayishi	419
15-mavzu. O'zbekistonda mustaqillik yillarida yer-suv munosabatlari	429
15.1-§. Qishloq xo'jaligining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati.....	429
15.2-§. Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan agrar iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishiari	431
15.3-§. Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslari, ulardan samarali foydalanish yo'llari.....	464
Xulosa.....	488
Glossariy.....	491
Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati.....	491
Ilovalar.....	503

**NAZIROV BAXTIYOR SAFAROVICH
YAQUBOVA DILOROM TADJIYEVNA**

**O‘ZBEKISTONDA YER-SUV MUNOSABATLARI
TARIXI**
(qadimgi davrdan hozirgi kunga qadar)
(darslik)

“Bekshox print servis” nashriyoti
Termiz – 2023

Bosh muharrir: S.N.Tursunov
Muharrir: B.S.Nazirov
Sahifalovchi: B.S.Nazirov

Nashriyot litsenziyasi № 013751
Bosishga 27.03.2023 yilda ruxsat etildi.
Qog‘oz bichimi 84x108^{1/32} . Ofset qog‘ozi.
Times New Roman garniturasida offset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 5,5 Adadi 100.
Shartnoma 22-28

“Bekshox print servis” nashriyoti.
Manzil: Termiz shahri “Navbog‘” ko‘chasi, 20-uy.
Tel: (+99891) 972-77-03